


Nargiza ERKABOYEVA

# ADABIYOT FANIDAN SAVOL-JAVOBLAR TO'PLAMI

(5 MING SAVOLGA 5 MING JAVOB)

*To'ldirilgan qayta nashr*

Toshkent  
«Akademnashr»  
2013



UO'K: 811.512.133(076.1)

KBK 81.2(O'zb)

E78

Y. S. nnnnn

E78 Erkaboyeva, Nargiza

Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami / N. Erkaboyeva. To'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 896 b.

UO'K: 811.512.133(076.1)

ISBN 978-9943-4118-0-7

KBK 81.2(O'zb)

*Maktab va litsey o'quvchilari, abiturientlar hamda keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan qo'llanma.*

Tuzuvchi:

Nargiza Erkaboyeva, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Sayfiddin Raf'iddinov, filologiya fanlari nomzodi,

Akram Dehqonov, filologiya fanlari nomzodi,

Durdona Ibragimova, TDTU qoshidagi 5-soni  
akademik litsey o'qituvchisi,

Xursanoy Umurzoqova, 1-Toshkent pedagogika  
kolleji o'qituvchisi,

Nargiza Mirhabibova, Hamza tumanidagi  
155-maktab o'qituvchisi

© N.Q.Erkaboyeva  
savol-javoblar to'plami»  
«Akademnashr», 2013

ISBN 978-9943-4118-0-7

Alişer Navoiy

nomidaç

O'zbekiston MK

2013/94

A  
7135

## XALQ DOSTONLARI

### «RAVSHAN» DOSTONI

1. Avazning laqabi nima bo'lgan?

J: **Bol Avaz – asalday shirin Avaz**

2. Avazxonga qaysi parini olib berishadi? J: **Gulqizni**

3. Avazxonni kim tarbiya qilgan? J: **Og'a Yunus pari**

4. Aynoq kal qanday edi? J: **Polvon**

5. Go'ro'g'libek qaysi yurtda yashar edi?

J: **Yovmit elida**

6. Go'ro'g'libek Ravshanxonga Gulanorni olib bermoqchi ekanligini kimlarga aytadi? J: **Parilarga**

7. Go'ro'g'lidan keyin Gulanorga kim sovchilikka bora-di? J: **Og'a Yunus pari**

8. Zulxumor necha zinalik ko'shk ustida o'tirgan edi?

J: **40 zinalik**

9. Zulxumor nima uchun Ravshanxonni qabul qiladi?

J: Uzuk ko'zidagi yozuvni taqdirning bir bitigi deb bilganidan va yiglti yoqtirib qolgani uchun

10. Zulxumor Ravshanxonidan qanday xabar olib tura-di? J: **Qizlar orqali yashirinchha zindonga lahm kavlab**

11. Zulxumor Ravshanxonning kimligini va qayerdan ekanligini bilib kelish uchun kimni jo'natadi? J: **Oqqizni**

12. Zulxumorga nisbatan qanday jazo tayinlanadi?

J: **Bir hovliga qamab tashlashadi**

13. Zulxumorning jamoli jilvasiga qaysi qushlar chidamay, baland quyillib kelib, egniga, kiftiga tegib-legib uchar edi? J: **Musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, simcha**

14. Zulxumorning nechta kokili bor edi?
- J: Bu yog'ida to'qson besh, u yog'ida to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili bor edi
15. Kallardan qaysi biri masxaraboz edi? J: Jaynoq
16. Kallardan qaysi biri mergan edi? J: Ersak
17. Kallardan qaysi biri sinchi edi? J: Tersak
18. Kampir Ravshanxonni qutqarishni kimdan so'radi?
- J: Katta o'g'lining polvonı Aynoq kaldan
19. Kim yo'lda horib kelgan G'irko'kni tanimay, uni Ishrat devonaning otidan ham yomon deb ta'riflaydi?
- J: Aynoq
20. Mayna birinchi bo'llib kimning qo'liga qo'nadi?
- J: Dallining
21. Nashavand Ravshanxonga qalpoq bozoriga qaysi bozorlardan o'tib borish kerakligini aytadi?
- J: Un bozori, jun bozori, to'n bozori, pichoq bilan qin bozori, keyln qalpoq bozori
22. Nima uchun Hasanxon Ravshanxonni Shirvon yurtiga jo'natgisi kelmaydi?
- J: Shirvanning eli 3 oylik yo'l bo'lgani, ikki ora suvsiz cho'l va dushmanlar yurti bo'lgani uchun
23. Podshoh dastlab Ravshanxonga qanday jazo tayinlaydi? J: Osishni
24. Ravshanbek qaysi otni minib Zulxumorning yurtiga jo'nhaydi? J: Jlyronqushni
25. Ravshanxon Zulxumoming bog'ida qayerga yashirinadi? J: Gulning Ichiga
26. Ravshanxon kimni ko'rgandan keyin yig'lab yuboradi? J: Hasanxonni

**27. Ravshanxon Oqqizga nima berib yuboradi?**

**J: Sehrli uzukni**

**28. Ravshanxon ona-bola tutingan kampirning nechta o'g'li o'lib ketgandi? J: Oltita**

**29. Ravshanxon Shirvon elida qalpoq bozori qayerdaligini so'rab, baqirib borayotganida kimga duch kela-di? J: Bir nashavandga**

**30. Ravshanxon bilan Zulkumorning bog'da ekanligini Qoraxonga kim aytadi?**

**J: Oqqiz onasiga, onasi Qoraxonga**

**31. Ravshanxонни dorga osishga olib borganda kimlar yig'lab keladi? J: Zulkumor va kampir enasi**

**32. Ravshanxонни dorga osishga olib kelishganda kim-lar unga shoh farmonini yetkazishadi?**

**J: Ikki hudaychi, salom og'asi**

**33. Ravshanxонни otasi Hasanxon qayerda ko'rib qoladi? J: Darvozabon o'rtoq'l bilan gaplashib o'tirganda**

**34. Ravshanxonning eng so'nggi tilagi nima bo'ldi?**

**J: Bog'langan ko'zlarimni yechsalar, yorug' dun-yoni bir ko'rsam**

**35. Salom og'asi qanday amaldor?**

**J: Saroydagi qabul tartibini nazorat qiluvchi amal-dor**

**36. Ushbu gaplarni qaysi qahramon aytgan: «Men o'immasam, a'z elimdan kechmayman! Aziz boshim oya-g'ingga teng emas»? J: Ravshanxon**

**37. Ushbu nasihatni kim aytgan: «Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ol, Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ol»?**

**J: Hasanxon Ravshanxonga**

38. Xabar yetib borganida muhlatning necha kuni a'lgan edi? J: **20 kuni**
39. Changib yotgan qaysi bozor? J: **Un bozori**
40. Hasanxon qaysi otni minib Shirvon eliga jo'naydi? J: **G'irko'kni**
41. Hasanxon kimni Shirvon eliga shoh qilib ko'taradi? J: **Aynoqni**
42. Hasanxonga kimni olib beradi? J: **Arzirumdan Xon Dallini**
43. Hasanxonga xabarni nima orqali jo'natishadi? J: **Mayna qush orqall**
44. Hasanxonni kim tarbiya qilgan? J: **Misqol pari**
45. Hudaychi qanday amaldor bo'lgan? J: **Arzgo'y bilan hukmdor o'tasida turadigan mansabдор**
46. O'zbeklar orasida tarqalgan «Go'ro'g'li» dostonlarning soni nechta? J: **100 dan ortiq**
47. Ergash shoir «Ravshan» dostonini kimdan o'rganadi? J: **Otası Jumanbulbuldan, u esa ustozı Kichik bo'rondan**
48. Qoraxon Ravshanxonga necha kun nima uchun muhlat beradi? J: **40 kun ichida o'ylab ko'rib, o'zlarining diniga o'tsa, kuyov qilishni**
49. Qoraxonni kim tutib olib o'ldiradi? J: **Hasanxon**
50. Qo'qib yotgan bozor qaysi? J: **Jun bozori**
51. «Go'ro'g'li» dostonlar turkumi qaysi xalqlarda mavjud? J: **Turkman, qozoq, qoraqalpoq, tatar, turk, azarbaj'on, tojik, arman, gurjl, o'zbek**
52. «Ravshan» dostoni kimdan, kim tomonidan yozib

olingan? J: 1928-yilda Hodi Zarif tomonidan Ergash Ju-manbulbul o'g'lidan

53. «Ravshan» dostoni mazmunan qanday dostoniga kiradi? J: Ishqiy-sarguzasht

54. «Ravshan» dostonida urush va jangovarlik holatlari necha bo'g'inli she'rlarda yozilgan? J: 8 bo'g'inli

55. «Ravshan» dostonida harakat sur'ati tezlashgan holatlari necha bo'g'inli she'rlarda yozilgan? J: 7 bo'g'inli

56. «Ravshan» dostonining qaysi qahramonlari «*sher haybatli, yo'lbars kelballi, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar edi*», deya ta'riflanadi?

J: Avazxon va Hasanxon

57. Gulnorga kim sovchi bo'lib boradi?

J: Go'ro'g'il

58. «...ham shunday ot: ta'tl oyag'i teng tushgan: biqini yoziq keng tushgan, qarchig'ayning havosi tekkan». Ushbu ta'rif qaysi ot haqida? J: Jiyronqush haqida

59. «Qaladan qalampir yuklar qalachii» misralaridagi «qala» va «qalachii» so'zlarining ma'nosi?

J: «Shahar» va «shaharlik»

60. Sharq bozorining o'ta tabiiy, jozibador tasviri qaysi dostonda beriladi? J: «Ravshan» dostonida

61. «Qulon yurmas yerdardan Quvib o'tib boradi» misralaridagi «qulon» so'zining ma'nosi? J: Cho'l kiyigi

62. «Bulon o'tmas yerdardan Burib o'tib boradi» misralaridagi «bulon» so'zining ma'nosi? J: Yovvoyi ot

63. «Ot, tuya, areva ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi». Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida? J: Aynoq kal

64. «...sinchi edi. Yilqining tulparini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi». Ushbu ta'rif qaysi kalga xos? J: **Tersak** kal

65. «...juda masxaraboz edi, har tusli bo'la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganda o'zining jo'ralan ham tanimas edi». Bu ... J: **Jaynoq** kal

66. «...aqshomlari qo'liga kamonni olsa, qushni ko'zidan urar edi. Juda mergan edi». Bu ... J: **Ersak** kal

67. Ravshanxonni qutqarish uchun Shirvonga kelgan Hasanxonni qaysi kal taniydi? J: **Jaynoq** kal

68. «Aynoq, ishimiz yaxshi bo'ldi, o'ng keldi. Ravshanni endi ayirib oladigan bo'ldik, balki ayirib oldik. Ana qara, Hasan mard ham keldi. Shu o'tirgan yigit Chambilning belidan, Yovmitning elidan kelgan Hasan mardning o'zi shu», deya suyungan kal? J: **Jaynoq** kal

69. Kallar Ravshanxonni qutqarishda qanday yo'lni rejalashtirishadi? J: «**Qadama og'och**» usulini!

70. Qoraxon Zulxumorni bir hovliga qamab, tevaragiga nechta sarbozni qorovul qilib qo'yadi? J: **500** ta sarbozni

71. «*Ertaga qudag'ay kimga qo'y so'yadi*» jumlesi qaysi dostonidan olingan? J: «**Ravshan**» dostonidan

72. «...shunday nginga qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jam'i parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv bamo qiz bo'lsa, oti bor». Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: «**Ravshan**» dostonidan

73. Qaysi doston otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni madh etuvchi, ezgulikni, mardlik va

botirlikni ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asar? J: «**Ravshan**» dostoni

74. Zulkumorning mayna orqali yo'llagan maktubini olgan Hasanxon uch oylik yo'lni qanchada bosib o'tadi?

J: 20 kunda

75. Ravshan nima uchun zindonga tushib qoladi?

J: Yosh va tajribasizligi uchun

76. Shirvon bozori tasviri necha misrada ifodalangan?

J: 145 misrada

77. Oqqiz onasining ismi? J: **Maston**

78. «Ravshan» dostonidagi epizodik obrazlar qaysilar?

J: **Shirvonlik kamplri ena, aka-uka kallar, Oqqiz, uning onasi**

79. «*Oltin kosa, gulgun sharob*

*ichildi maydon ichinda.*

*Ajallining kafan lo'ni*

*Bichildi maydon ichinda» misralari qaysi asardan olingen? J: «**Ravshan**» dostonidan*

80. Ravshan Zulkumorni qaysi bozordan izlaydi?

J: **Qalpoq bozoridan**

81. Go'ro'g'li Hasanxonni qayerdan olib kelgan edi?

J: **Vayangandan**

82. Go'ro'g'li Avazxonni qayerdan olib kelib, o'z tarbiyasiga olgan edi? J: **Xunxordan**

83. «Ravshan» dostoni qachon nashr etilgan?

J: **1941-yilda**

84. «Ravshan» dostonining sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida kimlarning alohida xizmatlari bor?

J: **Jumanbulbul va Ergash baxshilarning**

85. Xalq dostonlarida qaysi badiiy san'at keng qo'llaniladi? J: **Mubolag'a**

86. Go'rog'li necha yoshida Avazxonni Xunxordan olib kelgan? J: **7 yoshida**

87. Arzitumdan olib kelingan go'zal kim? J: **Xon Dallı**

88. Ravshan maktabda o'qib yurgan kezlarida klmni ko'zining ostiga bosib qo'yardi? J: **Gulanorni**

89. «Yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun ba'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi». Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Gulanor haqida**

90. «Go'ro'g'libek bol Avazga qarab, murtini burab, bir so'z aytayotin». Ushbu parchada qo'llangan «murt» so'zining ma'nosini toping. J: **Ma'ylov**

91. «Yigitlar ichida menman o'dag'a» misralaridagi «o'dag'a» so'zining ma'nosini toping. J: **Yetakchi, sardor**

92. «Bu so'zlami eshitib, bir umrda sovuq shamol yemagan bola emasmi, sovuq so'z tugul, bolaning o'maani-dan bir jazovil teshib o'tgandan yomon bo'ldi». Ushbu parchadagi tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini toping.

J: Sovuq shamol yemagan – shashti qaytmagan, og'lr gap eshitmagan; o'mgan – ko'krak, to'sh; jazovil – nayza

93. «Qizi boming nozi bor» degan maqol kim tomonidan kimga aytildi?

J: **Og'a Yunus pari tomonidan Ravshanga aytildi**

94. Avazxon qizini Ravshanga nima uchun berishni xohlamadi?

J: **Hasanxonni o'ziga teng ko'rмагани учун**

95. Qizini Ravshanga berishni xohlamagan Avazxonni Ravshan qanday ta'riflaydi?

**J: Bizni quzg'un, o'zini lochin tutdi**

96. «...shunday nginga qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv bamo qiz bo'lsa, oti bor; ba'zi-ba'zi juda nozik, uzik su-luvning ham oti bor, ham surati bor». Parchadagi tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini toping.

**J: Bandiga olgan – asirga olgan; bandi – duoli yo-zuv, tilsim; uzik – yetuk, kamchiliksiz**

97. «...Bekning oti po'lat suvluq chaynadi, Qizil kiyib gulday bo'lib jaynadi» misralaridagi «jaynadi» so'zining ma'nosini toping. J: **Yashnadi**

98. «...Bekning oti po'lat suvluq chaynadi, Qizil kiyib gulday bo'lib jaynadi» misralarida qaysi ot ta'riflangan?

**J: Jiyronqush**

99. «... mindi ...ning beliga, Haybat qilib yigit o'ng-u so'liga» misralarida nuqtalar o'mniga qo'yilishi kerak bo'lgan ismlarni toping. J: **Ravshan, Jiyronqush**

100. «Sen bo'imasang, otang holi ne kechar? Sensiz menga falak kafanto'n bichar» misralari kim tomonidan kimga aytildi? J: **Hasanxon Avazga aytgan**

101. Hasanxon tomonidan Ravshanga qarata aytildi nasihatlarni toping.

**J: Oldingdan kim o'tsa, besalom o'tma; Bir g'aribni ko'rsang zinhor og'rlitma; Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot; Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot**

102. «Bir qiz uchun unutmagan bizlarni, Unutma otang ham onang qarzinis» misralari kimga tegishli?

**J: Hasanxonga**

103. «Javob ber, otajon, yorga boraman, Yor deyman-ki, nomus-orga boraman» misralari kimga tegishli?

J: Ravshanga

104. «Uzoqdan kelayotibman, G'amning toyiga botib-man, E yoronlar, birodardar, birodarlar! Men yorimni yo'qo-tibman» misralari kimga tegishli? J: Ravshanga

105. Ravshan yorini bozorda izlab yurganda uni nima-ga o'xshatadi? J: Asov toyga

106. Qalpoq bozorigacha nechta bozor bor edi?

J: 4 ta

107. «Qo'qib yotgan jun bozori» misrasidagi «qo'qib» so'zining ma'nosini toping. J: Ifloslanmoq, tartibsizlik

108. «Anov mursak, to'n bozori» misrasidagi «mursak» so'zining ma'nosini toping. J: Yengsiz paxtalik kamzul

109. «Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o'tir-gan». Ushbu ta'rif qaysi go'zalniki? J: Zulxumor

110. «...oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oy-day ikki qoshi hiloli». Ushbu ta'rif qaysi go'zalniki?

J: Zulxumor

111. «...yasangan hurday, tishlari durday, ko'zları yul-duzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qar-chig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday» deya ta'riflangan go'zal kim? J: Zulxumor

112. «Kaptarday bo'lib yurgan qizlar» o'xshatishi kim tomonidan aytilgan? J: Ravshan tomonidan

113. Ravshanga ko'p iltifot etsa-da, uning e'tiborini qo-zona olmaygan hasadgo'y qiz kim edi? J: Oqqiz

114. «Sovutini bo'ktarib, Qalqonini do'ngtarib Yo'iga

*tushdi...»* Ushbu parchada nuqtalar o'rniغا qo'yilishi kerak bo'lgan ismni toping. J: **Hasan**

115. «*Sovutini bo'ktarib, Qalqonini do'ngtarib»* misralaridagi tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini toping.

J: **Bo'ktarmoq** – egar orqasiga bog'lamoq; **do'ngtarmoq** – yelkasiga do'ng tomonini sırtiga qillb to'ntarib osib olmoq

116. «*Qarsoq yurmas yerdidan Qalqib o'tib boradi*» misralarida qo'llangan «*qarsoq*» so'zining ma'nosini toping.

J: **Tulkidan klchlkroq yirtqlch**

117. «*Ban ajdahor edi*» deya kimlarga ta'rif berilgan?

J: **Ravshan Shirvon yurtida o'g'il tutingan kamplarning o'g'illariga**

118. «*Yobi dema, shu ot tulpor ekandir*» misralaridagi «*yobi*» so'zining ma'nosini toping. J: **Cha'bir, qirchang'i**

119. Kallar Shirvonga Ravshanni qutqarish uchun kelgan Hasanxonni qanday taomlar bilan mehmon qiladi?

J: **Palov, go'sht, manti, barak (chuchvara)**

120. Xorazmda dostonlar qanday aytildi?

J: **Tor jo'rлигда**

121. Xorazmda doston aytuvchilar qanday nomlanadi?

J: **Xalfa**

122. Baxshilar repertuaridagi dostonlarning ko'p qismini qanday dostonlar tashkil etadi?

J: **Ishqiy-sarguzasht dostonlar**

123. Folklorchi olim Hodi Zarif qaysi yillarda yashagan?

J: **1905 – 1972**

124. Ergash Jumanbulbul o'g'il qaysi yillarda yashagan? J: **1868 – 1937**

125. Qaysi dostonda muhabbat uchun chekilgan izlirob iymon yo'lidagi azobga aylanadi?

J: «**Ravshan**» dostonida

126. Qaysi dostonda bosh qahramonning ojizligi, go'rlli-  
gi, tajribasizligi tufayli xatolar qilishi, aldanishi haqqoniy  
ko'rsatib beriladi? J: «**Ravshan**» dostonida

127. Qaysi doston qofiyali nasr (*saj*)ning go'zal namu-  
nasi bo'lib, deyarli har bir nasriy parcha qofiyali?

J: «**Ravshan**» dostoni

128. Aka-uka kallarga xos xarakter belgilarini ko'rsa-  
ting. J: **Mardlik, haqiqatgo'ylik, o'z ishiga mohirlik**

### **«KUNTUG'MISH» DOSTONI**

1. Kuntug'mish qaysi viloyatning polvonni edi?

J: **Do'rman viloyatining**

2. «Kuntug'mish» dostonidagi Oppoqoy kim?

J: **Kuntug'mishning singlisi**

3. Kuntug'mish necha yoshigacha ilm-hunar, kasb-  
karmolot qildi? J: **14 yoshigacha**

4. Kuntug'mish 14 yoshidan keyin nimalar bilan shug'ul-  
landi? J: **Qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik,  
ko'pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlari bilan**

5. Zangar podshosining ismi? J: **Buvraxon**

6. Buvraxon vazirlarining ismi? J: **Toir va Shoir vazir**

7. Xolbeka qaysi vazirning qizi? J: **Shoir vazirning**

8. Xolmo'min qaysi vazirning o'g'li? J: **Toir vazirning**

9. Xolbeka necha yoshdan o'tgandan keyin dong'i qa-  
yerga yetdi? J: **14 yosh, Dog'istonga**

10. Xolbeka sovchilarga qanday shart qo'ydi?

J: Nard o'yini

11. «...deb aytса, оlli oy zindonda boqdiraman, suyagi-ni toshga chaqdiraman, tiriklay tenisini shildiraman, ichiga somon tiqtiraman, ikki ko'zini o'yaman, tepasiga moyni quyaman». Nuqtalar o'rniغا qo'yilgan ismnı toping.

J: Xolbeka

12. Xolbeka va Kuntug'mish tushlarida bir-birlarining nimasini almashtiradilar? J: Uzugini

13. Bahragul kim? J: Xolbekanining kanizi

14. Kim suratini qog'ozga soldirib, bir sandiq tayyor qilib, sirtini tilla bilan qoplab, bir tola sochini suratga o'rab, necha arz-hollarni bayon etib daryoga tashlagan?

J: Xolbeka

15. Kuntug'mish kimning roziligini olib, Zangar eliga jo'naydi? J: Singlisining

16. Bozorda odamlar nima uchun turli yoqqa qochib ketdi? J: Kuntug'mish Xolbekani odamlardan so'ragani uchun

17. Kuntug'mish qancha yo'l yurib, Zangar yurtiga kela-di? J: 3 oy

18. Kuntug'mish kim bilan Zangar yurtida bozorda uchrashadi? J: Podshoning qudasi bilan

19. Kampir kimni Xolbeka deb Kuntug'mishga ro'para qiladi? J: Zamongulni

20. Kuntug'mish kimning qiyofasida Xolbekanining oldiga boradi? J: Bazzozvachcha qiyofasida

21. «Bir o'g'londir, misli daryoday toshgan,  
Yuzlari qizarib olmaday pishgan,

*Olmoqqa har kimning aqli shoshgan,*

*Qoshda donolar so'zdan adashgan».* Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Kuntug'mish haqida**

22. Buvraxon Xolbeka uchun necha zinall nog'oraxona qurdirgan edi? J: **40 zinall**

23. Podsho necha kun nog'oraxonaga chiqsa ham, Xolbeka chiqmaydi? J: **3 kun**

24. Buvraxon Xolbeka ko'shkka chiqmagandan keyin uning oldiga kimlarni jo'natadi?

J: **200 jallod, 400 mirg'azabni**

25. Xolbeka bilan Kuntug'mish jallodlar eshikni buzib kirgach nima qilishadi?

J: **Ko'shkdan pastga o'zlarini tashlashadi**

26. Xolbeka bilan Kuntug'mish Buvraxondan qayerga yashirinadi? J: **Kampirning go'salaxonasiغا**

27. Mirg'azab qanday amaldor?

J: **Jazolovchi amaldor**

28. Miroxur kim? J: **Podshoh otboqarları boshlig'i, o'rta darajadagi amaldor**

29. Somonxonada Xolbeka bilan Kuntug'mishni kim ko'rib qoladi? J: **Zamonqul**

30. Xolbeka bilan Kuntug'mishning somonxonada ekanligini kim podshoga aytadi? J: **Miroxur**

31. «*Irim deb mernanlar otmas yolg'izni*», deganda Xolbeka nimani nazarda tutgan edi?

J: **Kuntug'mishning yolg'iz o'g'il ekanini**

32. Podsho umaro-yu ulamolaridan maslahat so'raganida ular Xolbeka bilan Kuntug'mishga qanday jazo berishni ma'qul ko'riahdi?

J: Tuyaning terisiga tikib, asov baytalning dumiga taqib haydab yuborishni

33. Baytal Xolbeka bilan Kuntug'mishni necha kun deganda sahroga eltib, ular tulupdan tushib qolishdi?

J: Olti kun deganda

34. Xolbeka bilan Kuntug'mish tulupdan qanday chiqishdi?

J: Bir gala quzg'unlar tulupni cho'qiganlari uchun

35. Xolbeka bilan Kuntug'mish qayerda yashashdi?

J: Sahro o'rmasidagi tog'da

36. Kuntug'mish qiyali cho'qqiga nima uchun chiqdi?

J: Yaqin-atrofda odamlarning daragini topaman deb

37. Kuntug'mish qiyali cho'qqigacha necha kun yurdi?

J: Uch kun

38. Kim Kuntug'mishni non beraman deb buloq boshida yashovchi ajdarga qarshi jangga yo'llaydi? J: Azbarxo'ja

39. Kim Kuntug'mishni mast qilib, kigizga o'rab, ustidan tosh bastirib qo'yadi? J: Azbarxo'ja

40. Kim Xolbekani Buvraxonga berish uchun yo'lga chiqadi? J: Azbarxo'ja

41. Kuntug'mish necha kundan keyin bastirib qo'yilgan tosh tagidan chiqadi? J: Bir kundan keyin

42. Kuntug'mish necha kundan keyin Xolbekani izlab qaysi daryoga yetadi?

J: Bir hafta deganda Tajan daryosiga

43. Azbarxo'janing laqabi nima? J: Aldarxo'ja

44. Kuntug'mish ~~yangi~~ necha yashagan? J: Mug'oltog'da 4 yill

Alisher Navoiy

2013/84

nomidagi<sup>17</sup>

A 7135

O'zbekiston MK

45. Kuntug'mishning baliq yutgan bolasini kim qutqaradi? J: Olim sayyod
46. Olim sayyod qayerlik edi? J: Qatog'onlik
47. Kuntug'mishning bo'ri olib qochgan bolasini kimlar topib oladi? J: Cho'ponlar
48. Cho'ponlar bo'rini qanday atashardi? J: Gurkiboy
49. Kuntug'mishning baliq yutgan o'g'lini nima deb atashgan? J: Mohiboy
50. Kuntug'mishning bo'ri olib qochgan o'g'lini nima deb atashadi? J: Gurkiboy
51. Buvraxon Azbarxo'jani nima qiladi?  
J: Zindonga tashlaydi
52. Buvraxon Xolbekani nima qiladi? J: Xolmo'minga beradi
53. Ota-onasi haqidagi xabarni cho'ponlardan kim eshitib qoladi? J: Gurkiboy
54. Gurkiboy nima uchun cho'ponlardan qochib ketadi?  
J: Uxlab qolganda bo'rilar ko'p qo'yilarni bo'g'izlab ketgani uchun
55. Mohiboy sayyodlardan nima uchun qochib ketdi?  
J: Kabob va pullarini qimorda o'ynab yutqazgani uchun
56. Gurkiboy va Mohiboy Zangar shahrida kimning uyida xizmatkor bo'lib ishlashadi?  
J: Xolmo'min yasovulning
57. Buvraxon vafotidan keyin davlat qushi kimning boshiga qo'nadi? J: Kuntug'mishning
58. Kuntug'mishning boshiga-davlat qushi necha marta qo'nadi? J: 3 marta

**59. Kuntug'mish podsho bo'lgandan keyin emaidorlari-  
ga qanday farmon chiqardi?**

**J: Bir haftadan jilovxonada istiqomat qilib xatishni**

**60. Xolbekaning onasi ekanligini kim bilib qoladi?**

**J: Gurkiboy**

**61. Bolalar nega kechqurun uqlamay chiqishi kerak  
edi? J: Xolmo'min podsho topshirig'i bilan bir hafta  
jilovxonada istiqomat qilgani ketgani uchun**

**62. Uyquni bo'za qochiradi deb kim aytadi?**

**J: Mohiboy**

**63. Xolbeka bolalarni qayerda turib kuzatadi?**

**J: Tomda**

**64. Xolbeka bo'za ichib mast bo'lib qolgan qaysi bol-  
ning suhabatidan ularning o'z farzandi ekanligini bilib qolani?**

**J: Gurkiboyning**

**65. Xolbeka nima uchun bolalarini Zangar eidan chicha-  
rib yuboradi? J: Otasi Kuntug'mishni topib kelish uchun**

**66. Bolalar sakkiz kunda qayerga yetib keladi?**

**J: Olatog'ga**

**67. Bolalar Olatog'da nima qilishadi?**

**J: Podshoning yilqilarini haydar ketishadi**

**68. Kuntug'mish bolalarni o'g'ri deya ularqa qanday  
jazo tayinlaydi? J: Dorga osish**

**69. Kuntug'mish o'g'rilarning o'z farzandi ekanligini qan-  
day bilib qoladi?**

**J: Mohiboy va Gurkiboy oldin meni o'ldiring deya  
ota-onasining Isminl aytib liltijo qilganlardan so'ng**

**70. Kuntug'mish kimni Zangarga podsho qilib qaytadi?**

**J: Xolmo'minni**

71. «Kuntug'mish» dostonining qaysi baxshilardan yozib olingen variantlari mavjud?

J: Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jumaboy o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Egamberdi Ollomurod

72. 8-sinf darsligiga «Kuntug'mish» doslonining qaysi baxshidan yozib olingen varianti kiritilgan?

J: Ergash Jumanbulbul o'g'lidan

73. Qilichxon laqabli podsho qaysi asar qahramoni?

J: «Kuntug'mish» dostoni

74. «Kuntug'mish» dostonidagi cho'lning nomi?

J: Zarchaman

75. Qur'oni Karimni o'rtaqa qo'yib do'st bo'llishga va'da bergen, lekin qasamiga sodiq qolmagan qahramon...

J: Azbarxo'ja

76. Kuntug'mishga yordam bergen personaj...

J: Qosim qabilaboshi

77. «Kuntug'mish» dostonining qaysi qahramoni bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan yigit... J: Gurkiboy

78. «Kuntug'mish» dostonida biroz shaddod, biroz quv deya ta'riflangan qahramon... J: Mohiboy

79. Dostondagi qaysi qahramonlarsiz Kuntug'mish va Xolbeka taqdirini to'lagonli tasavvur etish qiyin?

J: Qosim, Xolmo'mlin, Mullavachcha, Zamonqul

80. Dostondagi qaysi badiiy unsurlar dostonning badiiy qimmatini oshiradi, qahramonlar qiyofasini yaxshiroq tasavvur qilishga yordam beradi?

J: O'xhatish, mubolag'a, klnoya

81. Dostondan parchalar: «G'aribning ko'nglini oqlamoq savob», «Qilichdan seskanmas botirning tanii».

«Zarning qadrini zargar bilar har yerda», «Gavharni ne  
bilsin ushalgan sopol», «Kamlikning kamoli bordir, Man-  
manning zavoli bordin», «Yaxshilarning yuzin ko'rsang jan-  
natdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir», «O'zingdan kat-  
tani uchratsang pir bil, O'zingni er bilsang, birovni sher bil»

82. «Bog' ichinda olma-anor istaydir,  
Bo'yи mahbub, mushki diydor istaydir.  
Qadrdonlar, birga yurgan beklarim,  
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir» misralarini kim ayt-  
gan? J: **Kuntug'mish**

83. «Qarasa, bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib,  
labini burib, chikka bel bo'lib, shirin qilib kulib, taraqqos  
boylib, suqsurday bo'ylib, tovsusday taranib, bellari bura-  
lib». Ushbu ta'rif qaysi go'zal haqida? J: **Xolbeka haqida**

84. «Shukur, ajalimiz yetgani yo'q ekan, o'imay shu  
toqqa keldik, albatta, chashmazor suvlar, har alvon meva-  
lar bo'lsa kerak». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: «Kuntug'mish» dostonidan

85. «Xonumonim bo'ldi chun barbod dastingdan, falak,  
Bo'ljadi g'amgin bu ko'nglim shod dastingdan, falak,  
Qilmading asto dilim obod dastingdan, falak,  
To qiyomat dod etarman, dod dastingdan, falak,  
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!» mis-  
ralari qaysi asardan olingan?

J: «Kuntug'mish» dostonidan

86. Qaysi doston qahramoniga «sher haybatli, yo'lbars  
sifatli» deya ta'rif berilgan?

J: «Kuntug'mish» dostonining

87. «Mosuvoday ko'kka uchdim,

*Ajal sharobidan ichdim,  
Bu dunyo bahridan kechdim,  
Qalandar bo'lganim bo'lgan», – deya qalandarlikni ixtiyor qilgan qahramon kim? J: Kuntug'mish*

88. «Kuntug'mish» dostonida cho'ponlar «*Bizga tojking-ni qo'y, o'zbaki qilib aytib ber*», – deyishganda «*tojiki*» deb nimani nazarda tutishgan? J: G'azalni

89. «*Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir,  
Yomon odam qilgan ishl minnatdir,  
Achchiqlanmay javob bergin, chirog'im,  
Ol so'ramoq, zot so'ramoq sunnatdir*». Ushbu parcha qaysi asardan olingan va kimning tilidan aytilgan?

J: «Kuntug'mish» dostonidan Gurkiboy tillidan

90. «*Qaladin qalampir yuklar qalachi,  
Durdonadan anbar tog'ning og'ochi,  
Analhaq deb Mansur senga osildi,  
Assalom alaykum, dorming og'ochi*» misralari qaysi qahramon nutqidan olingan? J: Xolbekaning

91. Kuntug'mish kelmagandan so'ng Avliyoyl Qoraxon o'zining o'rniqa kimni podsho qilib qo'ygan edi?

J: Qushbegisini

92. «Kuntug'mish» dostoni qanday doston?

J: Ishqiy-qahramonlik dostoni

93. Ishqiy dostonlarning o'ziga xos asosiy belgisini aytинг. J: Bir-birlini ko'rmagan odamlar o'rtasida g'oyib-dan sevgi paydo bo'llishi

94. Xalq dostonlari yozma adabiyotdagи dostonlardan qanday farqlanadi?

J: Fantaziya ko'lami, ko'z ko'rib, qulaq eshitmagan

*voqealar, aql bo'var qilmaydigan qahramonliklar tasviri bilan*

95. Dostonda qaysi qahramonlarning qiyofasi o'ziga xos tarzda yoritilgan?

J: **Azbarxo'ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo'mlin**

96. Dostonda qanday holatlar she'riy yo'lda ifodalangan? J: **Qahramonlar tavslfi, ruhiy kechinmalar**

97. Bahragul Xolbekaga kim deb murojaat qiladi?

J: **Oybibim**

98. Xolbekaning jamolini ka'rib yiqligan kim?

J: **Buvraxon**

99. Karvonboshi Azbarxo'ja qanday odam?

J: **Xasis, xudbin, razil**

100. Xolbeka dorga qarab aytgan nolasida kimdan yordam so'raxydi? J: **Bobo Zangl podachidan**

101. Azbarxo'ja karvonidagi Qosim qanday odam?

J: **Insofil, dlyonatli**

102. Gurkiboy bilan Mohiboy Zangar shahridan ketishda kimni o'ldiradi? J: **Darvozabon qo'rleshini**

103. Bir tola soch, uzuk, surat, sandiq detallari qaysi dostonda uchraydi? J: «**Kuntug'mish» dostonida**

104. Qaysi asarda Mansur Xalloj bilan Bobo Zangi podachi nomi birga qo'llangan?

J: «**Kuntug'mish» dostonida**

105. Xizr va Ilyos payg'ambar ismi qaysi asarda birga tilga olingen? J: «**Kuntug'mish» dostonida**

106. Qaysi go'zalning husniga «*insof bilan qarasa, yer yuzining bamolari uning birtola mo'yiga arzimaydi*», – deya ta'rif berilgan? J: **Xolbeka**

107. «Xon g'azabi – xudo g'azabi» degan ibora kimga nisbatan ishlataligancha? J: **Kuntug'mish va Buvraxonga**

108. *E taqsir podshohim; osib o'lordingiz – ko'rdik, bosib o'lordingiz – ko'rdik, minordan fashladingiz – ko'rdik, to'pga solib oldingiz – ko'rdik.* Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: «**Kuntug'mish» dostoni**

109. «*Davlat ham egiz, mehnat ham egiz*» maqoli «**Kuntug'mish» dostonida qachon q'llanilgan?**

J: **Kuntug'mishning o'g'illari birl daryoda oqib, ik-klinchisini bo'ri olib qochganda**

110. «*Katta-kichik, xurd-u kalon, qiz-u juvon, mard-u zan tomlarning ustiga chiqib tomosha qilur erdi*». Bu ta'rif «**Kuntug'mish» dostonidagi qaysi voqeaga nisbatan ishlataligancha? J: **Xolbekani Azbarxo'ja Buvraxon huzuriga olib ketayotganda, hamma joyga o'ilimga mahkum qilingan Xolbekanining shaharga qaytayotgani haqldagi xabar tarqalganda; Gurklboy va Mohiboyni dorga osish uchun olib kelishayotganda****

111. «**Kuntug'mish» dostonida Qoraxon, yolg'iz farzandi behush bollib yotganda, kimga halqa qilib qaratdi?**

J: **Eshonga**

112. «*Qirga chiqqan xotinning bolasi», «mo'ltonining bolasi», «qozoqning bolasi» deb taxmin qilingan obrazni toping.* J: **Gurkiboy**

113. «**Kuntug'mish» dostonida Qoraxon yolg'iz farzandini kimgalarga qaraladi?**

J: **Qushnoch, eshon, mulla, baxshi**

114. *Olimni ... deydi. Men ...ning xoniman, Dilbandan ayrilib, men bir ajab sarsoniman,*

*O'ldirib ikki qo'zimni diydayi giryoniman,  
Onadin baxli qaro tug'dim, shuning hayroniman.*

Dostondan olingen ushbu parchada nuqtalar o'rniqa  
qo'yilishi kerak bo'lgan nomlarni belgilang.

**J: Kuntug'mish, No'g'ay**

115. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mish dorga  
osish uchun olib kelingan o'g'illarini qanday tanib qoladi?

**J: Mahning so'zlaridan**

116. Dostonchi baxshilar o'z san'atlarini tinglovchiga  
ma'qul qilish uchun qanday usullarni qo'llagan?

**J: 1. Musiqly qochrimilar. 2. So'z o'yinlari. 3. Dostonning eng qiziq joyida tanaffusli chekinishlar**

117. «Alpomish» dostoniga nechanchi yillarda *bu asar mehnatkash xalq manfaatini emas, balki yuqori tabaqalar manfaatini aks ettiradi, shuning uchun uni ommalashtirish zararlidir* degan mafkuraviy ayblar qo'yildi?

**J: XX asrning 50-yillarida**

118. Qaysi dostondag'i go'zal qizlarning vasliga yetish  
uchun oshiqlardan ular tomonidan qo'yilgan shartlarni ba-  
jarish kerak bo'ladi? J: «Alpomish», «Kuntug'mish»

119. Chiltanlar yordamida bir xil tushning bir necha ki-  
shi tomonidan ko'tilishi qaysi asarlarda uchraydi?

**J: «Alpomish», «Kuntug'mish»**

120. Nigin – uzuk timsoli qaysi xalq dostonlarida uch-  
raydi? J: «Ravshan», «Malikayl ayyor», «Kuntug'mish»

121. Avliyoyi Qoraxon Kuntug'mishning dardini bilish  
uchun qanday choralarini ko'rgan?

**J: Qushnochga qoqtiradi; mullaga o'qitadi; baxshi-  
ga boqtiradi; eshonga halqa qilib qaratadi**

122. Kuntug'mishning dardini ayyor qushnoch qanday bilib oladi? J: **May ichirib**
123. «Kuntug'mish» dostonida qo'llanilgan *qudoq* so'zining ma'nosini toping. J: **Tulup**
124. Gurkiboy necha yoshga kirgandan so'ng, unga qo'y boqtira boshlashadi? J: **10 yoshga**
125. Gurkiboy necha yoshida ota-onasi haqidagi haqiqatni cho'ponlardan eshitib qoladi? J: **12 yoshida**
126. «*Kashishlik, nuronalik, martabalik bachcha bo'lgan edi. Har kim bir so'z qotsam der edi*». Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Mohiboy**
127. «E taqsir podshohim osib o'lordingiz – ko'rdik, bosib o'lordingiz – ko'rdik, minordan tashladingiz – ko'rdik, to'pga solib otdingiz – ko'rdik». Ushbu fikrlar qaysi podshoning a'yonlari tomonidan aytilgan? J: **Buvraxonning**
128. Gurkiboy bilan Mohiboy podshoning yilqilarini qayerdan haydab kelishgandi? J: **Oqsuvdan**
129. «*Mardlarning parvoysi bo'lmas o'limdan, Musulmonman, kalma kelar tilimdan.*  
O'laman deb mard ham ikki so'zlarimi,  
*Munkir kelsam, mardlik ketar qo'limdan*». Ushbu fikrlar kimning tilidan aytilgan? J: **Mohiboyning**
130. «*Nima kelar quv og'ochning qo'sidan, Kofirmiding, elanasan og'ochga?..*» Ushbu fikrlarni Xolbekaga kim aytgan? J: **Gurklboy**
131. Dostondagi kimlarning harakatlarida ham qahramonlik belgilari mavjud? J: **Xolbeka, Gurklboy, Mohiboy**
132. Dostonda kimning hayoti qahramonlik bilan kechadi? J: **Kuntug'mishning**

## «ALPOMISH» DOSTONI

1. «Alpomish» qachondan boshlab o'zbek folklor-shunoslari tomonidan yozib olib kelinadi?

J: 1922-yildan

2. «Alpomish» dostoni boshqa dostonlardan qanday farqlanadi? J: **Mubolag'aviylik**

3. «Alpomish» dostoni kim tomonidan qachon yozib olin-gan? J: 1928-yilda Fozil Yo'Idosh o'g'lidan Mahmud Zaripov yozib olgan

4. «Alpomish» dostonining qaysi nusxasi bir necha til-larga tarjima qilingan? J: 1928-yilda Fozil Yo'Idosh o'g'lidan Mahmud Zaripov yozib olgan nusxasi

5. Alpomish qayerda tush ko'radi?

J: Cho'ponlarning qo'shxonasida

6. Alpomish qaynotasining mol-mulki tortib olinib, cho'pon qilinganini kimdan eshitadi? J: Karvonlardan

7. Alpomish qaysi tog'ning cho'qqisini uchirib yubor-gan? J: Asqartog'ning

8. Alpomish qalmoq yurida necha yil zindonda yotadi?

J: 7 yil

9. Alpomish qanday obraz? J: Xalqning qahramonlik orzularini o'zida mujassamlashtirgan, el-yurt farovonligi yo'llida mardliklar ko'rsata olgan bahodir, xalq daho-sl yaratgan quyma obrazdir

10. Alpomish bilan birga yana kimlar tush ko'radi?

J: Barchin va Qorajon

11. Alpomish yetti yoshida ko'targan yoy kimniki edi?

J: Bobos Alpinblynniki

12. Algomish kimning qiyofasida Barchinning to'yiga kirib keladi? J: **Qultoy**

13. Algomish kimning hiylasi bilan Qalmoq yurtida yetti yil zindonda qolib ketadi? J: **Surxayllining**

14. Algomish ko'targan yoyning og'irligi qancha bo'lgan? J: **14 botmon**

15. Algomish necha yoshida bobosidan qolgan yoyni ko'targan? J: **7 yoshida**

16. Algomish nima sababdan alp nomini oldi?

J: **Bobosidan qolgan yoyni ko'tarib tortgani uchun**

17. Algomish nima sababdan hushdan ketib yiqiladi?

J: **O'z ati Boychiborni tanimay, uni to'riq otga o'xshatgani uchun**

18. Algomish yakkama-yakka jangda kimlarni yenggan? J: **Qultoy va Qorajonni**

19. Algomishning oqko'ngil, sodda, shu bilan birga qo'llidan har ish keladigan yordamchisi kim? J: **Kayqubod**

20. Algomishning otini ta'riflagan sinchingin otli?

J: **Ko'ssa sinchi**

21. Algomish Boychibor otini qaysi ko'l yonidagi yaylovdan oladi? J: **Arpali ko'l**

22. «Algomish» dostonida dunyoda Algomishdan tashqari bir kam to'qson alp o'tganligi aytildi. Bu alplarning boshlig'i kim edi? J: **Rustami Doston**

23. «Algomish» dostonining nechta varianti yozib olin-gan? J: **40 dan ortiq**

24. Barchin alplardan necha oy muhlat so'raydi?

J: **6 oy**

25. Barchin yakkama-yakka olishuvda kimni yenggan?

**J: Ko'kamanni**

26. Barchinga Alpomish nomidan kim sovchi bo'lib boradi? J: **Qorajon**

27. Barchinni izlab Qalmoq yurtiga borgan Alpomish birinchi marta kim bilan uchrashadi? J: **Kayqubod bilan**

28. Barchinning alplarga qo'ygan shartlarini toping.

**J: Yoy tortish, ming qadamdan tanga pulni urish, poyga, kurashda to'qson alpni yenglish**

29. Barchinning yag'rini necha qarich keladi?

**J: 15 qarich**

30. Barchinning muchal yili qaysi? J: **Sichqon**

31. Barchin Alpomish haqida ko'rgan tushini qaysi kанизига айтинг, undan tushning ta'birini so'raydi? J: **Suqsuroy**

32. Barchin tushida ko'rgan qibla tomondan chiqib kelayotgan bir oy kim edi? J: **Rasul payg'ambar**

33. Bog'lovdagи Boychibor va Qorajonni kim ozod qilgan? J: **Rajabxo'ja eshon**

34. Boybo'ri va Boysari qachon farzandsiz ekanliklidan o'kinadi?

**J: Bir to'yda izza bo'lganlaridan so'ng**

35. Boybo'ri va Boysari kimdan farzand tilaydi?

**J: Shohimardon pirning qabrida qirq kun tunab, farzand tilaydilar**

36. Boybo'ri va Boysari kimning o'g'llari bo'lgan?

**J: Alpinblyning**

37. Boybo'ri va Boysari farzandlarini necha yoshida maktabdan chiqarib oladi? J: **7 yoshida**

38. Boychibor qaysi ot bilan bir kecha-yu bir kunduz yo'l talashadi? J: **Saman ot bilan**

39. Bolalar necha yoshidan mактабга боришади?

J: 3 yoshidan

40. Dusummarlarning «qирқ mingini bir deb sanab qirishga» тавyor turgan jasus siymo kim? J: **Barchin**

41. Kayqubod nima uchun zindonda yotgan Alpomishga o'z boqit yurgan qo ylardan tashlab turadi?

J: Tovkaning qalini uchun

42. Kayqubod obrazida xalqning qaysi orzu-umidlari aks etadi? J: **Adolatli shoh haqidagi orzulari, demokratik va gumanistik o'y-fikrlari**

43. Kim Boybo'ri va Boysarining farzandlariga to'yda qalandar qiyofasida kelib ot qo'yadi? J: **Shohimardon piri**

44. Kim kurashda Ko'kaldoshni yigitishda qiynalgan Alpomishga ma'naviy madad beradi? J: **Barchin**

45. Kim poygada Ko'kaldoshning oti Ko'kdo'nandan o'za olmagan Boychiborga ma'naviy madad beradi?

J: **Barchin**

46. Kimning siy whole side qahramonlik dostonlariga xos alp qiz haqidagi an'anaviy tushuncha o'z ifodasini topgan?

J: **Barchin**

47. Necha yildan so'ng Alpomish Barchinni izlab Qalmoq yurtiga boradi? J: **7 yildan so'ng**

48. Nima uchun Boysari Qalmoq yurtiga ketib qoladi?

J: **Boybo'ri Boysaridan zakot talab qilgani uchun**

49. Poygaga Alpomish nomidan kim borgan?

J: **Qorajon**

50. Poygaga Boychibordan tashqari nechta ot yig'ildi?

J: **499 ta**

51. Poygada Qalmoqshohning qaysi otlari qatnashadi?

J: 3 ta: biri olapocha to'riq ot, biri shapaq ot, biri saman ot

52. To'riq otning odati qanday edi? J: Qizib kelib endi qayerda tursa, turgan yerda olaqaroq bo'ladi

53. Ushbu parchada qaysi badiiy vositadan foydalanilgan? «Ravshanxon bu bog' devorlariga qarasa, tik paxsasini ishlagan, devorining tagini g'ishtlagan, juda mahkam qilib tashlagan, devordomi ganchlagan...» J: Saj

54. Ushbu so'zlarni kim aytgan? «Har kim maydonga ot soladi, otini o'zdirgan odam oladi» J: Barchin

55. Shapaq otning odati qanday edi?

J: Dupur eshitmasa keyin qoladi

56. Hakimbekning o'ng kiftida kimning besh panjasining o'rni bor? J: Shohimardon pirlning

57. Qalmoq podshosining ismi kim? J: Toychixon

58. Qalmoqlar Qorajon bilan Boychibarni qaysi toqqa bog'lab kelishadi? J: Boboxon tog'iga

59. Qorajon qaysi otdan nos so'raydi? J: Ta'riq otdan

60. Qorajon Alpomish bilan qayerda uchrashadi?

J: Murad tog'ida

61. Qo'ng'irot eli necha urug'dan iborat edi? J: 16 urug'

62. Qo'ng'irot yurtidagi Barchin qo'y sog'ib chorvadorlik qilgan ko'lining nomini toping. J: Ko'kqamish

63. Qo'ng'irot yurlining moll yo'q degan eng kambag'alining qancha tuyasi bor edi? J: 40 ming

64. «Alpomish» dostoni yaratilganligining ming yilligi mamlakatimizda qachon bayram qilingan? J: 1999-yilda

65. «Xaloyiqlami, elatiyalarni to'yga xabar qildi». Ushbu parchadagi «elatiya» so'zining ma'nosini toping.

**J: Ko'chmanchi chorvadorlar**

66. Boybo'ri bilan Boysari o'zları farzandsizliklari tufayli izza qilingan chipranto'yga necha tilla hadya etishadi?

**J: 80 tilla**

67. Shohimardon pirning ravzasiga qo'ng'iroq elidan necha kunlik yo'l bor edi? J: Uch kunlik

68. «Boybo'ri, senga Xudoym bir o'g'il, bir qiz berdi. Yolg'iz emas, egiz berdi. Boysari, senga xudoym bir qiz berdi. Egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlami ko'rsang, xaloyiqłami yig'sang, to'y-lomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalarin gning otini o'zim qo'yib kelaman». Ushbu parcha kimning nutqidan olingen?

**J: Shohimardon pirning**

69. «Xaloyiqlar ham ka'rdi; tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotin». Ushbu ta'rif kimga tegishli? J: Shohimardon pirga

70. Boybo'ri kishi nimadan saxiy bo'ladi deb so'ragna da Alpomish qanday javob beradi?

**J: Vaqt-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxly; bir kishi mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangildan chiqarib, mozordagi odamlarning haqqiga duo o'qib o'tsa, bul ham saxiy; kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxly deydi**

71. Boybo'ri ukasi Boysaridan zakot olish uchun uning huzuriga nechta mahramini yuboradi? J: 14 mahramini

72. «Maslahat bermaymiz Boysariboyga, Osilmaymiz Boybo'rining doniga», – deb aytgan personaj kim?

**J: Yartiboy**

73. Boysariboyning qancha yilqisi bor edi? J: **90 to'qay**  
74. *To'qson to'qay yilqi so'zining ma'nosi?*

J: *Yilqisi har yerlarda: to'qaylarda, tog'larning darasida, to'qayli yerlarda yoylib yurar edi, lekin yilliq-isining, molining sonini hech kim bilmas edi*

75. «*Ostida dulduli, belda zulfiqor,*

*Jilovida Bobo Qambar jilovdor,*

*G'amingda ottandi Shohimardon pirlari», – deya Alpo-mishga tasalli bergen kim? J: **Payg'ambar***

76. Qalmoq yurtiga ko'chib ketayotganlar Barchin su-luvning sepini necha tuyaga ortishadi?

J: **60 nor (erkak tuya)ga**

77. «*Qatorda tirkalgan lo'k bilan norcha, Ustiga yuklangan qirmizi parcha*» misralaridagi «*lo'k*» so'zining ma'nosi?

J: **Yuk tashiydigan tuya**

78. Qo'ng'iroq yurti bilan Qalmoq yurtining orasida nechta dovon tog' bor edi? J: **90 dovon tog'**

79. «*Eliboyerlар bundan ko'chib boradi*» misralaridagi «*eliboy*» so'zining ma'nosi? J: **Chorvadorlar**

80. Toychi viloyatidagi Surxayil kampir o'g'llarining ismlarini toping. J: **Ko'kaldosh, Ko'kaman, Ko'kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo'shqulqoq, Qorajon**

81. «*Har qaysisi to'qson botmon temirdan sovut kiy-gan, har kuniga to'qson shirbozning etini ta'til qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so'm moyana olgan xo'p bidamchi zo'r polvonlar*», – deb kimi lar ta'riflanadi? J: **Surxayil kampirning o'g'llari**

82. Qalmoq yurtida Boysariboyni kim deb chaqirishardi? J: **Kelganboy**

83. «*Bu alplarni kuyov qilib olamiz,  
Mina elga toza erkin bo'lamiz.  
Botalami tog'a-jiyan qilamiz,*

*Mina elda bizlar davron suramiz», deb Boysariboyga  
maslahat bergen oqsoqol? J: **Yartiboy***

84. «*Zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida su-  
voriga minib yuradigan saman yo'rg'asi bor», deya ta'riflan-  
gan qahramon? J: **Ko'kaldosh***

85. Barchin Alpomishga nechta chopar yuboradi?

J: **10 ta**

86. Alpomish, Qorajon va Barchinga kelajak taqdirlari  
qanday vosita orqali bildiriladi? J: **Tushlari vositasida**

87. Zil tog'ida yotgan ajdahar nima uchun Qorajonga  
salom beradi?

J: **Chunki Qorajon mingan Boychilborning jilovida  
chilton, pirlar bor edi, ajdahar ularga salom bergen edi**

88. «*Oblo, sendan boshqa yo'qdir murabbiy,  
Karimsan, samadsan, rasuling barhaq,*

*Rahm aylab yor bo'lgin nochor quillara», deya Allohga  
yuzlangan qahramon? J: **Qorajon***

89. Boychilborning oyog'iga kirgan gulmixlarni tishi bi-  
lan sug'urib tashlagan qahramon? J: **Barchin**

90. Boychilborning poygada g'olib bo'lismiga kimning  
olqishlab madadkor bo'lishi sababchi bo'ldi?

J: **Barchinning**

91. «*Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan,  
Ichida sichqonlar bolalab yotgan,  
Izdan tushgan pishak ottoyda etgan», – deya ta'riflan-  
gan qahramon? J: **Qo'shquloq***

92. Qorajon kurashda nechta alpni nobud qiladi?

J: **Ikki kam to'qson alpni**

93. Barchin bilan Alpomishning to'yida qaysi rasmlar o'tkaziladi? J: **Kampir o'ldi, it irillar, chach siypatar, qo'l ushlatar**

94. Kuyovning chimildiqqa yetib borgunicha o'tkaziladigan rasmlar qaysilar? J: **Kampir o'ldi, it irillar**

95. Surxayil canday obraz? J: **Buzg'unchi, janjalkash**

96. «*Ey Boybo'ni bilan Boysari! Bu to'y o'g'illining o'g'ilidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?* O'zing o'lsang, molingga har meroxso'r chiqadi, og'ziga odam kirib ketadi». Ushbu so'zlarni kim aytgan? J: **Chapanitob boyvachcha**

97. Ko'kaldosh qaysi shartda Alpomishga: «*O'zbek! Sen bunday bo'yni yo'g'onlik qilma, g'aribi go'niston bo'lib o'ima. Hali ham qo'ygin. Halak bo'b kelgan yo'lingdan qolma*», – deydi. Ushbu jumlada qaysi shart bo'yicha bahs ketayotgandi? J: **Kurash**

98. Boychibor bir kecha-yu bir kunduz chopgandan so'ng nechta otdan o'zib ketadi? J: **460 otdan**

99. «*Yig'ilib qalmoqlar zo'rlik qiladi, O'dirmoqqa ko'zi qiymay turadi. Necha so'zni bu qalmoqlar o'yladi, Qorajoni kulala qib boyladni*». Ushbu parchada qo'llangan «kulala» so'zning ma'nosini toping. J: **Chandib bog'lash**

## FOZIL YO'LDOOSH O'G'LI HAQIDA

1. Fozil shoир 1872-yili hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani Loyqa qishlog'ida tug'ilgan.

2. Qirqdan ortiq xalq dostonlarini to'la yod bilgan.
3. Yo'dosh shoirdan doston aytish sirlarini o'rgangan.
4. «Alpomish» dostonining biror nusxasi voqealarning qiziqarliligi, ifodaning ta'sirchanligi, tasvirning izchilligi, o'zbek xalqiga xos belgilarni aks ettira olish qudrati bilan Fozil shoir aytgan nusxaga teng kela olmaydi.

### DOSTONLAR HAQIDA NAZARIY MA'LUMOT

1. «Alpomish» dostonining ming yilligi jahon miqyosida va yurtimizda qachon nishonlandi? J: **2000 yilda**
2. «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi» unvonini qachon ta'sis etildi? J: **2000-yil 14-martda**
3. Dostondan dostoniga aynan ko'chib yuradigan parchalar nima deb yuritiladi? J: **Epik qoliplar – klishelar**
4. Dostonlarga qanday xususiyat xos?
- J: **Epiklik va momentallik**
5. Dostonlarda tasviriylik va hajm jihatdan qaysi shakl ustunlik qiladi? J: **Nazm**
6. Dostonlarning qaysi turi ko'proq uchraydi?
- J: **Ishqly-qahramonlik**
7. Dostonlarning boshlanmasi va tugallanmasi qaysi jihat bilan farqlanadi? J: **Boshlanma faqat nasrda, tugallanma ham nasr, ham nazmda yozilishi mumkin**
8. Dostonlarning boshlanmasida qaysi muhim jihat aks etadi? J: **3 ta: voqeanning uzoq o'tmishga oid ekanligi, voqea o'sni, qahramon avlod-ajdod shajarasi**
9. Dostonlarning nasriy qismida qanday shakldan foydalaniлади? J: **Saj**

10. Dostonlarning fuguallanmasida qaysi muhim jihat aks etadi? J: **To'y tasviri, adashganlarning topishib, murod-maqsadiga yetganligi**
11. Yozma va og'zaki adabiyotdag'i dostonlar qaysi muhim jihatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi?
- J: **Hayotni tasvirlash vositalari va usullariga ko'ra**
12. Jangnoma dostonlarni toping. J: **«Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek», «Xoldorxon»**
13. Yirik dostonchilik maktablari qachon paydo bo'lgan?
- J: **XV – XVI asrlarda**
14. Romanik dostonlarni toping. J: **«Murodxon», «Rustamxon», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'li»**
15. Samarcand yo'nalishida doston qanday aytildi?
- J: **Do'mbira bilan ochiq ovozda**
16. Tarixiy dostonlarni toping.
- J: **«Edega», «Shayboniyxon», «Oychinor»**
17. Farg'onha yo'nalishida doston qanday aytildi?
- J: **Musiqa asboblsiz changga solib aytildi**
18. Folklor so'zi qaysi tildan olingan? J: **Ingliz tilidan**
19. Folklor so'zinining ma'nosini toping.
- J: **Xalq donaligi, xalq donishmandligi**
20. Folklorshunoslar tomonidan o'zbek xalq baxshilardan aytib turish asosida nechta doston variantlari bilan yozib olingan? J: **150 dan ortiq doston 400 dan ortiq variantlari bilan**
21. Xalq dostonlari qanday turlarga bo'linadi?
- J: **5 ta: qahramonlik, jangnoma dostonlar, romanik dostonlar, tarixiy dostonlar, kitobli dostonlar**
22. Xalq dostonlarining aylilish yo'liga ko'ra necha

xil yo'nalishi bor? J: 4 ta: **Qashqadaryo-Surxondaryo yo'nalishi, Samarqand yo'nalishi, Farg'ona yo'nalishi, Xorazm yo'nalishi**

23. Xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan ifodalar va tasvirlar nima deb nomlanadi?

J: **Epik qoliplar**

24. Xalq og'zaki ijodining qaysi janri eng qadimiy sanaladi? J: **Qo'shiq**

25. Xalq og'zaki ijodining asosiy janrlarini toping. J: **Qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, lof, latifa, ertak, doston, askiya, og'zaki drama**

26. Xorazm yo'nalishida doston qanday aytildi?

J: **Jamoa bo'lib, tor, doira jo'rligida**

27. Xorazmda doston aytuvchilami nima deb atashadi?

J: **Xalfa**

28. O'zbek dostonchiligi taraqqiyotidagi juda rivojlangan davrlar qaysi? J: **XIX – XX asrlar**

29. Qaysi janr qissa, hikoya, shon-u shuhrat, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi? J: **Doston**

30. Qanday dostonlar ishqiy-qahramonlik dostonlari deyladi? J: **Ishqiy dostonlarning hammasida qahramonlik unsurlari uchragani uchun**

31. Qashqadaryo-Surxondaryo yo'nalishida doston qanday aytildi? J: **Bir baxshi tomonidan do'mbira jo'rligida bo'g'izdan ijro etiladi**

32. Qahramonlik dostonlarini toping.

J: **«Algomish», «Yodgor»**

33. XX asr boshlarida baxshilarining ijodiy bisotida qancha xalq dostonlari bo'lgan? J: **150 dan ortiq**

34. Xalq dostonlarining muhim belgisi qaysi?

J: **She'r bilan nasrning aralash kelishi**

35. Xalq dostonlaridagi she'rlar necha bo'g'inda yozildi? J: 7, 8, 11 bo'g'inda

36. Qahramonlarning o'y-mulchazalari, nisbatan finch ruhiy holati tasviri, o'zaro so'zlashuvlari necha bo'g'inli she'r bilan ifodalanadi? J: 11 bo'g'inli

37. Maydon talashayotgan otlar holati yoki jang ko'rinishi tasvirda necha bo'g'inli she'rдан foydalaniladi?

J: 8 bo'g'inli

## 5-SINF ADABIYOTI

### XALQ OG'ZAKI IJODI MAQOL VA TOPISHMOQLAR

1. «Otalar so'zi» ham deb ataladigan janrni toping.

J: **Maqol**

2. Arabcha «so'z» ma'nosini bildiradigan janrni toping.

J: **Maqol**

3. Maqol va topishmoqning farqini toping.

J: **Maqolda xulosa bor, topishmoqda esa yo'q**

4. Maqolga xos belgi-xususiyatlar to'g'ri sanalgan qatorni toping. J: **Fikr aniq bo'ladi, xulosa tugal bo'ladi, ifoda lo'nda bo'ladi**

5. Ma'no jihaldan bir-biriga juda yaqin bo'lgan maqollarni toping. J: **«Qazisan, qartasan – oxir aslingga tortasan, Olma olmadan uzoq tushmaydi, Qarg'a qarg'aning ko'zinl cho'qimaydi»**

6. «Foiklor» atamasini ilk bor kim qachon qo'llagan?

J: **1846-yilda Vilyam Toms**

7. Xalq og'zaki ijodi necha adabiy turdan iborat? J: **4 ta**

8. Qo'g'irchoq o'yin xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub? J: **Dramatik turga**

9. Askiya xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub?

J: **Dramatik turga**

10. Lof, latifa, doston, ertak, afsona, rivoyat va termalar xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub? J: **Eplik turga**

11. Maqol, matal va topishmoqlar xalq og'zaki ijodining qaysi turiga mansub? J: **Maxsus turga**

12. Topishmoqlar qanday yo'lda yoziladi?

J: **She'riy va nasrly yo'lda**

13. Topishmoq qatnashgan ertaklar qanday turlarga bo'linadi?

J: **2 turga: topishmoqli ertak, ertak-topishmoq**

14. Chistonlar qanday shakkarda yoziladi?

J: **Fard, bayt, qit'a, ruboiy, g'azal shaklida**

6. Asqad Muxtorning bolalar uchun yozgan hikoyalari to'plamlarini toping.

J: «Hayotga chaqiriq», «Dunyo bolalari»

7. Asqad Muxtor kimlarning sahna asarlarini tarjima qilgan? J: Sofokl, Yevripid, Lermontov, Aleksandr Korneychuk

8. Qaysi asari 1974-yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan? J: «Chinor» romanı

9. «Hafta» she'rida yetti og'a-inining eng kattasi qaysi?

J: Yakshanba

10. «Hafta» she'rida qaysi kuni Gagarinning oyga uch-gani ta'kidlanadi? J: Seshanba kuni

11. Sirdaryoning Farhad GESi haftanining qaysi kuni qurilgan edi? J: Seshanba kuni

12. Ish kunlarining oxiri qaysi kun hisoblanadi? J: Juma

13. Ota-bobolarimiz haftanining qaysi kunini «murod-baxsh kun» deb atashadi? J: Chorshanbani

14. Kimning qaysi asari do'stlik, do'stga sodiqlik, ahillik kabi fazilatlarni ulug'lagani va shu xislatlarni juda qiziqarli sarguzashtlar orqali ifoda etgani bilan shuhrat qozongan va yaratilganidan beri o'tgan bir yuz oltmish yildan ortiqroq

davr mobaynida jahondagi necha millionlab odamlarning ma'naviy tarbiyasiga xizmat qilgan?

J: Aleksandr Dyumaning «Uch mushketyor» asari

15. «Uch mushketyor» asarining mashhur bo'llishi va barcha zamonlar uchun ahamiyatini yo'qotmasligiga asosiy sabab nima? J: Asarda «Bir kishl hamma uchun, hamma bir kishi uchun» g'oyasining ilgari surilishi

16. Asqad Muxtorning «Po'lajton yuz tup ko'chat ekmoqchi» she'rining mazmunini qanday g'oya tashkil etadi?

J: Odamlarl ahil yurtni dushman yengolmaydi, faqat ahil insonlar buyuk ishlarga qodir bo'ladilar

17. Po'lajton nima uchun yangi, chiroyli uya ko'chib kelganda hayron qoldi? J: Chunki u bunday chiroyli uyni dadam qurban deb o'ylagan edi, onasi esa bu uyni dadasi ham, uning qarindoshlari ham emas, mutlaqo begona odamlar qurbanini aytadi

18. Po'lajton nimalar haqida hayratlanib xayol suradi va o'zi uchun qanday xulosani kashf etadi? J: Ko'chaga daraxtlar o'tqazgan, asfalt yo'llar yotqizgan, ko'priklar qurban odamlar ularning ko'chasida yashamasligi, bu yerda yashayotganlarni tanimasligi, lekin shunday bo'lsa-da, ishlarini chin dildan, qunt bilan bajargani haqida o'laydi va ahillik tutayli odamlar farovonlikka, qulaylikka ega bo'lar ekan degan xulosaga keladi

19. Po'lajton bahor kelganda qanday ishni amalga oshirishga ahd qiladi? J: Boshqalarga soya-salqin berishi uchun 100 tup ko'chat ekmoqchi bo'ladil

20. «Ahillik bilan bezar Odamlar turmushini, Beminnat qilishadi Bir-birining ishini. Bir kishl hamma uchun, Hamma

blr kishi uchun, Birov kuchin ayamas Ko'pchilik ishi uchun» misralari kimning she'ridan olingan? J: Asqad Muxtorning «Po'latjon yuz tup ko'chat ekmoqchi» she'ridan

21. «Kimki o'zgalarga biror naf yetkazsa, bu naf avvalo, uning o'ziga yetgan bo'ladi» degan fikrlarni kim aytgan?

J: Alisher Navoly

22. Qaysi she'r o'zgalarga naf yetkazish insonga sharaf bag'ishlashiga sabab ekanini anglashga yordam beradi?

J: «Po'latjon yuz tup ko'chat ekmoqchi» she'ri

### O'TKIR HOSHIMOV (1941-yilda tug'ilgan)

1. O'.Hoshimovning «Cho'l havosi» qissasini o'qib, «sof, samimiyl, tabliy, illiq, rohat qilib o'qiladi»gan asar yozgani uchun yozuvchini fabriklagan adib kim?

J: Abdulla Qahhor

2. O'.Hoshimov qissalarini toping. J: «Odamlar nima derklari», «Bahor qaytmaydi», «Ikki karra ikki besh», «Shamol esaveradi», «Dunyoning ishlari»

3. Romanlari: J: «Nur borki, soya bors», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar»

4. Hikoyalari:

J: «Muhabbat», «Urushning so'nggi qurbanlari»

5. Dramalari: J: «Qatog'on», «To'ylar muborak», «Inson sadoqati»

6. «Dunyoning ishlari» qissasi asosan kim to'g'risida?

J: Onalar to'g'risida

7. O'.Hoshimovning qaysi qissasi mustaqil syujetli hikoyalardan tashkil topgan? J: «Dunyoning ishlari»

8. «Dunyoning ishlari» qissasi haqida qaysi adib «dostondek o'qiladi. Uni o'qib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz» degan? J: Said Ahmad

9. «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyada onaning o'z jigarbandini kasallik xavfidan tezroq xalos qiliш uchun har narsaga, hatto jonini ham berishga tayyor ekanligi tasvirlanadi? J: «Gilam paypoq»

10. Qaysi hikoya ilohiy kuchga ega bo'lgan, ko'ngillarni eritadigan chang haqida? J: «Alla»

11. Qaysi hikoyada insонning ona oldidagi farzandlik burchi hech qachon to'lab bo'lmas qarz ekanligi tasvirlanadi? J: «Iltilo»

12. Qaysi hikoyada Hakima aya kamtargina nafaqasini qo'shnilarini farzandlarining xursandchiligi uchun sarflaydi?

J: «Qarz»

13. «Haqqush» hikoyasida bir-biri bilan doim jiqqa-musht bo'lganl uchun ko'r qushga aylanib qolgan aka-uka-ning ismlarini toping. J: Ilhaq, Is'hoq

14. «Onalar farzandlari hamisha birga bo'llishini istaydilar. Qismat esa ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi». Ushbu parcha «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyadan olingan? J: «Haqqush»

15. «Qarz» hikoyasidagi qo'shnining yetti yashar qiz-chasinling ismi? J: Nilufar

16. «Qarz» hikoyasida Hakima aya qo'shni bolalarga nimalar olib beradi? J: Tufli, 3 oyoqli velosiped, ko'ylik

17. «Gilam paypoq» hikoyasidagi tabib buvaning ismi? J: Hojl buva

18. «Gilam paypoq» hikoyasida onaring fidoyiligi nima-larda ko'rindi?

J: Bolasining tezroq tuzalishi uchun hatto o'zinинг sarpochanligini unutganida, bolasi uchun o'z hayotini unutganida

19. Qaysi hikoyada onasi undan «Meni ham kitob qilgin, o'g'lim» deb so'raganini esga oladi? J: «Iltijo»

20. «Alla» hikoyasida qaysi xalq onalarining allalari qiyoslanadi? J: O'zbek, qirg'iz va rus xalqining

### ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI (1900 – 1944)

1. Antuan de Sent-Ekzyuperi qayerga o'qishga kirdi, va nima uchun uni tashlab kelgan? J: Nafis san'at akademiyasining arxitektura fakultetiga o'qishga kirdi, biroq Antuan o'z hayotini aniq bir sohaga bag'ishlamoqchi, insoniyatga chinakam naf keitiradigan ishga qo'l urmoqchi edi. Shu sababli 1921-yil arxitektura fakultetini tark etib, Fransiya harbly havo kuchlari safiga xizmatga kiradi

2. Qaysi yil Antuan uchun hal qiluvchi yil bo'ldi?

J: 1926-yil Antuan «Latiko-Eyr» havo kompaniyasiga ishga kirlb sevilmil mashg'uloti bilan shug'ullana boshladi

3. Qaysi ijodkorning birinchi hikoyasi kasbi bilan bir xil?

J: Antuan de Sent-Ekzyuperining

4. Antuan de Sent-Ekzyuperining birinchi hikoyasi qanday alaladi? J: «Uchuvchi»

5. Antuan de Sent-Ekzyuperining romanlarini toping.

J: «Tungi parvoz», «Janub chopari», «Erkaklar zamini»

6. Ilk yirik romanini toping. J: «Janub chopari» (1929)

7. Qaysi romani 1931-yili «Femina» mukofotiga sazovor bo'ldi? J: «Tungi parvoz»

8. Qaysi romani Fransiya Akademiyasi tomonidan eng yaxshi roman uchun Gran-Pri mukofotiga sazovor bo'ldi?

J: «Erkaklar zamini» (1939)

9. Qaysi romanida zamon va insonlar haqidagi o'ylari hamda chuqur fikrlarini bayon qilgan?

J: «Erkaklar zamini» romanida

10. Qaysi asari novella janrida yaratilgan?

J: «Harbiy uchuvchi» (1942)

11. «Kichkina shahzoda» falsafiy ertagi qachon yaratilgan? J: 1943-yilda

12. Qaysi asarlari Fransiya mag'lubiyatga uchrab, Amerikada boshpana topgan vaqtida yozilgan? J: «Harbiy uchuvchi», «Kichkina shahzoda» asarlari

13. Antuan de Sent-Ekzyuperi qachon Fransiyyaga, jangovar safga qaytadi? J: 1943-yilda

14. Antuan de Sent-Ekzyuperining qaysi asarida insonlar o'rtasidagi do'stilik, birodarlik, hamdardlik, o'zaro hurmat munosabatlari, Yovuzlik va Yomonlikka qarshi kurash g'oyalari aks etgan? J: «Kichkina shahzoda»

15. Qaysi ijodkor o'z asari to'g'risida «Men kitobimning shunchaki ermak uchungina o'qilishini aslo istamayman» deydi? J: Sent-Ekzyuperi

16. «Kichkina shahzoda» ertagida yozuvchining samolyoti buzilib qayerga tushib qoladi? J: Sahroyi Kabirga

17. Kichkina shahzodaning sayyorasida qanday xavfi daraxt o'sar edi? J: **Baobab**

18. «Kichkina shahzoda» ertagidagi qahramonlar qanday qahramonlar?

J: **Ramziy xarakterga ega qahramonlar**

19. Baobab daraxti nimaning ramzi? J: **Yovuzlikning**

20. «Kichkina shahzoda» ertagidagi qaysi qahramon ramziy xarakterga ega emas? J: **Uchuvchil**

21. «Kichkina shahzoda» ertagidagi Kichkina shahzoda nimaning ramzi? J: **Ezgulik**

22. Kichkina shahzoda Yer sayyorasida kimlarga duch keladi?

J: **Ilon, tulki, gul, bekat nazoratchisi, savdogarga**

23. «Kichkina shahzoda» ertagida Kichkina shahzoda piyanistaga nima uchun ichyapsiz deb so'raganida unutmoq uchun deb javob beradi. Piyanista nimani unutmoqchi edi? J: **Ichlisining uyat ekanligini**

24. Antuan de Sent-Ekzyuperiga qaysi shahar markazida ko'kkaboy cho'zgan baland oq marmar ustun yonida suyanib turgan adib va uning yelkasiga qo'llini qo'ygancha Kichkina shahzodaning turishi aks etgan haykal o'rnatilgan? J: **Franslyaning Leon shahrida**

25. «Kichkina shahzoda» ertagini yozuvchi kimga bag'ishlagan?

J: **Bir paytlar yosh bola bo'lgan do'sti Leon Vertga**

26. Yozuvchi olti yosh paytida qaysi kitobdag'i suratdan hayajonga tushadi? J: **«Bo'lgan voqealar»**

27. Yozuvchining 1-chizgan surati nima haqida edi?

J: **Fil yutgan Ilon haqida**

28. Yozuvchining 2-chizgan surati nima haqida edi?

J: Fil yutgan ilonning Ichki ko'rinishi haqida

29. Yozuvchidan Kichkina shahzoda nimaning rasmini chizib berishini so'raydi? J: Qo'zichoqning

30. Yozuvchi Kichkina shahzodaga nimalarni chizib beradi?

J: Fil, ilon, qo'zichoq, qo'chqor, quticha

31. Yazuvchi Kichkina shahzodaga qo'zichoq rasmini chizib berganda dastlab bu surat unga nima uchun, yoqmaydi? J: Oriq bo'lgani uchun

32. Qo'zichoq rasmi 2-marta chizib berilganda unga nima uchun yoqmaydi? J: Qo'chqor bo'lgani uchun

33. 3-marta chizib berganda qo'zichoqning rasmi unga nima uchun yoqmaydi? J: Qari bo'lgani uchun

34. Yozuvchi nimaning rasmini chizib berilganda Kichkina shahzoda xursand bo'lganidan yuzi gul-gul yonib ketdi? J: Qutchaning

35. Kichkina shahzodaning sayyorasida ochilgan Firuza gulga xos xususiyatlar to'g'ri sanalgan qatorni toping.

J: Go'zal, dilbar, latif, mag'rur, arazchi

36. Kichkina shahzodaning sayyorasiga yaqin 1-asteroidda kim yashar edi? J: Qirol

37. Kichkina shahzodaning sayyorasiga yaqin 2-asteroidda kim yashar edi? J: Shuhratparast

38. Kichkina shahzodaning sayyorasiga yaqin 3-asteroidda kim yashar edi? J: Piyanista

39. Kichkina shahzodaning sayyorasiga yaqin 4-asteroidda kim yashar edi? J: Korchalon

40. 5-asteroidda kim yashar edi? J: Charog'bon

41. Kichkina shahzodaning sayyorasiga yaqin nechan-chi asteroidda Jug'rosiy olim yashar edi? J: **Oltinchi**
42. Kichkina shahzodaning sayyorasiga yaqin nechan-chi sayyora Yer edi? J: **Yettinchi**
43. Kichkina shahzoda Yer sayyorasida dastlab kimga uchray-di? J: **Ilonga**
44. Yer sayyorasida Kichkina shahzodaga kim «Men hamma jumboqlarni hal etaman», deydi? J: **Ilon**
45. Yer sayyorasida kim Kichkina shahzodaga: «Qanday dahshatli balo xavf solib turganini u sezmaydiyam, bil-maydiyam. Umrida hech qachon na ochlikni, na tashnallikni ko'rgan. Unga quyosh nurining o'zi kifoya», deydi?  
J: **Uchuvchi**
46. Yer sayyorasida kim Kichkina shahzodaga: «Sen ga rahmim keladi. Tosh-metin bu zaminda sen shu qadar zaif, ojisan-ki. Yodingda bo'lsin, qachonki olisda qolgan sayyorangni eslab yuraging g'ussaga to'lsa, men senga yordam qillshim mumkin», deydi? J: **Ilon**
47. Yer sayyorasida kim kichkina shahzodaga do'st tutinadi? J: **Tulki**
48. «Undagi eng go'zal narsa – ko'zga ko'rinnmaydigan narsadir. Eng asosiy narsani ko'z ilg'amaydi, u siyratda, bolinda pinhon». Ushbu fikrlar «Kichkina shahzoda» ertagidagi qaysi qahramonga tegishli? J: **Uchuvchi**
49. Kichkina shahzodaga har doim nima yo'ldosh edi?  
J: **Tillarang sharf**
50. Kichkina shahzodaning uchuvchiga bermoqchi bo'lgan sovg'asi nima edi? J: **Quvnoq kulglisi**
51. «Sening sayyorangda odamlar bir chamanzorda

besh mingta gul o'stirar ekan-u, izlaganini topolmas ekan. Holbuki, ular izlagan narsani bir dona guldan, bir qultum suvdan ham topish mumkin». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

J: Kichkina shahzodaga

52. «Afsuski, ko'zlar basir. Ko'ngil ko'zi bilan izlash lozim». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

J: Kichkina shahzodaga

### **ALISHER NAVOIY (1441 – 1501)**

1. Alisher Navoiy tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashganda necha yoshda edi? J: Olti yoshda

2. Alisher Navoiy necha yoshida Lutfiy nazariga tushgan? J: 12 yoshida

3. «Hayrat ul-abror»ning nechanchi maqolali to'g'rilik haqida? J: O'ninchি

4. «Hayrat ul-abror» dostoni necha maqolatdan iborat?

J: 20 maqolat

5. «Hayrat ul-abror»da Navoiy to'g'rilik yo'llining necha xil turini ko'rsatadi? J: 2 xil

6. «Hayrat ul-abror»da Navoiy qanday toifali odamlarning ishini to'la ma'qullaydi?

J: To'g'ri so'zli odamlarning

7. «Hayrat ul-abror»da Navoiy kimlarni «yomon emas» deydi? J: Yaxshilik ko'zlab, ezgu niyatda yolg'oni to'g'ri deb ma'qullaydiganlarni

8. «Hayrat ul-abror»da Navoiy egrilik va to'g'rilikning isboti uchun kimlarning ishini misol qillib keltiradi?

J: Bog'bon va dehqonning

9. To'qson yoshli Mavlono Lutfiy yosh Alisherning qaysi she'rini eshitib hayratga tushib, qayil qolgan?

J: «Orazin yopqoch, ka'zumdin sachilur har lahza yosh, Bo'yakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyash»

10. «Sher bilan durroj» hikoyasidagi durroj so'zining ma'nosi nima? J: Kaptarning bir turl, qirg'ovul

11. Navoiy qo'lli egrining qo'lini xalq kesib to'g'ri qilishi haqidä qaysi maqolatida bayon etadi?

J: O'ninchi maqolatda

12. Qaysi maqolat «Har kim o'ziga to'g'rilikni odat qilgan bo'ssa charxning teskari aylangani bilan uning nima ishi bor?! O'qning uchishi to'g'ri bo'lgandan so'ng yerning egriligining unga nima ziyoni bor?!» degan purma'no fikrlar bilan boshlanadi?

J: O'ninchi maqolat

13. «Sham o'z to'g'riliği bilan xursand; boshdan oyoq kuysa ham, u nurga aylanadi. Yashin egrilikni odat qilgan bo'lib, hamma yoqni yoritsa-da, yerning ostiga kiradi». Ushbu fikrlar qaysi maqolatdan olingan?

J: O'ninchi maqolatdan

14. «Sher bilan durroj» hikoyasida shernen bolasi har safar tug'ilganida qanday larzda halok bo'lardi?

J: Chumollilar talaganli uchun

15. Sher nima uchun durroj bilan do'st tutinishga majbur bo'ladi? J: Bolasini tishlab u yoqdan bu yoqqa o'zil bilan olib yurganida, ustidan durroj nogahonda pirr etib uchar, bundan cho'chib ketgan sher bilmasdan bolasini qattiq tishlab olar, natijada bechora bolasi

**ozor chekar edi. Shuning uchun sher durroj bilan do'st tutinadi**

### **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483 – 1530)**

1. Boburning bizgacha yetib kelgan she'larining hajmi qancha?

J: **400 dan ortiq**

2. Boburning bizgacha nechta devoni yetib kelgan?

J: **1 ta**

3. «Beqaydman-u xarobi siym ermasmen, Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen» misralaridagi «beqayd» so'zining ma'nosini toping. J: **Kishansiz, erkln**

4. «Beqaydme-nu xarobi siym ermasmen, Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen» misralaridagi «laim» so'zining ma'nosini toping. J: **Gado**

5. «O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim, Yo Rab, neta-yin, ne yuz qarolig' bo'ldi» misralaridagi «Hind» so'zining ma'nosini toping. J: **Hindiston, qora**

6. «Xush ulki, ko'zum tushti sening ko'zungga, Bevosita holimni desam o'zungga. Bermay so'zuma javob ách-chig'lanesen, Qilding meni muhtoj chuchuk so'zungga» misralarining janri va muallifini toping. J: **Bobur, ruboly**

7. «Yo qahr-u g'azab birla meni tufroq qill Yo bahri ino-yalingga mustaq'raq qill Yo rab, sendadur yuzum qaro gar oq qil, Har nav' sening rizong erur andoq qil!» misralarining janri va muallifini toping. J: **Bobur, ruboly**

8. «Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen, Sen shu'laseren, ul shu'lag'a men kuldurmen. Nisbat yo'qtur, deb

ijtinob aylamakim, Shahmen elga, vale senga quldurmen» misralarining janri va muallifini toping. J: **Bobur, ruboiy**

9. «Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen, Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldurmen. Nisbat yo'qtur, deb ijtinob aylamakim, Shahmen elga, vale senga quldurmen» misralaridagi «ijtinob» so'zining ma'nosini toping.

J: **Uzoqlanish**

10. «Ko'pdin berikim yor-u diyorim yo'qtur, Bir lahma-yu bir nafas qarormi yo'qtur. Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla, Lekin borurimda ixtliyonim yo'qtur» misralarining muallifi va janrinj toping. J: **Bobur, ruboiy**

11. «Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur, Ko'zdin uchjadur uyqu chu oqshom bo'ladur. Har ikkalasi g'amim bila sabrimk, Borg'on sori bu ortadur, ul kam bo'ladur» misralarining muallifi va janrini toping. J: **Bobur, ruboly**

12. Bobur necha yoshida Farg'ona hokimligini qo'lga oladi? J: **12 yoshda**

13. Bobur Samarqandni zabit etganda necha yoshda edi? J: **15 yoshda**

14. Boburning bizgacha yetib kelgan merosida nechta she'r ber va ulaming nechtasi ruboiy janrida?

J: **400 dan ortiq she'r, 200 dan ortig'i ruboly janrida**

15. Boburning «Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi» deb boshlanuvchi ruboysi kim yoki nima haqidagi?

J: **Vatan haqida**

16. Boburning qaysi ruboysida Vatandan yiroq bo'lganlik, unga intilib yeta olmaslik fojeasi hazil-mutoyiba bilan beriladi? J: **«Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi» ruboysida**

17. Ruboiylaridan birida kecha qorong'i, yo'l balchiq bo'lganligi sababli yor vasliga yeta olmagan oshiq, kechanning qorong'iligiga sabab o'zining «oh» va «tutun»i bo'lsa, yo'lning balchiqligiga sabab esa shu qadar ko'p ko'z yoshi fo'kib, balchiq qilib yuborganligida deya betakror o'xshatish va timsol yaratgan shoir kim? J: **Bobur**

18. «Hijron qafasida jon qushi dam qiladur, G'urbat bu aziz umrni kam qiladur. Ne nav bitay firoq-u g'urbat sharhin, Kim ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur» misralarining muallifi va janrini toping. J: **Bobur, ruboly**

19. «Dushmanki, bu dahr zabardast qilur, Naxvat mayidin bir necha kun mast qilur. G'am yemaki, yetkursa boshini ko'kka, Oxir yana yer kibi oni past qilur» misralarining muallifi va janrini toping. J: **Bobur, ruboy**

20. «Ahhbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz! Jam'lyatingiz borini davlat tutungiz! Chun gardishi charx bu durur, Tangi uchun, Bir-biri necha kun g'animat tutungiz!» misralarining muallifi va janrini toping. J: **Bobur, ruboly**

21. «Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak. O'rolg'ani ilm tolibi ilm kerak! Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q; Men bormen ilm tolibi – ilm kerak!» misralarining muallifi va janrini toping. J: **Bobur, ruboly**

22. «Har yerda gul bo'lsa – tikon bo'lsa, ne tong?! Har qandaki may durdidan bo'lsa, ne tong?! She'rimda agar hazil, agar jid, kechurung, Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?!» misralarining muallifi va janrini toping.

J: **Bobur, ruboly**

23. «Ey yor, sening vaslingga yetmak mushkil, Farxon-da hadisingni eshitmak mushkil. Ishqingni dog'i bir taraf

etmak mushkil, Boshni olibon bir sari ketmak mushkil» misralarining muallifi va janrini toping. J: **Bobur, ruboiy**

### RUBOIY HAQIDA TUSHUNCHА

1. Qofiya nima? J: Misra oxiridagi ohangdosh so'z
2. Radif nima? J: Misra oxiridagi takrorlanuvchi so'z
3. Ruboiy so'zl qaysi tildan olingan va uning ma'nosini toping.

J: **Arabcha so'z ba'llib, to'rtlik degan ma'noni bildiradi**

4. Ruboiyning qofiyalanish tartibi qanday?

J: Ikki xil: a – a – b – a, a – a – a – a

5. Ruboiy qaysi vaznda yoziladi? J: **Aruz vazni haza**j**bahrinling axram va axrab shakllarida**

6. Keyingi yuz yil ichida ruboiyning qaysi muhim xususiyatiga juda kam rivoja qilmoqdalar?

J: **Aruz vazni haza**j**bahrinling axram va axrab shakllaridan birida yozilishiغا**

7. Fors-tojik adabiyotida ruboiy janrida shuhrat qozongan shoirlar kimlar? J: **Umar Xayyom, Abdulqodir Bedil**

8. O'zbek she'riyatida qaysi shoirlarning ruboilyari juda mashhur? J: **Allisher Navoly va Zahiddin Bobur**

### MUQIMIY (1850 – 1903)

1. Muqimiy ijodini jiddiy va samarali o'rganish yurtimizda qachondan boshlandi? J: **1930-yillardan**
2. Qaysi sana Muqimiy ijodini o'rganish tarixida yangi davr bo'ldi? J: **1953-yl**

3. Qaysi shoir «hujrai tang va torlikda bekaslik va g'ariblik chirog'ini yoqib» umr o'tkazdi? J: **Muqimiy**

4. Muqimiy xattotlikni kimdan o'rgandi?

J: **Muhammad Yusuf xattotdan**

5. Qaysi ijodkor adabiyotimizda hajviyotni yangi bosqichga ko'targan va satira maktabini yaratgan ijodkor sifatida qadrlanadi? J: **Muqimiy**

6. Epistolyar janr qanday janr? J: **Adabiy maktublar**

7. Muqimiydan bizgacha yetib kelgan merosning, umumiy hajmi qancha? J: **10 ming misradan iborat**

8. Muqimiy ijodiga xos bo'lgan janrlarni toping.

J: **G'azal, ruboiy, muxammas, murabba', tuyuq, fard**

9. Muqimiy sayohatnomalari yo'nalishlari nethi te'g'i sanalgan qatorni toping.

J: **Qo'qondan Shohimardonga, Qo'qondan Ferg'a-naga, Qo'qondan Isfaraga**

10. Muqimiy sayohatnomalari qanday boshlanadi?

J: **Zamondan, turmushdan shikoyat bilan**

11. «Faryodkim, garduni dun Aylar yurak bag'rimni xuni Ko'rdiki bir ahli funun – Charx anga kajraflor ekan» satrini bilan Muqimiyning qaysi sayohatnomasi boshlanadi?

J: **Qo'qondan Shohimardonga**

12. Muqimiy sayohatnomasida shoir qaysi qishloqqa yurish qilganda bir chitfurush yo'ldosh ekanligini aytadi?

J: **Ultarma**

13. Muqimiy sayohatnomasida Xo'ja Iso badkor nomli mingboshi qayerlik? J: **Qo'shtegi rmon**

14. Muqimiy sayohatnomasida shoir qaysi qishloqni «dashti qaroqchizor» deb ataydi? J: **Do'rmancha**

15. Muqimiy sayohatnomasida bo'lus G'ozi qayerlik?

J: **Da'rmancha**

16. Muqimiy sayohatnomasida qaysi qishloq boylari mehmonni yomon ko'rishi ta'kidlanadi? J: **Oq yer**

17. Muqimiy sayohatnomasida «ermaklari ka'knor» deb ta'riflangan qishloq? J: **Da'rmancha**

18. Muqimiy sayohatnomasida «firdavs bog'i» deb ta'riflangan qishloq? J: **Roshidon**

19. Muqimiy sayohatnomasida qaysi qishloqda sellarda qolib ketganini aytadi? J: **Oltiariq**

20. Muqimiy sayohatnomasida «bir ko'cha ketguncha do'kon» deb ta'riflangan qishloq? J: **Zohidon**

21. Muqimiy sayohatnomasida «yer ostida zindon» deb ta'riflangan qishloq? J: **Chimyon**

22. Muqimiy sayohatnomasida «maqomi dilfuzo, ko'chalari dilkusha» deb ta'riflangan qishloq?

J: **Vodil**

23. Muqimiy sayohatnomasida «serchashma, kamchang» deb ta'riflangan qishloq? J: **Qudash**

24. Muqimiy sayohatnomasida qaysi qishloqning odamlari yengilnamo, bir-birlari bilan ko'p jang qiladi deb ta'riflanadi? J: **Yayfan**

25. Muqimiy sayohatnomasida yetimning haqini yeydigan odamlar qaysi qishloqda yashashlari aytildi?

J: **Beshariq**

26. Muqimiy sayohatnomasida «bir ko'cha ketguncha soy, dukchisidan attorl ko'p, choyxo'ridan ko'knori ko'p» deb ta'riflangan qishloq? J: **Rafqon**

27. Muqimiy sayohatnomasida qaysi qishloqda ashak-

dan ham yomon kuylaydigan juvonga uchraganini afsuslanib aytadi? J: **Rafqon**

28. Muqimiyyat sayohatnomasida qaysi qishloqqa kirmay qaytganini aytadi? J: **Konibodom**

29. Muqimiyyatning «Qo'qondan Isfaraga» yo'nalishli sayohatnomasida va «Qo'qondan Farqonaga» yo'nalishdagi sayohatnomasida ham nomi tilga olingan qishloqlar qaysi? J: **Yayfan, Nursux, Rafqon**

30. Muqimiyyat sayohatnomasida «dehqonlarining qorni to'q, masjidlari ko'p» deb ta'riflangan qishloq? J: **Nursux**

31. Muqimiyyat sayohatnomasida «zebo sanam, qalam qoshli jononlari ko'p» deb ta'riflangan qishloq? J: **Yayfan**

32. Muqimiyyat sayohatnomasida «o'ynab kelodur suvlari, shirin zardolulari» deb ta'riflangan qishloq? J: **Isfara**

33. Muqimiyyat sayohatnomasida «bir tangaga bir qurut soladigan baqqollari insafsiz» deb ta'riflangan qishloq?

J: **Yakkatut**

34. Muqimiyyat sayohatnomasidagi qaysi qishloqning mingboshisi quruq savlatli Esh davlat aka edi? J: **Yakkatut**

35. Muqimiyyat sayohatnomasidagi qaysi qishloqning odamlari har mevasining bir tupigacha sotadigan, bir so'mnl yuz yeridan tugadigan xasis deb ta'riflaydi? J: **Rafqon**

36. Muqimiyyat sayohatnomasida qaysi qishloqni ko'rmanligi uchun ko'p afsus chekadi? J: **Tlkka Rabot**

37. So'finamo, qo'lida tasbeh-u bo'ynda rida, dog'uli, ayyor deya ta'riflangan mingboshi qaysi qishloq mingboshi? J: **Oltilarq**

38. «Chun shahrdin chiqdim Qudash, Ko'ngil bo'lib mahzun-u g'ash, Majnunsifat, devonavash, Serchash-

ma-yu kam chang ekan» deya boshlanuvchi sayohatnomaga qaysi? J: «**Qo'qondan Farg'onaga**»

40. «Aflok kajraftor uchun, Har dam ko'ngil afgor uchun, Ho'qand tang-u tor uchun, Sahro chiqish darkor ekan» degan misralar bilan qaysi sayohatnomaga boshlana-di? J: «**Qo'qondan Isfaraga**»

41. Mirza Umar, Burhon, mingboshi Xol sarkor, Hoji Zuhur, Hofiz Umar, Qahhor kabi kishilar obrazi qaysi sayohatnomadan berilgan? J: «**Qo'qondan Isfaraga**»

## SAYOHATNOMA HAQIDA TUSHUNCHА

1. O'zida sayohat xotiralari va ular bilan bog'liq tafsilotlarni aks ettiradigan sayohatnomalar qanday yo'lida yaratilgan? J: **She'rly va nasriy yo'lida**

2. Sayohatnomalarning dastlabki namunalari qaysi shoirlar ijodida uchraydi? J: **Navoiy, Bobur**

3. O'zbek adabiyotida sayohatnomaga janrining alohida poetik shaklda tartib loptirgan shoir kim? J: **Muqimiy**

4. Sayohatnomaga yozgan shoirlarni aniqlang.

J: **Zavqiy, Muqimly, Furqat, Tajalliy, Maximur**

5. Sayohatnomaning ichki tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatni toping. J: **Kirish, ya'nli sayohatga chiqish ehtiyojlari, sabablari aytiladi; yo'l xotiralari batafsill bayon etiladi, sayohatlardan muayyan xulosalar chiqariladi**

6. O'zbek adabiyotida mukammal ko'rinish olgan, adabiy an'anaga aylangan «Sayohatnomaga» janrining asoschisi deya kimni ko'rsatish mumkin? J: **Muqlimlyni**

## SA'DIY SHEROZIY (1189 – 1292)

1. Sa'diy Sheroziy nomini butun jahonga tanitgan asarlari qaysi? J: **G'azallari va «Bo'ston», «Gulliston» asarlari**
2. Sa'diy Sheroziy qaysi asarida bir suhbatda shaharning qimmatbaho kiyimlarga burkangan kazo-kazolari yecholmagan masalani poygakda o'tirgan yirtiq kiyimli darvesh yechib bergenini va o'sha darvesh mening o'zim edim deb yozadi? J: **«Bo'ston» asarida**
3. «Qorning lo'q esa, erpa noni yaxshi ko'rinmas, Gar och esang, oy qursi kabi xo'b erur va sof» misralari qaysi asardan olingan? J: **«Gulliston» asaridan**
4. Bir podshoh kema safariga chiqadi. Kemadagi bir ajamiy qul kemaga 1-marta chiqqani uchun yig'layverib hammani bezor qilib yuboradi. Shunda tabib u qulning burnini suvga tiqishni maslahat beradi. Burnigacha suvga botgan qul shundan so'ng, bir burchakda indamay ketadi. Buning sababini so'ragan shohga tabib qanday javob beradi? J: **Suvga g'arq bo'lismalning qanday yomonligini bilganli uchun jim bo'llib qoldi, kemaning suvga g'arq bo'lismadan bexatar ekanini bilganidan jlm bo'llib qoldi**
5. «Bo'ston» asari qachon o'zbekchaga o'girilgan?  
J: **1960- yilda**
6. Sa'diyning qaysi asaridagi bir hikoyatdan yomon xotin davosiz dard, hayosiz dushman kabitidir degan xulosa chiqadi? J: **«Gulliston» asaridan**
7. «Gulliston» asarida qaysi shoh bu loq boshiga «Ko'plar ham bu chashma boshiga yetdi, suv Ichdi, dunyodan ko'z yumib ketdi. Qanchasi zulm ila clamni oldi,

Go'rga o'zi ketdi, olgani qoldi» degan so'zlarni yozdirgan?

J: Jamshid

8. «Biyobonda quduq qazolmasang boq, Qabristonga kirib bitta chiroq yoq» misralari qaysi asardan olingan?

J: «Bo'ston» asaridan

9. «Ustiga kitob ortilgan eshak, Na olim va na donodir beshak» misralari qaysi asardan olingan?

J: «Bo'ston» asaridan

10. «Ey sorbon, ohista ron oromi jonam meravad – Ey sorbon, ohista yur, oromijonim ketmoqda» deb boshlanuvchi g'azal muallifi kim? J: Sa'diy Sheroziy

12. Fransuz Volter, nemis Gyote o'z asarlarida qaysi shoirning she'rlariga murojaat qilgan? J: Sa'diyning

13. «Bo'ston» asari qachon yaratilgan? J: 1257-yilda

14. «Guliston» asari qachon yozilgan? J: 1258-yilda

15. «Guliston» asarida hunar o'rjanmoqning foydasi haqida nima deyiladi? J: Hunar shunday boylikki, uni na o'g'ri o'g'irlay oladl va har yerga borsa, ohibi qadr bo'lur, majlisning yuqorisida o'litrur

16. Damashq shahrida bir kishini faranglar qo'lidan tanishi ozod qiladi va Halabga olib borib, xunuk va badfe'l qizini 100 tillo berib unga nikohlaydi. Bunday xotin bilan yashash unga do'zax olovida yonmoqdan ham battarroq tuyuladi. Xotin eriga: «Seni otam o'n tillo berib farang asirligidan qutqazib olmaganmidi?!» deb ta'na qildi. Er dedi: «Ha, men o'sha otang o'n tillo berib farang asirligidan qutqarib olgan, lekin yuz tillo bilan sening qo'lingga tutqazib, jabr-u sitam zanjirini bo'ynimga solgan kishiman». Bu parcha qaysi asardan olingan? J: «Guliston» asaridan

17. «Fildek zo'r bo'sang-u, sherdeklar urushqoq, Nazdimda, jangdan sulh ming bor afzalroq» hikmatli so'zi kimni? J: **Sa'diy**

18. «Ta'bi ayblo'yilik bo'lsa agar bas, Tovus oyag'idan boshqasin ko'rmas» satrlarining ma'nosini toping.

J: **Ayb axtarishning noto'g'riliqi haqida**

### **ABDULLA AVLONIY (1878 – 1934)**

1. Abdulla Avloniyning ilk she'rli mashqlari qachon biltigan? J: **1894-yilda**

2. Nechanchi yildan boshlab o'z mashqlari bilan matbuot saifalarida qatnasha boshladi?

J: **1905-yildan**

3. Nechanchi yillarda gazetchilik bilan shug'ullandi?

J: **1905 – 1908-yillarda**

4. 1906-yilda chiqa boshlagan qaysi gazetalarda ishladi? J: «**Taraqqiy**», «**Xurshid**»

5. 1907-yilda Avloniy muharrirligida birinchi soni bosmadan chiqqan gazeta qaysi? J: «**Shuhrat**»

6. Avloniy tashabbusi bilan ochilgan mahalliy xalq bolalarining o'qib, bilim olishiga ko'maklashish maqsadida pul yig'ib, maktablarga tarqatadigan «Jamiyat xayriya» tashkiloti qachon ochilgan? J: **1909-yilda**

7. 1913-yilda Avloniy tomonidan ochilgan «Turon» Jamiyatining vazifasi nimalardan iborat edi?

J: Aholl o'rtasida sahna ishlariga qizlqlish uyg'otish, xalq uchun spektakllar qo'yib berish va ular orqali om-maga ma'naviy oziq berish; klub, muslqa kurslari, ku-

tubxona va qiroatxonalar ochish; o'quvchilarga mod-diy yordam ko'rsatish va shu kabilar

8. Qaysi ijodkor o'ntaga yaqin pyesani ozarbayjon tilidan o'zbekchaga tarjima qilgan, 3 ta yangi pyesa yozgan va ularni sahnalashtirgan? J: **Abdulla Avloniy**

9. Avloniying darslik va o'quv qo'llanmalari qaysilar?

J: «Birinchi muallim» (1909), «Ikkinchi muallim» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), «Maktab gulistonii» (1916), olti qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rler» (1909 – 1916)

10. O'tgan asrning 30-yillarida 7-sinf o'qish xrestomatiyasini tuzib nashr qilgan ijodkor kim? J: **Avloniy**

11. Avloniy nechanchi yillarda diplomatik vazifalarda ishlagan? J: 1919 – 1920-yillarda

12. Avloniy qanday unvonlar bilan taqdirlangan?

J: «Mehnat qahramoni» (1927), «O'zbekiston xalq maorifi zarbdori» (1930)

13. «Men ayblik emas, ey vatanim, tog'larim, Bevaqt lashlab ketdim, ayo bog'larim. Hijron qiladur meni judolig'. Do'ndi g'ama ro'z-u shab chog'larim» misralarining muallifi kim? J: **Avloniy**

14. Avloniying tarbiya haqidagi hikmatli so'zlaridan namunalar: «Har millatning saodati, davlatning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir», «... tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

15. Lirik she'rlerida Hijron taxallusini qo'llagan shoir kim? J: **Avloniy**

16. «Biz turkistonliklar o'z vatanimizni Jonimizdan ortiq

*suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimo'lар shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerdanni boshqa yerdardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tinklik oson yerdarga o'z vatani larini tashlab hijrat qilurlar edi». Ushbu parcha kimniki? J: Avloniy*

17. «Vatan» she'ri Avloniyning qaysi kitobiga kiritilgan?

J: «**Maktab gulistonl**»

18. «Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan! Javlon urib yashaydurg'on xonamizsan!» Ushbu misralar kimning qaysi asaridan olingan?

J: **Avloniyning «Vatan» she'ridan**

### **ERKIN VOHIDOV (1936-yilda tug'ilgan)**

1. Erkin Vohidovning 1-she'riy to'plami nomini toping.

J: «**Tong nafasi**»

2. «Shoir-u she'r-u shuur» adabiy-falsafiy to'plam qaysi shoir qalamiga mansub? J: **E.Vohidov**

3. E.Vohidovning dostonlari keltirilgan qatorni toping.

J: 1. «**Ruhlar isyonis**»; 2. «**Istanbul fojiasi**»; 3. «**Palatkada yozilgan doston**»

4. E.Vohidovning «O'zbegim» qasidasi qachon yaratilgan? J: **1968-yilda**

5. Qaysi shoir ijodida A.Blok, L.Ukrainka, R.Hamzatov asarlaridan tarjimalar mavjud? J: **E.Vohidov**

6. E.Vohidovning birinchi dostoni qaysi? J: «**Nido**»

7. «**Tong lavhasi**», «**Kamtarlik haqida**», «**Bulaq**», «**Sevgi**», «**Ona tuproq**» kabi she'rlar muallifini toping.

J: **E.Vohidov**

## **ABDULLA ORIPOV (1941-YILDA TUG'ILGAN)**

1. «Sohibqiron» nomli she'riy drama yozgan ijodkor kim? J: **A.Oripov**
2. Dantening «Illohiy komediya» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan shoirni toping. J: **A.Oripov**
3. A.Oripov «O'zbekiston» qasidasining hajmi?  
J: **140 misra**
4. «O'zbekiston» qasidasi qachon yaratilgan?  
J: **1968-yilda**
5. «O'zbekiston» qasidasi necha satrli she'r? J: **10 satrli**
6. Birinchi kitobi qanday nom bilan qachon nashr qilingan? J: **1965-yilda «Mittl yulduz» nomi bilan**
7. Qaysi ijodkor 1998-yilda shoir va yozuvchilar orasida birinchi bo'lib «O'zbekiston Qahramoni» faxrly unvoni bilan taqqdirlandi? J: **A.Oripov**
8. «O'zbekiston» qasidasining 2-bandida qaysi shoirlar tilga olingan? J: **Hamid Olimjon va G'afur G'ulom**
9. «Osmon ilmi fug'ilgan ilk bor Ko'ragoniy jadvallarida» (3-band) degan misralarda qaysi olim nazarda tutilgan? J: **Mirzo Ulug'bek**
10. «Besh askrim nazmliy saroyni Titratadi zanjirband bir sher» misralarida (5-band) qaysi shoir nazarda tutilgan? J: **Alisher Navoly**
11. Qasidaning nechanchi bandida ona xalqimizning buyukligi, so'nggi nonini ham o'zi yemay farzandiga tutishi madh etilgan? J: **6-banda**
12. 7-bandda Amudaryodan saman bo'lib sakrab o'tgan qaysi qahramon tilga olinadi? J: **Jaloliddin Manguberdi**

13. Nechanchi bandda Dansigda shahid bo'lgan Sobir Rahimovning jasorati haqida so'z boradi? J: **9-bandda**

14. Nechanchi bandda tashqarida yomg'ir izillab yog'sa-da, paxtazoridan ketmagan dehqon obrazi berilgan? J: **10-bandda**

15. «*Balki ustoz ...dek to'llib Yozajaksan yangi bir doston*» misralarida nuqtalar o'rniqa qasi ijodkorning nomi qo'yilishi kerak? J: **Oybek**

16. «*Balki ... bo'lib Sahrolarda ochajaksan kon*» misralarida nuqtalar o'miga qaysi ism qo'yilishi lozim?

J: **Habib Abdulla**

17. «*O'zbekiston*» qasidasining qofiyalanishi haqidagi qaysi hukm lo'g'ri?

J: **Banddag'i toq va juft satrlar o'zaro qofiyalanib keladi, har bir bandning so'nggi bayti bir-biri bilan qofiyalanadi**

### NODAR DUMBADZE (1928 – 1984)

1. Nodar Dumbadzening qaysi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan? J: **«Kukaracha» qissasi, «Oq bayroqlar», «Abadiyat qonuni» romanlari**

2. Nodar Dumbadzening asarlarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan? J: **Nizom Komil**

3. Qaysi asari asosida o'zbek san'atkori tomonidan ko'p qismli videofilm yaratilgan?

J: **«Abadiyat qonuni» romanlari**

4. Ilk hikoyalar to'plami qanady nomlanadi?

J: **«Qishloq bolalari» (1958)**

5. Dastlabki yirik qissasi qachon qanday nom bilan nashr etilgan?

J: «Men, buvim, Iliko va Illarion» qissasi 1960-yilda

6. Dastlabki roman qanday ataladi va nechanchi yilda yaratilgan? J: 1962-yilda «Quyoshni ko'ryapman» nomi bilan nashr etilgan

7. Dumbadzening qaysi asarlarida ikkinchi jahon urushi yillarda gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqati hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi yorqin aks ettirilgan? J: «Men, buvilm, Iliko va Illarion» qissasi, «Quyoshni ko'ryapman» romanlarida

8. Dumbadze qaysi zamonaviy asarlarida insonlarning bir-biriga munosabatidagi odamiylik, oqibat singari fazilatlarni ulug'laydi?

J: «Quyosh kechasi» (1967), «Oq bayroqlar» (1972) romanlarida

9. Qaysi asarida insonning hayotdagি o'rni, undan talab etiladigan fidoyilik, halollik, vijdonlilik, adolatparvarlik xususiyatlari to'g'risida keng mushohada yuritilgan?

J: 1978-yilda yaratilgan «Abadiyat qonuni»

10. Nodar Dumbadzening «Hellados» nomli hikoyasidagi Yanguli qayerda yashaydi?

J: Venetsian ko'chasida, Chalbash daryosi bo'yida

11. Yanguli necha yoshda edi? J: 14 yoshda

12. Jamol xolavachchasining ismi? J: Koka

13. Yanguli otasining ismi? J: Xrista Aleksandrid

14. Jamolning singan skripkasini kim uyiga olib borib beradi? J: Yangulinning o'ng qo'lli Petya

15. Jamolning onasining ismi? J: Aniko

16. Yangulining ko'kragiga qanday so'z o'yib yozilgandi? J: **Hellados**

17. Jamolning hayotida yangi davr, ya'ni yashash uchun kurash davri qaysi voqeadan keyin boshlandi?

J: **Yangull uning skripkasini sindirgandan keyin**

18. Jamol qayerlik edi? J: **Tbilisilik**

19. Yanguli bilan Jamol necha marta mushtlashadi?

J: **3 marta**

20. Yanguli bilan Jamolning olishuvida kim g'olib chiqadi? J: **1- va 3-sida Jamol, 2-da Yanguli**

21. Yanguli Jamoldan yengilgandan keyin olishuvning qaysi turiga o'tishiari haqida kelishib oladi?

J: **So'kishish haqida**

22. Jamol bilan Yanguli o'rjasidagi so'kishish musobaqasi qancha davom etdi? J: **Yarim yll**

24. Jamollamikiga sut olib kelgan Yangulining yuzi momataloq edi. Uni kim urgandi? J: **Otasi**

25. Yanguli nima uchun kaltak yegandi?

J: **Greklar o'z yurtlari Elladaga qaytmoqchi bo'lisinganda, Yanguli ular bilan birga ketishni xohlamaganini uchun**

26. Yanguli nima uchun o'z yurti Elladaga qaytishdan bosh tortadi? J: **Chunki u Suxumida tug'ilgandi. Uning uchun vatan shu joy edi**

27. Yanguli kimni sevardi? J: **Mida ismli qizni**

28. Jamol Yangulining ko'kragidagi grekcha yozilgan «Hellados» so'zinl ko'sratib bu nima deb so'raganida u qanday javob beradi? J: **«Bu naqsh, Jamol. Vatan Ichkariroqda, naqd yurakning o'zida»**

29. Greklar o'z yurtlariga qaysi kemada jo'nab kelishdi?

J: «Poseydon» nomli kemada

30. Yangulining murdasi qayerdan topiladi?

J: Kelasuri daryosining quyillish joyidan

31. Jamol xolasining ismi? J: Nina xola

32. «Ounasini eslolmaydi – chaqaloqligidayoq yetim qolgan. Ota-bolaning bor-yo'q davlati bir parcha tomorqa, bittagina sigir va eshakdan iborat. Oshko'k, sut-qatiq sotib kun ko'rishadi». Ushbu ta'rif kimning oilasi haqida?

J: Yangulining

33. Xarakter so'zi qanday ma'noni bildiradi?

J: Yunoncha so'z bo'lib, «xususiyat», «belgi» ma'nolarini bildiradi

34. Badiiy asar qahramonlari o'zining tasvir va talqin darajasi, voqealardagi ishtiroti, asarda ko'taradigan «yuki»ga ko'ra qanday turga bo'lindi?

J: 4 turga: personaj, obraz, xarakter, tip

35. Abdulla Qahhor xarakterning yaratilishi haqida nima degan? J: Adabiyot uy daftarida bir odamning paydo bo'llishi

36. Badiiy xarakterda insonga xos qanday xislatlar aks etadi? J: Insонning muhim tug'ma xususiyatlari, bosh-qalarnikiga o'xshamagan irodasi, fashqi ta'sirlar bilan o'zgarishi qiyln bo'lgan tablati

## 6-SINF ADABIYOTI

### G'AFUR G'ULOM (1903 – 1966)

1. «Shum bola» qissasi qachon yaratilgan va qachon hozirgi kungi ko'rinishga keltirilgan? J: **1936-yil yaratilgan va 60-yillarda hozirgi ko'rinishga keltirilgan**
2. Shum bolaning haqiqiy ismi? J: **Qoravoy**
3. Shum bola qaysi boyning xizmatiga kiradi? J: **Sariboy degan boyning**
4. Boy Shum bolaga xizmat haqi uchun nima berishni taklif qiladi? J: **Oyiga xom-pishlq aralash 2 pud 17 qadoqdan olma beradigan bo'ladi**
5. Shum bola o'zining bir aybi borligini boyga aytib qo'yadi. Bu ayb nima edi? J: **Har zamon-har zamonda yolg'on gapirib qo'yishlni**
6. Boyning qanday yomon odatl bora edi? J: **Yoniga borgan odamdan bo'llar-bo'limas narsaga «Innaykeyin» deb savol beraverar, savolliga javob bermaganni urardi**
7. Sariboy kimning mevazorlarini, ichkl-tashqi qo'rg'on-chasini, butun dov-dastgohining hammasini qimorda yutib oladi? J: **Chuvalachidagi Yusuf kontornling**
8. Sariboy qayerdagagi boqqa jo'nab ketadi? J: **Kalasdagagi shlnam bog'iga jo'nab ketadi**
9. Xizmatkorlar tashlagan chek kimga chiqadi? J: **Shum bolaga**
10. Sariboy shiyponda nima yeb o'tirgan edi? J: **Boy shiyponda kalla go'shti bilan nonushta qillb o'tirgan edi**

11. Shum bola Sariboga gapni qaysi voqeadan boshlaydi? J: **Dandon pichog'i slnib qolganini aytadi**
12. Shum bola pichoq singanini qanday izohlaydi? J: **Bu pichoqda tozi itning terislri shilmoqchi bo'lishganini aytadi**
13. Tozi it nima uchun o'lgan edi? J: **It harom o'lgan to'riq qashqanlig go'shtini yeb o'lgan edi**
14. To'riq qashqa nima uchun o'lgan edi? J: **Aravaga qo'shilgani uchun o'lgan edi**
15. To'riq qashqa nima uchun aravaga qo'shilgan edi? J: **Og'ilxonaga o't tushib, barcha otlar nobud bo'lgani, omborga ham o't ketgani uchun**
16. Omborga nima uchun o't tushgan edi? J: **Kenjatoy o'g'il Bo'riboyvachchaning terakdan chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushgani va uning arvohl sham bilan o'ynashsln deb, sham yoqillishi natijasida**
17. Qachon boy choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yorib, soqolini yulib dodlab yig'lay boshlaydi? J: **Kenjatoy o'g'li Bo'riboyning daraxtdan yiqilib o'lganini eshitgandan so'ng**
18. Boy nima sababdan hushidan ketib yiqiladi? J: **Turmushga chiqmagan qizi Adolning o'g'il ko'rgani va o'g'il quyib qo'ygandek Badal aravakashga o'xshashini eshitlib**
19. Bularning barchasi yolg'onligini eshitgandan so'ng boy Shum bolani qanday jazolaydi? J: **Avval Shum bolani 20 qamchl savalaydi va ishdan ketishini buyuradi**
20. Shum bola boyning eshigida qancha ishlagan edi? J: **Bir oy-u 19 kun**

21. Boy Shum bolaga qancha haq to'laydi?

J: **Shu paytgacha bergan 22 tiyin choychaqani bosib qolib, qurt tushgan, sasigan olmalardan ikki pudini beradi**

22. Shum bola olmalarni qaysi bozorga puilash uchun olib chiqadi? J: **Sariog'och bozoriga**

23. Shum bola bozorda olmalarni qanchaga pullaydi?

J: **6 tanga 1 miriga**

24. Shum bola qo'y bozorida kimni uchralib qoladi?

J: **Do'sti Omonni**

25. Omon kimga yollangan edi?

J: **Toshkentlik qa'ychi boylardan biriga**

26. «Shum bola» qissasida «Tuyani shamol uchirsa, echkini omonda ko'r», degan maqol uchraydi. Buning ma'nosi nima?

J: Bu «bir falokat ko'pchilikning boshiga yig'ilsa ham, u har kimga har xil ta'sir qilladi», «Yo'g'on cho'zil-guncha ingichka uziladi», deganidir

27. Qissaning qahramoni necha yoshli bolakay edi?

J: **14 yoshli**

28. Shum bola nima sababdan uydan chiqib ketadi?

J: U onasini **xafa qilib qo'yib uyidan chiqib ketadi**

29. Shum bola necha yil turli joylarda yuradi?

J: **Yarim yildan ortiq**

30. Quyidagi fikrlar qaysi asardan olingen va qaysi qahramonga tegishli: «Qo'l-oyog'i chaqqongina, epchil yigtsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo'l bilan bo'lsa ham tirikchilikning payidan bo'lsang edi, o'g'lim... axir, kissa-karmon degan gaplar ham bor. Naq-

dina pul – ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo'ladi. Naqdina bo'lsin, bolam, naqdina bo'lsin»?

J: «**Shum bola**» qissasidan, Eshonga

31. Omonning bozordan nechta qo'yи sotilmay qaytadi?

J: 73 ta

32. Shum bolani xizmatkorlar qo'shxonasiga kim kuza-lib beradi? J: Uzumchi

33. Sariboy ismiga qaysi nom qo'shib aytilar edi?

J: Bo'llis so'zl

34. «Ular meni qimron bilan mehmon qildilar». Ushbu gapdag'i «qimron» so'zining ma'nosini toping. J: Tuya suti

35. «Egnida qozoqi chakmon bilan boshida teskar'i ag'danilgan telpak, qo'lida boshi cha'qmor kaltak». Ushbu ta'rif qaysi personajga tegishli? J: Omonga

36. «Shum bola» asaridagi qaysi voqeа Sharq xalqlari og'zaki ijodi namunalari – ertaklarni qayta ishlash mahsuli hisoblanadi? J: Sariboyni mot qllish usulli

37. «Xotin qozonning qopqog'ini ochdi, baliqday bo'lib oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o'rtaga qo'ydilar». Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: «**Shum bola**»dan

38. G'afur G'ulom necha yoshida otasi va onasidan ajralgan edi? J: 9 yoshida otasidan, 15 yoshda onasidan

39. Shum bolaning qaysi gapidan keyin «boyning chay-nab turgan yaxna tilni yutishga ham majoli qolmaydin»?

J: O't tushganini eshlitgandan so'ng

40. «Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to'rt tomonga alanglab, o'zimga bir nejot yo'lli qildirar edim». Ushbu parcha qaysi asardan ollingan?

J: «**Shum bola**»dan

41. Omon qa'ychi boyga cho'ponligi uchun bir yilda qancha haq olar edi? J: Ikki to'qil-yu, bir echkl

42. Omonning qo'yłari Sariog'och bozorida sotilmay qolgandan so'ng ularni qaysi bozorga haydab ketishadi?

J: Ko'kterak bozoriga

### QISSA HAQIDA TUSHUNCHА

1. Epik asarlar qaysi jihatiga ko'ra kichik epik janrlar, o'rta epik janrlar va katta epik janrlarga bo'linadi? J: Hayot hodisalarini badily qamrash ko'lamliga ko'ra

2. Kichik epik janrlarga qaysilar kiradi?

J: Latifa, masal, hikoya, rivoyat, ertak, afsona, bida, stud, ocherk, esse

3. O'rta epik janrlarga qaysi janrlar kiradi?

J: Qissa, povest

4. Katta epik janrlar qaysilar?

J: Epos, epiq doston, roman, epopeya

### TUROB TO'LA (1918 – 1990)

1. Turob To'laning ilk she'rliy to'plami?

J: «She'rlar» (1939)

2. Ikkinci jahon urushi yillarda yaratilgan to'plamlari qaysi? J: «Shodilgim» (1941), «Tabassum» (1944)

3. Turob To'laning she'rliy to'plamlarini yaratilish davriga ko'ra to'g'ri joylashtiring. 1. «Baxt tongotarl», «Muborak-bod» 2. «Bolalar dostoni», «Qanotian qo'shiqlarim», «Tangangan asarlar» 3. «Oftobnayzada» 4. «Oromijon», «Guly-or» a) 40-yillar v) 50-yillar s) 60-yillar d) 70-yillar

J: 1-a, 2-v, 3-d, 4-s

4. «Hayo bilan», «Sumbula», «Ko'chalar», «Do'ppi tikdim», «Sartarosh qo'shig'i» kabi qo'shiqlarga aylanib mashhur bo'lgan she'rlari shoirning qaysi to'plamiga kiritilgan? J: «Qanotian qo'shiqlarim» to'plamiga

5. Turob To'la qaysi mashhur kinofilmilar ssenariylarining yaratilishida faol ishlirok etgan?

J: «Maftuningman», «Shashmaqom», «Furqat»

6. Pyesalari.

J: «Qizbulloq», «Nodirabeglm», «Momo yera»

7. Opera librettolari.

J: 1. «Zulmatdan ziyo» 2. «Malikayi ayyor»

8. Balet librettosi. J: «Samarcand afsonasi»

9. Turob To'la Shekspirning qaysi asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?

J: «Qiyiq qizning quyitishi» komedyasini

10. Turob To'la kimlarning she'rlarini mahorat bilan tarjuma qilgan? J: Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Shevchenko, To'qay asarlarini

11. Bojalalar uchun yaratilgan nasriy asari qaysi?

J: «Yetti zog'ora qissasi» (1981)

12. Qaysi asar boshqa nasriy asarlardan bir necha nasriy janrlarda yaratilgan hikoyalarning bir ipga mahorat bilan terilganligi bilan farqlanadi? J: «Yetti zog'ora qissasi»

13. Qaysi asarda o'zbekona mehmondo'stlik oqibatida sevimli toyidan ayrilgan bola obrazi mavjud?

J: «Yetti zog'ora qissasi»da

14. «Fayzi dasturxonchi» obrazi qaysi asarda bor?

J: «Yetti zog'ora qissasi»da

15. «Do'nan» hikoyasidagi soyning nomi? J: **Matansoy**
16. «Yetti zog'ora qissasi»da asar voqealari kimning tilidan hikoya qilinadi? J: **Baxshilla maxsumning**
17. Qaysi asar bobosining qishlog'iga yo'l olgan bolasning bobosidan tinglagan hikoya, afsona, rivoyat va ertaklarini o'z ichiga oladi? J: **«Yetti zog'ora qissasi»**
18. Chorpo'lat, Turbat kabi qishloqlar qaysi asarda tilga olinadi? J: **«Yetti zog'ora qissasi»da**
19. «O'ziga to'q, tinch oilada katta bo'lgan yolg'iz o'g'il», deb ta'riflangan personaj? J: **Toshtemir**
20. «Momo yer» nomli asar yozgan adiblarni foping. J: **Turob To'la, Chingiz Aytmatov**
21. Turob To'laning zamondosh o'zbek adabiyeti san'ati namoyandalariga bag'ishlangan adabiy portret va xotira kitobi qaysi? J: **«Nafosat» (1967) va «Kamalak» (1972)**
22. «Do'nan» hikoyasi qahramoni otini qaysi giyoh bilan buлоq suvida cho'miltirar edi? J: **Jambil bilan**
23. «Do'nan» hikoyasi qahramoni onasining ismi? J: **Bashor kelin**
24. «Yetti zog'ora qissasi» asarida Turob To'la qaysi shoirni «Navoiyni mahliyo qilgan donishmand» deb ta'riflaydi? J: **Atoyni**
25. Qaysi buyuk siymo «Sharq adabiyotining valomatlaridan bin, butun Osiyoni aql-idroki bilan tebratgan» deya e'tirof etiladi? J: **Xo'ja Ahmad Yassaviy**
26. «Yetti zog'ora qissasi» asarida qaysi diniy ma'rifatning ulug' namoyandalari chuqur ehtirom bilan tilga olin-gan? J: **Ismoll ota, Avlyyo ota**
27. Boshqa otlar singari ariqdan suv ichib ketavermay-

digan, faqat buлоqdan suv ichadigan, xuddi odamlarga o'xshab yo'lning o'ng tomonidan yuradigan ot haqida qaysi asarda hikoya qilinadi? J: «**Yetti zog'ora qissasi**» asarida

## XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

1. Xudoyberdi To'xtaboyev qachon va qayerda tug'ilgan? J: 1932-yil 17-dekabrda Farg'onan viloyatining Yapon tumanida Katta Tagob qishlog'ida
2. Xudoyberdi To'xtaboyev kimlarning tarbiyasini olgan? J: Bobosi Erkaboy va buvishi Robiyabibilarning tarbiyasini olgan
3. Qaysi gazetalarda ishlagan?  
J: 14 yil davomida «Toshkent haqiqati», «Sovet O'zbekistoni» gazetalarida
4. Qancha felyeton yozgan? J: 300 dan ortiq
5. Qachondan o'z faoliyatini bolalar hayotiga yo'naltirgan? J: 70-yillar boshidan
6. Qissalari.  
J: «**Omonboy va Davronboy sarguzashti**» qissasi
7. Romanlari. J: «Sehril qalpoqcha», «Sariq devni minib», «Sariq devning o'llimli», «Besh bolali ylgitcha», «Qososkorning oltin boshi», «Yillar va yo'llars», «Sehrigarlar jangi yoki shirin qovunlar mamlakatida», «Jan-nati odamlari» (1996) kabi romanlari bor
8. «Sariq devni minib» asari necha tilga tarjima qilin-gan? J: 24 tilga
9. Xudoyberdi To'xtaboyevning qaysi asari Janni Roda-ning tahsiniga sazovor bo'lgan?

**J: «Sarlq devnl minib» asarl**

10. «Sariq devni minib» asari qahramoni Hoshimjon Ro'ziyev kimning o'g'li? **J: Ro'zivoy traktorchining o'g'li**

11. Hoshimjonning singillari ismi?

**J: Singillari Oysha va Dono**

12. Hoshimjon doim kimdan yozma ishlarni ko'chirib yuradi? **J: Orif degan do'stidan doim yozma ishlarni ko'chirib yuradi**

13. Hoshimjan o'qigan mактаб direktorining ismi?

**J: Otajon Azizovich**

14. Hoshimjon direktorga qaysi fanlarni dars jadvalidan olib tashlash haqida ariza bilan murojaat etadi?

**J: Algebra, geometriya, ona tilli fanlarini ya'qotib, o'rнiga futbol haqida fan qo'ying deydi**

15. Hoshimjon kimdan sehrli qalpoqcha haqida eshitgan edi? **J: Qashqar qishlog'idagi buvisidan**

16. Hoshimjonning buvisi qaysi qishloqdan edi?

**J: Qashqar qishlog'Idan**

17. Hoshimjon sehrli qalpoqchani qayerdan topadi?

**J: Qishloq chetidagi eski uydan topadi**

18. Hoshimjonning sehrli qalpoqchani topgandan keyingi birinchi ishi nima bo'ladi? **J: Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ladi**

19. Folbin ayoлning ismi?

**J: Soraxon folbin Hoshimjonning sinfdoshi Mirobiddinxo'janing onasi bo'lib, qishloqda obro'yi za'r edi**

20. Hoshimjon folbin xolaniнg uyiga kirganda, o'g'li Mirobiddinxo'ja qayerda o'tirgan edi?

**J: Xumning Ichida**

21. Hoshimjon nima uchun maktabdan haydaladi?

**J: Qosimjon degan do'stiga yettiha fandan a'lo baho qo'yib, chorak chiqargani uchun**

22. Hoshimjon maktabdan haydalgandan so'ng qayerga yo'l oladi? J: **Mirzacho'lga**

23. Hoshimjon Mirzacho'lda dastlab kim bilan uchrashadi? J: **Polvontog'a degan kishini uchratadi**

24. Hoshimjon sehrli qalpoqcha yordamida qanday levozimni egallaydi? J: **Agronom**

17. «Nasihatlar» kitobini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan? J: Nosir Fozilov

18. «Nasihatlar» kitobi necha bo'limdan iborat?

J: 44 bo'limdan

19. «..har qanday yalqov kishi – qo'rqaq va g'ayratsiz bo'ladi; har qanday g'ayratsiz, qo'rqaq kishi – maqlanchaoq bo'ladi». Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan?

J: Abayning «Nasihatlar» kitobidan

20. «Nasihatlar» kitobining o'n yettinchi so'z qismida kimlar tortishib qoladi? J: G'ayrat, aql, yurak

21. «Insonni sof saqlaydigan, uni gunohkorlikdan, johillikdan, shaytonning gapiga kirib, nats balosiga girifor bo'lishlikdan saqlaydigan, adashgan bandalami to'g'ri yo'lga solib yuboradigan» fazilat? J: G'ayrat

22. Kishi eshitgan narsasini unutmaslik uchun to'rtta shart bor. Bular...

J: Zehnli bo'imloq, unga chln yurakdan Ixlos qo'yib, fahm-farosat bilan uqlb olish, eshitganlarning Ichida bir necha marta takrorlab, ko'ngliga jo qilmoq, ko'ngilga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmaslik

23. «Yomon do'st – bir ko'lankadir: quyoshli kunda qochsang ham qutulolmaysan, bulutli kunda esa izlasang

*ham topa olmaysan».* Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan? J: Abayning «Nasihatlar» kitobidan

24. «G'ayratsiz jahl – ..., qayg'usiz oshiq – ..., shogirdsiz olim – ...» Nuqtalar o'rniغا qo'yilishi kerak bo'lgan so'zlarni toping. J: «Tul»

25. «Dunyo kattakon ko'l. Zamona esa esib turgan yet. Oldindagi to'lqin – og'alar bo'lsa, ketingdagi to'lqin – inillardiro». Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan?

J: Abayning «Nasihatlar» kitobidan

26. «Odamgarchilik kishining qalbida bo'ladi, qalbingni pok saqla». Ushbu parcha nechanchi qismdan olingan?

J: 17-so'z qismidan

27. «Nasihatlar» kitobining 32-qismi nima haqida?

J: Im-hunar o'rganishning shartlari haqida

28. 37-so'z qismidan parchalar:

«Insonning insonligi ishni qanday boshlaganidan bilinadi, lekin qanday tugaganidan emas»;

«Ko'nglingdagi ko'rkan o'y og'zingdan chiqqach xiralanadi»;

«Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil, yomonga qilgan yaxshiling boshingga balo bo'lib tushadi»;

«Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'll Odam bolasi – elning lolasi»;

«Ishning omadi – o'z vaqtin»;

«Tuyadek bo'y bergandan, tugmadek aql bergen ortiq. Soqolini solgan qaridan mehnatini sotgan yosh ortiq»;

«Quvonch va mag'rurlik – mastlikdir. Faqat mingdan bir kishigina bu narsadan o'zini ehtlyot qiladi».

## ZULFIYA (1915 – 1997)

1. Xalqaro «Nilufar», Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sovrindorlari bo'lgan shoira kim?

J: Zulfiya

2. Zulfiya qaysi yillarda O'z FA Til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan? J: 1935 – 1938-yillarda

3. Zulfiya qancha vaqt «Saodat» nomli xotin-qizlar journalida bosh muharrir bo'lgan?

J: 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb 30 yilga yaqin

4. Dastlabki she'rlari qanday nom bilan, qachon bosilib chiqqan? J: «Hayot varaqlari» nomi bilan 1932-yilda

5. She'riy to'plamlari. J: «She'rlar», «Qizlar qo'shig'i», «Uni Farhod der edilar», «Hijron kunlarida», «Dalada bir kun», «Tong qo'shilg'i», «Yuragimga yaqin kishilar», «Kuylarim slzga», «O'yilar», «Shalola»

6. Zulfiya turmush o'rtoq'i Hamid Olimjonning qaysi dostonlari asosida pyesa va librettolarini yaratdi?

J: «Zaynab va Omon», «Semurg» dostonlari asosiida

7. Dostonlari. J: «Quyoshli qalam», «Musho'ra», «Xotira siniqlarli» kabi poemalar yozdi

8. Zulfiya qaysi xalq shoiralarining she'rlarini q'zbek tiliga tarjima qildi?

J: Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoiralarining

9. Zulfiyaning she'rlari qaysi tillarga tarjima qilingan?

J: Ingliz, nemis, rus, bolgar, xltoy, hind, yapon, arab, fors, vietnam kabi juda ko'p tillarga

10. «Nevara» she'ri kimga atalgan?

J: Nevarasi Ulugbekka

11. «Men o'tgan umrga» she'rida qaysi misralar ikki marta takrorlanadi?

J: «Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim»

12. «Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob, Yurak boyligidan qilmabman parvo. Meni og'ushlagan hayot naq oftob, Yangi qo'shiq talab unda har saboh» misralarining muallifi? J: Zulfiya, «Men o'tgan umrga» she'ri

13. «Bu – qadim dunyoda yangi bir olam, Bunda orqa tog'siz bir tirk jon yo'q» misralarida «orqa tog» – suyanch kim? J: Xalq

14. Zulfiya haqida kim «Nafaqat o'z she'hari bilan, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon eta olgan atoqli, ... fidoyi inson bo'lib ...ma'naviy jasorat ko'tsatdi», – deb aytgan? J: Prezident I.Karimov

15. «Nevara» she'rida shoira. nevarasining qaysi qillig'idan zavqlanadi? J: Varrak uchirishldan

16. «Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim, Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash: Suydim, Erkalendim, Ayrildim, Kuydim, Izzat nima bildim. Shu-da bir yashash!» misralarining muallifi? J: Zulfiya

17. Zulfiyaning «Aziz tuyg'ular» nomli turkumiga kiruvchi she'larini toping.

J: «Nevara», «Bog'lar qlyg'os gulda» she'rlari

18. «Bog'lar qiyg'os gulda» she'rida «shoir xayoliday latif, serhasham», deya ta'riflangan daraxt? J: Majnuntol

19. «Aziz tuyg'ular» she'rly turkumi nechta she'rni birlashtiradi? J: 7 ta

20. «Bog'lar qiyg'os gulda» she'rida «bir kaft bog» «qanday ramzly ma'noni anglatadi? J: Vatanni

## **PIRIMQUL QODIROV (1928)**

1. Qaysi yuzuvchining otasi jamoalashtirish davrida quloq qilinadi? J: **Pirimqul Qodirovning**
2. Qaysi o'quv yurtini tugatgan? J: **Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakultetini**
3. Pirimqul Qodirov Moskvadagi aspiranturaga o'qishta kirib, 1954-yilda qaysi mavzuda tadqiq etilgan nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi? J: **Abdulla Qahhor asarlarning tilli va uslubiy jihatlarini mavzusida**
4. Dastlabki kitobi qachon qanday nom bilan e'lon qilindi? J: **Talaballik paytidayoq «Studentlar»ni e'lon qildi**
5. Qissalarini toping.  
J: **«Meros», «Erk», «Qadrim», «Yayra institutga kirmoqchi», «Najat», «Akramning sarguzashtlari»**
6. Romanlarini toping. J: **«Uch Ildiz», «Qora ko'zlar», «Olmos kamari», «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovonli»**
7. «Meros» qissasida kimlar tasvirlanadi?  
J: **Paxtakorlar**
8. «Uch Ildiz» romanida kimlar tasvirlanadi?  
J: **Ziyollar**
9. «Qadrim» qissasida kimlar tasvirlanadi?  
J: **Neft konlarini izlovchilar**
10. «Yulduzli tunlar» romanini kim haqida?  
J: **Bobur haqida**
11. «Avlodlar dovonli»da kimlarning hayoti tasvir etildi? J: **Hindistonda buyuk Bobur tomonidan asos solindi**

## **gan Boburiylar sultanatining Humoyun, Akbarshoh va boshqa namoyandalari**

12. «Avlodlar dovon» romanining asosiy voqealari qayerde yuz beradi?

**J: Mirzo Bobur vafotidan so'ng, u yangidan tashkil etgan Hind mamlakatida yuz beradi**

13. Boburning suyukli farzandi, valiahdi Humoyun Mirzoga aqlli va makkor Sherxon bilan bo'lib o'tgan janglarda kim yordam beradi? **J: Nizom ismli yigit**

14. Nizom qanday obraz? **J: To'qlima obraz**

15. Kimlar Hamidabonuga oshiq edi?

**J: Nizom va Humoyun**

16. Hamidabonu kimga ko'ngil bergen?

**J: Qayiqchi Nizomga**

17. Sherxon va Humoyun o'rtaсидаги jang qaysi daryolar qo'shiladigan joyda yuz beradi?

**J: Ganga va Karamnasa daryolari**

18. Sherxon oldiga kimlar elchi qilib yuboriladi?

**J: Bayramxon va Xo'ja Husayn**

19. Sherxon sulk tuzib, so'ng uni buzmoqchi bo'lganda unga kim qarshi chiqadi? **J: O'g'il Qutbxon**

20. Sherxon sulk tuzish uchun Humoyunga qaysi qal'alarini berish zarurligini aytadi?

**J: Chunor qal'asi va Buxar viloyatini**

21. Humoyun Chunor qal'asi uchun necha oy jang qilgan edi? **J: 6 oy**

22. Hindlarning odati bo'yicha qaysi faslda jang qilish mumkin emas edi? **J: Pashkol – yomg'irlar faslida**

23. Sherxonga sulk tuzish niyatida borganda kim

so'zlarining rostligini isboti sifatida Qur'oni Karimni guvoh qilmoqchi bo'ladi? J: **Xo'ja Husayn**

24. Agraga kulvol qilib tayinlangan poraga solilmaydigan, podshohga sadoqat bilan xizmat qiladigan personaj kim edi? J: **Amir Bahlul**

25. Sherxonning Agradagi xufiyasi ismi?

J: **Alvaro Pakavira**

26. Sherxon o'g'illarining ismi? J: **Qutbxon va Jalolxon**

27. Humoyunga qarshi jang qilishda Sherxon tomonidan chaqirilgan mashvaralda kimlar ishtirot etadi?

J: O'g'illari: **Qutbxon, Jalolxon va rajputlar sar-kardasi Bikramadit Gaur, Sherxonning lashkarboshisi Havasxon**

28. Boburning Panipatda nechta kishini o'ldirganligi aytildi? J: **40 ming kishi**

29. Boburning farmoni ila qaysi qo'rg'onda 3 ming kishini qatli om qilishadi? J: **Bajur qo'rg'onida**

30. Humoyun Sherxon bilan jang qilganda unga oila ahlidan kimlar hamroh bo'lgan edi?

J: **6 yashar qizi Aqiqa begim, xotinlari Beka begim va Chandbibi**

31. Nizom qaysi kemaning eshkakchisi edi?

J: «**Gunjayish**» kemasining

32. Humoyun Sherxon bilan bo'lgan jangda qaysi qo'llidan yaralanadi? J: **O'ng qo'llidan**

33. Hind kemachilari qaysi daryodan qo'rqrar edilar?

J: **Karamnasa daryosidan**

34. Humoyun daryoda nimada suzib, o'zini Sherxon dan qutqardi? J: **Meshdha**

35. «Qoshiłari qalın, ko'zları ko'kish, qırıra burun, kalta qirdirilgan soqoli va qaynılma mo'ylovi o'ziga juda yarashgan durkun gavdali» deya ta'riflangan qahramon?

J: Sherxon

36. Sherxon nazr-niyozlar berib fotihasini olgan Humoyun huzuridagi eng nufuzli ulamo kim edi?

J: Xo'ja Husayn

37. Hind elining azaliy odati qaysi?

J: Yomg'lr fasilda sayohatga chiqmaslik

38. Bangola necha yildan beri Humoyunning qalamravidagi edi? J: 9 yildan beri

### ROMAN HAQIDA TUSHUNCHA

1. Inson hayotini jamiyat bilan bog'lab, keng ko'lamda tasvirlovchil yirik epik janr nomi? J: Roman

2. Tarixiy romanlar qaysilar?

J: «O'tkan kunlari», «Yulduzli tunlar»

3. Harbiy romanini toping

J: Oybek «Quyosh qoraymas»

4. Zamonaviy romanlarni sanang.

J: P.Qodirov «Olmos kamar», S.Ahmad «Jimjilik»

5. Roman janrinning dastlabki namunalari Yevropa davlatlarida qachondan yaratila boshladi?

J: Uyg'onish davri oxirlarida (XVI – XVII asrlarda)

6. Hamzaning romanlarini toping.

J: «Yangi saodat», «Uchrashuv»

7. Sadiddin Ayniy romanlari qaysilar?

J: «Doxunda», «Qullar»

## TOG'AY MUROD (1948 – 2003)

1. Tog'ay Murod qayerda tug'ildi?

J: Surxondaryoning Denov tumaniga qarashli Xo'jasoat qishlog'iда

2. Tog'ay Murod qaysi o'quv yurtlarida tahsil olgan?

J: 1966 – 1972-yillarda ToshDUNing jurnallistika fakultetida, 1985 – 1987-yillarda Moskvadagi Jahan adabiyotlari institutida

3. Qaysi shoir o'z tarjimayı holida shunday yozadi: «Men o'rta maktabni bitirib, shunday niyat qildim: 30 – 35 yoshlargacha uylanmayman, oila qurmayman, biror idorada faqat tirikchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko'zladim: 30 – 35 yoshimgacha jahon adabiyotini o'qish. Faqat o'qish, o'qish, o'qish, qo'l qotib qolmasin uchun mayda-mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo'llida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon-shuhrat izlamadim. Men dunyo talashmadim! Faqat izlandim, faqat o'qidim».

J: Tog'ay Murod

4. Qaysi shoir o'z tarjimayı holida shunday yozadi: «G'animlar meni ishdan haydadilar. Kurashda bir qonun bor: polvon davrada mag'lub bo'lsa, taqdirga tan berib ketmaydi. Yo'q, polvon o'zini boqadi. Polvon o'zini parvarishlaydi. Polvon tinimsiz mashq oladi. Raqibidan mag'lubiyat alamini olish uchun ishlaydi. Raqibidan alamini olmasdan-da qo'ymaydi. Men davralarda olishib katta bo'ldim. Polvonlik ajdadimda bor, polvonlik qonimda bor. Menda ana shu polvonlik qoni qo'zg'adi». J: Tog'ay Murod

**5. Dastlabki yirik asari qaysi va u qachon yaratilgan?**

J: 1976-yilda yaratilgan «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi

6. Qaysi asarida yozuvchining qon-qoniga singib ketgan, ming yillar mobaynida unutilmay, elda ardoqlanib kelayotgan tarixiy qadriyat – kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olinadi?

J: «Yulduzlar mangu yonadi»

7. Qaysi qissasi 1979-yilda «Yoshlik» jurnalida chop qilindi? J: «Ot kishnagan oqshom» qissasi

8. Qaysi asarida o'sha davr adabiyotida kamdan-kam tilga olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, butun dun-yoga ibrat qilib ko'rsatilgan «sovet kishisi» tabiatiga xos bo'lgan turli illatlar badiiy jihatdan ta'sirchan va ishonarli ochib berilgan? J: «Ot kishnagan oqshom» qissasi

9. Qaysi asardagi qishloq mehnatkashlarining og'ir mehnati, kalta-kichik rahbarlarning ularga bepisand munosabati, odamlardagi pokiza his-tuyg'ularning toptalishi, kuppa-kunduz bo'layotganadolatsizliklar tasvir va talqini o'quvchilarning tahsiniga sazovor ba'ldi?

J: «Ot kishnagan oqshom» qissasi

10. Qaysi asar qahramoni – umrbod ixlos qo'yib yur-gani odam bolalaridan cheksiz adolatsizlik, nomardlik, vahshiylit ko'rgan Ziyodulla chavandoz o'zining sevimli, vafodor, sadoqatli otidan panoh so'raydi?

J: «Ot kishnagan oqshom» qissasi

11. Tog'ay Murod qaysi qissaning yaratilishi haqida shunday deydi: «Sattor chavandoz degan bilan til topish-

*dim. Ü menga bir ol topib berdi. Men ottandim! Sattor chavandoz bilan qishloqma-qishloq, to'yma-to'y, ko'pkari-ma-ko'pkari yurdim. Uzun qish ko'pkarixona – ish joyim bo'ldi, chavandozlar – hamxonam bo'ldi, otlar – birodarim bo'ldi. Nihoyat, ko'klamda ... nomli ikkinchi qissamni ko'tarib keldim»? J: «Ot kishnagan oqshom»*

12. Tog'ay Murodning qaysi qissasi qahramonlari Qoplonbek va Oymomo atrofidagilarga faqat yaxshilikni sog'inadigan, umrini ezungulikka baxshida etgan olijanob odamlar?

J: «Oydinda yurgan odamlar» qissasi

13. Qaysi qissa buyuk muhabbat rishtasi bilan bir-biriga mangu bog'langan go'zal insonlarning hayot yo'lli oydinda aytildi qo'shiqday tarannum etiladi?

J: «Oydinda yurgan odamlar» qissasi

14. Qaysi qissa befarzandlikda g'am chekkan er-u xotin taqdiri qalamga olinadi?

J: «Oydinda yurgan odamlar» qissasida

15. Qaysi qissa qahramoni yoshi o'tib keksayib qolgan Oymomo farzand sog'inchi shu qadar kuchliligidan qo'shni kelinning beshikdag'i bolasini ovutib o'tirganda qup-quruq ko'ksiga birdan sut keladi. Ü so'nggi nafasidagina onalik baxtidan bir lahma totinadi-yu, dunyodan ko'z yumadi?

J: «Oydinda yurgan odamlar» qissasi

16. Tog'ay Murod qaysi qissaning yaratilishini shunday izohlaydi: «Yurtimizda tog' etagida So'fi Olloyor qabri bor. Shu qabr qabatida tog'chorbog' bor. Men bu qishni shu chorbag'da o'tkazdim. ... nomli qissa bitib keldim»?

J: «Oydinda yurgan odamlar» qissasi

17. Qaysi qissasi muxlislar orasida «Muhabbat qo'shiq'i» deb atalib, u 1980-yilda yaratilgan?

J: «Oydinda yurgan odamlar» qissasi

18. Qaysi qissasi unchalik shuhrat qozonmad?

J: 1985-yilda yaratilgan «Qo'shiq» qissasi

19. «Otamdan qolgan dalalar» romanı qachon yaratildi? J: 1993-yilda

20. Tog'ay Murodning qaysi asariga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berilgan?

J: «Otamdan qolgan dalalar» romaniga

21. Qaysi asari e'lon qilingach, yozuvchiga O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi?

J: «Otamdan qolgan dalalar» romanı

22. Tog'ay Murodning qaysi asari asosida kinorejissor Shuhrat Abbosov 2 qismli badiiy film ishlagan?

J: «Otamdan qolgan dalalar» romanı asosida

23. Tog'ay Murod qaysi asarning yaratilishi haqida shunday yozadi: «*Ana shu vaqt qatag'on avj oldi. Ishdan hayda-hayda avj oldi. Firqadan o'chir-o'chir avj oldi. Sur-sur avj oldi. Nihoyat... qama-qama avj oldi. So'roq Moskvada bo'ldi. Sud Moskvada bo'ldi. Hukm Moskvada o'qildi. Ana shunda polvonlik qonim qaynadi! Endi qoni muz g'animirim uchun qaynamadi. Endi qonim... olamjahon g'animirim uchun qaynadi. Endi qonim qudratli g'animirim uchun qaynadi. Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!*».

J: «Otamdan qolgan dalalar» romanı haqlida

24. Qaysi roman o'zbek xalqining chor Rossiyasi va sha'ra bosqini ostida o'tgan hayotini – 100 yildan ortiqroq tarixni o'zida mujassam etgan?

J: «**Otamdan qolgan dalalar**» romanı

25. Oqposhshoning asl niyatini anglamay, bosqinchining uyatlari qiliqlaridan orlanib, tug'ilib o'sgan yurtini tashlab ketgan Jamoliddin ketmon qaysi asar qahramoni?

J: «**Otamdan qolgan dalalar**» romanı

26. Nima qilib bo'lsa ham yurt tuprog'ini bosqinchilaridan tozalash niyatida qo'lliga qilich tutgan Aqrab (Chayon) qaysi asar qahramoni?

J: «**Otamdan qolgan dalalar**» romanı

27. Qaysi asar qahramonlari XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi xalq vakili, XX asrning 20-yillarda milliy Istiqlof yo'lida shahid bo'lgan bobolarimiz timsoli, sho'ro hukumati Moskvaning «paxta mustaqilligini ta'minlash» siyosati qurbonları? J: «**Otamdan qolgan dalalar**» romanı

28. Sho'ro hukumati Moskvaning «paxta mustaqilligini ta'minlash» siyosati qurboni bo'lgan Dehqonqul qaysi asar qahramoni? J: «**Otamdan qolgan dalalar**» romanı

29. Tog'ay Murod kimning qaysi asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?

J: E. Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarini

30. Tog'ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida kimning timsoli orqali unutilayotgan an'analarimiz haqida fikr yuritadi? J: Bo'ri polvonning

• 31. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida qaysi qahramon shunday o'yaydi: «Xalq nimasi bilan xalq? O'zing urf-odatlari bilan xalq! Ko'p urf-odallarimizni birovlar... birovlar o'ziniki qilib oldi. Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik. Shunday keta bersak, hademay... o'zimizni-da boy berib qo'yamiz! Bu yog'i kamday, ne-ne nimalanmizni eski-

*lik sarqiti deb o'yladik. Xiyot bo'limasa, xalqimiz o'zini-da... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin dedik! Bugun buni yo'qota bersak, ertaga uni yo'qota bersak... podadan nima farqimiz qoladi.?» J: **Bo'ri polvon***

32. Bo'ri polvon sevgilisining ismi? J: **Momoqiz**

33. Bo'ri polvonning do'sti bo'lsa-da, uning suygan qizini ilib ketgan qahramon kim? J: **Nasim polvon**

34. Bo'ri polvon hammadan zo'ri o'zimman, deb o'ylab, o'zidan ancha yosh bo'lgan qaysi polvondan yengilib qoladi? J: **Ismoil polvondan**

35. Bo'ri polvon o'g'lining ismi? J: **Tiloverdi**

36. Nasim polvon o'g'lining ismi? J: **Abray polvon**

37. Azaliy raqiblar – Bo'ri polvonning o'g'li Tiloverdi hamda Nasim polvonning o'g'li Abray polvonlar olishuvida kim g'alaba qozonadi? J: **Kurashning boshida Tiloverdi, keyin esa Abray polvon**

38. Tog'ay Murodning qaysi asari sho'ro davri adabiyotidagi ko'plab boshqa asarlardan oxiri «umidbaxsh sadolar bilan» tugamasligi jihatidan ajralib turadi?

J: **«Ot kishnagan oqshom» qissasi**

39. Xo'jasoatlik polvonning ismi? J: **Sadir polvon**

40. Sho'rchilik polvon kim? J: **Ro'zl polvon**

41. Qaysi polvon o'z qishlog'idan davraga boshqa polvon chiqmaganligi uchun oppoq soqoli bilan sport masteri Maksim polvonga qarshi davraga chiqadi?

J: **Normurod polvon**

42. Ushbu fikrlar muallifini toping: «Avlodlar almashgan sayin yurak yo'qolib boryapti. Jasad bor! Aql bor! Yurak yo'q! To'rt mucha bor! Kuch-quvvat bor! Yurak yo'q!»

J: «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida Bo'ri polvon

43. Ismoil polvon Bo'ri polvonnini yengandan so'ng, u bilan qayta kurashga tushmaslik uchun o'zinil doim chetga olib yuradi. Bo'ri polvon ayyorlik bilan unga bir to'yga kechikib borib davrada ro'para keladi. Bu to'y qayerda bo'lgan edi? J: Termizda

44. Qaysi polvonlar o'tasidagi kurashda tajriba yoshilik ustidan g'alaba qozonadi? J: Bo'ri polvon va Ismoil polvon o'tasidagi kurashda

45. «Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan» maqoli qaysi asarda keltirilgan?

J: «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida

46. Tiloverdi Bo'ri polvonning nechanchi farzandi edi?  
J: 5-farzandi

47. Bo'ri polvonnining nechta farzandi bor edi?

J: 5 ta: 4 tasi qiz, 1 tasi o'g'il

48. Bo'ri polvon kimga uylanadi?

J: Brigadasidagi Suluv ismli qizga

### JUMANIYOZ JABBOROV (1930 – 2010)

1. J.Jabborovning 1-she'riy to'plami?

J: «Vatanimni kuylayman» (1953)

2. She'riy to'plamlari. J: «Bahor nafasi» (1956), «Maqsad yo'llida» (1958), «Tog'lar sadosi» (1961), «Ona yer qo'shilg'i» (1962), «Subhidam xayollari» (1964), «Ilhom daqiqalari» (1971), «Sohillar hikoyasi» (1974), «E'tiqod» (1978), «Xayolimda o'zing» (1985), «Ko'nglim

go'zall» (1991), «Ajab dunyo sevgisi» (1996), «Hayrat olami» (2004), «Sevgim samosi» (2006), «Yulduzlarda xayolim» (2006)

3. Dostonlari. J: «Gulliston», «Tog'lar sadosi», «Ona yer qo'shig'i», «Yo'ldagi o'ylar», «Quyosh yurti»

4. Sahna asarlari. J: «O'jarlar», «To'yidan oldin tomosha», «Yillar o'tiba», «Cho'l chaqmqog'i», «Mening oppoq kabutarlarim», «Al-Farg'onliy»

5. J.Jabborov ijodida kimgarning asarlaridan tarjimalar bor? J: Bayron, Lermontov, Shevchenko, Tagor, Hofiz Sherazi, Ubayd Zakoni

6. Firdavsiyning «Shahnama»sidan katta qismini she'riy yo'lda tarjima qilgan shoir? J: J.Jabborov

7. J.Jabborovning mamlakatimiz teatr sahnalarida muvaffaqiyat bilan qo'yilib kelayotgan pyesalarini toping.

J: «Neksiya», «Otabelk va Kumushbibi», «Oysara-ning tug'ilgan kuni»

8. «Kitob javonim» she'rida Sheraziyning qaysi asari tilga olinadi? J: «Bo'ston» asari

9. «Kitob javonim» she'rida Dantening qaysi asari tilga olinadi? J: «Jahannam» asari

10. «Kitob javonim» she'rida qaysi shoirlarning nomlari birga qo'llanilgan? J: 1. Navoiy – Pushkin 2. Bobur – Bayron 3. Furqat – Geyne 4. Gulxaniy – Balzak

11. «Oq kabutardek uching, nuri fazolar sizniki, Tosh uning oppoq bulullarga, samolar sizniki» misralarining muallifi? J: J.Jabborov, «Sizniki» she'ri

12. «Kitob javonim» she'rining hajmi?

J: 7 bandli, 8 satrlik she'r, jami 56 mlsra

13. «Farg'oniy monologi» she'rining hajmi?  
J: 4 bandli, 8 satrli she'r, jami 32 misra
14. Sheir uchun unga dunyoni tanitgan oinayi jahon nima? J: **kitoblar**
15. «Kitob javonim» she'rining beshta bandida qaysi shoirlarni qiyoslaydi? J: **Navoiy va Pushkinni**
16. «Kitob javonim» she'rida kimning asari tilga olinganda «*bor yomonlik ba'lur kul*», deyiladi?  
J: Dantening «ullohiy komediya»si
17. «Sizniki» she'ri qaysi janrda yozilgan?  
J: **G'azal janrida**
18. J.Jabborov Ahmad al-Farg'oniy hayotiga bag'ishlab necha ko'rinishli she'riy drama yaratgan? J: **5 ko'rinishli**
19. Al-Farg'oniyning 1200 yilligi yurtimizda qachon nishonlandi? J: **1998-yil oktabrda**
20. «*Sirtaring ochgil, ayo osmon, menga, Ayla olam holatin ehson menga*», deb qaysi alloma aytgan?  
J: **Al-Farg'oniy**
21. «Ahmad al-Farg'oniy» dramasi asosida qaysi bastakor opera yaratgan? J: **Mustafо Vafoyev**
22. J.Jabborovning «yosh do'stlariga» bag'ishlab yozilgan vatanparvarlik ruhidagi she'ri qaysi? J: **«Sizniki»**

### IBROYIM YUSUPOV (1929 – 2008)

1. Ibroyim Yusupov «Amudaryo» jurnalida qaysi yillar bosh muharrir bo'lgan? J: **1961 – 1962-yillar**
2. Qaysi yillar Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasiga ra'slik qilgan? J: **1965 – 1980-yillar**

3. She'riy to'plamlari. J: «Kun chiqlish yo'lovchisiga», «Qoraqalpoqni ko'p maqtamang ka'zimcha», «Qora tol», «Turnalar», «Mening ylgit vaqtim»

4. Dostonlari.

J: «Akatsiya gullagan joyda», «Gilamchi xotin haqlida haqiqat», «Dala armonlari», «Mangu buloq»

5. Dramalari. J: «Qirq qliz» (1965), «Aktrisaning iqboli» (1967), «Umirbek laqqi» (1971)

6. Librettosi. J: «Ajlniyoz»

7. 1986-yilda chop etilgan tarjima asari.

J: «Mangu buloqlar»

8. Ibroym Yusupovning o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlari.

J: «Buloqlar qaynaydi» (1960), «Oltin qirg'oq» (1962), «Dala armonlari» (1987), «Cha'l to'rg'ayi» (1972), «Qora tol» (1988)

9. «Qadrdon so'qmoqlar» she'riga qaysi maqol epigraf qilib olingan? J: «Har kimning tug'ilgan yeri – Misr»

10. «Qadrdon so'qmoqlar» she'riga nechta to'tlik ilova qilingan? J: 2 ta

11. «Qizil kendr» qanday daraxt?

J: Qizilquray nomli ko'p yillik tolali o'simlik

12. «Qadrdon so'qmoqlar» she'rida qizil kendr bilan qaysi daraxt shivirlashib yonma-yon o'sardi? J: Tol daraxti

13. «Qadrdon so'qmoqlar» she'rida mosh paykalda chug'urlayolgan gala chumchuqlar kimga o'xshatiladi?

J: She'r o'qishib turgan yosh shoirlarga

14. «Cholga salom bersam o'sha so'qmoqda, «Kimsan?» deb tanimay menga qaradi. Bir bola uchrasa sal na-

*riroqda: «Kimning o'g'lisan?» deb men ham so'radim» misralari nimani anglatadi? J: Shoirning o'zl tug'ilib o'sgan joylardan ketganiga juda uzoq yillar bo'lganini*

15. «Ota, narvon bo'pti anov qo'sh terak! Bolam, terak emas, bu umr-ku, bul» misralaridagi «narvon», «qo'sh terak» nimaning ramzi? J: Ota va onanling umri

## 7-SINF ADABIYOTI

### BADIY SO'Z QUDRATI

1. Badiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan qaysi jihatiga ko'ra ajralib turadi? J: Asosly ish quroli ham, materialli ham so'z ekanligi bilan

2. Badiy adabiyot bilan fanning farqi?

J: Badiy adabiyot ma'naviy haqiqatlarni aks ettiradi, fan esa ilmli haqiqatlarni ifoda etadi

3. Badiy adabiyotning asosiy belgisi va odamga chuqur ta'sir etishining boisi nimada? J: Uning obrazli ekanligida

4. Badiy obraz nima? J: Ijodkorning fikr, tuyg'u va kechimmalari singdirilgan manzara tasviri

5. Badiy adabiyot ifoda xususiyatiga ko'ra qanday tur larga bo'linadi? J: Lirik, epik va dramatik turga

6. Rauf Parfining «Tong otmoqda» she'rida quyosh nimaga o'xshatiladi? J: Zambarakka

7. Cho'lponning qaysi she'rida biron ta raqam, biron ta ism, nom, nasab keltirilmasa-da, o'quvchining qalbida bosqinchilarga qarshi nafrat aks etadi?

J: «Buzilgan o'lkaza»

8. «Adabiyot hayotning in'ikosi (surati)...» Ushbu fikrni davom ettiring. J: Ammo uning suratga tushirilgan ay ni nusxasi emas

9. Badiy adabiyot qaysi jihatiga ko'ra og'zaki va yozma adabiyotga bo'linadi?

J: Qay tarzda yaratilganligi va kishilik xotirasida qay tarzda saqlanib qolganligiga ko'ra

10. Birinchi she'rni kim to'qigan deb rivoyat qilinadi?

J: Odam Ato o'g'il Hobilning o'llimi munosabati bilan aytgan

### **ABDULLA AVLONIY (1878 – 1934)**

1. Xalqni jaholatdan qutqarish, g'aflat uyqusidan uyg'otish, el orasida ma'rifatni yoyish, yurt ozodligiga erishishni o'zlarining hayotiy maslagi deb bilish kimlarga xos?

J: Jadidlarga

2. Tug'ilgan joyi. J: 1878-yil 12-iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi ollasida tug'ildi.

3. Faoliyatining boshlanishi. J: 16 yoshidan vaqtli matbuot sahlalarida ko'rlna boshladı.

4. Qayerda yangi – «usuli savtiya» jadid maktablarini ochdi? J: Toshkentning Mirabod mahallasida

5. Qachon kambag'al, yetim-yesirlarga ko'mak beruvchi «Jamiyati xayriya» degan uyushmani tashkil etdi?

J: 1909-yilda

6. Avloniyning ta'lim sohasidagi yangiliklari qaysilar?

J: Turkistonda birinchilardan bo'llib muktabga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kirittilishiiga ta'sir ko'rsatdi; ta'llimni real turmush bilan bog'lashga intildi; bir dars bilan boshqasi orasida muayyan tanafusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagil Imtihonni jorli etdi; ta'llim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishga alohida e'tlibor berdi.

7. «Birinchi muallim» (1909), «Ikkinchi muallim» (1912) nomli darsliklar, «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913) nomli qo'llanmalari bor.

8. Besh ta'plamdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rلар» (1909 – 1916) maktablarda qo'llanma vazifasini o'tadi.

9. Namunalar: «Umrini sarf elmish ota-bobolar, Chekmish ilm uchun jabr-u jafołar... Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i, Har millat ilm oldi – yondi chirog'i»

10. Namuna: «Maktabdur oftobi jahon saodating, Maktabdur osmoni zamon sabovating... Maktab u joyi dilkash shirin meqomdur, Maktab behisht-u jannat, hur fabiating...»

11. 1907-yilda «Shuhrat» gazetasini chiqardi.

12. 1917-yilda ta'sis etgan «Turon» gazetasiga «Yashasin xalq jumhuriyati» shiorini tanzladi.

13. 1918-yilda «Ishtirokiyun» gazetasiga muharrirlik qildi.

14. 1913-yilda birinchi o'zbek teatr truppassi – «Turon»ni tashkil etdi

15. Birinchi o'zbek rejissori Mannon Uyg'ur, Nizomiddin Xo'jayev, Mirahmad Miroqilov singari yoshlarni yig'ib, o'zbek milliy teatriga asos soldi

16. O'zi ham aktyor bo'lib roller ijro etdi

17. Pyesalari: «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Biz va Siz», «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi»

18. «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari o'zbek pedagogikasi va adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Jadid maktablari muallimlarining illimosiga ko'ra yaratilgan.

19. «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarining yozilishi haqida Avloniy shunday deydi: «Turkiston maktablarida o'z shavamizda yozilmish mukammal axloq kitobining yo'qlig'i afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhloj

*ekanligi o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'indan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajnba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir bo'tsa ham o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim»*

20. «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari 2 qismidan iborat: «Yaxshi xulqlar» va «Yomon xulqlar». «Yaxshi xulqlar» qismida muallif 31 fazilatga, «Yomon xulqlar» qismida esa 20 axloqiy illatga alohida boblarda ta'rif beradi

21. «Turkiy Gullston yoxud axloq» asaridan parchalar:

– «Alhosil, tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasiidir»;

– «Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidur», «Din va e'tiqodi salomat bo'limgan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas»;

– «Islomiyat butun insoniyatdir. Insoniyat esa yaxshi xulqdan iboratdir»;

– «Qanoat bir xazinadirki, naqdinasи kundan-kun ortar»;

– «Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni illatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilimga, kattalikni lavozu'ga, yomonlikni yaxshilikg'a aylanturmakg'a quvvati yetar»;

– «Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotdir»

22. «Hayo haqida»: «Hayo deb ishda, so'zda adab-ni roya qilmak aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir

*nurdirkı, inson har vaqt shul ma'naviy nuring ziyośiga muhtojdur. Shariat buyurmagan, odamlar suymagan iſhlar ni shilamak – g'iýbat, hajv, masxara, safsata, so'kuv kabi odamlarning naſsiga, izzatiga tegadirgan adabsiz so'zlar ni so'zlamak zo'r hayosizlikdur. Iftatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir...*

*Hayo, nomus iymona dalildur,  
Hayosiz doimo xor-u zalildur.  
Uyalma ma'rifat hosil qiluvdan,  
Maorifsiz kishilar murda dildur»*

23. «Vatanni suymak»dan parcha: «*Vatan. Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'skan yerini jonidan ortiq suyar*»

*She'r:*

*«Vatan, vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,  
Banga na g'am, qolur avlodima uy-u vatanim»*

24. «*Vatan*» she'ri:

*«Sening isming bu dunyoda muqaddasdir,  
Har kim sening qadring bilmas – aqli pastdir.  
Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,  
Sening darding boshqa dardni tortib olur...  
Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!  
Javlon urib yashayotgan xonamizsan!  
Seni sotmoq mumkinmidir, o'zing o'yla,  
Tiling bo'lsa, hasratlarining tuzuk so'yla!  
Bizlar sotmas burun qilur erding faryod,  
Biz sotg'on so'ng nega dersan bizlardan dod»*

25. «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda cha'pon bo'» maqoli qaysi asardan olingen?

J: «Turkiy Gullston yoxud axloq» asaridan

26. «Men ayblik emas, ey vatanim, tog'larim, Bavaqt tashlab ketdim, oyo, bog'larim. Hijron qilodur meni judolig', Da'ndi g'ama ro'z-u shabu chog'larim» misralarining muallifi kim? J: Avloniy

27. «Alhosil ... biz uchun yo hayot, yo mamot, yo nafot-yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasiidir». Ushbu parchada nuqtalar o'rniغا qo'yiladigan so'zni toping.

J: Tarbiya

28. «Insonlarning madori hayoti, rahbari najotidun», – deya nimaga ta'rif berilgan? J: Ilmga

29. «Din va e'tiqodi salomat bo'lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomon-dan ayira olmas» fikrlari qaysi asardan olingen?

J: «Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan

30. «Islomiyat butun insoniyatdir. Insoniyat esa yaxshi xulqdan iboratdir» fikrlari qaysi asardan olingen?

J: «Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan

31. «... bir xazinadirki, naqdinasи kundan kun ortar», – deb qaysi fazilatga ta'rif berilgan?

J: Qanoatga

32. «... shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni illatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilma, kattalikni favozu'ga, yomonlikni yaxshilikg'a aylanturnakg'a quvvati yetar», – deya ta'riflangan fazilat qaysi? J: Sabr

33. «Iffatning pardasi, vijdonning niqobi», – deya nimaga ta'rif berilgan? J: Hayoga

34. «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari kimning qaysi asarlariga monand?

J: Shayx Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlariga

35. Avloniy har bir bobda berilayotgan axloquy tushunchalarni kimlarning fikrlari bilan dalillab boradi?

J: Payg'ambar hadislari, Arastu, Aflatun, Muhyiddin Arabiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy

36. Asarda boblar qanday yakunianadi?

J: Ularning ma'nosiga mos, fikrlarni xulosalovchilash'e'riy parcha bilan

### SHUHRAT G'ulom Aminjon o'g'li Allmov (1918 – 1993)

1. 1918-yil 19-aprelda Toshkent shahrining Xastimom mahallasida tug'ilgan

2. Adabiyot o'qituvchisi Yunus latifning ta'sirida adabiyotga mehr qo'ydi

3. 1-she'ri 1935-yilda 17 yoshida e'lon qilindi

4. 1930-yillarning 2-yarmidan Shuhrat taxallusini qo'ya boshladi

5. 1930-yillarda «Orzu va qasos» dostoni, «Mehrol» nomli ertak-dostonini yozdi

6. Ulug' Vatan urushida qatnashdi. Bu haqda yozadi: «*Garchand frontda muntazam ijod etolmagan bo'lsam ham, qachonlardir bu sevimli hunarimga qaytish ishtiyoqi bir lahzha ham xayolimdan ketgani yo'q. Ba'zan zavq-shavqimni yoki dushmanga nafratimni qog'ozga tushirib qo'yari edim.*»

7. Frontdan qaytgach, «Shinelli yillar daftari» she'rlar

turkumi va «Farzand», «So'nmas chechaklar» dostonlarini yaratdi

8. Balladalari. «Ona va farzand», «Jamila», «Raymonda», «Uch qiz afsonasi», «Guldursun», «Qora va oq arava-cha haqida ertak», «Mardlik afsonasi»

9. «Ona va farzand» balladasida sho'ro yerlarda bor-  
gan urush voqeasi aks etgan

10. «Jamila»da arab qizining fransuz bosqinchilariga  
qarshi kurashi eks etgan

11. «Raymonda»da Vyetnamda borayotgan urushga  
qarshi turgan fransuz qizi jasorati tasvirlangan

12. «Mardlik afsonasi» balladasi To'marisning tengsiz  
shijoatiga bag'ishlangan

13. Shuhrat 1951-yilda «millatchi» degan tamg'a bilan  
qamoqqa hukm qilinib, 4 yil Shimoliy Qozog'istonda og'ir  
azoblarga duchor qilindi

14. Birinchi romani «Shinelli yillar» 1958-yilda yaratildi

15. 1965-yilda adibni elga mashhur qilgan «Oltin žan-  
glamas» romani basilib chiqdi. Unda sho'ro tuzumining eng  
adolatsiz, eng chirkin bachqichi bo'lmish qatalg'on davri  
mahorat bilan tasvirlangan

16. 1968-yilda «Jannat qldirganlar» romani chrop etildi.  
Unda o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib chet'eldagi  
o'zbeklar hayoti aks ettirildi

17. Tarixiy mavzudagi «Mashrab» romani tugallahmay  
qolgan

18. «Mardlik afsonasi» balladasidan parchalar:

— «Axir, qancha chuqurdan qaynasa buloq, Suvi shun-  
cha pok bo'lur, shuncha tottilroq!»

– «Haqiqaldan tug'ilar ba'zan afsona! Ulush qo'shsa ne  
ajab ertakchi ona!»

– «Baxshi unga bog'lasa qanoat va quyruq, Qalbi ber-  
gach ko'ksidan shunday bir buyruql!»

– «Tariximiz ko'p ulkan, keksa, beqiyos, Har yili doston-  
ga bo'lur bir asosh!»

– «Yovdan faqat tutroqda qonli iz qoldi. Tunda yomg'ir,  
sel kelib yuvdi uni ham! Go'yo qayta boshidan poklandi  
olam!»

19. «Mardlik afsonasi» balladasida «Qon yig'ladi»  
iborasi 9 marta takrorlanadi

20. «Ona va farzand», «Jamila», «Raymonda» bal-  
ladalari markazida bolalar obrazı turadi. Ularda o'zgalar-  
ning vatanini bosib olgan kimsalarga qarshi kurashgan  
qahramon bolalar hayoti tasvirlanadi

21. Shuhratning dostonlari nomini toping.

J: «Farzand», «So'nmas chechaklar»

22. Kasbiga ko'ra transport injeneri bo'lgan, keyinchalik  
respublika uyushmasi a'zosiga aylangan ijodkor kim?

J: Shuhrat

23. «Undagi hayotni men yaxshi bilaman, ular men bi-  
lan bo'lgan, menga uchragan kishilarning hayoti. Men bu  
hayotning atrofidamas, naq ichida bo'lganman. Bu mavzu-  
da biron narsa yaratmasam ko'nglim o'rниga tushmas edi».  
Shuhrat qaysi asari haqida shunday yozgan?

J: «Oltin zanglamas»

24. «Mardlik afsonasi» balladasida «Oltin sirg'a yillilar  
so'l qulog'ida», – deya kimga ta'rif berilgan?

J: Kayxusravga

25. «Mardlik afsonasi» balladasida To'marisning qaysi jihatiga urg'u berilgan? J: Qahramonligiga

### BALLADA HAQIDA

1. Fransuzcha «ballada» so'zidan olingan bo'llib, «raqs qo'shig'i» ma'nosini anglatadi
2. Hajman u qadar katta bo'limgan bu xil asarlarda shoir o'z his-luyg'ularidan tashqari ana shu tuyg'ularga sabab bo'lgan voqealarni ham tasvirlaydi
3. Balladalar ko'proq tarixiy-fantastik va qahramonlik yo'nalishlarida bitilib, ularda o'tmishda ko'pchilikning foydasi yo'lida fidoiylik ko'rsatgan kishilarning jasorati tasvirlangan

### CHINGIZ AYTMATOV (1928 – 2008)

1. Chingiz Aytmatovning tarjimayi holidan parchalar: «*Hech kim o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi: yillar sabog'i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin*», «*Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she'riyat bilan sug'orishi, insonda milliy g'ururning ilk kurtaklarini uyg'otishi va ajdodlar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglatishi mumkin*»

2. «Oq kema» qissasida bolaning nechta ertagi bo'la-di? J: Ikkita, blri o'zliniki bo'llib, uni hech kim bilmasdi, ikkinchisini esa bobosi so'zlab bergandi

3. Bola toshlarga qanday nomlar qo'ygandi?

J: Tuya, egar, bo'rl, tank

4. Bolaning eng sevimli toshi qaysi? J: **Tank**
5. Bolaning toshlari orasida qanday sifatga egalari bor? J: «**Yaxshi», «yomon», «ayyor», «ovsar»**
6. Mo'min cholga qorovulxonadagi uzoq yillik xizmatlari uchun mukofotga nima berilgan edi? J: **Durbin**
7. Mo'min cholning laqabi? J: **Mo'min chaqqon**
8. Mo'min cholning xislatlari. J: «*Bu atrofda uni hamma tanirdi, u hammani bilardi. U ochiq ko'ngil, hatto sal-pal büladijan odamiga ham biron yaxshilik qillishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hozir-u nozirligi, hamme ga sadoqatli va xushmuomalaligi tufayli shundoq laqab olgandi. U afandife'l va unga Afandiga muomala qilgandek muomalada bo'lishardi*»
9. O'rozqulning o'zidan boshqa hech kimning minishiga ruxsat bermaydigan oti? J: **Olabosh bo'z ot**
10. Bo'la itining nomi? J: **Baltek**
11. Bolaning orzusi?
- J: **Baliqqa aylanib, uzoq-uzoqqa suzib ketish**
12. Qo'ydan yuvosh, baquvvat bo'lsa-da, yalqov, uy-quni-yaxshi ko'radijan personaj? J: **Seydahmad**
13. Bolaning otasi kim bo'lib ishlar edi?
- J: **Kemada matros**
14. «*Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy, Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy. Sendan chugur dard ham bormi, Enasoy, Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy*». Parcha qaysi asardan olingan? J: «**Oq kema**»
15. Qirg'iz qabilasining boshiga musibat tushishi haqidagi xabarni kim tarqatdi?
- J: **Inson ovoziga o'xshash ayanchli ovoz bilan tun-**

**dan tonggacha «Katta baxtsizlik bo'ladil! Katta baxtsizlik bo'ladil» deya sayragan qush**

16. Qirg'iz qabilasiga ko'p yillar yo'lboschchilik qilgan oqsoqol? J: **Botir Qulchi**

17. Dushman qabila qirg'iz qabilasini qachon qirib yubordi? J: **Oqsoqollarini oxirgi yo'lga kuzatish marosimiga chiqishganda**

18. Qirg'indan omon qolgan bola va qizchani o'ldinsh kim-ga topshirildi? J: **Cho'tlr Baymoq kamplirga. Kampliring Enasoy daryosiga noldosi: «Ol, bu bolalarni, uloqtirib ket. Qo'y, ular bu manfur dunyoni go'daklikda, toza qalb bilan, bolalik hayosi bilan, yovuz niyat va yovuz ishlari qilib, o'z nomiga isnod keltirishga ulgurmasdanoq tark etishsin, toki insonga azob-uqubatni ko'rish va boshqalarning ham g'am-alamiga sababchi bo'llish nasib etmasin»**

19. Omon qolgan qizcha va bolani kampirdan kim so'rab oladi? J: **Ona bug'u**

20. Ona bug'uning bolalari bo'lgan qiz va yigit nechta farzand ko'rishadi? J: **7 o'g'il va 7 qiz**

21. Ular to'ng'ich o'g'illarga qanday nom qa'ydilar?

J: **Bug'uboy**

22. Bug'uboy qaysi qabila qiziga uylandi?

J: **Qipchoq qabillasining**

23. «*E bo'lam, qadimgi odamlardan qolgan bir gap bor: boylik takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug'diradi*». Bir boyligi oshib-toshib ketgan boy vafot etganda uning o'g'illari o'zlarining Shoxdor ona bug'u avlodidan ekanligini ko'z-ko'z qilish uchun otalari qabri lepasiga 18 ta shoxga ega bug'u shoxini o'rnatishdi

24. «*E bo'tam, pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'nin yo'q, go'zallikka o'nin yo'q*». Shoxdor ona bug'u avlodlari o'rtaida shunday kishilar paydo bo'ldiki, ular bug'u shoxlaridan o'lja yig'ishni, pullashni hunar qilib oldilar

25. Hammaga ezgulik qiluvchi Shoxdor ana ·bug'u haqidagi ertakni aytib, bolaning qalbida cheksiz hayajon uyg'otgan olijanob Mo'min chol O'rozqulning zug'umi va baxtsiz qizining iltijosi tufayli o'z qo'li bilan bug'u so'yishga majbur bo'ladi. Bu ko'ngilsiz hodisaga tasodifan guvoh bo'lib qolgan ko'ngli toza bola olamdan, odamlardan butunlay bezadi. Baliq bo'lib suzib Issiqko'lga tushib ketishga qaror qiladi. «*Sen o'z ertagingdagi baliq kabi suzarding, bo'talog'im. Bilasanmi, sen hech qachon baliqqa aylanib qololmaysan va Issiqko'lgacha suzib ketolmaysan*»

26. «Oq kema» qissasining qaysi qahramoni «...kamdan-kam uchraydigan baxtli odam edi»? J: **Mo'min chol**

. 27. O'rozqul nima uchun hamisha ichib yurar edi?

J: **Farzandsizligidan o'kinganl uchun**

28. Bug'uni ovlash va nimtalashda qatnashgan personaJJar kim?

J: **O'rozqul, Seydahmad, Ko'katoy, Mo'min chol**

29. Bola uchun qaysi o'simlik eng birinchi dushman edi? J: **Chaqirkananak**

30. Bola nazarida qaysi gullar eng aqli va quvnoq edi?

J: **Pechakgullar**

31. Bola qaysi o'simlikni sadoqatli do'st deb ataydi?

J: **Shirojinni**

32. O'tlar orasida qanday sifatga ega o'simliklar bor?

J: **«Sevimli», «botir», «hurkak», «yovuz»**

33. Qaysi oqsoqol vafotida qurbanlik uchun to'qqizta biya, to'qqizla ho'kiz, to'qqizla to'qqizlik qo'y hazirlab qo'yilgan edi? J: **Botir Qulchi**

34. Enasoyliklarda qanday rasm bor edi?

J: **Oqsoqollarining dafn marosimi kunlarida bir-birlan urush qilmaslik**

35. «Oq kema» qissasi qahramonlarini sanang.

J: **Bola, Mo'min, O'rozqul, Ba'key, Guljamol**

36. «Oq kema» qissasida bola boshqalardan yashirincha yig'ilganda uni pana qiladigan sevimli o'simligi qaysi edi? J: **Shiroljin**

37. «Oq kema» asarida bolaning qaysi o'tlarga rahmi keladi? J: **Supurgi o'tlarga**

38. Oppoq qayindan yasalgan, bandida kumush qo'ng'iroqchasi bor beshik qaysi asarda uchraydi?

J: **«Oq kema» asarida**

39. O'rmonda bir noma'lum qush sayraganda, qanday voqeа ro'y bergan?

J: **Qabila boshlig'i Botir Qulchi vafot etadi**

40. «Yoshligimdan badiiy adabiyotga oshno bo'lgan edim, shu boismi maktabda erkin mavzudagi inshelarni bajaridil yazardim». Parcha qaysi ijodkorning tarjimayi holiga tegishli? J: **Ch.Aytmatov**

41. «Bizning ovulimizda yetti otasini bilish odatiga qat'iy rioya qilinadi. Shu sababdan o'zimizdan oldin o'tgan yetti ajdodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalik-danoq ongimizga singdirilardi». Parcha qaysi ijodkorning tarjimayi holiga tegishli?

J: **Ch.Aytmatov**

42. Qaysi ijodkorning buvisi qo'shnilarinikidan nabitasi uchun qarzga tush so'rab turardi?

J: Chingiz Aytmatovning

43. «Men juda erta ishlay boshladim: 10 yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim». Parcha qaysi ijodkorning tarjimayi holiga tegishli? J: Ch.Aytmatov

44. «Cho'qqida qolgan ovchining oh-u zori» asarini Ch.Aytmatov kim bilan birga yozgan? J: M.Shoxonov

45. «Oq kema» qissasida dushman qirg'inidan qirg'iz qabilasidan bir bola va bir qiz omon qoladi. Ular o'rmonga nima maqsadda kirib ketishgandi?

J: Savat to'qlashga po'stloq shilish uchun

46. Qizlarining baxtsizligi, yolg'iz o'g'lining urushda halok bo'lganidan azlyat chekkan ota obrazi qaysi asarda uchraydi? J: «Oq kema»

47. «Chumalilar ham buni sezadi. Ular ertalabdan ... ning huzuriga chopib, quyosh nurlaridan ko'zlarini qisib, ulaming o'zaro nima haqida shivirlashayotganligiga qulog saladi». Ushbu ta'rif nima haqida?

J: Pechakgullar haqida

48. «Ular yon-veriga boshqa o'simlikni yo'lalmay to'da-to'da bo'lib, alohida o'sadi». Ta'rif qaysi o'simlik haqida?

J: Shiroljin

49. «Sen nimani istasang, ular o'shanga aylanib qoladi». Ta'rif nima haqida? J: Bulutlar haqida

50. «Havoyi juda. Ulaming ipakdek mayin popuklari shamolsiz yasholmaydi. Shamolni kutgani-kutgan, shamol qayoqqa essa, o'sha yoqqa egilib yoppasiga salom beradi». Ta'rif nima haqida? J: Supurgio'tlar haqida

51. «Agar yomg'ir quyib bersa yoki momaqaldiroq boshlanib qolsa bormi, ular qayerga bosh suqishini bilmay qoladi. Oyoqlari bo'lganda-yu, ehtimol, ko'z yetgan joygacha qochib qolisharmidi». Ta'rif nima haqida?

J: Giyohlar haqida

52. «Shamol qayoqqa essa, ular ham o'sha yoqqa egilaveradi», – deb nimaga ta'rif berilgan?

J: Supurgio'tlarga

53. «Ammo tillani tekin tarqalishganda hech kim uchun qadri qolmaganidek, uning jonbozligi qadriga ham hech kim yetmasdi». Ushbu ta'rif kim haqida?

J: Mo'min chol haqida

54. Bola bobosi olib bergen portfelini dastlab kimga ko'rsatdi? J: Buvisiga

55. «Farzandi ba'lganda butunlay boshqacha bo'lardii», – deb kim kimga nisbatan aytgan?

J: Buvisi Bo'key xolaga nisbatan aytgan

56. «... qo'y suruvi emas, tarqalib ketmaydi, lekin tashvishi oz emas. Tasodifan o't tushsa, tog'dan sel kelsa bormi, bir joydan qo'zg'almaydi, turgan joyida nobud bo'lveradi». Mo'min chol bu yerda nimaga ta'rif bergen? J: O'rmonga

57. Portfelga qarata: «Endi biz uchlamic – sen, men va ...», – deganda bola nimani nazarda tutgan?

J: Durblinni

58. Bola qayerdag'i muktabga qatnab o'qishni orzu qilardi? J: Jilisoydag'i

59. Bola Jilisoya nima maqsadda borgandi?

J: Tomog'i og'riganda feldsher huzuriga

60. «Yetimcha yetti ko'cha» maqoli qachon aytildi?

**J:** Qirg'indan omon qolgan qizchà va bola o'rmon-da tunni bexatar o'tkazishganda

61. Qizil o'tovda dushman qabilasining xoni qanday holda o'tirardi? **J:** Asal qo'shilgandan qimizdan ho'plab, g'alaba haqidagi qo'shiqdan tinglab o'tirardi

62. Cho'tir Baymoq kampir qirg'indan omon qolgan qiz va bolani jarlikka irg'itayotganda ularni nimaga o'xshatadi?

**J:** Ikki qum zarrasiga

63. «Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, os-mon ularga torlik qilib qoladi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

**J:** Cho'tir Baymoq kampirga

64. «*Mana, shox! Bu sening bobongga. O'lishi bilan bu shoxni uning qabriga qo'yamiz. Qani, endi kim bizga u kishini hurmat qilmaysizlar deb aytu olar ekan. Yana nima kerak? Bunday shox uchun hatto bugunoq o'sang arziydi!*» Bolaga ushbu fikrlarni kim aytgan? **J:** O'rozqul

65. «*Insonlar qanday yashashlari lozim bo'lsa, shunday yashanglar!*» Ushbu nasihatni kim kimlarga aytgan?

**J:** Ona bug'u qirg'indan omon qolgan bola va qiz-chaga

## RAMZIY OBRAZLAR

1. Badliy adabiyot ramz tushunchasi nimani bildiradi?

**J:** Keng foydalilaniladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko'z oldiga yaqqol keltiradi-gan narsalar orqall ifodalashni bildiradi

2. «Oq kema» qissasida bug'u nimaning ramzi?

J: Hech qachon tamomlila yo'qotib bo'lmaydigan ezmilik, yaxshilik, olljanoblik, mehr-oqibat timsoli, ayni vaqtida xalq ramzi ham dayish mumkin

3. Bola uchun baliq nimaning ramzi?

J: Erk va qudrat ramzi. Chunki u suvda juda uzoq suza oladi. Yana ko'zini ham yummaydi, nafasi ham qaytmaydi

4. Oq kema nimaning ramzi?

J: To'kislik, mehr-u oqibat, diydot ramzi. Bolaning nazarida, oq kemaga yetib olsa, otasini topadi

5. Grekcha «symbolon» so'zidan olingan bo'lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo'llaniladigan shartli belgini anglatuvchi so'z qaysi? J: Ramz

6. Qaysi hayvonlarning timsollarini ramziy ma'noda qo'llash mumkin?

J: Tulki, burgut, ohu, arslon, bulbul, tuya

### MIRKARIM OSIM (1907 – 1984)

1. Ijodini she'rlar yozishdan boshladi

2. Navoly haqida «Astrobod», «Alisher Navoiy va Darveshali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'-bek va Navoiy» singari qissa va hikoyalar yozgan

3. Adibning asarlarini davriy jihatdan 3 guruhga ajratish mumkin:

1) Tariximizning qadimgi davrlari haqida hikoyalar (Eron shohlari, Aleksandr Makedonskiy, Arab xalifaligi bosqlari);  
2) O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlar (Mo'g'ullar

istilosı va fan, madaniyat arboblari haqidagi tarjimayi hol, qissa va hikoyalar); 3) XVIII asrdan to oktabr to'ntarishiga qadar bo'lgan davr tarixiy hayoti haqidagi asarlar

4. Mirkarim Osim asarlarini 3 katta mavzu yo'nalishi bo'yicha tahlil qilish, baholash mumkin: 1) Tarixiy qahramonlik mavzuidagi asarlar; 2) Tarixiy-maishiy mavzu; 3) Tarixiy tarjimayi hol asarlari

5. Qahramonlik mavzuidagi asarlari: «O'trar», «To'maris», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen»

6. Maishiy mavzudagi asarlari: «Mohlaroyim va Xonposhsha», «Karvon qo'ng'iroq'i», «Elchilar»

7. Tarjimayi hol tarixiy asarlari: «Zulmat ichra nur»(Navoiy), «Jayhun ustida bulutlar»(Beruniy), «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug'ilishi»(Al-Xorazmiy), «Singan setor»(Mashrab)

8. Mirkarim Osim 1950-yillar Stalin qatog'onining ma'naviy qurbanlaridan biridir. 1960-yillarda vatanga qaytg'an

9. Tarixchi adiblar orasida asl manbani buzmay, qayta badily jonlantirishi bilan ajralib turadi

10. Uning asarlari 70 – 90-yillar tarixchi adiblar uchun asosiy manba vazifasini o'tadi

11. «Zulmat ichra nur» qissasida G'iyosiddinning laqaibi? J: Klchkina Bahodir

12. Alisher necha yoshidan kitobga mehr qo'ygan edi?

J: 4 yoshidan

13. 4 yoshli Alisherning qo'lidagi kitobni G'iyosiddin qanchaga sotib olgan edi?

J: Ikki qo'y bahosiga

14. Alisherning tog'aları: Mirsaid – Kobuliy, Muhammad Ali – G'aribiy taxallusi bilan she'rlar yozgan
15. Mirsaid jiddiy, kamgap, sipo odam edi
16. Muhammad Ali xushchaqchaq, gapdon yigil bo'lib, tor va tanburni yaxshi chalar, o'z suhbatı bilan majlisga jon kirgizar edi
17. Alisher kichkinaligidayoq Qosim Anvorning «Rindem-u oshiqem-u jahonso'z-u joma chok, Bo davlati g'ami tu fikri jahon chi bok?»(Biz beparvo oshiqlarmiz, yirliq chopon, o't nafas, Jahon g'ami sening g'amingga arzimas) misralarini tog'asi Muhammad Ali va otasiga aytib beradi
18. Tog'asi Mirsaid Mavlono Qosim Anvorni shunday ta'riffaydi: «Asli ozarbayjonlik erular. Sarob otlig' kentda tavallud topubdurlar. Yigitlik ayyomida Sadreddin Ardabiylga murid bo'lib, so'fiya mazhabiga doxil bo'lmishlar. Pirining maslahati ila Xuroson keldilar. Uzoq muddat Samarkand borib turdilar. El alarga ixlos qo'yib, she'rlarini o'qimoqqa roq'ib bo'ldi»
19. Husayn Boyqaro ta'rifi: «Yurakli, kattalardan ko'p tortinmaydigan, sog'lom, shijoatli, xipcha bel, yag'rini keng, qirg'iz qovoq bola edi»
20. Alisher 4 yosh-u 4 oylik bo'lganda maktabga boradi, o'zidan ikki yosh katta bo'lgan Husayn Boyqaro bilan ham-maktab va do'sti edi
21. Sharafiddin Ali Yazdiy ta'rifi: «Ul kishi Shohruxonning yonida yurib, ko'rgan voqealami bitgan, Temur tarixi «Zafarнома»ni bitgan. Shundog' olim kishi umrining oxirida qashshoqlikka tushib, do'stlarga zor, dushmaniga xor bo'lib-dur, hay darig!»

22. Alisherlar G'arbiy Eronda uch yilcha turishadi. Abul-qosim Bobur o'z akasi Sultan Muhammadni o'ldirib, paytaxtni egallagan, mamlakatda tinchlik o'rnatgandan so'ng ular yana Hirotga qaytishadi. Yo'lida Alisher uxlab qolib, sahroda qolib ketadi. Otasining Iroq viloyati kunbotish tomonda, Hirot kunchiqishda deganini eslaydi va kun yorishib kelayotgan tomonga yuradi. Suv soladigan to'rsiqni topib olib, tashnaligini qondiradi va yo'lida davom etadi

23. Alisherning xayolini qaysi kitob band etgan edi?

J: Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» (Qush tilli) asari

24. «Nishapur shahriga mo'g'ullar kirib, Attomi o'ldirmoqchi bo'lganlarda orqasiga bir qop somon ortib olgan dehqon uni mo'g'ullardan bir qop somanga almashtrib oladi». Alisher Farididdin Attor to'g'risida kimdan ushbu hikoyatni eshitgan edi? J: Tog'asidan

25. Alisherdan qaysi kitabni ko'p o'qigani uchun alib qo'yib, uni o'qishni man etib qo'yishadi? J: Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» (Qush tilli) asarini

26. Qosim Anvorning ustozini kim edi?

J: Sadreddin Ardabiy

27. Alisher qaysi shaharning nomini eshitganda «ulug' shahar bo'lsa kerak» deb o'ylaydi? J: Samarqand

28. «Bid'at va xurofotdan yiroq, sog'lam fikrl kishi edi», – deya kimga ta'rif berilgan? J: Kichkina Bahodirga

29. «Yaxshi niyat – yorti mol» maqoli qaysi asarda uchraydi? J: «Zulmat Ichra nur» asarida

30. «Zamon podshosi Shohruuxga qarshi isyon qilgani sababli qatl ettirilgan», – deb kimga ta'rif berilgan?

**J: Mirzo Boyqaroga**

31. Kimga «nazardan qolib, davlat ishlariiga aralashitirmay qo'yilgan», – deb ta'rif berilgan?

**J: Mansur binni Boyqaroga**

32. «Navro'z kuni podsho hazratlari xachirga minib, Taborak sari borib, ulug'larning mozonni ziyorat qilib kelmoqchi bo'ldilar. Ammo xachir mozorlar ustiga qadalgan tug'lardan cho'chib, oyog'ini tirab oldi». Ushbu parcha qaysi podsho haqida edi? J: **Mirzo Shohrux**

33. «Yetmish ikki yoshida dunyodan o'tdilar, zulhijja oyining yigirma beshida, yakshanba kuni erdi». Ta'rif qaysi shoh haqida? J: **Mirzo Shohrux**

34. «Kambag'alman desang, ko'chib boq» maqoli kim tomonidan aytildi? J: **G'lyosiddin tomonidan**

35. «Jon omon qolsa, mol topiladun», – deb kim aytgan? J: **Mirsaid**

36. G'lyosiddinlar oilasi G'arbiy Eronda qancha muddat yashaydi? J: **Uch yil**

37. Yosh Husayn Boyqaro qaysi kitobni sevib o'qirdi?

**J: Sa'diyning «Guliston» asarini**

### **ASQAD MUXTOR (1920 – 1997)**

1. 1920-yilning 23-dekabrida Farg'ona shahrida Mas'ud temiryo'ichi oilasida tug'ildi

2. O'zbekistondagi birinchi haftalik gazeta – «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasiga asos soldi

3. «Sharq yulduzi», «Guliston» jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishladi

4. Badiiy ijodga she'rlar yozish bilan kirib keldi
5. Katta matbuotda 1938-yili «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida «Yangi avlod» she'ri bilan paydo bo'ldi
6. 1947-yilda bosilgan «Po'lat chavandoz» poemasi orqali ijodkorlar nazariga tushdi
7. She'riy to'plamlari: «Hamshaharlarim», «Rahmat, mehribonlarim», «Chin yurakdan», «99 miniatura», «Karvon qo'ng'iroq'i», «She'rlar», «Quyosh belanchagi», «Sizga aytar so'zim»
8. Asqad Muxtorning nazmini o'z davrida «falsafiy xarakterdagi she'riyat», deb baholashgan
9. 1950-yilda «Daryolar tulashgan joyda» nomli *birinchi qissasi* bosilib chiqdi
10. 1955-yilda nashr etilgan «Opa-singillar» romanini bilan o'sha paytda adabiy jamoatchilik va kitobxonlar e'tiborini qozondi
11. Qissalari: «Daryolar tulashgan joyda», «Qoraqalpoq qissasi», «Buxoroning jin ko'chalari», «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Kumush tola»
12. Romanlari: «Opa-singillar», «Tug'ilish», «Davr mening taqdirimda», «Chinor», «Amu»
13. Pesalari: «Mardlik cho'qqisi», «Yaxshilikka yaxshilik», «Samandar»
14. Tarjimalari: Sofoklning «Shoh Edip» fojiasini, Shekspir va Shiller tragediyalari, Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy asarlari
15. Asqad Muxtorning asarlari rus, hind, urdu, vietnam, xitoy, rumin, ingлиз ва boshqa tillarga o'girilgan

16. 1994-yili «Insonga qulluq qiladurmen» deb nomlan-gan lo'plamdag'i hikoyalari kitobxonlar e'tiborini tortdi
17. Eng so'nngi «Uyqu qachganda» (1997) kitobi ho-zirgi hayot, ma'naviyat, madaniyat va badiiy ijod borasidagi mulohazalarini aks ettiradi
18. Parcha: «Men ko'p yillar yurdim, Ko'p narsani ko'rdim, Goh sog'inib, Goho Shodlikdan jo'shib; Qano-ti chiqgan qushday Uyasiga sig'may, Yuragimda talpinar go'shiq»

19. «Yulduzim» she'ridan parcha: «Bu she'rda shoir bolaligida kechqurun Somon yo'lidan yulduz uchganini, uni uzoq izlab, tikanlarni bosib so'qmoqlarda tentirab topa olmaganini afsuslanib yozadi: «Topmadim o'shanda bola baxtimni, Sidi mo'jizaga to'yomadi ko'zim. Hali ham izlay-man. Bilaman: Yerda, Shu cho'llarda mening yulduzim!»

20. «Yo'l» she'ri: Bu she'rda yo'llar quyosh nurlariga o'xshatiladi. Bir kun uuda o'tirib qolsam, xuddi hayot meni chellab o'tganday tuyuladi, deydi shoir. Ochilmagan qo'riq, noma'lum yulduz, bari-bari mening ulushim. «Ijod dardi – yo'l azobidir, Mayli, bo'lsin tumantlar quyuq. Ruhim bilan yo'lda ekanman, Umrimming ham nihoyasi yo'q»

21. «Tug'ilish» she'ri: Tong oldidan yomg'ir sevalab o'tdi, keyin osmon ochilib, yulduzlar yog'di. Yerdan xuddi zimdan ildizlar ko'tarilganday hovur ko'tariladi. Yer yosh bo'lgani uchun etini Jimirlatadi, maysalarda yurgan yashil shabada panjaradan oshib chiqib ketadi. Eshikdan eshik-ka yugurib yurgan yel hammadan suyunchi so'raydi, u ga'yo taqdirni oldindan bilganday dunyoning g'amidan kuyinadi. Ota bir qo'lli, mayib, iymanib poygakda tura-

di, ichkarida esa jahonning umidi, ya'ni bolakay oppoq choyshabda yotibdi

22. «O'zimni emas bu umr. To'la menikimas, sezib turibman. Bir vaqtlar meni deb halok bo'lgan kimdir. Men uning uchun ham yashab yuribman. Yengil-yelpi o'lsa umr-dan bir dam, Rizo-rizo bo'lmas egasi»

23. «Bir tup o'rik yakka o'sar edi. Unga faqat ko'lanksi-soyasi do'st ekan. Bir kuni soya yo'qolib qolibdi. Chunki shu kuni bulutli bo'lib, soya ko'rinxmas ekan. Eh, o'rik! Soya ham do'st bo'ladimi? Laqqa tushibsan-da lof ursa. Do'st bo'lsa, har qanday ob-havoda Yoningda tursa...»

## SHE'RIY VAZNALAR

1. Shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo'lib, ma'lum bir qolingga solingen ritmik nutq she'r deb ataladi

2. O'zbek she'riyatida uchta: barmoq, aruz va erkin vaznlar qo'llanilib kelmoqda

3. O'zbek she'riyatida eng ko'p tarqalgan vazn barmoq vazni bo'lib, unda misralarda bo'g'inlar soni bir xilda takrorlanadi va bir xil guruhlanadi

4. Barmoq vaznida ikki xil vazn bor: sodda va qo'shma vazn

5. Agar she'rnинг boshidan oxirigacha misralardagi bo'g'inlar miqdori bir xil bo'lsa, sodda vazn deyiladi:

*Qani, ayt maqsading nimadir sening? – 11 bo'g'in,*

*Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang? – 11 bo'g'in*

6. Misralardagi bo'g'inlar miqdori ikki-uch xil ko'rinishda bo'lsa, qo'shma vazn deyiladi:

*Alisherga alla aytib uxlatgan – 11 bo'g'in,*

*Sen – ona. – 3 bo'g'in (Mirtemir);*

*Qubbon sohilida qomaling bukib, – 11 bo'g'in,*

*Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib, – 11 bo'g'in,*

*Nimalar haqida surasan xayol, – 11 bo'g'in,*

*So'yla, majnuntol? – 5 bo'g'in (E.Vahidov)*

7. Barmoq she'r tizimida bo'g'lnarning muayyan guruhlarga bo'linishi turoq deb ataladi. Bo'g'lnarning qanday ko'rinishda turoqlarga bo'linishi esa she'rning o'ziga xos ritmi, ohangini keltirib chiqaradi

8. «Garchi shuncha / mag'rur tursa ham – 4 + 5 = 9

*Piyolaga / egilar choynak» – 4 + 5 = 9*

9. «Yigitlar / maktubin / bitganda qondan» – 3 + 3 + 5 = 11

10. «Tuproq ko'chalardan / chopgan bolatik» – 6 + 5 = 11

11. Vazndan vaznga ko'chishga asoslangan she'riy tizim erkin vazn sanaladi

12. Erkin vaznga misol: «*Bas, yetar, cholg'uchi, bas qil sozingni, Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjan*»

13. «*Qani, ayt maqsading nimadir sening? Nega tilka-taysan bag'rimni, ohang?*» she'ri necha bo'ginli she'r va qanday vazn hisoblanadi? J: 11 bo'g'lini, sodda vazn

14. *Alisherga alla aytib uxlatgan*

*Sen – ona. (Mirtemir) Ushbu she'r qanday vaznga kiradil? J: Qo'shma vazn*

15. She'rda qaysi o'rnlardagi to'xtalishga pauza deyildi? J: *Turoqlar, misralar va bandlar orasidagi*

## SHUKUR XOLMIRZAYEV (1940 – 2005)

1. Shukur Xolmirzayev adabiyot maydoniga qachon kirib keldi? J: 1950-yillarning oxirida
2. Qaysi ijodkor dastlabki asarlardan boshlab hayotning o'ziga yaqin va tanish jihatlarini qalamnga oldi, tasvirda samimiylikka intildi, qahramonlar ruhiy olamni tahalliga alohi-da e'tibor berdi? J: **Shukur Xolmirzayev**
3. Birinchi qisasini toping. J: «Oq otli»
3. Qaysi qissasi Abdulla Qahhorning tahsiniga sazovor bo'lgan? J: «To'lqlinlar»
4. Romanlan.  
J: «So'nggi bekat» (1976), «Qil ko'pri» (1984), «Yo'lovchi» (1987), «Olabo'ji» (1991), «Dinozavr» (1996)
5. «Qora kamar» dramasi qachon yaratilgan?  
J: 1987-yilda
6. «Qora kamar» dramasining bosh qahramoni Xurrambek qanday shaxs?  
J: Millat ozodligi uchun boshini tikkan shaxs
7. «...sening safdoshlaring bir kun kelib yig'layditari O'sha o'nis yig'latadi.. Bosqinchchi hech qachon bosib olgan fugarosi boshini silamaydi! Silasa, aidash uchun silaydil Lekin yomon aldangansan, jigan» so'zlari qaysi asar qahramoniga tegishli?  
J: «Qora kamar» dramasidagi Xurrambekka
8. Qaysi asari Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan?  
J: «Qora kamar» dramasi
9. Qaysi asarda nafaqat atrofdagilar, yaqinlari, safdoshlari, hatto o'z farzandi ham tushunmagan oriyatlari Xur-

rambekning insoniy iztiroblari g'oyat yuksak badiiy kuch bilan tasvirlangan? J: «**Qora kamar**» dramasida

10. Shukur Xolmirzayev birinchi navbatda qanday yo-zuvchi sifatida tan olingen? J: Hikoyanavis sifatida

11. Hikoyalari. J: «**Yovvoyi gul**», «**Bahor o'tdi**», «**Bitiklosh**», «**Yashil Niva**», «**Ozodlik**», «**O'zbeklar**», «**Hayot abadly**», «**Og'lr tosh ko'chsa**», «**Ustoza**», «**Ko'k dengiz**», «**Tabassum**», «**Shudring tushgan bedazor**», «**Xumor**»

12. «**O'zbeklar**» hikoyasining bosh qahramoni kim?

J: **Ergash**

13. Ergash nechanchi kursda paxлага borgan voqealarini so'zlab beradi? J: **2-kursda**

14. Voqealar qayerda bo'lib o'tadi?

J: **Bo'ka rayonida**

15. Kurskom yigitning ismi? J: **O'rmon**

16. Komsorg yigit kim? J: **Azimjon**

17. «*Novcha, oriq yigit. Uch yil universitetga kirolgan. Sibirga pomidor, piyoz aborib sotgan*». Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida? J: **O'rmon haqida**

18. «*Nuqul Remark bilan Xemingueyni o'qib, «Bizning yozuvchilarimiz yolg'ochil!», – deb yuradi*». Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida? J: **Azimjon haqida**

19. Qoraqalpoq yigitning ismi? J: **Saparboy**

20. Ergashni barak oldidagi uycha yonida turgan bir narsa juda to'lqinlantirib yuboradi. Bu narsa?

J: **Sholcha to'qliydlgan o'rmak**

21. Ergash barak yonidagi uychani tomosha qilganida nima tufayli paxta ham ko'ziga yuz chandon yaxshi ko'rniib ketadi? J: **Mol, ya'nı qo'y va echkilar tufayli**

22. O'rmon barak oldidagi uychada yashovchi ayoldan birinchi marta nima so'raydi? J: **Ko'k choy**
23. Kim birinchi kuniyoq barak oldidagi uychada osh qilinayotganini ko'rdi? J: **Azimjon**
24. Ergash tomog'i og'rib qolganda barak oldidagi uychadan dori o'rniga nima berishadi? J: **Ituzum**
25. «Juda nozik ekansan-da, shoir», deganda O'rmon «shoir» so'zini qanday ma'noda ishlatgan?  
J: **Nozik, xayolparast odamlar o'sha paytda «shoir» deb atalgan**
26. Barak oldidagi uycha egasining ismi?  
J: **Botir cho'pon**
27. Botir cho'ponning o'g'il necha yoshda edi?  
J: **10-11 yoshlarda**
28. Boshqalardan qo'yil kam bo'lsa ham ordeni bor bo'lgan cho'panning ismi? J: **Eshimbay**
29. Botir cho'pon o'g'lining ismi? J: **Abduqodir**
30. Botir cho'panning o'g'il sevib a'qiydigan kitobning nomi? J: **«Robinzon Kruzo»**
31. Laqabi «rais» bo'lgan yigitning ismi? J: **Mirg'olib**
32. Qaysi yigit juda ehtiyotkor, «qirqoyoq kiradi» deb kechasi qulog'iga paxta tiqib yotadi? J: **Mirg'olib**
33. Botir cho'ponning yo'qolgan qo'zisini kim so'ygan?  
J: **Mirg'olib**
34. Botir cho'ponning yo'qolgan qo'zisini so'yishda kim-lar ishtirok etgan? J: **Mirg'olib, O'rmon, Azimjon**
35. «Siz yozuvchilar injiq odamsizlar. Yaxshi odam deganda, albatta, sutdek oq, musichadek beozor odamni tushunasizlar. Holbuki, unaqalar hayolda ya'q: undaylar

*mənimcha, g'oya, xolos».* Ushbu fikrlar kimniki va qaysi asardan olingen?

J: Ergashniki, Shukur Xalmirzayevning «O'zbeklar» hikoyasi

36. «*Biz ablahmiz! Ko'ra-bila turib ablahlik qilamiz. Biz qanaqasiga o'zbekmiz-a! Ana ulami o'zbek desa bo'ladi».* Ushbu fikrlar qaysi qahramonga tegishli? J: Azlmjonga

37. «*Biz ancha buzilganmiz. Lekin hayotning o'ziyam majbur qiladi-da kishini».* Ushbu fikrlar qaysi qahramonga tegishli? J: O'rmonga

38. Ergash nima uchun paxtadan qaytayotganda ich-ichidan quvonib yig'ladi?

J: Xalq orasida shunday bag'ri keng, olljanob insonlar borligidan quvongani uchun

39. Tiliga tersak chiqqanlarni qanday davolashardi?

J: Oq gulbo'tani quritib-ezib, kukuni sepilardi

40. Qaysi hikoya va qissalari o'quvchilar mehrini qozongan? J: «Taqdir bashorati», «Qush tilis», «Tog'lar-ga qor tushdis», «Esiz, Eshniyoza», «Cho'loq turnas», «Tuproq ko'chalars», «Yo'llar, yo'l doshlar», «Yur, tog'larga ketamiza», «Qahramonning so'nggi kunlaris», «Bulut to'sgan soy», «Abdulla Nabl o'g'lining so'nggi kunlaris», «O'n sakkizga kirmagan kim bor»

41. «*Ko'zimiz ochiq bo'lgani bilan, ojiz ekanmiz».* Ushbu iqror qaysi asardan olingen? J: «O'zbeklar»

42. «*O'zbeklar*» hikoyasida «*Men bu yerda oddiy, jay-dari sodda o'zbekning bag'ri kengligi, to'pariligini ko'rdim*» degan hayrat qaysi badiiy qahramon nutqida uchraydi?

J: Ergash

43. «Yigit etigini qo'lantayoq kiyib chiqqan ekan». Ushbu parchada qo'llangan «qo'lantayoq» so'zining ma'nosini loping. J: **Paytavasiz kiyish**

44. «Bizdayam bir momo bo'lgich edi. Bobomiz bos-machilarning otiga xashak bergani uchun «xalq dushmani» deb otilib kelgan, undan qolgan o'n bir qursoqni boqaman deb umrini toq o'lazgan kampir edi. Ularniyam birin-ketin yaratganga topshirib, bizning maymoq ota bilan qolgan...» Ushbu parcha qaysi asardan olingan va kimning tilidan aytilgan? J: «**O'zbeklar» hikoyasi, Ergashning tilidan**

45. Kasal bo'lgan Ergashga chiqmang, siz uchun ikki fartuk terib beraman deb kim aytadi? J: **Saparali**

46. «Ukam o'ldi. Doya kampir chala lug'ilgan dedi. O'ldi, ko'mib keldik. Kichkina edi». Ushbu parcha qaysi asardan olingan va kimning tilidan aytilgan?

J: «**O'zbeklar» hikoyasi, Abduqadirning tilidan**

47. «Bechora o'zbekni bilasiz-ku, o'zi yemasdan mehmoniga tutadi». Ushbu fikrlar qaysi hikoyadan olingan va kimga tegishli? J: «**O'zbeklar», Ergash**

48. «Kambag'alligini yashiradi. Qizig'-a? Holbuki, kambag'al odam o'z holiga ko'nikkan bo'ladi. Yashirmaydi. Biznikilar negadir... Xuddi juda boy edi-yu, birdan kambag'al bo'lib qolganday: shuning uchun o'kinch bilan buni yashirishga urinayotganday tuyuladi menga...» Ushbu parcha qaysi asardan olingan va kimning tilidan aytilgan?

J: «**O'zbeklar» hikoyasi, Ergash tilidan**

49. Botir cho'ponga: «Bugun o'ntamiz mehmon bo'lamiz. O'ntamiz keyin!» – deb kim aytgan? J: **O'rmon**

50. «Ha, endi chidaymiz-da, og'ajon. O'zimizning paxta, o'zimizning hukumat». Ushbu parcha qaysi asardan olingen va kimning tilidan aytilgan?

J: «O'zbeklar» hikoyasi, Botir cho'pon tilidan

51. Botir cho'ponning qo'yini qayerda so'yib yeyishdi?

J: Shodito'qayda

52. «Uddalik bolalar» qaysi asarda uchraydi?

J: «O'zbeklar» hikoyasida

### SAIDA ZUNNUNOVA (1926 – 1977)

1. U asarlarida o'zbek qizlarining tortinchoq, hayo to'la sajiyasini, Sharq ayolining andishaga o'ralgan qiyofasini, onalarning cheksiz mehri va uning o'ziga o'xshash ayollargagina xos bo'lgan matonatni, sadoqatni tarannum etdi

2. «Gulxan» jurnali, «O'zbekiston madaniyati» gazeta-sida madaniy xodim, badiiy adabiyot nashriyotida muharir hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishladi

3. Ilk she'ri «Salom senga» 1945-yili Andijon viloyatining «Paxta fronti» gazetasida bosilgan

4. Birinchi she'riy lo'plami «Qizingiz yazdi» deb nomlanadi. Unga G'.G'ulom nom bergan: «Saidaning birinchi kitobini o'qib, «Qizingiz yozdi» deb nom qo'yib bergenman. Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadı. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli, tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, hordiqlarimizni yozib, mehnatga rag'baflarimizni toblantiradigan, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmlı shoiramiz bo'lib yetishdi»

5. She'niy to'plamlari: «Yangi she'lilar», «Gullar vodiy-si», «Qizlarjon», «She'lilar», «Bir yil o'ylari», «Nilufar»

6. Dostonlari: «Sodiq va Anor», «Xayrixon», «Surat bilan suhbat», «Qo'shnilarim»

7. «Surat bilan suhbat» dostoni alohida mavqega ega. Bu asar ylimoni butun onalarga, ayollarga madhiyadir. Unda onaning urush tufayll ota mehridan benasib bo'lgan, ne mashaqqatlar bilan o'stirgan o'g'lining nikoh kechasidan keyingi iztirobli o'y-xotiralari aks etadi

8. Pyesalari: «Ona», «Ko'zlar»

9. Hikoya va qissalar to'plamlari: «Gulbahor», «Povest va hikoyalar», «Gulxan», «Do'stilk», «Qanot», «Olov», «Ko'chalar charog'on», «Bo'yлaringdan o'rgulay»

10. U Said Ahmadning turmush o'tog'i, Said Ahmad: «Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar. Qalbimning parchasi sig'masa agar, Rozimasman, birov hadya etsa zar» misralari Saidaxonning she'rda chizilgan suratiga o'xshaydi», – deydi

11. «Qizimga» she'ni:

*Jahon mening bag'rimdami yo men jahon bag'rida,  
Yuz bahoming yellarimi sochlarmi silagan?!*

*Ming gulshanning gullaridan rohalbaxsh bu qo'ichalar  
Baxtga ko'mib yuragimni, yuzlarim erkalagan»*

12. «Alla» she'ridan:

*Yer uzra qo'ndi oqshom,  
Oy shu'lasи bir mayin.  
Kej, oppog'im, kej, erkam,  
Men seni allalayin»*

13. Buvilar, buvilar duoga qo'l ochib har doim «Boshi

*toshdan bo'lsin», deyishadi, lekin jigardarimning ko'ksidagi yurak toshdan bo'lmasin*

14. «Mening vatanim» she'ridan: «Yuz yil umr ko'rib, yuz yil she'r yozsam, yuz yil ta'rifingni aylsam ham sevgan yorining rasmini chizmoqqa munosib rang topa olmay chamanda tentirab yurgan rassomday sening tasviringga so'z axtaraman. Yuz yilgi she'rimni yig'salar ham dildagi senga bo'lgan sevgimday asil bo'la olmaydi, Vatanim!»

15. «Insonlik hurmati ichaman qasam: Senga qurban bo'lsa, mayli, Jon-tanim» misralari qaysi she'rdan olingan?

J: «Mening vatanim» she'ridan

16. Saida Zunnunovaning ilk she'riy ta'plamiga kim nom bergen? J: G'.G'ulom

17. «Saidaning birlinchl kitobini o'qib «Qizingiz yozdi» deb nom qo'yib bergenman. Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor katmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, ifordi, latimli lirikasi bilan dillarimizni erkabal, hordiqlarimizni yozib, mehnatga rag'batlarimizni toblantiradigan, idroki-mizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmlı shoiramiz bo'lib yetishdi», – degan fikrlar kimga tegishli? J: G'.G'ulomga

### RASUL HAMZATOV (1923 – 2003)

1. Rasul Hamzatov qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1923-yilda Dog'istonoda

2. Ushbu satrlar muallifini toping. «She'riyat, mazlumga homiylik qilding. Qaroli bo'lmading zo'ravonlaming»

J: Rasul Hamzatov

3. Necha yoshidan she'riar yoza boshlagan?

J: 13 – 14 yoshidan

4. Nеча yoshidan o'z yurtining taniqli shoiriga aylan-gan? J: **16 yoshidan**
5. Rasul Hamzatovning otasi kim bo'lgan? J: **Rasul Hamzat Sadasa Dog'istonning mashhur shoiri bo'lgan**
6. Rasul Hamzatov qaysi jabhalarda mehnat qilgan? J: **O'qituvchi, artist, muxbir**
7. She'riy to'plamlari. J: «**Tog' qo'shilg'i», «Mening qalbim tog'larda», «Tog' qizi», «Dog'istonim», «Yuksak yulduzlar», «Tug'ilgan kunim», «Tog'likning vatanis», «Ovuldan xat»**
8. Rasul Hamzatov she'rlaridan kim tarjima qilgan? J: **Erkin Vohldov**
9. Rasul Hamzatov qaysi she'rida tushida o'lib yetganini va bir sabab tufayli tirligani aytadi? J: «**Ona tilim» she'rida ikki kishining avar tillida gaplashayotganini eshitib, ona tillining qudrati bilan tirladi**
10. Rasul Hamzatovning «**Ona tilim»** she'ri mazmunan va ruhan kimning she'riga hamohang? J: **Cho'lpionning**
11. «**Ona tilim»** she'rida qaysi ismlar tilga olinadi? J: **Hasan va Ali**
12. «**Kenja nevaram Shahrizodga**» she'rida Rasul Hamzatov nechta akasi urushdan qaytmaganligi haqida afsuslanib yozadi? J: **Ikkita**
13. Bolalarning yig'lashi sababini shoir qanday tushuntiradi? J: **Azoblarni ertaga totishini billb oldindan yig'laydi**
14. O'n sakkiz yoshidan o'qituvchi, artist va muxbir sifatida turli jabhalarda mehnat qilgan ijodkor... J: **Rasul Hamzatov**
15. Birinchi kitobi 1943-yilda bosilib chiqqan, 1945-yil-

da Moskvadagi jahon adabiyoti institutida tahlil olishga kirishgan shoir kim? J: **Rasul Hamzatov**

16. «O'z sha'ni yo'lida sovuq yillayotgan xanjar tig'iga qarshi bora otadigan er yigitlari, go'zal va sadoqatli qizlari uchun faxr tuyg'ularini sevib kuylagan» shoir kim?

J: **Rasul Hamzatov**

17. «Silab tiriltiruvchi» ma'nosini bildiruvchi laqabga ega payg'ambar kim? J: **Iso Masih**

## BADIY OBRAZ VA MUBOLAG'ALI TASVIR

1. *Badiy timsol* keng ma'noda ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatса, tor ma'noda badiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi

2. *Badiy obraz* badiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan suratidir

3. *Bosh qahramon* asarning boshidan oxirigacha qatnashib, tasvirda muhim o'rin tutuvchi ishtirokchidir

4. *Epizodik qahramonlar* asarning bir-ikki o'mildagina qatnashib, keyin tushib qoladigan ishtirokchilardir

5. *Mubolag'a badiy* asarlarning ta'sir darajasini oshirish uchun unda tasvir etilgan odam, narsa yoki hodisaga xos xususiyatni orttirib ko'rsatilishidir

6. *Behad ottirilgan mubolag'a mumtoz adabiyotda bulug'* yoki ifrot ham deyiladi

7. Aqlga sig'maydigan darajadagi mubolag'a g'ulu deb ham yuritiladi

## ALISHER NAVOIY (1441 – 1501)

1. Alisher Navoiyning onasi kim bo'lgan?

J: Kobul amirzodalaridan Shayx Abusa'id Changiy-ning qizi bo'lgan

2. Alisher Navoiy qachon va qayerda Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi?

J: Iroqqa ko'chib ketayotganida Taft shahrida

3. Alisher Navoiy bolalikda qaysi shoirlar bilan aloqada bo'lgan? J: Amir Shoshy, Lutfly, Kamol Turbatiy

4. Alisher Navoiy aruz bo'yicha kimdan ta'lif olgan?

J: Sabzavorlik o'llim va shoir Darvesh Mansurdan

5. Qaysi yillarda Samarqanda yashagan?

J: 60-yillarning ikkinchi yarimida

6. Qaysi shoir «amiri kabir», «amir ul-muqarrab» unvonlariga musharraf bo'lgan? J: Alisher Navoly

7. Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan? «Ilgimdan kelganicha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatig'a intiqom marhamini qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganini ul Hazrat arzig'a yetkurdim».

J: Alisher Navoly, «Vaqflya»

8. «Ilgimdan kelganicha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatig'a intiqom marhamini qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganini ul Hazrat arzig'a etkurdim». Mazkur parchadagi «ul Hazrat» kim edi? J: Husayn Boyqaro

9. Navoiyning o'tmish mavzusidagi asarlari?

J: «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anblyo va hukamo»

10. Navolyning aruzga doir asari?

J: «Mezon ul-avzon»

11. Navoiyning otasi G'iyosiddin Muhammad qayerga hokim etib tayinlangan? J: **Sabzavorga**

12. Navoiy qaysi asarida o'zining yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt she'rnini yod bilganini yozadi?

J: «**Muhokamat ul-lug'atayn» asarida**

13. Islom olamida mo'tabar sanalib kelayotgan qaysi allomadan saboq olgan?

J: **Fazlulloh Abulays Samarcandiydan**

14. Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan «Ilk devon» deb nomlanuvchi devoni qachon tuzilgan?

J: **1465 – 1466-yillarda**

15. «Badee ul-bidoya» (Badiliylik ibtidosi) devoni qachon tuzilgan? J: **1472 – 1476-yillarda**

16. «Navodir un-nihoya» (Tuganmas, nodirliklar) devoniga qachon tartib berilgan? J: **1476 – 1483-yillarda**

17. Navoiyning o'tmish mavzusidagi asarları qaysilar?

J: «**Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo»**

18. Navoiy qaysi asarida turk (o'zbek) va sori. (fors) tillarini solishtirib, o'z ona tilining tuganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi?

J: «**Muhokamat ul-lug'atayn**» (Ikki til muhokamasi)

19. «Xazoyin ul-maoniy» (Ma'nolar xazinasi) majmuasi qachon tuzilgan? J: **1490-yilda**

20. Navoiyning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini o'zida ifodalagan eng so'nggi asari qaysi?

J: «**Mahbub ul-qulub**» (Ko'ngillarning sevgani)

21. Navoiyning lug'atshunoslikka doir asari?

J: «**Sab'atu abhur**» (Etti dengiz)

22. Navoiyning xatlar-yozishmalari jamlangan asari?

J: «Munshaot»

23. Navoiyning Sharqda mashhur shayxlar, so'fiylar hayoti haqida ma'lumot beruvchi asari?

J: «Nasoyim ul-muhabbat»

24. «Nasoyim ul-muhabbat» so'zining ma'nosini toping.

J: Muhabbat shabadalari

25. Baytning ma'nosini toping. «Ey, falak avjidan o'tib rif'ating, Oy-u quyoshdin cholinib navbating».

J: Ey, ulug'verlligi falakning eng yuksak nuqtasidan o'tgan, Nog'orang esa oy-u quyoshdan challingan

26. Baytdagi ikkinchi misraning ma'nosini toping. «Ey, falak avjidan o'tib nf'ating, Oy-u quvoshdin cholinib navbating». J: Oy va quyosh, ya'ni nog'oranning ikki tarafi sening ovozangni (sha'ningni) o'zlarining joyi bo'lgan ko'kka taratadi!

27. Baytdagi ikkinchi misraning ma'nosini toping. «Taxting o'lib davlati jovidni mulk, Soyavi chatning aro xurshidi mulk»

J: Saroying soyasl aro mamiyat quyoshi ka'rlnadi!

28. Arjumand so'zining ma'nosini toping. J: Aziz

29. Sarbaland so'zining ma'nosini toping. J: Yuksak

30. Soyavi ra'fat so'zining ma'nosini toping.

J: Mehrbonlik soyasl

31. Xilqat so'zining ma'nosini toping.

J: Yaratilish, yaratiq

32. Taxti xilofat so'zining ma'nosini toping.

J: Xallfallik taxti

33. Tiyra xok so'zining ma'nosini toping.

J: Qora tuproq

34. «Hayrat ul-abror» dostoniga xos atamani toping.

J: Maqolot

35. Navoiyning Olam va Odam haqidagi mulohazalari yuksak badiiy shaklda ifoda etilgan asari qaysi?

J: «Hayrat ul-abror»

36. Navoiyni zamondoshlari qanday ataydilar?

J: Nizomiddin Mir Alisher

37. Nizomiddin so'zining ma'nosini toping.

J: DIn nizomi

38. Mir so'zining ma'nosini toping. J: Mir – amir degani

39. Muhr dor qanday lavozim?

J: Davlat hujjatlarini rasmiylashtiruvchli amaldor

40. Navoiy kimni «Hayrat ul-abror» dostonida shoh

G'oziy deb ataydi? J: Husayn Boyqaro

41. G'oziy so'zining ma'nosи? J: G'olib

42. «Tonug» so'zining ma'nosи? J: Guvoh

43. «Shoh G'oziy» hikoyatida kampirning ikki guvohi?

J: Podshonining insofi va adolati

44. Shoh G'oziy kampirning oldiga ikki narsa, qo'yadi.

Bular? J: Birli – o'z bo'yinni ra'mol bilan bog'lab, kam-pirga topshirdi, ikkinchisi – bo'yni yechilgan hamyonni kampirga tutdi

45. «Mehr va Suhayl» hikoyati «Sab'ayi sayyor»ning nechanchi hikoyatiga kiritilgan?

J: 5-Iqlimdan kelgan musofir hikoyatlari

46. Jobir qaysi mamlakatda yashar edi? J: Adan

47. Mehr qaysi shahardan? J: Bihishtsaro

48. Mehming otasining ismi? J: Navdar

49. Suhaylning yurti? J: Yaman

50. Suhayl otasining ismi? J: **Nu'mon**  
51. Suhayl so'zining ma'nosi? J: **Yorug' yulduz**  
52. Suhayl qanday kemada Mehming yurtiga jo'naydi? J: **Hilolga o'xshash kemada**  
53. Jobir dengizda Suhayl bilan jang qilib, uni qanday yengadi? J: **Kemanlı hılyla bilan teshib**  
54. Navdarshoh Jobir tuzog'iga qanday tushadi? J: **Ov ketidan quvib slohildan ajragani uchun**  
45. Nu'mon Jobirning tuzog'iga qanday lushadi? J: **Bo'ron ofatidan halokatga uchragani uchun**  
46. Suhaylni chohdan kim ozod qiladi? J: **Mehr**  
47. Suhayl Jobirni qachon yengadi? J: **Zindondan chiqqach ancha parvarishdan so'ng yakkama-yakka jangda**  
48. «Dedikim: Pahlavonliq ermas ul kim, kishi makr birla urg'ay yo'l». Ushbu satrlar qaysi asardan olingan? J: **«Sab'ayi sayyors»**  
49. «Mehr va Suhayl» hikoyati so'ngida qahramonlarining ruhiy holatini ochlb berish uchun qaysi rangdan unumli foydalaniган? J: **Movly**  
50. «Hayrat ul-abror» dostonining hajmi? J: **3988 bayt (7976 misra), 64 bob, 20 maqolot**  
51. Navoiy qaysi asarida boshqa mavjudotlardan imkon va imtiyozda ustun bo'lgan Insonning bu olamdag'i c'rnii qanday, hayotning mazmuni nimalardan iborat bo'lishi kerak kabi muammolarga o'quvchining e'tiborini qaratadi? J: **«Hayrat ul-abror» dostonida**  
52. Navoiy qaysi asarida odil hukmdorming mardligi va da'vogar kampirning tantiligini tasvirlaydi?

J: «**Hayrat ul-abror**» dastoniда

53. Qaysi asarda o'nlab, yuzlab karvonlarga bir o'zi bas kela oладиган yo'lтасар обраzi berilган?

J: «**Sab'ayl sayyor**» asarida

54. «*Zulfidin sunbul aylabon yuz pech, Og'zidin g'uncha aytmay so'z hech*» misralari qaysi ga'zal ta'rifiga bag'ishlangan? J: **Mehr**

55. «*Mehr va Suhayl*» hikoyatida Mehrning go'zalligi ta'rifi necha baytda ifodalanadi? J: **8 baytda**

56. «*Anda bir shoh hakim-u voliy, Mulki ma'mur-u himmati olyi*» misralarida qaysi shoh haqida fikr bormoqda?

J: **Navdar haqida**

57. «*Mehr va Suhayl*» hikoyatida Jobirning yurtida faqat qaysi gul o'sar edi va Mehr ham shu guldan libos kilygan edi? J: **Nillufar**

58. «*Sen agar zohir etting itlikni, Men sanga ko'rguzay yigittlikni*» misralari qaysi asardan olingen?

J: «**Mahr va Suhayl**» hikoyatidan

59. «*Mehr va Suhayl*» hikoyatida mas'uliyatli damda shaxsiy ishtiyoqi tufayli asirga tushgan obrazni ko'rsating.

J: **Navdarshoh**

60. Xalq orasida «*Ulug'lar duosi qabul bo'ladi*» degan naql bor. Alisher Navoiy bolaligidagi kimdan duo olgandi?

J: **Taft shahrida ulug' tarixchi Sharafiddin Ali Yazydilidan**

61. Navoiy qaysi yillarda Astrobodda hokim bo'lgan?

J: **1487 – 1488**

62. «*Xamsa*» tarkibiga kiruvchi besh dostonni nima bog'lab turadi?

J: Insonning insonga, olamga, yaratuvchi Allahga munosabati kabi azaliy va abadiy haqiqatlar

63. «Muncha g'aroyibotki misol aylading,

Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,

Lek boridin g'araz inson edi». Olamni yaratishdan maqsad Insonni yaratish ekanligi haqidagi mazkur bayt Navoyning qaysi asarida uchraydi? J: «Hayrat ul-abror»da

64. «Hayrat ul-abror»ning «Salotin bobida Navoyning qaysi fazilat haqidagi qarashiari aks etgan?

J: Adolat haqidagi

65. «Bog'im aro sarvi sihi sheva ul, Balki quruq naxlim aro meva ul» misralari kimning tilidan aytilgan? J: «Shoh G'oziy» hikoyatida Zoli zar – tilla kampir tilidan

66. «Tig' ila yorib jigarim yonini, Yerga oqizdi jigarim qobnini» misralari kimning tilidan aytilgan?

J: «Shoh G'oziy» hikoyatida Zoli zar – tilla kampir tilidan

67. Shohning shariat qozisi huzurida javob berishga tayyor ekanligi qaysi asarda hikoya qilingan?

J: «Hayrat ul-abror»da

68. Shohning yo'llini to'sib uni shariat qozisi mahkamasiga borishini talab qilgan botir kampir va bunga rozi bo'lgan ddil shoh obrazi qaysi asarda uchraydi?

J: «Hayrat ul-abror»da

69. «Men edim ul amrda beixtiyor, Har ne sen elsang, men ga ne ixtiyor» misralarida nima aks etgan? J: Shoh G'oziyning o'z taqdiriga qulligidan afsuslanishi

70. «Shoh G'oziy» hikoyatida kampir nima uchun a'z

da'vosidan voz kechib uzr so'raydi? J: Shohningadolatli  
ekanligiga iqror bo'lgani uchun

71. Navoiy orzu qilganadolatli shoh qanday bo'lishi  
lozim edi? J: Birinchidan, odil hukmdor mamlakatda  
qonun hamma uchun teng bo'lishini ta'minlashi dar-  
kor; ikkinchidan, qonunga bo'y sunishda u barchaga  
namuna bo'lishi kerak; uchinchidan, adolat yo'llida  
jonldan ham kecha olishga kuch topa olsin

72. Jobir nomiga qaysi laqab qo'shib aytildi?

J: Rohzan – qaroqchi

73. «Anda shohi saxiy-u donishvar, Qabzayi hukmi  
ichra ul kishvar» misralari qaysi shoh ta'rifiga bag'ishlan-  
gan? J: Navdar

74. «Bahrg'a noz ila chu ko'z solubon, Dema ko'lok,  
bahr qo'zg'olibon» (Agar u noz bilan dengizga ko'z lash-  
lasa, to'lqinlargina emas, balki dengiz qo'zg'oladi), – deya  
kimga ta'rif berilgan? J: Mehrga

75. Mehr nima maqsadda dengizga chiqqandi?

J: Dengizni sayr qillish maqsadida

76. Kimlar Jobir tuzog'iga bo'ron ofati tufayli tushadi?

J: Mehr va Nu'mon

77. Suhayl qanday maqsadda dengiz safariga chiqqan-  
di? J: Nikoh orzusida

78. Mehrning Jobir qo'llida asir ekanligidan otasi Nav-  
darshoh qanday xabar topadi?

J: Jobir ozod qilgan o'z odamlari orqali

79. «Ham tanumand-u ham shujo-u daton» (Kuchda  
tengsiz, qaytmas, botir), – deya ta'riflangan qahramon...

J: Jobir

80. Jobir dengizda kemalar ko'ringanidan qanday xabar topardi? J: **Diydabonlar – kuzatuvchilar orqali**

81. «*Adolatidan mamlakati guliston ham chaman*», — deya kim ta'riflangan? J: **Nu'mon**

82. «*Yuzidin bargi gul xijil edi, Qaddidin sarv munfail erdi*» (*Yuzining go'zalligidan gul bargi xijil tortar edi, Qad-dining kelishganligidan sarv darxli xijolat edi*), — deb kimga ta'rif berilgan? J: **Suhaylga**

83. «*Maylni qo'yki, vola uzor ul, Jon berib vasliga xaridor ul*» misralari kimning ruhiy holatini aks ettiradi?

J: **Mehrning**

84. «*Men bu zavraqni suvg'a to surdim, Ming sening-dekni suvda o'llurdim*». Jobir ushbu fikrlami kimga aylgan?

J: **Suhaylga**

85. Jobir nima uchun Suhaylni o'lдirmaydi?

J: **Jur'ating xalos bo'lisingga sabab bo'ldi** deydi

86. «*Chora bu ishqqa intiqom durur, Yo'qsa, bo'lmoq tirk harom durur*» fikrlari kimga kim tomonidan aytilgan?

J: **Mehrning otasi Navdarshoh Nu'monga yozgan maktubida aytgan**

87. *Zuhalvash – Zuhalga o'xshagan tashbehi* kimga nisbatan qo'llangan? J: **Jobirga nisbatan**

88. *Zuhal* qanday sayyora hisoblanadi?

J: **Saturn – yomanlik sayyorasi**

89. «*Shahi ozoda*» (*Tagi toza, aslzoda shoh*) deb kim ta'riflangan? J: **Nu'mon**

90. Navdarshohning maktubi Nu'monga yetib kelganda, Suhaylning dengiz safariga chiqqaniga necha oy bo'lгandi? J: **Olti oy**

91. O'zini ovga bo'lgan ishtiyoqdan zo'tg'a tutib ketayotganida, Navdar qarshisidan bir jonzot chiqib qoladi va shoh nimaga kelganini unutib beixtiyor ovga mashg'ul bo'llib ketadi. Bu qaysi jonzot edi?

J: **Tustovuq**

92. «*Chopibon saydg'a solay dedi qayd, O'zga sayyod-jarg'a bo'ldi o'zi sayd*» misralari qaysi shohga nisbatan qo'llangan? J: **Navdarshohga**

93. «*Shahni derdar sipoh birdan shoh, Shoh emaşdur yo'q esa anda sipoh*» misralari qaysi shohga nisbatan qo'llangan? J: **Navdarshohga**

94. Chohdag'i bandini qutqarish fikri kimdan chilqadi?

J: **Mehrdan**

95. Mahr Suhaylni chohdan nima yordamida bzb'd eladi? J: **Sochi yordamida**

96. Dedikim: «*Pahlavonliq ermas ul Kim, kishi makr bir-la urg'ay yo'sh*». Ushbu fikrlar kim tomonidan kimga aytildigan?

J: **Suhayl tomonidan Jobirga**

97. «*Har kishikim birovga qozg'oy choh, Tushgay ul choh aro o'zi nogoh*» misralari kim tomonidan kimga aytildigan? J: **Suhayl tomonidan Jobirga**

98. «*Ikki shoh kirdilar xudo yo'lig'a, Mulkhan solib aning qo'lig'a*» misralari kimlar haqida?

J: **Navdarshoh va shoh Nu'mon haqida**

## TASHBEH HAQIDA

1. Tashbehning yuzaga kelishida necha unsur muhim?

J: 4 ta: **o'xshamish, o'xshatilmish, asos, vosita**

2. O'xshamish nima?

J: Tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha

3. Asos nima? J: Nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi, ya'ni o'xshatish sababi

4. Vosita nima? J: O'xshatish belgisi, ya'ni o'xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalar: -dek, -day, -cha, -vash, -simon, -vor, -saro, -osa, -iy, -oyin qo'shimchailari, kabl, singari, yanglig', blkin, misoli, o'xhash, misli, go'yo, xuddi, o'xhab, nechukki so'zları

5. Yuzing go'zallikda gul kabidir satridagi asos qaysi?

J: Go'zallikda

6. Yuzing go'zallikda gul kabidir satridagi vosita qaysi?

J: Kabl

7. Yuzing go'zallikda gul kabidir satridagi o'xshamish qaysi? J: Yuz

8. Yuzing go'zallikda gul kabidir satridagi o'xhatilmish qaysi? J: Gul

9. Mutlaq tashbeh deb nimaga aytildi? J: Asos va vositaning qo'llanish yoki qo'llanmasligidan qat'l nazar o'xshamish bilan o'xhatilmish ishtirok etgan o'xshatish san'atl mutlaq tashbeh deyiladi

10. Kinoya tashbeh deb nimaga aytildi?

J: O'xshamish ham tushib, o'xhatilmishning o'ziga saqlansa, kinoya tashbeh deyiladi

11. Mutlaq tashbehning ikkinchi nomi?

J: Aniq tashbeh

12. Kinoya tashbehning ikkinchi nomi?

J: Ishora o'xshatish

13. «Ermas alar tufrog'-u, sen nuri pok, Xilqat alarg'a-

*yu sanga – tiyra xok» misralarida qanday badiiy san'at ishlatalilgan? J: Mutlaq tashbeh*

*14. «Bo'rini dag'i galadin dur qil, Suv beribon bog'ni ma'mur qil» misralarida qanday badiiy san'at ishlatalilgan?*

**J: Kinoya tashbeh**

*15. «Bo'rini dag'i galadin dur qil, Suv beribon bog'ni ma'mur qil» misralarida nechta kinoya tashbeh bor?*

**J: 4 ta: bo'ri – bo'ridek talovchilar, gala – gala singari xalq, suv – suvdek adolat, bog' – bog'ga o'xshash mamlakat**

## TANOSUB

**1.** Tanosub qanday san'at? J: Baytda, umuman, she'riy bandlarda ma'no jihatidan bir-blriga yaqin tu-shunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash

*«Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma'mur-u himmati olyi» misralarida qanday badiiy san'at ishlatalilgan?*

**J: Tanosub**

*3. «Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma'mur-u himmati olyi» misralaridagi tanosubni hosil qiluvchi so'zlarini toping. J: Shoh, hokim, voliy (hukmdor), mulk, ma'mur*

*4. «Maylni qo'yki, vola uzor ul, Jon berib vasliga xaridor ul» misralarida qanday badiiy san'at ishlatalilgan?*

**J: Tanosub**

*5. «Maylni qo'yki, vola uzor ul, Jon berib vasliga xaridor ul» misralaridagi tanosubni hosil qiluvchi so'zlarini toping.*

**J: Mayl, vola, zor, vasl, xaridor**

## IRSOLI MASAL

1. Irsoli masal san'ati nima?

J: «Maqol kirtish» ma'nosini bildirlib, badiiy asarda fikr isboti uchun xalq maqollaridan foydalanish san'atlari

2. «Har kishikim birovga qozg'oy choh, Tushgay ul choh aro o'zi nogoh» misralarida qanday badiiy san'at ishlatalilgan? J: Irsoli masal

## TURDI FAROG'IY (XVII asr o'rtalari – 1699/1700)

1. Shoir Turdi Farog'iy qaysi hukmdorlar davrida yashagan? J: Buxoro xonlari Nodirmuhammad va uning o'g'illari Abdulazizzon hamda Subhonqulixon davrida

2. Xiva, Buxoro, Qo'qonda qaysi urug'lar hukmron edilar? J: Xivada qo'ng'irotlar, Buxoroda mang'itlar, Qo'qonda minglar

3. Normuhammad qachon nima maqsadda Xivaga qo'shin tordi? J: Xivanl o'ziga bo'ysundirish uchun

4. Xondan norozi bo'lgan qaysi urug' kim boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tardi?

J: Yuz urug'l Xo'jandda Boqi Yuz boshchiligidagi

5. Xivada ko'tarilgan Boqi Yuz boshchiligidagi qo'zg'o-londa qaysi shoir ishtirok etgan? J: Turdi

6. Turdi umrinning so'nggi yillarini qayerda o'tkazdi?

J: Xo'jandda Oqbo'tabiy huzurida

7. Turdining merosi?

J: 400 misra atrofidagi 18 ta she'r yetib kelgan

8. Turdining adabiy merosi qanday janrlardan iborat?

J: G'azal va muxammaslar

9. Turdining merosida nechta tojik tilida yaratilgan asar bor? J: 2 ta: **bir g'azal va bir muxammas**
10. Millatni birlikka chorlagen shoir kim? J: **Turdi**
11. «Tor ko'ngilik beklar» she'ri qanday janrda yozilgan? J: **G'azal**
12. Turdining qaysi asari adabiyotimiz tarixidagi xalqni milliy birlikka chaqirgan, o'zaro tenglikka da'vat etgan, hududiy yaxlitlikni targ'ib qilgan birinchi she'r?
- J: **«Tor ko'ngilik beklar»**
13. Turdining hasbi hol tarzida yaratilgan g'azali qaysi? J: **«Turdiman»**
14. Turdi «Turdiman» she'rida qiyin hayotini qaysi narsaga o'xshatgan? J: **Chashmi so'zan – igna teshigidan o'tkazilayotgan ip**
15. Turdining hasbi hol tarzida yaratilgan muxammasi qaysi? J: **«Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman»**
16. Ushbu she'nda qanday badiiy san'atdan foydalaniyan? «*Yuz fazosidin ozib, tushdim nishibi qirqqa. Xavfi biym-u vahm arosinda qaribi qirqqa.*» J: **Iyhom**
17. Turdining «Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman» muxammasida tasavvufiy tushunchani bildiruvchi so'zlarni toping.
- J: **Rind surxayll, mayl sofi hariflar durdiman**
18. Turdining «Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman» muxammasida shoir shaxsiyati va taqdirini aks ettiruvchi so'zlarni toping.
- J: **Qilmadim shukronaye, musofirlig'**
19. Turdining «Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar

ko'rdiman» muxammasida ijtimoiy voqelikka aloqador tu-shunchani bildiruvchi so'zlarni toping.

**J: Tafriqa toshl, charxi dun**

20. Turdining «Yod mandin kim berur, yaxshi zamonalar ko'rdiman» muxammasida o'zgalarning shoirga munosabati aks etgan ifodalarni toping.

**J: Aqrabolar or etar, qoshin chatar**

21. Qaysi shoir mardlar maydonda olishib qon to'kkanda panada turgan beklarga «upa-əlik» olishni tavsiya etadi? J: **Turdi**

22. Qaysi shoir o'z hasbi holida «qatrayam nochiz» – arzimas qatra bo'ssam ham, «zotl qulzum» – dengiz zotidanman deb yozadi? J: **Turdi**

23. «Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman, Kelturan amvojg'a bahri talotum Turdiman» misralarida qaysi badiiy san'atdan foydalaniłgan? J: **Tazod**

24. Har kuni ignaning teshigidan o'tgan ip kabi tirikchilik o'tkazgan shoir kim? J: **Turdi**

25. «Tor ko'ngullik beklar» g'azalining uchinchi baytida shoir «bir» so'zini necha marta takrorlaydi? J: **5 marta**

26. «Turdiman» g'azalining hajmi? J: **3 bayt**

27. Turdi turli urug'ga mansub beklarni birlikka chaqirganda bu holatni nimalar yordamida tushuntiradi?

**J: Kiyimning qismlari yordamida**

28. «Tor ko'ngullik beklar» g'azalida Turdi, hamma maydon talashayotganda, o'zini pana-pastqamga tortgan beklarni kimlarga o'xshatadi?

**J: Satang ayollarga**

**JAHON OTIN UVAYSIY**  
**(XVIII asrning 80-yillari – XIX asr o'rtalari)**

1. Uvays so'zining tasavvufiy ma'nosini toping.  
J: **Payg'ambarimizning g'oylibona nigofiga sazovor bo'lish Ilinjidagi uvayslik yo'lli**
2. Uvaysiy qaysi tillarda ijod qilgan? J: **O'zbek va tojik**
3. Uvaysiyning farzandlari ismi?  
J: **Quyoshxon, Muhammadxon**
4. Uvaysiy qaysi shoh davrida xon saroyida xizmatda bo'lgan? J: **Amir Umarxon davrida**
5. Uvaysiy qaysi hukmdor davrida moddiy qiyinchiliklarda yashadi? J: **Muhammad Allison davrida**
6. Uvaysiy qaysi janrlarda ijod qilgan?  
J: **G'azal, muxammas, musaddas, murabba', chiston, doston**
7. Uvaysiyning hasbi hol tarzida yozilgan asarlari?  
J: **«Uvayslyman», «Dog'o'lidi, dog'o'lidi», «Sog'indim» g'azallari**
8. Uvaysiyning «Sog'indim» g'azali qanday munosabat bilan yozilgan? J: **O'g'il Muhammadxonning sarbozlikka yuborillishi munosabati bilan farzandidan Judo onaning ichtiroblari**
9. Oddiygina askar o'g'lini «davlatli sultonim» deya e'zozlagan shoirha kim? J: **Uvaysly**
10. Topishmoqning javobini toping. «*Ul nadurkim, sabzato'nlik, yoz yog'ochning boshida, Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida. Barcha qushlarning so'ngoki ichida, Ul na qushdirkim, so'ngoki toshida*» J: **Yong'oq**

11. Topishmoqning javobini toping. «*Ikki mahbubni ko'rdim, bir-birisin ko'rmagan, ikkisining o'tasiga, do'stilar, qil sig'magan*». J: **Kun va tun**

12. «Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'in-dim» misrasidan anglashiladigan ma'no qaysi?

J: **Dard – sog'inch, darmon – diydor**

13. Uvaysiyning kecha-yu kunduz o'g'lining nomini takrorlab, uni o'ylab yurishi qaysi ifodada aks etgan?

J: **Uyimning zlynati, ko'z ravshani**

14. Uvaysiyning otasi xalq orasida qanday nom bilan tanilgan? J: **Hofiz unvoni bilan tanilgan bo'llib, ismi Ohunjon, ashula aytar va musiqadan yaxshigina xabardor bo'lgan**

15. Uvaysiyning turmush ortog'i kim bo'lgan?

J: **Hojixon, erta vafot etgan**

16. O'zi hali ko'rmagan, daragini faqat ilohiy kitoblar-dan eshitgan Muhammad (a.s.)ga g'oyibona muhabbat qo'ygan zot kim? J: **Uvays Qaranly**

17. Islam olamida paydo bo'lgan «uvaysiylik» yo'lli qanday yo'l? J: **Payg'ambarning g'oyibona nazarl – nigoohl-ga sazovor bo'lishi ilinjida yashash**

18. Maxmur so'zining tasavvufiy ma'nosi nima?

J: **Ilohlly Ishqdan mast bo'lgan darvesh**

19. Foni taxallusining tasavvufiy ma'nosini toping.

J: **O'tkinchl, ya'nli o'zining bu dunyoda vaqtinchalik mehmon ekanligini anglab, faqat ezgu ishlarni ko'zlovchi**

20. O'g'li Muhammadxon kim tomonidan Qashqarda bo'layotgan urushga sarbozlikka jo'natildi?

J: **Muhammad Alixon tomonidan**

21. Uvaysiyning qaysi g'azalida oshiq bilan zohid – tar-ki dunyo qilgan kishi o'tasida bahs bo'lib o'tadi?

J: «**Uvayslyman**» g'azalida

22. Ilohiy ishqda o'tanayotgan oshiqning oh-u zorlari-  
dan yulduzlarning ham xabardor bo'lishi, fig'oni yer-u ko'kn  
larzaga solishi qaysi g'azalda tasvirlangan?

J: «**Uvaysiyman**» g'azalida

23. Uvaysiy qaysi g'azalida dunyodan ko'ngil uzishni  
maqsad qilib olganini ta'kidlaydi?

J: «**Uvayslyman**» g'azalida

24. Uvaysiyning qaysi g'azalida orif, zohid, faqr, xaro-  
bot kabi tasavvufiy atamalar uchraydi?

J: «**Uvaysiyman**» g'azalida

## CHISTON HAQIDA

1. Nomi yashirilgan narsa yoki tushunchani belgi,  
ishoralarga qarab topiladigan topshiriqlar nima deyiladi?

J: **Topishmoq**

2. Chiston so'zining ma'nosi? J: **Tojikcha nimá u**

3. Turkiy adabiyotda ilk chistonlar nechanchi asrda kim  
tomonidan yaratilgan?

J: **XV asrda Alisher Navoiy tomonidan**

4. Topishmoqqa asoslanuvchi janrlar?

J: **Chiston va lug'z**

5. «**Anor**» chistoni nimaga ishora qiladi?

J: **Ijtimoy hayotdagi voqeaga**

6. Uvaysiyning qaysi chistonida bu janrga xos xususi-  
yatlar yaqqol namoyon bo'lgan? J: **«Anor»**

7. «Anor» chistonida tashqi shakliy ko'rinish qaysi?  
J: **Gumbazsimon, tuynugl yo'q**
8. «Anor» chistonida ichki tuzilish qaysi?  
J: **Gulgunpa'sh qizlar hamda parda borligi**
9. «Anor» chistonida unga munosabat shakli?  
J: **Sindirish kerakligi**
10. She'riy topishmoqlar qanday turlarga bo'linadi?  
J: **2 ta: oddiy va majoziy**
11. Uvaysiyning qaysi chistoni majoziy chiston?  
J: **«Anor» chistoni**

### QOFIYA VA RADIF

1. Raviy nima? J: **Ohangdoshlikni tashkil qilluvchi unli yoki undosh bo'lgan tirkak tovush**
2. «Anor» chistonidagi raviylarni toping.  
J: **Nishon, makon, qon so'zlaridagi «n» tovushi**
3. «Yong'oq» chistonidagi raviylarni toping.  
J: **Boshida, qoshida so'zlarida «sh» tovushi**
4. Muqayyad qofiya deb qanday qofiyaga aytildi?  
J: **Raviy bilan tugallangan qofiya**
5. Mutlaq qofiya deganda nima tushuniladi?  
J: **Raviydan keyin harflar kelgan qofiyalar**
6. «Kun va tun» chistonidagi raviylarni toping.  
J: **Ko'rmangan va sig'magan so'zlarida raviy o'zakda emas, qo'shimchaning tarkibida joylashgan**
7. Qanday unlilar raviy bo'la olmaydi? J: **Qolsqa unlilar**
8. Qanday unlilar raviy bo'la oladi? J: **Cho'zliq unlilar**
9. Lola – piyola so'zlaridagi raviyini toping. J: **«l» tovushi**

10. Qofiyadan keyin takrorlanadigaň so'z yoki so'zlar birligi? J: **Radif**
11. She'riy asarlar musiqiyigini, jozibasini ta'minlovchi unsur qaysi? J: **Qofiya**
12. Uvaysiyning qaysi chistonida mutlaq qofiya qo'llangan? J: «**Yong'aq» chistoni**
13. Uvaysiyning qaysi chistonida muqayyad qofiya qo'llangan? J: «**Anor» chistoni**
14. Mumtoz she'r ilmiga ko'ra raviy so'znинг asosida bo'lishi talab etilgan. Uvaysiyning qaysi chistonida bu talab-dab chetga chiqilgan? J: «**Kun va tun» chistoni**
15. Banda – xanda so'zlaridagi raviy qaysi?  
J: «**ed» tavushl**
16. «*Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendin o'rgandi, Vujudin sham'i so'zon aylamakni mendin o'rgandi*» bayti-dagi radifni toping. J: **Aylamakni mendin o'rgandi**

### ZAVQIY (1853 – 1921)

1. Asl ismi Ubaydullah ba'lgan
2. 1870 – 1874-yillarda shoirtabiat tog'asi Muhammad Siddiq yordamida Madrasayi Oliy va Madrasayi Chalpak madrasalarida tahsil olgan
3. Ma'lum muddat Qo'qon poyabzal rastasining xo'jagini Mo'minboy qo'lida mirzalik qilgan
4. Shoirning o'z qo'li bilan tuzgan devoni uning vafotidan so'ng 1930-yilda turmush o'tog'i Xayrunniso tomonidan Qashqarga olib ketilgan. Hozir bu devon Zavqiyning Xitoyda yashayotgan avlodlari qo'lida saqlanmoqda

5. Yurtimizda Zavqiyning saqlanib qolgan she'rlari jamiyanib, 1958- va 1960-yillarda 2 marta nashr qilingan

6. 2003-yili Zavqiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan mazkur to'plamning to'ldirilgan nashri bosmadan chiqdi

7. Zavqiy adabiyotimiz tarixida yirik hajvchi shoir sifatida e'tirof etiladi

8. «Ajab zamona», «Qahatchilik», «Zamona kimniki», «Veksel» kabi she'rlarida mustamlaka tuzimidagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, chor ma'muriyati himoyasida bo'lgan ayrim noplarni amaldorlarning kirdikorlari fosh etiladi

9. «Ta'rifi kalish», «Otim», «Fonus», «Pashshalar» kabi hajviyalarida ijtimoiy hayotdagi ayrim nosozliklar, kishilar faoliyatidagi holatlar ustidan zaharxandalik bilan kuladi

10. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? «Bu ravzaga kimki kelib, Bir kechasi mehmon ekan, Umrida bir ko'rgan kishi O'lganda bearmon ekan. Ikki tarafdin soy deng, Ko'mko'k musaffo choy deng. Har dam ichib hoy-hoy deng, Obihayoti jon ekan»

J: «Shohimardon xotirası» sayohatnomasidan

11. «Shohimardon xotirası» sayohatnomasining nechanchi bandlarida shoirning hajvgo'yligi tutib qolib, ravzadagi shayx-u xo'jalar va gadolarni tanqid qiladi?

J: 5 – 6-bandlarida

12. Zavqiy otasining kasbi... J: Mahsilda'z kosib

13. Tog'asi Muhammad Siddiq bilan qachon haj safariga chiqib, olti oy davomida Arabiston va Turkiya davlatlari-da bo'ladi? J: 1890-yilda

14. Zavqiyning she'rlari, maqolalari o'z davrida qaysi gazeta va jurnallarda bosilgan? J: «Turkiston viloyatining gazeti», «Sadoyi Farg'on'a», «Tirik so'z», «Najot» gazetalarida, «Al-Isloh» jurnalida

### MAXTUMQULI (1733 – 1791)

1. Turkman shoiri bo'lib, Yassaviyning ta'siri, Navoiyga izdoshlik yaqqol ko'zga tashlanib turadi
2. Turkmanistonning Atrak daryosi bo'yidagi Hojigovshon qishlog'ida tug'ilgan
3. Maxtumqulining bobosining ismi ham Maxtumquli bo'lib, xalq orasida oqin sifatida tanilgan
4. Otasi Davlatmamacad madrasada mudarris bo'lib, Ozodiy taxallusi bilan qo'shiq va g'azallar yozgan. Ozodiyning 6 ming misrali, 4 bobdan iborat «Va'zi Ozodiy» nomli yirik risola-dostoni turkman mumtoz adabiyotida muhim o'rinn tutadi
5. Maxtumquli 9 yoshida xalq yo'llida qo'shiqlar to'qiy boshlagan
6. Ba'zi she'rlariga «Firog'iy» taxallusini qo'llagan
7. Ijodining umumiy hajmi 10 ming misradan ortiq
8. Ijodi lirik she'rlar, liro-epik dostonlar, g'azal, to'rtliklar va muxammaslardan iborat
9. Bir qator she'rlari shoir yoshlikda sevib yetisholma-gan go'zal Menglixon ismli qizga atab yozilgan
10. «Turkman binosi» she'ridan parcha: «Qurganim aslida, bilgil, bu zaminning mixidir, Erur ul erkin doim, budur turkman binosi. Garki dunyo ayladi, gar kelsa raqib qoshi-ga, Bir po'latdan bino bo'lgan, budur turkman qal'asi»

11. Birlikka da'vat: «*Taka, yovmit, yazir, go'klang, ahal  
eli bir bo'lib, Gar qilsa bir joyga yurish, ochilar gul-lolasi*»

12. «*Namasan*» she'ridagi yor timsoli Allohdir. «*Jahon  
to'la, sen g'ofilsan Yoringdan*» misralarida Allohning sifat-  
lari, go'zallik asarlari butun borliqda aks etadi, g'ofillar esa  
bundan bexabardirlar, degan xulosa chiqadi

13. «*Namasan*» she'ridan parcha: «*Asli seni ko'rma-  
ganman, nigorim! Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?  
G'amgin dilni xayoling-la aldarman, Bog' ichinda bir gul-  
misan, namasan?*»

14. O'g'illari Sori va Ibrohimning bevaqt o'limi munosa-  
bati bilan yozilgan she'ri: «*Gar kaklik o'ldirsa jo'ja-bolasin,  
Sayray-sayray izlamasdan bo'lumi? Gar bulbul yo'qotsa  
gulin, nolasin, Hasratini so'zlamasdan bo'lumi?*»

15. «*Adolat yaxshi*» she'ridan parcha: «*Yigit uldir,  
so'zga aylasa amal, Qo'ldan kelmas ishga etmasa jadal,  
Allohning amriga qilmagil badal, Bekka – saxo, shohga –  
adolat yaxshi*»

16. «*Adolat yaxshi*» she'ridan parcha: «*G'ariblik bir  
darddir – odam o'ldirmas, O'ldirmas, hayotda lekin kul-  
dirmas, Bo'riga ojizlik, it ham bildirmas, Albatta, dushman-  
ga siyosat yaxshi*»

17. Maxtumqulli o'z mehnati bilan halol rizq topish maq-  
sadida zargarlik hunarlni ham o'rgangan

18. Otasi vafoti munosabati, yaqin jigargo'shasi,  
birodari Abdullaning uzoqlarda daraksiz ketgani, yori  
Menglixondan ayrilishi va boshqa voqealar ta'sirida  
«*Ozodim qani?*», «*Abdulla*», «*Ayrildim*», «*Bechoraman*»  
kabi she'rlarini yozgan

19. O'z ijodini ona xalqining so'zlar tiliga o'xshatgan
20. «Adolat yaxshi» she'rida Go'ro'g'lining ismini tilga oladi
21. «Namasan» she'ridagi yor timsoli kim? J: Allah
22. «*Kel, ko'nglim, men senga o'git berayin: Yiroq qilma ko'rар ko'zing – elingni. Qimmatin ketkizma, ornida so'зла, Ravo ko'rma har nokasga tilingni*» misralari kimning qalamiga mansub? J: Maxtumquli
23. «*Yigit uldir, so'zga aylasa amal, Qo'ldan kelmas ishga qilmasa jadal*» misralari muallifi kim? J: Maxtumquli

### ABDULLA QODIRIY (1894 – 1938)

1. Abdulla Qodiriy qachon va qayerda tug'ildi?  
J: 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida
2. 1917-yilgi to'ntarishgacha Abdulla Qodiriy qanday yumushlar bilan band bo'lgan?  
J: Prikazchik, ustachilik, bog'bonlik
3. Abdulla Qodiriy qachon, nima sababdan qamoqqa hukm qilindi? J: 1926-yil *Sho'ro rahbarlarini matbuot orqali obra'sizlantirdi* degan ayblov bilan
4. Abdulla Qodiriy ikkinchi marta qachon qamoqqa hukm qilindi? J: 1937-yilning 31-dekabrida
5. Anvar Qo'qonning qaysi mahallasida tug'ilgan?  
J: Baxmalbof mahallasida
6. Anvar qanday oilada tug'ilgan va nechanchi farzand edi? J: Kambag'al bo'yoqchi ollasida oltinchi farzand
7. Anvarning otasi va onasining ismi?  
J: Otasi – Salim bo'yoqchi, onasi – Anorbibi

8. Anvarga qachon ism qo'yildi va uni kim qo'ydi?

J: **Yigirma ikkinchi kuni opasi Nodira**

9. Salim bo'yоqchi qaysi kasallikdan vafot etadi?

J: **Bobosir kasalligidan**

10. «Qush tilini qush biladir» maqoli qaysi asarda bor?

J: **«Mehrobdan chayon» romanida**

12. Anvar akalarining ismi?

J: **Temur va Qobil**

13. Anvar necha yoshida ota-onasidan yetim qoladi?

J: **Uch yoshida otasidan, olti yoshida onasidan**

14. Anvar kimning tarbiyasida edi?

J: **Opasi Nodiraning**

15. Anvar necha yoshdan Solih mahdumga farzandlikka berildi? J: **12 yoshidan**

16. Anvarga Ra'noni bermoqchi bo'lgan va uni maxdumga o'g'il qilib olishga ko'ndirgan kim?

J: **Maxdumning onasi Mohlar oylm**

17. Anvarning bolalikdagи do'sti kim? J: **Nasim**

18. Nasim kimning o'g'lli edi?

J: **Muhammad Rajab poygachining**

19. Nasim necha yoshida chechak kasalidan vafot etdi? J: **15 yoshida**

20. «Ochilmay so'lsa har gul g'unchasi pir-u juvon yig'lar, Emas pir-u juvon, balki hamma ahli jahon yig'lar» misralari kim tomonidan qanday munosabat bilan yozilgan?

J: **Anvar tomonidan do'sti Nasimning vafotl muno-sabati bilan**

21. Anvar do'sti Nasim tufayli saroyga qanday ishga joylashadi? J: **Mirza**

22. Anvar saroyda necha tillo maosh olar edi?

J: Oyliga yetti tillo

23. Anvar saroyda qanday lavozimgacha ko'tariladi?

J: Mirzaboshilik

24. «Mohonadan tashqari soliqlardan ham darxonliq qog'ozl oldi». Ushbu parchadagi «darxonliq» so'zining ma'nosini toping. J: Ozod etishlik

25. Maxdum uchun «molooya'ni» – qiymatsiz hisoblanadigan narsalar qaysilar?

J: Ovqat, kiyim-kechak va shu kabilar

26. Anvarning qochish mojarosini tahsil qilishga kimlar yig'ilgan edi? J: Shahodat mufti, Kalonshoh mirzo, Mulla Abdurahmon

27. Anvarning Ra'no bilan qochib Sultonalining uyiga borishi va Sultonalining erta tongda yugurib, bundan xabardor qilish uchun xon huzuriga borishi kimga shubhali tuyuladi? J: Mulla Abdurahmonga

28. Sultonali bilan Anvarning xonga firib berganligi haqida ariza yozish fikri kimdan chiqdi?

J: Shahodat muftidan

29. Arizani kim yozdi?

J: Kalonshoh yozdi, mufti tahrir qildi

30. Sabnoma so'zining ma'nosini toping.

J: So'kib, tahqir qilib yozilgan xat

31. Sharif va Rahim kimlarning o'g'li edi?

J: Temirchi va shustagarning

32. «Qo'rqinch bir jasorat» deganda qaysi voqeа nazarda tutilgan?

J: Anvarning o'z Ixtiyorli bilan garovdagi Sultonallini

**ozod qilish uchun xon huzuriga o'llimni bo'yniga olib kelishi**

33. Anvar xon huzuriga Sultonalini o'llimga olib chiqilishi-ga qancha qolganda kirib boradi? J: **Bir soat qolganda**

34. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? «*Bukun peshindan bir oz ilganiroq mujassam bir vijdon, tog'yurak bir yigit va o'lim sari kulib keluvchi bir arslonni o'z tarixida birinchi marotaba ko'rdi va tong ajabda qoldi. Bu ulug' jasorat bir necha daqiqalargacha zulm illarini sukutga soldi, ulami ishdan to'xtatdi».*

J: **«Mehrobdan chayon»da Anvarning jasoratl**

35. «Mehrobdan chayon» romanidagi hudaychining ismi? J: **Darvesh hudaychi**

36. Anvar kirganda xon huzurida kimlar bor edi?

J: **Domla shlg'ovul, Tursun otaliq va bir necha a'yonlar**

37. Ushbu parchada nuqtalar o'rniqa qaysi personajni qo'yish mumkin va u qaysi asardan olingan: «*Raqibini bu qadar jasoratda ko'rgan ...ning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va bir oz so'z topolmagandek tamshanib turdi»*? J: **«Mehrobdan chayon»dan, Xudoyorxon**

38. «Mehrobdan chayon»da Xudoyorxon Anvarni jallodlar qo'liga topshirganda Anvar nima uchun qarshilik ko'rsatadi va qaysi so'zda turib oladi?

J: **Sultonalini Anvarning ko'z o'ngida ozod qilmagunlaricha bir qadam ham siljimaslikka ahd qiladi**

39. «Mehrobdan chayon»da Xudoyorxon Anvarning qaysi so'zlaridan keyin g'azab o'tida alangalanadi?

J: **Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga blr kam-**

**bag' al uylanmoqchi bo'lgan qizga ham zo'rlik qilish bormi, qiblaiy olam!**

40. Ushbu parcha qaysi asardan olingen? «*Shayx Sa'diy aytgancha, dunyoda hayotidan qo'l yuvuvchidek tili uzun kishi bo'lmas. Darhaqiqat, insonni razolatga solguvchi uning manfaati taqozosi, qola bersa o'llimdir. Bu ikkisidan kechguvchiga esa podshoning qahri va jahannamning qa'r'i farqsizdir*». J: «**Mehrobdan chayon**» romanı

41. «Mehrobdan chayon» romanida quyidagi fikrlarni kim kimga aytgan? «*Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o'ch olasiz! Faqat siz ifloslik natijasida kulasiz, men... men to'g'nilik samarasini o'raman; siz iflos vijdon bilan g'olib-siz, men, men sof vijdon bilan g'olibman... meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? Ifloslik emasmi, taqsir?*»

J: Anvar Abdurahmonga

42. «Mehrobdan chayon» romanida quyidagi fikrlarni kim kimga aytgan? «*Mening holimni ko'ringiz, domla, qo'lim bog'langan, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulumani... Nima uchun bunday, taqsirl Chunki vijdon rohatda, jon tinch. Yurakda ishq!.. Dunust, men ko'milgach, qabrim ustida ko'ksi dog'li qizil tolalar ko'karar... Nimadan bu? Bu sizning kabi tubanlar solgan izl!..*»

J: Anvar Abdurahmonga

43. Anvar Xon tomonidan o'llimga hukm qilinganda kim uning gunohini so'raydi?

J: Muhammad Niyoz domla

44. Barimta so'zining ma'nosini toping.

J: Garovga olingen odam

45. Anvarning «...zero, zulmi naqadar kuchaysa, uning umri shunchalik qisqa bo'lishi tajribalar bilan sobitdir» so'zlari kimga nima maqsadda aytilgan? J: Ra'noga sabr qilish zarurligini tushuntirish uchun

46. «Mehrobdan chayon» romanida Anvar bilan Sultonaling mojarosini tahlil qilish va bu haqda xonga ariza yozish voqeasi asarning qaysi bobida aks etgan?

J: «Chayonning namoyishi» bobida

47. «Mehrobdan chayon» romanida domla Abdurahmon Sultonali va Anvarning mojarosini kimdan eshitganini aytadi? J: Mirzo Boisdan

48. «Mehrobdan chayon» romanidagi qaysi personaj nutqida «pala'nat» so'zl ko'p ishlataladi? J: Sharifboy

49. «Mehrobdan chayon» romanida Anvar akasi Qobildan uning do'stlarini mehmon qila olmaganligi uchun uzr so'rab qancha pul berib yuboradi? J: Ikki tillo

50. «Mehrobdan chayon» romanida Anvarning qaysi so'zidan keyin Xudoyerxonning manglayida terlar ko'rindi, g'azab o'ti alanga oldi? J: Boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutlb, pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonchilik bilan o'lishni o'bdan bildim!

51. Anvarning buxorolik bir sarkardaning eshigida xizmat qiluvchi akasi kim edi? J: Qobil

52. Anvar bilan Sultonaling maktublarini kim ularga yetkazib turar edi? J: Safar aka

53. Anvarning og'asi Qo'qonga klmlar bilan kelgan edi?

J: Sharif va Rahim

54. «Mehrobdan chayon» romanida Solih Maxdumning «ko'zlar g'ilaylashgan, aftida qiziq bir o'zgarish ko'rli-

*lib, og'zining tanobi uzoq sayohatni ixtiliyor qilgan» holda qachon uchratamiz? J: Anvar birinchi marta maosh olib, domlaga olib kelganda*

55. Anvarning ikkinchi maoshidan olib qolgan uch tillo-sidan o'zidan tashqari Nigor oyim va Ra'no qanday sarpo-lar kiydi? J: **Nigor oyim sholpar, Ra'no atlas kiydi**

56. «*Uning hikoyalari chiqqan jurnallar, gazetalar qo'lma-qo'l bo'lib ketardi. Felyetonlari bosilgan «Mushtum» jumali hamisha talash bo'lardi. Romanlarini o'qish uchun navbat kutib turganlarning sanog'iga yetib bo'limas edi».* Ushbu ta'rif qaysi adib asarlari haqida? J: **Abdulla Qodiriy**

57. Ota-onasining tilaktariga qarshi, faqat ularning baxtsizlik va qashshoqliklariga sababchi bo'lib tug'ilgan asar qahramoni kim? J: **Anvar**

58. «*Mehrobdan chayon» romanida Anorbibl qaysi kasallikdan vafot elgandi? J: **Yurak falaj***

59. Anvar necha yoshida uchinchi oilani ko'rdi?

J: **12 yoshida**

60. Anvarning uchinchi oilani ko'rishida uni eng xur-sand qilgan narsa nima edi?

J: **Maktabdag'i bolalarning ozor berishidan qutull-shi va domlaning asrandi o'g'll maqomini olishi**

61. Anvar necha yoshidan xalfalik, ya'ni domlaga yordamchilik qila boshladi? J: **13 yoshdan**

62. Anvar necha yoshida maktabni yolg'iz o'zi idora qila oladigan darajaga yetish bilan birga yaxshigina forsiyxon va bir darajada arab tiliga oshno bo'ldi? J: **15 yoshda**

63. Nasimning otasi Muhammad Rajab kim bo'lib ishlardi? J: **Xon mirzaboshisi**

64. Anvar qaysi kunlari do'sti maxdumdan izn olib Nasimning uyiga borib turardi? J: **Juma kunlari**

65. Maxdum qachon Anvar haqida: «Sen odam bo'ladurg'an ko'rinasan», – deb o'laydi?

J: **Muhammad Rajabbek unga sarpo berganda**

66. Muhammad Rajabbek Anvarga o'z iltifotini namoyish qilishni nimadan boshladi? J: **Anvarning marslyasidan bir baytini Nasimning qabrtoshiga olishdan**

67. Qachondan Anvarning hayotida yangi bir sahifa ochildi, ya'ni maxdum unga ilgarig'cha istiqboli qorong'u yetim deb qaramay, balki Anvar kabi o'g'li bo'limganiga o'kina boshlaydi? J: **Anvarga Muhammad Rajabbek ilmi hisobdan yangi domla tayinlaganda**

68. Anvar necha oygacha maoshining hammasini maxdumga berib turdi? J: **Yetti-sakkiz oy**

69. Oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan duosiz yeb-ichishni afzal ko'rgan qahramon kim?

J: **Anvar**

70. Anvar maxdumdan necha tillolik duo olib turishni odat qilib oldi? J: **Ikki tillolik**

71. «Sultonalidek bema'niga bosh eggandan har ro'z o'n.tayoq yegan yaxshi», – deb kim zorlanadi?

J: **Shahodat mufti**

72. «Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi» maqoli kim tomonidaq qo'llanilgan?

J: **Mulla Abdurahmon tomonidan**

73. Anvar nima sababdan saroyda mirzaboshilik lavozimiga ko'larildi?

J: **Tug'ma qobiliyatli va teran aqli tufayli**

74. «Suygan yorim sen bo'lsang, ko'rgan kunim ne bo'lg'ay?» Ushbu parcha kimning nutqidan olingan?

J: Shahodat muftining

75. Kichkina hovoncha boshidagi oq tepchima to'ppi va qora uzun soqoli uni hindularning savdogari qiyofatiga qo'yg'an edi. Ushbu ta'rif kim haqida?

J: Abdurahmon domla

76. Sultonalini zindondan ozod qilish fikri kimdan chiqqan? J: Rahimdan

77. «Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchli, hatto erlardan ham jasurroq shaxslami ko'p uchratamiz. Shuning bilan birga, ulami, naqadar kuchli irodaga molik bo'tmasinlar, yana hissiyottarga mag'lub ko'ramiz». Ushbu parcha qaysi asar-dan olingan?

J: «Mehrobdan chayon» romanidan

### CHO'L PON (1897 – 1938)

1. Cho'lp'on qachon va qayerda tug'ilgan? J: 1897-yilda Andijon shahrining Qatorterak mahallasida

2. Cho'lp'anning otasi kim bo'lgan? J: Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li savdogar edi, hajviy she'rliidan devon tuzgan shoir bo'lgan

3. Cho'lp'on ijodining bosh yo'naliшини ko'rsating.

J: Milliy zulm ostida ezilayotgan xalqning zabun holini aks ettirish va xalqni bunday holatdan qutqarish istagi

4. Bugungi o'zbek adabiy tili kimning she'rлари та'srida shakllangan? J: Cho'lp'oning

5. Qaysi asar o'quvchilar tomonidan Abdulla Qodirliyning «O'tkan kunlar» romanı darajasidagi asar sifatida baho olgan? J: Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanı
6. Cho'lponning 1921-yilda yaratilgan asarini toping.  
J: «Yorqinoy» dramasi
7. Cho'lponning «Go'zal» she'ri necha band va necha satrdan iborat? J: 5 band, 30 misra
8. «Go'zal» she'ri qanday bandli she'r?  
J: Musaddas – 6 misralik
9. «Go'zal» she'rida «Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal» misrasi necha marta takrorlanadi? J: 3 marta
10. «Go'zal» she'rida go'zalni bir ko'rib yo'llidan ozgan personaj? J: Shamol
11. «Go'zal» she'ri qanday boshlanadi?  
J: Qorong'u kechada ko'kka ko'z tilkib, Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen
12. «Go'zal» she'rida shoir nimalardan go'zalning qayerdaligini so'raydi?  
J: Yulduz, oy, tong shamoli, quyoshdan
13. «Go'zal» she'rida go'zalni nimalar tushida ko'radi?  
J: Yulduz va oy
14. «Xalq» she'rida xalq nimalarga qiyoslanadi?  
J: Dengiz, to'lqin, kuch, isyon, olov, o'ch
15. «Butun kuchni xalq ichidan olaylik, Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!» misralari Cho'lponning qaysi she'ridan olingan? J: «Xalq» she'ridan
16. «Tabiatning o'tini yo'q o'tida, Sharaq-sharaq qay-nab chiqqan buloqlari» misralari Cho'lponning qaysi she'ridan olingan? J: «Buzilgan o'lkaza» she'ridan

17. Cho'lpomning qaysi she'ri savol bilan tugaydi?

J: «**Buzilgan o'lkaga» she'ri**

18. Cho'pon «Buzilgan o'lkaga» she'rida nima uchun «Kel, men senga qisqagina doston o'qiy. Qulog'ingga o'lganlardan ertak lo'qiy», deydi? J: O'tgan ajdodlar qahramonliklarini yodga solish uchun

19. «Binafsha» she'rida qanday ruhiy holat ifodalangan? J: **Dardkashlik**

20. «Ko'ngil» she'rida qanday g'oya ifodalangan?

J: **Hurlik va ozodlikni ulug'lash**

21. «Binafsha» she'rida «Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri, Bu yerdan ko'klarga uchg'il» misrasida «ko'kragim» so'zi qanday tushunchani ifodalagan?

J: **Vatan tushunchasini**

22. «Binafsha» she'rida «Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri, Bu yerdan ko'klarga uchg'il» misrasida «erk yeri» so'zi qanday tushunchani ifodalagan?

J: **Ozod yurt tushunchasini**

23. Cho'pon qanday yurtni buzilgan o'ika deb ataydi? J: **Mustamlaka asoratiga tushib qolgan va shunga ko'nikkan yurtni**

24. «Nega sening qalin tavshing «ket» demaydi ularga» satridagi «qalin» so'zi qaysi ma'noni bildiradi?

J: **Baland, yo'g'on, qat'iy**

25. «Buzilgan o'lkaga» she'rida yosh yigitlar nimaga o'xshatiladi? J: **Uchar qushlarga: sor va burgutga**

26. «Shifo istab kelmasin der qo'noqlar» misrasidagi «qo'noqlar» so'ziga qanday ayricha ma'no yuklangan?

J: **Mustamlakachilar obrazl**

27. Cho'lponning qaysi she'ri boshdan-oyoq bir o'l-chovda yozilmaganligi, she'riy ohangdagi tovlanishlar borligi bilan farqlanadi?

J: «Buzilgan o'lkaza» she'ri

28. «Ko'ngil» she'rining nechanchi bandida zo'tlik vositalari va xorlik unsurlari tasviri misrama-misra kuchayib boradi? J: Ikkinchchi bandida

29. «Haq yo'lli, albatta, bir o'tilgusi...» misralarini kim yozgan? J: Cho'lpon

30. «Go'zal» she'rida uyalib, boshini bukib lirik qahramonga murojaat qilgan personaj qaysi?

J: Eng yorug' yulduz

31. «Go'zal» she'rida «Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen», – deganda Cho'lpon nimani nazarda tutgan?

J: Oydan-da go'zal, kundan-da go'zal yorni suylshni

32. Go'zalni «oqqa ko'milganda mendan-da go'zal» deb qaysi personaj ta'riflaydi? J: Oy

33. «Haqorat dilni og'itmas, Tubanlik mangu kelmasmi? Kishanlar parchalanmasmi? Qilichlar endi sinmasmi?» misralari qaysi she'r dan olingan? J: «Ko'ngil» she'ridan

## KO'CHIM HAQIDA

1. Ko'chim bilan o'xshatishning farqi?

J: Ko'chimda ba'zan o'xshagan narsa, ba'zan o'xshatilgan narsa ifodalananib, ikkinchil qismdagagi ma'nno birlinchisiga ko'chirilgan bo'ladi

2. Ko'chim nima?

J: Sa'zni ko'chma ma'noda qo'llash yok! narsa-ho-

**disaga xos sifatlarni qaysidir jihatni bilan shularga o'xshaydigan boshqa narsa-hodisalarga ko'chirish**

3. Ko'chimning qanday ko'rinishlari bor?

J: Majoz, Istiora, ramz, timsol

4. Ko'chimning eng ko'p ishlataladigan ko'rinishi qaysi?

J: Istiora

5. Majoz qatnashgan asarlarni toping.

J: Gulxaniyning «Tuya bilan bo'taloq», «Maymun bilan najjar», «Toshbaqa bilan chayon» hikoyatlari

6. Majoz nima? J: Adabiy asarda o'quvchilga noaniqroq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'ilum bo'lgan narsalarga xos belgilari bilan ifodalash.

7. May nimaning ramzi? J: Hayot ramzi

8. Ramz adabiyotshunoslikda yana qanday atamalar bilan yuritiladi? J: Timsol yoki simvol

9. Ramz nima? J: Anglashi murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy sifatning shu sifatlarga ka'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishi

10. Istiora nima? J: Biror narsa-hodisaga xos bo'lgan xususiyatlarni boshqa bir narsa-hodisaga ko'chirish orqali badiiy ma'no ifodalash

### **ABDULLA QAHHOR (1907 – 1968)**

1. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1907-yil 17-sentabrda Qo'qonda tug'ilgan

2. Abdulla Qahhorning ijodi qachondan bosiblangan?

J: 1924-yildan

3. Abdulla Qahhor qaysi gazeta va jurnallarda ishla-

gan? J: «Qizil O'zbekiston», «Yangi Farg'onax» gazetalarida, «Mushtum», jurnalida

4. Qaysi romani Abdulla Qahhorga katta shuhrat kelтирди va u qachon yozilgan? J: «Sarob» romani 1934-yilda

5. Dramalarini toping. J: «Shohi so'zana», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush», «Ayajonlarim»

6. «O'g'ri» hikoyasiga qaysi maqol epigraf qilingan?

J: Otning o'llimi itning bayrami

7. «O'g'ri» hikoyasi qanday boshlanadi?

J: Kampir tong qorong'usida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. Ol.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan

8. «O'g'ri» hikoyasida Qobil bobo nima uchun ellikboshiga pora berdi? J: Ellikboshining ho'kizni naqd qilib qo'ygani – ga'yo ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu «xudo yarlaqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi?

9. Ellikboshi amalga erishish uchun mingboshiga nimalar bergen? J: Yetti yuz bog' beda, blr toy

10. Ellikboshi Qobil bobodan pul olgandan keyin beto'xtov kimga xabar bermoqchi ekanligini aytadi?

J: Aminga

11. Aminga Qobil bobo borishidan oldin qanday maqlilar ishlataligan? J: Quruq qoshlq og'iz yirtadi; berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz

12. Aminga beriladigan pul Qobil boboning ta'blichera, qaysi chiqim edi? J: Bu chiqim oxirgi va ho'kizni ba'yni-

**dan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning betiga qaramaslik kerak**

13. «O'g'ri» hikoyasidagi qaysi personaj baqbaqasini osiltirib kuladi? J: **Amin**

14. Amin kimga xabar bermoqchi ekanligini aytadi?

J: **Pristavga**

15. Kampir azayimxonga qancha chiqim qildi?

J: **Yarim qop jiyda, uch yelpishtavoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi**

16. «O'g'ri» hikoyasidagi qaysi personaj: «*Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!*» – deydi? J: **Amin**

17. «O'g'ri» hikoyasidagi qaysi personajni «*begim deguncha kishining beli sinar ekan*»? J: **Pristavni**

18. Qobil baba pristavga nimalar olib bordi va nega uning oldiga kirolmadi? J: **3 ta tovuq, 100 ta tuxum, ammo bu tortiq bilan tilmochdan nariga o'tolmadi**

19. Pristav Qobil bobodan nimalar olgandan keyin kimga jo'natadi? J: **Bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pul olgandan keyin aminga bor dedi**

20. «*O'ynashmagin arbob bilan – seni urar har bob bilan*» maqoli qachon aytilgan?

J: **Qobil baba pristav huzuriga borganida**

21. Amin Qobil boboni kimga jo'natdi?

J: **Ellikboshiga**

22. Ellikboshi qaynatasining ismi?

J: **Egamberdi paxtafurush**

23. Egamberdi paxtafurush Qobil boboga nechta ho'kiz berdi va qanday shart bilan?

J: **2 ta ho'kiz, shart kuzda ma'lum bo'ladi**

24. O'zgalarning baxtsizligini pul topish manbaiga aylantirgan amaldorlar kimning qaysi asarida tasvirlangan?

J: Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida

25. «O'g'ri» hikoyasidagi ellikboshi ta'rifiga mos si-fallarni toping. J: Qobil boboning qo'shnisi, burunsiz

26. Ho'kizning rangi qanday edi? J: Ola ho'kiz

27. «Odamlar dod ovoziga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushgan». Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: «O'g'ri» hikoyasidan

28. «O'zi qaytib kelmasmikan!.. Birov olib ketsa qaytib kelaber deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!» Ushbu parcha kimning nutqidan olingan?

J: Aminning

29. «Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin!» Ushbu parcha kimning nutqidan olingan?

J: Ellikboshining

30. Ellikboshining Qobil boboga munosabati uning nutqida qanday ifodalanadi? J: Hikoyaning boshida Qobil-boboni «sen»lab, oxirida «siz»lab murojaat qiladi

31. Qobil bobo aminning huzuriga necha marta boradi?

J: 3 marta

32. Unsin qaysi hikoya qahramoni? J: «Dahshat»

33. Unsin Olimbek dodxoning nechanchi xotini?

J: Sakkizinchl

34. Ushbu tasvir bilan qaysi asar boshlanadi? «Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darichalarga bosh urib utortadi»

**J: «Dahshat» hikoyasi**

35. Ushbu parcha qaysi asardan, klmning nutqidan olingen? «Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go'nistoniga borib, Asqarponsodning go'rige pichoq sanchib keladi?» – degan gap bo'libdi.

**J: «Dahshat» hikoyasida Nodirmohbegim nutqi**

36. Ushbu parcha qaysi asardan olingen? «Ko'r oydin. Osmannning chekkasi sariq-kir uvadaga o'xshaydi. Bir kir shu'la qo'ynida past-balando uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko'rindi»

**J: «Dahshat» hikoyasi**

37. «Dahshat» hikoyasida qaysi voqeadan keyin hamma o'lirgan yerida bir qarich cho'kkanday bo'ldi va tin olmay bir-biriga qaradi?

**J: Shamol nimanidir keltirib darchaga urganda**

38. Shamol darchaga kelib urgan narsaning bo'yra ekanligi dodxoni bir tomondan sevintirgan bolsa, ikkinchi tomondan nima sababdan qo'rquvgaga soladi? J: Bo'yra odatda tobutga solinadigan edi, u dodxoga odamlarning yelkasida lapanglab ketayotgan tobutni eslatdi

**39. Unsin kimning qizi edi? J: Tegirmonchining**

40. Unsinning dodxo dargohiga kelin bo'llib tushganiga necha oy bo'lgan edi? J: Besh oy

41. Asqarponsodning go'rige pichoq sanchib kelishga nechta qo'ydan garov o'ynalgan edi? J: Bitta qo'ydan

42. Unsinning «arziydigan narsa bo'lsa borar edim» deganidan g'ashi kelgan dodxo qabristonga borib kelish uchun qancha narsa lakkif etadi?

**J: Oldin 10 ta, keyin 100 ta qo'y va yarim davlatini berishni**

43. «Menga davlat kerak emas», – degan Unsin ni-maning evaziga qabristonga borib, u yerda choy qaynatib kelishga rozi bo'ladi?

**J: Dodxo eshididan butunlay ketish evaziga**

44. Kim Unsinning qabristondan o'ligi kelishiga ko'zi yetib, ichida faryod chekadi? J: **Nodirmohbeglm**

45. Unsin kimning sag'anasida choy qaynatib kelishi kerak edi? J: **Onhzazratim sag'anasida**

46. Unsin qaysi so'zni takror-takror aytib yuragidagi qo'rquvni yengmoqchi bo'ldi?

**J: Q'likning Joni yo'q, o'likning joni yo'q**

47. Unsinning diliga bitta odamchalik quvvat bo'layotgan gap qaysi edi?

**J: O'likning Joni yo'q, o'likning joni yo'q**

48. Unsin onhzazratim sag'anasiga yetib kelganda niman unutib qoldirganini esladi? J: **O'tin olishni**

49. Unsinning o'ng qo'lida ..., chap qo'lida ... borar edi. Nuqtalar o'mniga qo'yilishi lozim bo'lgan buyumlar nomini toping. J: **Choynak va qumg'on**

50. Unsin qabristonda nimalarni unutib qoldiradi?

**J: Paranji-chimmatini va kovushini, qumg'onnli**

51. Unsin qabristonda qaysi hayvondan qo'rqib ketadi?

**J: Dadxonning maymunidan**

52. Unsinning yosh joniga rahm qilishni so'rab kim dodxoga yolvorgani uchun o'ng ko'zi momataloq bo'lib ketgandi? J: **Nodirmohbeglmning**

53. Kim Unsinga go'ristonnda qo'rqqanga davo bo'ladi

deb go'ristonning tuprog'idan yarim piyola choyga solib ichiradi? J: **Nodirmohbegim**

54. Unsinga nima uchun dastlab qabriston unchalik dahshatli tuyulmadi? J: **Tiriklar go'ristonlari bo'lgan dodxo dargohining dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinish, bundan tashqarl, ertagayoq Ganjiravonga Jo'nash, ota-onasi, dugonalari ni ko'rish umidi uning boshiga hech qanday yomon filklarni yo'latmas edi**

55. Unsinning vafotidan keyin Nodirmohbegim qanday yo'l tutadi? J: **U ham dodxo eshligini tark etadi**

56. «*Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oq podsho' qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladil!*» – deya Qobil boboga kim umid bag'ishlaydi? J: **Ellikboshi**

57. Qobil aminning: «*Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?*» – deb bergan savoliga qanday javob qaytaradi? J: **Qo'sh mahali**

58. Qobil bobo aminning: «*Yaxshi ho'kiz birov yetak-lasa, ketaveradimi?*» – degan savoliga qanday javob qaytaradi? J: **Bisotimda hech narsa yo'q**

59. «*Qidirlirsakmikan-a? Suyunchi nima bo'radi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?*» – deb Qobil boboga kim aytgan? J: **Amin**

60. «*Uchta tovuq, garchi kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi!*». Ushbu tortiq kimga atalgandi? J: **Pristavga**

61. «*Cholning butun bo'g'inalari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi!*». Ushbu holat Qobil boboda qachon kuzatildi? J: **Tilmoch uning tortqlarini olib, o'g'irlangan**

## **ho'kiz haqida pristavga yaxshilab tushuntirishga va'da berganda**

62. Qo'ni-qo'shni, yor-u birodarlardan yig'ib olingen  
yuzta tuxum kimga atalgandi? J: **Pristavga**

63. Unsinning qaysi gapidan keyin kundoshiar o'tirgan  
joyida yerga qapishib ketdi? J: **Yo'q, men butkul ketsam  
deyman, javobimni bersangiz demoqchiman**

64. «*Unsin ko'kragiga nihoyatda og'ir bir narsa bilan  
urliganday ko'ngli ozib tentirab ketdi-yu, yiqlimadi, lekin  
oyoq uzra turib hushidan ketdi*». Unsin qachon shunday  
ahvolga tushdi?

J: **Unsining yelkasiga maymun o'tirib olganda**

65. «*Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday  
bo'ldi va tin olmay bir-binga qaradi*». Hamma bunday  
vaziyatga qachon tushadi? J: **Shamol bir narsani darcha-  
ga kelib urganda va u narsa sidirilib pastga tushganda**

66. «*Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqalarda qan-  
chalik qo'rqqan bo'lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam  
bo'ldi*». Unsin nima sababdan xotirjam bo'lgandi? J: **Qan-  
doq berahm bo'lsa ham, shu atrofda odam bor**

67. «Dahshat» hikoyasida «*Go'riston haqida dodxo  
nimalami eshitgan bo'lsa...*» – deb boshlanuvchi gapda  
«dahshat» so'zi necha marta qo'llangan? J: **Besh marta**

## **MIRTEMIR (1910 – 1978)**

1. Ushbu satrlar muallifini toping. «*Sensiz O'zbekiston  
O'zbekistonmas, Sensiz keng jahon ham sira jahonmas,  
Toshbu!*» J: **Mirtemir**

2. Mirtemir qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1910-yilning 10-mayida Turkistonning Qoratog' etaklaridagi Eski Iqon qishlog'ida tug'ilgan

3. Ushbu parcha kimning tarjimayı holidan? «Men tug'ilgan qishloqning kunbotarida qadim Turkiston shahri, janubida O'tror, Boybaik xarobatari va Yassi, Syuri qal'alaridan qolgan kultepalar, undan narida Sirdaryo..., 1910-yilda bug'doy o'rog'ida shu qishloqda tug'ilibman. Otäm – dehqon va chorvador, ona tomondan bobom mulla, maktabdor. Ota tomondan bobom – uzun bo'ylik, polvon jussalik, qizil yuzli odam edi».

J: Mirtemir

4. Mirtemir savodini kimning maktabida chiqaradi?

J: Ona tomondan bobosi maktabida

5. Mirtemirning olasining ismi?

J: Tursunmat Umarbek o'g'li

6. Ushbu parcha kimning tarjimayı holidan: «Ishmaktabda ham, bilim yurtida ham o'zimiz ekar, o'zimiz yig'ar edik, o'zimiz tikar, o'zimiz kiyar edik. Deyari hamma hunar o'rgatilar edi. Og'ir yillar edi; to 1924-25-yillargacha xo'ragini har kuni ikki ya uch marta bir burdadan qora non va tushlik bir cho'mich bo'lqa edi. Ishmakaarning bog'i Chilonzorda, bilim yurtining bog'i Ko'kterakda edi. Yoz bo'y hamma bog'da ishlardi va rangga qon, bo'yga jir bitib qaytardik. Bilim yurtida o'qishlar og'ir, o'qituvchilar talabchan bo'lib, kechasi allamahallargacha sovuq bo'lmalarda dars tayyorlardik»? J: Mirtemir

7. Mirtemir Samarqandda kim bilan do'stlashadi?

J: Hamid Olimjon bilan

8. Mirtemir nima sababdan qamaladi va muddatni qayberda o'taydi? J: *Tuhmat bilan qamaladi va muddatni Shimoldagi Belomorkanal qurilishida o'taydi*

9. Mirtemir qaysi janrlarda ijod qilgan? J: *Dostonlar, she'rlar, dramatik va nasriy asarlar yozgan*

10. Ushbu satrlar muallifini toping. «*Bu – men tug'ilgan tuproq. Ha, men tug'ilgan tuproq Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, daryolar cheksiz qumloq*». J: **Mirtemir**

11. Ushbu satrlar muallifini toping. «*Erk deya shahid ketgan o'g'lontarning xoki bu, Kim noxos o'qraysa ham ko'zlarini o'yaman*». J: **Mirtemir**

12. «*Bu – men tug'ilgan tuproq*» she'rida qaysi bosqinchilar nomi tilga olinadi?

J: **Kayxusrav, Chingiz, Oqposhsho**

13. «*Odam bo'ldimmi menam?*» satrлari kimning qaysi she'rida qayta-qayta takrorlangan?

J: **Mirtemir, «Onaginam» she'rida**

14. Ushbu satrlar muallifini toping. «*Seni jindak xush-vaqt qilgani, Seni jindak xushbaxt qilgani*». J: **Mirtemir**

15. «*Onaginam*» she'rida «*botguvchi*», «*sizlatguvchi*», «*chekkuvchi*», «*tekkuvchi*», «*g'ajiguvchi*», «*achiguvchi*» singari sifatlashlar qaysi tushunchaga tegishli?

J: **G'ashlik tushunchasiga**

16. «*Onaginam*» she'rida Mirtemir «*Tog'day zil, Abadiyatday cheksiz armon bo'lib qoldi dilimda*», deganda nima-ni nazarda tutadi?

J: **Onasini so'nggi yo'lga o'zli kuzata olmagani**

17. «*Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g'ashlik. Bedavo sizloviqday sizlatguvchi – g'ashlik. Jigarimni qly-*

*malab ahyon-ahyon, Chuchvaraga chekkuvchi – g'ashlik» misralari Mirtemirning qaysi she'ridan olingen?*

J: «**Onaginam**» she'ridan

18. «*Yantoq o'tinidek, Tamaki tutunidek, Tong paytida taralgan badbaxtlik tunidek Cheksiz fazolarga tarqab ketardi» misralari Mirtemirning qaysi she'ridan olingen?*

J: «**Onaginam**» she'ridan

19. «*Toshbu» she'rining birinchi misrasida qaysi tvush bilan boshlanuvchi uchta so'z yonma-yon keladi?*

J: «**Ch» tvushl bilan**

20. «*Toshbu» she'ri o'zbek ayolining qaysi xislatlariga faxriya tarzida bitilgan? J: **Sadoqatl va g'ururliga***

21. Toshbuning nechta farzandi bor edi? J: **2 ta**

22. Toshbu brigadada nechta ayolga bosh edi? J: **10 ta**

23. Mirtemir front ortidagi ayollar mehnatini qanday baholaydi? J: **Qattol jang deb**

24. Toshbuning umr yo'ldoshi jangdan qay holda qaytib keladi? J: **O'pkasida moshday o'q va tirsagida bir qo'lli yo'q holda**

25. «*Toshbu» she'ri qanday yakunlanadi?*

J: «**Sensiz O'zbekiston – O'zbekistonmas, Sensiz keng jahon ham sira jahonmas, Toshbul»**

26. «*Betobligimda» she'rida «Majnuntol tagiga o'tqazing meni» jumllalari necha marta takrorlanadi? J: **Olti marta***

27. «*Betobligimda» she'ri qanday yakunlanadi?*

J: **Majnuntol tagiga o'tqazing meni, Men uchun ylg'lasin, men ylg'lab bo'ldim**

28. «*Yo'q, bu giryon ko'zlaming Yaltiroq zamzamasi» deganda shoir nimani nazarda tutgan?*

**J: Ko'zlarning sekin ovozda kuylashini**

29. Yo'dosh Oxunbaboyevga shaxsiy kolib bo'lib ish-lagan ijodkor kim? J: **Mirtemir**

30. Mirtemirning qaysi she'ri bandlari boshida, o'tasida, oxirida takrorlar mavjud?

**J: «Bu – men tug'ilgan tuproq»**

31. «Bu – men tug'ilgan tuproq» she'rining nechanchi bandida o'lka tabiatiga xos xususiyat juda aniq berilgan harorallli misralar bor? J: **2-bandda**

32. «Bu – men tug'ilgan tuproq» she'rining bandlari o'tasida takror keladigan misrani toping. J: **Taqvodorday cho'k tushib peshonamni qo'yaman**

33. «Chingiz o'qiga uchmish olis bobom xoki bu, Kim ko'zga ilmay boqsa, kamchilikka yo'yaman» misralari «Bu – men tug'ilgan tuproq» she'rining nechanchi bandida uch-raydi? J: **2-bandida**

34. Yurtning ipak, bol, marmar, ko'mir, oltin, sharob, guruchlarga mo'lligi «Bu – men tug'ilgan tuproq» she'rining nechanchi bandida tasvirlangan? J: **4-bandida**

35. Mirtemirning qaysi she'rini *boshdan oyoq bir xil ohangda, bir xil zarb bilan o'qib boilmaydi?*

**J: «Onaginam» she'rini**

36. Mirtemirning qaysi she'rida erta longda turib o't-o'laniarni bosib, jarlik sari shoshayotgan lirk qahramon obrazи berilgan?

**J: «Shudring» she'rida**

37. «Onaginam» she'rida qaysi tuyg'uning badiiy izhori berilgan? J: **Ona oldidagi burchini ado etolmagan far-zand armoni**

38. «Onaginam» she'rida lirik qahramon onasiga qilol-magan xizmalini elga qay yo'l bilan baxshida etmoqchi bo'ladi? J: Ijodi bilan

39. «Burmaliq ko'ylik ham, nimcha-yu g'ijim, Sirg'alar sandiqqa tushdi. Bardosh bu...» satrlari orqali anglatilgan ma'noni toping.

J: Toshbuning ayol sifatidagi achchiq iztiroblari

### SHAVKAT RAHMON (1950 – 1996)

1. Ushbu satrlar muallifini toping. Nahot, she'rlar ayt-dim, bo'shliqqa qarab, nahotki, sovildi olam so'zlarim, nahotki, haq bo'lsa, el-u yurt asli quruq so'zlar degan gum-roh do'stlarim? J: Shavkat Rahmon

2. Shavkat Rahmon qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1950-yil 12-sentabrda O'sh shahrida tug'ilgan

3. Otasi va onasining ismini toping.

J: Rahmonberdi, Oftobxon

4. Ota-onasi qanday kasb bilan shug'ullanishardi?

J: Savdo ishlari bilan

5. Shavkat Rahmonning she'rlari matbuotda boslib chiqishida kimning yordamlari beqiyos?

J: Tursunboy Adashboev

6. Shavkat Rahmon qanday tanlovda g'olib chiqqan?

J: Moskva Adabiyot institutidagi Ijodliy tanlovda

7. Moskva Adabiyot institutida qaysi shoirlar bilan birga o'qigan? J: Hallma Xudoyberdiyeva, Murod Muhammad Do'st, Sobit Madaliyev

8. She'riy fo'plamlarini toping. J: «Rangin lahzalar» (1978), «Yurak qirralari» (1981), «Ochiq kunlar» (1984),

«Gullayotgan tosh» (1985), «Uyg'oq tog'lar» (1986),  
«Hulvo» (1987)

9. Kimning she'larini qanday nom bilan tarjima qilgan?

J: Ispan sholri Lorkanining she'rlaridan «Saylanma»  
nomi ostida chop etadi

10. Shavkat Rahmon qachon nima maqsadda Ispani-  
yaga safar qiladi? J: 1979-yilda Lorka she'rlarini bevosi-  
ta ispan tillidan o'zbek tiliga tarjima qllish maqsadida

11. Federiko Garsia Lorkanining she'rlarini qachon chap  
etiradi?

J: 1986-yilda «Eng qayg'ull shodlik» nomi ostida

12. Qaysi ijodkor *as/ qalamkash jasorat so'zining lar-*  
*jimoni bo'llishi kerak* deb hisoblaydi? J: Shavkat Rahmon

13. Qaysi ijodkor «Bir qo'shiq bo'laman daryoday  
yurakning eng chuqur yerida» deydi? J: Shavkat Rahmon

14. Ushbu satrlar muallifini toping. *Zulfdor ruh kerak,*  
*kerak chin yog'du, chin ishq yolqinlari bag'rimga to'lsin,*  
*jismimni toblasin faqat chin og'niq, chechaklar qop-qora*  
*bo'lsa-da, bo'lsin.* J: Shavkat Rahmon

15. «Turkiylar» she'rida Yovga ters qaragan musulmon  
emas misrasi qayerda necha marta takrorlanadi?

J: She'r oxirida, 5 marta

16. Qaysi asarda *Bir boshga bir o'lim demagan ermas,*  
*shahidlar o'lmaydi*, degan satrlar mavjud? J: «Tirkilar»

17. Ushbu satrlar muallifini toping. *Ishongil, hech qa-*  
*chon seni aldamas sofdir elatlaming asotirlari,* *Birorta*  
*bahodir o'lganmas jangda, qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlar-*  
ni. J: Shavkat Rahmon

18. «Tungi manzara» she'rida qanday g'oya ilgari suril-

gan? J: **Qullik va mustamlakachilik tuzumidagi hayotga nafrat**

19. «Tungi manzara» she'rida qora zindon iborasi ni-mani bildiradi?

J: **Qullikda kechgan hayotni**

20. Ushbu satrlar muallifini toping. Osmonlar jum, yig'la-mas shamol, soy sayramas, baqalar jimdир. Ingroqlarda qolib ketgan fun – g'amgin qo'shiq aytadi kimdir.

J: **Shavkat Rahmon «Tungi manzara»**

21. Shavkat Rahmonning qaysi she'rlarida tabiat tasviri orqali inson shaxsini tadqiq etish ko'zda tutiladi?

J: **«Tong ochar ko'zlarim», «Tungi manzara», «Oy sinig'i», «Hamal»**

22. Qaysi she'rida suvloqda chanqog'ini qondirayotgan otlar, sevinchdan yig'layolgan qiyoqlar, ovozini qayrayotgan chigirtka va bosh ko'tarmay mehnat qilishi bilan dun-yoni masxaralayotgan chumoli timsollari aks elgan?

J: **«Tong ochar ko'zlarim»**

23. «Tong ochar ko'zlarim» she'rida qaysi obrazga salbiy munosabat kuzatiladi? J: **Chumoli**

24. «Oy sinig'i» she'rida shabadalar nimaga o'xshatiladi? J: **Ma'yus ayollarga**

25. Shavkat Rahmonning vafotidan keyin qaysi she'riy to'plami nashr etilgan?

J: **«Saylanma», 1997-yilda**

26. She'rlaridan parchalar. «Urush suvrati» she'ri: «Suv o'nida qon shimayotir halovatsiz, bechora zamin. Hasrat bilan yerga qaraydi chiqarmasdan xudolar damin. Qonga botgan dunyoni ko'rib, azoblarga berol-

masdan dosh, ulkan, qizil quyosh har kuni olib ketar uzoqlarga bosh. Ketayotir tubsiz moziyga ko'lankasiz yigitlar safi, qizlar qolar kuz og'ushida unutilgan mevalar kabi»

27. «*Chaqin bo'lma*» she'ri: «Chaqin bo'lma, Bo'lma guldirak, Yerdan ko'pam uzoqlab ketma. Ovozingni yirlmagin bekor, Yerni quchma – quloching yetmas. Undan ko'ra biror odamning Makoni bo'l irmoqli, soyli, Shamollarni to'sgan tog'i bo'l, Osmoni bo'l yulduzli, oyli»

28. «*Minorayi kalon*» she'ri: «Ming yillar qa'ridan keladi, kulfatga yo'liqib ming bora tinimsiz toshbo'ron, qirg'inga, xo'rlikka duch kelgan minoral Tasanno aytaman tuproqning metindan kuchliroq doshiga. Har yili in qurar laylaklar minorning nuragan boshiga. Bu yil ham minorda, xayriyat, sharqona bezaklar so'nmaptti, Minorning boshiga bu yil ham, xayriyat, qarg'alar qo'nmaptti»

29. «*Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim*» she'ri: «Diyonatli, orli ajdodlar bu tosh tagida bir marta ham soxta shuhrat, tama haqida xayol surmaganlar. Yurtda sargardon yoki boshqa yurtda g'urbatda kezganlarida shu tosh poyiga bir kun dafn etilishlarini orzu qilganlar. Ularning hech biri bu toshga o'z ismlarini yozmaganlar. Bugun esa istagan kim-sa tarixda nomi qolishi ilinjida nomini tog' toshlariga o'yib yozmoqda. Sulaymon tog'i bo'lsa betayinlar nomini ko'tarib soat sayin o'smoqda»

30. «*Yosh tog'lan*» she'ri: «Tog'lar kuch yog'ilgan gav-dalarini saratonning o'tiga toblab uxbab yotadi. Go'yo ular

birpas mizg'ish uchun to'xtagan-u, million yillar o'tsa-da  
uxlab yotgan sodda bolalarga o'xshaydi»

31. O'sh viloyati gazetasida harf teruvchi, so'ng mu-  
sahih bo'lib ishlagan shoir kim? J: **Shavkat Rahmon**

32. «...o'rgimchak to'qiydi tolalar, xonqizi boradi meh-  
monga» misralari Shavkat Rahmonning qaysi she'rida  
uchraydi? J: «**Tong ochar ko'zlarim**»

33. Shavkat Rahmonning qaysi she'rida *vohadagi*  
*jimlikdan, botirlaming beg'am va uzoq uyquga cho'mgan-*  
*ligidan bezovtalik aks etgan?* J: «**Oy sinig'l**» she'rida

34. «*Biroq tunda o't-maysalarga to'kiladi kimning yosh-*  
*lari*» satrlari qaysi she'r dan olingan?

J: «**Oy sinig'i**» she'ridan

### TABIAT LIRIKASI

1. Lirik asarlarda tabiat tasviri qanday vazifani bajara-  
di? J: **Vosita**

2. Lirik asarlarda maqsad darajasiga nima ko'tarilgan?

J: **Inson va uning ruhiyatini ko'rsatish**

3. Qanday turdag'i asarlarda hayotda ro'y berayotgan  
voqealarni ko'rsatish emas, balki ana shu voqealar tufayli  
insonda paydo bo'ladigan tuyg'ular tasvirini berish muhim  
o'rinn tutadi? J: **Lurik turga mansub asarlarda**

4. «*Tungi manzara*» she'rida tabiat inson ruhiyatiga  
qanday ta'sir ko'rsatadi? J: **Mahzunlik uyg'otadi**

5. Shavkat Rahmonning qaysi she'rida tabiat yengil  
hissiyotlar, nekbin ruhiy manzaralar ifodasiga sabab bo'la-  
di? J: «**Tong ochar ko'zlarim**» she'rida

## **ERNEST SETON-TOMPSON (1860 – 1946)**

1. Qaysi ijodkor bahorda keladigan moviy rangdagi baxt qushini kutib yashaganligini yozgan?

**J: Ernest Seton-Tompson**

2. Tompson bolaligida kitob do'konida Rossning «Kanada qushlari» kitobini ko'rilib qoladi. Uni sotib olish uchun ikkita quyonini sotadi, bir ayolning o'tinlarini ko'chasiдан hovlisiga tashib beradi, har kuni esa kitob do'konidan xabar olib turadi

3. Tabiat uch olam: rassomlik, badiiy adabiyot va ilm nuqtayi nazaridan kelib chiqib tasvirlanadi. Seton-Tompson ana shu uch olamni birlashtirgan ijodkordir

**4. Seton-Tompson:**

- tabiatga ziyrak animalist rassom, sinchi adib, nukkadon olim ko'zi bilan qaradi;
- jonivorlarga toza ko'ngil, toza ko'z bilan qaradi;
- jonivorlardan o'zining qing'ir, falsafiy fikrlarini aytish uchun foydalanganmadи;
- jonivorlarning ichki dunyosini halol, xolisona ochib berdi;
- hayotga jonivorlar ko'zi bilan boqdi. Jonivorlarga tushkun munosabatda bo'lmasdi;
- o'z boshidan kechirgan hayotni, o'z ko'zi bilan ko'rgan tabiatni, o'z qo'lli bilan ushlagan jonivorlarni qanday bo'lsa shundayligicha badiiy asarga olib kirdi;
- badiiy adabiyotda birinchi bo'lib jonivorlarni badiiy asarning bosh qahramoni qilib oldi. Hayvonlarni obraz si-fatida tasvirladi

5. «Men bilgan janivorlar», «Quvg'indilar taqdiri», «Hayvonlar – qahramonlar», «Mitti yovvoyilar», «Rolf o'rmonida», «Kreg – kuteney qo'yisi» asarlarida hayvonlarni bosh obraz qilib tasvirladi.

6. «Jonivorlar haqida hikoyalar» asari Seton-Tompson nomini olamga yoydi. Kitob qo'lma-qo'l o'qildi, tik turib o'qildi, ovoz qo'yib o'qildi, kecha-yu kunduz o'qildi. Kitobni butun dunyo o'qidi

7. AQShning o'sha davrdagi mashhur adibi Jan Berrous «Atlantik Monsli» jurnalida Seton-Tompsonni yomonlab chiqdi. Bir kuni bir boyvachcha 50 ta adibni uyiga ch-aqirib ziyofat berdi. Shunda Seton-Tompson Berrousnинг yoniga o'tirdi va unga haqiqiy bo'rini ko'rganmisiz va shunga o'xshagan savollar berdi. Berrous Seton-Tompsondan uzr so'radi. Seton-Tompson unga o'zining shaxsliy muzeyini ko'rsatdi. Muzeyda 5 ming kitob, fotoapparatda o'z qo'lli bilan rasmga tushirib tayyorlagan 200 dan ziyod hayvonlar albomi, o'zi chizgan hayvonlar bilan qushlarning 1000 dan ziyod rasmi, 2000 dan ko'proq hayvonlar, qushlar hayotini kuzatib, to'ldirib borgan 30 jiddan iborat qalin-qalin kundlik daftар bor edi

8. AQShning o'sha paytdagi prezidenti Teodor Ruzvelt Seton-Tompsonga manbalarini chiqarishni maslahat berdi

9. Selon-Tompson hayotiy va ilmiy ishlarini yig'ib, «Shimaliy hayvonlar hayoti» nomli ulkan 2 jiddlik kitob qildi. Kitob uchun «Alanga medali» oltin mukofotni oldi

10. «Yovvoyi hayvonlar hayoti» degan 4 jiddlik kitobi Amerikada eng yaxshi ilmiy ishlar uchun beriladigan «Eliot» oltin medaliga sazovor bo'ldi

11. «Yovvoyi yo'rg'a» asarini o'zbek tiliga Tog'ay Murod tarjima qilgan

12. «Yovvoyi yo'rg'a» asarida juda ko'p otlarni yovvoyi-lashtirib yuborgan qora yo'rg'ani tutib olish haqida hikoya qilinadi. Epchil kovboy Jo qora yo'rg'a bilan birga yurgen barcha baytallarni qo'lga oldi. Yana bir marfa qora yo'rg'ani qo'lga olishga urindi. Oqibatda 8 ta ot nobud bo'ldi, 5 ta odam butunlay holdan toydi. Qariya Tom yo'rg'ani ush-lashga muvaffaq bo'ldi. Lekin Tom va qora yo'rg'aning har bir qadami olishuv bilan o'tdi. Yovvoyl qora yo'rg'a qonga belanib ketsa ham yuqoriga, tik qoyaga intildi va qoyadan pastga – havoga sakradi. Pastlab... toshga borib tushdi. U jonsiz sulayib qoldi, ammo... ozod bo'lib qoldi. Bu hikoya erk va ozodlik uchun umrining so'nggi lahzasiga qadar kurashtgan yovvoyi qora yo'rg'a haqidadir. Hikoyada yo'lboshlovchi Berns, oshpaz Kurka Iz, Charli kabi obrazlar ham bor

13. Qaysi jurnalda dastlab Seton-Tomson haqida yomonlab, so'ngra uni ko'klarga ko'tarib maqtalgan maqola bosilib chigdi? J: **«Atlantik Monsii»**

14. Dastlab Seton-Tomsonni yomonlagan, u bilan uchrashgandan so'ng uni maqtab maqola yozgan yozuvchi kim? J: **Berrous**

15. «Ana, ko'rdingizmi, qanday ulkan hayotiy manbalarga tayanib asar yaratganingizni hech kim bilmaydi. Endi shu manbalariningizni chiqaring», – deya Seton-Tomsonga kim maslahat bergen?

J: AQSh prezidenti Teodor Ruzvelt

16. «Yovvoyi yo'rg'a» asarida yovvoyi qora otga qanday ta'rif berilgan?

J: «Qora ot eshakday o'jar, itday qahrli keladi. Qora otda tirnoq bo'lqa arslonni ham gumdon qiladi»

17. Jo addiy galachi bo'lib, oyiga qancha maosh olardi?

J: **25 dollar**

18. Kim qora yo'rg'ani ko'rgach u menga baxt keltiradi deb o'ylaydi? J: **Kovboy Jo**

19. «Juda uddaburon odam. Yaylovda zoti yaxshilan-gan uy hayvonlari boqilsa, kirim ko'payishini yaxshi biladi». Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Foster**

20. Kovboy Joga: «Menga qarang, bordi-yu la'nati yo'rg'aga duch kelib qolsangiz ayamay otib tashlang», – deb kim aytgandi? J: **Foster**

21. Kovboy Jo yovvoyi yo'rg'aning kechmishini kimdan bilib oladi? J: **Jek Bernsdan**

22. Ayg'irni ushlab kelgan odamga ming dollar berishni kim qayerda va'da qiladi?

J: **Montgomer, Kleytondag'i Uels qahvaxonasida**

23. «Yovvoyi yo'rg'a» asaridagi ayg'ir suv ichdigan bu-loqning nomi nima? J: **Jayron buloq**

24. «Ayg'irga qo'yilgan mukofotni olish kerakmikan? U ikkilanib qoldi. Qo'yilgan pul chakana emas. Lekin ayg'irning turgan turmushi xazina, u asl zotli surriyot yaratishi mumkin». Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Kovboy Jo**

25. «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasining qaysi boblarida Kovboy Joning yovvoyi yo'rg'ani ushlash bobidagi urinish-lari tasvirlanadi?

J: **Uchinchi va beshinchchi boblarida**

26. «Yovvoyi yo'rg'a» asarida Jo ayg'irni ushlashda chiyabo'rilar epchil quyonni, hindular jayronni ushlashda

qo'llaydig'an usulni qo'llab ko'rmoqchi bo'ldi. Bu usul qanday nomlanardi? J: **Galma-gal ovlash**

27. «Yovvoyi yo'rg'a» asarida yovvoyi yo'rg'ani ush-lashda yordam bergan to'riq baytaining nomini toping.

J: **Soll**

28. «Bu yurtlarda zaharli bir o't o'sadi. Odatda, ottlar bu o'tni yemaydi, bordi-yu bir tatib ko'rsa, uni yana izlab qoladi. Uning mazasi taryokning kayfiga o'xshaydi. Unga o'ch qo'ygan ot ko'p vaqt o'zini yaxshi tutib yuradi, oxir-oqibat aqidan ozib o'ladi». Bu qanday o't? J: **Loko**

## 8-SINF ADABIYOTI

1. Majburiy ravishda jamoa xo'jaliklari (kolxozlar) tuzish qaysi asarlarda aks etgan?

J: G'.G'ulom «Ko'kana», A.Qodiriy «Obid ketmon», A.Qahhor «Qo'shchinor chiroqlari»

2. Badiiy adabiyot inson tafakkuriga qanday ta'sir qiladi? J: Insonning tuyg'ularini qo'zg'atadi, qalbini Junbushga keltiradi, unga shu yo'l bilan ta'sir ko'rsatadi

3. «Menga qilsa ming jafo, bir qatla faryod aylamon, Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram» misralarining muallifini toping. J: Navoiy

## YUSUF XOS HOJIB

1. Quz O'rdu qaysi shaharning ikkinchli nomi?

J: Bolosog'unning

2. Qaysi shoir Bolosog'uniy nomiga ega?

J: Yusuf Xos Hojib

3. «Qutadg'u bilig»ni kim *Baxtliklanish bilimi* degan nom bilan atagan? J: Fitrat

4. «Qutadg'u bilig»ning qo'lyozma nusxalari to'g'ri sanalgan qatorni toping. J: Namangan, Qohira, Vena

5. «Qutadg'u bilig»ning Vena nusxasi qachon kim tomonidan ko'chirilgan?

J: 1439-yilda Hirotda Hasan Qora Soyll Shams tomonidan uyg'ur yozuvida ko'chirilgan

6. «Qutadg'u bilig»ning uyg'ur yozuvidagi nusxasi qanday nomlanadi? J: Vena

7. Kitob Turkiyaning Tugot shahrida, 1474-yilda esa Istanbulga keltirilgan. Uni keyinchalik mashhur sharqshunos Hammer Purgshthal sotib olib, Venadagi saroy kutubxonasi ga keltiradi. Ushbu fikr «Qutadg'u bilig»ning qaysi nusxasi haqida? J: **Vena**

8. «Qutadg'u bilig»ning qaysi nusxalari arab yozuvida bitilgan? J: **Qohira, Namangan**

9. «Qutadg'u bilig» necha baytdan iborat? J: **6409 bayt**

10. «Qutadg'u bilig» necha bobdan tuzilgan?

J: **73 bobdan**

11. «Qutadg'u bilig»da asosiy voqealar nima bilan boshlanadi? J: **Kuntug'dining ta'rifi bilan**

12. Masnaviy so'zining ma'nosini toping. J: **Ikkilik**

13. «Quladg'u bilig»da dostonning asosiy voqeasi necha bobda ifoda etilgan? J: **12 bobda**

14. «Qutadg'u bilig»ning qaysi qahramoni orqali davlatning o'tkinchi, kelib-ketadigan va o'zgaruvchan narsa, sel kabi tez kelib, tez ketadigan ekanligi anglatiladi?

J: **Oyta'ldi**

15. «Qutadg'u bilig» bek nomi qaysi so'z bilan bog'liq ravishda tilga olinadi? J: **Bilik so'zl bilan**

16. «Qutadg'u bilig»da elning tayanchi sifatida ikki narsa e'tirof etiladi. Ular qaysilar? J: **Hushyorlik va slyosat**

17. «Qutadg'u bilig»da bekning elini buzuvchi narsalari sifatida qaysi yomon xislatlar ko'rsatiladi?

J: **Zo'rlik va g'ofillik**

18. «Qutadg'u bilig»da bek uchun zarar bo'lgan 5 xislat sanaladi. Ular qaysilar? J: **Shashqaloqlik, ochko'zlik, jaholat, yomonlik, yolg'onchilik**

19. «Qutadg'u bilig»ning qaysi nusxasi haqida 1823-yilda fransuz sharqshunosи Jaubert Amedee ma'lumot chop etib, bu asarni ilm ahliga tanishtiradi?

J: **Vena nusxasi haqida**

20. «Qutadg'u bilig»ning qaysi nusxasi haqida sharqshunos Valizoda 1914-yilning 20-aprelida ma'lumot bera-di? J: **Namangan nusxasi haqida**

21. Fitrat kimdan «Qutadg'u bilig»ning Namangan nusxasini olishga muvaffaq bo'ladi?

J: **1924-yill Muhammad hojl Eshon Lolereshdan**

22. Aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan asarlarni toping.

J: **«Qutadg'u bilig», «Saddi Iskandarly», «Shohnomä», «Xiradnomayi Iskandarly»**

23. «Qutadg'u bilig»ning qaysi nusxasi 1896-yill topil-gan? J: **Qohira nusxasi**

24. Koshg'ar shahrining ikkinchi nomi nima?

J: **O'rdukent**

25. «Qutadg'u bilig»ni chinliklar qanday atagan?

J: **«Adab ul-mulk» – Podsholar odobi**

26. «Qutadg'u bilig»ni mochinliklar nima deb atagan?

J: **«Amin ul-mamlakat» – Mamlakat omonliklari**

27. «Qutadg'u bilig»ni Sharq elining ulug'lari qanday nomlagan? J: **«Ziynat ul-umaro» – Amirlar ziynati**

28. «Qutadg'u bilig»ni eronliklar qanday atagan?

J: **«Shohnomayi turkly»**

29. «Qutadg'u bilig»ni turonliklar qanday atagan?

J: **«Qutadg'u billig» yok! «Pandnomal muluk» – Podshohilar pandnomasi**

30. «Qutadg'u bilig» nasniy hamda she'riy muqaddi-madan tashqari necha bobdan iborat?

J: 71 maxsus bobdan

31. Qaysi asarda o'ng qo'lling qilich tulsa va tortib tursa, so'l qo'lling narsa olib ularshin deyiladi?

J: «Qutadg'u bilig»da

32. «Qutadg'u bilig» muallifi bekning ikki qilmishidan qut qochishini aytadi. Ular qaysilar?

J: Ichimlik Ichish va fasod qilish

33. Ushbu parcha qaysi asardan olingan: «*Qut pok narsadir, u poklik tilaydi, Davlat sof narsadir, u soflik tilaydi*»? J: «Qutadg'u bilig»dan

34. «Qutadg'u bilig»ning 31-bobi nimaga bag'ishlana-di? J: Beklikka loyiq bek qanday bo'llishi, ya'nii rahbar ma'naviyatiga

35. Qaysi asarda «*Agar arslon illarga bosh bo'lsa, illar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar illar kabi bo'lib qolishi mumkin*», deyiladi?

J: «Qutadg'u bilig»da

36. «Qutadg'u bilig»ni kim o'zbek tiliga ilmiy tarjima qil-gan? J: Qayum Karimov

37. «Qutadg'u bilig»ni she'riy yo'l bilan ommabop qilib tarjima qilgan olimni toping. J: Boqijon To'xlyev

38. «Qutadg'u bilig»da beklik mustahkam bo'llishi uchun 4 narsa muhimligi sanaladi. Ular qaysilar?

J: Kuchli lashkar, kuchli lashkarni saqlash uchun ko'p boylik, ko'p boyllarni to'plash uchun badavlat xalq, boy-badavlat xalqqa ega bo'llish uchun adolatli slyosat

39. «Qutadg'u bilig»ning qaysi qahramoni addolat ramzi? J: **Kuntug'di (chiqqan Quyoshi)** – elig, hukmdor

40. «Qutadg'u bilig»ning qaysi qahramoni baxt va davlat ramzi? J: **Oytal'idi (to'lgan Oy)** – vazir

41. «Qutadg'u bilig»ning qaysi qahramoni aql va zakovat ramzi? J: **O'gdulmish (aqlga to'lgan)** – vazirning o'g'li

42. «Qutadg'u bilig»ning qaysi qahramoni qanoat va ofiyat, ya'nı sog'lomlik ramzi?

J: **O'zg'urmish (uyg'ongan)** – vazirning qarindoshi

43. «Qutadg'u bilig»da nodon, bilimsiz kishilarga xos belgilar sifatida qaysilar sanaladi?

J: **Shoshqaloqlik, fe'l'i tezlik, yengiltaklik**

44. «Qutadg'u bilig»da qaysi xislatlar bek uchun ziynat, bular beklik yumushlarini bog'lovchi rishtadir deya berilgan? J: **Qaror va sabr**

45. «Qutadg'u bilig»da bag'irsoq kishi deganda kim nazarda tutiladi? J: **Sadoqatli, sodiq kishi**

46. «Qutadg'u bilig»da shoir maxsus boblarni qanday ko'rinishda ifodalaydi? J: **Savol-javob va munozara**

47. «Qutadg'u bilig»ning Namangan nusxasi bilan bog'liq shaxs nomlarini toping.

J: **Vallzoda, Eshon Lolaresh, Filtrat**

48. «Qutadg'u bilig»ning uyg'ur nusxasi bilan bog'liq shaxslami toping. J: **Hammer Purgshtall, Jaubert Amedeya**

49. «Qutadg'u bilig» dostonining uyg'ur nusxasi bilan bog'liq joy nomlarini sanang.

J: **Hirot, Istanbul, Tugot, Vena**

50. Qaysi asar eski o'zbek tilidagi asl matniga ko'ra darslikda tinish belgilarsiz berilgan? J: **«Qutadg'u bilig»**

51. *Ellik yosh haqida* «qora quzg'un tusidek boshimni oq (qush) qildi», «pistirma, ya'ni nogahoniy a'lim bo'limsa, u tomon boraman» mazmunidagi fikrlarni aytgan ijodkor kim? J: **Y.X.Hojib**

52. «Qutadg'u bilig» dostonining muqaddimasi qanday yo'l bilan bitilgan? J: **She'riy hamda nasriy**

53. «Zulm yonib turgan olov, yaqinlashsang kuydiradi». Parcha qaysi asardan olingan? J: **«Qutadg'u bilig»dan**

54. «Qutadg'u bilig»da yozilishicha, tek xalqni nima bilan zabit etadi? J: **Bilim bilan**

55. Qaysi asarda shaxs tarbiyasi, uning jamiyatdagi o'mi, komillik shartlari, ummi bekorga o'lkazmaslik, turli ijtimoiy tabaqaga mansub kasb-kor egalarining axloqiy mezonlari, davlatchilik qatl'yatlari asosiy yo'nalishga aylan-gan? J: **«Qutadg'u bilig»da**

56. «Qutadg'u bilig» dostonining vaznini toping.

J: **Mutaqoribi musammani mahzuf**

57. Shohlar haqida yozilgan asarlar qaysi vaznda yozil-gani? J: **Mutaqoribi musammani mahzuf**

58. Mutaqorib bahrining ruknini toping. J: **Faulun**

59. Mutaqorib bahrining taqte'si (paradigmasi)ni top-ing. J: **V--**

60. Mutaqoribi musammani mahzuf vazninining ruknini toping. J: **Faulun – faulun – faulun – faul**

61. Mutaqoribi musammani mahzuf vazninining taqte'si (paradigmasi)ni toping. J: **V -- / V -- / V -- / V --**

62. «Qutadg'u bilig» dostoni bilan Firdavsiyning «Shöhrloma»si qaysi jihatiga ko'ra bir-biriga o'xshaydi?

J: **Vazni bir XII**

63. «Qutadg'u bilig» dostoni qachon yaratilgan?

J: Asar hijriy 462, ya'ni millodiy 1069/1070-yill

Koshg'arda yozib tugallangan

64. Dostonni yozishga mualif qancha vaqt sarflagan?

J: Bir yarim yil

65. «Qutadg'u bilig» dostoni zamon hukmdori tahsiniga sazovor bo'lgani uchun muallifga qanday rasmiy lavozim berilgan? J: «Xos hojiba», ya'nI eshik og'asi

66. «Qutadg'u bilig»da: «*Barcha nomunosib ishlardan tiyuvchi, barcha xayrdi ishlarga yo'llovchi*», – deya ta'riflangan fazilat qaysi? J: Uyat

67. «*Adolat suv kabitdir, oqsa, ne'mat unadi*». Parcha qaysi asardan olingan? J: «Qutadg'u bilig»dan

## DIDAKTIK ADABIYOT HAQIDA TUSHUNCHA

1. Didaktika so'zining ma'nosini toping. J: Ibratli

2. Kim X asrdayoq Sharq ko'proq nasihat yo'lli bilan, G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini maxsus qayd etib o'tgan? J: Abu Ali Ibn Sino

3. Didaktik asarlar turlarini toping. J: Nasriy didaktik asarlar, Nasriy-she'riy didaktik asarlar, She'riy didaktik asarlar

4. Nasriy didaktik asarlarlarga qaysilar kiradi?

J: 1. «Pantachantra» – «Kalila va Dimna» 2. «Ming bir kecha» 3. Xojanining «Gulzor», «Miftoh ul-adl» asarlari

5. Nasriy-she'riy didaktik asarlarga qaysilar kiradi? J: Gulxanlyning «Zarbulmasal» asari, Sa'diyning «Guliston» asari, Navolyning «Mahbub ul-qulub» asari

6. She'riy didaktik asarlarga qaysi asarlar kiradi?  
J: Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u billg» asari, Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» asari, Navoiyning «Hayrat ul-abror» asari
7. O'zbek adabiyotida yaratilgan didaktik asarni toping.  
J: ShukrullonInq «Javohirot sandig'i» asari
8. «Sharqqa sha'niyalni o'rgatib bo'lmaydi» degan fikr qaysi shoirga tegishli? J: Abdulla Oripovga
9. Mashhur «Pantachantra» nechanchi asrda qaysi tilda yaratilgan? J: Milodiy IV asrda sanskrit tilida
10. Didaktik adabiyot bu...? J: Pandnoma adabiyot

### LUTFIY (1366 – 1465)

1. Lutfiyning asl ismi kim? J: Umar
2. Ushbu muammo muallifini toping. «Ko'ray desang agar istab otimni, «Imorat»ni buzib otni chiqarg'il».  
J: Lutfiy
3. «Lutfiy» so'zining ma'nosini toping.  
J: Latif, go'zal lutfli, shirlinsuxan
4. Ushbu she'r muallifini toping. «Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi, O'z haddini bilib, belidin o'llurur quyi».  
J: Lutfiy
5. Ushbu she'rda qaysi san'atdan foydalanilgan? «Ayo-qingga tushar har lahza gisu, Masaldurkim: charog' tubi qarong'u». J: Irsoll masal
6. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini o'zbek tiliga kim she'riy tarjima qilgan? J: Lutfiy
7. Ushbu she'r muallifini toping. «Meni shaydo qiladur-

*g'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul, Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul». J: Lutfly*

8. Qaysi shoir «malik ul-kalom» deb e'zozlangan?

J: Lutfly

9. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma uyushtirgan ilmiy-ijodiy ekspeditsiya a'zolari tomonidan Dehikanor qishlog'iga qachon maqbara qurildi?

J: 2006-yilning may oyida

10. Ushbu she'r muallifini toping. «*Haq ul kunkim jamoling bor etibduri, Jahon husnin borin sizga beribdu*».

J: Lutfly

11. Ushbu she'r muallifini toping. «*Ey odamlar joni, parig'a ne bo'lursan? Bu jism ila gulbargi tarig'a ne bo'lursan?*» J: Lutfly

12. «Mavlono» so'zining ma'nosi nima? J: Ulug' ustod

13. Qaysi asar orqali mavlono Lutfiyning Hirotda lug'ilib o'sgani, o'zi yashagan Dehikanor qishlog'ida dafn etilganini bilib olamiz? J: Navoiy, «*Nasoyim ul-muhabbat*»

14. «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul, Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul» g'azaliga kim nazira bog'lagan? J: Nodira

15. «Ayog'ingga tushar har lahza gesu, Masa'durkilm: charog'tubi qarong'i» nomli g'azali vaznini toping.

J: Hazajl musaddasi mahzuf

16. «Xoh inon, xoh inonma» g'azali hajmini toping.

J: 7 bayt

17. «Xoh Inon, xoh inonma» g'azali qofiyalarini toping. J: Sevarim, Jigarim, saharim, guzarim, xaberim, basarim, nazarim, slymbarim

18. Lutfiyning qaysi g'azali radifida lazod san'ati qo'llanilgan?

J: Lutfiyning «Xoh inon, xoh inonma» g'azalida

19. «Xoh inon, xoh inonma» g'azali maqta'sida «Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi» misralari qanday ma'noni anglatadi? J: Qahramonning yuzi shu darajada sarg'aydikl, buning oldida tilloning sariqligl hech narsa bo'lmay qoldi

20. «Xoh inon, xoh inonma» g'azaliga qaysi shoir nazi-ra bog'lagan? J: Mashrab

21. «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul, Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul» g'azali hajmini toping. J: 7 bayt

22. Lutfiyning qaysi g'azali radifi besh so'zdan iborat bo'lib, barchasi turkiy? J: «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul...» g'azali

23. «Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul...» g'azali qofiyalarini toping.

J: Shaydo, rasvo, yo, tamanno, taqozo, savdo, po, daryo

24. «Ayog'ingga tushar har lahza gesu...» g'azali hajmi? J: 5 bayt

25. «Ayog'ingga tushar har lahza gesu...» g'azalining nechanchi baytlarida yorning yuzi haqida so'z yunitiladi?

J: 1-, 2-, 3-baytlarda

26. «Ayog'ingga tushar har lahza gesu...» g'azali mat-la'sida yuz va soch nimaga o'xshatilgan?

J: Yuz chiroq'ga, sochning qoralligi chiroq tublinning qorong'lligiga qiyoslangan

27. Lutfiyning qaysi g'azali qoflyalarining barchasi turkiy? J: «**Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur**» g'azali

28. Lutfiyning qaysi g'azali tanosub san'ati asosiga qurilgan?

J: «**Ey odamlar joni, parig'a ne bo'lursan?**» g'azali

29. Lutfiy «Sendek saname ko'rman Lutfiy Chig'atoya, Chin so'yla, Xito xo'blariga ne bo'lursan?» baytida qaysi badiiy san'atdan foydalangan? J: **Iyhom san'atidan**

30. Lutfiyning qaysi g'azallari hazaji musaddasl mahzuf vaznida yozilgan?

J: «**Ayog'ingga tushar har lahza gesu...**», «**Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur...**» g'azallari

31. «Raftor ila bir yo'lli muningdek dog'i o'xsash; Ey sarvi sihi, kabki dariyg'a ne bo'lursan?» baytida shoir yoming qaysi xislatiga e'tibor qaratadi?

J: **Qomati va chiroylli yurishiga**

32. «Raftor ila bir yo'lli muningdek dog'i o'xshash, Ey sarvi sihi, kabki dariyg'a ne bo'lursan?» baytidagi «**sarvi sihi**» va «**kabki dariy**» so'zlarining ma'nosi?

J: «**Sarvi sihi**» – xushqomat tik sarv daraxti; «**kabki dariy**» – tog' kakligi

33. «*Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen.*»

Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men.

*Bevafolarg'a meni qilding asir,*

*Sen menga sultonsen, ey dil, banda men*» she'ning janri va tajnisli so'zlar ma'nosini toping. J: Tuyuq, dil, bandamen – yurak, (men) bandaman (bog'lanib qolganman); dilbanda men – dilbandga men; dil, bandamen – yurak, banda men (man): Men sening dastlingdan; ey

dil, bandaman (bog'lanib qolganman), vah, men qachon u dilbandga yetgayman? Meni bevafolarga asir qilding, sen menga sultonsan, ey dil, banda (fuqaro) men

34. «Qomatlingni necha qoshing yo qila,

*Necha hajr o'ti jonimda yoqila.*

*G'amza birla to'kti qonim ul sanam,*

*To hinotek qon elina yoqila» she'rining janri va tajnisli so'zlar ma'nosini toping. J: Tuyuq, yo qilla – yoy (kamon) qiladi (bukadi, egiltiradi); yoqilla – yoqiladi; yoqila – surtiladi: Qomatlingni necha qoshing yoy qiladi (bukadi, egiltiradi), Jonimda necha hajr o'ti yoqiladi. G'amza (ko'z qoqish) bilan u sanam qonimni to'kadi, endi xinodek qon qo'liga surtiladi*

35. «Qoshlaring xush lojuvard-u toq erur,

*Xush ichinda benazir-u toq erur.*

*Torta olmasman firoqing, netayin,*

*Qilcha tanga bori ishqing toq erur» she'rining janri va tajnisli so'zlar ma'nosini toping.*

J: Tuyuq, toq erur – toqdir (yolg'izdir); toq erur – yakka-yu yagonadir; toq erur – (toqatim) toqdir: Qoshlaring – yaxshi lojuvard-u (yaltirab turlibdi-yu) yolg'iz-yolg'iz, yaxshilar ichida benazir-u yakka-yu yagona. Firoqing (dardini) torta olmasman, nima qillay, qildek tanga barl ishqing toqatini toq qilladigan darajada (yuk) bo'ldi

36. «Ko'ngluma har yonki baqsam, dog'i bor,

*Har necha dardimni desam, dog'i bor.*

*Qilcha tanga bori ishqing yor edi,*

Bir soni firoqing, «dog'i bor» she'rinining janri va tajnisli so'zlar ma'nosini toping. J: Tuyuq, dog'i bor – dog'i bor; dog'i bor – otashlbor; dog'i bor – yana (tag'in) bor; Ko'ngilimga har yon boqsam dog'i bor, har qancha dardimni aytsam, otashlbor. Qildekkina tanamga bori ishqing yor edi, firoqing (sendan ayrılıq) bir taraf bo'ldi, yana bor

37. «Charxi kajraftor elidin yozamen,

Chiqmadir hijron qishidin yoza men.

Bir meni yorlıq bila yod etmas ul,

Har necha ul shahg'a qulluq yozamen» she'rinining janri va tajnisli so'zlar ma'nosini toping.

J: Tuyuq, yozamen – yozg'iraman (shikoyat qllaman); yoza men – yozga men; yozamen – yozaman (bitaman); Charxi kajraftor (egrlaylanuvchı charx, zamon) elidan noroziman, (chunki) hijron (ayrılıq) qishidan yozga chiqa olmadim. Har qancha u shohga qulluq (iltifotlı maktub) yozganım bilan u yod etmaydi

38. «Ey ko'ngul, yorsiz sanga ne bor, bor,

Qaydakim ul zulfi anbarbor, bor.

Chek jafo-u javr-u nozin borini,

Bir kun o'lgaykim, degaylor: «Bar-bor!» she'rlining janri va tajnisli so'zlar ma'nosini toping.

J: Tuyuq, bor, bor – bor, bor (mavjud, mavjud); (anbar)bor, bor – (anbar)bor, bor(gln); «bor, bor» – «bor, bor»(Jo'na, Jo'na): Ey ko'ngli, yorsiz senga ne bor, bor? Qayda anbarbor (anbar hidli) bo'lsa, (yonlga) bor. Barcha jafo-u javr-u nozlini chek, bir kuni shunday bo'ladilki: «Bor, bor»(Jo'na, Jo'na)

39. Lutfiyning mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan g'azallaridan parchalar:

– Bu kechar jahonda, soqiy, chu emas vafo nishoni,  
Bari aysh birla kechsa kerak ushbu umri foni.

– Holiyokim, davri ishrattur iliktin jomni  
Solmag'ilkim, ko'rдум asr-u bevafo ayyomni.

40. Lutfiy tuyuqlarining o'ziga xo'sligi nimada?

J: Lutfiy tuyuqlarida, asosan, turkiy o'zakli so'zlar tajnisga olinadi

41. Lutfiyning qaysi tuyug'ida tajnis qofiyadagi so'zlar dan tashqari qofiyasiz misradagi so'zda ham yuzaga kel gan? J: «**bar, bor**»

42. Lutfiyning qaysi tuyug'ida turkiy o'zakli so'zlar bilan birga forsiy o'zakli so'zlar tajnisga olingan? J: «**bar, bor**»

43. Qaysi shoir chig'atoy tilida she'rlar ijod qilib katta shuhraf qozongan? J: **Lutfiy**

44. G'azaliyotga dialog (savol-javob) usulini kiritgan shoirni aniqlang. J: **Lutfiy**

45. Lutfiyning «Haq ul kunkim jamoling bor etibdur» g'azalining nechanchi baytida ilohiy ishqqa ishora yaqqol ko'zga fashlanadi, ochiq ishora qilinadi? J: **2-bayt**

46. Lutfiyning qaysi g'azalida shamning atrofida majlis qurayotgan kapalaklar timsoli mavjud?

J: «**Haq ul kunkim jamoling bor etibdur**»

47. She'r qofiyasl yoki radifning so'roq bilan tugashi qanday badili vazifani bajaradi?

J: Ta'sirchanlikni – haya Jonni, qalamga olinayotgan masala yo voqeа-hodisaga hissly munosabatni kuchaytiradi

48. Lutfiyning «Ne bo'lursan» radifli g'azalida «ne bo'lursan» radifi qanday badiiy vazifani bajargan?

J: **G'azalni boshqarib turibdi**

49. Qaysi badiiy san'atni qo'llash Lutfiy ijodiyotining yetakchi uslubiy fazilatlaridan biri hisoblanadi?

J: **Irsoli masal**

50. Lutfiyning qaysi tuyuqlarida original, ya'ní bir marta-balik shakldoshliklar yaratilgan?

J: **«dilbandamen», «yozamen», «yoqila»**

51. Bir martabalik (original) shakldoshlik deganda nima tushuniladi? J: **Tilda qat'iy shakldosh bo'limgan birlkmalarni she'nda omonim tarzida qo'llash**

52. Lutfiyning «Ayog'ingga tushar har lahza gesu» g'azalida qo'llangan maqollarni toping.

J: 1. Chiroq tubi qorong'l. 2. Oqqan daryo oqadi. 3. Kishinig ko'zl tarozu. 4. Hindu qayda qon ko'rsa qo'rqadi. 5. Tilagan kishi tilagiga yetadi

53. Lutfiyning «Ayog'ingga tushar har lahza gesu» g'azalida nechta maqol qo'llangan? J: **5 ta**

54. Lutfiyning «Ayog'ingga tushar har lahza gesu» g'azalida nechta irsolli masal she'riy san'ati qo'llangan?

J: **5 ta**

55. Lutfiyning qaysi g'azalida Yusuf payg'ambar hayotining bir qismi Misrda o'tganidan kelib chiqib lirik qahramon yor harakatini shirin deb ta'riflaydi-da, yorini Misrning nabot-u shakariga o'xshatadi? J: **«Ne bo'lursan» g'azalida**

56. Lutfiyning «Xoh inon, xoh inonma» g'azalida ohang ustuvorligini nima ta'minlagan? J: **To'rt so'zdan iborat radifning sakkiz misrada qaytarilishi**

57. Yorning yuzini jannat bog'iga, ma'shuqaning o'zini esa «rashki rizvon» (jannatning rashkini keltiruvchi) deya ta'riflagan shoir kim? J: **Lutfiy**

58. Mumloz adabiyotimizda qaysi adib o'z g'azalida ko'zni taroziqa o'xshatib, bu borada xalq orasida «Kishining ko'zi tarozi» degan maqol borligini ta'kidlab o'tadi?

J: **Lutfiy**

59. Lutfiyning «Haq ul kunkim, jamoling bor etibduri» deb boshlanuvchi g'azalida manzar kim?

J: **Go'zal yor**

60. Haqqoki, qilich kelsa boshimg'a eshikingdin, Yo'qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma. Lutfiy qalamiga mansub ushbu baytda «guzar» so'zi qanday ma'noda qo'llangan?

J: **Ketish**

61. Mumloz adabiyotimizda qo'llangan «Bayt ul-hazan» iborasining ma'nosini toping. J: **G'am uyi**

62. Lutfiyning qaysi g'azalida quyosh yorning go'zalligini ko'rib uyalib, xijolat bo'lganidan qochib, to'rtinchchi ko'kka chiqib kelganligi ta'kidlanib, yorning naqadar go'zalligiga urg'u berilgan?

J: **«Haq ul kunkim Jamoling bor etubdur»**

63. Hazaj bahrining ruknini toping. J: **Mafolyun**

64. Hazaj bahrining taqte' (paradigma)sini toping.

J: **V ---**

65. Hazaji musaddasi mahzuf vaznining ruknini toping.

J: **Mafolyun – mafolyun – faulun**

66. Hazaji musaddasi mahzuf vazninining taqte' (paradigma)sini toping. J: **V --- / V --- / V --**

## IRSOJI MASAL

1. Irsoli masal so'zining ma'nosi?  
J: Irsoli – keltirish, masal – misol, tamsil, maqol, matal, ibora ma'nolarini anglatadi
2. Eski o'zbek tilida maqol, matal va iboralar qanday atalgan? J: Masal yoki zarbulmasal
3. Lutfiy ijodiyotining yetakchi uslubiy fazilatlaridan biri qaysi? J: Irsoli masal qo'llash

## TAJNIS

1. «Tajnis» so'zining ma'nosi?  
J: Jinsdash, shakldosh
2. Badiiy san'atlar qanday guruhlarga bo'linadi?  
J: Ikki guruhg'a: lafziy (shakliy) san'atlar va ma'navly (ma'no bilan bog'ilq) san'atlar
3. Tajnis qanday san'at turi hisoblanadi?  
J: Ham lafziy, ham ma'navly san'at
4. Tajnis san'atini qanday so'zlar yuzaga chiqaradi?  
J: Omonim-shakldosh so'zlar
5. Qaysi janrda tajnis ishlatish shart qilib qo'yilgan?  
J: Tuyuqda

## TUYUQ HAQIDA

1. Qaysi ijodkor tuyuqning bir necha turlarini ko'rsatgan? J: Bobur
2. Faqat turkiy adabiyotda mavjud bo'lgan janrnmi.toping.  
J: Tuyuq

3. Tuyuq janrining adabiy-badiiy talablarini toping.

J: 1) Tuyuq **to'rt misradan iborat bo'lishi kerak.**

2) Tuyuq misralari a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida qoflyalanishi zarur. 3) Tuyuq ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida, ya'ni «foilotun foilotun foilun (yoki follow)» tarzida bo'lishi kerak. 4) Tuyuqda qofiyaga olingan so'zlar tajnisli bo'lishi, ya'ni omonim so'zlardan tashkil topishi darkor.

4. Dastlab yaratilgan tuyuqlarda qaysi jihat shart bo'limgan? J: **Dastlabki tuyuqlar talabning uchtasiga javob bergan, keyinchalik janrning to'rtinchi talabi – qofiyaga olingan so'zlar tajnisli bo'lishi, ya'ni omonim so'zlardan tashkil topishi yuzaga kelgan**

### ALISHER NAVOIY (1441 – 1501)

1. Alisher Navoiy bolaligida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») asarini sevib o'qir edi. Ota-onasi mazkur asarga yoshlayin bu qadar mashg'ul bo'lib ketgandan qo'rqib, kitobni undan olib, yashirib qo'yishadi. «Biroq men «Mantiq ut-tayr» matnini lo'liq yodlab olgan edim» deb Navoiy qaysi asarida yozadi? J: **«Lison ut-tayr» asarida**

2. Alisher Navoiy qaysi yillar Samarcand shahridagi madrasalarda tahsil oldi? J: **1466 – 1469-yillar**

3. Navoiyga kim «Muqarrabi shohiy», ya'ni shohning eng yaqin kishisi martabasini bergan? J: **Husayn Boyqaro**

4. Navoiy Husayn Boyqaroga bir masala yuzasidan ketma-ket necha martagacha murojaat qilish huquqiga ega edi? J: **Yetti marta**

5. Navoiyga qaysi shaharlarda haykal o'rnatilgan?

J: Tokio, Moskva, Bokuda

6. «Kelmadi» g'azali necha baytdan iborat?

J: 7 baytdan

7. «Kelmadi» g'azali vaznini toping. J: Ramali musammanl mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun)

8. «Kelmadi» g'azalidagi radif vazifasida kelgan o'zbekcha so'zlarni toping.

J: Uyqu, qorong'u, kulgu, suv, o'tru, qayg'u

9. «Kelmadi» g'azalidagi radif vazifasida, kelgan forscha so'zlarni toping. J: Gulro', badxo'

10. «Kelmadi» g'azalida qaysi san'at asosiy ifoda ya tasvir vositasiga aylangan?

J: Tazod – qarshilantirish san'ati

11. Mumtoz she'riyatimizdagi «begona bayt» tushunchasi nima? J: Maqta'dan oldingi bayt

12. Abdulla Oripov «begona bayt»ni qanday ta'riflagan? J: Bu baytda sholr kimni maqtagini kelsa, maqtaydi, kimni yomon ko'rsa, undan alamini oladi, g'azal umumyo'nalishiga u qadar bog'lanmaydiganroq gapi bo'lisa ham, shu yerda aytib qoladi

13. «Kelmadi» g'azalidagi qaysi bayt «begona bayt»?

J: Tolibi sodiq topilmas, yo'qsakim qo'ydi qadam, Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqe o'tru kelmadi

14. «Kelmadi» g'azali maqta'sida «boda» so'zi necha marta takrorlangan? J: 2 marta

15. Tasavvuf adabiyotida «boda, may, chog'ir, sharob» timsollari nimani bildiradi? J: Ilohly Ishqni

16. Badiiy timsol nima?

J: Asli, suvrat, rasm degani. Suvrat esa narsaning o'zi emas, u haqda ma'lumot beradi

17. May la'rifida kelgan g'azallar qanday ataladi?

J: Rindona g'azallar

18. Navoiyning qaysi g'azali «Munojot» kuyi bilan aytildi? J: «**Kelmadi**» g'azali

19. «Kuyi shunday bolsa, g'amning o'ziga Qanday chiday oldi ekan odamzod?!» misralari kimning qaysi she'ridan olingan? J: Abdulla Oripovning «Munojotni tinglab» she'ridan

20. «Kelmadi» g'azali qaysi devondan olingan?

J: «**Badoe' ul-vasat**» devonining 608-g'azali

21. Navoiy «Munshaot» asarida hukmdorlardan biriga jo'natalgen maktubda ikki narsani maslahat tariqasida qatlq shart qilib qo'yadi. Bular qaysilar? J: Birinchisi: Haq taolo amriga to'la itoatda bo'lib, buyurgan ishlarini so'zsiz bajarish; ikkinchisi: Tangri man etgan ishlar (nahy)ni qilmaslik. Man ettilgan ishlardan tiyilishning hech birl esa «chog'ir tarkicha bo'lmas»

22. «Qilg'il» g'azali necha baytdan iboral?

J: 8 baytdan

23. «Qilg'il» g'azalidagi radif bo'lib kelgan arabiylar so'zlar qaysilar? J: **Fan, vatan, rasan, kafan**

24. «Qilg'il» g'azalida radif vazifasida kelgan forsiy so'zlarni toping. J: **Ko'hkan, shikan, anjuman**

25. «Qilg'il» g'azalidagi radif bo'lib kelgan o'zbekcha so'zni toping. J: **Tikan**

25. «Qilg'il» g'azalning birinchi baytida Navoiy qanday san'atdan foydalangan? J: **Tajnis**

26. Soch «Qilg'il» g'azalida qanday ramziy ma'no ifodalab kelgan? J: **Alloh sirlariga yetishga bir ishora**
27. «Qilg'il» radifli g'azal qaysi devonga kiritilgan? J: **«G'aroyib us-sig'ar» devonining 371-g'azali**
28. «*Firoq tog'ida topilsa, tufrog'im, ey charx, Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il*» baytidagi «ko'hkan» kimning timsoli? J: **Farhod timsoli**
29. Qaysi shoir g'azalida kuz kelib, xazon sipohi yurish boshlasa, ey bog'bon, bu bog' tomida ignadan tikan qilib qo'ysang ham monelik qilolmaydi deya umrning o'tkinchiligiga, ishq yo'lida oshiqning imkoniyatlari ozligiga, vaqt g'animalligiga ishora qilinadi? J: **Navoly g'azalida**
30. «Bo'ldum sanga» g'azali necha baytdan iborat? J: **7 baytdan**
31. «Bo'ldum sanga» g'azali qaysi vaznda yozilgan? J: **Ramali musammaní mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun)**
32. Turkiy she'riyat uchun eng an'anaviy bo'lgan vazn qaysi? J: **Ramali musammaní mahzuf**
33. «Bo'ldum sanga» g'azalidagi «Jomi Jam» so'zi qanday ma'noni anglatadi? J: **Ko'ngilda Allah aks etishiga ishora**
34. «Bo'ldum sanga» g'azalidagi «Xizr suvi» qanday ma'noni bildiradi? J: **Abadiy yashashga, ya'ni Yaratgan vasliga yetishga ishora**
35. «Bo'ldum sanga» g'azalida qanday undalmalar mavjud? J: **Ey parl paykar, ey ko'ngul, soqiyo**
36. «Bo'ldum sanga» g'azalining matla'sida qanday badiiy san'atdan foydalanilgan? J: **Tajnis san'atidan**

37. «Bo'ldum sanga» g'azali qaysi devondan olingan?`

J: «G'aroyib us-sig'ar» devonining 16-g'azali

38. «Deyin» g'azali necha baytli?

J: 7 baytli

39. «Deyin» g'azalida qanday san'atdan foydalaniłgan? J: **Raddul-matla'** (matla'nı takrorlash)

40. «Deyin» g'azalida «deyin» so'zi necha marta takrorlangan? J: **20 marta**

41. «Deyin» g'azalida «deyin» so'zi radifda necha marta takrorlangan? J: **8 marta**

42. «Deyin» g'azalidagi qaysi baytdan tashqari boshqa baytlardagi birinchi misralarda ichki qofiya ohangdoshligi mavjud? J: **Maqta'da ichki qoflya yo'q**

43. «Deyin» g'azali «Xazoyin ul-maoniý» kulliyotining nechanchi devoniga kiritilgan?

J: 2-devoni «Navodir ush-shabob»ning 483-g'azali

44. «Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati» g'azalining hajmi qancha? J: **7 bayt**

45. «Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati» g'azalida qaysi badiiy san'atdan foydalaniłgan?

J: **Savol-javob san'ati**

46. «Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati» g'azalida shoir nimalarga savol beradi?

J: **Jonga, jismga, bag'irma, ko'ngulga, ko'zga**

47. «Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati» g'azalidagi qaysi obraz yig'lab yuboradi? J: **Ko'z**

48. «Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati» g'azalidagi lirik qahramon ishqiga haqiqiy «aybdor» kim?

J: **Azal qismati**

49. «Jong'a chun dermen...» g'azalida lirik qahramon qaysi baytlarda qaysi obrazlar bilan savol-javob qiladi?

J: Jon – birlinchi bayt, jism – ikkinchi bayt, bag'ir – uchinchchi bayt, ko'ngil – to'rtinchchi bayt, ko'z – beshinchchi va oltinchchi bayt

50. «Jong'a chun dermen...» g'azalida o'zining bunday vaziyatga tushib qolishiga «bunga o'tlik bag'irming hirqati sabab bo'ldi», deya javob bergan a'zo qaysi? J: Jism

51. «Jong'a chu dermen...» g'azalida lirik qahramon nimaga g'azab qiladi? J: Ko'ngilga

52. «Jong'a chun dermen...» g'azalida lirik qahramon qaysi a'zoga «Ey tardomani yuzi qaro», deb murojaat qiladi? J: Ko'zga

53. «Jong'a chun dermen...» g'azalining vazni?

J: Ramali musammanl maqsur yoki mahzuf (follotun foilotun foilotun follun)

54. «Jong'a chun dermen...» g'azali qaysi devonga kiritilgan? J: «Favoyid ul-kibar»ning 597-g'azali

55. Navoiyning qaysi g'azalida fikr ketma-ketligi tadrij asosida rivojlantiriladi? J: «Yo'q» radifli g'azall

56. «Yordin ayru ko'ngil mulkedurur sultoni yo'q, mulk-kim sultoni yo'q, jismedururkim joni yo'q» deb boshlanuvchi g'azal qaysi devondan olingan?

J: «G'aroyib us-sig'ar»ning 310-g'azall

57. Qaysi shoir yordan ayri ko'ngilni sultoni yo'q mamlakatga, sultoni yo'q mamlakatni esa joni yo'q jismga o'xshatadi? J: Navoly

58. «Yo'q» radifli g'azalda Navoiy jonsiz jismni nimaga qiyoslaydi? J: Gul-u rayhoni yo'q bir qora tuproqqa

59. Gul-u rayhoni yo'q qora tuproq nimaga o'xshatiladi? J: **Porlab turgan oyи yo'q qorong'i kechaga**

60. «Yo'q» radifli g'azalning beshinchi baytida hayot sarchashmasi yo'q zulmat nimaga qiyoslanadi?

J: Hayot sarchashmasi yo'q zulmat lirik qahramonni do'zaxiy kimsaning jannatdan noumidligl haqlida so'zlashga undaydi, do'zax esa shunday bir xumordirkl, unda mastlikning imkonni yo'q. Mastlik deganda shoir ishqni, ya'ni Yaratganga intilishni ko'zda tutgan

61. «Yo'q» radifli g'azalning vazni?

J: Ramali musammani maqsur yoki mahzuf (follotun follotun follotun foilun)

62. «Fano tariqida har kimki hosil etti rusux...» g'azali qaysi devonga kiritilgan?

J: «**Navodir ush-shabob**»ning 107-g'azali .

63. «Fano tariqida har kimki hosil etti rusux...» g'azalida qaysi toifa kishilari bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi?

J: Ahli fano – tasavvuf vakillari va rivo-yu zuhd ahli – ko'zbo'yamachilik bilan o'zini tasavvuf ahli deb ko'rsatib yurgan, aslida zohidlik darajasidan narg'a o'tmagan, Allahga Ishqning ta'mini totmagan, uni dildan his qilolmaydigan soxta, yolg'onchi kishilar

64. «Fano tariqida har kimki hosil etti rusux...» g'azalining maqta'sida Navoiy haqiqiy shayx va soxta shayxlarni nimaga o'xhatadi?

J: Haqiqiy shayx – shakar beradigan qamish, soxta shayx – lux, ya'ni qishda qovun oslladigan qo'g'a

65. Navoiy qaysi g'azalida soxta shayxlami qattiq tanqid ostiga oladi? J: «**Shayx**» radifli g'azalida

66. «Shayx» radifli g'azal qaysi devondan o'tin olgan?

J: «Navodir ush-shabob»ning 112-g'azali

67. «Shayx» radifli g'azalning maqla'sida shoir qaysi badiiy san'atdan foydalangan?

J: **Ruju'** – qaytish san'atidan

68. Soxta shayxlarni Navoiy «loda» deb ataydi. Bu so'zning ma'nosi? J: **Ahmoq, befahm, hayosiz**

69. «Shayx» radifli g'azalning to'rtinchi baylida soxta shayxnинг kirdikorlar qanday tasvirlanadi?

J: **Riyo dengizga tama qayig'ini solib, hassasini uni haydash uchun xoda, ya'ni eshkak qilib olgan**

70. «Shayx» radifli g'azalning beshinchchi baylida soxta shayx qanday qoralanadi?

J: U odamlarni ovlash uchun hiyla-nayrang (tazvir) qorqonini yoyadi-da, bu ovga tayyorgarlik ko'rgan shayx unga go'yo tasbeh donalarini don qilib sochadl

71. «Shayx» radifli g'azalning nechanchi baylida Navoiy soxta shayxlarni «moda shayx» deb ataydi?

J: **To'qqizinchi baytda**

72. Navoiyning qaysi g'azali sho'rolar davrida noto'g'i talqin qilingan? J: «**Shayx» radifli g'azall**

73. «Kamol kasbiga dalolat-u nuqsonidin izhani malolat...» qit'asi qaysi devonga kiritilgan?

J: «**G'aroylb us-slg'ar»ning 10-qit'asi**

74. Navoiyning «Xazoyin ul-maoniyl» devonlariga kiritilgan qit'alariga qo'yilgan nasriy sarlavhalar qanday vazifani bajaradi? J: **Qit'adagi ma'no-mazmun, mohlyatni ochishga xizmat qilladi va kitobxonni she'rly asarni o'qlishga tayyorlaydi**

75. «Kamol et kasbkim...» qit'asi sarlavhasiniň ma'nosini toping?

J: **Kishi o'zini kamolga yetkazishni kasb qilib ollshi kerak, aks holda, nuqson yuzaga kelishi Izhor etilgan**

76. «Kamol et kasbkim» qit'asida kamolga yetishni o'zi-ga kasb qilib olmagan kishi nimaga qiyoslanadi? J: **Dun-yodan kamolga yetmasdan o'tmoq – xuddi hammomga kirib, chala yuvinib, nopol holda chiqqanday gap**

77. Navoiyning qaysi qit'asi shukronalik da'vati bo'lib yangraydi? J: **«Falokatdin ayog'iga kafsh ba'lmaq'anga chun kafsh uchun ayog'i bor shukr vojbdur» qit'asi**

78. «Ulki, iflos ayog'ingda» deb boshlanuvchi qit'a qaysi devonga kiritilgan? J: **«Badoe' ul-vasat»ning 41-qit'asi**

79. Navoiyning qaysi qit'asi sarlavhasidan oyoqqa kiyishga kavushi yo'q kishi kavush kiyish uchun oyog'i beriliga shukrja qilsin, unga shu vojib degan g'oya kelib chiqadi?

J: **«Ulki, iflos ayog'ingda» deb boshlanuvchi qit'a-dan**

80. Mustaqil o'qish uchun berilgan g'azallardan par-chalar:

– Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma et axloqidin xursand, Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadni farzand.

«G'aroyib us-sig'ar»ning 115-g'azali

– O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur, Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.

«Badoe' ul-vasat»ning 156-g'azali

– Kimga qildim bir vafokim, yuz jaftosin ko'rmasdim? Ko'rguzub yuz mehr, ming dard-u balosin ko'rmasdim.

«Badoe' ul-vasat»ning 434-g'azali

81. Yurtimizda Bahouddin Naqshbandning tavallud to'yi qachon o'tkazilgan? J: 1993-yilda
82. Yurtimizda Abdulxoliq G'ijduvoniyning tavallud to'yi qachon o'tkazilgan? J: 2003-yilda
83. Yurtimizda Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyning tavallud to'yi qachon o'tkazilgan? J: 2004-yilda
84. Dilni Allohg'a berib, qolni ish bilan band etishga da'vat etuvchi tariqat qaysi? J: Naqshbandiya
85. Navoiyning qaysi g'azalida *garchi kesak ham asli tuproq hisoblansa-da, agar u nopl bo'lsa, unga etak tek-kizmagan avlo* – yaxshi degan filklar mavjud? J: «Fano tariqida har kimki hosil etti rusux» g'azalida
86. Navoiy «Fano tariqida har kimki hosil etti rusux» g'azalida «fano ahli» va «riyo-vu zuhd ahli»ni qiyoslar ekan, ular orasidagi farqni belgilaydigan mezon sifatida niman ko'rsatadi? J: Ishqni
87. Navoiyning qaysi g'azalida *riyo dengiziga tama qayig'ini solib, hassasini uni haydash uchun xoda, ya'ni eshkak qilib qo'ygan shayx obrazi* berilgan?
- J: «Shayx» radifli g'azalida
88. Qaysi tariqat yurtimizda to XX asr boshlariga qadar izchil davom etdi? J: Qodlriya tariqati
89. Milliy ma'naviyatimiz rivojida qaysi tariqatning ayri-cha o'rni va mavqeyi bor? J: Naqshbandiya
90. Qaysi mashhur shaxstar naqshbandiya tariqati vakillari bo'lgan? J: Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Zahriddin Bobur, Babarahim Mashrab

91. Navoiy qaysi g'azali bilan asl tasavvufni soxta tasavvufdan himoya qiladi? J: «*Shayx*» radifli g'azalida

92. Navoiyning iltimosi bilan Abdurahmon Jomiy tomonidan 1475/1476-yili yozilgan asar qaysi?

J: «*Nafohat ul-uns*»

93. Navoiyning qaysi g'azallarida soxta shayxlar qoralanadi? J: «*Shayx*» radifli g'azali, «*Fano tariqida har kimki hosil etti rusux*» g'azali

94. Navoiyning qaysi g'azali radifi o'zbekcha, qofiyasidagi sakkiz so'zdan oltitasi o'zbekcha, ikkitasi forscha?

J: «*Kelmadi*» radifli g'azalida

95. Navoiy «Tolib sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqe o'tru kelmadi» misralarida «avvalqadam» deganda kimni nazarda tutgan?

J: *Alloh ishqiga yo'l, ya'ni tasavvuf yo'lini murid-dan avvalroq bosib o'tgan pir*

96. Navoiy «Munshaot» asarida «umm ul-xabois» – yaramasliklar onasi va jami yomonliklar undan tug'iladi deya nimani qoralaydi? J: *May ichishni*

97. Navoiy qaysi g'azalida «*kuz kelib, xazon sipohi yurish boshlasa, bog'bon ignadan tikin qilsa ham unga mone-lik qilolmaydi*» deya umrning o'tkinchiligiga, ishq yo'lida oshiqning imkoniyatlari ozligiga, vaqt g'animatligiga ishora qiladi? J: «*Qilg'il*» radifli g'azalida

98. Navoiyning «*Ko'zga chun dermenki: «Ey tardoma-ni yuzi qaro, Sendin o'mish telba ko'nglumning balo-yu vahshati*» g'azalidagi «*tardoman*» so'zining ma'nosini toping. J: *Etagi ho'l*

99. «*Bosh omon bo'tsa, do'ppi topiladi*» degan ma-

qol Navoiyning qaysi asariga mos keladi? J: «Ulki, iflos ayog'inda» deb boshlanuvchi qit'asiga

100. Navoiyning qaysi g'azalida zimdan qo'llangan talmeh mavjud? J: «Qilg'il»

101. Qaysi she'riy janr g'azal kabi qofiyalanib, faqat unda matla' yo'q? J: Qilt'a

102. Qofiyalanishi bir xil bo'lgan janrlarni toping.

J: G'azal, mustazod

103. Navoiy qalamiga mansub «Qilg'il» g'azalining nechanchi baytlarida jon va o'llim tushunchasi tilga olinadi?

J: 7 – 8-baytlarida

104. Navoiy «Deyin» g'azalida nega aynan yor go'zalligi belgilarni ta'riflashni bosh masala qilib qo'ygan?

J: Muhabbat darajasini bildirish uchun

105. «Deyin» g'azalining qaysi baytlaridagi birinchi misralarda ichki qofiya mavjud?

J: Maqta'dan boshqa baytlarida

106. «Deyin» g'azalida Navoiy yarning moviy ko'ylik va gulrang qabo kiyganini g'azalning nechanchi baytida tasvirlaydi? J: 5-baytda

107. «Jong'a chu derman» g'azali qaysi jihatdan «Farhad va Shirin» dastoniga o'xshaydi?

J: Savol-javob usulidan foydalanilgan bilan

108. Navoiy «Jong'a chu derman» g'azalida ishq tasviri uchun qanday ohorli (original) badiiy usul qo'llagan?

J: Savol-javob usuli

109. «Jong'a chu derman» g'azalida oshiq nimaga «g'azab qiladi», nimaning «yoqasidan oladi»? J: Ko'ngilga g'azab qiladi, ko'zning yoqasidan oladi

110. Navoiy «Yo'q» radifli g'azalining 5-baytida do'zaxiy kimsaning jannatdan noumidligi haqida so'zlaydi, do'zax esa shunday bir xumordirki, unda mastlikning imkonini yo'q deydi. Shoir «mastlik» deganda nimani nazarda lutgan?

J: Ishqni, ya'ni Yaratganga intillishni

111. «Tarixda hech kim turkiy tilda Navoiychalik «ko'p va xo'b» («yaxshi») asarlar yozgan emas». Ushbu fikrlarni kim aytgan?

J: Zahiriddin Bobur

112. Ramal bahrining ruknini toping. J: Foilotun

113. Ramal bahrining taqte' (paradigma)sini toping.

J: - V - -

114. Ramali musammani mahzuf vaznining ruknlarini toping. J: Foilotun – foilotun – foilotun – foilun

115. Ramali musammani mahzuf vaznining taqte' (paradigma)sini toping. J: - V - - / - V - - / - V -

116. «Kelmadi» radifli g'azalidagi qaysi tushuncha tasavvufni, Alloh ishqini bildiradi? J: Yo'll

117. Navoiyning qaysi g'azali matla'sida tajnis san'ati qo'llangan? J: «Qilg'il» radifli g'azali

118. «Takovar» so'zining ma'nosini toping.

J: Ya'rg'a ot

119. Navoiyning qaysi g'azalida bayramlarda otlarning oyog'iga hino bog'lash odati tilga olingan?

J: «Qilg'il» g'azalida

120. Navoiyning qaysi g'azalida Odam Atoning loydan yaralganligiga ishora mavjud? J: «Qilg'il» g'azalida

121. Navoiyning qaysi g'azalida umrning o'tkinchilligi-

ga, ishq yo'llida oshiqning imkoniyatlari ozligiga, vaqt g'ani matilgiga ishora qilinadi? J: «Qilg'il» g'azalida

122. «Jong'a chu derman...» g'azalda lirik qahramon qaysi a'zoga «yuzi qaro» deb murojaat etadi? J: Ko'z

### NODIRA (1792 – 1842)

1. Nodiraning asl ismi kim? J: **Mohilar oyim**
2. Nodira o'zbekcha she'rlariga qaysi taxalluslarni qo'yan? J: **Nodira, Komilla**
3. Nodira forscha she'rlerida qaysi taxallusni qo'llagan? J: **Maknuna**
4. Nodiraning onasi va otasi ismini toping. J: **Rahmonqul otaliq va Oyshabegim**
5. Nodira qachon Umarxoniga turmushga chiqqan? J: **1807-yilda**
6. Qaysi shoiralaming elga tanilishida Nodiraning xizmati beqiyos? J: **1.Jahonotin Uvaysiy 2.Mahzuna 3.Dilshod Barno**
7. O'g'illarining ismi? J: **Muhammad Alison, Sulton Mahmudxon**
8. Nodira haqidagi ushbu ta'rif kimniki: «Aql-u donish va yaxshi fazilatlari bilan nodirai davron»? J: **Hotif**
9. Nodiraga bag'ishlangan asar? J: **Nadir (Uzlat)ning «Haft gulshan» (Yetti gulshan) asari**
10. Nodiraning bizgacha nechta devoni yetib kelgan? J: **2 ta**
11. Nodira devonida nechta g'azal mavjud? J: **189 ta**
12. Fors tilidagi devoni qanday nomlanadi? J: **«Devoni Maknuna»**

13.Uvaysiy qaysi asarida Nodiraning ijoddagi salohiyati, turkcha va forscha she'riyatining shuhrati haqida ma'lumot beradi? J: «**Voeoti Muhammad Alixon**»

14. She'rlaridan namunalar:

- Jilva ko'ssatdi chu ul sarvi diloro bog' aro,  
Chashmi qumri bo'ldi bir chashmi tamoshlo bog' aro.
- Kel sanga, ey shahi jahon, mamlakati jahon fido,  
Diydalarimga qo'y qadam har qadamingga jan fido.
- Na gul sayr ayla, na fikri bahor et,  
Jahondin kech, xayoli vasli yor et.
- Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen,  
Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi izomimni.

15. Ushbu she'rdagi murojaat kimga yoki nimaga qaratilganligini toping. «Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin, G'amim ko'p, ... , sen bexabarsen holi zorimdin». J: **Ey ko'ngul**

16. Qaysi shoiralarning taqdiri o'xshash?

J: **Nodira va Zulflya**

17. Nodiraning ayrim she'rlariga naziralar bitgan ijod-korni toping. J: **Furqat**

18. Nodiraning firoqnomalarini shartli ravishda necha turga bo'lish mumkin? J: 1) **Firoqnomma ruhidagi turli lirik asarlar**. 2) **Maxsus «Firoqnomma» muashshari**

19. Nodira firoqnomalarining boshqa ijodkorlarnikidan farqi nimada? J: **Ularda bevosita Umarxonidan ayrlilq kabi dunyoviy dard-alam bilan tasavvufiy hijron uyg'unlashib ketgan**

20. Nodiraning muashshar shaklida yozilgan firoqnomasi nimaga bag'ishlangan?

J: Turmush o'rtog'l Umarxon vafotiga

21. «Firoqnom» qanday boshlanadi?

J: Oh kim, behad menga javr-u jafo aylar falak, Furqat Ichra qismatim dard-u balo aylar falak

22. «Firoqnom» she'rining naqoratini toping.

J: Hech kim, yo rab, jahonda yordin ayrlimasun, Jondin ortuq, mehribon dildorlidl ayrulmasun

23. «Firoqnom» muashshari necha banddan iborat?

J: 10 band, jami 100 misra

24. «Firoqnom»ning nechanchi bandlarida radif qo'llangan, nechanchi bandlarida qo'llanmagan?

J: 1-, 2-, 5-, 7-, 8-bandlarda radif qo'llangan, qolgan besh band radifsliz qofiyalar bilan tugaydi

25. «Firoqnom» muashsharinling 1-bandida shoira taqdirini nimaga bog'lab tushuntiradi? J: Falakka

26. «Falak» so'zi she'riyatda qanday ma'noni anglatadi? J: Falak – osmon, koinot, taqdir, dunyo, tarix, zamon, keng ma'noda Alloh

27. «Firoqnom» muashsharining nechanchi bandida shoira yori bilan o'tkazgan damlarini eslaydi?

J: 3-bandida

28. «Firoqnom» muashsharining nechanchi bandida hijron nuqson emas, qaytanga kamolot belgisi sifatida tushuntirilgan? J: 3-bandda

29. «Firoqnom» muashsharining nechanchi bandi «qaydasen, yorim», deya yorga murojaat bilan boshlanadi? J: 4-band

30. Qaysi band «*Bir kelib holimni sultonim tamosho qilmadi*» misrasi bilan boshlanib, keyingi misralarda talmih

san'ali asosida Sharq adabiyotida hijron azobini chekkan oshiq-ma'shuqlar bir-bir tilga olinadi? J: **5-bandda**

31. Nechanchi bandlarda hasbi hol bilan bog'liq jihatlar kuchliroq? J: **7- va 8-bandlarda**

32. Nechanchi bandda yordan shikoyat kuchayib, u va'da berib, so'zida turmaganlikda ayblanadi? J: **8-bandda**

33. «*Menga sensiz dard uzra dard-u alam uzra alam, Dard – yor-u, g'ussa – hamdam, g'am – farovon, aysh – kam*» misralari nechanchi banddan olingan? J: **6-banddan**

34. Oh-nola chekish tasavvuf adabiyotida nimaga ishora hisoblanadi? J: **Ishqning komil bo'lganiga ishora**

35. Nodira «Firoqnama» muashsharida qaysi taxallusini qo'llaydi? J: **Komilla**

36. Nechanchi bandda mug'anniya murojaat qilinadi? J: **10-bandda**

37. «Firoqnama» muashsharida qaysi, g'oya kuchli targ'ib qilinadi? J: **Sadoqat, vafo g'oyasi**

38. «Firoqnama» muashshariga hamohang she'rni toping. J: **Abdulla Orlpovning «Ayol» she'ri**

39. «*So'ngra qilg'on va'dalarni barcha yolg'on ayladi, Yo magar ul ahd-u paymondin pushaymon ayladi*» misralari «Firoqnama»ning qaysi bandidan olingan? J: **8-banddan**

40. «Firoqnama»ning qaysi bandi «*Sen qilib azmi safar, men dard ila mahjurman*», degan misra bilan boshlanadi? J: **9-band**

41. Nodiraning mustaqil o'qlish uchun berilgan g'azal-laridan parchalar:

– Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj.

Kim azizi elni qilur xor ehtiyoj.

- Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,  
G'amim cho'x, ey ko'ngil, sen bexabarsan holi zorim-  
din.
- Bo'ldi ul fursatki, tarki suhbatli olam tutay,  
Qon to'kib kuz mardumidin, shevayi motam tutay.
42. Uchtadan taxallusga ega shoirlar nomini toping.  
**J: Nodira, Hamza**
43. «Firoqnama» muashsharining nechanchi bandlari  
radifli qofiyalar bilan tugaydi? J: 1-, 2-, 5-, 7-, 8-bandlari
44. «Firoqnama»ning nechanchi bandida «nuqson» va  
«kamol» tushunchalari bir-biriga tazod qilingan?  
**J: 3-bandda**
45. «Firoqnama»ning nechanchi bandi «Bir kelib holim-  
ni sultonim tamoshlo qilmadi» misralari bilan boshlanadi?  
**J: 5-band**
46. «Firoqnama»ning nechanchi bandida Nodira *bir oh cheksam, charxning bori imorati kuyib kul bo'ladi deb yoza-*  
di? J: **10-bandda**
47. «Firoqnama»ning nechanchi bandida lirik qahra-  
monning boshiga tushgan kulfatlar aybdorini «charxning  
qari kampiri» deb shikoyat qiladi? J: **4-bandda**
48. Qaysi so'z «charxning qari kampiri» ma'nosini bildi-  
radi? J: **Pirazoli charx**
49. «Firoqnama»ning nechanchi bandida shoira «rah-  
bar», «baxt», «davlat», «iqbol» so'zlarini shunday ustalik  
bilan ishlataladiki, bir qarashda, baxt toleimga, vaslimga  
rahbarlik qilmadi deyilgan, zimdan esa menga davlatga  
rahbarlik qilish nasib etdi-yu, bu visol o'rmini bosmaydi-ku  
degan o'kinch ifodalangan? J: **7-band**

50. «Firoqnama»ning nechanchi bandlarida mutlaq qofiya qo'llangan? J: 4-, 9-, 10-bandlarida

51. Nечanchi bandlarida «falak» haqida so'z boradi? J: 1 – 2-bandlarida

52. Nechanchi bandda «Hijron nuqson emas, kamol-dir» deyiladi? J: 3-bandda

53. Kulfat yuzni kahrabodek qilgani, ya'ni sarg'aytirgani nechanchi bandda ifodalangan? J: 1-bandda

54. Ayrilik gut bilan bulbulni «bebarg-u navo» qilganini ayrib nechanchi bandda fig'on chekadi? J: 1-bandda

55. 2-bandda qo'llangan «kasbi xush etsam» iborasi-ning ma'nosi nima? J: Aqlimni yig'ib olay desam

56. Nechanchi bandda yor bilan hasratlashadi? J: 4-bandda

57. Nechanchi bandda yoriga «sultonim» deb murojaat qiladi? J: 4-bandda

58. Nechanchi bandda yoriga «ey shahriyori muh-taram» deb murojaat etadi? J: 5-bandda

59. El-ulus esa shoirani shu davlat bilan masrur, ya'ni xursand deb hisoblaydi. Holbuki, yorsiz kechayotgan saltanat saltanat deb hisoblamasligi nechanchi bandda o'z aksini topgan? J: 9-bandda

## MUSAMMAT VA MUASHSHAR

1. «Ipga terilgan marvarid» ma'nosini bildiruvchi janrnini toping. J: Musammat

2. Musammallar yaratilish xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'lindi?

- J: 2 turga: mustaqil va tazmin musammatlar
3. Ta'bi xud qanday musammat turi?
- J: **Mustaqil musammat turi**
4. Biror g'azal asosida, zaminida yaratilgan musammatlar qanday nomlanadi? J: **Tazmin musammat**
5. Qit'aning g'azaldan farqi qanday?
- J: **Qit'a ham baytlardan tashkil topadil, ammo uning matla'si yo'q: xuddi g'azalning o'rtaсидаги bir necha baytini yulib olganga o'xshaydi**
6. Musammatlar bandlardagi misralarning soniga qarab necha turga bo'linadi? J: **8 turga**
7. Har bir bandi uch misradan tashkil topgan musammat turi qanday ataladi? J: **Musallas**
8. Har bir bandi to'ri misradan tashkil topgan musammat turi qanday ataladi? J: **Murabba'**
9. Har bir bandi besh misradan tashkil topgan musammat turi qanday ataladi? J: **Muxammas**
10. Har bir bandi olti misradan tashkil topgan musammat turi qanday ataladi? J: **Musaddas**
11. Har bir bandi yetti misradan tashkil topgan musammat turi qanday ataladi? J: **Musabba'**
12. Har bir bandi sakkiz misradan tashkil topgan musammal turi qanday ataladi? J: **Musamman**
13. Har bir bandi 9 misradan iborat musammat qanday nomlanadi? J: **Tasne', mustasne'**
14. Har bir bandi 10 misradan iborat musammat qanday nomlanadi? J: **Mashru', muashshar**
15. Musammatlar qofiya tizimiga ko'ra necha turga bo'linadi? J: **4 turga**

## ABDURAUF FITRAT (1886 – 1938)

1. Fitratning otasi va onasining ismlarini toping.

J: **Abdurahimboy (sarrofilk va savdogarchilik bilan tirkchilik qilgan) va Bibijon** (to'la nomi Nastarbibi, ayrim manbalarda Mustafbibi deb aytildi)

2. Fitratning ukasi va singlisining ismlarini toping.

J: **Abdurahmon, Mahbuba**

3. Fitrat qachon Turkiyaga o'qishga borgan?

J: **1909-yilda**

4. Fitrat Turkiyada qanday jamiyat tuzgan?

J: **«Buxoro tamimi maorif jamiyat»**

5. Fitrat Turkiyada nechanchi yilgacha dorulmuallimin – muallimlar gimnaziyasida o'qidi?

J: **1913-yilning oxirigacha**

6. Dastlabki yirik asari qanday nomlanadi va qachon e'lon qilingan?

J: **1909-yilda fors tilida yaratilgan «Munozara» (Hindistondagi bir farangi ila buxorolik mudarrisning Jadid maktablari xususinda qilg'an munozarası) kitobi**

7. Fitratning Turkiyada yozgan asarlarini toping.

J: 1. **«Sayha» she'riy to'plami** 2. **»Munozara»**

3. **«Hind sayyohi bayonoti»**

8. Fitratning fors tilidagi she'riy to'plamini toping.

J: **«Sayha» she'rly to'plami**

9. Fitratning fors tilida yaratgan asarlarini toping.

J: **«Sayha», «Munozara»**

10. Fitratning 1912-yilda yaratilgan nasriy asari qaysi?

J: **«Hind sayyohi qissasi» asari**

11. Fitrat qayerlarda jadid maktablarini ochgan?

J: **Shahrlsabz va Karkida**

12. Fitratning pedagogik asarlarini toping.

J: «**Muxtasar islam tarixi**», «**O'qu**»

13. Fitrat qaysi siyosiy partiyani tuzgan?

J: «**Yosh buxoroliklar**»

14. Fitrat tomonidan tuzilgan «Yosh buxoroliklar» siyosiy partiyasi keyinchalik necha firqaga bo'ljinib ketdi va ularga kimlar rahbarlik qilgan?

J: 2 ta firqaga: «o'ng qanot»ga Abduvohid Burhonov, «chap qanot»ga Fitrat rahbarlik qilgan

15. Fitrat nechanchi yildan Samarqanddag'i «Hurriyat» gazetasiga muharirlik qila boshladi?

J: **1917-yildan 1918-yilgacha**

16. Fitrat «Hurriyat» gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonida bolsheviklar haqida qaysi fikrlarni yozib, ularning yovuzliklarini oldindan bashorat etgandi? J: «**Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi: bolshevik balosil!**»

17. Qaysi ijodker Turkiston muxtoriyati tashkil qilingan kunni «Milliy laylatulqadrimiz» deb atagan? J: **Fitrat**

18. Fitrat qachon Toshkentda «Chig'atoy gurungi» nomli ilmiy-adabiy-madaniy tashkilot tuzdi? J: **1918-yilda**

19. «Chig'atoy gurungi» qatnashchilar o'z asarlarini qaysi gazeta va jurnallarda e'lon qilib bordilar?

J: «**Ishtiroklyun» gazetasida, «Qutilish» gazetasi-da, «**Tong**» jurnalida**

20. Fitrat Sho'rolar davrida qaysi lavozimlarda ishlagan? J: **Tashql ishlar vazirli, Maorif vazirli, Markazly iroqo'm raisining o'rinnbosari**

21. Qaysi ijodkor birinchi o'zbek professori bo'lgan?

J: Fitrat

22. Fitratga professorlik unvoni qaysi institut lomonidan berilgan? J: Leningrad akademiyasi tomonidan

23. Fitratning qaysi asarlari Moskvada nashr etilgan?

J: «Abulfayzxon» dramasi, «Shaytonning tangriga isyonii» nomli dramatik dostoni

24. Fitrat qachon birinchi bor Cho'lpon bilan Toshkentda uchreshdi? J: 1918-yilda

25. Fitratning qaysi asarlari o'zbek teatrлarida muvaffaqiyallи sahnalashtirilgan? J: 1. «O'g'uzxon» (1920) 2. «Chin sevish» (1920) 3. «Shaytonning tangriga isyonii» (1924) 4. «Abulfayzxon» (1924) 5. «Arslon» (1926)

26. Fitratshunos olimlarni toping.

J: H.Boltaboyev, B.Qosimov, I.G'anlyev, V.Ergashev

27. Fitratning «Aruz haqida» kitobi qachon e'lon qilin-gan? J: 1936-yilda

28. Fitrat kimning taklifi bilan 1920-yilda Buxoroga qay-ladi? J: Do'sti Fayzulla Xo'jayev taklifi bilan

29. Fitratning Moskvada yozilgan ilmiy-ommabop ocherklari va darslik qo'llanmalarini toipng. J: «Bedil» il-miy-ommabop ocherki, «O'zbek tilli qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob)», «Sarfi zaboni tojik», «Adabiyot qoidalari» darslik-qo'llanmaları

30. Fitratning Samarqandda yaratilgan ilmiy asarlarini toping. J: «Eng eski turkiy adabiyot namunaları», «O'zbek adabiyoti namunaları», «Sharq shaxmati», «Q'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», «Fors shoiri Umar Hayyom»

31. Qaysi ijodkor «Sharq shaxmati», «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» nomli ilmiy asarlar yozgan?

J: Fitrat

32. Qaysi ijodkor Bedil va Umar Hayyom haqida ilmiy izlanishlar olib borgan? J: Fitrat

33. «Mirrix yulduziga» she'ri qanday boshlanadi?

J: Go'zal yulduz, yerlmizning eng qadrli tuvg'oni

34. «Mirrix yulduziga» she'ri qanday yakunlanadi?

J: Bormi senda qorin-qursoq yo'lida, Elin, yurtin, borin-yo'g'in satqonlar

35. «Mirrix yulduziga» she'ri qachon yaratilgan?

J: 1920-yilda

36. Mirrix (Mars) sayyorasi qaysi oyning horsti sayyorasi hisoblanadi? J: Shamsiy (Quyosh) yil hisobida hamal (mart) oyining

37. Mirrix sayyorasining xos belgisi qaysi? J: Olov

38. Nima uchun Fitrat «Mirrix yulduziga» she'rida Mirrix yulduziga murojaat qiladi?

J: Mars yulduzi jang-u jadal ramzi, yunonlarda urush xudosisi bo'lgani uchun shohr o'z o'lkasida bo'lib o'tayotgan xunrezliklar ko'lamini urg'ulab ifodalamoq uchun unl jang-u jadallar makoni – Mirrix (qonday qizil sayyora) bag'ridagi hodisalarga qiyoslaydi

39. Fitratning qaysi she'rida butun dunyo tuzugi – nizomini o'z qopchig'ini to'ldirish maqsadida buzganlar, bir o'lkanl yondirib, o'z qozonini qaynatuvchi xoqonlar qoralanadi? J: «Mirrix yulduziga» she'rida

40. Qaysi shiorning she'rida o'z yurtidagi ikki yuzli ishbuzalar, shaylonlar, o'tog'i qonini qonmay ichgan zuluk-

Iardan Urush sayyorasiga shikoyat qilayotgan qahramon obrazi mavjud? J: **Fitratning**

41. Qaysi she'rda Turkiston o'lkasi XX asr boshlarida tushib qolgan g'oyat achinarli holat o'z ifodasini topgan?

J: «**Mirrix yulduziga» she'rda**

42. Fitratning «O'gut» she'ri qanday boshlanadi?

J: **Og'lr yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda**

43. Ushbu parcha kimning qaysi she'ridan olingen? «Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal, Hurkma – kurash; qo'rqma – yopish, yorilma – qo'zg'al».

J: **Fitratning «O'gut» she'ri**

44. Fitrat qaysi she'rda o'zi va millati dardlariga najot topganidan quvonib,

• «*Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim*», deya yozadi? J: **«O'gut» she'rda**

45. «*Yigit omon bo'lsa, xavf-u xalar ya'q*» misralarining muallifi? J: **G'afur G'ulom**

• 46. «O'gut» she'ri sarlavhasi zamirida qanday ma'no bor? J: **Chaqiruv, da'vat, uyg'otish**

• 47. Ushbu she'r muallifini toping. «*Meni behuda tash-lading-ketding, Nega o'llirmading-da, tark etding*». J: **Fitrat**

48. Ushbu she'r muallifini toping. «*Yuragimning qalim, qizg'in olovi-la qaynag'on Ko'z yoshlarim, qaydasiz?*»

J: **Fitrat**

49. «*Go'zalim, bevafo gulistonim, Bog'i umrimda toza rayhonim*» deb boshlanuvchi she'rda mumtoz adabiyotimizga xos qaysi jihatlar aks etgan?

J: **Badilly o'xhatishlar, Jonlantirish, istiora, qochrim**

50. Fitratning mustaqillik yillarda (2000-yilda) necha jilddan iborat «Tanlangan asarlar»i chop etildi? J: 2 jilddan

51. Fitratning «og'ir yigit»ga murojaati bir millatning asriy istagi, qalb chaqirig'i bo'lib eshitilgan she'rini toping.

J: «O'git»

52. Qaysi o'zbek adibining birinchi yirik asari Istanbulda chop etilgan? J: **Fitrat**

53. Fitratning XX asr boshlarida Toshkentda va Turkistonning boshqa chekkalarida bo'layotgan xunrezliklardan kuyunib yozgan she'ri qaysi? J: «Mirrlx yulduziga»

54. Fitratning «O'git» she'rida kimlar millat dardiga najot sifatida tilga olingan? J: **Yigitlar**

55. O'zbek milliy she'riyati, prozasi, maorifi, tilshunosligi, adabiyotshunosligi, jamiyatshunosligi singari o'nlab sohalar oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo'shgan adib kim? J: **Fitrat**

56. «Rahbari najot» (1915), «Oila» (1916), «Begijon» (1916), «Mavludi sharif» (1916), «Abo Muslim» kabi asarlar muallifi kim? J: **Fitrat**

57. Fitrat qachondan siyosiy harakatlarga yanada faoliyoq aralasha boshlaydi?

J: 1917-yil fevral Inqilobidan keyin

58. Fitrat nechanchi yillar oraliq'ida «Hurriyat» gazetasiga bosh muharrirlik qildi? J: 1917 – 1918-yillar

59. Fitrat qaysi asarida bolsheviklar o'z yurtiga yanada ko'proq qayg'ular olib kelishini oldindan bashorat qilgandi?

J: «Yurt qayg'usi» turkum she'rларда

60. Fitrat rahbarligida tashkil etilgan «Chig'atoy gurungi» ilmiy-ma'rifiy jamiyatni necha yil faoliyat ko'rsatdi?

**J: Uch yil**

61. Qachondan e'tiboran Buxoro Jumhuriyatida turk (o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilinadi?

**J: 1921-yil mart oyidan**

62. Fitrat Fayzulla Xo'jayev ko'magida nechanchi yillarda Moskvada Sharq tillari institutida mehnat qiladi?

**J: 1923 – 1924**

63. Vaqtli malbuotda, ketma-ket uyushtirilgan turli majlislarda «*millatchi*», «*turkparast*», «*islomparast*», hatto «*g'arbning josusi*» sifatida qorالangan shoir kim? J: **Fitrat**

64. Fitratga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan qanday mukofot va orden berilgan?

**J: Alisher Navoly nomidagi Davlat mukafoti va «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni**

65. «*Bormi senda o'ksuz yo'qsulning qonin Gurunglashib chog'ir kabi ichkanlar?*» misralarida qo'llanilgan «*o'ksuz*» so'zining ma'nosini toping. J: **Baxtsiz**

66. «*Bormi senda o'ksuz yo'qsulning qonin Gurunglashib chog'ir kabi ichkanlar?*» misralarida qo'llanilgan «*chog'ir*» so'zining ma'nosini toping. J: **Sharob, may**

67. «*Bormi senda butun dunyo tuzugin O'z qopchig'in to'ldirg'ali buzg'anlar*» misralarida qo'llangan «*tuzuk*» so'zining ma'nosini toping. J: **Nizom, tartib, yashash**

68. Fitratning qaysi she'rida «*bir o'lkani yondirib o'z qozonin qaynatguchi xoqonlar*» qorالangan?

**J: «Mirrix yulduziga» she'ri**

69. «*Mirrix yulduziga*» she'ri kimlar haqida?

**J: Yurtfurushlar haqida**

70. Shoir «*Mirrix yulduziga*» she'rida kimlarni «*Qardosh*

*etin lo'y may yegan qoplonlariiga o'xshalyapti? J: Ikki yuzli ishbuzlarlar, ya'ni o'z qardoshlarini sotgan sotqinlarni*

71. «*Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal, Hurkma – kirish, qo'rhma – yopish, yo'nirma – qo'zg'al*» misralarida qo'llangan «yo'rılma» so'zining ma'nosini toping. J: **Charchama, o'tirma**

72. She'rlarining birida yorini «*munisim, hamdamim, madadkorim*» deya ulug'lagan shoir kim? J: **Fitrat**

73. O'z umrini «*bog' umrim*» deb atagan shoir kim?  
J: **Fitrat**

### **HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY (1889 – 1929)**

1. Onasining ismini toping. J: **Jahonbibi**

2. Otasining ismini toping. J: **Ibn Yamin Xolboy o'g'li**

3. Necha jildlik asarları e'lon qilingan? J: **5 jildlik**

4. Hamza taxallus tanlashda nimaga e'tibor bergan?

J: **Otası tablib bo'lganligi sababli taxallusiga Hakimzoda nomini qo'shgan**

5. Hamza qachon O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'ladi? J: **1926-yilda**

6. «*Devoni Nihoniy*» devoni haqidagi lo'g'ri hukmni toping. J: **1905-yildan buyon yozgan she'rlarini jamlagan, 214 ta she'rl bo'lgan, 1914-yilda tuzilgan**

7. Hamzaning 1915 – 1919-yillarda chop elilgan «*Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmui*» nechta turkumdan tashkil topgan? J: **8 ta**

8. Hamzaning 1914 – 1915-yillarda yaratilgan milliy romanlarini toping. J: **«Yangi saodat», «Uchrashuv»**

9. Hamzaning dramalarini toping. J: 1. «O'ch» (1914)  
2. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» (1915) 3. «Ilm hidoyati» (1916) 4. «Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi» (1916) 5. «Ochlik qurbanlari» (1916)
10. Hamzaning qaysi asarlarida davrning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalari dadil ko'tarib chiqilgan? J: «Muxtoriyat yoki avtonomiya» (1917), «Kim to'g'ri» (1918), «Tuhmatchilar jazosi» (1918), «Boy ila xizmatchi» (1918), «Loshman fojeasi» (1916 – 1918-yillar, 3 bo'limali), «Farg'ona fojeasi» (1919 – 1920-yillar, 4 bo'limali)
11. Qaysi ijodkorning adabiy taxallusi «pinhon, yashirin» ma'nosini beradi? J: HamzanIng
12. Hamzaning qaysi asarlari dramaturgiyaning gultoji hisoblanadi? J: «Maysaraning ishi» (1916), «Paranji sir-laridan bir lavha yoki Yallachilar ishi» (1926)
13. Darsliklari? J: «O'qish kitobi» (1914), «Qiroat kitobi» (1915), «Yengil adabiyot» (1914)
14. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asaridagi Maryamxonim onasining ismi? J: Sora
15. Maryamxonim bilan Mahmudxonning orasida xat yurituvchi kampirning ismi? J: Zaynab
16. Qaysi personaj Mahmudxonning otasiga: «Endi, boy afandi, janobingizdiki ma'qul, sizga hech munosibmas va ham bunisi borki, u qiz hazrati eshonga nazr bo'lgan, endi hazrati eshon murid ovidan qaytsalar, ehtimol shu oy ichida to'y ham bo'lsa», – deydi? J: Qosimjon xalfa
17. Mahmudxon otasining ismi? J: Mirzo Hamdamboy
18. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asarining ikkinchi pardasida nima haqida hikoya qilinadi?

**J: Maryamxonimning zo'r bilan eshonga nikohlani-shi va uning eshonning uyidan qochib chiqqani haqida**

19. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asarining uchinchi pardasida nima haqida hikoya qilinadi?

**J: Maryamxonimning zahar ichib Mahmudxonning qo'lida jon berishi haqida**

20. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asarining to'linchi pardasida nima haqida hikoya qilinadi?

**J: Mahmudxonning Maryamxonim qabrl ustida o'z joniga qasd qilishi haqida**

21. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asarini yozganda Hamza necha yoshda bo'lgan? J: 26 yoshda

22. Mahmudxonning yoshi nechada deb ko'satiladi?

**J: 18 yoshda**

23. Maryamxonim necha yoshda edi? J: 17 yoshda

24. Maryamxonim eshonga nechanchi xotin bo'lib tushiriladi? J: Oltinchi

25. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asaridagi qaysi personaj nomi ishtirok etuvchilar ro'yxatida bo'lgani holda sahnada biror yerda ko'rinnmaydi?

**J: Mahmudxonning otasi Mirzo Hamdamboy**

26. Qaysi asar qahramoni olli yildan beri baqqa qancha pullar surf qilib o'g'lini nega, nima maqsadda o'qitganini o'zi deyarli tushunmaydi?

**J: «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asaridagi Mirzo Hamdamboy**

27. «Faqirlik nimadan hosil o'lur?» maqolasi qachon qaysi gazetada bosilib chiqqan? J: 1914-yll 10-avgustida «Sadoyi Turkiston» gazetasining 34-sonida

28. «1912-yildan boshlab aksar kosiblar zarardanib, mardikorlikka kira boshlaganlari uchun kuchsiz mardikorlar ni bozor olmay, bu yillardan alar gadoylarga qo'shilib, 1914-yil ramazonda gadoylar boshqalarga qaraganda yuzga qirq prolsent bo'lib ketgan desak ham tof bo'lmaydir... kecha bir kafshg'a 20 tiyin olub na'l qoqub bergan usta bugun darvozalar tagida: «Rabban min, yo rab, yo ramazon!» deb qichqirmakdadiri deb yozgan ijodkor kim? J: Hamza

29. «Hamma ishga o'zingiz sabab bo'ldingiz. Dunyoni suydingiz, ammo joningizdan ortuq farzandingizni suymadingiz, mandan ko'z yumdingiz». Ushbu parcha kimning nutqidan olingen va kimga qaratilgan?

J: Maryamxonim onasiga aytgan

30. Qaysi asarda hazrati eshonni davlatiga mag'rur bo'lib harakat qilib, haqiqiy davlati – farzandidan ajralib qolgan ota-onalar obrazi mavjud?

J: «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asarida

31. «Axir uning katalakdек ko'hna hovlisi bor, to'y qayerda bo'ladi? Xo'sh, kelgan yor-do'stlar borub qayerda o'lluradi? Sharmanda bo'lamiz-kul!» Ushbu parcha kimning nutqidan olingen?

J: Mirzo Hamdamboyning nutqidan

32. «Shariat zolim emas, xoin emas. Shariat mandek bir sag'ira mazlumani san kabi bugun-erta o'lim egasi bo'lgan noinsof cholga hargiz buyurmas. Shariat ham avval mani qabul qilmog'lm bila buyuradi. Nikoh tarafaynning ijobiy qabuli bila nikohi halol bo'lur». Ushbu parcha kimning nutqidan olingen va kimga qaratilgan?

J: Maryamxonim eshonga aytgan

33. Qaysi asar qahramonlari ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni obdan egallagan, o'z oldilariga «*zulmatda qol-mish bu millatni, valanni biri quyoshi, biri mohtobi bo'lib yaratishni*» maqsad qilib qo'ygan juvonmard edilar?

J: «**Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari**» asari

34. «*Dedim-ku, otam, onam johil, dunyoparast, mol-parast. Imomlar ham shul. Sharia tushunda turuvchilarga oqcha bo'lsa bo'lun.*» Ushbu parcha kimning nulqidan olin-gan va kimga qaratilgan?

J: **Maryamxonim eshonga aytgan**

35. «*O'zing fikri eding, o'zing clima eding, zaman holindan, xalqning ma'rifatsiz, ilmsizligindan o'zing yaxshi xabardor eding-ku!*» Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: «**Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari**»

36. Hamza qaysi vazifalarda ishlagan?

J: Qo'qondagi rus-tuzem mакtabida o'qituvchi, «Kengash» va «Hurrlyat» журнallarida muharrir (1917), Farg'ona viloyatl madaniy-maorif bo'limida xodim (1918), teatr truppasida rejissyor (1919), muhtojlar uchun ochilgan mакtabda mudir (1920), Buxorodagi teatr truppasida rahbar (1921), Xorazm viloyatidagi madaniy-ma'rifly muassasalarda mudir (1921 – 1924)

37. Qaysi gazetalarda Hamzaning ma'rifatparvarlik ruhidagi o'nlab publisistik maqolalari chop etilgan?

J: «**Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona»**

38. Sho'ro adabiyotshunosligi uzoq yillar davomida qaysi ijodkor shaxsi va ijodini bir yoqlama talqin etdi, uni «sotsialistik realizm metodining o'zbek adabiyotidagi asoschisi» degan yasama sifatlar bilan «bezab» keldi? J: **Hamza**

39. Hamza Hakimzoda Niyoziy qaysi asarida markaziy qahramon qilib yoshlarni tanlaydi?

J: «**Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari**»

40. Hamzaning o'zbek dramaturgiyasini yangi taraqqi-yot bosqichiga olib chiqqan 1926 – 1927-yillarda yaratilgan dramalarini belgilang.

J: «**Paranji sirlari**», «**Maysaraning ishi**»

41. «Orzu-havas o'lса-o'lсun, milliyat, insoniyat o'imасun». Ushbu fikr qaysi qahramonga tegishli?

J: «**Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari**» asarida **Maryamxonim**

42. Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» fojiasida *Mirzo Hamdamboyning oshnasi, uzun bo'ylik, qora soqol, rasmiy kiyangan, Mahmudxonga muhabbatlik, birozjina zamondan xabardor kishi kim edi?*

J: **Abduqodirboy**

43. Hamza «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar maj-muasi» to'plamini qaysi taxallus bilan bitgan? J: **Nihoniy**

44. Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» fojiasida *Maryamxonim bilan Mahmudxon orasida xat yurituvchi 60 yoshlardagi kampir kim?* J: **Zaynab**

45. Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» fojiasida: «*Hayoti milliya ochqichlari – millat, xalq hayotini ochib, ko'ssatib beruvchi*», – deya nimaga ta'rif beriladi?

J: **Gazetaga**

46. Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» fojiasining birinchi pardasi qanday boshlanadi?

J: **Mahmudxonning Maryamxonimdan kelgan mak-tubni o'qlishi bilan**

47. Qaysi qahramon yorini unga yozgan maktublari  
ning birida: «*Ardoqli millatim, g'unchayi muhabbatim,  
suyukli afandim*», – deb ataydi? J: **Maryamxonim**

48. Qaysi qahramonga nisbatan: «*Turkistonda asrlar-  
dan beri endigina yetishgon millat joriyasi*», – deya ta'rif  
berilgan? J: **Maryamxonimga nisbatan**

49. Mahmudxon: «*Xonim afandi, oh, ikkimizga bir uqu-  
bat borga-da o'xshaydi*», – deya Maryamxonimga aytgan-  
da qaysi uqubatni nazarda tutadi? J: **Maryamxonimning  
hazrati eshonga nazr qilinganligini**

50. I parda yakunida Maryamxonimning Mahmudxon-  
ga aytgan so'nggi iltimosga to'la gapini toping.

J: **Afandim, avvalg'i marhamat, va'dadagiqa  
bo'lung, dunyoga aldanmang...**

51. «*Bu qanday jaholat zamon, qanday vahshalat zamon!  
Insoniyatni, vijdonni, adotatni, mehr-shafqatni, jondan ortuq  
farzandni aqchaga sotadurgan zamon, sotadurgan!*» Ush-  
bu fikr kimga tegishli? J: **Mahmudxonga**

52. «*Kecha oqshom Maryamxonim ... qurbanini edi, biz  
bugun insoniyat, millat qurbanini!*» Parchada nuqtalar q'rniiga  
qa'yilishi kerak bo'lgan so'zni toping. J: **Muhabbat**

53. «*Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari*» asaridan bir  
yil oldin yaratilgan drama nomini toping.

J: **Bahbudiyning «Padarkush» dramasi**

54. Qatnashuvchilar ro'yxatida ham berilmagan, vo-  
qealarga boshqalarning nutqi orqali aralashgan personaj  
qaysi? J: **Maryamxonimning otasi**

55. «*Eng yuqori darajada ochiq fikri*» deb ta'riflangan  
personaj qaysi? J: **Mahmudxon**

56. Yolg'iz qizini olti xotinlik eshonga nazr qilgan muta-assib ota obrazi qaysi asarda berilgan?

J: «**Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari**» dramasida

### **G'AFUR G'ULOM (1903 – 1966)**

1. G'afur G'ulom qachon qayerda tug'ilgan? J: 1903-yilda Toshkentning Qo'rg'ontepaga mahallasida tug'ilgan

2. Nasriy asarlarini sanang. J: «**Yodgor», «Afandi o'lmaydigan bo'ldi», «Hasan Kayfiy», «Eng rasvo namozi asr», «Mening o'g'rígina bolam»**

3. G'afur G'ulomning qaysi she'rida urushga kelgan o'g'lidan bir mujda kutayotgan jonsarak ota obrazi berilgan? J: «**Sog'inish»**

4. «Vaqt» she'ri qanday boshlanadi?

J: **G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni**

5. Ikk sheriyo to'plami qaysi? J: «**Dinamo**» (1931-yil)

6. Ikkinch sheriyo to'plami qaysi?

J: «**Tirk qo'shiqlar**» (1932-yil)

7. «**Sog'inish**» she'ri qanday boshlanadi?

J: **Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek**

8. «Vaqt» she'ri qanday yakunlanadi?

J: **Umrimiz boqiyidir, umrimiz boqiy**

9. 30-yillarda yaratilgan qissalarini sanang. J: «**Netay**», «**Yodgor**», «**Tirilgan murda**», «**Shum bola**»

10. Poemasini toping. J: «**Ko'kan**»

11. Balladalarini toping. J: «**To'y**», «**Ikki Vasiqa**»

12. G'afur G'ulom 1946-yilda qaysi asari uchun Davlat mukofoliga sazovor bo'lgan?

J: «Sharqdan kelayotirman» to'plami

13. G'afur G'ulomga akademik unvoni qachon berildi?

J: 1943-yilda

14. O'zbekiston xalq shoiri unvoniga qachon muyassar bo'ldi? J: 1963-yilda

15. «Vaqt» she'ri qachon yaratilgan? J: 1945-yilda

16. «Vaqt» she'ri qanday munosabat bilan yozilgan?

J: Fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan

17. «Vaqt» she'rida nimaning mohiyatiga nazar solindi? J: Lahza (sekund)ning

18. G'afur G'ulom «Vaqt» she'rida bir onning bahosini o'lhash uchun nimadan tosh va tarozi kerak deb ta'kidladi? J: Oltindan tarozu, olmosdan tosh

19. «Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek Diana ma'badin yoqmoq shart emas» misralari kimning qaysi she'ridan olingan? J: G'afur G'ulomning «Vaqt» she'ridan

20. «Aziz asrimizning aziz onları aziz odamlardan so'raydi qadrin» misralari kimning qaysi she'ridan olingan?

J: G'afur G'ulomning «Vaqt» she'ridan

21. «Sog'inish» she'ri qachon yaratilgan?

J: 1942-yilda

22. «Sog'inish» she'ri kimlarning umumlashma obraz'i?

J: O'zbek otalarining

23. «Sog'inish» she'rida ota kimning she'rini o'qigandan so'ng loyqa xayolotlari chashmaday tinadi?

J: Abdurqodir Bedilning

24. «Sog'inish» she'ridan olingan «Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush, Albatta, yetadi o'zin boshiga» misralari

kimning fikriga hamohang? J: Bedilning «Zolimning maqomi-qudrati, zulmi oxir-oqibat zaiflashib kuchdan qoladi. Lovullab yonayotgan olov ham bir kun kelib kulga aylanadi» degan fikriga

25. «Sog'inish» she'rida ota g'alaba kuni o'g'li kelganda bog'dan bir savat qanday mevani uzib chiqishini ta'kidlaydi? J: **Shaftoli**

26. Ushbu she'r muallifini toping. «*E o'g'lim, jonginang salomat bo'lsin, O'z bog'ing, o'z mevang danagin saqla*»

J: **G'.G'ulom**

27. Urush yillarda yaratilgan she'rлari?

J: «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'Inish», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», «Men – yahudiy»

28. «Vaqt» she'rida kapalak umri nimaga o'xshatilyapti? J: **G'uncha ochilguncha o'tgan fursatga**

29. Shuhrat qoldirmoq uchun Diana ma'badiga o't qo'yanan Gerostrat obrazi qaysi asarda berilgan?

J: **«Vaqt» she'rida**

30. Hayot sharobidan bir qultum yutmoqchi bo'lgan, damlarni g'animat deb bilgan shoir kim?

J: **G'afur G'ulom**

31. «*Balki bir g'alat o'q yo xavf-u xatar Xazinayı umrimdan yo'qoldi olmos*» misralari qaysi she'rдан olinigan?

J: **«Sog'inish» she'ridan**

32. «*Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas, Shunchalar mustahkam xonayı xurshid*» misralari qaysi she'rдан olinigan? J: **«Sog'inish» she'ridan**

33. «Sog'inish» she'rida urushga ketgan yigitning

mo'ylovidek mayin tuki bor deya qaysi mevaga ta'rif beriladi? J: **Shaftoliga**

34. «*Sog'inish» she'rida ota o'g'lini qaysi faslda urushga jo'natgan va bu davrni qaysi mevalaming pishgani bilan bildiradi? J: **Yoz faslida, anjir tugab, qovun g'arq pishgan davrda***

35. *Yetimlik nimadir, bizlardan so'ra,  
O'ninchi yillarning sargardonligi,  
Isitma aralash qo'rqinch tush kabi  
Xayol ko'zgusidan o'chmaydi sira ... satrlarining muallifi  
kim? J: G'.G'ulom*

36. G'.G'ulomning qaysi she'rida «o'zbek otasi»ning bo'rtma, umumiy, hamma uchun tanish siymosi yaratilgan?

J: «**Sog'inish**»

37. G'afur G'ulom «*Vaqt» she'rinining nechanchi bandida Diana ma'badiga o't qo'ygan shuhratparast Gerostratni tilga oladi? J: **10-band***

38. «*Aziz asrimizning aziz onlari Aziz odamlardan so'raydi qadrin» misralari G'afur G'ulomning «*Vaqt» she'ri nechanchi bandida mavjud? J: **9-band****

39. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan G'afur G'ulomga qanday orden berilgan?

J: «**Buyuk xizmatlari uchun» ordeni**

40. Hasharchi qo'shni qiz obrazi qaysi asarda uchraydi? J: «**Sog'inish» she'rida**

41. «*Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas.  
Shunchalar mustahkam xonayi xurshid» misralari qaysi she'rdan olingan?*

J: «**Sog'inish» she'ridan**

“ 42. Najot so'rab to quyoshga qadar zorlangan lirik qahramon obrazi qaysi asarda uchraydi?

J: «**Sog'inish» she'rida**

43. Bedil fikrlariga hamohang yozilgan asar qaysi?

J: «**Sog'inish»**

### **QOFIYA HAQIDA**

1. She'riy asarlarning qofiyalanishi nimani belgilaydi?

J: Janrni

2. Kam – ham so'zlari qanday qofiya hisoblanadi?

J: **To'q qofiya**

3. Allakimimni – dilimni so'zlari qanday qofiya hisoblanadi? J: **Och qofiya**

4. O'zining kelib chiqishi jihatidan qaysi nutq turi qadimiy hisoblanadi? J: **She'riy nutq**

5. She'r tuzilishida, uning musiqiyligini kuchaytirishda nimaning ahamiyati katta? J: **Qoflyaning**

6. Misra yakunida so'z, qo'shimcha, ba'zan esa so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi qanday ataladi?

J: **Qoflya**

7. Qofiyadosh so'zlarning tovush tarkibi to'la mos kelgan qofiya turi? J: **To'lliq (to'q) qofiya**

8. So'zlarning tovush tarkibi qisman mos kelgan qofiya turi? J: **To'lliqsiz (och) qofiya**

9. Dahriy – qahridan so'zлari qanday qofiya turini hosil qiladi? J: **Och qoflyani**

10. Tutun – Aloviddin so'zлari qanday qofiya turini hosil qiladi? J: **Och qofiyani**

12. «Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt Seni guldek erkalagan chaman uchun. Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt, Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?» misralarining muallifi? J: **Iqbol Mirzo**

13. Qofiyadosh so'zlarning tovush tarkibi to'la mos kelsa, bunday qofiya qanday ataladi? J: **To'liq (to'q) qofiya**

14. So'zlarning tovush tarkibi qisman mos kelgan qofiya turi? J: **To'liqsiz (och) qofiya**

15. Qofiyaiarning tartibi degan tushuncha nimani anglatadi? J: **She'r bandidagi misralarning o'zaro qofiyalanish tartibini**

### **MAQSUD SHAYXZODA (1908 – 1967)**

1. Maqsud Shayxzoda dastlabki ijod namunalarini nechanchi yildan e'lon qila boshlad? J: **1929-yildan**

2. Qaysi to'plamlari o'lgan asming 30-yillarda e'lon qilingan?

J: «**Loyiq saqchi**», «**O'n she'r**», «**Undoshlarim**», «**Uchinchil kitob**», «**Jumhuriyat**», «**O'n ikki**», «**Yangi devon**», «**Saylov qo'shiqlari**»

3. «Jaloliddin Manguberdi» dramasi qachon yozilgan?

J: **1944-yilda**

4. «Jaloliddin Manguberdi» dramasida Jaloliddin Manguberdi obrazini qaysi aktyor gavdalantirgan?

J: **Shukur Burhonov**

5. She'riy to'plamlari?

J: «**O'n besh yilning daftari**», «**Olqlishlarim**», «**Zamon torlari**», «**Shu'las**», «**Chorak asr devoni**»

6. «Toshkentnoma» dostoni qachon yozilgan?

J: 1958-yilda

7. Maqsud Shayxzodaning dostonlarini toping.

J: «Toshkentnoma», «O'rtoq mulk», «Tuproq va haq», «Chirog's», «O'rtoq», «Meros», «Ovchi qissa-si», «Iskandar Zulqarnayn», «O'n birlar», «Jenya», «Oqsoqol», «Ahmadjonning hikmatlari», «Uchinchi o'g'il», «Nurmat otaning tushi»

8. «Tushunmayman, tushunmayman, shavkatli mirzo, Taxt qanaqa ma'rifatga poydevor bo'lq'ay? Vaholanki, toj boshdagi fikrga qafas». Ushbu fikrni Ulug'bekka kim aytgan? J: Piri Zindoniy

9. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Amir Temur ruhi paydo boladi. Uning qo'lida nima bor edi? J: Qilich

10. Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» fojeasi-da qaysi shoirlar ishtirok etgan? J: Jamiy, Sakkokiy

11. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Ulug'bekning so'nggi farmoni nima haqida edi?

J: Piri Zindoniyni zindondan ozod qilish haqida

12. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Ulug'bek kimning uyida o'ldiriladi? J: Ota Murodning

13. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Berdiyor qayerlik edi?

J: Chotqallik

14. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Ulug'bek kimdan o'ziga qilich olib kelishni so'raydi? J: Yigitalidan

15. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Ulug'bek kimga: «Bir meroski, zamon uni mahv etolmaydi, Bir meroski, vorislari bu vatan ahli», – deydi? J: Abbasga

16. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Ulug'bek aytgan «Bir

meroski, zamon uni mahv etolmaydi, Bir meroski, vorislari bu vatan ahli» so'zlardagi meros nima edi?

J: **Kitoblar, jadvallar**

17. «Yetim qolgan El dardiga kuyib yig'layman, Bosh qo'yaman tuproq'iga ulug' insonning». Ushbu fikrlarni kim aytgan? J: **Piri Zindoniy**

18. Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasingning nechanchi fasli temuriylarga mansub shoirlar haqida?

J: **Yettinchi**

19. «Ziji Ko'ragoniy» asarining so'zboshisida Ulug'bek kimni farzandi arjumandim deb ataydi?

J: **Ali Qushchini**

17. «Mirzo Ulug'bek» dramasi asosida qaysi rejissor «Ulug'bek yulduzi» kinofilmini yaratdi? J: **Latif Fayziyev**

18. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida Piri Zindoniy necha yildan beri zindonda bandi edi? J: **50 yildan beri**

19. «Mirzo Ulug'bek» fojeasida kimlar podshohsiz yashash uchun kurashgan? J: **Sarbadorlar**

20. «O'g'illardan yalchimagan benasib padar, O'z shogirdin o'g'il deya topar tasallii» fikrlari kimga tegishli?

J: **Sakkokliyga**

21. «Mirzo Ulug'bek» dramasida qatnashuvchilar ro'y-xatida: «Samarkand qozisi, 70 yoshda», – deb kimga ta'rif berilgan? J: **Mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin**

22. «Ovchi qissasi» dostonining muallifi kim?

J: **Maqsud Shayxzoda**

23. «O'y lashimcha, sarbadorlar chin inson bo'lgan.

*Haq yo'lida, xalq yo'lida bosh qo'ygan ular,*

*Halol, rostgo'y fuqarolar ekan hammasi».* «Mirzo

Ulug'bek» tragediyasidan olingen ushbu parcha qaysi qahramonga tegishli? J: **Abdurazzoqqa**

24. «*Toj boshdag'i fikrga qafas*» fikrlari kimga tegishli?

J: **Hasan ohangar**

25. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida Ulug'bekni o'ldirgan Abbasning xanjariga kimning nomi yozilgandi?

J: **Abdullatifning**

26. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida:

*«Ey, voh! Endi yetim qoldi aql-u ma'nifat.*

*Lak-lak ablah Abbasdeklar harom qotadi.*

*Ammo, hayhot, tirilmaydi bitta Ulug'bek!» – degan fikrni kim aytgan? J: **Abdurazzoq***

27. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi necha pardali fojia asar? J: **Besh pardali**

28. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasidagi to'qima obrazlarni toping. J: **Piri Zindoniy, Ota Murod**

29. Ulug'bekning ajnabiy elchilar bilan suhbatida uning qaysi asari haqida so'z boradi? J: **«Ziji Ko'rragonly»**

30. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida zindondan ozod qilingan Piri Zindoniy kimga topshirilishi kerak edi?

J: **Jomly va Lutfiy panofiga**

31. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida qatnashuvchilar ro'y-xatida Ulug'bekning yoshi necha yoshda deb ko'rsatilgan?

J: **56 yoshda**

32. «*Zamonanining taraqqiy parvar ulamolaridan; 65 yoshda*», – deya kimga ta'rif berilgan?

J: **Shayxullslom Burhoniddin**

33. «*Sayid Obidning o'g'il, Abdullatifning mahrami; 28 yoshda*». Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Abbos**

34. «*Mashhur tarixchi; 35 yoshda*», – deya kim ta'riflangan? J: **Abdurazzoq Samarqandiy**

35. «*Mahbus; 80 yoshda*», Ushbu ta'rif kim haqida?

J: **Pirl Zindoniy (Hasan ohangar) haqida**

36. «*Sharq vahshati borasida hamma gap bo'lon  
Va ko'rdikki, Ulug'bekning zamonasida*

Din-u millat xusumati yo'q Turkistonda. Ushbu fikrlar  
Mirzo Ulug'bekka kim tomonidan aytildi?

J: **Farang elchisi**

37. «*Bizga agar lutf etilsa ruxsati oliy, U kitoblar nusxa-  
sidan olib kelgaymiz*», – deya Mirzo Ulug'bekdan iltimos  
qilgan personaj kim? J: **Misr elchisi**

38. «*Saltanatki, sultonni yo'q – boshsiz bir tana*» fikrlari-  
ni Mirzo Ulug'bek kimga aytgan?

J: **Hasan ohangarga**

39. «*Podshohsiz o'zimizcha yashab ko'raylik, Noni-  
mizni hadik olmay oshab ko'raylik!*» fikrlari kimga tegishli?

J: **Sarbadorlar**

40. *Endi nega maydalandi Temur urug'i,  
Endi nega razillashdi hokimlar ruhi.  
Endi nega mirzolaming ko'zları ojiz,*

*Qulog'i kar, Idroki bo'sh, ioda kuchsiz...* Ushbu fikr kim-  
ga tegishli? J: **Mirzo Ulug'bekka**

41. «*Hech bir kimsa tug'ilmbadi boshda toj bilan*» fikrla-  
rinini kim aytgan? J: **Mirzo Ulug'bek**

42. «*Ey Xudo, sen guvoh bo'lgin, bu xanjar bilan  
Abdullatif kallasini olmasam agar*

*Yuz ming la'nat bo'lsin mengal!*» Ushbu fikrlar muallifi  
kim? J: **Berdiyor**

43. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkitasining nechanchi fasli Husayn Boyqaro haqida? J: **Sakkizinchi**

44. «Yulduzlarda ekan nigohim, bilmadim ne edi gunohim...»

*Men dardimni kimga aytaman*. Ulug'bek haqida yozilgan ushbu she'r muallifini toping.

J: **Muhammad Yusuf**

45. «Yo'q, yo'q, sulton o'lса hamki, donishmand yashar, Olimlarga mangu hayot tarixi – bashar...» misralari kimning nulqidan olingan? J: **Ulug'bek**

46. Qaysi shoir ijodida Hamid Olimjon, xalq og'zaki ijodining ajoyib vakili Fozil shoirlarga bag'ishlangan asarlar mavjud? J: **Maqsud Shayxzoda**

47. «Mirzo Ulug'bek» dramasida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy sarbadorlar haqida kimdan eshitganligini aytadi? J: **Tarixchi Hofiz Abro'dan**

48. Elchilarni saroyga kim boshlab kiradi?

J: **Devonbegi**

49. Ulug'bek huzuriga qaysi yurtdan kelgan elchilar tashrif buyuradi?

J: **Chin, Hind, Misr, Farang, Rus elchilari**

50. «O'z yurtimdan kelganimda niyat qilgandim,  
Xuroson-u Turkistonni sayr etib chiqsam,  
Undan keyin ko'ra olsam janoblarinil!» – deya Ulug'bekka murojaat qilgan elchi kim? J: **Hind elchisi**

51. «Istar edik uzilmasin karvonlar safi.

Karvonlarga shohi bilan yuklansin do'stlik,

*Shohi kabi muloyimlik, paxtaday soflik!*» Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: **Rus elchisiga**

52. «*Donishmandlar kengashib turib Mamlakatni bosh-qarsalar, el bo'lur obod!*» – deb kimning kitobida yozilgan?

J: Abu Nasr Farobiyning

## TRAGEDIYA HAQIDA

1. Tragediya so'zi Dionis sharafiga o'tkaziladigan bayramilar bilan bog'liq. Dionis qanday xudo?

J: Hosildorlik xudosи

2. «Tragediya» so'zi qanday ma'noni bildiradi?

J: Yunoncha «echki qo'shilg'i» ma'nosini

3. Qadimgi Yunonistonda qiziqchilarni nima deb ataganlar? J: Tragoslar

4. Tragediya nimga quriladi?

J: Murosasiz kurash, g'oyatda keskin ziddiyatlar zaminiga quriladi

5. Fojeiy asarlar dramatik asarlardan qanday farqlanadi? J: Qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki kollizlya kuchliligi, personajlar o'tasidagi konfliktning o'ta kuchliligi bilan

6. Haqiqiy tragik asarlar yaratish qachon o'zining kamolot bosqichiga ko'tarildi?

J: Miloddan avvalgi V asrga kelib

7. «Zanjirband Prometey», «Oresteya» asarlarining muallifini toping. J: Esxil

8. Sofokl tragediyalarini sanang.

J: «Shoh Edip», «Antigona»

9. Evripid tragediyalarini toping.

J: «Elektra», «Medeya», «Gerakl»

10. Jahon adabiyotida tragediya janrida samarali ijod qilgan adiblarni toping. J: **Lope de Vega, Kalderon, Shekspir, Gyote, Shiller, Pushkin**
11. Pushkinning «Boris Godunov» asari janrini toping. J: **Tragediya**
12. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» tragediyasi qachon yaratilgan? J: **1911-yili**
13. Abdurauf Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasi qachon yozilgan? J: **1926-yili**
14. Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi qachon yaratilgan? J: **1961-yili**

### **USMON NOSIR**

1. Usmon Nosir necha yoshlarida ijod qilgan?  
J: **18 – 24 yoshida**
2. Usmon Nosir nechta she'riy to'plam va nechta she'riy drama yozgan? J: **5 ta she'riy to'plam va 4 ta drama**
3. Usmon Nosirning dramalari nomini toping.  
J: **«Atlas», «Zafar», «So'nggi kun», «Dushman»**
4. Usmon Nosirning dostonlari nomini toping.  
J: **«Norbo'ta», «Naxshon»**
5. Usmon Nosirning she'riy to'plamlari nomini toping.  
J: **«Quyosh bilan suhbata», «Traktorobod», «Yurak», «Safarbar satrlar», «Mehrim»**
6. Usmon Nosir tarjimasiga mansub bo'lgan asarlarni toping. J: **Dobrolyubov «Haqiqly kun qachon keladi?», Kirshan «Ulug' kun», Pushkin «Bog'chasarov fontani», Lermontov «ibllis»**
7. Usmon Nosirning nechanchi yillardagi ijodida publit-

sistika, publitsistik munosabat ko'zga tashlanadi? J: 1927 – 1932-yillarda

8. Usmon Nosir bir she'rida «Sen yuragimning chashma suvisan, Sen ko'zlarimning gavhar nurlari. Sening bahongni kim so'rasha, de: «bahom – umrning bahosiga teng» deb yozadi. Bu nima yoki kim haqida? J: She'r

9. «Usmon Nosir davrining yosh shoirlar Amin Umariy, Nasrulla Davron, Ibrohim Nazir va shu satrlaming muallifi – kamina kabi shoirlar uning ko'magidan bahramand bo'ldi», deb yozgan ijodkor kim? J: O'tkiz Rashid

10. «Usmon she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi». Ushbu fikrlar muallifini toping. J: Turob To'la

11. Qaysi shoir haqida Moskva gazetalarida sharqda Pushkin paydo bo'libdi deb yozishgan? J: Usmon Nosir

12. «Bargday uzilib ketsam Unutmas meni bog'im» deb yozgan shoir kim? J: Usmon Nosir

13. Usmon Nosirning «Yurak» she'ri qanday boshlanadi? J: Yurak, sensan mening sozim

14. Usmon Nosirning «Yurak» she'ri qanday yakunlanaadi? J: Yoril! Mayli tamom o'lsam!

15. Usmon Nosirning qaysi she'rida asrlarni yig'latgan sevgi tilga olinadi? J: «Monolog»

16. Kim muhabbat haqida «Muhabbat ul o'zi eski narsa, Lekin har bir yurak uni yong'orta (yangilaydi)» deb yozgan? J: Xodi To'qtash

17. Usmon Nosir qaysi she'rida «Aqlidan ozganmi muhabbat?» deydi? J: «Monolog»

18. «Sen ey, sen – o'ynoqi dilbar, Zafardan izla yoringni. To'lib qayna, toshib o'yna, Tirkman, kuyla boringnl» misralari Usmon Nosirning qaysi she'ridan olingan?

J: «Yurak» she'ridan

19. Usmon Nosirning «Nil va Rim» she'ri qachon yaratilgan? J: 1935-yilda

20. Usmon Nosirning «Nil va Rim» she'ri necha qismidan iborat? J: 6 qismdan

21. «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismlarida Usmon Nosir «Mana menman u qullarning hech so'nmas yodi» misralarini naqoratdek takrorlaydi?

J: 3- va 6-qismlarida

22. Usmon Nosir qaysi she'rida «Tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug'» degan o'xshatishni qo'llaydi?

J: «Nil va Rim» she'rida

23. Usmon Nosirning «Monolog» she'ri qachon yaratilgan? J: 1933-yilda

24. «Ki, odamning o'ziniginamas, Hissini ham xarob qilsa davr! Qiynalaman!.. Yuragimda hovur.. Bu – qarshilik! Yo'ql Gina emas» misralari Usmon Nosirning qaysi she'ridan olingan? J: «Monolog» she'ridan

25. «Dezdemona, gunohsiz dilbar, Jigar qonlaringni ichgan kim? Bilaman, Otello, bilaman, Otello haqlimi?.. Shoir jim!..» misralari Usmon Nosirning qaysi she'ridan olingan? J: «Monolog» she'ridan

26. Usmon Nosirning qaysi she'ri shoirming insoniy xarakteri va ijodiy taqdirini o'zida mujassam etgan she'rlar sirasiga kiradi? J: «Yurak»

27. U.Nosir «Monolog» she'rida: «O'z zimmamnga katta

*ish oldim*», – deganda nimani nazarda tutadi? J: Asrlarni yig'latgan sevgiga qarshi bosh ko'tarishni

28. «*Malika qiz*» – Kleopatra «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismida uchraydi? J: 3-qismi

29. «*Kul gardiday umr tog'day kulfat uchunmi?* Javob bergin menga, zakki qadimgi Homer» misralari «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismida uchraydi?

J: 4-qismi

30. «*Hamon yig'lar yalang'och Rim, hamon dil ezar, Hamon tilla qadahda qon ichar Sezar!*» misralari «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismida uchraydi?

J: 4-qismi

31. «*Odam bilan hayvon o'yin ko'tsalar emish...*» misralari «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismida uchraydi?

J: 5-qismi

32. «*Monolog*» she'rida qaysi go'zalga «*losh ko'ngilli*» deya ta'rif berilgan? J: Beatrice

33. «*Monolog*» she'rida qaysi go'zalga «*makkora qiz*» deya ta'rif berilgan? J: Leonora

34. «*Monolog*» she'rida Beatrice bilan birga qaysi shoir nomi tilga olingan? J: Dante

35. «*Monolog*» she'rida Leonora bilan birga qaysi shoir nomi tilga olingan? J: Tasso

36. «*Monolog*» she'ri qaysi misralar bilan boshlanadi?

J: Sevgil Sening shirin tillingdan Kim o'pmagan, kim tishlamagan?

37. «*Ufqdan bolar quyoshni Sharf kesilgan boshga o'xshatdim*» misralari Usmon Nosirning qaysi she'rida uchraydi? J: «*Monolog*» she'rida

38. «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismida Rim quldarlik tuzumiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonning rahbari, o'zi ham qul bo'lgan Spartak nomi tilga olingan?

J: 6-qismida

39. «Nil va Rim» she'rining qaysi qismida qadimgi yunon faylasifi Aflatun (*Platon*) va qadimgi yunon lirik shoiri *Vergiliy* nomi tilga olingan? J: 6-qismida

40. Usmon Nosir «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismida «Tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug!» tashbehini qo'llaydi? J: 6-qismida

41. «Osmon – qalqon, kamon yoyi – chaqmoq, yonar o't, Zulm uchun yig'i, fig'on va erksizlik sud» misralari «Nil ba Rim» she'rining nechanchi qismida uchraydi?

J: 6-qismida

42. «Xalq o'rnidan birdan turdi duv... Chapak chaldi. «Ey ahmoq Rim, sevinma qongal Bundan boshqa xo'rlik bormi, axir, insonga?» «Nil va Rim» she'ridan olingan ushbu parchada xalq qaysi voqeaga chapak chalib uni olqishlagani shoirning g'azabini qo'zg'atadi? J: Yo'lbars bilan insonning kurashida hayvonning g'ollb chiqishiga

43. Ro, Azirisa, Tifon – qadimgi misrliklar tushunchasi-dagi xudolar nomi «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismlida uchraydi? J: 2-qismida

44. Sarq qumlar orasidan qon rangli quyosh

Ko'tarilar. Nil oqadir – qullar to'kkani yosh. «Nil va Rim» she'rining nechanchi qismi shunday satrlar bilan boshlana-di? J: 2-qismi

45. «Umr tepasida mushl tuygan...» misralari Usmon Nosirning qaysi she'rida uchraydi? J: «Monolog» she'rida

46. Usmon Nasir qaysi she'rida yurtga naf'i tegmay-digan ijoddan o'limni afzal biladi? J: «Yurak»

47. Qaysi she'rida shoir o'zi la'natlayotgan davrda hayot, tiriklik mantig'i, insoniy turmush tarzining oyog'i osmondan keltirilganini tabiatda bo'ladigan voqe'a-hodisalarini manliqsizlik, noaniqlikka yo'l qo'yilgan holda tasvirlaydi?

J: «Nil va Rim» she'rida

48. «Nil va Rim» she'rida Rimga qanday ta'rif beriladi?

J: O'yindan o'lim kutgan jinnl teatr

49. «Nil va Rim» she'rida Nilga qanday ta'rif beriladi?

J: Qullar to'kkан yosh

50. «Ey ahmoq Rim, sevinma qongal Bundan boshqa xo'tlik bormi, axir, insonga?» misralari «Nil va Rim» she'ring nechanchi qismida mavjud? J: 5-qismda

51. «Aqlidan ozganml muhabbat?» misralari «Monolog» she'ring nechanchi bandida mavjud?

J: 9-bandda

52. «Nil va Rim» she'ring nechanchi qismida go'dagini tosh osliga bostirgan ona obrazı mavjud? J: 4-qismda

53. «Nil va Rim» she'ring nechanchi qismida «O'lim yaxshi, odam agar shunday xor bo'lsa! Bir parcha non nima o'zil Shunga zor bo'lsa!» misralari mavjud? J: 4-qismda

54. «Rim ustida shamsiyadek tumanli osman» misralari bilan «Nil va Rim» she'ring nechanchi qismi boshlanadi? J: 5-qism

55. «Monolog» she'rida kimga: «Rohat ko'may o'tgan bir umn», – deb ta'rif beriladi? J: Tassoga

56. «Monolog» she'rida: «Nomi qora bilan yozilgurl...» – deya qaysi qahramon qoralangan? J: Leonora

57. «Monolog» she'ning nechanchi banddalarida Shekspir va uning asari qahramonlari tilga olingan?

J: 4-, 5-, 6-bandlar

58. «Shohona toj kiygan muhabbat» misralari «Monolog» she'ning nechanchi bardida mavjud?

J: 10-bandda

## ASQAD MUXTOR

1. Asqad Muxtorning ilk she'riy asarlarini toping.

J: «Tilak», «Tong edi», «Totli damlar»

2. «Karvon qo'ng'iroq'i» she'riy to'plamining muallifini toping. J: **Asqad Muxtor**

3. «Quyosh belanchagi» she'riy to'plamining muallifini toping. J: **Asqad Muxtor**

4. «99 miniatura» she'riy to'plamining muallifini toping.

J: **Asqad Muxtor**

5. Asqad Muxtor nechanchi yildan prozaik asarlar yozishni boshliddi? J: **50-yillardan**

6. Asqad Muxtorning qissalarini toping.

J: «Daryolar tutashgan joyda», «Qoraqalpoq qissa-si», «Buxoroning jin ko'chalari», «Bo'ronlarda bordek xalovat», «Jar yoqasidagi chaqmaq», «Kumush tola»

7. Asqad Muxtorning romanlarini toping.

J: «Opa-sIngillar», «Chinor», «Amu», «Tug'illsh», «Davr mening taqdirimda»

8. Asqad Muxtorning bolalarga bag'ishlangan asarlarini toping. J: «Chin yurakdan», «Dunyo bolalari», «Hayotga chaqiriq»

9. Sofoklning «Shoh Edip» asarini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan? J: **Asqad Muxtor**
10. Asqad Muxtorning so'nggi asarini toping.  
J: «**Uyqu qochganda (Tundaliklar)**»
11. «Chinor» romanida barcha katta-kichik insoniy taqdirlar kimning taqdiriga borib bog'lanadi?  
J: **Ochil boboning**
12. Asqad Muxtorning qaysi asarida shafqatsiz realizm ko'rinishlari mavjud? J: «**Chinor**»
13. «Chinor» romanida Ochil boboning shajarasidagi «mo'rt bir barg» kim edi? J: **Akbarali**
14. «Chinor» romanida Akbarali qaysi qishloqdan edi?  
J: **Shodasoydan**
15. «Chinor» romanida Akbaralining otasi bilan birga jang qilgan kishining ismi? J: **Bektemir**
16. «Chinor» romanida Bektemir o'zining qayerdan ekanligini aytadi? J: **Kapsandan**
17. «Chinor» romanidagi Akbaralining onasining ismi?  
J: **Sharofat xola**
18. «Chinor» romanida Akbaralining o'mniga o'lib ketgan personajning nomi? J: **Bektemir**
19. «Odam o'ziga tikilib tursa g'alati bo'larkan. Boshqa olamdan, nariги dunyodan kelgandek». Bu parcha qaysi asardan olingan? J: «**Chinor**»
20. «Odam deb o'lgan odam – doim tirik». Bu fikrlarni kim aytgan? J: **Ochil buva**
21. «Chinor» romanida Akbarali yana bir bor xatoga yo'l qo'ydi. Bu xato nima edi?  
J: **O'zini o'ldirish**

22. «Chinor» romanida Ochil buva «O'zi... bandi mo'rt edi. Uchdi ketdi», deydi. Bu kimga ishora edi?

J: Akbaraliga

23. «Chinor» romanida Akbaralining holati qaysi jonivorga qiyoslanadi? J: Toshbaqa .

24. «Hayot berahm. Qo'rqoqqa ayniqsa berahm». Bu fikrlarni kim aytgan? J: Ochil buva

25. Respublikada «Asqad Muxtor tahrir maktabi» degan ñaql bor. Buning ma'nosi nima? J: Asqad Muxtor «Guliston» jurnali va «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida bosh muharrirlik qilgan paytda yosh shoir va yozuvchillarga yordam bergani uchun

26. «Chinor» romanida Ochil boboning yoshi necha yoshda edi? J: 93 yoshda

27. «Chinor» romanida Akbarali o'z joniga qasd qilganda necha yoshda edi? J: 30 yoshda

28. «Vaqt ko'p o'tganidan emas, ... yilda odam bunchalik o'zgarmaydi. O'ttiz yoshida odam bunchalik qarimaydi». «Chinor» romanidan olingan ushbu parchada nuqtalar o'miga qo'yilishi kerak bo'lgan raqamni toping. J: Yetti

29. «Hali-hali ko'z o'ngida turibdi: bir ko'zi ko'r edi bu odamning». Ushbu parcha qaysi asardan olingan va qaysi qahramon haqida? J: «Chinor» romanidan, Bektemir

30. «Chinor» romanida Bektemir asirga tushganidan so'ng necha yil sargardonlikdan keyin o'z yurtiga qaytadi?

J: 13 yildan so'ng

31. «Chinor» romanida Akbarali o'zining konda qo'rqaqlik qilganini kimga aylib beradi?

J: Bufetchi xotin Sonyaga

32. «Unga yigitlik umrida bir marotaba inson bolasi, hayot atalmish ne'mat najor qo'llarini cho'zgan edi. Bir marotaba undan o'zining ham inson ekanligini isbotlashni so'ragan edi». Bu satrlar qaysi asardan olingan?

J: «**Chinor**» romanidan

33. Asqad Muxtorning 2-jahon urushi yillarida yozilgan she'rlarini toping. J: «**G'alaba ishonchis**», «**Jangchlining bayram kechasli**», «**Tug'ishganlar qaytdi**», «**Sog'inish**»

34. Asqad Muxtorning qaysi to'plamlaridan joy olgan lirik asarlari o'z davrl adabiyoti piligining sezilarli darajada ko'tarilishiga sababchi bo'lгandi?

J: «**99 mlniatyura**», «**Karvan qa'ng'iroq'i**»

35. Asqad Muxtorning bolalarga bag'ishlangan she'riy to'plami qaysi? J: «**Chln yurakdan**» (1956)

36. Asqad Muxtorning bolalarga bagishlangan hikoyalar to'plamlari nomini ko'rsating. J: «**Hayotga chaqiriq**» (1956), «**Dunyo bolalari**» (1962)

37. «*Unda go'yo bir-biri bilan bog'lanmaydigan qator hikoyalar, rivoyattar, hatto qissalar aralash tartibda keta-veradi. Ularda tasvirlangan voqeа-hodisalar ham 'zamon, vaqt nuqtayi nazaridan izchil tizimga bo'y sunmaydi*». Ushbu ta'rif qaysi asar haqida? J: «**Chinor**» romanı

38. Qaysi asar butun yurtga larqab ketgan uzoq-yaqin qarindoshlaridan xabar olgani otlangan boboning olis safari tasviriga bag'ishlangan? J: «**Chinor**» romanı

39. «**Chinor**» romanida Ochil bobo Akbaralini qanday tanib qoladi? J: **Ovozidan**.

40. Bektemir 1942-yill qayerda qurshovga tushgandi?

J: **Mozdok yaqinlida жаңда**

41. Bektemir va uning safdoshlari necha oy qurshovda jang qilgandan so'ng ochlikdan sulaygan, o'q-dorisiz qolib asirga tushishadi? J: **Uch oy**

42. Bektemir bilan birga necha kishi asirga tushgandi? J: **O'n yetti yarador**

43. «*Shunday kasb kerakki, qasd qilib qo'ydim: kecha-yu kunduz ishga sho'ng'ib ketay. Toki odamlar meni ko'masin, faqat mehnatimni ko'rishsin. Mehnat! Mehnat! Mehnat! Boshqa narsa kerak emas.*». Ushbu fikr kimning nutqidan olingan?

J: **Bektemirning**

44. «*U qochib keldi. Qachib qutulganman deb o'yladi. Lekin odam o'zidan qochib qutulolmas ekan. Kallasi ham, ka'ksl ham ba'm-bo'sh...*» Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: **«Chinor» romanidan**

45. Abdusamatad, Hadya qaysi asar qahramonlari?

J: **«Chinor» romanlari**

46. «*Xona hamon jimjit. Tun ham bu uch odam o'rta-sidagi simli saqlashga qasd qilgandek og'ir sukutga tolgan edi.*» Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: **«Chinor» romanidan**

47. «*Bizning shirkatimizning bosh direktori keksa odam. Nufuzli pirga qo'l bergen. «Pirimning olti ming muridi bor», – deb maqlanardi. U pimi ko'rganman. Juda xasis odam, nasha chekar edi. Mashina bosib ketdi...*» **«Chinor» romanidan olingan ushbu parchani kim so'zlab bergen?**

J: **Azimjon**

48. «*Tagida yalmog'iz kamar bor deyishadi. Bolalami u yerga yo'latishmasdi. Meni ham dadam u yerdan quv-*

*lagani-quvlagan edi...»* Ushbu parcha kimning nutqidan olingen? J: Akbaralining

49. «Komilani uydan haydab bir xato qilgan edingiz». Ushbu fikr kim tomonidan kimga qarata aytilgan?

J: Azimjon tomonidan Ochil boboga qarata

50. Shafqatsiz realizm ko'rinishlarini o'zbek romanchili-giga olib kirgan adib nomi qaysi javobda qayd etilgan?

J: A.Muxtor

### SAID AHMAD

1. Said Ahmadning 1-hikoyalar to'plamini toping.

J: «Tortiq»

2. Qaysi ijodkor Oybekning psixologik tasvir mahoratlani, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qahhorning ixcham va teran fikrash fazilatlarini o'zida mujassam etgan?

J: Said Ahmad

3. Said Ahmadning necha jiddan iborat taqilangan asarlari chop etilgan? J: 3 jild

4. Said Ahmadning qaysi asari xalqimizning sho'ro hukumati davridagi zohiran tinch, turg'unlik yillarda kechgen kunlari hikoya qilinadi? J: «Jimjitlik»

5. Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasining 1-kitobi qanday nomланади? J: «Qirq besh kun»

6. Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasining 2-kitobi qanday nomланади? J: «Hijron kunlarida»

7. Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasining 3-kitobi qanday nomланади? J: «Ufq bo'sag'asida»

8. «Ufq» trilogiyasining «Qochoq» parchasidagi Rais tog'aning ismi? J: Rayim

9. «U ko'pdan beri birov bilan gaplashmagan, dunyoda nimalar bo'layotganidan bexabar edi. Sovun tegmagan betlar kir, ham ko'rpa, ham to'shak o'mini bosgan to'nining yenglari titilib, etaklari balchiqqa belanganidan dog' bosib ketgandi. Uning bir vaqtlar qizlarni shaydo qilgan qop-qora ko'zları endi ma'yus, atrosga ma'nosiz boqardi». Ushbu parcha kim haqida va qaysi asardan olingan?

J: Said Ahmad «Ufq» trilogiyasi, Tursunboy

10. Said Ahmad «Ufq» trilogiyasidagi Tursunboy sevgilisining ismi? J: Zebi

11. Said Ahmad «Ufq» trilogiyasida Tursunboy to'qaya nimani kutib yashardi?

J: Onasi keltiradigan ovqatni

12. Said Ahmad «Ufq» trilogiyasidagi Rais buvaning qahramon bo'lgan o'g'li? J: Azizxon

13. Said Ahmad «Ufq» trilogiyasidagi Tursunboy onasining ismi? J: Jannat xola

14. Qaysi asar qahramonlari o'z qo'rqaqliklari uchun onalarining qiynalib vafot etishiga sababchi bo'lgan?  
1. Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi 2. Asqad Muxtorning «Chinor» romanı

15. «Yigitlik qasamidan kecha olgan, ona vujudini kemirayotgan dardni plsand qilmagan, sharmandalikka rozi bo'la olgan yigitda yana qanday his bo'lishi mumkin?» Ushbu parcha kim haqida va qaysi asardan olingan?

J: Said Ahmad «Ufq» trilogiyasi, Tursunboy

16. Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu ...dan kecha olmasdi. Nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan so'zni toping. J: Zebidan

17. «Ufq» trilogiyasining «Qochoq» parchasida Tursunboyning qishlog'i nomi? J: **Zirillama**

18. «Ufq» trilogiyasining «Qochoq» parchasida Tursunboy to'qayga kelganiga necha oy bo'lganda otasi bilan tasodifan uchrashib qoladi? J: **To'rt oy**

19. «Ammo ... javob bermadi. U ola diyordidan, ola mehridan, yor-birodarlar davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg'in bo'lib olamdan o'tgan edi». Ushbu parcha kim haqida va qaysi asardan olingan?

J: **Said Ahmad «Ufq» trilogiyasi, Tursunboy**

20. «Ufq» trilogiyasining «Qochoq» parchasida Ikromjon yolg'iz o'g'li Tursunboyga nima vositasida go'r qaziysi?

J: **Qo'litiqtayoqda**

21. «Ufq» trilogiyasining «Qochoq» deb shartli nomlanuvchi parchasi romanning qaysi qismidan olingan?

J: **«Hijron kunlarida»dan**

22. «Ufq» trilogiyasida qatnashgan obrazni toping.

J: **Ikromjon, Jannat xola, Nizomjon, Tursunboy, Asrora, Dildor, Zebi, A'zamjon**

23. Qaysi asar haqida «...odamga quvvat beradigan umid, uning boshini toshdan qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir», deb baho berishi mumkin. J: **Said Ahmad «Ufq» trilogiyasi**

24. Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi haqida kim: «Bu kitobni kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda tutilmasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qiliш-qilmishi, muhabbatli, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost», – deydi? J: **Abdulla Qahhor**

25. «Kelinlar qo'zg'oloni» (1976) komediyasining muallifi kim? J: Said Ahmad

26. Said Ahmadning mustaqillik yillarda yaratilgan kitoblarini toping. J: «Yo'qotganlarim va topganlarim», «Qorako'z majnun», «Kiprikdag'i tong»

27. Said Ahmadning mustaqillik yillarda yaratilgan hajviy asarlarini toping.

J: «Xandon plista», «Bir o'picchning bahosi»

28. Said Ahmad qachon «xalq dushmani» sifatida ayblanib, hohaq qamoqqa olingan va nechanchi yili oqlangan? J: 1947-yilli qamoqqa olingan, 1953-yilli oqlangan

29. Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhorning eng yaxshi ijodiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan adib kim?

J: Said Ahmad

30. «Tortiq» nomli dastlabki hikoyalari to'plamini xalqqa dayisi adib tortiq qilgan? J: Said Ahmad

31. Said Ahmad Oybekning qaysi fazilatini o'zida mujassamlashtirgan? J: Psixologik tasvir mahoratini

32. Said Ahmad G'afur G'ulomning qaysi ijodiy fazilatini o'z asarlarida ifoda etgan? J: Yumorni

33. Said Ahmad Abdulla Qahhorning qaysi ijodiy fazilatini o'zida mujassamlashtirgan adib hisoblanadi?

J: Ixcham va teran fikrlash fazilatini

34. Said Ahmadning qaysi asarida «qizil imperiya»ning rang-barang nayranglari tufayli hayoti fojiali kechgan kishilar taqdirl bo'yab-bejalmasdan, haqqoniy ko'rsatilgan?

J: «Jimjitlik» romanida

35. «...Baxtiyor odam hammani o'ziga o'xshatadi». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: «Ufq» trilogiyasi «Qochoq» parchasidan

36. «Odam qiyofasi yillar o'tishi bilan, sharoit ta'siri bilan o'zgarib ketishi mumkin. Faqat odamning ko'zi o'zgarmaydi». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: «Ufq» trilogiyasi «Qochoq» parchasidan

37. Qiyofasi vahshiylashib, o'zgarib ketgan Tursunboyni to'qayda uchratib qolgan ikromjon uni qanday tanib qoladi? J: Ko'zidan

38. Ikromjonning necha yil ardoqlab boqqan, shamolni ravo ko'rmay joniga o'rab o'stirgan bolasi xoinlikdan, qo'rroeqlikdan, ona oldidagi hech qachon yuvib bo'lmaydigan gunohlardan pok bo'lolmay, ota quchog'ida begonadek yotardi? J: Yigirma bir yil

39. «Atrofda oftob yashnayapti. Yangi popuk chiqazgan qamishlar yet bilan o'ynashyapli. Osmoni zaminda qaychiga o'xshab tuma karvoni qo'y haydagan cho'pendek qurelab o'tyapti! Osmon shu qadar so'ngsizmi? Uning ortida nimalar bor? Bu zangori yo'l qay tomonga olib bpradi? Qiziq! Turnalar qayga uchayolganikin?» Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: «Ufq» trilogiyasi «Qochoq» parchasidan

33. «Ichidan atlas ko'ylik, ustidan xon atlas guppi kiyagan, boshiga oq dakanani xom tashlagan, o'ttiz besh yoshlari chamaliq go'zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyimliq, eriga itoat, to'g'rilik' ma'nolari tomib turgan». Bu kim? J: **Mirzakarim qutidorning rafiqasi – Oftob oyim**

34. «Yetmishlardan o'tgan kampir» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Oysha bibi**

35. Otabeckni «bir chiroylik, bir aqllik, tag'in o'zi hammadan yuqorida o'lliradur; hali yigirmag'a ham bormag'andir, mo'ylabi ham endigina chiqa boshlag'an. Nax bizga kuyav bo'ladirg'an yigit ekan», – deb ta'riflangan personaj kim? J: **To'ybeqa**

36. Kumushni faqat Otabekka teng kela olishini ta'kidlab, «teng-tengi bilan, tezak qopi bilan», degan personaj kim? J: **To'ybeqa**

37. «Azizbek o'rda qorovulkxonasidan turib fuqarog'a salom qildi. Azizbekning salomiga musharrraf bo'lg'uchilarining ko'zlaridan yoshlari oqmoqda edi». Bu fikrlar kimga tegishli? J: **Yusufbek hojining Otabekka yozgan maktabidan olingan**

38. «O'tkan kunlar» romanida Toshkentliklär o'zlarini kimlar deb atashardi? J: **Qora chapanlar**

39. Qipchoqlar kimning qo'l ostida Toshkent ustiga urush harakatini boshlaydi? J: **Normuhammad qushbegi**

40. «Shu chorxari ayvonning o'rta bir yerida, ustiga atlal ko'rpalari yopilgan tanchanining to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po'stin kiyib bir kishi o'llitradir». Bu kishi? J: **Mirzakarim qutidor**

41. Otabel Yusubek hojining maktubida Azizbek haqidagi fikrlarni o'qigandan so'ng, Azizbek to'g'risida ixtiyorsiz qaysi so'zni aytib yubordi? J: «**Tulki**»

42. To'y kuni Otabel Kumushbibiga nima sovg'a qildi?  
J: **Oltin uzuk**

43. Otabel Kumushni qachon ko'rgan edi?

J: **Marg'ilonga kelganning ikkinchi kuni tahorat ollishga kirganida**

44. Cho'ri qiz Hanifa qaysi asar qahramoni?  
J: «**O'tkan kunlar**» asarining

45. Hasanali xotinining ismi? J: **Oybodoq**

46. Otabekning Marg'ilonda ekanligida kimning qiziga unashtirib qo'yishadi? J: **Olim ponsodboshining**

47. Otabekni Toshkentdan unashtirib qo'ygan Yusufbek hoji buning sababini qanday izohlaydi?

J: **Hojatdan deb izohlaydi**

48. Otabekni Toshkentdan uylanishini nima uchun Yusufbek hoji «hojatdan» deb ataydi?

J: **Chunki Otabekning qayin otasi qizini Toshkenga jo'natmas ekan. O'g'il o'stirib katta qilgan onaga bo'lsa kelin qayg'usi tushgan**

49. Otabek Toshkentdan unashirilishiga qarshi ota-onasiga: «Bir bechoraga ko'ra-bila turib jabr ham xiynat», – deydi. Bu kimga qaratilgan edi? J: **Zaynabga**

50. Otabek ota-onalor zuusiga qanday holda rizo bo'la-di? J: **Jonsiz haykal bo'lib**

51. Otabek uylanishdan oldin onasiga qanday shart qo'yadi? J: **To'ydan ilgarl Marg'ilonga borib kellshni va bir darajada ularga aytib o'tishni, shundan so'ng to'y boshlashni**

52. Otabek va Kumushni bir-biridan ajratishga kim astoydil bel bog'lagan edi? J: **Homld**

53. Olabek o'z dushmanlariga qarshi yolg'iz o'zi kurashib, nechta jinoyatchni o'ladiradi?

J: **Uch kishini**

54. «Dushanba kuni kechasi», «Oy etak bilan yopilmas» boblari qaysi asardan olingan?

J: **«O'tkan kunlar» romanidan**

55. «Otabek ko'zini to'ldirib binog'a qaradi, go'yo bu qarashda ul dunyo malagi bilan vidolashar edi». Bu parcha romanning qaysi bobidan olingan?

J: **«Dushanba kuni kechasi» bobidan**

56. Otabekning Marg'ilonda dushmanlardan o'ch olganini Yusufbek hoji «Jo'n odamlar qatorida odam o'ldirish», deb baholaydi. Otabek buni qanday izohlaydi?

J: **Jo'n odamlar qatorida emas, majburlar qatorida, zo'rlanganlar qatorida deb**

57. Otabekka maktub yozgan Kumush uni qanday ataydi? J: **Qochqoq**

58. Qaysi asarda timsollarning taqdir sinovlaridan

o'tishdagi sifatlarini tasvirlash asnosida xalqning fazilatlari namoyon qilingan? J: «O'tkan kunlar»

59. Qaysi asarning bosh qahramonlari novdaligidayog xazon etilgan bo'lsa-da, unda qandaydir yorug' ruh hukmonlik qiladi? J: «O'tgan kunlar»

60. «O'tkan kunlar» romanida Otabelk ijtimoiy maslagi ni qachon ayon etadi?

J: Ziyoshehichining uyidagi ziyofatda

### BADIY ASARDA MILLIY RUH IFODASI

1. Badiiy asar milliy bo'lishidagi eng muhim belgi nima?

J: Asarning milliy tilda yaratilgani

2. Chinakam milliy asar qanday bo'ladi?

J: Unda faqat til emas, balki qahramonlarning tabiatini tasvirlash ham milliy bo'ladi

3. Qaysi asar milliy ruh juda bo'rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi? J: «O'tkan kunlar» roman

4. Milliy ruh yaqqol aks elgan asarlar qanday bo'ladi? J: Ularda personajlarning xatti-harakatlari, o'ylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiliga mansub ekanligi o'z-o'zidan anglashilib turadi

5. «O'tkan kunlar» romanida milliy ruh nimalarda yorqin namoyon bo'ladi? J: Kumush Otabelknikni nikoh kechasi da ko'rganda «siz o'shami?» deb entikkanida, er-xotin uzoq Judolikdan keyin diydor ka'rishgach, Kumush «Siz qochqoqsiz?» deb Otabelknin yuziga sekingina shapatilib, erkalaganida namoyon bo'ladi

## ABDULHAMID CHO'LPON

1. Cho'lponning 20-yillarda yaratilgan she'riarini toping.

J: «Ko'ngil», «Kishan», «Vl'don erki»

2. Cho'lpon tarjima qilgan asarlarni toping.

J: «Hamlet» (Shekspir), «Malikayi Turondot» (Gossi), «Xasis» (Molyer), «Ikki boyga bir qarol» (Goldoni), «Bosmachilar» (Shiller), «Tergovchi» (Gogol), «Boris Godunov» va «Dubrovskiy» (Pushkin), «Osilgan yetti kishining hikoyasi» (L.Andreyev), «Ona» va «Yegor Blichev va boshqalar»

3. Cho'lponning qaysi asarlari hikoya janrida?

J: «Qurban ni jaholat», «Do'xtur Muhammadiyor», «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynda lola», «Oq podshoning In'omi»

4. Cho'lponning she'riy to'plamlarini toping.

J: «Uyg'onlsh» (1922), «Buloqlars» (1923), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935)

5. Cho'lponning 1917-yildan keyingi Turkistonning qonli manzaralari aks elgan qaysi she'riga «Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q. Go'daklar nayza boshida...» so'zlari epigraf qilib olingen? J: «Yong'inx»

6. Cho'lponning ijtimoiy lirkasiga oid bo'lgan she'rlarini toping. J: «Ko'ngil», «Kishan», «Yong'inx», «Vl'don erki»

7. Cho'lponning «Kecha va kunduz» asari haqidagi lo'g'ri hukmni toping.

J: 1-kitob 1933 – 1934-yillarda Cho'lponning O'zbekistonda boshlangan qatog'onidan qochib, Moskvada yashayotgan davrida yaratilgan, romanining

dastlabki boblari 1935-yili Toshkentda nashr etilgan adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar to'la holda 1936-yili kitob holida e'lon qillngan

8. Cho'lpon maqolalarini qaysi taxalluslar bilan e'lon qilgan? J: **Qalandar, Mirza qalandar, Q.Andijonlik**

9.Qaysi shoir Fitratning taklifiga ko'ra 1921 – 1922-yillarda «Buxoro axbori» gazetasini boshqaradi? J: **Cho'lpon**

10. Cho'lponning dramalarini toping.

J: «Yarqinoy» (1921), «Halil farang» (1921), «Yana uylanaman» (1926), «Cho'rining isyonii» (1926), «O'rtoq Qarshiboyev» (1928), «Hujum» (1928)

11. 1927-yilda bo'lib o'tgan qurultoyda kim Cho'lponni «g'oyaviy tuturuqsiz», deb qoralaydi? J: **Akmal Ikromov**

12. 1932-yilda Moskvaga ko'chib o'tib, u yerda Gogolning «Tergovchi», Frankoning «Feruza», Andreyevning «Osilgan yetti kishining hikoyasi» asarlarini o'zbekchalaشتiradi. Bu qaysi ijodkor? J: **Cho'lpon**

13. Cho'lponning 1914-yil 18-aprelda «Sadoyi Turkiston» gazetasida bosilgan she'ri?

J: «Turkistonli qarindoshlarimizga»

14. Cho'lponning 1914-yilda bosilib chiqqan asarlari? J: «Turkistonli qarindoshlarimizga» she'ri, «Qurbanbi Jaholat» hikoyasi, «Adabiyot nadur?» maqolasi, «Do'xtur Muhammadiyor» hikoyasi

15. Qaysi asar Cho'lpon ijodining mohiyatini ifodalab beradi? J: «Adabiyot nadur?» maqolasi

16. «Ha, lo'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'llida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul

qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar» fikrlari kimning qaysi asaridan olingan?

J: Cho'lperring «Adabiyot nadur?» maqolasidan

17. «Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngliga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadirgan toza ma'rifat suvi, chang va tufroqlar to'lgan ko'zlarimizni artub, tozalaydurgan buлоq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur» fikrlari kimning qaysi asaridan olingan?

J: Cho'lperring «Adabiyot nadur?» maqolasidan

18. Cho'pon 1922-yilda qaysi jurnal bilan hamkorlik qiladi? J: «Inqilob» Jurnali bilan

19. Cho'pon qaysi yili Moskvada dramsludiyada tarjimon va dramaturg bo'llib ishlaydi?

J: 1924 yilda

20. Qaysi yillar Cho'pon uchun samarali ijod davri bo'ldi? J: 20-yillar

21. «Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni ya'qotdim-ku. Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku». Ushbu misralar muallifini toping.

J: Cho'pon, «Qalandar Ishqi»

22. Cho'ponning «Ko'ngil» she'ni qanday boshlanadi?

J: Ko'ngil, sen bunchalar nega Kishanlar birla do'stlashding?

23. Cho'ponning «Ko'ngil» she'ni qanday yakunlanadi?

J: Kishan klyma, Bo'yin egma Ki, sen ham hurg'ilgansan!

24. Cho'pon «Ko'ngil» she'rida bir-biriga zild bo'lgan

ikki narsaning do'stligidan hayratga tushadi. Bular qaysilar? J: **Ko'ngil, kishan**

25. Cho'lponning «Kishan» she'ri qanday boshlanadi?

J: **Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham biltgani yo'qtur**

26. Cho'lponning «Kishan» she'ri qanday yakunlanadi?

J: **Faqat butkul qutulmaqqa umidim endi ortuqdir!**

27. «Ko'nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar, ...larga buzuq ko'ksin ochganmi?» «Yong'in» she'ridan olingen satrlarda nuqtalar o'rniqa qaysi so'zni qo'yish mumkin? J: **Boyqush**

28. «Keng yaylovga o'tmi ketdi, yondimi? ... istagiga qondimi?» «Yong'in» she'ridan olingen satrlarda nuqtalar o'rniqa qaysi so'zni qo'yish mumkin? J: **Madaniyat**

29. «Hayvonlarga, insonlarga Zolim ega bo'lmay qolmas. Faqat erkin vijdonlarga Ega bo'lmoq mumkin emas!» Ushbu misralar muallifini toping.

J: **Cho'Ipon «Vijdon erki»**

30. Intim so'zining ma'nosi nima?

J: **Eng Ichki, yashirin**

31. «Agar zulm avjga kelsa, Ko'k boshi-da yerga tegar» misralari Cho'lponning qaysi she'ridan olingen?

J: **«Vijdon erki»**

32. Cho'lpon qaysi she'rida «Bashar tarixing har saf-hasida qonli dog'ing bor!» degan so'zlarni yozadi. Bu yerda gap nima haqida ketyapti? J: **Kishan**

33. «Men endi topdim baxtimni. Hammayog'im shuniki. Boshqalarga besh-to'rt tanob yermi tirikligimda o'tkazib berib, qolgan davlatimni batamom shunga qoldiraman». Ushbu fikrlami Akbarali mingboshi kimga aytgan? J: **Hakimjonbaev**

34. Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romanida Zebi Akbaralining nechanchi xotini edi? J: **To'rtinchi**

35. «Kofir bilan itning farqi yo'q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo'lsa, kofirdan ham qochmasangiz bo'ladi. Bu jaiz?» Bu gaplarni Zebini sud majlisida yuzini ohib o'tirishi uchun kim aytgan? J: **Domla-eshon**

36. «Men bu taklifga qarshi emasman. Albalta, mening bu masalada boshqa mulohazalarim bor. Men urush vaqtining nozik paytlarida bo'lgan bu o'dirishga oddiy o'dirish kabi qarolmayman. O'ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqati bilan tanilgan odam edi. Uni «yosh sart» maxfiylari, ayniqsa, ularning dushmanlari bo'lgan Turkiya bilan fikran bog'lanishgan unsurlar yomon ko'rardilar». Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?

J: **Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romani**

37. Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romanida Zebi erini o'ldirgani uchun qanday jazoga mahkum etiladi?

J: **Yetti yil Siblrga surgun**

38. «O'zi iqrar emas, inkor qildi, shekilli-ku?» Ushbu satrlar Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romanidagi qaysi qahramonga tegishli?

J: **Domla-eshon**

39. Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romanida Akbarali o'lgandan so'ng uning o'rniga kim mingboshi bo'ladi?

J: **Zunnun**

40. «Xudo xudo bo'lib turib ham oladi, ham beradi, yo'q-a, u ilgari jon berib, keyin jon oladi. Yer yer bo'lib turib ilgari rizq beradi, keyin jon oladi. Olgan beradi-da! Sen nimasan, pirim, sen? Xudodan zo'rmisan? Yerdan kuchli-

misan? Olasan, bermaysan. Olasan, bermaysan». Ushbu fikrlar kimni? J: **Razzoq so'fi**

41. Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romanidagi qaysi qahramon millatdoshlarini o'ylamaydi, ularga achinmaydi. Odamiylik haqidagi ortiqcha injiqqliklardan xoli va shu bois kattalarning zanjirdagi itiday gap? J: **Akbarali mingboshi**

42. Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romanida Zebini o'ldirish uchun uning tabarruk suv solingan choynagiga kim zahar solib qo'ygan edi? J: **Poshshoxon**

43. «Kecha va kunduz» romanida Poshshoxon uydagilar kimning uyiga kirib ketganda Zebining uyiga zaharli suv solib qo'yadi? J: **Dadaboy baqqolning**

44. «Soddasan, Akbarali. Podsholik hamma vaqt yurting obro'ylik odamlarini himoya qiladi. Obro'y davlat bilan topiladi». Ushbu fikrlar «Kecha va kunduz» romanining qaysi qahramoniga tegishli? J: **Noyib to'ra**

45. «O'risga ham qiyin. Unday usta amaldorni endi Chin-Mochindan topib kelmasa, bu yurtlarda topilmas». Akbarali mingboshi haqidagi ushbu fikrlar «Kecha va kunduz» romanining qaysi personajiga tegishli?

J: **Razzoq so'fi**

46. «U yer, bu yerga arz qilib ko'ring. Bu nozik zamon-da arz qilishdan biron natija chiqarmikan? Nevlay-da. Bir sudning hukmini yuqoriyoq bir sud buza oladiku-ya. Zaman nozik, ish nozik; shundan qo'rquamani!» Ushbu fikrlar «Kecha va kunduz» romanining qaysi personajiga tegishli?

J: **Hakimjon**

47. «Fazilatxon ichkaridan bir mis tovoqda non bilan mayiz ko'tarib chiqqanda tashqarida mehmondan ham,

mezbondan ham darak yo'q edi». Fazilatxon qaysi asar qahramoni? J: «**Kecha va kunduz**»

48. «Nima bo'ldi bu juvonga? Ertalabdan kechgacha kundoshlari bilan o'pishadi, gapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, qochadi, quvlaydi, quvlashadi. Qor yoqqanidan beri qishloqning yarim xotin-qizlari bilan qor otishib chiqdi. Uchtasi bilan «qorxat» o'ynab yuldi». Ushbu ta'rif «Kecha va kunduz» romanidagi qaysi qahramonga tegishli? J: **Sultonxonga**

49. Qaysi asar qahramoni qalbida kech uyg'ongan otalik mas'uliyati uni qotillik qilishga undaydi?

J: «**Kecha va kunduz**» romanining

50. Qaysi asar qahramonini tom ma'noda o'zini «muhitning erki»ga bergen o'zbek qizi deyish mumkin?

J: «**Kecha va kunduz**» romani qahramoni **Zebinl**

### **MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LIOYBEK**

- , 1. Oybekning ilk she'ri qayerda bosilgan?

J: «**Tong yulduzis** nomli devariy gazetada

2. Qaysi yozuvchi o'zining xotiralarida «Xayel daryosi keng edi menda. O'qtin-o'qtin o'zimcha mashq qilib, bitla-yarimta she'r yozib ham qo'yardim» deb yozgan?

J: **Oybek**

3. «Oybek oriq va novcha yigit bo'lib, qo'ng'ir, qalin sochlari do'ppisidan toshib turardi. Yirik qora ko'zları shogirdlik davridayoq teran ma'noli va xayolchan edi». Oybek haqidagi ushbu fikrlar kimniki?

J: **Zarifa Saidnosirovanlik**

4. Oybekning qaysi dostonlari 30-yillarda yaratilgan?

J: «Dilbar davr qizi», «O'ch», «Baxtigul va Sog'Indiq», «Navoiy»

5. Oybek qalamiga mansub bo'lgan qissalarni toping.

J: «Nur qidirib», «Bolalik», «Bola Alisher»

6. Oybek qalamiga mansub bo'lgan romanlarni toping.

J: «Quyosh qoraymas», «Ulug' yo'l», «Oltin vodly-dan shabadalar»

7. Oybekning «Qutlug' qon» romani qachon yaratilgan? J: 1938-yilda

8. Oybekning «Navoiy» romani qachon yaratilgan?

J: 1942-yilda

9. Oybekning urush yillarida yozilgan tarixiy dramas?

J: «Mahmud Torobiya»

10. Oybek qachon Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi? J: 1943-yilda

11. Oybekning «Na'matak» she'rining hajmi?

J: 4 band, 20 misra

12. «Nafis chayqaladi bir tup na'matak» misralari 1-bandda necha marta qayerda takrorlanadi?

J: 2 marta band boshi va oxirida

13. «Tog'lar havosining feruzasidan Mayin tovlanadi butun niholi. Vahshiy qoyalarning ajib ijodi». Ushbu misralar qaysi she'r dan olingan?

J: Oybekning «Na'matak» she'ridan

14. Oybek qaysi she'rida o'n ikki buлоqni axtaradi?

J: «Tog' sayri» she'rida

15. Oybek «Tog' sayri» she'rida o'n ikki buлоqni nima-larga o'xshatadi?

**J: She'rga, bahorga, ko'zga, qizga, plyolaga**

16. Oybekning «Tog' sayri» she'rida buloqqa nima muhabbat izhor qiladi? **J: Shamol**

17. Oybekning «Qutlug' qon» romanidagi Yo'lchi qayerlik edi? **J: Xo'jakentlik**

18. «Bu o'n besh-o'n olti orasida bo'lgan, qoramtil, lekin toza, sog'lom yuzli, ko'zlar bolalarcha o'ynoq-sho'x, jingalak sochli, bo'ychan, qishloqcha sodda, samimiy bir qiz edi». Ushbu ta'rif Oybekning «Qutlug' qon» romanidagi qaysi qahramonga tegishli? **J: Unsln**

19. Oybekning «Qutlug' qon» romanidagi Yo'lchini qamashda ishtirok etgan ellikboshining ismi kim? **J: Olimxon**

20. Oybekning «Qutlug' qon» romanida kimning buyrug'i bilan isyon ko'targan qurolsiz xalq o'qqa tutildi?

**J: Mochalovning**

21. Oybekning «Qutlug' qon» romanida o'qdan yarlangan Yo'lchining oldida qaysi do'stlar hozir bo'lishdi?

**J: O'roz, Qoratoy**

22. «Qizim, jon qizim. San o'tanma. Bu juda katta o'lim. Akang mard yigit edi. Nomus bilan, mardlik bilan o'ldi». Ushbu fikrlarni Oybekning «Qutlug' qon» romanidagi qaysi qahramon kimga aytgan? **J: Shaklr ota Unsinga**

23. Oybekning «Qutlug' qon» romanida Yo'lchini so'ng'i yo'lga kuzatishda kimlar ishtirok etgan?

**J: O'roz, Shaklr ota, Qoratoy**

24. «Oybek shu qadar qizg'inlik bilan ishladiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq onging munavvarlanishi tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asari dunyoga keldi». Bu asar qaysi edi? **J: «Qutlug' qon»**

25. «Oybek shu qadar qizg'inlik bilan ishladiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq onging munavvarlanishi tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asari dunyoga keldi». Oybek haqidagi ushbu fikrlar kimni? J: **Hamil Yaqubov**

26. Oybekning qaysi asari muhokamasida revolusioner Petrov obrazini kiritish kerakligi aytildi? J: **«Qutlug' qon»**

27. Qaysi asar asosida 1916-yilda Toshkenda bo'lib o'tgan xalq qo'zg'oloni yotadi? J: **«Qutlug' qon»**

28. «Qutlug' qon» romanida Yo'lchi Mirzakarimboy dargohida ishlab, undan qancha haq oladi? J: **40 so'm**

29. «Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, keksa tovuql!» «Qutlug' qon» romanidagi ushbu kinoyali gaplar kimga qaratilgan? J: **Mirzakarimboya**

30. «Qutlug' qon» romanida Unsinga onasidan nima yolg'iz yodgorlik bo'lib qolgan edi? J: **Kumush bilaguzuk**

31. Unsin uni ko'rgani kelgan akasi Yo'lchiga: «Qo'rqa-man, meni bu yerdan olib keting. Yolg'iz ko'rsa tegishlavera-di. Yomon gaplar gapiradi», – deydi. Unsin kimdan qo'rqrar edi? J: **Salimboyvachchadan**

32. Yo'lchi Mirzakarimboy eshigida necha yil xizmat qiladi? J: **2 yarim yil**

33. «Fuqaroda norozilik zo'raydi, boyvachcham: Faqirlikka bo'ysunmaydi, qimmatchilikni Ollodan ko'rmaydi. Bir ko'pi boylardan ko'radi. O'g'ri, muttaham, daydilarning soni yo'q». Bu fikrlar kimga tegishli? J: **Olimxon ellikboshiga**

34. «Durust, Yo'lchi yomon bola. Ammo, biz uni orqasida qopi bilan, qo'lida tuguni bilan yoqalaganimiz yo'q, pichog'ida hali qon ko'rmasidik. Mahkamadagi o'ris to'ralarini

qo'iga olish, Yo'lchini biron narsada ayblash kerak bo'ladi. Bu narsa hazil emas!» Bu fikrlar kimga tegishli?

**J: Olimxon allikboshiga**

35. «Qutlug' qon» romanida qalandar choyxonada qaysi shoirning she'rлaridan o'qirdi? J: **Mashrab g'azallarini**

36. Yo'lchi: «Nima gunoh qildim? Qamchiga uzr so'raymanmi?» – deb kimdan qamchi yeganda aytadi?

**J: Choyxonada o'ris politsiyachisidan qamchi yeganda**

37. Yo'lchi: «san odam emas, cho'chqasan», – deb kimga aytadi? J: **O'ris politsiyachiga**

38. Yo'lchi kimning istagiga ko'ra qamaladi?

**J: Hakimboyvachchaning**

39. Yo'lchi qamalganidan so'ng Unsin kimning uyida yashay boshlaydi? J: **Shokir otanling**

40. Yo'lchi qanday halok bo'ladi? J: **Mardikorlikka ollishga qarshi xalq qo'zg'olonida jonbozlik ko'rsatib halok bo'ladi**

41. Toshkentda xalq qo'zg'oloni bo'lganda Oybek necha yoshda bo'lgan? J: **11 yoshda**

42. «Oybek buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham u o'ta tahirkali va fojeali kunlarda, g'urbat yutib kechirilgan hayotda «Qutlug' qon»day go'zal va o'llmas bir asarni yaratdi». Oybek haqidagi ushbu fikrlar kimga tegishli?

**J: Oybekning rafiqasi Zarifa Saldnosirovaga**

43. «Bir onda u o'z kuchining o'lchovsiz darajada o'sganini sezdi. Dushman qo'lidan chapdastlik bilan o'lja olingen qilchini, quyoshda olov singari yongan quroqlin havoda baland ko'tardi». Bu qaysi qahramon tabiatidagi tasvirlar? J: **Yo'lchining jangga kirdgandagi holati**

44. Unsin Yo'lchi vafotidan keyin unga nimani topshiradi? J: **Gulnor bergan uzukn**

45. Shokir ota xotinining ismi? J: **Saodat kamplr**

46. «Qutlug' qon» romanida Yo'lchi va Gulnor kimning uyiga berkingan edilar? J: **Shoqosimning**

47. «Qutlug' qon» romanida Unsin Mirzakarimboyning uyida kimlarning bolalarini boqar edi?

J: **Tursunoy, Sharofatxonning**

### **ROMAN SHAKLI HAQIDA**

1. Ilk romanlar bundan necha yil oldin yozilgan?

J: **2500 yil oldin**

2. «Roman» so'zi qaysi tildan olingan?

J: **Fransuz tillidan**

3. O'zbek romanchiligini kim boshlab bergan?

J: **A.Qadiriy**

4. Biror milliy adabiyotning darajasi nima bilan belgilanadi? J: **Unda romanchilik qanchalik rivojlangshanligi, bilan**

5. Roman deganda nima tushuniladi? J: Personajlarning boshqalarga o'xshamaydigan, o'ziga xos jihatlarini biror voqeа-hodisa asosida ko'rsatib beradigan, katta hajmiл asar tushuniladi

6. Ilk romanlar qanday yozilgan?

J: **Faqat sochma yo'lida qora so'z bilan bitilgan**

7. Romanlar qanday turlarga bo'lindagi?

J: **Nasrly, she'riy romanlar**

8. «Qutlug' qon» romani qanday roman? J: **Tarixly**

9. Tarixiy romanlar qanday bo'ladi? J: Ularda alohida odamlarning alohida taqdirlarini aks ettirish bilan birgalikda butun boshli xalqning hayotida muhim bosqich bo'lgan voqealar tasvirga olinadi

10. Romanlarning mazmuniga ko'ra turlarini toping.

J: 1. tarixiy 2. falsafly 3. siyosiy 4. maishiy  
5. biografik 6. fantastik 7. detektiv

11. Ikki kitobdan iborat roman qanday ataladi?

J: Dilogiya

12. Uch kitobdan iborat roman qanday ataladi?

J: Trilogiya

13. To'rt kitobdan iborat roman qanday ataladi?

J: Tetralogiya

14. Besh kitobdan iborat roman qanday ataladi?

J: Pentalogiya

## ODIL YOQUBOV

1. Qaysi ijodkor 1926-yil Janubiy Qozog'iston viloyatining Qarnoq qishlog'ida tug'ilgan? J: Odil Yoqubov

2. Odil Yoqubov nechanchi yillarda «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining bosh muharrirlari lavozimida ishlagan? J: 1982 – 1989-yillar

3. Odil Yoqubov nechanchi yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi sifatida faoliyat ko'rsatdi?

J: 1989 – 1996-yillar

4. Odil Yoqubov nechanchi yillarda Atamashunoslik qomilasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatdi?

J: 1996 – 2004-yillar

5. Odil Yoqubov 2005-yilgacha qaysi vazifani bajar-gan? J: **Markaziy Oslyo xalqlari madaniyati Assambleyasining vltse-prezidenti**

6. Odil Yoqubovning 1-asari haqidagi qaysi hukm lo'g'ri? J: Ilk asari «**Tengdoshlar**» qissasidir, harbiy xizmatda ekanligida yozilgan, 1951-yilda «**Sharq yulduzi**» jurnalida boslib chiqqan

7. Odil Yoqubov qissalarini toping. J: «**Tengdoshlar**», «**Matluba**», «**Muqaddas**», «**Tilla uzuk**», «**Larza**», «**Qanot Juft bo'ladi**», «**Billur qandillar**», «**Izlayman**»

8. Odil Yoqubovning «**Ikki muhabbat**» nomli nasriy asarlardan iborat kitobi qachon chop etilgan? J: 1956-yilda

9. Odil Yoqubov pyesalarini toping. J: «**Chin muhabbat**», «**Olma gullaganda**», «**Yurak yonmag'i kerak**», «**Aytsam tlim kuyadl, aytmasam dlim**»

10. Odil Yoqubovning romanlarini toping.

J: «**Er boshiga ish tushsa**», «**Ulug'bek xazinasি**», «**Ko'hnha dunyo**», «**Diyonat**», «**Oq qushilar, oppoq qushilar**», «**Adolat manzili**»

11. «**Ulug'bek xazinasи**» romanida Ulug'bekka shahzo-da Abdulaziz va shayxulislom Burhoniddin kimdan chopar kelganini ma'lum qilishadi? J: **Amir Iskandar barlosdan**

12. «**Ulug'bek xazinasи**» romanida «**Darvozayi ohanin**»ning dorug'asi kim edi? J: **Mironshoh**

13. «**Ulug'bek xazinasи**» romanida Shohruhiya qal'asi-ning dorug'asi kim edi? J: **Ibrohim Pa'lat o'g'li**

14. «**Ulug'bek xazinasи**» romanida Ulug'bekka xiyonat qilgan beklamlı toping.

J: **Mironshoh, Sulton Jondor, Ibrohim Pa'lat o'g'li**

15. «Ulug'bek xazinasi» romanida uzoq Yassidan haqiqat izlab, Ulug'bek taxtiga bosh urib kelgan va undan ko'p yaxshiliklar ko'rgan iste'dodli shoir, arslon yurak jangchi kim? J: **Qalandar Qarnoqiy**

16. «Ulug'bek xazinasi» romanida Ulug'bekning noyob kutubxonasini asrab qolishda 'Ali Qushchiga yordam berган shaxslarni toping.

J: **Temur Samarcandiy, Qalandar Qarnoqiy**

17. «Ulug'bek xazinasi» romanida Ulug'bek «Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa – sening baxting! Va lekin fataknning gardishi bilan toj-u taxt qo'limda qoisa, esingda bo'lsin: oyog'ingdan dorga osib, ostingdan o't qo'yamen!» deb kimga ayladi? J: **Sulton Jondorga**

18. «Ulug'bek xazinasi» romanida Ulug'bek o'g'li Abdulatifga qarab nima yodiga tushadi? J: **Burgut**

19. «Ulug'bek xazinasi» romanida Abdulatifning tushiga otasining o'llimidan keyin kim kirib o'zining boshini laganda unga taqdim etadi? J: **Sulton Jondor**

20. «Ulug'bek xazinasi» romanida Abdulatif yomon tush iskanjasidan qutulish uchun kimning kitobidan o'qimoqqa tutirdi va undagi «Padarkush, toj-u taxt, olti oy» degan baytni o'qib dahshatga tushadi? J: **Nizomiy Ganjaviyning**

21. Mirzo Ulug'bekning suyukli navkari kim edi?

J: **Bobo Husayn**

22. «Siz Damishqda qolib, Iskandar barlos suvoriylari- ga ko'mak bergaysiz, amir! Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to'xtatgaysiz», degan farmoni oliyni Mirzo Ulug'bek kimga buyuradi? J: **Amir Idris tarxonga**

23. Mirzo Ulug'bekka qaysi qal'a dorug'alari xiyonat qiladi? J: **Darvozayi ohanin va Shohruxiya qal'aları**

24. «Salohdorning boshini olishga qo'ling kaltalik qilladurl Buning boshi emas, o'z boshingga ehtiyoj bo'lg'il, Muhammad Tarag'ayl» Mirzo Ulug'bekka bu gaplarni kim aytadi? J: **Xoin Amlr Sulton Jondor**

25. «U bir daqiqagina ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bilan bir soniyagina olishdi, so'ng, arg'umog'ining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullaifga bosh egishga, yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik bo'lsa-da, o'z surriyotidan ko'tishga ahd qildi». Mirzo Ulug'bek bu xulosaga qachon keldi?

J: **Shohruhiya qal'asi ham qo'ldan ketgandan keyin**

26. «Faqir bu chappa dunyodan haqiqat izlab topolmagan, adashgan bandadurmen, ustod! Avvalambor sohibi toj Mirzo Ulug'bekdan elimga madad istab kelib, madad topmadim. Yurtimdan ayrilib, bevatan bir musofir, kulbasiz bir daydi it bo'ldim. Haqiqat deb kirmagan ko'cham, bosh urmagan eshigim qolmadi, axiyri ahli ollo gadolariga ixlos qo'ydim». Bu fikrlar kimga tegishli?

J: **Qalandar Qarnoqlyga**

27. Qalandar Qarnoqiyning Ali Qushchi huzuriga kelishdan maqsadi nima edi? J: **Amir Temur oltinlarini saqlab qolishga yordam berish**

28. Amir Temur oltinlari qayerga ko'milgan edi?

J: **Rasadxona Ichliga**

29. Ali Qushchida Amir Temurning oltinlari borligidan kim xabardor edi? J: **Xoja Salohiddin zargar**

30. Mirzo Ulug'bek kitoblarini kim makruh deb e'lon qiladi? J: **Janob Nizomiddin Xomush**

31. Ali Qushchi Amir Temur oltinlarini qayerga yashirgan edi? J: **Kitoblar orasiga**

32. Rasadxonadan xufyona chiqib ketish uchun qazilgan lahimni kimlar bilar edi?

J: **Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchi**

33. «Boshiga chambarak kigiz qalpoq kiygan, ko'pdan beri qaychi tegmagan qalin soqoli ko'ksiga fushgan bir chol», deb kim ta'riflanadi? J: **Temur Samarqandiy**

34. Temur Samarqandiy kimga qilich yasab berishdan bosh tortadi? J: **Shohruh Mirzoga, chunki u boshqa qilich yasamaslikka ont ichgan edi**

35. Temur Samarqandiyni kim o'lim jazosidan qulqarib qolgan edi? J: **Mirzo Ulug'bek**

36. «Hay, attang! Shunday zukko odam quzg'un sarkardalariga ishonib, qarigan chog'ida ko'p pand edi». Mirzo Ulug'bek haqidagi bu fikrlar kimga tegishli?

J: **Temur Samarqandiyga**

37. Ali Qushchi Temur Samarqandiyga kitoblarni arash uchun nechta sandiq yasash kerakligini aytadi?

J: **15 – 20 sandiq**

38. Mirzo Ulug'bek Ko'ksaroy chekkasidagi bir xonaga qamalganidan so'ng o'g'liga nechta maktub yo'llaydi?

J: **Ikkitा**

39. Mirzo Ulug'bekdan otasini begunoh qatl qildirgani uchun xun talab qilishini Abdulatifga kim aytadi?

J: **Said Abbos**

40. Said Abbosning xun talab qilgan dovini kim rad etadi? J: **Faqat qozl ul-quzzot Xoja Miskin**

## BADIY ADABIYOTDA RUHIYAT TAHLILI

1. Adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarigina emas, yana nimasi ularning tabiatiga muvofiq bo'lishi kerak?

J: Ko'ngil kechInmalari

2. «Ulug'bek xazinas» romanida qaysi qahramonlarning ruhiy tahliliga kuchli e'tibor qaratilgan?

J: Mirzo Ulug'bek va Abdulatifga

3. Badily asarlar qaysi jihatiga qarab baholanadi?

J: Insonning ruhiyatini qanchallik teran va ishonarli aks ettirishiga qarab

4. Badiiy asarda nima hech qachon eskirmaydi?

J: Qahramonlarning ruhiy holatlari

## ABDULLA ORIPOV

1. Qaysi ijodkor 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Neko'z qishlog'ida tug'ilgan? J: Abdulla Oripov.

2. Abdulla Oripovning otasi va onasining Ismini toping.

J: Orifboy, Turdixol

3. «...birinchi she'rlar yoza boshlaganimda nima turki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofiyatashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimadir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q». Bu parcha kimning tarjimiysi hoidan olingen? J: A.Oripovning

4. 1958-yili Tayzan ovulidagi o'rta maktabni oltin medal bilan tugatdi va Toshkent Davlat universitetiga o'qishga kirdi

5. 1963-yil universitetni bitirib, «Yosh gvardiya» nashriyotiga ishga kirdi

6. 1967 – 1974-yillarda G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda muharrir bo'lgan
7. 1974 – 1976-yillarda «Sharq yulduzi» jurnalida bo'lim boshlig'i bo'lgan
8. 1976 – 1982-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi bo'lgan
9. 1982 – 1983-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo'llimida mas'ul kotib bo'lib ishlagan
10. 1983 – 1985-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi bo'lgan
11. Abdulla Oripov qaysi yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi sifatida ishlab kelmoqda?  
J: 1996 yildan
12. Abdulla Oripovga qaysi yili «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni va Hamza nomidagi davlat mukofoti berildi?  
J: 1983-yil
13. Abdulla Oripov qachon O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi? J: 1994-yil
14. 1994-yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika Davlat mukofotiga loyiq ko'rildi
15. Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifi
16. Abdulla Oripovning ilk she'ri qanday nom bilan bosilib chiqqan? J: «Qushcha»
17. Abdulla Oripovning 1-she'riy to'plami?  
J: «Mitti yulduz» (1965-yil)
18. Abdulla Oripov tarjima qilgan asarlarni toping.  
J: Dante «Llochlly komediya», L.Ukrainka, T.Shevchenko, N.Nekrasov, Q.Quliyev, R.Hamzatov she'rlari

19. «Men insonni bir insonday sevardim, lekin Nechun ko'pdir haligacha razil odamlar». Ushbu satrlar Abdulla Oripovning qaysi she'ridan olingen? J: **«Sarob»**

20. «Qo'l ko'tarib bo'larmidi axir onaga, Zotan, unga qo'l ko'targan farzand sanalmas». Ushbu satrlar Abdulla Oripovning qaysi she'ridan olingen? J: **«Sarob»**

21. Abdulla Oripovning «Sarob» she'ri qanday boshlanadi? J: **Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada**

22. «Dunyodan ketmasin hech kim bemahal, Hech kimni bosmasin nogahon o'kinch. Ammo o'z boshiga kelmaguncha gal, Onajon, tosh qalblar turarmidi tinchi». Ushbu satrlar Abdulla Oripovning qaysi she'ridan olingen?

J: **«Bahor»**

23. Abdulla Oripovning «Bahor» she'rida «Bahor'ham, umr ham o'tar ehtimal, Faqat sen dunyoda mangu qolarsan», deyilganda kim yoki nima nazarda tutiladi? J: **Yurt**

24. «Ha, onamni o'ylar edim inson degan dam, Yo'q, maymundan tarqamagan derdim odamzod». Ushbu satrlar Abdulla Oripovning qaysi she'ridan olingen? J: **«Sarob»**

25. Abdulla Oripovning qaysi she'rida «bir vaqtlet sajda qilgan hazrati inson» endi «Ko'zlarimga goh ko'rinar' telba misoli», deyiladi? J: **«Sarob» she'rida**

26. Abdulla Oripov «Bahor» she'rida «O'n oykim, so'n mishdir u tanish na'ra. Hamon firog'ida fig'on chekar Shosh», deganda kimni nazarda tutadi?

J: **G'afur G'ulomni**

27. Abdulla Oripov «Bahor» she'rida «Beqiyos edi u she'r lochinli Xayoli bamisli Ko'ragoniydek», deganda kimni nazarda tutadi? J: **Maqsud Shayxzodani**

28. Abdulla Oripov «Bahor» she'rida onasi valotiga qancha bo'lganini esga oladi? J: **Besh-oy**

29. «Bu sokin elda ham ivirsir bahor, O'chgan xotiralar chirog'in yoqib», deganda qaysi joyni nazarda tutadi?

J: **Qabristonni**

30. «Faqat o'tmish bilan yashamas, garchand bo'lomaydi undan hech ozod». Ushbu satrlar Abdulla Oripovning qaysi she'ridan olingan? J: **«Bahor»**

31. Abdulla Oripovning «Kuz manzaralari» she'rida xazonlar nimaga o'xshatiladi?

J: **Yurakdan to'kilgan olovga**

32. Abdulla Oripovning «Kuz manzaralari» she'rida mezon nimaga o'xshatiladi?

J: **Shoirning chuvalgan, so'ngsiz o'ylariga**

33. Abdulla Oripovning «Kuz manzaralari» she'rida quyosh nimaga o'xshatiladi?

J: **Olis yoslikda qolgan muhabbatga**

34. Abdulla Oripov «Genetika» she'rida keyingi avlod-larga o'zidan nima meros bo'lib qolishini ta'kidlaydi?

J: **Kurashlarda toblangan xayol va buyuk bardosh**

35. Qaysi shoir lirikasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarining suvratlari, armonga aylangan orzular inson sezimlarida qoldirgan iz tasviri kirib keldi?

J: **Abdulla Oripov**

36. Qaysi shoir she'riyati o'tgan asrning 60 – 70-yillarida o'zbek millatini tuyg'ularning quruqshab qolishidan saqlab qoldi? J: **Abdulla Oripovning**

37. Abdulla Oripov she'riyatidan parchalar: «Asablar tuproqqa cho'kkан edi tiz», «Yiroq-yiroqlardan mungli va

uzun Turnalar tovushin tinglardim faqat», «Sonsiz egatlar-  
ga sochilmish, ana, Mening orzularim, mening o'ylarim»,  
«Qaro sochlaringda oppoq alanga», «Shabnam shovul-  
laydi bog'lar qo'ynida, Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar,  
Quyoshning erinchak yog'dularida Nafis yaltiraydi bargi  
xazonlar», «Oyoqlangan qo'ziday dovdirar yelda maysa,  
Ko'm-ko'k moviy osmonda kezib yurar oq bulut», «Yorilma-  
gan yaradir sevgi», «Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,  
Zardoli shoxiga tashlar ko'z qirin», «Qizg'aldoq bargidek  
dildan uchar g'am, Toshqinlar kirdi qalbimga manim»

38. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostoni-  
da Temur Boyazidga qarshi jang qilayotganda kim bilan  
shatranj o'yaydi? J: **Aloviddin bilan**

39. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostoni-  
da shatranjda tengsiz ustá kim edi?

J: **Aloviddin**

40. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostoni-  
da Temur Boyazidga qarshi qaysi usulni qo'llaydi?

J: **To'lg'ama**

41. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostoni-  
da Temurga Boyazidning asir tushgani xabarini yetkazgan  
sarbozning ismini toping. J: **Qosimbek**

42. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostoni-  
da Amir Temurning davlatni ushlab turuvchi tayanchlari qay-  
silar? J: **Mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar**

43. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostoni-  
da Amir Temurning o'z dushmanlari gunohini ham kechira  
olishi qaysi timsollar orqali ochib beriladi?

J: **Sulton Boyazid**

44. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostonida Amir Temurning haddidan oshgan kimsalarni jazosiz qoldirmasligi qaysi timsollar orqali ochib beriladi?

J: **Amir Husayn**

45. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostonida Amir Temurning ezgu amallি kishilarni taqdirlashi qaysi timsollar orqali ochib beriladi? J: **Hofiz Sherozly va Qosimbek**

46. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostonida Amir Temurning kim bilan uchrashuvi asarning eng ta'sirli lavhalaridandir? J: **Ahmad Yassavly bilan**

47. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostonida kim Temurga «Niyat qancha jozibali bo'lsa ham, Temur, qilich bilan murod hosil bo'lmosi gumon», deydi?

J: **Ahmad Yassaviy**

48. Abdulla Oripovning qaysi she'rida tush tasviriga keng o'rин beriladi? J: **«Ketganlar yodi bu»**

49. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostonida Sultan Boyaziddan qaysi chopar maktub keltiradi?

J: **Sulton Shabli**

50. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostonidagi Buqalamun kim? J: **Temurning xufiyasi**

51. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramatik dostonida Buqalamunning asti ismi kim bo'lgan? J: **Itolmas**

52. Amir Temur qo'shining o'ng qanotini kimga topshiradi? J: **O'g'il Mironshohga**

53. Amir Temur qo'shining chap qanotini kimga topshiradi? J: **O'g'il Shohrux Mirzoga**

54. Jangga yov tarafdan qancha jangchi yo'lga chiqqan edi? J: **400 ming lashkar**

55. Amir Temur nima uchun jang vaqtida shatranj o'ynagan? J: Shatranj o'ynab turib jang qilishini eshitgan Boyazidni tahlikaga tushirish uchun

56. Amir Temur Boyazidga qarshi ajdahodek o't purkaguvchi qaysi quralni ishga tushirishni buyuradi?

J: Naftandozni

57. Amir Temur shatranj o'yinida qaysi tosh orqali Aloviddinni yengadi va bunga qanday izoh beradi?

J: Rux orqali yengadi va o'ziga ruhlar madadkor bo'layotganini ta'kildaydi

58. Amir Temur dushmanning yengilganini xabar berган sarbozni qanday taqdirlaydi?

J: Samarcandga qaytib borgandan keyin nabiralaridan birini uning nikohiga berishga va'da beradi

59. Boyazid yengilganini xabar bergen sarboz qayerlik edi va otasi haqida nima deydi?

J: O'zi keshlik bo'lib, otasi ham Amir Temurga sarboz bo'lganini va Dehli jangida shahid ketganini aytadi

60. «Chumolilar xor qilishsa arslon rutbasin, Buzilgadir o'mmonning ham qonuniyati» fikrlarini Amir Temur kimga qarata ayladi?

J: Boyazidning qo'l-yog'ini bog'lagan navkarga qarata

61. Amir Temur Boyazidning laqabi va uning jangda mag'lub bo'lganini qanday izohlaydi?

J: «Sen Yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq Cho'ng Temirga urilding-u, chilparchin bo'lding»

62. Amir Temur o'zi va Boyazidning nogironligi haqida nima deydi?

J: «Men bir langu, sen esa ko'r, notavon so'qir, Bu duniyoda butun odam topilmagandek, Ikkimizga yer yuzining Jilovin barmish»

63. «Sohibqiron» dramasida Amir Temur qanday aks ettiriladi? J: Ko'proq Janglarda emas, o'ylar girdobida

64. Dramada Amir Temurning fuqarolarga munosabati qanday aks etgan?

J: «Hukmdorlar seva turib fuqarolarni, Umid hamda qo'rquv Ichra saqlashl darkor», degan qarashida

65. Amir Temur doim muzaffar ekantigini qanday izohlaydi? J: «Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun», degan satrlarda

66. «Sohibqiron» dramasida asar muallifi o'z nuqtayi nazarini kimning qarashlari orqali beradi?

J: Ahmad Yassaviy

67. Olamni kuch bilan bosib olishdan odamlar dilini haq so'z bilan zabit etish to'g'riroqligi haqidagi fikrni kim Temurga aytadi? J: Ahmad Yassaviy

## LIRIK QAHRAMON

1. Lirik asarda tuyg'u va o'yulari tasvirlangan shaxs obrazi qanday nomlanadi? J: Lirik qahramon

2. Adabiyotshunoslikka lirik qahramon tushunchasi kim tomonidan olib kirilgan? J: Tilyanov

3. Adabiyotshunoslikda birinchi marta lirik qahramon tushunchasi nechanchi yilda qo'llanilgan? J: 1921-yilda

4. Lirik asarlarda ishtiroy etadigan asosiy timsol kim?

J: Shoirning o'zi

5. Chinakam lirik asarning qahramoni qanday bo'lishi kerak? J: O'ziga xos tabiat, fe'l, kayfiyat, taqdir egasi sifatida namoyon bo'lishi, uning sezim va kechinmalarlari she'rxonni loqayd qoldirmasligi kerak

### VILYAM SHEKSPIR

1. Shekspir qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1564-yilda Angliyaning Stretford shahrida

2. Shekspir qaysi teatrda aktyorlik qilgan?

J: «Globus» teatrida

3. Shekspir nechta dramatik asar yozgan?

J: 40 ga yaqin

4. Shekspir tragediyalarini toping. J: «Hamlet», «Otello», «Makbet», «Qirol Lir», «Romeo va Julietta»

5. Shekspir komedyalarini toping.

J: «Yoz kechasidagi tush», «Venetsiya savdogari», «O'n ikkinchi kecha»

6. Qaysi tragediya Shekspir ijodining cho'qqisidir?

J: «Hamlet»

7. «Hamlet» tragediyasida Hamlet Daniya qirolligida ro'y bergen dahshatli voqealardan qanday xabar topadi?

J: Otasining arvohl bilan uchrashib

8. «Hamlet» tragediyasining asosini nima tashkil etadi?

J: Daniyalik muarrix Sakson Grammatik solnomalaridan o'rinn olgan «Daniya tarixi»dagι qadimgi rivoyat

9. Qaysi tragediya jahon adabiyoti va sahna san'atida eng ko'p bahs uyg'ctigan, torishuvlarga sabab bolgan asarlardan biridir? J: «Hamlet» tragediyasi

10. «Hamlet» tragediyasidagi Hamletning onasi qiroli-cha kim? J: **Hertruda**

11. «Hamlet» tragediyasida Daniya qirolini, ya'ni o'z akasini o'lirgan shaxs? J: **Klavdiy**

12. «Hamlet» tragediyasida Hertruda qanday vafot etadi? J: **Klavdly Hamletga tayyorlab qo'ygan zaharlangan sharobni bilmasdan Ichib qo'yib o'ladi**

13. «Hamlet» tragediyasida Ofeliya qanday vafot etadi? J: **Baxtsiz tasodif tuflayli suvgaga g'arq bo'llib o'ladi**

14. «Hamlet» tragediyasida kimlar fojeali o'ladi?

J: **Hamlet, Ofeliya, Klavdiy, Poloniy, Laert, Hertruda**

15. «Hamlet» tragediyasida «So'z aytarman munavvar bir kimsa nomidan», deb kim kim haqida aytadi?

J: **Horatsio Hamlet haqida**

16. «Hamlet» tragediyasi kim tomonidan qachon o'zbek tiliga o'girilgan? J: **1934-yilda Cho'lon tomonidan**

17. «Hamlet» tragediyasini 80-yillarning oxirida qaysi ijodkor to'g'ridan-to'g'ri ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girdi?

J: **Jamol Kamol**

18. «Otello» va «Qirol Lir» tragediyalarini kim o'zbek tiliga o'girgan? J: **G'afur G'ulom**

19. «Romeo va Julietta» tragediyasini kim o'zbek tiliga o'girgan? J: **Maqsud Shayxzoda**

20. «Yuliy Sezar» tragediyasini kim o'zbek tiliga o'girgan? J: **Uyg'un**

21. Shekspirning qaysi asari o'zbek teatrining ulkan yutug'i bo'ldi? J: **«Otello»**

22. Hayot haqiqatiga erishish uchun tragediya nechta muhim qonunga slova etishi kerak?

J: 3 ta: makon, zamon, qahramon

23. Shekspirning farzandlarining ismi?

J: Syuzen, Hamlet, Judit

24. Shekspir necha yoshga kиргунча biror asar e'lon qilgan emas? J: 29 yoshga

25. Shekspirning birinchi asarini toping.

J: «Venera va Adonis» dostoni (1593)

26. Shekspirning birinchi dostoni necha marta nashr qilingan? J: 8 marta

27. Shekspirning ikkinchi dostoni qanday nomlanadi?

J: «Lukretsiya»

28. Shekspirning qaysi asari homiy yosh gersog Sautgemptonga bag'ishlangan?

J: «Venera va Adonis» dostoni

29. Shekspirning qaysi asari 1594-yilda «Greyz Inn» teatrida o'ynaldi? J: «Xatolar komediyası»

30. Shekspir haqida kim qaysi asarida «Playt va Sene-ka rimliklar uchun komediya va tragediya borasida tengsiz bo'lgani singari Shekspir inglizlar uchun pyesaning har ikki turida ham beqiyosdir» degan? J: Londonlik tanqidchi Meres «Aql xazinası» kitobida

31. Shekspirning qaysi pyesasi muqovasida muallif nomi ko'rsatilmagan holda nashr etilgan? J: «Tit andronik»

32. 1597 – 1598-yillarda Shekspirning nechta pyesasi chop etildi? J: 5 ta

33. Shekspir ijodini qalbakilashtirib foyda ko'rish ya'llidagi birinchi urinish kim tomonidan amalga oshirildi?

J: Tadbirkor noshir Jaggard 1599-yilda turli shoirlarning biltiklaridan iborat to'plamga Shekspirning

Io'rt sonetini kiritib, «Otashin ziyoratchi» nomli kitob chiqardi va undagi asarlarni Shekspir qalamiga mansub, deb e'lon qildi

34. Shekspir qaysi teatrlarning hissadorlaridan bo'lgan? J: «Globus» va «Blekfrayerz»

35. Shekspirning asarlari qachondan nashr qilina boshladi? J: Adib o'llimidan yetti yil o'tgach, 1623-yilga kelib

36. Shekspir nechta asar yozgan? J: 36 ta dramatik asar, 154 ta sonet, bir necha doston

37. Ayrim 'adabiyotshunoslar Shekspir asarini kim yozgan deb taxmin qilishadi? J: 1550-yilda Eyfon Stratfordi shahrida tug'ilgan lord Eduard de Ver

38. Shekspirning qaysi tragediyasida insoniyal paydo bo'lgandan beri yonma-yon kelayotgan ezgulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va ishonch, olijanoblik va past-kashlik kabi sifatlar o'rtaсидagi kurash tasvirlangan?

J: «Otello» tragediyasida

39. «Otello» tragediyasida Dezdemona ni bevafolikda ayplashda kimlar qatnashadi?

J: Otelloning mulozimi Yago, Dezdemona ning muhabbatini qozona olmagan Rodrigo

40. «Otello» tragediyasidagi qaysi qahramon turlanishi, kishilar ko'ziga o'zini boshqacha ko'rsatishni istamaydi?

J: Otello

41. Dezdemona kimning qizi edi?

J: Venetsiya senatori Brabansioning

42. Otello kimni o'ziga leytenant qilib oladi?

J: Jasur Kassioni

43. Yago nima uchun Kassioni ko'ra olmaydi?

**J: U Otelloning xizmatkori bo'lib, Kassio o'rniiga  
leytenant bo'lishni istar edi**

44. Rodrigoning Otelloda qanday xusumati bor edi? J: Venetsiyalik boy yigit bo'l mish Rodrigo ham Dezdemona sevar edi. Dezdemona uni rad etib, Otelloga turmushga chiqadi. Natijada Rodrigoda Otelloga dushmanlik hissl uyg'onadi

45. Otello Kassioni nega vaqtinchalik o'zidan uzoqlashtiradi? J: Ichib janjallashgani uchun

46. «Butun qalbim bilan sevgan va hurmatlagan Bir kishining muhabbatini, mehribonligi Panohida qayta boshdan yashash menga baxt». Ushbu satrlar kimga tegishli va kim haqida? J: Kassio Otelloning mehrin qayta qozonish uchun Dezdemonaga murojaat qilgan

47. «Ishqqa o'lim – tabiatning qonuniga zid», degan fikrlar kimga tegishli?

**J: Dezdemonaga**

48. Dezdemona Otellogen qancha muhiat so'raydi? J: Oldin bir kecha, rozi bo'l imaganidan so'ng yarim soat

49. Kassioning Rodrigoni o'ldirib qo'yanligi xabarini Otelloga kim yetkazadi? J: Emiliya

50. Emiliya kim? J: Yagoning xotini

51. O'layotgan Dezdemona Emiliyaga o'zini kim o'ldirdi deb aytadi? J: Hech kim o'ldirmadi, marhamatli Otelloga salom ayt deydi

52. Otelloning Dezdemonaga eng birinchi hadya etgan narsasi nima edi? J: Ra'mol

53. Otelloga ro'mol nima uchun qadri edi?

**J: Chunki ro'mol onasiga otasidan yodgorlik edi**

54. «Oh, razilik! Bu lo'g'rida men o'ylaymanki, Sezmoqdaman razolatning sassiq hidini». Bu fikrlar kimga tegishli? J: **Emiliyaga**

55. Emiliya eri Yagoni qanday fosh etadi? J: **Shuro'molchani o'g'irlashni Yago undan har doim so'rashi-ni va uni topib olib eriga o'zi berganini aytadil**

56. Gransiano kim? J: **Dezdemonaning amakisi**

57. Emiliyaning yelkasiga kim qilich urib qochib ketadi? J: **Eri Yago**

58. Emiliya Dezdemonaning jasadi ustida u sevgan qaysi qo'shiqni kuylaydi? J: **Majnuntol qo'shig'ini**

59. Otello Dezdemonani nima sababdan o'ldirdim, deb izohlaydi?

J: **G'azabdan emas, nomus uchun o'ldirdim deydl**

60. Rodrigoning cho'ntagidan nechta xat topish alicshadi? J: **2 ta**

61. Yaralangan Rodrigoni kim o'ldirdi? J: **Yago**

62. Qibris oroliga Otello o'rniga hukmon qilib kim tayinlanadi? J: **Kassio**

63. «O, muhabbat, haqoratga bo'l mish masxara», deb kim aytgan? J: **Emiliya**

64. Emiliya «Erkak bo'sang, sharmanda qil bu vijdon-siznil» deganda kimni nazarda lutadi? J: **Yagoni**

65. Asarda to'g'ri odamlarning ishonuvchan, sodda bo'lishi, o'zgalardan yomonlik, xiyonat kutmasligi qaysi obrazlar orqali ko'rsatilgan?

J: **Otello, Kassio, Dezdemona, Emiliya orqali**

66. Asarda shuncha ezgu sifatli odamlarning o'limi bir foja bo'lsa, uning darajasini nima yanada oshiradi?

**J: Ularning arzimas bir odamning mayda manfaatlari yo'lida halok bo'lganligi**

67. Otello asarda qanday tasvirlanadi?

**J: Gumanilar, Iztiroblar girdobida**

68. Otello o'z sevgisini qanday izohlaydi?

**J: «U tentakcha sevar edi, biroq ko'p kuchli Rashk qillishga uncha moyil emasdi»**

### **TRAGIK OBRAZLAR VA HAYOT HAQIQATI**

1. Qanday odamlar fojianing qahramoni bo'la oladi?

**J: Kundalik hayotning mayda-chuydalaridan baland turadigan, turmush tashvishlarini hal qillish to'g'risida emas, balki umr ma'nosini anglash haqida o'ylaydigan boshqacharoq odamlar**

2. Fojia qanday tug'iladi?

**J: Buyuk odamlarning buyuk maqsadilar yo'llidagi amonsiz kurashlari va halokatlaridan**

3. Ostelloning fojasini nimalar kuchaytirgan?

**J: To'g'riso'zligi, odamlarga ishonishi, tinimiz ravishda haqiqatga intilishi**

4. Qanday timsollar tasvirida hayot haqiqatiga lo'la amal qilinmasligi, shartilikka yo'l qo'yilishi mumkin?

**J: Tragik timsollarda**

### **HAYNRIX HAYNE**

1. H.Hayne qachon va qayerda tug'ilgan?

**J: 1797-yilning 13-dekabrida Olmoniyaning Dusseldorf shahrida savdogar yahudiy oilasida**

2. Haynening tarbiyasi bilan kim shug'ullandi?

J: Xalq og'zaki ijodi namunalaridan yaxshi xabardor bo'lgan onasi Betti

3. Hayne kimni savdoiyilarcha sevib qoladi?

J: Amakisi Solomonning qizi Amaliyani

4. Hayne amakisini kida necha yil yashaydi? J: Uch yil

5. Hayne qaysi universitetlarda o'qigan?

J: Bonn, Hettingen, Berlin universitetlarida

6. Haynening kasbi kim edi? J: Huquqshunos

7. Haynening 1-lirik she'rlar to'plami qaysi? J: 1827-yilda 30 yoshida bosilib chiqgan «Qo'shiqlar kitobi»

8. Haynening she'rlari qaysi jihat bilan o'quvchilarini o'ziga maftun etadi? J: Xalq qo'shiqlariga yaqinligi, tu-shunarli va musiqiy ekanligi bilan

9. Haynening 2-kitobi qachon bosilib chiqgan?

J: 1830-yilda «Yo'l lavhalari» nomi ostida

10. Hayne «Yo'l lavhalari» kitobida qanday ijodkor sifatida namoyon bo'ladi?

J: Mamlakat va xalqning ahvollni mardonavorlik bilan xolis taftish qila oladigan ijodkor sifatida

11. Haynening qaysi kitobi yo'l ocherklaridan iborat?

J: «Yo'l lavhalari»

12. Hayne qachon Karl Marks bilan uchrashdi?

J: 1843-yilda

13. Haynening qaysi she'rlari ijtimoiy yo'nalishga ega?

J: «Sileziya to'quvchilarli» she'ri, «Germaniya. Qish ertagi» dostoni, «Qullar kemasli» balladasi

14. Haynening dostoni? J: «Germaniya. Qish ertagi»

15. Haynening balladasi? J: «Qullar kemasli»

16. «La'natlar bu yurtga, yolg'on vatanga, Unda baxt ko'radi tubanlik, xo'rlik» misralari Haynening qaysi she'ridan olingan? J: «Sileziya to'quvchilari» she'ridan

17. «Germaniya, lo'qiyimiz biz kafaningni» misralari Haynening qaysi she'ridan olingan va nimani anglatadi?

J: «Sileziya to'quvchilari» she'ridan olingan, vatan-ga ega bo'llishlari lazim bo'lgan xalqning vatan tomonidan ezzligani aks ettilrilgan va kafan vatan Olmoniyaga emas, uning ayanchli o'tmishiga to'qlayotgani ifoda-langan

18. Haynening Fransiyada yaratilgan qaysi she'ri fransuz siyosiy hayotining o'ziga xos yilnomasi sifatida e'tirof etilgan? J: 1832-yilda yaratilgan «Fransuz Ishlari»

19. Haynening qaysi dostonida hayvonlar timsoli vositasida temsa-lebranmas, yurt ravnaqi uchun biror narsa qilishga qodir bo'limgan millatdoshlar ayovsiz hajv ettiladi?

J: 1842-yilda yaratilgan «Atta Troll» majoziy dos-tonida

20. Haynening 1854-yilda yaratgan fransuz hayotiga bag'ishlangan asari? J: «Lutetsiya»

21. Haynening ijodiy taqdirida alohida ahamiyatga ega she'riy kitoblari? J: «Romansero» (1851), «E'tirof» (1854)

22. Hayne necha yil vatanidan uzoqda, sarsonlikda yurgan? J: 13 yil

23. «Men vatanni sizlardan kam sevmayman. Shu sevgim tufayli men o'n uch yil quvg'inda bo'ldim, ayni mana shu sevgim tufayli oh-voh qilmasdan, ixtirobdan yuzimni bujmaytirmasdan, yana, ehtimol, butun umrga quvg'in joyimga qaytmoqdamani». Haynening ushbu fikrlarl qaysi

kitobining so'zboshisidan olingan? J: «Germaniya. Qish ertagi»

24. Haynening she'rlarini o'zbek tiliga kimlar tarjima qilgan? J: Cho'lpon, Oybek, Mirtemir, Abdulla Sher, Xayriddin Sulton

25. «Bo'sh xayollar chekinmish olis, dilda yana sevgi havasi, Yana hokim nozik ezgu his, Shimiraman bahor havosin». Ushbu she'r muallifini toping. J: Hayne

26. Qaysi shoir she'rlaridan birida yorni atirgulga, o'zini bulbulga qiyoslaydi? J: Hayne

27. «O, sen qo'rqma, chekmagil tashvish, Dil sirini qilsam oshkora. Va sha'ningga majoz-u lashbih Bag'ishlasam senga ming bora». Ushbu she'r muallifini toping. J: Hayne

28. «Suvdan boshin chiqarib asta Nilufar gul boqadi ma'sum. Yonib ishqil alangasida Oy qiladi unga tabassum». Ushbu she'r muallifini toping. J: Hayne

29. «O'tkir bo'lsa ko'zlarинг agar, Kuylarimga nigah otib baq. Unda yashar ajoyib dilbar, Suluvlardan ko'ra suluvroq. Qulog'ing so'z eshitsa agar, Nozik sasga bir dam qulqos. Isyon to'la qalbingda yashar, Qo'shiq, navo, kulgu, ehtiros». Ushbu she'r muallifini toping. J: Hayne

30. «Boshimni tutaman doimo mag'rur, Hech qachon yengilmas o'jar idrokim. Qirolning qoshida turib hattokim, Ko'zimni men yerga olmayman bir qur». Ushbu she'r muallifini toping. J: Haynening «Onam Fon heldern V.Haynega» she'ridan

31. «Ul sening ruhingmi keladi g'olib? Ul sening ruhingmi g'ulg'ula solib, Yoritar qalbimni chaqin misoli?». Ushbu she'r muallifini toping.

**J: Haynening «Onam Fon Heldern V.Haynega» she'ridan**

32. Qaysi shoir she'riyatiga mazmuniga ko'ra ham, ifoda yo'sini jihatidan ham chuqr xalqchillik xos?

**J: Haynening**

33. Hayne she'riyatiga xos xususiyatlarni sanang.

**J: Uning she'rlari shaklan soddagina, oson o'qilladi, ohangi o'ta muloyim. Ayni vaqtida, ularning zamiridagi ma'noni ilg'ab ollish o'quvchiga hamisha ham oson emas. Chunki shoir deyarli har bir she'rda folkloridagi kabi sirli, sehrli, Izohlash mumkin bo'lavermaydigan ruhiy holatlarning poetik manzarasini chizadi**

34. «Darhol dedi: Tayyor turgil sen, kafaningni chizmoqdaman men. Darhol dedi: Vaqt ziq bilgin sen, tobuttingni yasayapman men». Ushbu she'r muallifini toping.

**J: Haynening «Ro'yo» she'ri**

### ALEKSANDR PUSHKIN

1. Pushkin qachon va qayerda tug'ilgan? J: 1799-yil 6-iyunda Moskva shahrining Nemislar ko'chasida

2. Pushkining onasi kim edi?

**J: Nadejda Pyotr I nling tuttingan o'g'il habash Ibrohim Hannibalning nevarasi edi**

3. Pushkining amakisi kim bo'lgan?

**J: Vasilly Lvovich havaskor shoir bo'lgan**

4. Pushkining tarbiyasida kim yetakchi rol o'ynagan?

**J: Enagasi Arina Radionovna Yakovleva**

5. Pushkining 1-she'rl qachon chop etilgan?

**J: 1814-yilda litseyda chiqadigan «Ovrupo xabarlar» jurnalida**

6. Qaysi shoir Pushkin litseyda o'qib yurganidayoq uning she'rini eshitgach, buyuk shoir bo'lajagini bashorat qiladi? J: **Derjavln**

7. «Erkinlik» she'ri 1817-yilda yozildi

8. «Ruslan va Ludmila», «Mis chavandoz» dostonlari 1820-yilda yozildi

9. Pushkining «Ruslan va Ludmila» dostoni qo'l-yozmasi bilan tanishgan qaysi shoir unga «G'olib shogirdga mag'lub ustozdan», – degan yozuv bilan o'z portretini sovg'a qilgan? J: **Jukovskiy**

10. Pushkin qachon janubga surgun qilindi?

**J: 1820-yilda**

11. Pushkin quvg'inda necha yil bo'ldi? J: **To'rt yil**

12. Pushkin 1824 – 1826-yillarda qayerga surgun qilindi? J: **Otasiga tegishli mulk bo'lmish Mixaylovskoye qishlog'iga**

13. Nikolay I Pushkinni qachon qabul qiladi?

**J: 1826-yilda**

14. Nikolay I Pushkinga qanday marhamat ko'rsatdi?

J: **Peterburgdan boshqa Istagan joyga borish va yashash imkonini berdi, Pushkining ijodini senzuradan tamomila ozod qilib, uning asarlariga faqat o'zi senzorlik qilishni bildirdi**

15. Pushkin qachon Peterburgda yashashga ijozat oldi? J: **1827-yilda**

16. Pushkining «Yevgeniy Onegin» she'rlly romani necha yil ichida yozildi va u qachon tugallandi?

J: 10 yil ishladi va 1830-yilda tugalladi

17. Pushkining 30-yillarda nashr etilgan nasriy asarlar qaysilar?

J: «Belkin qissalari», «Toppon xonim», «Dubrovs-kiy»

18. Pushkining «Kapitan qizi» asari qachon tugallandi? J: 1836-yil

19. Pushkining qaysi asarida turli personajlar taqdiri misolida inson hayotini rejalashtirib bo'lmasligi, u har daqiqada kutilmagan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkinligi g'oyat ta'sirli aks ettirilgan? J: «Kapitan qizi»da

20. Pushkin kim bilan qachon duenga chiqdi va qattiq yaralanib, ikki kundan so'ng vafot etdi?

J: Gollandiya elchisining tutingan o'g'li Dantes bilan 1937-yil 27-yanvarda

21. Pushkin ijodini o'zbek tiliga tarjima qilgan shoirlarning toping. J: Cho'lpov, G.G'ulom, Oybek, E.Vohidov, A.Orlov, Muhammad Ali, A.Suyun, H.Xudoyberdiyeva, U.Azim, M.Kenjabek

22. Tatyana kimning qizi?

J: Vafot etib ketgan aslzoda Larinining qizi

23. Yevgeniy kim?

J: Qishloqqa amakisining mulkiga egalik qlish uchun Peterburgdan kelgan o'qimishli va aqliy yigit

24. «Boshqasi!.. Yo'q, hech kim dunyoda Ololmasdi ko'nglimni mening. Hukm o'qilgan arshi a'loda, Falak amri: men – sening, sening». Ushbu fikrlar kimning maktubidan?

J: Tatyana Onegina maktubidan

25. Tatyana oqsochining ismi? J: Filipevna

26. Tatyana oqsochiga qanday murojaat qiladi?

J: Bibilon deb

27. Tatyana Oneginga maktubini kim orqali jo'natadi?

J: Oqsochinling nabirasi orqali

28. Onegin Tatyadanan maktub olganda umrining gul faslidan necha yil o'tganini esga oladi? J: Sakkiz yil

29. «Bo'lsaydi ilk xayol-u havas, Jami go'zalliklarga evaz – Faqat sizni tanlardim, xolos. Siz g'amimga yor bo'lib ul vaqt, men Bearmon bo'lardim xushbaxt». Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: Oneglina

30. «Ammo baxtga mening qalbim yot; Yaralmabman halovat uchun. Behudadir sizning kamolot – Arzimayman men unga bulun. Siz ishoning, vijdonim kafil, Turmush bizza g'am bo'lur, axir. Sizni qancha sevmayin o'zim, Ko'nikdimmi – soviyman shu zum». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

J: Oneglina

31. Onegin Tatyani necha yildan so'ng uchratadi?

J: Ikki yildan so'ng

32. Tatyana kimga turmushga chiqadi?

J: Oneglining qarindoshi knyaz N.ga

33. «Yo'qdir biron soxta jilvasi, Yo'q taqlidiy biron ifoda, Bonu tamom sokin va sodda». Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida? J: Tatyana haqida

34. «Bilsaydingiz, naqadar dahshat Muhabbatga zorlik jahonda. Yonmoq aqil ila har soat, Tug'yonlarni so'ndirmoq qonda». Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: Oneglina

35. «Qarshingizda qotmoq g'ussada, bo'zarmoq va so'nmoq... rohat bul» Ushbu fikrlar kimga tegishli?

J: Oneglina

36. «O'yladimki erk, orom – tanho Baxtga evaz bo'lur,  
O, xudol! Qanday xalo, bu qanday jazo!..» Ushbu fikrlar  
kimga tegishli? J: **Oneginga**

37. Onegin Tatyanaaga necha marta maktub jo'natadi?  
J: **Uch marta**

38. «Shoir bo'ldi na u dunyoda, na o'ldi, na aqidan  
ozdi» misralari qaysi qahramon haqida?

J: **Onegin haqida**

39. «Men sharmsor bo'layin, faqat Bu gap sizga keltir-  
sin shuhrat?!» Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: **Tatyanaaga**

40. «Yolg'on nechun? Sevaman sizni, Nasib etdim  
boshqaga faqat; Unga sodiq qolurman abad». Ushbu fikrlar  
kimga tegishli? J: **Tatyanaaga**

41. Rus adabiyotiga birinchi she'riy roman qaysi?

J: **Pushkinning «Yevgeniy Onegin» romanini**

42. Pushkin «Yevgeniy Onegin» romanini yozishda  
kimning asaridan ilhomlangan?

J: **Bayronning «Don Juan» she'riy romanidan**

43. Onegin nima uchun Tatyananing eng munosib umr  
yo'ldoshi ba'lishini bilgani holda uning sevgisini rad etadi?

J: **O'zining qizga loyiq emasligini sezgani uchun**

44. Onegin duelda kimni olib o'ldiradi?

J: **Sodda shoir yigit Lenskiyni**

45. Qaysi asarda kuchi, g'ayrati, aqlini sarflash mumkin  
bo'lgan ezgu mo'ljalning yo'qligi tufayli qiynalayotgan yigit  
iztiroblari aks etgan?

J: **Pushkinning «Yevgeniy Onegin» romanida**

## SHE'RIY ROMAN

1. Dastlabki she'riy romanlar qanday bo'lgan?

J: Jamliyat axloqning buzilishi sababli ma'naviyati nuqsonli, baxti kemtik bo'llib qolgan iste'dodli shaxslar taqdirini ko'rsatishga bag'ishlangan

2. She'riy romanlar odaldagi romanlardan qanday farq qiladi? J: Epik va lirik xususiyatlarning aralash holda kelishi bilan

3. She'riy romanlardagi epik jihatlar qaysi?

J: Sujetning ko'ptarmoqlig, bayonning xolls ekanligi

4. She'riy romanlardagi lirik jihatlar qaysi?

J: Tasvirga muallifning bemalol aralashuvi, uning o'z tuyg'ularini erkin ifoda etaverishi

5. O'zbek adabiyotidagi 1-she'riy roman qaysi?

J: Mirmuhsinning «Ziyod va Adiba» asari

6. O'zbek adabiyotida yaratilgan she'riy romanlami toping. J: Mirmuhsinning «Ziyod va Adiba», Muhammad Allining «Boqly dunyo», H.Sharipovning «Bir savol» romanlari

## CHINGIZ AYTMATOV

1. Chingiz Aytmatov qachon va qayerda tuf'ilgan?

J: 1928-yilda Qirg'izistonning Talas vodiysida Joylashgan Shakar qishlog'ida tug'ilgan.

2. Chingiz Aytmatov otasining ismini toping. J: Ta'rakul Aytmatov qatog'on davrl qurbanli bo'lgan

3. Chingiz Aytmatov qaysi o'quv yurtlarida o'qigan?

J: Avval Qirg'iziston qishloq xo'jaligi Institutida,

**1956 – 1958 yillarda esa Moskvadagi Oliy adabiyot kur-sida tahsil oldi**

4. Qaysi ijodkor o'z bolaligi haqida «Bizning ovulimizda yetti otasini bilish odatiga qat'ly rivoja qillinardi. Shu sabab-dan o'zimizdan oldin o'tgan yetti avlodimizni bilish muqad-das burch ekanligi bolalikdanoq ongimizga singdirilardi», deb yozadi? J: **Chingiz Aytmatov**

5. Chingiz Aytmatovda adabiyotga havasni kim uyg'ot-gan? J: **Buvlasi**

6. Qaysi ijodkor «bolalik nafaqat quvnoq davr, bola-lik – inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir», deb yozgan? J: **Chingiz Aytmatov**

7. Qaysi ijodkor ona tili haqida «Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she'riyat bilan sug'orishi, in-sonda milliy g'ururning ilk kurtaklarini uyg'otishi va ajdodlar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglati-shi mumkin», deb yozgan? J: **Chingiz Aytmatov**

8. Chingiz Aytmatov onasining singlisi og'ir kunlarda o'z bag'rige olganini aytadi. U kishining ismi?

J: **Qoraqiz xola**

9. Qaysi ijodkor o'z tarjimayi holida «Men juda erta ish-lay boshladim: 10 yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim», deb yozadi? J: **Chingiz Aytmatov**

10. «Hech kim o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi: yillar sabog'i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin». Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: **Chingiz Aytmatovga**

11. Chingiz Aytmatov dastlabki hikoyalarini qachon yoza boshladi? J: **50-yillarda**

12. Chingiz Aytmatovning «Yuzma-yuz» qissasi qachon e'lon qilingan? J: 1957-yilda

13. Chingiz Aytmatovning «Qiyomat» romani qachon yaratilgan? J: 1986-yilda

14. Chingiz Aytmatovning «Kassandra tamg'asi» nomli romani qachon e'lon qilindi? J: 1990-yilda

15. Chingiz Aytmatovning qaysi turkumga mansub asarları munosib taqdirlandı? J: «Tog' va cho'l qissaları»

16. Chingiz Aytmatovning qozoq yozuvchisi M.Shaxonov bilan hamkorlikda, o'zaro suhbat tarzida yozilgan asarini toping.

J: «Cho'qqida qolgan ovchinining oh-u zorl»

17. Chingiz Aytmatovning asarları dunyoning necha tiliga tarjima qilingan? J: 160 tiliga

18. Qaysi ijodkor «Qadim o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantianing Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin», deb yozgan?

J: Chingiz Aytmatov

19. «Asrga tatigulik kun» romani qancha fursatda yozib tugatilgan? J: To'rt oy mobaynida, 1979-yilning dekabridan 1980-yilning martigacha yozilgan

20. Chingiz Aytmatovning ilk romani qaysi?

J: «Asrga tatigulik kun»

21. Chingiz Aytmatovning qaysi romani matbuotda chiqishi bilanoq keng jamoatchilikni larzaga soldi?

J: «Asrga tatigulik kun»

22. Qaysi asar voqealari bir kun ichida bo'lib o'tadi?

J: «Asrga tatigulik kun»

23. Qaysi asarga X asr yodgorligi «Musibatnomada-

gi «Bu kitob jism-u fig'onimdur mening. Bu kalom jon-u jahonimdur mening», degan so'zlar epigraf qilib olingan?

J: «**Asrga tatigulik kun**»

24. Chingiz Aytmatov «Asrga tatigulik kun» romanidagi qaysi qahramoni haqida davrimizning charxi olam mehvariga – o'zimni hayajonga solayotgan muammolarning markaziga qo'yib tasvirlashga intildim deydi? J: **Edigey Bo'ron**

25. Chingiz Aytmatov manquridan farqi yo'q, kechagi kunini eslamaydigan, bobolaming udumlari bilan faxrlanmaydigan kishilar obrazining mujassamlashgan timsolini «Asrga tatigulik kun» romanidagi qaysi qahramonlar orqali ochib beradi? J: **Sobitjon va Jo'lamon**

26. «Asrga tatigulik kun» romanida voqealar qayerda bo'lib o'tadi?

J: **Sarlo'zak cho'lida, Bo'ronli bekatda**

27. Ona Bayit qabristonigacha Bo'ronli bekatdan eng yaqin yo'ldan yurilganda borish-u kelish uchun qancha masofa ketar edi? J: **60 chaqirim**

28. Edigey nima uchun Sobitjondan xursand bo'lib ketdi? J: **Sobitjon bu yoqqa kelayotganida otasining tirkilgini ham, o'lganini ham bilmasdi, shunga qaramay dafn marosimiga yetib kelgan edi**

29. Sobitjon qayerdagagi maktab-internatda o'qigan?

J: **Qumbeldagi**

30. «O'ladijan odamning o'lgani yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi. Munchalik cho'zib, bosh qotirib o'tirishning kimga keragi bor? O'lgan odama qayerga ko'milishning nima keragi bor?» Ushbu fikrlar qiyasi qahramonga tegishli? J: **Sobitjonga**

31. Kazangapning dafn marosimi maslahatiga necha kishi yig'ilgan edi? J: **Besh kishi**

32. «Tabiatan qo'rsroq, qiziqqonroq edi u – shuning uchun ham uni «Bo'ron» deb atashadi-da». Bu qaysi qahramon ta'rifi? J: **Edigey**

33. Otasining dafn marosimiga kelgan o'g'ilning «Oblastda kim qaysi vazifada ishlaydi, kimni ishdan olib, kimning amalini oshirishgani to'g'risida gap sotib, odamlarni ishdan chalg'ilgan» personaj qaysi asar qahramoni?

J: **«Asrga tatigulik kun» romanining**

34. Sobitjonning xotini nima uchun qaynotasining dafn marosimiga kelmadи?

J: **Allaqanday konferensiyada qatnasharmish, ana shu yig'inga chet elliik mehmonlar tashrif buyurarmish**

35. Sobitjonning farzandlari nega bobolarining dafn marosimiga kelmadи? J: Ular o'zlashtirish va davomat uchun kurashar ekan, institutga kirmoqchi bo'lgan adamning attestati toza bo'lishi kerak ekan

36. «Ularga o'limdan boshqa hamma narsa muhim! Modomiki, ularga o'lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?». Bu fikr kimniki va kimga qaratilgan?

J: **Edigeyniki, Sobitjon va uning xotiniga qaratilgan**

37. Edigey Bo'ron do'stini so'nggi yo'nga kuzatish uchun nimani egarladi? J: **Qoranor tuyani**

38. Sobitjonga kim: «Xudoga ming qatla shukr qilgin, yaxshiyamki olamda otangning Edigey Bo'ron degan do'sti bor ekan. Rasm-rusmini o'rninga qo'yib, dafn etishga sen

xalal berma. Shoshilayolgan bo'lsang, ushlab turganimiz yo'q. Men sening o'mingga bir hovuch tuproq tashlab qo'ya qolaman», – deydi? J: **Edilboy daroz**

39. «Ota-ku seniki, biroq sening o'zing o'zingga o'xshamay qolibsan», deb Sobitjonga tanbeh bergen kim?

J: **Edilboy daroz**

40. Kazangap qizining ismi? J: **Oyzoda**

41. Kimning eri ichkiliikka berilib ketgan edi?

J: **Oyzodaning**

42. Oyzodaning nechta bolasi bor edi? J: **Oltita**

43. Kim Kazangapning dafn marosimida katta o'g'lining hozirdanoq ichayolganini, miliitsiya kelib sunishlirayolganini, kim biladi, ertaga prokuraturaga tushadi deb ogohlanti-rayotganini aytib yig'laydi? J: **Oyzoda**

44. «Otasini ko'mgani kelganmi yoki o'zini sharmanda qilgani kelganmi? Qozoq qizl tabarruk otasi o'lganda shunaqa qiy-chuv qiladimi? Qozoq ayollarinling qo'shiqday buyuk yig'isi yuz yillar davomida avloddan avlodga o'tib, tillarda doston bo'lib ketgan-ku! U vaqtarda ayollar yig'lashganida o'liklar tirilmasa ham, tiriklarning ko'zyoshi daryo bo'lib oqqan-ku! U zamонларда ayollar yig'lashganida marhumning fazilatlarini aytib, izzatini bajo keltirib ko'kka ko'tarishgan, marsiyamas, madhiya aytishgan». Oyzodaga bu so'zlarni kim aytgan? J: **Akasi Sobitjon**

45. «Nega deganda, u firibgar, sen ham firifgarsan, xotiningga poy-patak bo'b yurgan pastkashsan, ikkoving otamni sog'in sigirday sog'ib ichdinglar, mening erim piyonista bo'lsayam, mana, shu yerda a'tiribdi, sening aqli-hushli xotining qayerda qoldi?!» Bu fikr kimniki? J: **Oyzodaniki**

46. Dafn marosimidan oldin kimlar yoqalashib, bo'g'ishib ketdi? J: **Sobitjon bilan Oyzodanining eri**

47. Kazangap o'limidan oldin o'z yurtiga borib qaysi joy bilan xayrashib keladi? J: **Orol dengiz bilan**

48. Edigey va Kazangap qayerlik qozoqlardan edi?

J: **Orolbo'yil qozoqlaridan**

49. «Orol dunyo turguncha turar edi, endi mana shu dengiz ham quriyapti, odam umrini gapirmasa ham bo'la-di». Ushbu fikrlar kimni? J: **Kazangapniki**

50. Kazangap Edigeyga o'zini Ona Bayitga dafn etishni qayerda iltimos qiladi?

J: **Orol bilan xayrashganl kelganida**

51. Jungjanglar qullarni qanday holga keltirishar edi?

J: **Manqurtga**

52. Manqurt qanday qil edi? J: **Xotirasidan umrbod mahrum etilib, o'tmishni eslay olmaydigan qil**

53. O'zaro lo'qnashuvlarda o'ldirilgan bitta manqurt qui uchun boshqa erkin tulqunga nisbatan qancha ortiq haq undirib olinardi? J: **Uch barobar ortiq**

54. «Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o'lganda yana o'zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan-bir noyob fazilati – xotirasi, aql-idroki bo'lsa-yu, uni tag-tomlri bilan yulib olsalar, axlr, bu qanday yovuzlik, qanday bedodlik?!» Bu parcha qaysi asardan olingan?

J: **«Asrga tatulgulik kun» romanidan**

55. Nayman ona bir yosh va navqiron manqurtning yolg'iz o'zi Sario'zak dashtida tuyalar podasini boqib yurganini kimdan eshitadi? J: **Savdogarlardan**

56. Nayman onanining yosh o'g'li nima uchun jangga otlangan edi? J: Bir yil oldin halok etilgan otasining o'chi-ni olish uchun

57. Jo'lomon qanday qilib jungjanglarga asir tushib qoladi?

J: Yarador bo'lganida jang suronidan cho'chigan ot ustidagi chalajon yigitni cho'l ichkarisiga olib ketadi, naymanlar uni har qancha izlasa ham topa olmaydilar

58. Nayman ona o'g'lini izlashga qaysi tuyasini tayyorladi? J: Oqmoya tuyasini

59. Nayman ona safarga qancha suv oldi? J: Ikki mesh

60. Nayman ona safarga ketishdan oldin nima qildi?

J: Ollohg'a kalima qaytardi

61. Savdogarlar yosh manqurtni qayerda ko'rishgan edi? J: Malaqum dichop jarligi etagida

62. «Yerdan mahrum etish mumkin, mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto insonni yashashdan mahrum etish mumkin, biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o'ylab topdi ekan?! Yo rabbiy, agar olamda bor bo'sang, bandalaringga bu yovuzlikni qanday ravo ko'rding. Yer yuzida usiz ham yovuzlik kammidi?» Ushbu fikrlar kimning nutqidan olingan? J: Nayman onanining

63. Nayman onani manqurt o'g'li tanimaganidan keyin u qanday yo'l tutadi? J: So'rab-surshtirishlar bilan emas, balki aqlini kovlash, qitiqlash bilan es-hushini o'ziga keltirmoqchi bo'ldi

64. Jo'lomonga nima uchun shunday nom qo'yishgan edi? J: Naymanlarning yayloviga ko'chib o'tishayotganida yo'lda tug'ilgani uchun

65. Jo'lomon otasining ismi? J: **Do'naboy**
66. Manqurning kim bilan gaplashigisi kelardi?  
J: **Oy bilan**
67. Manquri nimani istar edi?  
J: **Xo'jayinning boshidagi singari kokil qo'yishni**
68. Ikkinchı kun ona qanday yo'l taldi? J: **Manqurtni yedirib-Ichirgandan so'ng, unga alla ayta boshlaydi**
69. Nayman onani ko'rib qolgan jungjanglar uni quvib yetolmagandan so'ng manqurtni qanday jazolaydi?  
J: **Rosa do'pposlaydi**
70. Jungjanglar manqurtga nima qilishni buyuradi?  
J: **Senda hech qanaqa ona yo'q, u telpagingni sidi-rib olib, boshingni qaynoq suvgaga solgani kelgan. Mana bunl ol, deb unga o'q-yoy tutishadi**
71. Manqurda qanday xotira saqlanib qolganini qo'rqqan jungjanglar hayratga tushadi?  
J: **Qo'lida mo'ljalga olish xotirasi**
72. Manqurt Nayman onani o'dirgandan so'ng, ona-ning nimasi qushga aylanib uchib keldi? J: **Oq ro'moll**
73. Bu qushning nomi nima? J: **Do'naboy**
74. Oqmoya tuyaning avlodlari qanday xususiyatga ega edi?  
J: **Urg'ochllari o'ziga tortib, oq bosh tug'ilib, nayman ellga ma'lum va mashhur, norlari esa, aksincha, hozirgi Qoranor Bo'ron singari qoradan kelgan, juda baquvvat bo'ladi**
75. Qaysi asar chop etilishi bilan o'quvchilar tafakkuri va ruhiyatini larzaga kelтиrdi?  
J: **«Asrga tatigullik kun» romanı**

76. X asrda yaratilgan «Musibatnoma» asarining muallifi kim? J: **Arman yozuvchisi Grigor Narikadze**

77. «Asrga tatigulik kun» romanida odam degan yaratqning azizligi, uni tarixiy ildizlaridan, tilidan, g'ururidan mahrum qilish joniga qasd etishdan ham dahshatli jinoyat ekani qaysi qahramon fojiasi orqali aks ettirilgan?

J: **Nayman ona fojiasi asnosida**

78. «Asrga tatigulik kun» romanida siyosatdan tamomila chetda turuvchi, siyosiy muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umr kechiruvchi kamtargina odam ham aslida siyosatning ta'siridan xoli bo'lolmasligi qaysi qahramon taqdiri misolida juda ishonarli aks ettirilgan? J: **Bo'tonli Edigey orqali**

79. «Asrga tatigulik kun» romanidagi manqurlarning zamonaviy va xavfli nusxasi kim? J: **Sobitjon**

80. Edigey tabiatiga xos yuksak insoniy xususiyatlar qachon namoyon bo'ladi? J: **Kazangapni dafn etish jarayonida, marhum bilan vidolashuv onlarida, Allohga munojot qilgan o'rinnari tasvirida**

### BADIY ASAR PAFOSI HAQIDA

1. Pafos so'zi qaysi tildan olingan? J: **Yunon tilidan**

2. «Pafos» so'zi qanday ma'noni bildiradi?

J: **«Ehtiros, hissiyat, iztirob» ma'nolarini**

3. Pafos adabiy atama sifatida nimani anglatadi?

J: **Asarga singib ketgan, undagi badiiy tasvirlarning yo'nalishini belgilab beradigan jo'shqin tuyg'u va ko'tarinkи ruhni anglatadi**

4. Pafosdagi tuyg'u va ruh qanday xarakterda bo'ladi?

J: Ijobiy xarakterda bo'lib, xayrixohlikni; salbly tabitga ega bo'lib, inkorni bildirishli ham mumkin

5. Pafos o'quvchini xolis kuzatuvchi emas, qanday bo'lishga undaydi? J: Astoydil tarafdor bo'lishga undaydi

6. Pafos badiiy asarning nimasini ham belgilab beradi? J: Asarning ifoda tarzinigina emas, balki uning ma'no-mohlyatini ham

7. «Asrga tatigulik kun» romanida kimning o'ylari, so'zleri, qilgan ishlari kuchli pafos bilan tasvirlangan?

J: Edigeyning

8. «Asrga tatigulik kun» romanida kimning xatti-harakatlari, gaplari, tutumi adib tomonidan jo'shqinlik bilan inkor etilgan? J: Sabitjonning

9. «Asrga tatigulik kun» romanida asar pafosi qaysi timsol tasvirida yaqqol bo'y ko'rsatgan?

J: Nayman ona tilmsoli tasvirda

10. Qanday asarlarda adib o'zi ilgari surgan nuqlayi nazari va qarashlarini berkitmaydi, aksincha, kuchli haya-jon va jo'shqin ehtiros bilan yoqlaydi?

J: Pafos bilan yozilgan asarlarda

## MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI

1. Istiqlol adabiyoti estetik hodisa sifatida qachon yuzaga keldi? J: XX asrning 90-yillarida

2. Istiqlol adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini toping.

J: Birinchidan, bu davr adabiyoti hukmron masfkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhlyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsull bo'lgan

adabiyotdir. Ikkinchidan, ijod erkinligiga obyektiv sharoit yaratildi va adabiyot ko'ngil ishiga aylandi. Uchinchidan, istiqlol adabiyotida odamga ishchi kuchi, ishlab chiqaruvchi mehnatkash sifatida yondashish barham topdi. Ijodkorlar shaxslarning ruhiyatni, hissiyati, ko'nglini tasvirlashga e'tibor qaratdi. To'rtinchidan, bu davr adabiyoti ommani ko'rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishga yo'naltirildi. Beshinchidan, istiqlol adabiyoti chinakam xilma-xil adabiyotga aylandi.

3. Istiqlol she'riyati qanday jihat bilan xarakterlanadi?

J: Shakliy izlanishlarga boyligi, Sharq nazmidan ham, G'arb nazmidan ham samarali o'rganishga intilish kuchayganligi bilan

4. «Adashgan ruh», «Qora devor», «Munojot», «Sensiz» she'rlari muallifi? J: Rauf Parfi

5. «Turkiylar», «Iqrar» she'rlari muallifi?

J: Shavkat Rahmon

6. «Istig'for», «Oq va qora» she'rlari muallifi?

J: Azim Suyun

7. «Izohsiz lug'at» she'ri muallifi? J: A.Qutbiddin

8. «Tush», «Yo'l» she'rlari muallifi? J: A.Said

9. «Ayoq'ua», «Bo'g'zimdan sirqirar tovush-qon», «Oyloq kecha» she'rlari muallifi? J: Faxriyor

10. «Yerga botgan osmonlarni kuzatdim, Chopligan oyog'im bilan chopdim men. Kesilgan qo'llimni sizga uzatdim, Bu dunyo gullarga toldi. Qotdim men» satrlarining muallifi? J: Rauf Parfi

11. «Shaftolirang olam nayza ichinda, Dunyolami yolg'on, men o'ldim chindan» satrlarining muallifi? J: Rauf Parfi

12. «Qobirg'alar qabarar suyaklarim qadoqdir qabqlarim o'q tugab bo'shab qolgan sadoqdir kuyib-kuyib kul bo'lgan nafratlarim adoqdir chuchmomolar ko'k kiygan namozshomgul gul gulim hey tulugim hey tulum» satrlarining muallifi? J: **Faxrlyor**

13. «Oy belta» deb milliy adabiyotimizda ikkigina so'zdan iborat she'r yozgan shoir? J: **Faxrlyor**

14. «Go'rlar qisir – tug'ishdan qolgan», degan bir misradan iborat she'r yozgan muallif kim? J: **Faxrlyor**

15. «...bitta so'z qoldirgim keladi ruh yerto'lsidan o'g'irlangan so'z osmon hidi keladigan so'z dunyoning o'zi qadar anglab bo'lmas sir qadar» satrlarining muallifi?

J: **Bahrom Ro'zimuhammad**

16. «Ko'zdan ichkarida yo'l yo'q so'zdan ichkarida yo'l yo'q ammo xo'roz qichqinig'i ortiga shafaqrang qishlog'im berkinib olgan» satrlarining muallifini toping.

J: **Bahrom Ro'zimuhammad**

17. «Men qanday yashashim lozim qanday bo'lsam sizga yoqaman qaysi usulda yozsam she'rlarimni o'qisiz anuzdami barmoqdamasi sarbastdami yo» satrlarining muallifi? J: **Bahrom Ro'zimuhammad**

18. Istiqlol nasrinining yetakchi xususiyatlari qaysi?

J: Ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo'sinlarini qo'llash, badlil ifodaning tutilmagan, yangi tamoyillaridan foydalanish

19. Omon Muxtorning yangicha ifoda usulida yaratilgan romanlarini toping. J: «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam», «Tepalkdagli xaroba», «Ayollar sultanati va mamlakati», «Fuz», «Maydon»

20. Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilg'or tajribalari asosida yozilgan asarlarini toping.

J: «Qora kitob» qissasi, «Shamolni tutib bo'lmaydi», «Tobut shahar», «Quyun» hikoyalari

21. «Bozor» romanining muallifini toping.

J: Xurshid Do'stmuhammad

22. «Oromkursi» qissasining muallifini toping.

J: Xurshid Do'stmuhammad

23. «Jajman» hikoyasining muallifini toping.

J: Xurshid Do'stmuhammad

24. «Qorachiqdagi uy» hikoyasining muallifini toping.

J: Xurshid Do'stmuhammad

25. Bayna momo obrazi qaysi hikoyada berilgan?

J: Nazar Eshonqulning «Shamolni tutib bo'lmaydi» hikoyasida

26. «Sho'rodan qolgan odamlar» qissasining muallifini toping. J: Sh.Bo'tayev

27. «Tilsim saltanati» romanining muallifi?

J: Salomat Vafo

28. «Qon hidir» romanining muallifi?

J: A.Nurmurodov

29. «Jaziramadagi odamlar» romani muallifi?

J: Luqmon Bo'rixon

30. «Olchapar» qissasining muallifini toping.

J: A.Yo'ldoshev

31. Amir Temurga bag'ishlangan dramalarni toping.

J: To'ra Mirzo «Amir Temur», A.Orlov «Sohib-qiron», O.Yaqubov «Fotih muzaffar yokl bir parivash asiri»

32. Zamon otboqar obrazı qaysi hikoyada berilgan?

J: Nazar Eshonqulning «Shamolni tutib bo'lmaydi» hikoyasida

33. «Bulut toshgan soy», «Ozodlik», «Navro'z, navro'z» hikoyalari muallifi? J: Sh.Xolmirzayev

34. «Qoqba'yin», «Qoyalar ham yig'laydi», «Tag' odam» qissalari muallifi? J: N.Norqobilov

35. «Oriyat», «Quvonchli kun» hikoyalari muallifi?

J: N.Norqobilov

36. «Darvesh» hikoyasi muallifi? J: Sh.Bo'tayev

37. «Otamdan qolgan dalalar» romanı muallifi?

J: Tog'ay Murod

38. «So'qir» hikoyasi muallifi? J: A.Ya'Idoshev

39. Hozirgi dramaturgiyada erishilgan yutuqlar hisoblangan dramalarni toping. J: Usmon Azim «Bir qadam yo'l», Erkin Samandar «Arabmuhammad Bahodirxon», Ilhom Hasan «Bir kam dunyo», Abdulla A'zam «Dugohl Husayniy», «Jek London hikoyasidan so'ng», O.Yaqubov «Bir koshona sirlari»

40. Qaysi asarda Samarqandni ko'rish, uni ziyorat etishni bir umr orzu qilib yashagan, amma vaqtida qo'lli kaltaligi, keyinchalik turmush tashvishlari bilan ovora farzandlarining e'tiborsizligi sabab yonginasidagi shaharni ko'rmay o'tib ketgan qariya obrazı qaysi asarda berilgan?

J: Usmon Azimning «Bir qadam yo'l» dramasida

41. Qaysi asarda o'z otalarining ko'zlariga mil tortish darajasida yirtqich bo'lgan Habash va Elbars timsollari bor? J: Erkin Samandarning «Arabmuhammad Bahodirxon» tragediyasida

## LITSEY ADABIYOTLARI

### «ADABIYOT» 1-BOSQICH O'QUVCHILARI UCHUN

#### AVESTO

1. «Avesto» so'zining ma'nosi? J: **O'rnatilgan, muqarrar qilingan hayotning asosiy yo'riqnomasi**

2. Qaysi obida O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy mushtarak yozma yodgorligi hisoblanadi? J: **«Avesto»**

3. «Avesto»dagi ma'lumotlarning qadimgi qismilari qaysi davrga taalluqlidir?

J: **Miloddan avvalgi 3000 – 2000-yillarga**

4. «Podsho Doro ibn Doro xazinasida «Avesto»ning o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri «Avesto»ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi». «Avesto» haqida ushbu ma'lumotlar kimning qaysi asarida aks etgan? J: **Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik» asarida**

5. Beruniyning fikricha, «Avesto» daslab necha nask bo'lgan va majusiylar qo'lida qanchasi qolgan?

J: **30 nask bo'lgan, 12 nask chamasi qolgan**

6. «Avesto» qaysi tilga tarjima qilingan va unga sharhlar yozilgan? J: **Pahlaviy tiliga**

7. «Avesto» asarini o'zbek tiliga kimlar tarjima qilgan?

J: **Asqar Mahkam va Mirsodiq Is'hoqov**

8. «Avesto»dagi xudo va timsollar:

- Axura Mazda – Xurmüz – zardushtiylik dinining xudosi. U bu dinda yaratuvchi, xoliq, yakka-yu yagona xudo sifatida tan olingen;
- Mitra – Quyosh xudosining ismi, u kuch-qudrat, baxt-saodat ramzi;
- Narya Sanha – mifologik qahramon nomi, Mitranning yordamchisi;
- Mug' – Mazda dinining ruhoniysi, peshvosi;
- Bushyasta – dev bo'llib, dangasalik timsoli hisoblanadi;
- Asha – haqiqat timsoli. Sraosha uning hamrohi. Ular kishilarni yaxshilikka undovchi ma'budlar;
- «Axuna Varya» duosi – zardushtiylikda e'tiqod duosi. U islomdagи kalimayi vahdat va kalimayi shahodat singari vazifalarini ado etgan;
- Visprad – «Avesto» kitoblaridan biri, u namoz paytida o'qiladigan oyat va suralarni qamrab olgan.

9. Axura Mazdaning makoni qaysi tog' va qaysi cho'qqida deyilgan? J: Xara tog'i ustida, Xarati cho'qqisida

10. Mitraga qanday ta'rif beriladi? J: Yuz ming tuman ko'zli, tik qomat, uyg'oq, o'tkir ko'z shijoatkor, duoni tinglaguvchi, suvni yo'naltirguvchi

11. Mitranning o'ng va so'lida uchuvchi ma'budlar nomini toping.

J: Asha va Sraosha Mitranning o'ng tomonida, Rashnu so'l tomonida uchadi

12. Otlari oppaq, nayzasi uzun, sanchoq, o'qlari tezuzchar, borliq dunyoni asraguvchi ma'bud, deya kim ta'riflanadi? J: Mitra

13. Sirdaryoning «Avesto»dagi nomi qanday nomlanadi? J: Ranxa

14. Mazdayana duosi kimlar orasida necha marta aytishi lozim bo'lgan? J: Ikki do'st orasida – 20 marta, yurdoshlar orasida – 30 marta, emakdoshlar orasida – 40 marta, er-xotin o'ttasida – 50 marta, shogirdlar orasida – 60 marta, shogird va ustoz orasida – 70 marta, kuyov-u qaynotalar – 80 marta, aka-uka – 90 marta, ota va o'g'il – 100 marta

15. Mitraning izidan yugurib boradigan g'azabnok qobon misoli serjahl o'tkir tishli, xanjardek qoziq tishli deya ta'riflangan timsol? J: Varaxran

## TO'NYUQUQ BITIKTOSHI

1. To'nyuquq kim bo'lgan?

J: Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi

2. Xoqon so'zining ma'nosi? J: Qadimgi turkiy xalqlarda mamlakat hukmdorining nomi

3. Eltarish xoqon kim bo'lgan?

J: Ikkinchil Turk xoqonligining asoschisi

4. To'nyuquq bitiktoshi qachon yozilgan?

J: Eltarish xoqonning o'g'illi Blliga xoqon davrida

5. «To'nyuquq» bitiktoshi necha ustunga yozilgan?

J: Ikkita

6. Bitiktoshning hajmi?

J: Bir 170, ikkinchisi 160 sm dan iborat

7. «To'nyuquq» bitiktoshi qachon kimlar tomonidan topilgan? J: 1897-yilda Yelizaveta Klemens va Dmit-

**rly Klemens tomonidan Shimoliy Mo'g'ulistonda  
Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqdagι Bain-Sokta  
manzillidan topilgan**

8. To'nyuquq shad unvoniga ega edi. Bu unvon necha  
klishini uyushtiradigan boshliqqa berilar edi? J: **700 kishini**

9. To'nyuquq Shantung shahri yaqinidagi nechta sha-  
harni mag'lub qiladi? J: **23 shaharni**

10. Eitarish xoqon To'nyuquq bilan birga Tabg'achga  
qarshi necha marta. Qitanilarga qarshi necha marta jang  
qiladi? J: **Tabg'achga qarshi 17 marta, Qitanilarga qar-  
shi 7 marta**

11. «To'nyuquq» biliktoshidan parchalar: «Xoqoni  
bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan», «U yarda ki-  
yik yeb, quyon yeb turar edik. Xalqning tomog'i to'q edi»,  
«Men o'zim, Tabg'ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi  
Tabg'ach davlatiga bo'y sunar edi»

12. Qaysi bitikdoshda «Nega chekinamiz, dushmanni  
ko'p deb? Nega qo'rqamiz, o'zimizni oz deb? Qani bosay-  
lik, hujum qilaylik, dedim», degan so'zlar bor?

J: **Tunyuquq bitiktoshi**

13. «Turk beklari turkcha otini tashladi», – degan gap  
qaysi bitikda keltirilgan? J: **«Tunyuquq bitligida**

**14. 712 – 716-yillarda yozilgan bitiktoshni toping.**

J: **Tunyuquq bitiktoshi**

15. «Tangri shunday degan ekan: Xon berdim. Xoning-  
ni qo'yib taslim bo'lding. Tabg'achga taslim bo'lgani uchun  
tangri o'l degan, shekifli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi.  
Turk sir xalqi yerida birorda ham urug' qolmadidi». Ushbu par-  
cha qaysi bitikdoshdan olingan? J: **«Tunyuquq bitligi»**

16. «Tabg'ach, sen o'ngdan hujum qill! Xiloy, oldidan hujum qill! Men chapdan hujum qilay». Ushbu parcha qaysi bitiktoshdan olingan? J: «**Tunyuquq bitigi**»

17. «Yupqa yig'in tor-mor qilishga oson emish. Yupqa qalin bo'lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish». Ushbu parcha qaysi bitiktoshdan olingan? J: «**Tunyuquq bitigi**»

18. Mamlakat mustaqilligi, el-yurt farovonligi, yurt osoyishtaligi, chegaralar daxilsizligi uchun tinimsiz kurash olib borgan qahramonlarni belgilang. J: **Tunyuquq, Kultegin**

19. Tunyuquq *Turk Bilga xoqon davlatida bu bitikni yozdirdim* deydi. Bilga xoqon kim edi?

J: **Eltarish xoqonning o'g'li**

20. Tunyuquq kimlar bilan birga mamlakat mustaqilligi, el-yurt farovonligi, chegaralar daxilsizligi uchun kurash olib bongan? J: **Bo'g'u tarxon va Eltarish xoqon bilan**

21. «Shantung shahriga, dengiz, daryoga yetkazdim, yigirma uch shahar mag'lub bo'ldi». Ushbu parcha qaysi obidadan olingan? J: «**Tunyuquq**»

21. Murojaat, undov, chaqiriq ohanglari yetakchi mavqe tutgan asarni aniqlang. J: «**Tunyuquq**»

22. Ushbu jumla qaysi bitikda qayta-qayta qo'llanilgan? «*Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan*».

J: «**Tunyuquq**»

23. Qaysi bitiktoshda «*tun uylamay, kunduz o'turmay, qizil qonimni tugalib, qora terim yugurtirib, mehnatni, kuchni berdim, axir, men o'zim uzoqlarga bosqin uyushtirib turdim*» so'zları qayta-qayta tilga olinadi?

J: «**Tunyuquq**»

## «KUL TIGIN» BITIGI

1. Qaysi bitiktoshda arxar surati aks ettirilgan xoqonlik tamg'asi naqshlangan? J: «Kul Tigin»da
2. Kul Tigin kim bo'lgan? J: Eltarish xoqonning kichik o'g'i, Bilga xoqonning ukasi va sarkardasi
3. Eltarish xoqon qachon vafot etgan? J: 692-yilda
4. Kul Tigin bitigida asosiy voqealar, his-tuyg'u va kechinmalar kimning tilidan ifodalanadi?  
J: Bilga xoqonning
5. Kul Tigin qachon tug'ilgan? J: 685-yilda
6. Eltarish xoqon qachon vafot etgan? J: 692-yilda
7. Kul Tigin qachon vafot etgan? J: 731-yilda, 47 yoshida, qo'y yilda, o'n yettinchi kunl
8. Qaysi bitiktosh Bilga xoqon buyrug'i bilan Yo'llug' Tigin tomonidan 20 kun davomida yozib tugatilgan?
- J: Kul Tigin bitiktoshi
9. Kul so'zining ma'nosi nima? J: Ulug', dovrugli
10. Tigin so'zining ma'nosi nima?
- J: Sarkardalik unvoni
11. Kul Tigin bitiktoshi qachon yaratilgan? J: 732-yilda
12. Kul Tigin bitiktoshining hajmi? J: Marmardan Ishlangan bo'llib, balandligi 3 m 15 sm, qallnigi 41 sm, tub qismi 1 m 24 sm, yuqoriga tomon torayib borgan
13. Kul Tigin bitiktoshi qachon va kim tomonidan topilgan? J: 1889-yill Ma'g'ullistonning Kosho Saydam vodiysidagi Ko'kshin-O'rxon daryosi qirg'og'ldan rus zolyisi N.M.Yadrinsev topgan
14. «Bilga xoqon» bitigini kim topgan?

J: Unl ham N.M.YadrInsev topgan

15. «Bilga xoqon» bitigining hajmi?

J: Bo'yi 3 m 45 sm, eni 1 m 72 sm, qaliligi 72 sm, bitktosh ag'darilib, uchga bo'llingan va ayrim satrlari nurab, yozuvlari ham zarar ko'rgan

16. «Bilga xoqon» bitigi necha satrdan iborat?

J: 80 satrdan

17. «Bilga xoqon» bitigida Kul Tigin bitiktoshidagi necha satr takrorlangan? J: 41 satr

18. «Turk o'g'uz beklari, ey xalq, eshitin! Tepadan osman bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, ey turk xalqi, hukumatingni kim buzdi?». Ushbu parcha qaysi bitikka tegishli? J: Kul Tigin bitiktoshi

19. «Ey turk xalqi, g'oyat ishonuvchansan. Samimiyni nosamimiydan ajratmaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan hoqoningning so'zini olmay har qayerga ketding, u yerlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding». Ushbu parcha qaysi bitikka tegishli?

J: Kul Tigin bitiktoshi

20. «Turkning endigi xalqi, beklari! Uy, dunyogagina qaraydigan ko'ziga faqat mol-u mulk ko'rinaradigan beklar, sizlar – gumrohsizlar!» Ushbu parcha qaysi bitikka tegishli?

J: Kul Tigin bitiktoshi

21. Kul Tigin bitiktoshida ota va bobosining ismlari tilga olinadi. Ular kimlar? J: Bo'min xoqon va Istami xoqon

22. Kul Tigin otasi va onasining Ismi?

J: Eltarish xoqon va Elbilga xotun

23. Kul Tiginning qabrtoshiga naqshni kim keltirgan?

J: Tuyg'un Eltabar

24. Qaysi bitiktosh «Tangri yashnatuvchidir», degan jumla bilan lugallangan? J: **Kul Tigin bitiktoshi**

25. Kul Tigin otasi vafot elganda necha yoshda bolgan? J: **Yetti yoshda**

26. Kul Tigin necha yoshda ekanligida Qирг'из томонга lashkar tortib, xoqonini o'ldirib, davlatini olishadi?

J: **26 yoshida**

27. Kul Tigin 30 yoshdaligida qaysi xalq bilan jang olib borgan?

J: **Qarduq xalqi bilan Tamg'Iduq boshida**

28. Kul Tigin necha yoshida bir yilda besh marta jang qilib, qarluq, az, izgil, o'g'uz xalqini taslim etadi?

J: **31 yoshida**

29. Kul Tigin bitiktoshini yasash uchun bino yasovchi, naqsh solingen bitiktosh yasovchi qaysi usta tashrif buyur-gan? J: **Tabg'ach xoqonning jiyani Chang sangun**

30. Qaysi bitiktosh xoqonning xalqiga, beklariga, lash-karlariga, inilariga, jivanlariga va o'g'llariga xitob qilishi bilan boshlanadi? J: **Kul Tigin bitiktoshi**

31. Qaysi bitiktoshda turk xalqining tabg'ach xalqiga qul bo'lishi sabablari haqqoniy aks etgan?

J: **Kul Tigin bitiktoshida**

32. Ko'kturklar deb atalishining sababi nima?

J: **O'zlarini osmon farzandi deb bilganlari uchun**

33. Ko'kturk xoqonligining boshida kim turgan?

J: **Bo'min xoqon va Istami xoqon**

34. Ikkinci turk xoqonligining asoschisi kim bo'lgan?

J: **Eitarish xoqon**

35. O'rjun-Enasoy yodgorliklari qaysi davrga mansub?

**J: VI – VIII asrlarda Oltoydan Amudaryo bo'ylariga-cha sultanat qurgan ko'kturklar davriga mansub**

36. Xoqonlik qachon yemirilgan?

**J: VIII asrning 30-yillarida**

37. Bilga xoqon haqidagi to'g'ri hukmlarni toping.

**J: 18 yll hukmronlik qilgan, qarindoshlaridan birl tomonidan zaharlab o'ldirilgan, 684-yilda tug'ilgan, 734-yilda o'lgan**

38. Qaysi bitiktosh xoqonning o'z xalqiga, beklariga xitobi bilan boshlanadi? **J: Kultegin bitiktoshi**

40. Bitiktoshlar uchun xos bo'lgan tasviriy vositalarni toping. **J: Alliteratsiya, epitet – sifatlash, maqollardan foydalanish**

41. O'rjun-Enasoy bitiktoshlaridagi asosiy tasvir vositalasi qaysi? **J: Alliteratsiya**

42. O'rjun-Enasoy bitiktoshlari qanday yo'lda yozilgan? **J: She'rly**

43. O'rjun-Enasoy bitiktoshlarida tuyaga qaysi epitet qo'llanilgan? **J: Egri**

44. «O'ngra qitayning O'lurtachi terman, Bani O'g'uzug' O'lurtachi – o'q terman» parchasida qaysi badliy san'at ishlataligan? **J: Alliteratsiya**

45. Tunyuquq qaysi urug' vakili? **J: Ashlida**

46. «Tunyuquq bitiktoshi»da xalq nima deb ataladi?

**J: Bo'dun**

48. «To'qquz o'g'iz mening xalqim edi». Ushbu so'zlar kimga tegishli edi? **J: Billga xoqonga**

49. Yodgorliklarni kimlar o'rgangan?

**J: V.Tomson va V.Radovlardan keyin S.E. Malov,**

**S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, X.Orxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov**

50. Yodgorliklarni o'zbek olimlaridan kimlar o'rganishgan? J: **A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, N.Rahmonovlar**

51. «*Xoqon bo'lib, yo'q qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg'azdim. Qashshoq xalqni boy qildim. Oz xalqni ko'paytirdim ya bu so'zimda yolg'on bormi?!*» satrlari qaysi bitiktoshdan olingen? J: **«Kul Tigin» bitigidan**

52. «*Boshi borning boshini egib ta'zim qildirganlar, tizzasi borni cho'kkalatganlar*» satrlari qaysi bitiktoshdan olingen? J: **«Kul Tigin» bitigidan**

53. «*Beklari, xalqi insafsiz bo'lgani uchun, tabq'ach xalqi hiylakor bo'lgani uchun, lo'ymas bo'lgani uchun, firibgar bo'lgani uchun, og'a va inini bir-biriga qayragani uchun, begi va xalqinti bir-biriga chaqqani uchun turk xalqi ellenagan davlatini qo'ldan chiqarib yuborgan*» satrlari qaysi bitiktoshdan olingen? J: **«Kul Tigin» bitigi**

54. «*Turk xalqi yo'q bo'lmasin» deb, «*xalq bo'lsin» deb otam Eltarish xoqonni, onam Ebilga xotunni tangri o'z martabasida tutib, yuqori ko'targan ekan, otam xoqon o'n yeti er bilan chetga chiqib kelgan*» satrlari qaysi bitiktoshdan olingen? J: **«Kul Tigin» bitigidan***

55. Kul Tigin necha yoshida amakisining xoqon davlatini, hokimiyatini qo'lga kiritdi? J: **O'n olti yoshida**

56. Bashg'u nomli bo'z ot kimniki edi? J: **Kul Tiginning**

### **MAHMUD KOSHG'ARIY**

1. Mahmud Koshg'ariyning to'liq ismi?

**J: Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad**

2. Qaysi shaharda tug'ilgan? J: **Bolasog'unda**

3. Otasi va bobosi qaysi shahardan bo'lgan?

**J: Barsq'on shahridan**

4. Nima uchun Koshg'ariy nisbatini olgan?

**J: Chunki otasi Koshg'arga ko'chib kelgan va Mahmud shu yerda tug'ilgan**

5. Mahmud Koshg'ariy qomusiy olim va tolmas sayyooh bo'lgan

6. U turkiy til grammatikasini ishi lab chiqqan birinchi tilshunos ollmdir

7. Turkcha, arabcha lug'atning birinchi namunasi ham uning nomi bilan bog'liq

8. Qaysi asarda turkiy tildagi so'zlar ma'nosi arab tilida izohlab berilgan?

**J: «Devonu lug'otit turk»da**

9. Mahmud Koshg'ariy yozadi: «Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanilib kelgan hikmatli so'zlardan, maqollardan keltirdim»

10. Qaysi asarda O'rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo'lgan badiiy ijodi to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlar jamiangan?

**J: «Devonu lug'otit turk»da**

11. «Devonu lug'otit-turk» asari qaysi hukmdorga bag'ishlangan? J: **Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtadoga**

12. «Devonu lug'otit turk» qachon yaratilgan va undagi

**ma'lumotlar qaysi davrlarga tegishli? J: XI asrda yaratilgan, lekin unda jamlangan xalq og'zakl ijodining namunalarini asar yozilgan davrdan 5-6 asr qadimlyroq**

13. «*Bulnar meni ulas ko'z,*

*Qara mengiz qizil juz.*

*Andin tamar lugal tuz,*

*Bulnap jana ul qachar» – Bu mast ko'zli seviklim porloq yuzidagi yoqimli qora xoli bilan meni asir qiladi. Xuddi go'zal yonoqlaridan shirinlik tomayotgandek meni asir qiladi-da, so'ng mendan qochadi*

14. «*Endik kishi tutilsun, El toru etulsun, Toqli bo'n jetilsun, Qazg'u ema savilsun» – Qilichimiz bilan qayg'uni ochaylikki, ahmoqlar yo'lga tushsinlar, mamlakat ishi tuzalsin, qo'zilar bilan bo'rilar xavfsiz birga bo'lsinlar, bizdan qayg'u-g'am yo'qolsin*

15. «*Yay ko'rkina inanma,*

*Suvlar uza tayanma.*

*Esizliging anunma,*

*Tilda chiqar ezgu so'z» – Bahor ko'rkiga, uning rang-barang gullariga, chiroyligiga ishonma, unday yaxshilik umid qilma. Suvga tayanma, chunki dunyo ne'matlari ning shirinligiga, bahor go'zalligiga suyangan kishilar suvga suyangan kabitdir. Yomonlikka otlanma, tilingdan doim xalq sendan minnatdor bo'ladigan yaxshi so'zlar chiqar*

16. «*Ko'ngul kiming bo'lsa qali yo'q chig'ay*

*Qilsa kuchun bo'lmas ani to'q baj» – Ko'ngli och, yo'qsil bo'lgan kishini kuch bilan to'q, boy qillsh mumkin emas.*

17. «*Bulmish nengig seversan,*

*Aqrin angar sevingil.*

*Barmish nengig saqinma,*

*Azraq angar o'kungil»* – Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u sendan (qo'lingdan) chiqib ketishi mumkin. Qo'lingdan ketgan narsa uchun qayg'urma, unga ozroq achin. Chunki achinish senga (qo'ldan ketganini) qaytarib bermaydi

18. «*Kelsa qali qatig'liq ertar teyu seringil.*

*O'zlak ishin bilip tur ancha angar tirangil»* – Senga lashvish va alam yetsa, o'tib ketar deb sabr qil. Dunyo ishlarini bilib turishga tirish. Har qanday kulfatni o'zingga olib, joningni qiynama

19. Alp Er To'nga marsiyasi:

*«Alp Er To'nga o'ldimu, Alp Er To'nga o'ldimi?*

*Esiz ajun qaldimu, Yamon dunyo qoldimi?*

*O'zlak o'chin aldimu, Zamon o'chin oldimi?*

*Amdi yurak jirtilur» Endi yurak yirtilur.*

*O'zlak yaraq kuzatti, Dunyo fursat ko'zladı,*

*O'g'ri tuzaq uzatti, O'g'ri tuzoq sozladi.*

*Beglar begin azitti Beklar begin izladi,*

*Qachsa qali qurtulur Qanday qochib qutulur*

20. «*Alp Er To'nga»* marsiyasini kim o'zbekchaga tabdil qilgan? J: **Aziz Qayumov**

21. «*Ilm-u donishni istadim. Ilmli, donishmandlarni qidirdim. O'zimni odamlar orasidan ayirdim. Buning uchun oq yollı olim yechiladi»*. Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: **«Devonu lug'otit turk» asaridan**

22. «*Yashirin tuzoqni ko'rmay mening oyog'im ilindi, uzoq vaqt qiynaldim, ey seviklim, endi o'zing davola»*. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: «Devonu lug'otit turk» asaridan

23. «Devonu lug'otit turk» asarida qo'llanilgan «barchin» so'zining ma'nosini toping. J: Ipak

24. «Alp Er To'nga» marsiyasining turoqlarini aniqlang.  
J: 4 + 3

25. «Zamon ahli ozaydi, Olchoq, yovuz kuchaydi. Ezgu ishlar kamaydi, Dunyo begi ketganda». Ushbu misralar qaysi qahramon haqida? J: Alp Er To'nga

26. Ikk adabiyotshunos, tilshunos, elshunos, tarixchi, folklorshunos va shoir deb ta'riflangan ijodkor kim?

J: M.Koshg'arly

27. Yigitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka da'vat kabi qadimgi turmush farzidan olingan qo'shiqlar qaysi asarda maxsus berilgan? J: «Devonu lug'otit turk»

## ABU MANSUR AS-SAOLIBIY VA UNING «YATIMAT AD-DAHR» ASARI

1. Abu Mansur as-Saolibiyning ta'lif qismi?

J: Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy

2. Yashagan davri? J: 350 (961)-yil Nishapurda tug'ilgan va 429 (1038)-yil shu yerda vafot etgan

3. Qancha ilmiy asar yozgan? J: 50 dan ortiq

4. «Yatimat ad-dahr» asari necha qismdan iborat?

J: 4 qismdan

5. Unga X – XI asrlarda yashagan nechta arab tilida ijod qilgan adiblar haqida ma'lumot bor? J: 415 ta

6. Nechanchi qismliga xurosonlik va movarounnahrlik

shoirlarning nasriy hamda nazmiy asarlaridan namunalar kiritilgan? J: 4-qismiga 124 ta xurosonlik va movaroun-nahrilik ijodkorlar haqida

7. 4-qismga qancha bayt she'r kiritilgan va ular qanday Janrlarda? J: 4160 baytga yaqin, Janrlari: qasida, vasf, hajv, marsiya, masnavly, g'azal, urjuza

8. O'sha davrdagi arab adabiyotidagi qasidalar nimasi bilan farqlanadi?

J: Ularda maqtov bilan birga tanqid ham bo'lgan

9. Keyinchalik qasida janridan ajralib chiqqan janrlarni toping. J: Hajv, g'azal, vasf, marsiya

10. Saolibiyl keltirgan qasidalar qaysi mavzularda bo'lgan? J: Ayrim tarixiy voqealarga bag'lshlangan va moddliy qiyinchilikdan shikoyat, pand-nasihatga atalgan. Ko'p uchraydiganlari hajvliy yo'nallishda bo'lgan

11. Y.E.Bertelsning X asrdagi Buxoroda yaratilgan adabiyot haqidagi fikrlari: «Aslini aytganda, til nuqtayi nazaridan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo'lish haqiqatan shartli narsadir. Aslida biz mavzu, uslub, tashqi ko'rinishi bir xil, faqat tildagina farqi bo'lgan yagona adabiyotga egamiz. Shuni ham aytish kerakki, sholrlar ko'p holda ikki tilni bilishgan va har ikki tildan birday osonlik bilan foydalanishgan, bir flkrning o'zini goh bu, goh u tilda ifoda etishgan»

## ABU MANSUR AT-TOHIRIY

– Ota-onamdan judo bo'lganim tufayli ko'z yoshi to'kaman;

– Kimki bu ikkisidan ayrilib yashay olsa, uning uchun boshqa musibatlar arzimagan narsa;

– Jonimning ham chiqib ketishiga ishonib, uni tinchlan-tiryapman, lekin ildizi qurigan daraxtning shoxi qanday qilib qolishi mumkin?

– Ikkita narsa bor, agar ko'zlarim ular haqida qon to'kib yig'laganda, ularga halokatdan xabar qilingan bo'lardi va ular yashashi kerak bo'lgan vaqtning o'ndan birini ham ko'rмаган bo'lardilar; biri yoshlilikning o'tib ketishi, ikkinchisi do'stlardan judo bo'lish

### **ABU TAYYIB AL-MUS'ABIY MUHAMMAD IBN XOTIM**

- O'z davringda baxtingni taqdir qo'lidan xalos et;
- Aysh-ishrat va xursandchilik bilan o'tayotgan kunni g'animat bil;
- Jamiki yaxshi va yomonga muruvvat qil;
- Qilgan yaxshiliklaring o'zingga qaytadi;
- Noshukrlar esa o'z yomonligi bilan sharmanda bo'ladi

### **ABUL FAZL AS-SUKKARIY AL-MARVAZIY AHMAD IBN MUHAMMAD IBN ZAYD**

- Kimki quyoshni jahl bilan bekitmoqchi bo'lsa, xato qiladi;
- Quyoshni choyshab bilan yopib bo'lmaydi;
- Kechaning eng yaxshi sifati shuki, kecha homilador, ammo nima tug'ishini bilmaydi;
- Donolarga tegishli fors maqollaridan: Kiyim bo'yoqchi qo'lida garovdir;

- Tuya hasharotlarni yoqtirmaydi, ammo u tirk ekan, ular uning burnida yashayveradi;
- Eshak balchiqqa yumalab istagan narsasiga erishdi va ishdan qutuldi;
- Biz qadimgi shartlashgan shartlarda turamiz: yirtilgan sanoch ham, ylqilgan karvon ham bo'lmaydi;
- Eshak haqidagi og'izdan og'izga o'tib yurgan maqlillardan: Eshak ba'zan kasalligi uchun ham hangraydi;
- Echki faqat ovqat bilan semiradi, echki muloyim gap bilan semirmaydi;
- Dengiz suvi toshib turgani ayon bo'lib tursa ham, it undan tili bilan Ichadi;
- Nasihatlarimga shubhalanma, senga mushukni qopga solib sotayotganim yo'q;
- Kimning uyida taomi bo'lmasa, uning odamlar orasida hurmati bo'lmaydi;
- O'z ehsoningga meni umidvor qilding, xudo nomi bilan yolvoraman, arzimagan baqlajoningni tashla. Aytishlaricha, kimki taklif qilinmay dasturxonga kelsa, u o'zini kam-sitgan bo'ladi

### **ABU AHMAD AL-YAMOMIY AL-BO'SHANJIY**

- Odam uchun eng yaxshi xursandchilik: o'z qo'lli bilan ekkan daraxt mevalarini yeish;
- Yozgan she'rining kuylanganini eshitish va sevgan farzandlari uning xizmatida turganini ko'rish;
- Ba'zi birimiz bu uch baxtga egamiz, lekin bularning hammasiga xalaqit beruvchi tananing nimjon bo'lib qolishi

## **ABU-L-HASAN ALI IBN AL-HASAN AL-LAHHOM AL-HARONIY**

- Haddan ziyod donolik va harakatchanlik tufayli men xuddi qo'riq joyda yonayotgan olov kabi edim;
- Endi nodon bo'llib qoldim, agar cho'ntagida vaqosl yo'q odamning chaqqonligi susayib qolsa, buning ajablanarli joyi yo'q

## **ABU MUHAMMAD AL-MATRONIY AL-HASAN IBN ALI IBN MATRON**

- Do'st in'omga umid qilganda va dushman yomonlikdan qo'rqqanda biz seni sinab ko'rdik;
- Faqat ixtiyorning bilan kishilarga naf keltirasan va faqat zarurat tug'ilgandagina zararli bo'lasan;
- Faqat jazo berish uchungina sening haqingda yomon fikrga kelishdan qo'rqmaganingda, noshukurni yomonlik bilan jazolamagan bo'lardik

## **YUSUF XOS HOJIB**

1. Yusuf Xos Hojib qachon yashagan?

J: 1019 – vafot etgan vaqtি noma'lum

2. Yusuf Xos Hojib qayerda tug'ilib, qayerda yashagan?  
J: Quz O'rdu (Bolasog'un) shahrida tug'ilib, Koshg'arda ulg'aygan

3. Qaysi shoimi Bolasog'uniy ham deyishadi?

J: Yusuf Xos Hojib

4. «Qutadg'u bilig» qayerda yozilgan? J: Koshg'arda

5. «Qutadg'u bilig»ning yozilish sanasi?

J: Hijrly 462, milodiy 1069 – 1070-yillar

6. «Qutadg'u bilig» yozilganda Yusuf Xos Hojib necha yoshda bo'lgan? J: 50 yoshlarda

7. «Qutadg'u bilig» qanchada yozilgan?

J: 18 oy – bir yarim yil

8. Qaysi adib o'z asari uchun estik og'asi unvoniga sazovor bo'lgan? J: Yusuf Xos Hojib

9. «Qutadg'u bilig» asari qachon ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan? J: XIX asrning 1-choragidan

10. «Qutadg'u bilig» asari haqida kim ilk ma'lumot ber-gan? J: Fransuz sharqshunosi J.Amedi

11. «Qutadg'u bilig» asarining nechta qol'yozma nusxalari bor?

J: 3 ta: Vena, Qohira, Namangan

12. «Qutadg'u bilig»ning uyg'ur yozuvidagi nusxasi qachon ko'chirilgan?

J: 1439-yilda Hirotda

13. «Qutadg'u bilig»ning uyg'ur yozuvidagi nusxasi qayerde saqlanadi? J: Venada

14. «Qutadg'u bilig»ning Qohira nusxasi qachon topil-gan? J: 1896-yilda

15. «Qutadg'u bilig»ning Namangan nusxasi qachon topilgan? J: 1913- yilda

16. «Qutadg'u bilig»ni qaysi olimlar o'rgangan?

J: S.Mutalliboev, Q.Karimov, B.To'xlyev

17. Qaysi asar muqaddimasida «Bu turkcha qo'shiqlar tuzattim senga, O'qurda unutma, duo qil menga», deb yo-zilgan? J: «Qutadg'u billg»

18. «Qovoq solib osmon ko'zi yosh sochar, Chechak-maysa quvnoq kulib yuz ochar». Ushbu misralar muallifi va unda qo'llangan badiiy san'atlarni toping.

J: Yusuf Xos Hojib, sifatlash, jonlantirish, tazod

19. «Qutadg'u bilig» asari kimga bag'ishlangan?

J: Koshg'ar eligi – hukmdori Tavg'ach ulug' Bug'roxonga

20. Qaysi asar davlatni idora etish usuli, hukmdor va xalq munosabatlari, jamiyat hayoti, undagi tabaqalar tavsifi, kasb-kor egalari va ularga xos xususiyatlar haqida?

J: «Qutadg'u bilig»

21. Qaysi asarning «Kirish» qismida bahor madhiga bag'ishlangan maxsus bob bor?

J: «Qutadg'u bilig»da

22. Qaysi shoir ijodida ko'ngil o'q va yoyga o'xshatildi? J: Yusuf Xos Hojib

23. «Qutadg'u bilig»da hamma qimirlagan jonga bular dan manfaat bo'ladi, jamiki tiriklar bularga hojatmand bo'ladi, deb kimlar ta'riflangan?

J: Dehqonlar

24. To'rtliklardan parchalar:

Atim ezgu bo'sun, o'zum o'lsuni, O'zim o'lsam,  
ezgu otim qolsa bas,

Tirig qalg'u axir, atim qalsuni. Qolib mangu otim,  
tirik bo'lsa bas.

O'sa, edgulik qil, al edgu tila, Faqat yaxshilik qil,  
tila yaxshi nom,

O'zung mangu ating tirig bo'lsuni.

Noming mangulik-la yashab yursa bas.

*Kishilar ara ko'r kishi ul bo'lur,*  
*Kishilar aro eng yaxshisi asl shu erur*  
*Aningdin kishilar asig'lar bulur.*

*Ki, undan odamlar talay nañ ko'rur.*  
*Asig'siz kishilar kishida qo'ri,*  
*Nañ yo'q kishidir zararli, yomon,*  
*Asig'liq kishi asg'i elka to'lur.*

*Nañ bor kishidan el nuqsi to'lur.*  
*Tili yalg'an arning jafa qilqi ul,*  
*Tili yolg'on erving jafo xulqidir,*  
*Jafa kimda ersa o'shul yilqi ul.*

*Jafa kimda esa o'sha yilqidir.*  
*Kishi yalg'anigidan tilama vafa,*  
*Kishi yolg'onidan vafo kutmagin,*  
*Bu so'z sinamish o'gush yilqi ul*

*Bu so'z ko'p sinalgan talay yilgidir*

25. «Qutadg'u bilig»da kimlar haqida qo'lli ochiq bo'ladi,  
ko'nglini xudo bergenidan ham ziyod keng tutadi, deyiladi?

**J: Dehqonlar**

26. «O'zim o'lsam, ezgu otim qolsa bas,  
Qolib mangu otim, tirk bo'lsa bas.

*Faqat yaxshilik qil, tila yaxshi nom,*

*Noming mangulik-la yashab yursa bas» misralari muallifi kim? J: Yusuf Xos Hojib*

27. «Tili yolg'on erving jafo xulqidur,  
Jafo kimda ersa, o'sha yilqidir.

*Kishi yolg'onidan vafo kutmagin,*

*Bu so'z ko'p sinalgan talay yilgidir» misralari muallifi  
kim? J: Yusuf Xos Hojib*

28. «Ota pandiga sen tugal qil emal,  
Yurarsan bo'lib baxtiyor har mahal.

Olangni, onangni sevintir lamom,

Bu xizmat yetirgay tilakka tugal» misralari muallifi kim?

J: **Yusuf Xos Hojib**

29. «Qora bosh yovl bu qizil til turur.

Necha bosh yedi u, yana ham yeyur,

Bashing sog'lig'i-chun tiyib yur tiling,

Tiling istagan kun boshingga yetur» misralari muallifi  
kim? J: **Yusuf Xos Hojib**

30. Turkiy tilda bitilgan ilk badiiy dostonni toping.

J: «**Qutadg'u bilig»**

31. Qaysi asar uchun uning muallifi «eshik og'asi» la-  
vozimiga munosib ko'rilgan? J: «**Qutadg'u blllg»**

32. Beklikka tekkan dard davosi aql va bilim, Uni aql  
bilan emla, ey xalqi muloyim kabi didaktik baytlar muallifi  
kim? J: **Yusuf Xos Hojib**

33. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub»da «olam  
ma'murligi va masrurligi, əlning qut-barakoti dehqonlar-  
dan» deydi. Dehqonlar yana qaysi asarda ulug'langan?

J: «**Qutadg'u bilig»**

34. Yetakchi g'oyasi adolat va aql-idrok tantanasini  
ulug'lash bo'lgan asarni toping. J: «**Qutadg'u billg»**

35. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u billg» asari bizga-  
cha qaysi yozuvda yetib kelgan?

J: **Arab va uyg'ur yozuvida**

36. Tilni aql-idrok va bilim tarjimoni deb baholagan  
adibni belgilang. J: **Yusuf Xos Hojib**

37. Asarlarida odil shoh haqidagi g'oyalari, o'y-orzula-

rinin ilgari surgan adiblar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

J: **Yusuf Xos Hojib, Navoly**

38. Boshqaruv ilmida rahbarga qo'yiladigan talablar qaysi asarda keltirilgan? J: «**Qutadg'u biling**»

39. *Barcha nomunosisib ishlardan tiyuvchi uyatdir, Barcha xayrli ishlarga yo'llovchi uyatdir.* Ushbu she'riy parcha qaysi asardan olingan? J: «**Qutadg'u biling**»

40. Turkiyadagi tasavvuf ta'liloti qaysi asardan ifodalana boshlagan? J: «**Qutadg'u biling**»

### **AHMAD YUGNAKIY**

1. Qaysi shoir ko'proq Adib Ahmad nomi bilan mashhur bo'lgan? J: **Ahmad Yugnakly**

2. «*Hibat ul-haqoyiq*» (*Haqiqat sovg'alari*)ning nechta nusxasi yetib kelgan? J: **5 ta**

3. «*Hibat ul-haqoyiq*»ning eng eski nusxasi qaysi?

J: **Samarqandda Zaynul Obidin degan xattot tomonidan ko'chirilgan bo'lib, 1444-yilda Turklyaga borib qolgan**

4. Kim Turkiyadagi «*Hibat ul-haqoyiq*»ning nusxasidan ikkita nusxa ko'chirgan? J: **1480-yilda Abdurazzoq baxshi degan kishi Turklyaga borib, undan arab va uyg'ur yozuvida 2 nusxa ko'chirgan**

5. «*Hibat ul-haqoyiq*» Turkiyada qaysi nom bilan mashhur? J: «**Atebat ul-haqoyiq**» (*Haqliqatlar eshigi*)

6. «*Hibat ul-haqoyiq*»ning yurtimizda o'rgangan olimilar? J: **Q.Karimov, Q.Mahmudov**

7. Asar kimga bag'ishlangan?

J: **Dod Sipohsolor bekka**

8. Sipohsolor so'zining ma'nosi? J: **Bosh qo'mondon**
9. «Hibat ul-haqoyiq»ning hajmi?
- J: **14 bob, 254 bayt, 508 misra**
10. Qaysi asarda: «*Suyakning qimmati uning Ichida iligi borligida, odamning odamligi bilimi borligida. Bilimi yo'q kishi iligi yo'q suyak kabidir*», – deyiladi?
- J: **Hibat ul-haqoyiq**
11. Qaysi asarda: «*Dunyo bir qo'lli bilan asal tutsa, ikkinchi qo'lli bilan zahar tutadi. Bu dunyo – ilon. Avraydi, al-daydi, qo'yningga kirib oladi va zahrini quyadi. Unga ko'ngil bermoq aqldan emas. Baxt – omonat. U qushdek uchib yuradi. Hech kimning boshida uzoq turmaydi*», – deyiladi?
- J: **Hibat ul-haqoyiq**
12. Navoiy Ahmad Yugnakiya qaysi asarida maxsus to'xtaydi? J: **«Nasoyim ul-muhabbat»da**
13. «*Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib nimalar manquldur. Derdarki, ko'zlari butov ermishki, aslo zohir ermas emish. Basir bo'lib, o'zga basirdardek andoq ermas ermishki, ko'z bo'lg'ay va ko'rmas bo'lg'ay*». Ushbu fikrlar kimnniki va kim haqida?
- J: **Navoly, Ahmad Yugnakiy haqida**
14. «...lubyo (loviya)g'a ilik surtubtur va debturki, qo'y buyragiga o'xshaydur va naxud (no'xat)ni barmog'i bila silab, debturki, itolg'u boshig'a o'xshan». Ushbu fikrlar kimnniki va kim haqida?
- J: **Navoly, Ahmad Yugnakiy haqida**
15. Qaysi asarda behuda so'z obro'ni to'kadi, achchiq til boshga yetadi. Kam so'zlamoq bilan birgalikda to'g'ri so'zlamoq kerak, deyiladi? J: **«Hibat ul-haqoyiq»da**

16. Qaysi asarda *to'g'ri so'z asalga, yolg'on so'z sa-rimsoq piyozga o'xshatilgan?* J: «**Hibat ul-haqoyiq» da**

17. Qaysi asarda «*Baxillik dori bilan tuzatib bo'lmay-digan kasallikkidir. Baxillik harislik bilan yonma-yon turadi. Baxil mol-dunyoga quddir. Saxyga esa mol-dunyo quldum*», deyiladi? J: «**Hibat ul-haqoyiq» da**

18. Ahmad Yugnakiy haqida kim «*Aning tili turk alfozi (so'zlar) bila mavoiz (va'zlar)-u nasoyih (nasihatlar)g'a go'yo (biyron, yetuk) ermish. Xeyli elning muqtadosi (pir) ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatlu nuktalari shoo' (mashhur)dir*», deb yozgan? J: **A.Navoly**

19. «**Hibat ul-haqoyiq**» matnida qancha so'zlar arabcha va forscha? J: **15 – 20 foizgacha**

20. Qaysi asar boshidan oxirigacha ta'rif-tavsifga qurilgan? J: «**Hibat ul-haqoyiq»**

21. Kimning fikricha, *baxtga yetishishning yo'lli bitta: u ham bo'lsa ilmdir?* J: **Ahmad Yugnakiyning**

22. Qaysi asarda «*Tilingni tiy, tishing sinmasin, Agar o'ylamay so'zlab yuborsang, tishingni sindiradi*», deyiladi? J: «**Hibat ul-haqoyiq»da**

23. Qaysi asarda «*Neki kelsa erka tilitin kelur, Bu tiltin kim ezgu, kim aqir bo'lun*», deyiladi? J: «**Hibat ul-haqoyiq» da**

24. Qaysi shoir dunyoni odamlar bir qo'nib o'tib ketadi-gan karvonsaroy (rabot)ga o'xshatadi?

J: **Ahmad Yugnakly**

25. «*Axi bo'l, sanga so'z so'kunch kelmasun, So'kunch kelgu yo'lni axilik tiyur*» (*Saxy bo'l, senga la'nat kelmasin, saxoval la'nat yo'lini berkitadi*). Ushbu misralar qaysi asar dan olingan? J: «**Hibat ul-haqoyiq»dan**

26. «Emishsiz yig'ochtek karamsiz kishi, Emishsiz yig'ochni kesib, o'ttagil». Ushbu misralar qaysi asardan olingan? J: «Hibat ul-haqoylq»dan

27. «Jafo qildachingg'a yanut qil vafo, Arimas, necha yuvsa, qon birla qon». Ushbu misralar qaysi asardan olingan? J: «Hibat ul-haqoyiq»dan

28. «Hibat ul-haqoyiq» qaysi vaznda va qanday shaklda yozilgan?

J: Mutaqorib bahrilda, to'rtliklar bilan yozilgan

29. «Hibat ul-haqoyiq»da qancha so'z qo'llangan?

J: Mingga yaqin

30. «Ochun kulchirar boz alin qosh chetar, bir ilkin tulub shahd, biri zahr qotan» misralarida qanday badiiy san'at ishlataligan? J: Tashxis – Jonlantirish

31. «Hibat ul-haqoyiq»ning 1-bo'limi nima haqida?

J: Ilm manfaati, Jaholatning zarari haqida

32. «Hibat ul-haqoyiq»ning 2-bo'limi nima haqida?

J: Tilni tlyish va axloq-adob haqida

33. «Hibat ul-haqoyiq»ning 3-bo'limi nima haqida?

J: Dunyoning o'zgarib turishi haqida

34. «Hibat ul-haqoyiq»ning 4-bo'limi nima haqida?

J: Saxovat va baxillik oqibati haqida

35. «Hibat ul-haqoyiq»ning 5-bo'limi nima haqida?

J: Tavozellik manfaatl, kibrillik va harislikning zararl haqida

36. Qaysi asarda «Senga jafo qiluvchiga sen vafo bilan javob qil, qonni qon bilan qancha yuvsa ham, u anmaydi», deyiladi?

J: «Hibat ul-haqoyiq»da

37. Qaysi asarda «*Bir kishida ikki narsa bo'lsa, u kishi-ga muruvvat yo'li yopildi. Birinchidan behuda so'zlar bilan vaysasa, ikkinchidan, bu kishining so'zlari yolg'on bo'lsa*», deyiladi? J: «**Hibat ul-haqoyiqda**

38. «*Alinglansa tutnub g'azab inad o'ti, halimliq suvin sachul o'tni o'chin*». Ushbu misralar qaysi asardan olingan?

J: «**Hibat ul-haqoyiqdan**

39. Ahmad Yugnakiy asarini qaysi tilda yozganini ta'kidlaydi? J: «**Qashqarcha**» tilda: *Tamomi erur qashqarly till bila, Ayitmish adib riqqati dil bila*

40. «*Ayo til tural madh, o'tungil qani,*

*Men artut qilayin shohimga ani.*

*Shohim madhi birla bezadim kitob,*

*O'qug'li kishining sevunsun Joni*». – Ey til, madh qil, qani bayon et, men uni shohimga sovg'a qilayin. O'qimishli kishining ruhi sevinsin (deb) shohim madhi uchun bezadim yozdim

41. «*Bilimli kishi o'lsa ham, uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham, oti o'likdir*», degan fikrlar muallifi kim? J: **Ahmad Yugnakly**

42. «*Tilingni tiy, so'zingni qisqa qil, bu til tiyilsa, o'zing ham saqlanasan. Rasul kishini o'tga tashlovchi tildir, deb aytdi, shuning uchun tilingni tiy, o'zingni o'tdan tart*»

43. «*Do'stim deb, Ishonib sir aytma, ehtirot bo'l, garchi qanchalik yaqin, ishonchli do'sting bo'lsa ham. Siring (rozing) o'zingda saqlanib, singlib turmagach, u do'stingda saqlanmaydi, buni yaxshi o'ylab ko'r*»

44. «*Bu dunyo avraydigan ilon kabidir, uni yuvosh, yumshoq deb yoysang, ichi achchiq Ichimlik kabi og'udir.*

ilon yumshoq, yuvosh bo'lib ko'rinsa ham, yomon fe'llidir:  
yuvosh deyu inonmasdan, undan uzoq turish kerak»

45. «*Tamomi erur qashqariy til bila – To'laligicha qash-qany til bilan yozildi*», – deya qaysi asarga ta'rif berilgan?

J: «**Hibat ul-haqoyiq**»

46. «*Karamsiz, shafqatsiz kishi mevasiz daraxt kabidir. Mevasiz yog'ochni kesib yondirgin*» satrlari qaysi asardan olingan? J: «**Hibat ul-haqoyiq**»

47. «*Gunohkor kishining gunohini kechir, adovat ildizini qazib tashla, keş va qo'porib tashla. G'azab o'ti tutab, alangalanib yonsa, muloyimlik bilan shafqat, marhamat, haqiqat suvini sochib, uni o'chir*» satrlari qaysi asardan olingan? J: «**Hibat ul-haqoyiq**»

48. «*Ulug'likka yetishsang yanglishma, agar atlas kiy-sang bo'z kiyganingni unutma*» satrlari qaysi asardan olingan? J: «**Hibat ul-haqoyiq**»

49. «*Bu dunyo qo'nib yana ketadigan rabotdir, bu rabotga tushib o'tuvchilar qo'nib keta beradi*» satrlari qaysi asardan olingan? J: «**Hibat ul-haqoyiq**»

50. «*Bir kishida ikki narsa bo'lsa, u kishiga muruvvat yo'li yopildi. Birinchidan, behuda so'zlar bilan vaysasa, ikkinchidan, bu kishining so'zları yolg'on bo'lsa*» satrlari qaysi asardan olingan? J: «**Hibat ul-haqoyiq**»

51. Nekim kelsa erga, tilidin kelur, Bu tildin kim edou. kim agir bo'lur. Tagiga chizilgan so'zlar ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan? J: Ezgu, baxtli; haqlr, xor-u zor

52. Quyidagi she'riy parchada tushib qolgan ismni aniqlang. «... otim, adab-pand so'zum, So'zum munda qolur, borur bu o'zim». J: Adib Ahmad

53. Adib Ahmadga Alisher Navoiy qaysi asarida juda yuksak baho bergan? J: «*Nasoyim ul-muhabbat*»

54. Alisher Navoiy: «*Haq subhonahu taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqondur, ammo ko'ngil ko'zin bag'oyat yaruq qilg'andur*», – deb kimga baho bergan?

J: Ahmad Yugnakiya

### AHMAD YASSAVIY (1166-yilda vafot etgan)

1. Ahmad Yassaviyni kim «Piri Turkistoniy», deb atagan? J: **Farididdin Attor**

2. Ahmad Yassaviyni kim «Shayxul-mashoyix» (shayxlar shayxi) deb atagan? J: **Alisher Navoiy**

3. Kimni o'z yurtida «Hazrati sultonim», deb atashgan?

J: **Ahmad Yassaviyni**

4. Yassaviy haqidagi ma'lumotlarni birinchi marta to'plab jiddiy tadqiq etgan olim?

J: **Turkiyalik olim Muhammad Foud Ko'prulzoda**

5. Ahmad Yassaviy haqida kimlar maqolalar e'lon qilgan? J: **Fitrat, E.Rustamov**

6. Sayram shahri qanday atalgan?

J: Isfijob, «*Madinat ul-bayzo*» (Oq snahar)

7. Yassaviy farzandlarining ismi?

J: O'g'li: Ibrohim, Qizlari: Gavhari Shahnoz, Gavhari Xushnoz

8. Yassaviyning hozirgacha yashayotgan avlodlari qaysi farzandidan tarqalgan? J: **Gavhari Shahnoz**

9. Ahmad Yassaviyning birinchi xalfasi kim edi?

J: Arslonbobning o'g'li Mansur ota

10. Ahmad Yassaviyning ikkinchi xalfasi kim edi?  
J: Xorazmlik Saïd ota
11. Ahmad Yassaviyning uchinchi xalfasi kim edi?  
J: Hakim ota (**Sulaymon Boqlig'oniy**)
12. Yassaviya tariqatining ikkinchi nomi? J: Jahriya
13. Jahriya so'zining ma'nosi?  
J: Oshkor qilmoq, baland ovoz bilan o'qimoq
14. «Faqrnama» kimning asari?  
J: Ahmad Yassaviyning
15. «Devoni hikmat» asarining muallifi?  
J: Ahmad Yassaviy
16. Turkiyadagi darveshlik-qalandarlik tarixi kimning nomi bilan bog'liq? J: Ahmad Yassaviy
17. Yassaviy hikmatlarining soni? J: 240 ga yaqin
18. Ahmad Yassaviy bir she'rda nechta hikmat ayl-ganini yozadi? J: 4400 ta
19. Ahmad Yassaviy haqida kim ikki kitobdan iborat roman yozgan? J: Sa'dulla Siyoyev
20. Yassaviyning hikmatlarini va u haqdagi tadqiqotlarni nashr etish O'zbekistonda nechanchi yildan keng yo'lga qo'yildi? J: 1991-yildan keyin
21. Qaysi olim 1972-yilda Yassaviy haqida maqola yozib, sharo'idoralari lomonidan iskanjaga olindi?  
J: E.Rustamov
22. Ahmad Yassaviyning otasi kim bo'lgan?  
J: Ibrohim shayxlik martabasida bo'lgan, hazrat All avlodlaridan bo'lganligi naql qilinadi
23. Onasi kim bo'lgan?  
J: Qorasoch momo nomi bilan mashhur bo'lgan

24. Yassaviy ilk saboqni kimdan oлган?

J: Arslonbob ismli shayxdan

25. Arslonbob rivoyatlarga ko'ra necha yil yashagan?

J: Payg'ambarimiz as'hoblaridan bo'lib, 400 yil yashagan. U Muhammad payg'ambarning Yassaviyga atab bergan omonatlari – bir dona xurmoni necha yuz yillar tishining kovagida asrab keladi va yetti yashar Ahmadga topshiradi

26. Yassaviy Arslonbob vafotidan so'ng kimning qo'lida tahsil oladi? J: Yusuf Hamadoniydan

27. Yusuf Hamadoniyning birinchi xalfasi kim bo'lgan?

J: Shayx Abdulloh Barqiу

28. Yusuf Hamadoniyning ikkinchi xalfasi kim bo'lgan?

J: Shayx Hasan Andoqiy

29. Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalfasi kim bo'lgan?

J: Shayx Ahmad Yassaviy

30. Ahmad Yassaviy «ishorati g'aybiya» (ilohiy ishorat) bilan o'z o'rmini kimga topshirib, o'zi Yassiga qaytadi?

J: Abduxoliq G'ijduvoniyya

31. Ahmad Yassaviy Buxoroda kimdan tahsil oladi?

J: Yusuf Hamadoniydan

32. Kim Ahmad Yassaviyni 120 yil umr ko'rgan deb hisablaydi? J: Ka'prulzoda

33. Kim Ahmad Yassaviyni 125 yil umr ko'rgan deb hisablaydi? J: Gordlevskiy

34. Amir Temurning Anqara jangida Ahmad Yassaviyning «Yaldo kechani sham'l shabiston etgon, Bir lahzada olamni guliston etgon, bir mushkul Ishim tushubtur, oson etkil, Ey barchani mushkuln oson etgon» satrlarini

70 marta o'qigani haqidagi ma'lumot qaysi kitobda keltiriladi?

J: «**Vaqoati Temur**» asarida

35. Ahmad Yassaviy «Faqrnama»da faqirlikning nechla maqomlarini ko'rsatib bergen? J: **40 ta**

36. Tasavvufning Alloh tomon yo'l bosqichi qaysi?

J: **Tariqat**

37. Tasavvufning Allohnini tanish bosqichi qaysi?

J: **Ma'rifat**

38. «Dunyo molin deganlar, jahon molin olg'onlar, Karkas qushdek bo'lubon ul haromg'a botmishlar» misralarining muallifini toping. J: **Ahmad Yassaviy**

39. Yassaviy hikmatlarida qattiq tanqid qilinadigan narsa nima? J: **Nafs**

40. Qaysi shoir «Tufroq bo'lgil, olam seni bosib o'tsin», deydi? J: **Ahmad Yassaviy**

41. Yassaviy hikmatlarining ko'pchiligi qanday shaklda yozilgan? J: **To'rtlik**

42. Yassaviyning g'azal hikmatlarining hajmi qancha?

J: **6 baytdan 13 baytgacha**

43. Yassaviyning to'rtlik hikmatlarining hajmi qancha?

J: **5 banddan 25 bandgacha**

44. Qul Ubaydiy taxallusi bilan ijod qilgan Buxoro xoni kim?

J: **Shaybonlyxonning Inslı Muhammad Sultanning o'g'lli**

45. Yassaviy haqida «Ey koshifi haqoyiq asrori sodiqin, Vey, voqifi daqoyiq, mushkbo'yи xoriqin» misralarini yozgan ijodkorni toping. J: **Yusuf Saryomly**

46. Yassaviy hikmatlariga izdosh hikmat yozgan shoirlarni toping. J: **Qul Ubaydiy, Sulaymon Boqirg'oniy**

47. Turkiyalik Yunus Emroning «llochiylar» deb atal-gan she'rlarining maydonga kelishida kimning ta'siri kuchli bo'lgan? J: Ahmad Yassaviyning

48. «Devoni hikmat»ning qo'lyozma nusxalari qaysi asrga tegishli? J: XV asrga

49. «Dunyo mening deganlar, jahon molin olganlar, karkas qushdek bo'lubon ul haromga botmishlar» misralarining muallifi kim? J: Ahmad Yassavly

50. «Ishq bozori ulug' bozor, savdo – harom, Oshiqlarga sendan o'zga g'avg'o – harom, Ishq yo'lig'a kiganlargacha dunyo – harom, har ne qilsang, oshiq qilg'il, parvardigor» misralarining muallifi kim? J: Ahmad Yassavly

51. «Yer ostig'a qochib kirdim nodonlardin, likim ochib, duo tilab mardonlardin, G'arib jonim yuz tasadduq donolar-din, Dona topmay, yer ostiga kirdim mano» misralarining muallifi kim? J: Ahmad Yassavly

52. «Nafsim meni yo'ldin urib xor ayladi, Termulturub xaloyiqqa zor ayladi» misralarining muallifi kim?

J: Ahmad Yassaviy

53. «Boshim tufroq, o'zim tufroq, jismim tufroq, Haq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq» misralarining muallifi kim? J: Ahmad Yassaviy

54. «G'ariblikda g'arib bo'lgan g'ariblar, G'ariblar holini bligan g'ariblar» misralarining muallifi kim?

J: Ahmad Yassaviy

55. Ahmad Yassaviy she'riyatidagi qaysi timsollar xalq og'zaki ijod an'analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan? J: Yo'l, rabot, karvon, o'q

56. Amir Temur Turkistonda Ahmad Yassaviyning

eski qabri o'rniда yangidan qachon muhtasham maqbara qurdirgan? J: **1395 – 1397-yillarda**

57. Yassaviy hikmallarida qaysi taxalluslarni qo'llagan?

J: **Qul Xoja Ahmad, Xoja Ahmad Yassaviy, Ahmad ibn Ibrohim, Sulton Xoja Ahmad Yassavly, Yassavly miskin Ahmad, Miskin Yassaviy, Xoja Ahmad, Ahmad, Ahmadly, Qul Ahmad, Miskin Ahmad**

58. Qaysi shoir tasavvufdagи to't asosiy bosqich – shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat mohiyatini she'riy misralariga singdirgan? J: **Ahmad Yassaviy**

59. Qaysi shoir tasavvufda komillikka erishib borishini yoshlari silsilasida aks ettirgan? J: **Ahmad Yassaviy**

60. «*Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay,*

*Din uyini g'orat qilib ado qilg'ay,*

*O'lar vaqtda iymoningdan judo qilg'ay,*

*Ogil ershing nafsi baddin bo'lg'in bezor»*

61. «*Dunyo mening degonlar, jahon molin olg'onlar  
Karkas qushdek bo'lubon ul haromg'a botmishlar.*

*Mullo, mufti bo'lg'onlar, yolg'on da'vo qilg'onlar,*

*Oqni qaro qilg'onlar ul tomug'ga kirmishlar.*

*Totlig'-totlig' yegonlar, turtlik-turtlik kiygonlar,*

*Oltun taxtda turg'onlar tufroq aro yotmishlar»*

62. «*Nodon birta o'tkon umring nori saqr,*

*Nodon borsa, do'zax andin qilg'oy hazar.*

*Nodon birla do'zax sari qilmang safar,*

*Nodon ichra xazon yanglig' so'ldim mano»*

63. Mumtoz shoirlarimizdan kimning devoni «Faqrnomma» deb atalgan so'zboshi bilan boshlanadi?

J: **Ahmad Yassaviy**

64. «O'n ikkida bu sirlami ko'rdim mano», – deya din, dunyo va tasavvuf sirlarini yilma-yil o'rganib borganini aytgan avliyo-shoirmi belgilang.

J: **Ahmad Yassaviy**

65. Nodonlardan hatto do'zax ham hazar qiladi. Yer ostig'a qochib kirdim nodonlardin deb kuyingan shoir nomini belgilang. J: **Ahmad Yassaviy**

66. Shakl jihatdan xalq qo'shiqlariga yaqin she'rlar yaratgan ijodkor... J: **Ahmad Yassaviy**

67. Ahmad Yassaviy jiddiy tanqid qilgan axloqiy-ma'naviy xususiyatlar qaysilar? J: **Jaholat, nodonlik**

68. Ahmad Yassaviy «Hikmat»larining yana bir nomi qaysi javobda berilgan? J: **«Daftari soni»**

69. O'z she'rlarida «Nafs – eng katta dushman» degan g'oyani ilgari surgan ijodkorlarning nomlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

J: **Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassavly**

70. Nafsni yengish g'oyasi ilgari surilgan asarni toping.

J: **«Devoni hikmat»**

71. «Ayo nodon, ma'no bo'l deb aydi, bildim, Ondin so'ngra cho'llar kezib Haqni sa'rdim. Ro'zi qildi Azozilni tutib mindim, Langar to'kib, belin bosib yanchdim mano». Ahmad Yassaviy qo'llagan Azozil talmehi nimaning ramziy obrazini anglatadi? J: **Nafs**

72. Hayotning barcha bosqichlari «shariat», «tariqat», «ma'rifat» va «haqlqat»dan iborat degan tasavvufona g'oya, asosan, klimning asarlarida o'z ifodasini topgan?

J: **Ahmad Yassavly**

## NOSIRIDDIN RABG'UZIY

1. Qaysi ijodkor o'zi haqida «...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyal yobonin kezgan, oz ozuqlug', ko'p yozuqlug'», degan so'zlarni qayd etgan? J: **Rabg'uziy**

2. «...yigitlar arig'i (poki), ulug'lar otlig', qutlug' zotlig', ezgu xulqlig', istom yoriqlig', mo'g'ul sanilig', musulmon din-lig', odamiyilar ishonchi, mo'mintar quvonchi, himmatli adiz (yuksak), ag'li tengiz», deb ta'riflangan hukmdor qaysi?

J: **Nosiriddin To'qbo'g'a**

3. «Arslon mengizlik surati», «Ko'rklig' sifatlig' surati», «Tuz so'zlayur, so'zni uqa», deb ta'riflangan hukmdor qaysi? J: **Nosiriddin To'qbo'g'a**

4. Turkiy narsning eng qadimgi namunasi hisoblangan asar qaysi?

J: «**Qisasli Rabg'uziy**», «**Qisasul anbiyoyl turkiy**»

5. «Qisasli Rabg'uziy» qachon yaratilgan?

J: **1310-yilda**

6. «Qisasli Rabg'uziy» kimning topshirig'i bilan yaratilgan? J: **Nosiriddin To'qbo'g'anining**

7. Qissalar qanday tuzilishga ega?

J: **Qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so'ng me'yoriy madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi, ba'zi qissalar ichida mustaqil hikoya, rivoyat va naqlar bor**

8. «Qisasli Rabg'uziy»da qaysi payg'ambarning qo'lida temir mumdek erir edi? J: **Dovud**

9. Olib Dovudning huzuriga bir farishtani kimning qiyofasida jo'natdi va u Dovudga qanday pand berdi?

J: Kampir suratida jo'natdi. Dovud undan oddiy xalq libosida bo'llib, «Podshohingiz qanday shoh?» deb so'raganida u: «Kishilar molini yeydi», deb javob berdi

10. Qaysi hikoyatdan halollikka, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash g'oysi kelib chiqadi? J: Dovud hikoyatidan

11. O'zbek nasrida ilk bor dialoglardan qaysi ijodkor foydalangan? J: Rabg'uzly

12. «Qisasi Rabg'uziy»da xalq og'zaki ijodidan ta'sirlanish nimalarda ko'rindi?

J: Suhbatning dialog asosida ollb borilishi, soddilik, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlari ning ustuvorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo'ndaligi

13. «Luqmonga xojasi bir kuni qo'yning eng yaxshi yerdan pishirib kelishni buyurdi. Luqmon qo'yning till va yuragini pishirib keldi. Xoja so'radi: Bulami nima uchun keltirding. Lug'mon javob berdi: Til va yurakdan yaxshiroq narsa yo'q. Yovuzlik ham til va yurakdandir, dedi». Ushbu ibratli hikoya qaysi asarda keltirilgan? J: «Qisasi Rabg'uziy»

14. «Qisasi Rabg'uziy»da uzum urug'ini kim o'g'irlagan? J: Shayton

15. Sharobning paydo bo'lismida iblisning tok daraxtini uch xil narsanining qoni bilan sug'orilgani aytildi. Ular qaysilar? J: Tulki, yo'lbars, to'ng'iz

16. Sirka va shinnining paydo bo'lishi qaysi payg'ambar nomi bilan bog'liq holda ko'rsatilgan? J: Nuh

17. Nuh alayhissalom tok daraxtini necha marta sug'oradi? J: ikki marta

18. Nuh alayhissalom tokni nima bilan sug'organida shinni paydo bo'lgan? J: **Behlshti zanjabil bilan**
19. Nuh alayhissalom tokni nima bilan sug'organida sirkaliga paydo bo'lgan? J: **Salsabil bilan**
20. Chog'ir (ichkilik)ning paydo bo'lishi kimning nomi bilan bog'liq? J: **Shaytonning**
21. Rabg'uziy shaytonni «shaytoni mal'un» deb ta'riflaydi. «Mal'un» so'zining ma'nosi nima? J: **Haydalgan, la'natlangan**
22. «Qisasi Rabg'uziy»dagi qaysi hikoyatda inson xayolotining imkonlari madh etiladi? J: **Namrud hikoyati**
23. Namrud hikoyatida Namrud ko'kka nimma yordamida chiqdi? J: **4 ta karkas yordamida**
24. Namrud ko'kka uchish uchun qanday sandiq qurdirdi? J: **Ikki eshigi bor, sakkiz poyalik. To'rt moyasi yuqori, to'rt moyasi quyi edi**
25. Namrud necha kun qushlar yordamida osmonga chiqdi? J: **Ikki kecha-kunduz yurib**
26. Sulaymon payg'ambar bilan so'zlashgan chumolining oti nima? J: **Manzara**
27. Sulaymon payg'ambar bilan so'zlashgan chumoli Sulaymonidan bir necha masala so'raydi. U Sulaymonning qaysi gapidan keyin uni baxil ekansan, deb qoralaydi? J: **Bir mulk tiladilmak, andog' mulk hech kimga berilmish yo'q**
28. Sulaymon payg'ambar bilan so'zlashgan chumoli Sulaymonga qaysi gapidan so'ng olam yeldekkitar, aning boricha ishi behudadir. Yelning vujudi bo'lmas, hamma ishlari foniydir deydi? J: **Shamolni musaxxar qilib berdi**

29. Chumoli so'zi asarda qanday berilgan? J: **Mo'rcha**

30. Chumoli Sulaymonga: «Ani minguncha ma'rifat makaziyni minganiningizda erdi, ko'z yumib ochg'uncha arshi a'loga borur erdingiz», – deganda nimani nazarda tutadi?

J: **Sulaymonning yelni minib dunyo aylanishini**

31. Sulaymon bilan suhbatlashgan chumoli nima uchun boshqa chumolilarni qochishga da'vat qilsa ham, o'zi qochmaydi?

J: *Chunki u chumolilarning podshosi edi. Ulug'lar, ya'ni podsholar o'z raiyatiga mehribon bo'lishlari lozim. Baloga ulug'lar o'zlarini ro'baro' qilib, kichiklarni xalos qilsa yaxshidir*

32. G'azal maqta'sida ilk bor taxallusni qo'llagan shoir?

J: **Rabg'uziy**

33. Turkiy tilda ilk bor g'azal yozgan shoir?

J: **Rabg'uziy**

34. «Kun hamalg'a kirdi ersa, keldi olam navro'zi, Kechdi bahman zamharir qish qolmadni qori, buzi», deb boshlanuvchi g'azalning vazni?

J: **Ramali musammani mahzuf**

35. «Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qua'u, q'oz, qil, qarlug'och, Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi». Tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini toping.

J: *Qug'u – oqqush, qil – qilquyruq, qarlug'och – qaldirg'och, os – oq suvsar, tiyin – olmaxon, kish – qunduzning bir turi*

36. «Qisasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlarda xalq og'zaki ijodiga mansub qaysi janrga xos tasvir usullari ko'zga tashlanadi? J: **Latifa**

37. Qaysi qissalarda xalq og'zaki ijodining ta'siri yaqqol ko'rindi? J: **Luqmoni hakim qissasi, Dovud qissasi, Sulaymon qissasi**

38. Qaysi belgilar xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan?

J: **Tasvirdagi mubolag'a, xayolotga keng o'rln berilgani, sehrli hodisalar tavsifi, bayondagi ertakona ohang**

39. Qissalar tarkibidagi hikoyalarni qanday vazifani bajaradi? J: **Muayyan voqe'a-hodisalar yoki alohida qahramonlarga xos fazilatlarni izohlash**

40. «Qisasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlarda qaysi usul yetakchilik qiladi? J: **Ta'rif-tavsif usulli**

41. «Qisasi Rabg'uziy»dagi qaysi hikoyatda dialog usuli yetakchilik qiladi? J: **Uzum hikoyati, Ilon va qarlug'och, Sulaymon qarinchqa bilan so'zlashgani**

42. Daraxt ma'nosini turkiy tilidagi qaysi so'z ifodalagan? J: **Yig'och, og'och**

43. «Qisasi Rabg'uziy»da nechta bob-qissa mavjud?

J: **72 ta**

44. «Qisayi Yusuf» qissasi necha sahifadan iborat?

J: **Salkam yuz sahifadan**

45. «Qisasi Rabg'uziy»da Nuhning kemasida nimalar yo'q edi? J: **3 ta narsa yo'q edi: birli mushuk, ikkinchisi sichqon, uchinchisi qo'ng'iz**

46. «Qisasi Rabg'uziy»da mushuk qanday paydo bo'ldi? J: **Nuh yo'llbarsning boshini silagan edi – burnidan 2 mushuk tushib, sichqonni tutdi**

47. Nuhning teshilgan kemasini nima yopdi?

J: Ilon kulcha bo'lib yetib kemaning teshligini yopdi

48. Ilonga Nuh qanday va'da bergen edi?

J: To'fondan so'ng yer yuzida nimaning go'shti shirin bo'lsa, shuni berishga va'da berdi

49. «Qisasi Rabg'uziy»da qaysi hasharot yer yuzida nimaning eti shirin ekanligini aniqlash uchun yuborildi? J: Ari

50. Nuh qissasida insonlarni qirilib ketishdan qaysi qush saqlab qoldi? J: Qaldirg'och

51. «Qisasi Rabg'uziy»dagi hikoyatga ko'ra, Sulaymon alayhissalomni o'z donoligi bilan lol qoldirgan kim?

J: Qarinchqa

52. «Namrud hikoyati»da muallif munosabatini namoyish etadigan qaysi so'zlarni ajratish mumkin?

J: Namrudi lain

53. «Sulaymon Qarinchqa bilan so'zlashgani» hikoyatida qahramonlarning o'zaro munosabati qanday oydinlashgan? J: Dialoglarda

54. «Qisasi Rabg'uziy»dagi «Namrud hikoyati»da qanday illat qoralangan? J: E'tiqodsizlik, manmanlik

55. «Qisasi Rabg'uziy»ga ko'ra, «lochi, man o'zimni dono bilib yurur erdim, Maning bilganim bu mo'rchaning oldida hech nimarsa ekan», – deb tavba qilgan zot nomini aniqlang. J: Sulaymon

## PAHLAVON MAHMUD (1247 – 1326)

1. Qaysi shoirning bir qancha ruboilari uning qabriga o'matilgan maqbara devorlari, peshtoqlariga badiiy naqsh sifatida tushirilgan? J: Pahlavon Mahmudning

2. Pahlavon Mahmudning qo'lyozmalar orqali yetib kelgan asarlari nechanchi asrda ko'chirilgan? J: XIX asrda

3. Adib haqidagi ma'lumotlar qaysi asarlarda mavjud? J: Shamsiddin Somiyoning «Qomus ul-a'lam», Lutf Allbek Ozarning «Otashkadayı Ozarly», Kamoliddin Husayn Fanoiyning «Majolis ush-ushshoq» asarlarida va «G'iyos ul-lug'at» lug'atida

4. Adibning «Pahlavon» unvoni bilan mashhur bo'lishi sababi nimada? J: Mahmudning jismoniy jihatdan baquvvatligi, sharqona kurashning ustasi bo'lgani

5. Mahmudning qaysi taxalluslari pahlavonlik bilan bog'liq? J: Puryoyvaliy yoki Puryorvaliy

6. «G'iyos ul-lug'at»da adibning taxallusi haqida qanday ma'lumot keltirilgan? J: «Puryoyvally (yoki Puryoyi Vali) xorazmlik Pahlavon Mahmudning laqabidir. Bunda kurash ilmidan mahorat qozongan keksa pahlavon, zo'rخона pahlavonlarining boshlig'i nazarda tutiladi. Zero, qaysi bir kurashchi zo'rخонага kirmoqchi bo'lsa, dastlab Puryoyvaliyning qadamiga (oyog'iga) bosh qo'yadi. Shu jihatdan puryoyvaliy so'zi majozan aziz va mukarram ma'nosini ham bildiradi»

7. Pahlavon Mahmud qaysi Hind hukmdorini o'limdan qutqarib qoladi va evaziga shohdan nima so'raydi?

J: Hindiston shohi Roy Ropoy Cho'nani. Shoh unga istagan narsangni beraman deb va'da qilganida undan Hindistonda asir tushgan xorazmlik bandilarni ozod etishni so'raydi va bunga muvaffaq bo'ladi

8. Mahmudning pahlavonligi bilan bog'liq bo'lgan yana bir taxallusi Qitoliydir. Bu so'zning ma'nosini toping.

J: Qitoliy – bir-biri bilan jang qilmoq, kurashmoq degani

9. Pahlavon Mahmud qaysi kasb bilan shug'ullangan?

J: Po'stlndo'zlik, telpakdo'zlik bilan

10. Masnavisi. «Kanz ul-haqoylq»

11. Shoir qaysi tilda ijod qilgan? J: Fors-tojik tillida

12. Umar Hayyomdan keyin ijodini faqat ruboil yil bilan boyitgan shoir kim? J: Pahlavon Mahmud

13. Ruboilyarini kimlar o'zbek tiliga tarjima qilgan?

J: Ulfat (Imomiddin Qosimov), Boqir (Omonulla Vallxonov), Muinzoda, Shoislom Shomuhammedov, To'xtasin Jalolov, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilov

14. Pahlavon Mahmud Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan qaysi tariqatning davomchisi hisoblanadi?

J: Javonmardlik

15. Javonmardlik tariqatining shiori qanday bo'lgan?

J: Mardlik va Jasurlikni, muhtojlarga beminnat saxovat ko'rsatish, o'zl uchun esa hech narsa tama qilmaslik, botinda ilohiy ma'rifatni kashf etish, riyozat bilan Irfonly kamolot sari borish

16. Ruboilyaridan namunalari:

Olam fili qaytarolmas jur'atimiz.

Charxdan zo'rraq qudratimiz-shavkatimiz.

Gar chumoli kirib qolsa safimizga,

Sher etajak uni darhol davlatimiz.

Ko'nglim oppaq, na kek va na kiynam bor,

Dushmanim ko'p, va lekin men hammaga yor.

Mevali daraxtman, har bir o'tkinchi

*Tosh otib o'tsa ham, menga bo'imas or.  
Uch yuz Ko'hi Qofni kelida luymoq.  
Dil qanidan bermoq falakka bo'yoq.  
Yoyinki bir asr zindonda yotmoq  
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.  
Dedim: ayt, umming ma'nosi nima?  
Dedi: chaqmoq, yo sham, yoki parvona.  
Dedim: bu dunyoga bino qo'ygan kim?  
Dedi: yo go'l, yo mast, yoki devona.  
Borma aytmaganning dasturxoniga,  
Qo'l uzotsang, qadring ketar, noniga.  
Qo'shma o'zgalaming barra kabobin  
Qotgan non-u sovuq suvning soniga.  
Oqil aqli hirsga giriftor bo'imas,  
Hasad qilgan bilan tillo xor bo'imas.  
Nomard – it kabitidir, mard – buyuk daryo,  
Daryo it damidan hech murdor bo'imas.  
Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tutgil,  
Yo'lda quduq bordur, ehtiyoiting qil.  
Do'st uyida mahram bo'lgan vaqtingda  
Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.*

### SAYFI SAROYI (1321 – 1396)

1. Qaysi shoirning adabiy taxallusi Qilich ma'nosini bildiradi? J: **Sayfi Saroyi**
2. Qamishli yurtda tug'ilib, keyinchalik Saroy shahriga kelgan va shu joy nomini o'ziga taxallus qilib olgan shoirni toping. J: **Sayfi Saroyi**

3. Oltin O'rdaning poytaxti sanalgan Saroy shahri haqidagi ushbu fikrlar muallifi kim: «Saroy tutgan o'rni va xalqining juda ko'p bo'llishi bilan eng katta shaharlarning birisi edi. U fan markaziga aylandi. Oz vaqt ichida bu yerda ko'plab atoqli, mashhur kishilar to'plandi»?

J: Muhammad Ibn Arabshoh

4. Sayfi Saroyi umrining oxirlarida qayerda yashagan?

J: Misr – Shomga ketib, o'sha yerda yashagan

5. «O'sib tufrog'im uzra nayzalar, men evdin aynildim,  
Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtga evnildim.

Nechun menqa falak jabr ayladi, qanday gunohim bar?

*Joho, ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim*, –  
deya yozgan.

6. Sayfi Saroyi «Gulistonlari bit-turkiy» asarini qaysi hukm-dorga bag'ishlagan? J: Misr amiri Batxasbekka

7. «Gulistonlari bit-turkiy» asari qachon yaratilgan?

J: 1391-yil

8. «Suhayl va Guldursun» dostoni qachon yaratilgan?

J: 796 (1394)-yilda

9. Sayfi Saroyi qaysi asarining muqaddimasida shoirlarni uch guruhga ajratadi?

J: «Gullstonlari bit-turkiy» asarida

10. Qaysi ijodkor shoirlarni bulbul, zog', to'ti kabi uch guruhga bo'ladi? J: Sayfi Saroyi

11. «Vasf ul-shuar» masnaviyisida shoir qaysi qarashlarini bayon etadi?

J: O'zining adabiy-estetik qarashlarini

12. «Suhayl va Guldursun» dostonining hajmi?

J: 82 bayt, 164 misradan iborat

13. «Suhayl va Guldursun» dostoni zamirdida qaysi tarixiy voqealari yotadi?

J: Amir Temurning Xorazmga yurishi

14. Ushbu bayt qaysi dostonidan olingan? «Falak aylanmasi-la davr etgay, Adolat urug'indin baxt bitgay».

J: «Suhayl va Guldursun» dostoni

15. Qaysi doston qahramoni «sevinchi qora kiygan, ko'zi namgin, ko'ngli so'g'in», deb ta'riflanadi?

J: «Suhayl va Guldursun» dostoni

16. «Suhayl va Guldursun» dostoni qaysi voqealar bilan boshlanadi? J: **Suhaylning zindonga tushishli bilan**

17. Ushbu satrni muallifini toping. «Xotin sodiq, ani sevgil, aziz er, Har og'ir ishda har doim seni der. Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko'ngil ber, Uning so'z bahridin gavhardarni ten». J: Sayfi Saroyl **«Suhayl va Guldursun» dostoni**

18. «Suhayl va Guldursun» dostoni qanday boshlanadi? J: **«Emas afsona, chln ushbu bitilmish, Bu chln afsonadek ishqda yetilmish»**

19. Suhayl Guldursunni qayerda ko'rib sevib qoladi?

J: Tushida

20. Guldursun Suhaylni qayerda ko'rib yoqtirib qoladi?

J: **Suhaylni zindonga tashlayotganlarida**

21. Zindonda yotgan Suhaylga kim yordam beradi?

J: **Guldursun soqchilarni ichirib, mast qilib qa'yib, Suhaylning zindondan chiqishiga yordam beradi**

22. Suhayl va Guldursun qayerda nima sababdan halok bo'lishadi?

J: **Ular qochib sahroga borib qolishadi. U yerda tashnalik va ochlikdan halok bo'lishadi**

23. Sayfi Saroyining adabiy tanqidchilikning o'ziga xos bir ko'rinishi sitatida qabul qilinadigan she'ri qaysi?

J: «**Vasf ul-shuaros**»

24. «*Tuprog'im uzra nayzalar o'sdi*» degan jumla zamirida nima nazarda tutilgan?

J: **Chingizxon istilosini oqibatlari**

25. «*Jon bir kun eshikdan chiqib ketar: dag'i oltunini, kumushni safarda haromiy olur, yo shaharda o'g'ni, yo sohibi yeb tugalur*». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: «**Gullstoni bilt-turkiy**»

26. Qaysi asar asosida Temurning Xorazmga (Ur-ganchga) yurushli voqealari yotadi?

J: «**Suhayl va Guldursun**»

27. «*Bo'lub mutrib gulistonlarda bulbul,*

*Qilur ming turli nag'ma birla g'ulg'ul*» misralari qaysi asardan olingan? J: «**Suhayl va Guldursun**»

28. «*Gunash dunyo yuzindin chohg'a botti, Uzulgan gul tekin tuproqda yotti*» (*Quyosh dunyo yuzidan chohga boldi, uzilgan gul kabi tuproqda yotdi*) tashbehi kimga nisbatan qo'llangan? J: **Suhaylga**

29. «*Sevar bulbul gulin, gul bulbulin ham, Nechun gul aylasin bulbul ko'zin nam?*» misralari kimning ruhiy holatini ifodalaydi? J: **Guldursunning**

30. «*Yodi yuz to'qson olti, navro'z oyi, Xatm etti buni Sayfi Saroyi*» – navro'z oyi, bir yuz to'qson oltinchl yill yozib tugallangan asar qaysi? J: «**Suhayl va Guldursun**»

**«Gulistonni bilt-turkiy» asaridan parchalar:**

– Bir sultonning uch o'g'il bor edi. Ikkilasi uzun bo'yli, sohibjamol, biri qisqa bo'yli edi. Bir kuni sulton qisqa bo'yli

o'g'liga haqorat ko'zi bilan boqdi. Ziyarak o'g'il farosat bilan buni fahm etdi va dedi: «Ey ota, uzun bo'yli ahmoqdan qisqa bo'yli oqil yaxshiroqdir»;

— No'shiravoni odil bir kuni ovda kiyik tutdi va uni pishirmoqchi bo'lganlarida tuz topa olmadilar. Podsho bir qulni kentga yuborib, pulini albatta berishni tayinladi. Shunda qul arzimagan tuz uchun pul berish shartmi, deb so'radi. No'shiravon esa «Zulmning asosi avval oz edi. Har kim ozozdan qo'shdi, ko'payib ketdi», dedi.

— Bir kurashchi pahlavon kurashning 360 turini bilar edi. Bir shogirdiga ixlos bilan 359 turini o'rgatdi. Shogird o'z davrida hammadan ustunlikka erishdi. Bundan havolaniib, shoh huzuriga keldi va ustozidan ham yaxshi kurash tushishini aytib maqtandi. Bu so'z sultonga xush kelmadni va ustozini chaqirib, ularni kurash tushishga taklif etdi. Shogird ustoziga sherdai tashlandi. Ustoz ko'rdiki, unga kuch-quvvatda bas kela olmaydi. Shunda asrab yurgan oxirgi usulini qo'lladi va shogirdini mag'lub etdi. Shogird shohga ustozining undan bir usulni berkitib kelganidan shikoyat qildi. Ustoz esa bu usulni bugungi kun uchun asrab qo'ygan edim, dedi.

— Ikki xurosonlik faqir kishi birga sayohat qilar edi. Biri kunduzi ro'za tutar, ikkinchisi bir kunda uch mahal ovqat yer edi. Bir kun bularni jesus deb tutdilar va bir uyg'a qamab qo'ydilar. Bir haftadan so'ng ularning begunoh ekanliklari ma'lum bo'ldi va ularni ozod qilmоqchi bo'lib qaraganlari-da sabrli kishi tirik, ko'p ovqat yegan semiz kishi ochlikka chiddolmay vafot etgan edi.

**She'rлардан намуналар:**

*Ul oykim, jahонning janидур,*

*Bu zamona xublarining xonidur.  
Taolloh, zehi surat mahbubi ravhon  
Kim, oning husni shavqindan ko'rigullar bo'ldi nuroni.  
Bu falak nechun meni doim qara qinda tular,  
Bu otim Sayf o'ldug' uchunmi qara qinda tutar.  
Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,  
Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur.  
Qamar yuzungdin bo'lur munavvar,  
Shakar so'zungdin kelur mukarrar.  
Jahon shoirlari, ey gulshani bog',  
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.  
Kimi ta'ti bikin chaynar shakarni,  
Kimi lafzi bilan o'ttar durarni.  
Kimi o'zganing ash'orin menim der,  
Kimi halvo kabi shalg'am cho'bin yer*

### XORAZMIY

1. «Muhabbatnama»ning uyg'ur yozuvidagi nusxasi kim tomonidan qachon ko'chirilgan?

**J: 1432-yilda Yazdda Mir Jaloliddin taklifi bilan Boqi Mansur xattot tomonidan**

2. «Muhabbatnama»ning arab yozuvidagi nusxasi qachon ko'chirilgan? **J: 1508 – 1509-yillarda ko'chirilgan**

3. «Muhabbatnama»da qanday janrlar uchraydi?

**J: Noma, g'azal, soqiynoma, masnaviy, munojot, qit'a, fard**

4. «Muhabbatnama»dagi nechanchi nomalar fors tilida yozilgan? **J: 4-, 8-nomalar**

5. «Muhabbatnoma»da Xorazmiyning qaysi o'lkalarda bo'lganligi ta'kidlanadi? J: Shom va Rum o'lkalarida
6. «Muhabbatnoma» qayerda yaratilgan?  
J: Sirdaryo atrofida
7. Xorazmiy qachon Oltin O'rda xoni Jonibekning Sirdaryo muzofotidagi amaldorlaridan biri Muhammad Xo'jabek bilan tanishadi? J: 1353-yilda
8. Xorazmiy «Muhabbatnoma»da Muhammad Xo'jabekni qanday ta'rif-tavsiflar bilan maqtaydi?
- J: «Olam podshohi», «gulchehralar molik riqobi», «shohi qaboyil», «ohu nazarlar shahriyor», «davlat humoyi»
9. «Muhabbatnoma»da Muhammad Xo'jabekning qaysi urug'dan ekanligi aytildi? J: Qo'ng'irot urug'idan
10. «Avval ko'tishkanini aytur», «Bayoni voqe'in aytur» kabi boblar qaysi asarda mavjud? J: Muhabbatnomada
11. Xorazmiy qaysi janrning o'zbek adabiyotida shakllanishi va rivojiga ta'sir ko'rsatdi? J: Noma janrining
12. «Qiloyin ikki bobin porsi ham, Kim atlas to'n yarashur bo'lsa mu'lum» misralarida Xorazmiy nimani nazarda tutgan? J: Ikki bobini forsiy tilda biltishni. Ikki tilda asar yozgani uchun ham Xorazmly zullisonayn shoir hisoblanadi
13. «Yuzungda ko'rdum, ey oy, bayram oyin, Munung shukronasi qurban bo'loyin», deb boshlanuvchi misralar qaysi janrda? J: G'azal
14. «Muhabbatnoma»ning nechanchi nomasi tong nasiqiga murojaat bilan boshlanadi? J: 2-noma
15. «Muhabbatnoma»da nomalar so'ngidagi masna-

viyiarning barchasida soqiya murojaat qilinadi. Nechanchi nomada Xorazmiy soqiya emas, oy yuzli dilbarga murojaat qiladi? J: 5-nomada

16. Qaysi shoir o'z asarida mol uchun madh-u sano aytmasligini ta'kidlaydi? J: «**Muhabbatnomada Xorazmiy**

17. Xorazmiy qaysi janrlarning o'zbek adabiyotidagi dastlabki namunalarini yaratdi?

J: G'azal, qit'a va fardning

18. Xorazmiy «Aningkim, ol enginda meng yaratti, Bo'yı birla sochini teng yaratti», deganda nimani nazarda tutgan? J: qizli yuz va bo'y – kunduz, meng va soch – kecha, kun bilan tunning tengligi

19. «Aningkim, ol enginda meng yaratti, Bo'yı birla sochini teng yaratti» misralaridagi «meng» so'zining ma'nosini toping. J: Kattaroq xol

20. Xorazmiy «Muhabbatnomona»ni dastlab o'n noma qilmoqchi bo'ladi, lekin yana bir noma qo'shamdi. Bu haqda asarning qaysi boblarida lo'xtaladi? J: **Masnaviy qismida**

21. Navoiyning qaysi asarida Xorazmiy «Muhabbatnomona»sidan bayt keltirilgan?

J: «**Muhokamat ul-lug'atayn»da**

22. Qaysi hukmdor Oltin O'rda xoni Jonibek bilan qiyoslanadi: «Uza jonsiz tan erdi mulk sensiz, Shahanshoh Jonibekxonga etangiz»? J: **Muhammad Xo'jabek**

23. «Muhabbat nardida ko'plarni yutgan, shakardek til bilan olamni tutgan» shoir kim? J: **Xorazmiy**

24. «Zihi qodirki, ul bir qatra suvni

**Muhabbat gavharingga qon yarotti** misralari qaysi asardan olingan? J: «**Muhabbatnomadan**

25. Xorazmiy Muhammad Xo'jabekni ta'riflab, uni qaysi payg'ambarlarga o'xshatadi? J: Sulaymon kabi shoh, Iso Masih kabi nafaslik, Yusuf kabi ko'rlik

26. «Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda,  
Xush ichgil rohni rayhon ichinda.

Chaman farroshi, ya'ni tong nasimi,

Gulafshanlik qilur bo'ston ichinda» misralari qaysi asar dan olingen va uning janrini belgilang.

J: «Muhabbatnomasidan olingen, g'azal

27. «Muhabbatnomasining 1-nomasi qaysi misralar bilan boshlanadi?

J: Ayo ko'rk Ichra olam podshohi,  
Jahon tutti sening husnung slpohi

28. «Muhabbatnomasining qaysi nomasi tarkibida Muhammad Xo'jabek tilidan aytildigan g'azal mavjud?

J: 3-nomasida

29. «Muhabbatnomasining qaysi nomasida Xorazmiy ta'riflashni yorming yuzidan boshlab, keyin qaddini, jamolini, zulfini, ko'zini, so'zini madh etadi? J: 3-nomasida

30. Nechanchi noma so'ngidagi masnaviyda Xorazmiy gulchehra, ya'ni gulyuzli soqiya murojaat etib, o'zini hayrat maqomiga yetkazilishini so'raydi? J: 3-nomada

31. Nechanchi nomada «O'shul kunkim, seni xoliq yaratti, seni dilbar, meni oshiq yarafti» misralari mavjud?

J: 5-nomada

32. Qaysi nomada «O'lumdur bizga jononsiz tirilmak, Mahol enur tana jonsiz tirilmak» misralari mavjud?

J: 10-nomada

33. «Icholing bodani gullar so'liyor, Tanimiz oqlbat

*tuproq bo'liyon» misralari nechanchi nomadan olingan va uning janri? J: 10-nomadan, masnaviy*

*34. «Ilohi, otqu qilg'il jonimizni, Xalaldin saqlagil imanimizni» misralari qaysi asardan olingan va uning janri?*

**J: «Muhabbatnoma»dan olingan, munojot**

*35. «Tama dominda qolur qush emasman,*

*Talim ayvon uza uchqon humomen.*

*Qilichtek til bila tuttum jahonni,*

*Qanoat mulki ichra podshomen.*

*Xarabol ichra masjidda yerim bor*

*Kim, ush ham rindmen, ham porsomen» misralari qaysi asardan olingan va uning janri?*

**J: «Muhabbatnoma»dan olingan, qit'a**

*36. «Niyozim bu turar sendin, nigor,*

*Unutma bandani, bahri xudaro» misralari qaysi asardan olingan va uning janri?*

**J: «Muhabbatnoma»dan olingan, fard**

*37. «Muhabbatnoma»da qaysi janrdagi she'rlar bir xil misralar bilan tugallangan? J: Masnaviy*

*38. «Qaro meng ol yanoging'a yaroshur,*

*Boshim doyim adoqing'a yaroshur» misralarida qaysi badiiy san'atdan foydalanilgan? J: Tazod, sifatlash*

*39. «Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil,*

*Vafo qilg'on kishilarg'a vafo qih» misralarida qaysi badiiy san'atdan foydalanilgan?*

**J: Tajnis, tashbeh, litota**

*40. «Saburdin yaxshi yo'qtur, pesha qilsam,*

*Bu yo'lida sabr yo'q, andesha qilsam» misralari bilan lugaydigan janr qaysi? J: Masnaviy*

41. Qaysi shoir kecha va kunduzni bir chiroyli qiz yoki kelinchak kabi tasvirjab, Allah uning qizil yuzida meng, ya'ni katta xol yaratdi, shuningdek, bo'yli bilan sochini teng yaradi deya turkiy adabiyotda badliy topilma qildi? J: **Xorazmiy**

42. *Tilarmenkim, bizing til birla paydo Kitobe aylasang bu qish qotimdo (bu qish mening yonimda yurib bizning tilda (turkiyda) kitob yozsang) deb iltimos qilgan ma'rifat-parvar kim va uning tashabbusi bilan qaysi asar yuzaga kelgan?* J: **Muhammad Xo'jabek, Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si**

43. Zullisonaynlik an'anasi asosida yaratilgan asarni belgilang. J: **Xorazmiy «Muhabbatnoma»**

44. *«Urur nargislaring novakni jonga, Kular chehrang chechaktek arg'uvonga».* Bayt muallifi kim, matndagi nargis so'zi bu o'rinda qaysi ma'noda kelgan?

J: **Xorazmiy, ko'z ma'nosida**

45. *«Muni kim ishq birla bir o'qugay, Haqiqat olamini munda bilg'ay. Ayitqon bu kitobni ham bitigay, Tilarmenkim, duoda yod qilg'ay».* Ushbu misralar qaysi muallif asarining xotimasida berilgan?

J: **Xorazmiy «Muhabbatnoma»**

46. Mavjud 946 misraning 634 misrasi o'zbek, 312 misrasi fors-tojik tilida yaratilgan asarni belgilang.

J: **Xorazmiy «Muhabbatnoma»**

47. *«Qilichtek til bila tuttum jahonni,*

*Qanoat mulki ichra podshomen»* misralari muallifi kim?

J: **Xorazmiy**

48. O'zbek adabiyotida noma janriga asos solgan shoirning nomini ko'rsating. J: **Xorazmiy**

49. XIV asr o'zbek adabiyotida qit'a va fardning dastlabki namunalari kimning ijodida uchraydi?

J: **Xorazmiyning**

50. «*Bu daftarkim, bo'lubtur Misr qandi,*

*Yeti yuz elli to'rt ichra tugandi*» – yetti yuz elliq to'rlinchí hijriy yilda yozib tugallangan asar qaysi?

J: **«Muhabbatnoma»**

## XO'JANDIY

1. Xo'jandiydan bizgacha qaysi asari yetib kelgan?

J: **«Latofatnoma» asari**

2. «*Latofatnoma*» kimga bag'ishlangan?

J: **Mahmudxon sultonga.** Mahmudxon sulton kichik Muhammadning o'g'li bo'llib, To'g'ay Temurning avlodlaridan bo'lgan. To'g'ay Temur Xorazm xoni Jo'jining o'n uchinchí o'g'li edi

3. «*Latofatnoma*» Xorazmiyning «*Muhabbatnoma*»siiga javob-nazira shaklida yozilgan bo'lsa-da, qaysi jihatli bilan undan farqlanadi? J: **Boshdan oyoq masnaviy shaklida yozilganligi bllan**

4. Qaysi asar Sharq shohi – Quyosh olamga bayrog'ini tikkanda zangilar sipohi, ya'ni tun qorong'iliklari qo'rqib yuzini yashirdi, shoh xanjarini belidan chiqarganda esa Habash sultoni Rum elidan qochdi, deya tong otishi haqidagi tengsiz o'xshatishlar bilan boshlanadi? J: **«Latofatnoma»**

5. «*Muhabbat jomidin ichsang sharobe*, «*Muhabbatnoma*»ga aysang javobe» misralari qaysi asardan olingan?

J: **«Latofatnoma»dan**

6. «Latofatnoma» necha nomadan iborat?

J: O'n nomadan

7. «Arslon yuraklik», «ma'nolar majilisi ichra keraklik», «saxoval bobida Hotami Toy, shijoat mulkida Kovus-u Kay», deya ta'riflangan hukmdor? J: Mahmud tarxon

8. Xo'jandiy «Latofatnoma»da o'zini chumoliga, Mahmud sultonni esa kimga o'xshatadi? J: Sulaymonga

9. «Undagi so'z o'yinlari, ayniqsa, tajnislarning ka'p qo'llanishi, arabcha va forscha so'zlar, ko'proq o'zbekcha imkoniyatlarni izlagani asaming ta'sirchanligini juda oshirgan». Ushbu ta'rif qaysi asar haqida?

J: «Latofatnoma»

10. Qaysi ijodkor shahanshohni Sulaymonga, o'zini esa Sulaymon oldidagi mo'rcha – chumoliga o'xshatgan?

J: Xo'jandiy

## SAKKOKIY

1. Qaysi shoirning adabiy taxallusi *pichoqchi ma'nosini* bildiradi? J: Sakkokiy

2. Navoiy qaysi shoirni «Turk alfozi (so'zlan)ning bullag'o (balog'atga erishgan)laridan», deb baholaydi?

J: Sakkokiyni

3. Sakkokiy qaysi hukmdorlarga atab qasida yozgan?

J: Xalil Sultan, Arslon Xo'ja Tarxon, Xo'ja Muhammad Porsa, Mirza Ulug'bekka

4. Qaysi hukmdor Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarini ko'chirtirgan shaxs sifatida tarixda qolgan? J: Arslon Xo'ja Tarxon

5. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida qaysi shoir haqida «Samarqand ahli onga ko'p mu'taqiddurlar (e'tiqod qo'yganlar) va bag'oyat ta'rifin qilurlar», deb yozgan?

J: **Sakkokiy**

6. Sakkokiy devonidagi qaysi harf bilan tugovchi g'azallari yo'q? J: «**Alif**»dan «**nun**»gacha bo'lgan harflar va «**vov**» bilan tugallanuvchi g'azallar

7. Bizgacha Sakkokiyning nechta qasidasi yetib kelgan? J: **11 ta**

8. Bizgacha Sakkokiyning nechta g'azali yetib kelgan?

J: **40 tacha**

9. Sakkokiy devonidagi qaysi harf bilan tugovchi g'azallari yo'q?

J: «**Alif**»dan «**nun**»gacha bo'lgan harflar va «**vov**» bilan tugallanuvchi g'azallar

10. *Shaho, lutfingni topqam deb duochi banda Sakkokiy, Belin joni bilan bog'lab, bu xizmatg'a ravon keldi. Ushbu qasida kimga bag'ishlangan?* J: **Ulug'bekka**

11. Yoming tik qomatini oddiy tolga qiyoslagan shoir kim? J: **Sakkokiy**

11. Sakkokiy Ulug'bekka bag'ishlab nechta qasida yozgan? J: **4 ta**

12. «Jahondin ketti tashvishi», deb boshlanuvchi qasidada shoir kimni taxtga chiqishi bilan muborakbos etadi?

J: **Mirzo Ulug'bekni**

13. Sakkokiy kimning ovozasini «Sulaymoni zamon»ga, adolatini «No'shiravon»ga, mehribonligini «ato»ga qiyos etadi? J: **Mirzo Ulug'bekni**

14. Sakkokiy kimga bag'ishlangan qasidasida shoh-

ning taraf dorlariga to'kin yoz kelgan bo'lsa, dushmanlariga avji xazon-kuz keldi, deb yozadi? J: **Mirzo Ulug'bekka**

15. Ulug'bekka bag'ishlangan qasidada uning shaxsiyatidagi qaysi asosiy fazilatni bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilinadi? J: **Adolatparvarlikni**

### G'azallaridan parchalar:

*Kim ermas ul oy mubtalosi,  
Yolg'uz menga yo'q aning balosi.  
Kim ka'rsa aning yuzini aytur,  
Ne turfa erur bu turk balosi?  
Turkona ir irlag'uncha oning.  
Kuydurdi meni yalay-butosi.  
Ey gul, yuzingga hur-u pari bandayi joni,  
Toltek bo'yung ozodi erur sarvi ravoni.  
Oydur sening olingda bu kun bir habashiy qil,  
Tonsa, yuzida zohir o'lur dog' nishoni.  
Sendek jahonda ko'zlanı ayni balo qani?  
Mendek aning balosi bila mubtalo qani?  
Yuzumni oltin etti sening ishqing, ey sanam,  
Mundoq baqoni oltin eltar kimyo qani?*

### Qasidadan parchalar:

*Jahondin ketti tashvish-u mabodoyi amon keldi,  
Xaloyiq, aysh eting, bu kun sururi jovidon keldi.  
Salotin dunyoga ko'p keldi-yu kechti, seningtek bir,  
Falakning gar tili bo'lsa ayitsunkim, qachon keldi?  
Raiyyat qo'y erur, sulton anga cho'pan ya ba'ri,  
Bo'ni o'lg'a-yu, qo'y tingay, chu Musotek shubon keldi.*

*Qilich yashnatsang urushta, aning qay shu'lasin  
dushman,  
Ko'rub aytur qamug': «Hay, hay, qoching,  
barqi yomon keldi.*

### **ATOYI (XIV asr oxlri – XV asrning birinchil yarmi)**

1. Qaysi shoir g'azalida go'zal yor xokisor oshiqning yuziga oyog'ini bosgan ekan, oyog'i og'ribdi, «yuzing bunga bo'yradek dag'al bo'lmasa», deb nozlanganligi haqida so'z boradi? J: **Atoy**

2. Qaysi shoir bir g'azalida yorini sog'ingan oshiqning ko'zidan yosh emas daryo oqayotgani, u kipriklaridan sol yasab, mana shu daryoda suzayotgani manzarasini chizadi? J: **Atoyl**

3. Atoyining qaysi she'rida kipriklari supurgi (jorib), yuzini xokandoz qilishga tayyor oshiq holati aks etadi?

J: «**Begim**» radifli she'rida

4. Klm Atoyining Balxda yashagani to'g'risida ma'lumot bergan? J: **Navoiy**

5. Atoyidan bizgacha yetib kelgan g'azallar soni nechta? J: **260 ta**

6. Navoiy qaysi shoirni «Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash va xushxulq, munbasit (oqko'ngil) kishi erdi. O'z zamonasida she'ri atrok (turklar) orasida ko'p shuhrat tutti», deb baholaydi? J: **Atoyini**

7. Navoiy Atoyini «turkona aytur edi», deb tariflaydi. «Turkona» deganda nima nazarda tutilgan? J: **Chlyratmay, to'g'ri, oddiy ifoda yo'sinidan foydalanish**

8. Qaysi shoir yor yuzini mushaf – Qur'onga, meng – xolini oyalga o'xshatgan? J: Atoyi

9. Qaysi shoir yorning go'zalligi, tiniqligi, pokizaligi shunchalikki, u qo'lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo'lini yuvib suvni poklaydi, deb ta'riflaydi? J: Atoyi

10. Qaysi shoir ijodida goh-goh ko'zga ko'rinish turuvchi suv parisi tasvirlangan? J: Atoyi

11. Mumtoz adabiyotimizda Ya'qubning ayrılıqdagi halyoti qanday nomlanadi? J Baytul-hazan: g'am uyl

12. Aloyining «Uzun sochingdan uzmasmen ko'ngulni, Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda» baytida qaysi san'atdan foydalanilgan? J: Tazod, ishtiqoq

13. Atoyi g'azallarida ishlataligan «ozod» so'zining ma'nosini toping.

J: Tik, chiroyll o'sgan sarvgan aniqlovchi

15. «Bu kun vaslingni tark aylab, tilar jannat zohidlar, Berurta nasyag'a naqdni, bu ne nodon xaloyiqdur?» baytingin muallifini toping. J: Atoyl

16. «G'uncha sevunib to'nig'a sig'mas, O'xshatsam, o'qing bashoqi birda» misralarining muallifini toping.

J: Atoyl

17. «Ey orazi shams-u qamarim, neti, ne bo'ldi? V-ey fishlari durr-u guharim, neti, ne bo'ldi?» misralarining muallifini toping. J: Atoyl

18. «Qaroqchi ko'zlarin kim ko'rsa aytur: «Ajab, ayyori Turkistonmudur bu?» misralarining muallifini toping.

J: Atoyl

19. «Ko'ngulni olg'ali zulfung kamandi. Parishon bo'ldi g'amdin bandi-bandii» misralarining muallifini toping.

J: Atoyi

20. «Qon bo'ldi ko'ngul firoqi birla, kuydi janim ishtiyogi  
birla» misralarining muallifini toping. J: Atoyi
21. «Ey begin, ushbu yuz, degul, shams bila qamar-  
mudur? Ey begin, ushbu so'z degul, shahd bila shakar-  
mudur?» misralarining muallifini toping. J: Atoyi
22. «Labing qonim lo'karga tashnalabdur, dami Iso-yu,  
o'llurnak ajabdur» misralarining muallifini toping. J: Atoyi
23. «Spehni husn ichinda moh sen-sen, zamona xo'bla-  
ning'a shoh sen-sen» misralarining muallifini toping. J: Atoyi
24. «Seni men ongladim, bevafo emishtuksen, ko'ngul-  
ga ofat-u, jong'a balo emishtuksen» misralarining muallifini  
toping. J: Atoyi
25. «Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu? Og'iz yo qun-  
chayi xandonmudur bu?» misralarining muallifini toping.  
J: Atoyi
26. Qaysi shoir yorning qop-qora sochini laylat ul-qadr-  
ga, oppaq yuzini esa subhi sodiqqa o'xshatadi? J: Atoyi
27. «Hajringda, begin, oh degumdur dag'i o'lqum,  
Imonim o'shal moh degumdur dag'i o'lqum» misralarining  
muallifini toping. J: Atoyi
28. Navoiyning ma'lumot berishicha, Balxda yashagan.  
Mirzo Ulug'bek saroyida xizmat qilgan. Hozirgi Qozog'iston-  
ning Turbat qishlog'ida unga nisbat berilgan qabr bor. Ush-  
bu ma'lumotlar qaysi shoir haqida? J: Atoyi
29. «Gar o'qur majlisda xonanda ... she'nini, Zuhra  
chang qo'psor, qilur shams-u qamar zavq-u charoh». Nuqtalar o'miga qo'yilishi lozim bo'lgan ismni toping.  
J: Atoyl

30. «...she'ning lutfini bilsa, «Latofatnoma»din kech-gay Xo'jandiy». Nuqtalar o'rniga qo'yilishi lozim bo'lgan ismnini toping. J: Atoyl

31. Qaysi shoir ijodida zulfi – sochingning lashkari ko'zi bilan ittifoq tuzib, go'zallik mamlakatini egallab olgan ma'shuqa ta'riflanadi? J: Atoyl

32. Qaysi shoir yorga agar sening kiprigingni uchi bilan birga qo'shib g'unchaga o'xshatsam, g'uncha quvonganidan terisiga (to'niga) sig'maydi, deb yozgan? J: Atoyl

33. Qaysi shoir ijodida Salbabil arig'ida nozlanib cho'milib shu ariq orqali jannat bog'idan o'tib, kavsar hovuziga qarab suzib kelgan qiz obrazni mavjud? J: Atoyl

34. «Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyottin anjumanda» misralarida qaysi badiiy san'atlardan foydalanilgan? J: Husni ta'lil, tashxls

35. «Zulfung cheriki jamol mulkin Oldi ko'zing ittifoqi birla». O'zaro kelishib ish bajargan lirik qahramonlarni toping, misralardagi vositasiz to'ldiruvchilarni aniqlang.

J: Zulf, ko'z, jamol mulkin

36. «Boqar ohulayin har yon o'shal ikki qaro ko'zlar, Xadangi g'amzasin otmoq uchun go'yo qaro ko'zlar». Bayt muallifi kim? Radif bo'lib kelgan ikkita qaro ko'zlar binkmasi o'zaro qanday munosabatda? J: Atoyl, omonimlik munosabatda

## GADOIY

1. Gadoyi haqidagi ayrim ma'lumotlar kimning qaysi asarlarida uchraydi? J: Alisher Navoiyning «Majolis un-nafoia» va «Mahbub ul-qulub» asarlarida

2. Gadoiyning zullisonayn, ya'ni ikki tilda ijod etganligini isbotlovchi dalil sifalida uning fors-tojik tilida yaratgan g'azali kimning tazkirasidan joy olgan?

J: **Faxrl Hirotiyning «Radoylif ul-ash'or» tazkirasida**

3. «Mavlono Gadoiy turkigo'ydir, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she'ri shuhrat tutti. Mavlononing yoshi to'qsondin o'tibdur». Gadoiy haqidagi ushbu fikrlar muallifi kim? J: **Alisher Navoiy**

4. «Ohkim, devona ko'nglum mubtalo bo'ldi yana,  
Bu ko'ngulning ilgidin jonga balo bo'ldi yana»

5. «Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish  
Kim, aning dardi qoshida yuz o'lum hayron emish».

6. Gadoiyning lirik merosida qaysi janrdagi she'rlar uchraydi? J: **G'azal, mustazod, qit'a**

7. «Buti siyminbarim, bizni unutma,

Dudoqi shakarim, bizni unutma.

Sevar jonim, begim, xonim, umidim,

Azizim, dilbarim, bizni unutma»

8. «Ey ko'ngul, dilbar xayoli chunki hamdamdur sanga,  
Vodiyi hijron ichinda o'zga ne g'amdur sanga»

9. «Yoz fasli in bori bu lazzat-u ishrat bila,

Yolg'uz men mubtalo dard-u g'am-u mehnat bila»

10. «Yana yoz bo'ldi-yu, topli bo'ston nash'-u namo,  
Ey nasimi ruhparvar, hayra maqdam, marhabo»

11. «Husn ichinda qudrati yazdoni sen-sen, yo habib,  
Bu davrinda xo'blar xoni sen-sen, yo habib»

12. «Ey ko'ngil, sanga dilbar xayoli hamdam, yor bo'lsa,  
hijron vodiysida qanday g'amming bor?» – deya ko'ngilga murojaat etgan shoir kim? J: **Gadoly**

13. O'z haddingni bilmayin ko'zi o'tliqni sevding, endi bu yo'lda qancha kuysang ham kamdir deya ko'ngilni ayblagan shoir kim? J: **Gadoiy**

14. She'flarining birida yorga qarata: «Xoh o'llur, xoh turguz, ixtiyor ilgingdadur,

*Ul sening noz-u itobingga mening joniof fidon*, – deya xitob qilgan shoir kim? J: **Gadoiy**

### LUTFIY (1366 – 1465)

1. Kim Lutfiyni Shoshiy deb atagan? J: **Ahmad Taroziy**

2. Lutfiy kimning qo'lida tasavvufdan saboq olgan?

J: **Shahobiddin Xiyoboniydan**

3. Navoiy qaysi asarida Lutfiy haqida «To'qson to'qqiz yoshida olamdin o'tdi, qabri Dehikanordadur. O'z maskani erdi», degan ma'lumotni beradi?

J: **«Nasoyim ul-muhabbat» asarida**

4. Lutfiy kimning taklifi bilan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini o'zbekchaga she'riy yo'lda tarjima qilgan? J: **Shohrux Mirzoning**

5. Lutfiy «Zafarnoma»sining hajmi qancha?

J: **10 mln baytdan ortiq**

6. Navoiy qaysi shoirning o'ziga nisbatan katta muhabbatli borligi haqida: «Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi», – deb yozgan? J: **Lutfiy**

7. «O'z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir». Navoiyning Ushbu fikrlari qaysi shoir haqida? J: **Lutfiy**

8. Navciyning Lutfiy huzurida «Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh», deb boshlanuvchi g'azalini o'qib bergani va uslozning bu she'rga o'zining fors va turk tillarida aytgan 12 ming baytli she'rlarini almashtirmoqchi bo'lgani haqidagi ma'lumot kimning qaysi asarida uchraydi?

J: Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida

9. Lutfiyning bizgacha nechta devoni yetib kelgan?

J: Ikkita

10. Lutfiy o'zbek adabiyotini qaysi janrdagi she'rlari bilan boyildi? J: G'azal, tuyuq, qit'a

11. «Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi. O'z haddini bilib, belidin o'llirur quyi» baytida qo'llanilgan badiiy san'atni toping. J: Husnl ta'lil

12. Qaysi shoir «Dilbarim mening ba'ynimga ikki guloch argon, ya'ni yoyilgan sochidan kamand, ya'ni sirdmoq solib tuzoqqa tushirdi», deydi? J: Lutfiy

13. «Agar sen bo'lmasang guldek chamanda, Kishi netgay o'shal bayt ul-hazanda?» misralarining muallifini toping. J: Lutfiy

14. «Yoz bo'ldi, kerak ul buti ayyor topilsa, Barcha topilur, bizga kerak yor topilsa» misralarining muallifini toping. J: Lutfiy

15. «Yuzingizda O'g'an nuri ayondir, Ko'zingiz fitnayi oxir zamondir» baytidagi «O'g'an nuri» so'zning ma'nosini toping. J: Olloh nuri

16. «Qoshing, yeming, yuzing, ey rashki rizvon, Hilol-u kavsar-u bog'i jinondun» misrasida qo'llangan badiiy san'atni toping. J: Laff va nashr

17. «*Dudog'ing ma'dani jondur dedim, aytur: sanga ne? Qomating sarvi ravondur dedim, aytur: sanga ne?*» misralarining muallifini toping. J: **Lutfiy**

18. Qaysi shoir ilk bor g'azalda dialog shaklini qo'llagan? J: **Lutfiy**

19. Lutfiyning boshdan oxirigacha irlisi masal san'atiga qurilgan g'azali qaysi?

J: **Ayog'ingga tushar har lahza gisu**

20. «*Burqa'ni ko'tar, lengri uchun, ei seni ko'rsun, Bu husn-u malohat yana qaysi kun uchundir*» misralarining muallifini toping. J: **Lutfiy**

21. Lutfiyning «*Savdoyi bo'lubmen. Chu ko'ngul zulfig'a berdim, Savdo bo'lur ondaki, xaridor topilsa*» misralaridagi «savdo» so'zining ma'nosini toping.

J: **Ishq, ehtiros, mojaro, orzu-xayol, oldi-sotdi va qora**

22. «*Dudog'ing ma'dani jondur dedim, aytur: sanga ne? Qomating sarvi ravondur dedim, aytur: sanga ne?*» misralarining muallifini toping. J: **Lutfiy**

23. Lutfiyning «*Ag'yor bikin jon-u ko'ngul ketdi qoshim-din, G'amdek manga bir yori valodor topilmas*» misralarida shoir nimalami dushmanim, deyapti? J: **Ma'shuqa ortidan ergashib ketgan ko'ngil bilan jonni**

24. Lutfiyning qaysi g'azali boshidan oxirigacha tazod san'atiga asoslangan? J: **Jonim chiqadur dard ilo, Jononilma aytung, Men xasta gado hollni sultonilma aytung**

25. «*Ko'rgali la'liting a'qiqin ko'nglum ulyon tortadur, Bu yamon andishaliqni go'iyo qon tortadur*» misralarinlnq muallifini toping. J: **Lutfiy**

26. «*Nigoro, sensizin mandin ne hosil? Agar jon bo'limasa, tandin ne hosil?*» misralarining muallifini toping.

J: **Lutfiy**

27. «*Ko'ngluma har yonki boqsam dog'i bor, Har necha dardimni desam, dog'i bor. Qilcha tanga bori ishqing yor edi, Bir son bo'ldi firoqing dog'i bor*» tuyug'ida «dog» tajnis so'zлari qanday ma'noda kelyapti? J: **Yara, tag'in, tog'**

28. «*Ko'z yoshim tufroq ila gar qotila,*

*Kelmagayman javridin, haqqa, tila.*

*G'amzasi o'ftirdi-yu, ul bexabar.*

*Men agar o'lsam, ne g'am ul qotila».* Ushbu tuyuq muallifi? J: **Lutfiy**

29. «*To'nga sig'masman farahdin gul kibi,*

*Kelsa ul sarvi ravon bir-bir manga.*

*Muncha yil kelgan bu baxt-u davlatim,*

*Shuknillahkim, kelur bir-bir manga».* Ushbu she'r janri va muallifini toping. J: **Lutfiy, qit'a**

30. «*Suvrati Yusuf, nigoro, sendadur,*

*Doyim anfosi Mashiho sendadur.*

*Yuzum o'ldi za'faron dard ilgidin,*

*Oil inoyalkim, mudavo sendadur».* Ushbu she'r janri va muallifini toping. J: **Lutfiy, qit'a**

31. «*Sheva ul sarvi ravondin xush turur,*

*Noz o'shul joni jahondin xush turur.*

*Men sevarmen, ul meni sevmas, darig'.*

*Bu sevishmak ikki yondon xush turur».* Ushbu she'r janri va muallifini toping. J: **Lutfiy, qit'a**

32. Lutfiyning «*Jonim chiqadur dard ila jonorima byting*» misralarining janrini toping. J: **Qit'a**

33. «*Nozuklik Ichra belicha yo'q tori gisuyi, O'z haddini bilib belidin o'ttirur quyi» baytida qo'llanilgan badiiy san'atni toping. J: Husni ta'lil*

34. Lutfiyning har bir baytida bittadan xalq maqoli uchraydigan g'azali qaysi javobda berilgan?

J: Ayog'ingga tushar har lahza gisu

35. Yorning yuzini jannah bog'iga, ma'shuqaning o'zini esa «rashki rizvon» (jannahning rashkini keltiruvchi) deya ta'niflagan shoir kim? J: Lutfiy

36. Qaysi shoir: «*Dilbanim mening bo'ynimga ikki quloch arqon, ya'nI yoyilgan sochidan kamand, ya'nI sirtmoq solib tuzoqqa tushirdi*», – deydi? J: Lutfiy

37. Lutfiyning «*Mundoqki yaxshi yerga tushubtur topib qabul, Shak yo'qli, muqbil ul dudog'ing xoli hinduyi*» misralaridagi «*muqbil*» so'zinining ma'nosi to'g'ri izohlangan qatorni toping. J: Baxtil

38. «*Agar sen bo'imasang guldek chamanda, Kishi netgay o'shal bayt ul-hazanda?*» misralari muallifi toping. J: Lutfiy

## JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI

### FIRDAVSIY

1. Qaysi shoir taxallusi nomini o'zi bog'bonlik qilgan bog' nomi bilan ataydi? J: Firdavsiy
2. Firdavsiy qachon qayerda tug'ilgan? J: 941-yilda Eronning Tus shahri yaqinidagi Boj qishlog'ida
3. Taxallusi nima sababdan «Firdavsiy»? J: Otasi Tus hokimining «Firdavs», ya'ni «Jannah» nomli bog'ida bog'bonlik qilgan. Firdavsiy otasi vafot etgandan so'ng mazkur bog'da bog'bonlik qiladi va taxallusiga ham shu bog' nomini tanlaydi
4. Qaysi asar hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyaviy motivlari va badily qimmati jihatidan dunyodagi eng katta epik asar hisoblanadi? J: «Shohnoma»
5. «Shohnoma» 100 dan ortiq dostonlardan tashkil topgan bo'lib, ularda mingdan ziyod bir-biriga o'xshamagan obraz va personajlar tasvirlangan
6. «Shohnoma»ning yangi she'riy tarjimalarini yaratgan shoirlarni toping. J: Hamid G'ulom, Nazarmat, Jumaniyoz Jabborov, Shoislom Shomuhammedov
7. «Shohnoma» sujetlari asosida yaratilgan sahna asarlari qaysilar? J: «Zahhoki moron», «Siyovush»
8. Firdavsiy hikmatlaridan:
  - Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
  - Noloyiq ishlardan olisga ketgil.
  - Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,
  - Ganj topmas hech kimsa tortmas esa ranj.

- Hunar birla aqling birikkan hamon,
- Har ish bu jahonda yurishgan ravon.
- Yomonga qo'shilma, bo'lursan yomon,
- Qarosin yuqtirar hamisha qozon.
- Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,
- Nodonga yondashma, bosmasin g'aflat.
- Ikki do'st turar ekan yelkama-yelka,
- Tog'larni ham oson aylaydi tilka.

9. «Rustamning Suhrob bilan jang qilgani» parchasida kim eroniylar, kim turonliklar tomonida turib jang qiladi?

J: **Rustam eroniylar, Suhrob turonliklar tomonida**

10. Rustamning o'z o'g'li Suhrob bilan jang qilayotgani-ni bilmaganini Firdavsiy qanday tasvirlaydi?

J: **Biyobonda vahshiy, daryoda baliq, Taniy bila-di-ku farzandin aniq. Faqat odam ko'zin hirs nomli olov Ko'r qilib, tanitmas kim o'g'lli, kim yov**

11. «Ikkisi bir-birin etdi haqorat, Jahon lor kelgandi bularga g'oyat» misralaridagi «ikkisi» kimlar?

J: **Rustam va Suhrob**

12. Rustam va Suhrob o'tasidagi jangda qaysi biri oldin lashkar tomonga yuzlanib, ularga qarshi kurashga otlanadi? J: **Rustam**

13. «Nayzasi uchidan tomar erdi qon, Ga'yo ovi baror kelgan bir qoplon», deya ta'riflangan qahramon? J: **Suhrob**

14. «Bo'ridek lashkarga kirib kelgan choq Katta-kichik bar'i bo'ldi tumtaroq», – deya qaysi qahramon ta'riflanadi?

J: **Suhrob**

15. «Hech nahang ko'madim buningdek eta olsin jang» fikrlari kimga tegishli? J: **Rustamga**

16. «Nechun bor kuchingni menga ko'rsatmay, Qon to'kasani qo'tan ichra bo'riday?» fikrlari kimga qarata kim tomonidan aytilgan? J: Rustam tomonidan Suhrobga

17. «Bu maydonda bo'lq'ay ham minbar, ham dor, Taqdirimiz yechar pok parvardigon» misralari qaysi qahramon tilidan aytilgan? J: Rustam

### RUDAKIY (858 – 941)

1. Rudaklyning to'liq ismi?

J: Abu Abdullo Ja'far ibn Muhammad Rudakiy

2. Juda yosh chog'idan she'riyat va musiqaga havas ko'rsatgan, bir necha musiqa asboblarini juda mahorat bilan chalgan shoir kim? J: Rudakly

3. Rudaklyni qaysi hukmdor saroyga taklif etgan?

J: Buxoro hokimi Nasr ibn Ahmad Somoni

4. Rudakiy necha yil saroyda shoirlarga boshchilik qilgan? J: 40 yill mobaynida

5. Rudakiy qancha she'r yozgan?

J: 100 000 misradan ortiq

6. Bizgacha qancha she'ri yetib kelgan?

J: 2000 misraga yaqini

7. Rudakiy qaysi janrdagi she'larni yozishda mashhur bo'lgan?

J: G'azalchilik va rubolyalar yozishda

8. Qaysi hukmdor Hirotni egallagandan so'ng uning fabiatiga maftun bo'lib, o'z yurtiga borishni unutadi. Shunda bunga chora topa olmagan sarbozlar Rudakiya murojaat qiladilar. Rudakiy «Ma'liyon bo'yli bu yan kelmoqdadur»

qo'shilg'ini ijro etadi. Shah hatto etigini klymasdan otga minadi va yurtga qaytish haqida farmon beradi.

**J: Nasr ibn Ahmad Somoniy**

9. Rudakiyning «Qarilikdan shikoyat» she'ri qanday boshlanadi? J: Tishim bari to'kilib ketdi, durri g'alton edi, Ularni tish dema, charog'i tabon edi.

10. «Yigitlar ichra yigitlar unga bo'llib ulfat, Amirlar uzra yigit og'alikda polvon edi» misralari qaysi she'rdan olingan?

**J: Rudakiyning «Qarilikdan shikoyat» she'ridan**

11. «Zamona aynadi, men ham tamoman o'zgardim, Asomni qo'lga ber endi, u boshqa davron edi» misralari qaysi she'rdan olingan?

**J: Rudakiyning «Qarilikdan shikoyat» she'ridan**

12. «Xotin, bola, dag'i ra'zg'or – bu xilda tashvish kam, To'nim yoqasida kir yo'q, qilg'uliqlar oson edi» misralari qaysi she'rdan olingan?

**J: Rudakiyning «Qarilikdan shikoyat» she'ridan**

13. «Muliyonning hidi bu yonga kelur» she'ridan parcha:

*Muliyonning hidi bu yonga kelur,*

*Yor yodida dil fig'onga kelur.*

*Qanchalik toshsa ham Amudaryo,*

*Otimiz belidan tubonga kelur.*

*E Buxoro, hamisha xurratm bo'l,*

*Sen uchun shoh mehmonga kelur.*

*Shah oy, osmon Buxorodir,*

*Oy sochib nur osmonga kelur.*

*Shah sarv-u bo'stan Buxorodir,*

*Yam-yashil sarv ba'stonga kelur.*

14. «Nazm qaydiga tushdim xushovozlikdan,  
Husnim gunohi-la bo'ldim zindonda»
15. «Zamon menga juda qimmat nasihat etdi.  
Agar bilsang, zamon lo'la nasihat erur.  
Dədi: O'zdan balandroqni ko'nib g'am yəma,  
Ko'p kishi bor, sen bo'lishni orzu qilur»
16. «To'rt narsani berdi menga – oqillarcha o'ylamoq,  
Tansihatlik, yaxshi odal, yaxshi nom, yaxshi fikr.  
Tangri kimg'a qilg'an bo'lsa bu to'rt narsani nasib,  
Mangu shodlik bilan yashab, g'am yemasa ham arzin».
17. «Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki  
Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.  
Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan  
Kema yasab o'tgil nari tomonga»
18. Ruboly: «O'z nafsi mag'lub etolgan marddir,  
G'iybatdan uzoq-uzoq ketolgan marddir.  
Nomard tepib o'tar yiqilganlami  
Ojiz kishilar qo'lini tutolgan marddir»
19. Ruboiloy: «ilonni har qancha qilsang tarbiyat,  
Oxir zahrin sochib, yetkazar zahmat.  
Nokas tabiatli ilon kabidir  
Yuzin ko'maslikka etgil harakat».

## 2-KURS LITSEY ADABIYOTI

### ALISHER NAVOIY (1441 – 1501)

1. Navoiy haqida Bobumning fikrlari: «Alisherbek na-ziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aylqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilubdur, beshi «Xamsa» javobida, yana biri «Man-liq ul-tayn» vaznida «Lison ul-tayn» olliq. Yaxshi ruboziyoti ham bor. Yana «Mezon ul-avzon» olliq aruz bilibtur... Forsiy nazmda «Foni» taxallus qilibtur. Yaxshi musiqiyda yaxshi namalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur»

2. Navoiy dostonlarining barchasi qanday boshlanadi?

J: *An'anaviy hamd va na'tlar bilan*

3. «Ashraqat min» g'azali:

*Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvor ul-hudo,*

*Yor aksin mayda ka'r deb, jomdin chiqdi sado.*

*Sen gumon qilg'ondin o'zga jom-u may mavjud erur,*

*Bilmayin naf etma bu mayxona ahlin, zohido.*

Misra ma'nosi: Sharqdan chiqqan quyoshning hidoyat nurlari piyolada aks etishi; jom – qadah, may piyolasi; vahdat – yakkalik, yagonalik; g'amzudo – qayg'uni ketka-zuvchi; zarf – may quyiladigan idish; getinamo – olamni ko'rsatuvchi; dayr – bubxona, ko'chma ma'noda, mayxona va umuman dunyo; mug'bacha – mayxonachining yugurdak xodimi, may tashuvchi bola; ibtido – boshlanish; mahv – yo'qolish, bitish; moado – ...dan boshqa.

4. «Har gadokim» g'azali:

- Har gadokim, bo'yrayi faqr erur kisval anga,  
Sultanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga.*
- Kim fano tufrog'iga yotib qo'yar tosh uzra bosh,  
Taxt uza ermas muzahhab muttako hojat anga*
5. «*Ko'rgali husnungni zor-u mubtalo bo'ldum sanga,  
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga»*
6. «*O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,  
Ne ajab chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur»*
7. «*Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'at,  
To uyqulari ketsun, gutzar ichida o'ynat»*
8. «*Ko'nglung istar yordar birla hamisha shod bo'l,  
Mendin-u kimdinki, ko'nglung istamas, ozod bo'l»*
9. «*Yordin ayru ko'ngul mulkedur sultoni yo'q,  
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q»*
10. «*Qaro ko'zum, kel-u mardumlug' emdi tan qilg'il,  
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il».*
11. «*Ko'nglum o'tansun agar g'a yrинг'a parvo aylasa,  
Har ko'ngul hamkim sening shavqingni paydo aylasa»*
12. «*Tifillar toshiki, jismim qildi sartosar qora,  
Bo'ldi savdog'a savodi a'zam andin har qora»*
13. «*Gulruxi ra'noqadin chun bog' tavf aylar  
Infiolidin guli ra'no qizarib, sarg'oyib».*
14. «*Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,  
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt».*
15. «*Meni ishqdin man etar soda shayx,  
Dema soda shayx, aytkim loda shayx».*
16. «*Do'stilar, ahli zamondin mehr umidi tulmangiz,  
Mehri gardun bo'lsalar ko'z nuridin yorutmangiz».*
17. «*Ka'z qonidin dema, etagim lolavordur*

*Kim, ko'hi dardning etagi lolazordun».*

18. «Ko'nglum ichra dard-u g'am

*avvalg'ilarg'a o'xshamas*

*Kim, ul oyning hajri ham avvalg'ilarg'a o'xshamas».*

19. «Oshiq o'Idum, bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,

*Oolloh-olloh, ishq aro mundoq balotlar bor emish»*

20. «Ko'kragimdur subhning pirahanidin chokrok,

*Kirpigim shabnam to'kilgan sabzadin namnokrok»*

21. «Ne navo soz aylagay bulbul guliston din judo,

*Aylamas to'ti takallum shakkariston din judo.*

*Hajr o'lumdin tatx emish, mundin sa'ng,*

*ey gardun, meni*

*Aylagil jondin judo, qilg'uncha janondin judo»*

22. «Havo xush erdi-yu, ollimda bir qadah mayi nob,

*Ichar edim vale g'amdin qadah-qadah xunob.*

*Chu soqiq etti qadah ko'zgusida jilvayi husn,*

*Ne ayb oshiqi mayxora ko'ngli bo'lsa yabob?»*

23. «Har qachonki, kemaga ul oy safar raxtin solur,

*Mavjilig' daryo kibi oshufta ko'nglum qo'zg'olun»*

24. «Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,

*Bulbul o'lg'ondek xazon fasli gul-u gulzarsiz.*

*Topmaduq gulrang jomi bexumor, ey bog'bon,*

*Vahki, bu gulshan aro gul butmas emish xorsiz»*

25. «Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har

*lahza yosh,*

*Bo'ylikim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.*

*Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,*

*Gar budur mehrob, bir-bir qo'yg'usidur barcha bosh»*

26. «Kechti umrim naqdi g'aflat birla nodonlig'da hayf,

- Qolg'oni sarf o'ldi anduh-u pushaymonlig'da hayf»*
27. «*Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki,  
Solmag'ay erding bori olamda g'avg'o koshki»*
28. «*Yordin hijron chekar ushshoqi zor, ey do'stlar,  
Necha tortay hajr, chun yo'q menda yor, ey do'stlar»*
29. «*Lolagun lo'n ichra, yo rab, ul g'azoli Chin erur,  
Yo ko'zumning mardumi, qon yosh ila rangin erur»*
30. «*Do'stlar, mahram deb elga roz ifsho qilmangiz,  
Boshingizg'a yuz balo kuch birla paydo qilmangiz»*
31. «*Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatini ko'nglum pisand etmas»*
32. «*Menga nomehnibon yor o'zgalarga mehribon emish,  
Mening jonim olib, ag'yorga oromijon ermish»*
33. «*Rahm etib, ey do'stlar, majnuh ko'ksumni yoring,  
Qo'l yolang aylab solib, har yon ichimni axtoring»*
34. «*Mening firoqim-u aning visoli tun bila tong,  
Bu nav dahrda yo'q ehtimoli tun bila tong»*
35. «*Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'r madim?!*  
*Ko'rguzib yuz mehr, ming dard-u balosin ko'r madim?!*»
36. «*Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.  
Besha ichra devlar maqluli o'lsun, ey pari,  
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay»*
37. «*Sanig' og'rig' bo'ldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,  
Qoni astfar mayki, bor har qatrasи bir qahrabo»*
38. «*Oqara boshladi bosh-uб to'kula boshladi tish,  
Safar yarog'ini qilg'ilki, tushti boshinga ish»*
39. «*Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil,  
Shu'layi ohim chiqar har yon qizil, sorig', yashil»*

40. Qaysi devon shoir umrining ko'klamini bildiradi va bu davr qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

J: «G'aroyib us-sig'ar» (Bolalik g'aroyibotlari) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha

41. Qaysi devon shoir umrining yozini bildiradi va bu davr qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

J: «Navodir ush-shabob» (Yigitlik nodirliklari) 20 yoshdan 35 yoshgacha

42. Qaysi devon shoir umrining kuzini bildiradi va bu davr qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

J: «Badoe' ul-vasat» (O'rta yosh badilalari) 35 yoshdan 45 yoshgacha

43. Qaysi devon shoir umrining qishini bildiradi va bu davr qaysi yillarni o'z ichiga oladi? J: «Favoyid ul-kibar» (Keksalik foydalari) 45 yoshdan 60 yoshgacha

44. Navoiyning qaysi g'azalida Ka'badan boshlangan so'z Astroboldgacha kelgan?

J: Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay

45. Navoiyning qaysi g'azali Lutfiyni hayratga solgan?

J: Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh, Bo'yakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh

46. Navoiyning qaysi devoni Husayn Boyqaro topshirig'i bilan tuzilgan?

J: «Badoe' ul-blldoya», «Xazoyin ul-maonly»

47. Navoiyning «Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushti o't» satri bilan boshlanuvchi g'azall qanday g'azal?

J: Tadrij asosida yaratilgan yakpora g'azal

48. Navoiyning tadrij asosiga qurilgan g'azali?

J: Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultonni yo'q.

Mulkkim sultonni yo'q, jismedururkim, Joni yo'q

49. Navoiyning tarji'bandi qaysi?

J: Xarobot aro kirdim oshuftahol

50. «Xarobot aro kirdim oshuftahol» tarji'bandi qaysi vaznda yozilgan? J: Mutaqorib

51. «Xarobot aro kirdim oshuftahol» tarji'bandi qaysi devonga kiritilgan? J: «G'aroyib us-sig'ars»

52. «Xarobot aro kirdim oshuftahol» tarji'bandi necha band, necha misradan iborat? J: 10 band, 200 misra

53. «Xarobot aro kirdim oshuftahol» tarji'bandidagi har bir band qaysi maqta' bilan yakunlanadi? J: Xarobot aro kirdim oshuftahol, May istarga ilgimda sing'on satol

54. «Xarobot aro kirdim oshuftahol» tarji'bandidagi har bir band kimga murojaat bilan boshlanadi? J: Soqlyga

55. «Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast, Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast» misralari bilan boshlanuvchi she'rning janri? J: Tarji'band

56. «Xarobot aro kirdim oshuftahol» tarji'bandining 2-qismi qanday boshlanadi?

J: «Ketur, soqiyo, mujdaye jomdin Ki, pajmurda bo'lmishmen anjomdin»

57. «Xarobot aro kirdim oshuftahol» tarji'bandining 3-qismi qanday boshlanadi? J: «Tilarmen bu dayr ichra kashonaye Ki, bo'lg'ay jivorida xumxonaye»

58. Tarji'bandning 6-qismi qanday boshlanadi?

J: «Qanl soqiyi guluzorim mening Ki, Jon qasdi etmish xumorim mening»

59. «Xazoyin ul-maoniy» devonidagi qaysi devonda g'azallar soni ko'proq? J: Barcha devonlarda bir xil: 650 tadan g'azal jamlangan

60. «Xazoyin ul-maoniy» Sharqda qanday nom bilan mashhur? J: «Chor devon»

61. «Xazoyin ul-maoniy»ga Navoiy nechta ruboiy kiritgan? J: 133 ta

62. «Xazoyin ul-maoniy»ga nechta qit'a kiritilgan?  
J: 210 ta

63. «Xazoyin ul-maoniy»da nechta she'r mavjud?  
J: 45 ming misraga yaqin, 3200 dan ortiq she'r

64. «Zohid, senga hur-u, menga jonona kerak» ruboysisida qaysi san'at keng ishlataligani? J: Tanosub

65. «Yo'q dahrda bir besar-u somon mendek, O'z holiga sargashta-yu hayron mendek», deb boshlanuvchi ruboiydagi besar-u somon so'zining ma'nosini loping. J: Hech kimsasi va hech narsasi yo'q, hayronlikda qolgan kishi

66. «Kamol et kasbkim», deb boshlanuvchi qit'asida qanday g'oya ilgari suriladi?

J: Bu dunyodan kamolotga erishmay ketmoq ham-momga kirib, poklanmay chiqishday gap

67. «Navoiy she'ri to'qqiz bayt-u o'n bir bayt, o'n uch bayt» she'rining janri? J: Qit'a

68. «Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari, Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming ollingga har zamon» misralari ning janri? J: Qit'a

69. «Yaxshi xotunlar safoyi zuhididin, Olam ichra gar yorug'luq bo'lsa fosh», deb boshlanuvchi she'rning janri?

J: Qit'a

70. «Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat, It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami» misralarining janri? J: **Qit'a**

71. «Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu» she'rning janri? J: **Fard**

72. «Men – sinuq, ko'nglim – sinuq, sabrim uyi xud yerga past...» she'rning janri? J: **Fard**

73. «Ul parikim, ani demishman yor...» she'rning janri? J: **Fard**

74. «Jonimdag'i «jim» ikki dolingga fido», deb boshlanuvchi she'rning janri? J: **Ruboly**

75. «Ka'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi», deb boshlanuvchi she'rning janri? J: **Ruboly**

76. «Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz» ruboiy-sining mavzusi? J: **Hayotsevarlik**

77. «Yo'q dahrda bir besar-u somon mendek» deb boshlanuvchi she'rning janri? J: **Ruboiy**

78. «Ey jism, aning ko'yini paydo qilako'r», deb boshlanuvchi she'rning janri? J: **Ruboiy**

79. «Yo rab, ul shahd-u shakar yolabdurur», deb boshlanuvchi she'rning janri? J: **Tuyuq**

80. «Tig'i ishqing yorasidir butmagon», deb boshlanuvchi tuyuqdagi «butmagon» so'zlarining ma'nolari? J: **Tuzalmagan, tugatmagan, o'smagan**

81. «Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay, Otki o'trusig'a oning ko'z tutay» misralarining janri? J: **Tuyuq**

82. «Charx tortib xanjari hijron bu tun», deb boshlanuvchi she'rning janri? J: **Tuyuq**

83. «Bo'limag'ay erdi jamoling muncha zebo koshki», deb boshlanuvchi she'rning janri? J: **Muxammas**

84. Navoiy nechta luyuq yaralgan? J: 13 ta

85. Yoriga: «O'zgalar husnin tamoshlo aylasam, chiqsun ko'zum,

*O'zga bir ko'z hamki husnunngi tamoshlo aylasa*, – deya murojaat qilgan shoir kim? J: **Navoiy**

86. Yorning yuzi firog'ida ko'zni lolakor, ya'ni lola ekuchi; qon yosh sochuvchi deya alagan shoir nomini toping.

J: **Navoly**

87. Navoiyning qaysi g'azalida Jamshid, Faridun, shoh G'ozlylar nomi birga qo'llanilgan? J: «**Ko'nglum ichra dard-u g'am, avvalg'ilarg'a o'xshamas**» g'azall

88. Qaysi shoirning bir g'azalida radif uchun tanlangan so'zlar uchta rangni bildiruvchi so'zlardan Iborat?

J: **Navoiy** («**Qizil, sorig', yashil**» radifi g'azall)

89. Sho'x ikki g'izoliningi noz uyqusidin uyg'at, To uyqulari ketsun, gulzor ichida o'ynat. Navoiyning ushbu baytida yorning qaysi a'zosi haqida so'z ketgan?

J: **Soch**

90. Mumtoz she'riyatimizda yoqimli hid taratish, yana-da go'zallahish ma'nolarini anglatuvchi so'z nomini toping.

J: **Royiha**

91. Bir oh ila kul bo'ldum, ey charx, tilab topib, Farhod ila Majnung'a oshiqlik ishin o'rgal. Navoiy qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan badiiy san'atlarni toping. J: **Mubolag'a, talmeh**

92. Garchi sabrim uyi yanglig' aylading vayron meni, Doimo, yo Rabki, husnung multikidek obod bo'l. Navoiy

qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan badiiy san'atlar nomini toping. J: **Tazod, talmeh**

93. Navoiyning qaysi g'azalida fakovar, ya'ni yo'rg'a otingga bag'rim qonini xino qil deya qadimda bayramlarga otning oyog'iga xino qo'yib chiqish odati eslanadi?

J: **Qaro ko'zum, kel-u mardumlug'** emdi fan qilg'il

94. Tan anga siym-u, ichinda tosh muzmar ko'nglidin,

Aqlg'a yuz hayrat, ul oyning ich-u toshindadur. Navoiy qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan «muzmar» so'zining ma'nosini toping. J: **Yashirin**

95. Yuzung visolig'a yetsun, desang, ko'ngullarni. Navoiy qalamiga mansub ushbu baytning keyingi misrasini toping. J: **Sochlingni boshtin ayog' chln lla shikan qilg'il**

96. «Qora» radifli g'azal yozgan shoirni toping.

J: **Navoly**

97. Qizil libos kiygan yorning xalqning ko'nglini libosining rangi kabi qon qilishga tayyorligi Navoiyning qaysi g'azalida tasvirlangan?

J: **Lolagun to'n ichra, yo Rab, ul g'azoll Chin erur**

98. Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,

Barchesi ezid taolo sun naqqoshindadur. Alisher Navoiyning ushbu baytidagi «sun'i naqqosh» kim?

J: **Alloh**

99. She'rlaridan birida jon eng aziz narsa bo'lsa-da, umrni undan ham aziz ko'rgan shoir nomini toping.

J: **Navoly**

100. Navoiy «Yo'q» radifli g'azalida yoridan ayrilgan ko'ngilni birinchi baytda hokimi yo'q mamlakatga, ikkinchi baytda jonsiz jismni gul-u rayhonli yo'q qaro tuproqqa

o'xshatadi. Uchinchi baytda yorsiz ko'ngil nimaga o'xshati-ladi? J: **Oysiz qorong'i kechaga**

101. *Firoq tog'ida topilsa, tufrog'im, ey charx,*

*Xamir etib yana uj tog'da Ko'hkan qilg'il.* Alisher Navoiy-ning ushbu baytidagi «ko'hkan» nimaning badiiy timsoli?

J: **Firoq, ranj, hajr va dardning**

102. Alisher Navoiyning sir saqlash haqida saboq bo'lув-chi g'azallari qaysi javobda to'g'ri berilgan? J: «**Do'stlar, mahram deb elga...», «Kimsaga dard ahil deb»**

103. *Chun Navoiy ishq rozin asray olmay qildi fosh,*

*Otini roz ahli tumorinda insho qilmangiz.* Navoiyning ushbu baytidan kelib chiqadigan xulosa...

J: **Ishq sirini saqlay olmagan kishini sir saqlay oluv-chilar toifasiga kirltmaslik kerak**

104. *Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone,*

*Bu bog'tomida gar ignadin tikan qilg'il.* Navoiyning ushbu baytida qanday timsollar berilgan?

J: **Bog'bon – yaratuvchi, bog' – mavjud borliq, xazon sipohi – o'llim lashkari**

105. «*Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la, Itingga g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il».* Ushbu baytda Navoiy nima demoqchi?

J: **Otingning oyoqlariga bag'rim qonidan xino bog'lagin, itingga esa Jonim iplarini arqon qilib bog'la**

106. «*Do'stlar, mahram deb elga roz ifsho qilmangiz»* deb boshlanadigan g'azalidagi kinoyaviy tasvirlardan All-sher Navoiyning maqsadi nima edi?

J: **O'zi yashagan zamona va zamonahilidan shikoyat, ulardan yuz o'glirish**

107. Forsiy «mardum» so'zi qanday ma'nolarni ifoda-laydi? J: **Odamlar, ko'z qorachig'i**

108. Sharq adabiyotida «Xamsa» yozish an'anasini kim boshlab bergen? J: **Nizomiy Ganjaviy**

109. Turkiy tildagi birinchi «Xamsa» asari muallifi...

J: **Navoiy**

110. Navoiy «Xamsa»siga kirgan dostonlarni to'g'ri sanang. J: «**Hayrat ul-abrор» (Yaxshilar hayrati), «Far-hod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor» (Yetti kezuvchi), «Saddi Iskandariy»**

111. «Xamsa» necha misradan iborat? J: **54 ming mlsra**

112. «**Hayrat ul-abrор»** nechanchi yilda yozilgan, hajmi va tuzilishini toping. J: **1483-yilda yozilgan, hajmi 3988 bayt, 64 bob, 20 maqolat**

113. «**Hayrat ul-abrор»da necha bob ustozlar ta'rifiga bag'ishlangan? J: **2 bob****

114. «**Hayrat ul-abrор»da nechanchi bobdan so'ng maqolatlar boshlanadi? J: **22-bobdan****

115. «**Hayrat ul-abrор»ning 5-maqolati nima haqida?**

J: **Karam haqida**

116. «**Hayrat ul-abrор»ning vaznini toping.**

J: **Aruzning sari' bahri: muftailun muftailun follun**

117. «**Hayrat ul-abrор»ning birinchi maqolati nimaga bag'ishlangan? J: **Iymonga****

118. «**Hayrat ul-abrор»ning ikkinchi maqolati nimaga bag'ishlangan? J: **Islomga****

119. «**Hayrat ul-abrор»ning muqaddimasida qaysi ulug' pirlar haqida so'z boradi?**

J: **Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror**

120. «Hayrat ul-abror»ning uchinchi maqolati nimaga bag'ishlangan? J: **Shohlarga**

121. «Hayrat ul-abror»ning o'ninchi maqolati nimaga bag'ishlangan?

J: **Rost va yolg'on, ta'g'rilik va agrilikka**

122. Ushbu misra Navoiyning qaysi asardan olingan? *So'zda, Navoiy, ne desang chin degil, Rost navo nag'maga tahsin degil.* J: **«Hayrat ul-abror»**

123. «Hayrat ul-abror»da Navoiy kim haqida: «Xayli fasohat boshining afsari,

*Ganji yaqin afsarining gavhari*, – deb yozadi?

J: **Nizomiy haqida**

124. «*Tushli chu rahrav bila payravg'a so'z*» misralaridagi «rahrrav» va «payrav» kimlar?

J: **Rahrav – yo'l boshlovchi, ya'ni Nizomiy, payrav – ergashuvchli, ya'ni Xusrav Dehlavly**

125. «*Sarv-u gul-u lola xardori bor, Lek o'tinning dag'i bozori bor*» deganda Navoiy niman ni nazarda tutgan?

J: **Nizomiy, Dehlavly, Jomly «Xamsa»lari sarv, gul, loladir, Navoiy yozmoqchi bo'lgan asar o'tm bo'lsa ham mayli, uning ham bozori bo'ladi**

126. «*Jon bo'lub ul, ruh aning qolib, Kim tanda ruh, aning tolibi*» misralarida nima haqida so'z bormoqda va misrada qo'llangan badiiy san'at? J: **So'z ta'rifi, Ifrot san'atlari**

127. «*Tarki adabdin bini kulgu durur, Kulgu adab tarkiga belgu durun*» misralari qaysi asardan olingan?

J: **«Hayrat ul-abror»dan**

128. Alisher Navoiy adabiy rahnomalari, salaflari, uslozlarini «mo'jaz bayonliq sohiri hInd», «isonafaslik rindi

Sheroz», «qudsi asarlik orifi Jam» deb ta'riflaydi. Ular qaysi javobda to'g'ri berilgan?

J: **Xusrov Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Jomiy**

129. «Xamsa» dostonlari qaysi janrda yozilgan?

J: **Masnaviyda**

130. Navoiy «Xamsa» dostonlarining qaysi biri muqaddimasida «Xamsa» yozishdagi o'ziga xos yo'riqlarini bayon etgan?

J: **«Farhod va Shirin»da**

131. Ma'lumki, Navolyning «Hayrat ul-abror» dostoni 63 bobdan iborat. Shundan necha bobi xotimadan iborat?

J: **2 bobi**

132. *Kimki jahon ahlida inson erur,*

*Bilki, nishoni anga iyomon erur.* Navoiy ushbu hikmatli misralarini qaysi asarida yozgan?

J: **«Hayrat ul-abror»da**

133. «*Ganja vatan, ko'ngli aning ganjvez, Xotiri ganjur-u tili ganjrez*» misralari kimning ta'rifiga bag'ishlangan?

J: **Nizomly madhl**

134. «*Ganja vatan, ko'ngli aning ganjvez, Xotiri ganjur-u tili ganjrez*» misralarida qaysi badiiy san'atlar qo'llanilgan? J: **Ilyom, ishtiqoq**

135. «*Hayrat ul-abror*» muqaddimasida *jahon osmon gumbaziga yashirinib turganday, u ham o'z hujrasi ichida yashirinib turadi, deya kattaligi jahonga o'xshatilgan shoir nomini toping.* J: **Jomiy**

136. «*Hayrat ul-abror*» muqaddimasida «*Ulki bukun qutbi tariqatdur ul, Koshifi asrori haqiqatdur ul*» deya ta'riflangan shoir kim? J: **Jomiy**

137. «Hayrat ul-abror» muqaddimasida «*Ko'ksi haqo-yiq duri ganjinasi, Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi*» deya ta'riflangan shoir kim? J: **Jomiy**

138. «*Xoni latoyifqa so'zi munqasim, Durri maoniyg'a tili muntazim*» deya ta'riflangan shoir kim? J: **Nizomiy**

139. «*Chun o'qumoq zamzamasi bo'ldi bas, Ko'nglum aro dag'dag'a soldi havas*» – bu kitobni o'qigandan keyin menda shunday asar yozish havasi tug'ildi, deya Navoiy qaysi asarni tilga olgan? J: «**Tuhfat ul-afkor**»

140. «*Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lum, Qo'ldasa Xusrav ila Jomiy qo'lum*» misralari Navoiyning qaysi asidan olingen? J: «**Hayrat ul-abror**dan

141. «*Surat ila bo'lsa mahi osman, Surati devor hamon, ul hamon*» baytining ma'nosini toping. J: **Agar bir go'zal har qancha chiroyli va oy yuzli bo'lsa-yu, lekin gapirmasa devordagi suratdan farq qilmaydi**

142. «**Hayrat ul-abror**ning «*So'z ta'rifida*» bobida qanday masala ko'tarib chiqilgan? J: **Badiiy ijodning shartlari**

143. «*Sultonlar haqida*» bobida keltirilgan «*Bo'idi raiyat gala-vu sen shubon, Ul shajari musmir-u sen bog'bon*» baytida qanday tashbeh – o'xshatishlar qo'lliangan?

J: **Xalq – gala, shoh – cho'pon; xalq – mevali daraxt, shoh – bog'bon**

144. «*Adab haqida*» bobida keltirilgan «*G'uncha kulub bo'ldi ochilmoq anga, Yetti ochilmoqda sochilmoq anga*» misralarida qaysi illat qoralangan?

J: **Ko'p kullish, misrada g'uncha kulganl uchun ochildi va ochigandan keyin sochildi, deyilgan**

145. «*Bargni kulgu yiqibon tog' aro, Balki qilib yer quyi*

*tuprog' aro» misralarida qanday ma'no ifodalangan?*

J: **Chaqmoq tog' orasida kulgani uchun tupraq ostiga kirib ketdi**

146. «*Tarki adabdin biri kulgu durur, Kulgu adab tarkiga belgu durur» misralari Navoiyning qaysi asaridan olingan?*

J: **«Hayrat ul-abror»**

147. *Yaxshilik gar aylamasang ish chog'i, Aylamagil bori yomonliq dog'i misralari Navoiyning qaysi asaridan olingan? J: «Hayrat ul-abror»*

148. Navoiyning shahzoda Badluzzamonga o'gitlari «Xamsa»ning qaysi dostoniga kiritilgan?

J: **«Hayrat ul-abror»**

149. *Shohki ish adl ila bunyod etar, Adl buzuq mulkni obod etar misralari kimga bag'ishlangan?*

J: **Shahzoda Badiuzzamonga**

150. *Zoda murid-u otani pir bil, Har ishida hukmig'a ta'sir bil misralari kimga bag'ishlangan?*

J: **Shahzoda Badiuzzamonga**

151. «*Dedi: nedur senga olamda pesha, Dedi: ishq Ichra majnunliq hamesha». Ushbu parcha kimlarning mu-loqoti (dialog)? J: Xusrav va Farhod*

152. «*Dedi: dilbarining de sitotin! Dedi: til g'ayratidin tutmon otin!*» dialogida «g'ayratidin» so'zi qanday ma'noni ifodalaydi? J: **Rashkn**

153. Bosh va salbiy qahramon o'tasida kechadigan dialog qaysi asarda berilgan? J: **«Farhod va Shirin»**

154. Shirinning Farhodga yozgan maktubining dastlabki misrasi qaysi qatorda berilgan?

J: **Nedur ahvoling, ey zorl g'aribim**

155. Navoiy qaysi dostonida «*Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq Mukarrar aylamak sendin ne loyiq, ya'ni boshqalar she'r qilib aytganini yana takror qilmoqdan nima foyda*», deya doston syujeti va kompozitsiyasida tub o'zgarishlar qilgan? J: «**Farhod va Shirin**»

156. «*Hamul yerde emas gul istamak xo'b, Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p*» misralari qaysi doston muqaddimasidan olingan? J: «**Farhod va Shirin**»

157. Kim birinchi bo'lib Shirin haqida alohida doston yaratgan? J: **Nizomly**

158. Kimning fikricha, zamonasida Shirindan go'zalroq ayol bo'limgan? J: **Tabarlyning**

159. Navolydan oldin qaysi ijodkor «*Farhodnomma*» dostonini yozgan? J: **Orif Ardabeliy**

160. Farhodning muhabbat qanday muhabbat sanaladi? J: **Majozlydan ilohiyga, inson ishqidan Olloh ishqliga o'sib boruvchi muhabbat**

161. «*Demonkim, ko'ngli pok-u ham ko'zi pok, tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok*». Ushbu ta'rif qaysi asar qahramoniga tegishli? J: **Farhod**

162. «*Janubida muhabbat dardi zahir, Uzori uzra g'urbat gardi zohir*». Ushbu ta'rif kim tomonidan kimga aytildi? J: **Shirin tomonidan Farhod ta'ifi**

163. «*Farhod va Shirin*» qanday voqeа bilan boshlana di? J: **Chin hoqonining farzandsizligi va uning so'ngsiz Iztiroblari tasviri bilan**

164. «*Farhod va Shirin*» dostonining vazni?

J: **Hazaji musaddasi mahzuf**

165. «*Chu shirin joni erde, onsiz o'ldi, Dameklim o'ldi*

*ansiz, jonsiz o'ldi». Ushbu parchada kimning holati tasvirlangan? J: Mehinbonuning*

*166. Tikan kirsa kaftingga kiynasidin, Chiqarsam erdi kiprik ignasidin, ya'ni kaftingga tikan kirsa, uni kiprigim bilan olib fashiasam edi misralari kimning tilidan aytilgan?*

**J: Shirinning**

*167. Agar hajringda yuz yil g'uussakashmen, Agar vasling umidi bo'sa xushmen. Ushbu she'riy parcha kimning rutiyl holatini aks etirgan? J: Shirinning*

*168. «Xironing chog'i yo'ldosh o'lsam erdi, Sukuning chog'i qo'ldosh o'lsam erdi» misralari kimning tilidan aytilgan? J: Shirinning*

*169. «Oshiqlik, avvalo, or-nomusni mahkam ushla-moqdirki, bu bag'oyat mushkul ishdir. Oshiq ohi yetti qavat osmanning pardasini uchirganda ham yuzidagi pardasini ko'tarmaydi». Bu fikr qaysi baytda o'z ifodasini topgan?*

**J: Uchursa ohi yetti ko'k niqobin, Yuzdin ochmag'ay burqa – hijobin**

*170. Farhod va Xusravning munozarasi qaysi misralar bilan boshlanadi?*

**J: Dedi: qaydin sen, ey majnuni gumrah?**

*171. Farhod va Xusravning munozarasi qaysi misra bilan yakunlanadi?*

**J: Dedl: bu so'zlariningdin yaxshiroq qatl**

*172. Qaysi asar so'ngida «Ishq ta'rifida» degan maxsus bob bor? J: «Layli va Majnun»da*

**J: Layli so'zning ma'nosi? J: Tungl**

*174. Ishq dostonlari ichida eng mashhuri, ayni paytda eng dardlisi qaysi? J: «Layli va Majnun»*

175. Majnunning asl ismi nima? J: **Qays**

176. Olimlarning taxminlariga ko'ta Majnunning asl ismi? J: **Qays Ibn Mulavvah**

177. Navoiy qaysi asarida ishqni misni o'tinga aylan-tiruvchi kimyoga va jahonni yorituvchi oynaga o'xshatadi?

J: «**Layli va Majnun**»

178. Navoiy qaysi asarini shunday yakunlaydi: «*So'ng'in nechakim uzattim oxir, Yig'lay-yig'lay tugattim oxir*»? J: «**Layli va Majnun**»

179. Otasi Majnunni nima maqsadda Ka'ba ziyoratiga olib boradi? J: **Qays bu muqaddas dargohda dardiga shifo tilasa deb**

180. «*O'l ko'rsaki mayl etib nihoni, Ishq o'ti tasavvur aylab oni. Bo'lmay g'ofil dame g'am-u dard, Ulg'aylibon oni dard parvard*». Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida?

J: **Majnun haqida**

181. «*Demonki, meni tarabg'a xos et, Yoxud g'ami ishq-din xalos et! Dermenki, menga bu o'tni har dam, Afzun qil-u, qilma zarraye kam! Chek aynima ishq to'liyosin. Ur qalbima ishq kimiyo sin!*» ushbu parcha kimning nutqidan olingan? J: **Majnunning Ka'badagi ziyoratl nutqidan**

182. «*Dardini najotim et, ilohi, Yodini hayotim et, ilohil*» misralari qaysi qahramonga tegishli? J: **Majnunga**

183. «**Layli va Majnun**» qissasini kim birinchi bo'llib yaxlit bir dostoniga aylantirdi? J: **Nizomiy**

184. «**Layli va Majnun**» dostoni qanday boshlanadi?

J: **Tun va bo'ron tasviri bilan**

185. «**Layli va Majnun**» dostoniga nechta nazira bog'langan? J: 118 ta: 67 ta fors, 37 ta turkiy tilda

186. «Layli va Majnun» dostonida tasvirlangan ishq qanday ishq edi? J: **Tasavvufiy Ishq**

187. «Men xastani aylamakta mavjud, Ne erdi qazog'a maqsud?» Ushbu so'z qaysi qahramonning nutqi?

J: **Majnun**

188. «Hukm ayladi mulki ishq shohi, Kim dahrni moh to bamohi» misralarida kim ta'riflangan? J: **Majnun**

189. Qaysi asar qahramoni bolaligida: «Atrofdin el kelib talosha, Ul nodirani qilib tamosha. Ba'zi yuzidin topib tahayyur, Ba'zi so'zidin qilib tafakkur», – deya ta'riflanadi?

J: **Majnun**

190. «O't ko'rsaki mayl elib nihoni, Ishq o'ti tasavvur aylab oni. Bo'lmay g'ofil dame g'am-u dard, Ulg'aytibon oni dard parvard», deya ta'riflangan qahramon kim? J: **Majnun**

191. «Ey ishq, g'arib komyosen, Bal oyinayi jahon-namosen». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

J: **«Layli va Majnun»**

192. Ko'nglum g'am iia to'q ayla, yo Rab! Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab! Ushbu she'riy parcha kimning ruhiy holatini aks ettirgan? J: **Majnunning**

193. Ishq o'ti ko'nguini kuydurur chog', Manig'a su quysalar bo'lur yog'. Ushbu she'riy parcha kimning ruhiy holatini aks ettirgan? J: **Majnunning**

194. Kimning nomini tarixchilar 420 – 438-yillarda podsholik qilgan Eronning sosoniy hukmdori Varaxran V bilan bog'laydilar? J: **Bahrom**

195. Navoiy «Sab'ayi sayyor»ga turkona ruh berdi. Bu nimada ko'rindi? J: **Shahrisabz, Xorazm haqida maxsus hikoyalar kiritadi**

196. Navoiy o'zidan oldingi ustoz xamsanavislarga «Sab'ayi sayyor»da qanday e'tiroz bildiradi?

J: Uni ishqdan xoll tasvirlaganliklari, afsona aytish uchun Bahromga mallkalardan boshqa qissaxon topilmaydими, ular dardsiz va nodon kishining sarguzashtini ko'rsatishni maqsad qilib olganlar

197. Navoiyning «Sab'ayi sayyor» qissasini ishlashdagi eng muhim xizmati qaysi? J: Bahrom obrazin takomillashtirdi, u bilan bog'liq voqealarini mustahkam manтиq ipliga tizdi, qissa voqealarini yurtimiz tarixi bilan bog'lashga harakat qildi

198. «Ishq ila shohliq muvafiq emas, ishq lofida shoh sodiq emas». Ushbu parcha qaysi asardan olingan va kim haqida? J: «Sab'ayi sayyor»da Bahrom haqida

199. Bahrom shanba kuni qanday rangdagi qasrda qaysi malika huzurida qaysi hikoyani tinglaydi?

J: Qora rangli qasrda hind malikasi huzurida sahlylikning betimsol namunasini ko'rsatgan Axiy haqidagi hikoyani tinglaydi

200. Bahrom yakshanba kuni qanday rangdagi qasrda qaysi malika huzurida qaysi hikoyani tinglaydi? J: Zarnigor rangli qasrda Rum malikasi huzurida rumlik musofirdan zargar Zayd Zahhab haqidagi hikoyani tinglaydi

201. Bahrom dushanba kuni qanday rangdagi qasrda kimdan qaysi hikoyani tinglaydi?

J: Yashil rangli qasrda shahrisabzlik musofirdan Sa'd haqidagi hikoyani tinglaydi

202. Bahrom qaysi kuni kimdan Dilorom haqidagi hikoyani tinglaydi?

**J: Juma kuni yettinchi iqlimdan kelgan musofirdan**

**203. «Xizr monand sabzadin rangi, Sabzasi, suvi ko'zgusi zangi» misralarida qaysi shahar ta'riflangan?**

**J: Shahrисабз**

**204. Sa'd tushida ikki qushni ko'radi. Ular Sa'dning ke-lajagini qanday bashorat qiladi? J: Biri Sa'dning go'zal pari qlzga uylanishini, ikkinchisi uning dev qo'lida ikki oyog'iqa zanjir solingan holda asir tushishini aytadi**

**205. Kim: «Seni dev qilg'usidir asir, Solib ikki ayog'inga zanjir». «Xamsa»dagi qaysi timsol qismati shunday belgilangan? J: Sa'd**

**206. Nechanchi hikoyatda Bahrom Shahrisabzda ro'y bergan voqeani tinglaydi? J: Uchinchi hikoyada**

**207. «Yo'q erdi mayl qilsa har so'zga, Tangriga e'tiroz-din o'zga» (Navoiy) deb ta'riflangan sabr qilishni bilmaydigan, shukronalikdan uzoq bo'lgan timsolni toping.**

**J: Mudbir**

**208. Ranglar, raqamlar va burjlarga alohida e'libor berilgan asarni ko'rsating. J: «Sab'ayi sayyor»**

**209. Bahrom obrazini birinchi bo'llib kim o'z asarida tas-virlagan? J: Flrdavslı «Shohnomə»**

**210. «Sab'ayi sayyor»da Bahrom dushanba kuni qaysi qasrda hikoya tinglaydi? J: Yashil qasrda**

**211. Kim: «Nasibing sening pari bo'lmish, Ki yuzi mehri xovari bo'lmish». «Xamsa»dagi qaysi timsol qismati shunday belgilangan? J: Sa'd**

**212. «Sab'ayi sayyor»dagi qal'ani qo'riqlaydigan Qat-ron nomli dev qaysi shahardan edi?**

**J: Shahrisabzdan**

213. Ismining nomi «*baxtsiz*» ma'nosini bildiruvchi adabiy qahramonni toping. J: **Mudbir**

214. «... ozodayi humoyun fol, *Elga maqbul etib ani iqbot*». Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida? J: **Muqbil**

215. «*Sab'ayi sayyor*»da Bahrom qasriga kirib kelgan ikki sayyohdan qaysi biri dengizda sayohat qiluvchi edi?

J: **Mudbir**

216. «*Sab'ayi sayyor*»da Bahrom qasriga kirib kelgan ikki sayyohdan qaysi biri sahroda sayohat qilar edi?

J: **Muqbil**

217. «Dedi: «Tojirmen-u tijorat ishim, Qolmadi bu safarda hech kishim» misralari kimning nutqidan olingan?

J: **Mudbirning**

218. Yolg'on gapirgani uchun shishib o'lgan qahramon nomini toping. J: **Mudbir**

219. Navoiyning adolatli hukmdor, odil podshoh haqidagi orzulari uning qaysi asarida aks elgan?

J: **«Saddi Iskandariy»**

220. «*Sab'ayi sayyor*» qaysi vaznda yozilgan? J: **Hafif**

221. «*Sab'ayi sayyor*»ning hajmi? J: **38 bob, 5000 bayt**

222. Qaysi doston Navoiyning ijtimoiy-siyosiy, falsofiy-axloqiy qarashlarini ma'lum darajada yakunlaydi?

J: **«Saddi Iskandariy»**

223. Navoly Iskandarning qaysi jihatiga diqqat qildi?

J: Iskandar donishmandligini saqlagan holda uning yoniga insonparvarligini, adolat kurashchisi ham ekanligini qa'shdı

224. «*Saddi Iskandariy*»da Rum mulki Eronga har yili qancha xiroj to'lar edi?

J: Tuxum shaklidagi ming oltin xiroj

225. Navoiyning 7215 bayt (14430 misra, 89 bobdan) iborat dostonini toping. J: «Saddi Iskandariy»

226. Shohga so'ngak olib kelgan darvesh obrazi qaysi asarda mavjud? J: «Saddi Iskandariy»

227. «Shahe kim anga adl bonyod o'lur, Natija bukim, mulki obod o'lur» misralari qaysi asardan olingan?

J: «Saddi Iskandariy»

### HUSAYNIY (1438 – 1506)

1. Navoiyning Husayn Boyqaro haqidagi fikrlari: «Ham turkiy devon tadviniga mayl qildilar va dilpazir abyot va benazir g'azaliyot tarib berdilar»

2. Husayniyning alohida tarixiy, adabiy, ma'rifiy ahamiyatga ega asarini toping. J: «Risola»

3. Husayn Boyqaro «Risola» asarida Navoiy haqida shunday yozadi: «...turk tilining o'lgan jasadig'a Mashih anfosi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlarga turkiy oyin alfov tor-u pudidan to'qlig'on hulla va harir kiyurdidi»

4. Jomiy haqida: «G'azallari a'lami (olimi) va afzali, fazoil (fazilatlar) daryosining duri pokta»

5. Jomiy haqida: «G'azallari sho'rangiz (olamga g'avg'o soluvchi, ya'ni kishida kuchli his va hayajon uyg'otuvchi), baytlari lutfomiz (lutfga boy)»

6. G'azallaridan namunalar:

– «Bo'ldi gul vaqtisi-yu, men dard-u g'amida mubtalo,

Ishq o'tidin loladek bag'rimda yuz dog'i balo»;

– «Furqatingdin xasta ko'nglum qatra-qatra qon erur,

*Oolloh-olloh, bu ne hajni behad-u payon erur?»*

- «*Ey ko'ngul, ul dilraboning o'zga yori bor emish,  
Vah, sanga dushman bo'lib, ul o'zgalarga yor emish»;*
- «*G'unchani og'zing desam, naylay aning guitari yo'q,  
Sarvni qadding desam, netay aning raftori yo'q»;*
- «*Chun junun zanjirig'a bo'ldum giriftor, ey ko'ngul,  
Bo'lg'asen farsuda jonimdin xabardor, ey ko'ngul»;*
- «*Necha kuygay hajr ila farsuda jonim dam-badam,  
Hajridin ko'nglumga yuz g'am, g'am uza dard-u alam».*
- «*Hach muslimong'a, nigoro, dog'i hijron bo'lmasun  
Kim, visolingdin judo bo'lsa, anga jon bo'lmasun»;*
- «*Ey sabo, bergil xabar, sarvi ravonim keldimu?  
Jon sendin kelur, ruhi ravonim keldimu?»*
- «*Bir quyosh hajrida chektim o'llug' afg'on bu kecha,  
Kuymakim dudidin o'ldi charx giryon bu kecha»;*
- «*Vahki, g'am dashtida itgan notavon ko'nglum qani,  
Tarki jonim aylagan bexonomon ko'nglum qani?»*

7. Husayniyning Alisher Navoiy g'azaliga muxammasi:  
*La'iljonbaxshingdin ayru abi hayvonni netay?  
Har dam ar yuz jon berur, jononasiz jonni netay?  
Gar emas manzur yuzing, hur-u g'ilmonni netay?  
Gulshani ko'yungdin ayru bog'i rizvonni netay?  
Boshima gar gul sochar, sensiz gutafshonni netay?*

### MUHAMMAD SOLIH (1455 – 1534)

Turkiy tildagi birinchi voqeiy larixiy doston muallifi sitatida e'tirof etiladi.

1. Muhammad Solih shoirlikdan tashqari yana qanday san'atlardan yaxshigina xabardor bo'lgan?

**J: Naqqoshlik, xattotlik**

2. «Moro dar in diyor tuyi dilnavozu bas, Dorem az tu go'shai chashm niyozu bas» misralarining muallifini toping.

**J: Nur Saidbek**

3. Muhammad Solihning bobosi kim bo'lgan?

**J: Bobosi Amir Shohmallik Mirzo Ulug'bekning tarbiyachisi bo'lgan**

4. 1467-yilda Dashti Qipchoqda «qozoqlikda» yurgan Husayn Boyqaro Xorazmni zabit etadi. Ushbu gapda qo'llangan «qozoqlik» so'zining ma'nosini toping.

**J: Taxt egallash uchun kurashish, qoidaga bo'yusunmay, erkin yashash**

5. Nur Saidbek Husayn Boyqarodan yengilib, Ixtiyariddin qaf'asiga qamalganda shohdan uning gunohini kim o'rta ga tushib so'rab oladi?

**J: Jomly**

6. Muhammad Solih kimning qo'lida tahsil olgan?

**J: Jomiy**

7. Muhammad Solih Shayboniy huzuriga qachon bora-di? **J: 1499-yilda**

8. Shayboniyxon tomonidan «amir ul-umaro», «malik ush-shuaro» deb a'lom qilingan shoir kim?

**J: Muhammad Solih**

9. Muhammad Solih qaysi shaharda hokim bo'lgan?

**J: Niso shahrida**

10. Muhammad Solihning qaysi o'g'liga Shayboniyxon alohida mehr bilan qaragan va Niso shahrini unga hadya etgan?

**J: Mirza Ulug'bek nomli o'g'liga**

11. «Tarixi Rashidly» asari muallifi Muhammad Solihning qaysi o'g'li iste'dodli shoir bo'lganini aytadi?

J: Mirzo Ulug'bek nomli o'g'lini

12. «Ey, xush ul kuntarki, ko'nglum vaslidin xushhal edi, Axtarin farxundai baxtim humoyunfol edi», misralarining muallifini toping.

J: Muhammad Solihning Mirzo Ulug'bek nomli o'g'li

13. Kim Muhammad Solihning devon tartib berganligini ma'lum qiladi?

J: Tarixchi Mirzo Haydar

14. «Muhammad Solih ismi munosabati bilan Solih taxallus qilur. Nur Saidbek o'g'li turur. O'zi muloyim yigitdur. Ta'bida xeyli choshni (maza) bor. Xalda ham qobiliyati ko'pdur», deb kim ta'riflagan? J: A.Navoiy

15. Shayboniyxon haqida asar yozgan mualliflarni toping. J: Mulla Shodiy, Kamoliddin Binoiy, Ro'zbehxon, Po'lkan shoir

16. «Fathnomayi xoniy» asarining muallifini toping.

J: Mulla Shodiy

17. XX asrda Shayboniy haqida doston yozgan shoir kim? J: Po'lkan shoir

18. «Mehmonnomayi Buxoro» asarining muallifi?

J: Ro'zbehxon

20. «Shayboniy nomayi Binoiy» asarining muallifi?

J: Kamoliddin Binoiy

21. Shayboniyxonga bag'ishlab yozilgan qaysi asarlar fors tilida? J: «Fathnomayi xoniy», «Mehmonnomayi Buxoro», «Shayboniy nomayi Binoiy»

22. O'zbek adabiyoti tarixida aniq va real tarixiy

voqealar tasviriga bag'ishlangan birinchi jangnomani toping.

J: **Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asari**

23. «Shayboniynoma» asari O'zbekistonda qachon nashr etilgan? J: **1961, 1989-yillarda**

24. «Shayboniynoma»da qaysi yillarda yuz borgan tarixiy hodisalar yoritiladi?

J: **Shayboniyxonning temuriylarga qarshi olib borgan kurashlari, ularni yengib, taxt tepasiga kelish voqealari, ya'nı 1499 – 1505-yillardagi voqealar**

25. Shayboniyxon haqida yaratilgan qaysi asarni German Vamberi 1885-yilda nemischaga tarjima qilgan?

J: **«Shayboniynoma»**

26. «Shayboniynoma»ning qaysi nusxasi Venada saqlanadi? J: **Shoir tirikligida 1510-yilda Qosim kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasi**

27. «Shayboniynoma» necha misradan iborat?

J: **9000 misraga yaqin**

28. «Shayboniynoma» necha bobdan iborat?

J: **76 bob**

29. «Shayboniynoma» qanday boshlanadi?

J: **An'anaga ko'ra hamd, munojot, na't va so'z ta'rifi bilan**

30. Muhammad Solih «Shayboniynoma»ning nechan-chi bobida o'z taqdiri haqida yozadi? J: **15-bobda**

31. «Shayboniynoma»ning nechanchi bobida «Kitob nazmining sababi» beriladi? J: **15-bobda**

32. «Shayboniynoma»ning necha bobi Shayboniyxonning harbiy yurishlari tasviriga bag'ishlangan? J: **60 bobi**

33. Shayboniyxonga «El – saning, mulk – saning, shahr – saning, Man – saning, lulf – saning, qahr – saning», deb maktub bitgan kim?

J: **Samarqand shahri hokimi onasi Zuhrabegim**

34. «La'nat ul nav' onag'akim, ul Nafsi uchun o'luma berdi o'g'ul. Kimki xotun so'zig'a solsa qulqoq, Joyi ul borki, bo'lg'ay andoq» misralari kim haqida? J: **Samarqand shahrining hokimi onasi Zuhrabegim haqida**

35. Shayboniyxon xalq orasida katta nufuzga ega bo'lgan qaysi eshonni Samarqand shahridan chiqarib yuboradi? J: **Xoja Yahyoni**

36. «Tangri ul qavmni andoq qildi Kim, alar boshig'a bu kun keldi», deganda Muhammad Solih kimlarni nazarda lutgan? J: **Babur boshchiligidagi Samarqandda qamalda qolgan xalqni.**

37. «Shoh ildurki, esa el g'amini, Doim o'ziga desa el g'amini, Istamay o'zining oroyishini, Istagay xalqning osoyishini. Nafs uchun aylamasa sultonlig', Qilmasa ahli havodek xonlig'». Ushbu misralar muallifini toping.

J: **Muhammad Solih**

38. «Shayboniy nomasi»ning tili qanday?

J: **Sodda, dasht o'zbeklari diliiga moslashtirilgan, ko'p qavatli obraz va murakkab ifodalar chetlab o'tilgan**

39. «Shayboniy nomasi»dan parchalar:

So'z ta'rifida:

«So'z bila bo'ldi bu olam paydo,

So'z bila bo'ldi, bu odam paydo.

So'z bila olam eshiki ochilur,

*So'z bila muncha javohir sochilur».*

Shayboniyxon ta'rif:

«Xon o'zi oshiq erur, orif ham,  
Borchha so'z jonibidin voqif ham.  
G'aybdin oti Muhammad bo'ldi,  
Qobili davlati sarmad bo'ldi.  
Nafsi o'ziga dushman bildi,  
Dushman o'llurmokini fan bildi».

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483 – 1530)

1. Umarshayx Mirzoning o'g'illari ismi? J: **Zahiriddin Muhammad Bobur, Jahongir Mirza, Nasir Mirzo**
2. Umarshayx Mirzoning qizlari ismi?  
J: **Xonzodabegim, Mehrbonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor Sultonbegim, Ruqya Sultonbegim**
3. Bobur qaysi beklar yordamida hokimiyatni idora qilgan? J: **Shayx Mazidbek, Boboquli Boboalibek, Qosimbek qavchin**
4. Bobur necha yoshida birinchi marta Samarcandni egallaydi? J: **15 yoshida**
5. Boburga xiyonat qilgan beklarni toping.  
J: **Sulton Ahmad Tanbal, Uzun Hasan**
6. Bobur necha yildan so'ng Andijonga qaytadi? J: **Ikki yildan so'ng, ya'ni 1499-yilda**
7. Bobur qachondan she'r mashq qila boshladi? J: **1500-yildan**
8. Boburning dastlabki she'lari qaysi tilda edi? J: **Fors tilida**

9. Bobur qayerda Shayboniyxon bilan yuzma-yuz bo'ladi? J: **Samarqandning Ohanin darvozasi yonida**
10. Bobur necha yoshida 240 kishi bilari yetti mingga yaqin qo'shinga ega bo'lgan tajribali podshoh Shayboniyxon qo'lidan Samarcandni tortib oladi? J: **19 yoshida**
11. Boburning tog'alari ismi?
- J: **Sulton Mahmudxon va Sultan Ahmadxon**
12. Bobur qachon Kubuini egallaydi?
- J: **1503-yilning sentabrida**
13. Boburning Hindistonni egallahash harakati qachon dan boshlandi? J: **1507-yil yanvaridan**
14. Bobur Hindistonni qachon olishga muvaffaq bo'ldi?
- J: **1526-yilda**
15. Bobur qachon dushmanlari tomonidan zaharlana di? J: **1526-yil 21-dekabrda**
16. Bobur qachon vafot etdi? J: **1530-yil 26-dekabrda**
17. Boburning soliq ishtalarini tartibga soluvchi asari qaysi? J: **«Mubayyin»**
18. Boburning «Mubayyin» asari qaysi yo'lda bitilgan?
- J: **She'rly yo'lda**
19. Boburning aruz vazni haqidagi risolasi nomini taping. J: **«Muxtasar» (1523 – 1525-yillarda yozilgan)**
20. Boburning 1921-yilda yozilgan asari qaysi?
- J: **«Mubayyin»**
21. Boburning saqlanib qolgan she'rlari soni qancha?
- J: **400 dan ortiq**
22. Boburning Devonida nechta g'azal bor? J: **119 ta**
23. Boburning Devonida nechta ruboiy bor? J: **231 ta**
24. Bobur kimning asarini tarjima qilgan?

J: Xo'ja Ubaydullo Ahrorning «Voldiya» asarini

25. Bobur 20 yoshida qaysi yozuvni kashf etgan?

J: Xattil Boburiy

26. Boburning topilmagan asari?

J: «Harb Ishix», «Musiqa Ilmi»

27. «Kabul devoni» qachon tuzilgan? J: 1519-yilda

28. «Hind devoni» qachon tuzilgan?

J: 1528 – 1529-yillarda

29. Qaysi devon topilmagan? J: «Kabul devoni»

30. G'azallaridan namunalar:

– «Xazon yaproqi yanglig' gul yuzing hajrida  
sarg'ardim,

Ko'rub, rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim»

– «Sen, ey gul, qo'yamading sarkashligingni  
sarvdek hargiz,

Ayog'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim»

– «G'urbatda ul oy hajri meni pir qilibtur.

Hijron bila g'urbat menga ta'sir qilibtur»

– «Sochining savdosи tushti boshima boshdin yana,

Tiyra bo'ldi ro'zg'orim ul qaro qoshtin yana»

– «G'amming yo'q jon agar bersam g'ammingda,

O'zungni muncha beparva qilibsen»

– «Bahor ayyomidir dag'i yigitlikning avonidur,

Ketur, soqiy, sharobi nobkim ishrat zamonidur».

– «O'zni ko'ngul, aysh bilan tutmoq kerak,

Bizni unutqonni unutmoq kerak».

– «O'lum uyqusig'a borib jahondin ba'lдум osuda,

Meni istasangiz, ey do'stilar, ko'rgaysiz uyquda».

– «Jonimdin o'zga yoni vafodor topmadim.

*Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim».*

– «*Charxning men ko'magan jabr-u jafosi qoldimu?!*

*Xasta ko'nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?!*»

– «*Keltursa yuz baloni o'shal bevalo manga,*

*Kelsun agar yuzumni evursam, balo manga».*

– «*Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquluq*

*baxtimni uyg'otsam,*

*Kechalar tori mo'yidek belig'a chirmashib yotsam».*

– «*Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,*

*Shikasta ko'ngluma emish qaro balo soching».*

– «*Baloyi ishqiki, har dam manga jafoyedur,*

*Bu ishqdin kecha olmon ajab baloyedum».*

– «*Sening ishqingda, ey nomehribon,*

*bexonumon bo'ldim,*

*Demon bexonumon, ovvorayi ikki jahon bo'ldim».*

– «*G'ofil o'lma, ey soqly, gul chog'in g'animat tut!*

*Vaqti aysh erur baqiy ol chag'ir, ketur, bat tut!»*

– «*Gul jamolin yopqon ul gulning iki rayhonidur,*

*G'uncha sinr ochqon ul ikki labi xandonidur».*

– «*Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,*

*Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldu».*

– «*Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek*

*tah-batah qondur,*

*Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur».*

– «*Sendek manga bir yori jafokor topilmas,*

*Mendek sanga bir zori vafodor topilmas».*

– «*Kim ko'rubbur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'*?

*Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'!*»

31. Boburning qaysi g'azalida tazod va tanosub

san'allidan foydalanilgan? J: «Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'ardim, Ko'rub rahm aylagli, ey lolarux, bu chehrayl zardim...»

32. «Sendin bu qadar qoldi yiroq, o'ljadi Bobur, Ma'zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur» baytida qanday badiiy san'at bor? J: **Husni ta'lil**

33. Boburning qaysi g'azali raddi matla' san'atiga asoslangan? J: «**Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana**»

34. Bobur «Gul jamolin yopqon ul gulning ikki rayhonidur», deb boshlanadigan g'azalida yorning qaysi a'zolarini tavsif etadi? J: **Yuz, lab, ikki o'rilm sochni**

35. Bobur g'azallarining ka'pchiligi necha baytdan iborat? J: **Besh-olti baytdan**

36. Qaysi shoir rubolyning ijtimoliy-falsafiy tabiatiga maishiy mazmun kiritdi? J: **Bobur**

37. Bobur bir rubolysida «*Bu ikkisi tuyassar bo'masa olamda, Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi*», deydi. Bu ikkisi deganda nima nazarda tutilgan?

J: **Ko'ngli tilagan murodiga yetish yoki barcha muroidlarni tark etish**

38. Ruboilyaridan namunalar:

– «*Yo qahr-u g'azab bila meni tufroq qil,  
Yo bahri inoyatingda mustag'roq qil.*

*Yo rab, sangadur yuzum qaro yo oq qil,  
Har nav'i sening rizong erur, andoq qil*».

– «*G'urbat tig'l yopqon ruxi zardimnimu dey?  
Yo hajr chiqarg'on ohi sardimnimu dey?  
Holing nedurur bilurmusen dardimni,*

*Holingni so'raymu, yo'qsa dardimnimu dey?»*

- «*Har kimki valo qilsa, valo topqusidur!»*
- «*Azm ayla sabo, et guli xandonimg'a!».*
- «*Raftori-yu qaddig'a raxonim sadqa!».*
- «*Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen!».*
- «*Davron meni o'tkardi sar-u somondin!».*
- «*Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi!».*
- «*Hijron qafasida Jon qushi ram qiladun!».*
- «*Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladun!».*
- «*Jonimda mening hayoti joni sensen!».*
- «*Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi!».*
- «*Eykim, yoraliq jismima marham sensen!».*
- «*Dushmanniki, bu dahr zabardast qilun!».*
- «*Husn ahlig'a zor-u mubtalo ka'z ermish!».*
- «*Ishqingda ko'ngul xarobdur, men ne qilay?»*
- «*Hajr aro orom-u qaronim yo'qlur!».*
- «*Sen gulsen-u, men haqir bulbuldurmen!».*
- «*Ahbab, yig'ilmoqni farog'at tulungiz!».*
- «*Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtun!».*
- «*Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobum!».*
- «*Boburni burun mahram asror etting!».*
- «*Ey yor, sening vaslingga etmak mushkil!».*
- «*G'urban lug'i yopqon ruxi zardimnimu dey?»*
- «*Shohim sanga ma'lum emastur, ne qilay!».*

### 39. Tuyuqlaridan namunalar:

- «*Vasildin so'z derga yo'q yoro manga,  
Hajr aro rahm aylagil, yoro, manga!».* «*Yoro» so'zining  
ma'nolari: mador, quvvat; ey yor; yara, jarchat; yordam ber.*
- «*Qadimni firoq mehnati yo qildi,*

*Ka'nglum g'am-u anduh o'tig'a yaqildi*. «Yaqildi» so'zining ma'nolari: yoy qildi; yoqildi; yoki qildi.

40. Fard:

– *Bormi ekin hech nima olamda hijrondin yamon,*

*Har nekim ondin yamonroqdur, budur ondin yamon.*

41. «Boburnoma» dastlab qanday nomlar bilan atalgan? J: «**Vaqoe'**» (Voqealar), «**Voqeotl Boburly**», «**Voqeandoma**», «**Tuzuki Boburly**», «**Boburiya**»

42. «Boburnoma» qachondan boshqa tillarga tarjima qilina boshlagan? J: **XVI asrdan**

43. «Boburnoma» qachon fors tiliga o'girilgan?

J: **1586-yilda**

44. «Boburnoma» Yevropaga qachon kirib keldi?

J: **XVIII asrning boshida**

45. «*Bizni ehtimomimiz ul sorilar bormoqqa behad va beg'oyatdir. Hindiston ishlari ham bir nav' somon topib keladi... Ul viloyatning latofatlarini kishi nechuk unutqay. Bu fursatta bir qovun keltirib erdilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi, tamom yig'lab edim*». Bobur bu maktubini kimga yozgan?

J: **Andijonga, Xojakalonga**

46. Boburga necha yoshida Navoiy maktub jo'natgan?

J: **15 yoshida**

47. Bobur «*Yana musiqada yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur*», deb kimga ta'rif bergen? J: **Navoiyga**

48. Bobur «*O'g'ul va qiz va ahli ayoli yo'q, olamni favre fard va jarida (tanhollikda) o'tkardi*», deb kimga ta'rif bergen? J: **Navoiyga**

49. Bobur «Ahli fəzl va ahli hunarg'a uncha murabbiy va muvaqqiy (kuchli horriy) ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay», deb kimga ta'rif bergen? J: Navoiyga

50. Bobur «Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay», deb kimga ta'rif bergen? J: Navoiyga

51. Bobur Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida nechta ruboiy vaznida xato qilganini ta'kidlaydi?

J: 24 ruboly vaznida 4 vaznda xato qilganini

52. «Boburnoma»da Bobur Hindistonni uch kishi egal-lab, saltanat barpo qilganini yozadi. Bular kimlar edi?

J: Sulton Mahmud G'ozly (G'aznaviy), Sulton Shahobiddin G'urly va o'zi

53. Hindiston tarixini yoritishda «Boburnoma» kimning qaysi asaridan keyingi muhim manba hisoblanadi?

J: Beruniyning «Hindiston» asaridan keyin

54. Andijon haqida:

– «Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar».

– «Oshig'i vofir, mevasi farovan, qovun va uzumi yaxshi bo'lur».

– «Eli turkdur. Shahr va bozorida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur».

55. Samarqand haqida:

– «Hech yog'iy (dushman) qahr va g'alaba ila munga dast topmog'on uchun baldayı mahfuza (qo'rg'on shahar) derlar».

– «Samarqand hazrali amirul mo'minin Usmon zamoni-da musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam Ibn Abbas

*anda borg'ondir. Qabri Ohanin darvozasining toshidadir. Holo Mazori Shohg'a mashhurdim».*

– «*Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Ma'g'ul va turk ulusi Semizkand (boy shahar) deriar».*

– «*Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur».*

– «*Qo'rg'onini fasilning ustidin buyurdimkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqdi».*

– «*Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solib-tur, to'rt oshyonliq (qavallik), Ko'ksaroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur»*

**56. Kesh haqida:**

– «*Samarqand bila Kesh orasida bir tog' tushubtur. Imak doboni derlar, sangtaroshlik qilur toshlarni tamom bu tog'din eltalaran»*

**57. Husayn Boyqaro haqida:**

– *Valodati va nasabi: Valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hirida Shohruxmirzo zamonida edi. Sultan Husayn mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur... Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasli. Sultan Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo'lur edi. Sultan Husayn mirzo karimuttarafayn (ikki taraf-lama ulug', ya'ni ham ota, ham ona tomonidan temuriyoda) edi...*

– *Shakl-u shamoyili: qlyiq ko'zluk, sher andom bo'yluq kishi edi. Belidin quyi inchka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq sogolliq bo'lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimni kiyar edi.*

– Axloq va alvori: ...*Mafosil zahmati tufayli namoz qila olmas edi, ro'za ham lutmas edi. Harrof va xushxulq kishi edi. Ba'zi muomalatta sharni bisyor rioyat qilur edi.*

58. Alisher Navoiy haqida:

– *Bilmon, ne jarima bila Sultan Abusaid mirzo Hiridan ixroj (surgun) qildi. Samarqandg'a bordi. Necha yilkim, samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy (tarbiyachi) va muqavviysi (madadkor) edi. Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibturdar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas*

59. «Boburnoma»da sangtaroshlik (tosh yo'nuvchilik) qiladiganlar toshlarini shu tog'dan keltirar edilar deya qaysi tog'ga ta'rif berilgan? J: **Itmak dovoni**

60. «Boburnoma»da tilga olingen Ko'hak suyi qaysi daryoning qadimgi nomi? J: **Zarafshon**

61. Mo'g'ullar tomonidan «boy shahar» deb nomlangan shahar qaysi? J: **Samarqand**

62. «Boburnoma»dagi «*Shujo va mardona kishi edi... Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, ... mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay*» degan ta'rif kim haqida?

J: **Husayn Boyqaro**

63. «Onasi Finuzabegim edi. Temurbekning nabirasi». Ushbu ta'rif kimga tegishli? J: **Husayn Boyqaro**

64. «*Oshlig'i vosir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur...*» – deya ta'riflangan shahar qaysi?

J: **Andijon**

65. «*Qo'rg'onini fasilning ustidin buyurdimkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqdi*». Ushbu ta'rif qaysi shahar haqida? J: **Samarqand haqida**

66. «...rub'i maskunda andoq shahr yo'qtur va Sultan Husayn mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin va takallufidin uning zeb va ziynati birga o'n, balki yigirma faraqqiy qilib edi, ko'rmaq orzusi xili bor edi». Ushbu parchada qaysi shahar haqida gap ketgan? J: Hirot

67. Boburning «Bobumoma»dagi ma'lumotlariga ko'ra Alisher Navoiyni Hirotdan badarg'a qilgan hukmdor nomini toping. J: Abusaid mlrzo

68. «Boburnoma»dan keitirilgan ushbu parchada qaysi shaharning jug'rofiy joylashishi ko'rsatilgan? «Sharqi Farg'ona va Koshg'ar, g'arbi Buxora va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruhiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz». J: Samarqand

69. Mumtoz shoirlardan qaysi birining rubciylari biografik xarakterga ega? J: Bobur

70. Taqdir ishidan afsuslanish, Hind yeridan dilgir bo'llib zerikanlik va ona yurtidan uzoqlashib, taqdir (xato) qilganligidan o'kinish g'oyasi Boburning qaysi g'azalida aks etgan? J: «G'urbatda ul oy hajr...»

71. Boburning «Charxning men ko'rmanagan jabr-u jafosi qoldimu?!

Xasta ko'nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?!» deb boshlanuvchi g'azalida qanday fikr ifoda qilingan?

J: Dunyo chigalliklari, taqdir murakkablliklardan nolish

72. «Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to't oshyonliq, mashhur va bisyor oliv imorattur...» – deya ta'riflangan imorat qaysi? J: Ko'ksaroy

73. «Samarqandning g'arbi tarafi yigirma besh yig'och

*yo'ldur. Mevasi ko'b bo'lur va xo'b bo'lur, qovuni bisyor yax-shi bo'lum*, – deya ta'riflangan shahar qaysi? J: **Buxoro**

74. «*Samarqandning janubidadur, to'qquz yig'och yo'ldur*», – deya ta'riflangan joy... J: **Kesh viloyati**

75. Samarqandda Navoiyga «*murabbiy va muqavviy (madadkor)*» bo'lgan shaxs kim edi? J: **Ahmad Hojibek**

76. Tasvirda Alisherbekning sa'y va ehtimomi bila mun-daq mashhur va ma'ruf bo'lgan shaxslar kimlar edi?

J: **Ustoz Behzod va Shah Muzaffar**

77. Sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyat bilan muncha taraqqiy va shuhrat qildilar deya ta'riflangan shaxslar kimlar? J: **Ustoz Qulmuhammad, Shayxi Noyi va Husayn Udly**

78. Xadichabeginning Boburga qanday qarindoshligi bor edi? J: **Ammasi edi**

79. Alisher Navoiyning yashagan uylari qanday nomlanardi? J: «**Unslya**» – chin do'stlik

80. Navoiy qurdigan masjidi jome'nинг nomini toping.

J: «**Qudsiya**» – poklli, muqaddaslik

81. Navoiy qurdigan xonaqohlar nomini toping.

J: «**Xalosiya**» va «**Ixlosiya**»

82. Hindistonda yashaydigan qaysi hayvonga «azimul jussa va ziyrak joniwordur. Har ne desalar, bilur va har ne buyursalar, qilur. Bahosi ulug'lug'iga yarashadur, qarilab sotarlar. Har necha ulug'roq – bahosi ko'proq...» deya ta'rif berilgan? J: **Filga**

## **POSHSHOXO'JA ABDULVAHOBXOJA O'G'LIXOJA (1480 – 1547)**

1. Tashkentlik mashhur avliyo Zangi Ota avlodlaridan bo'lgan ijodkorni toping. J: **Xoja**
2. Xojaning o'g'li Hasanxoja Nisoriy qalamiga mansub tazkirani toping. J: «**Muzakkirli ahbob**»
3. «Do'stlar yodnomasi» ma'nosini bildiruvchi tazkira nomini toping. J: «**Muzakkirli ahbob**»
4. Xojaning to'liq ismi?  
J: **Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxoja**
5. Kim qaysi asarida Xojaning ota-bobolari haqida batatsil ma'lumot beradi? J: **Xojaning o'g'li Hasanxoja Nisoriy «Muzakkirli ahbob» tazklasida**
6. Islom dinidagi eng kalta mansab, unvon qaysi?  
J: **Shayxulislom**
7. Xoja dastlab qaysi temuriyzoda xizmatiga kiradi?  
J: **Husayn Boyqaroning o'g'lli Muhammad Muhsin Mirzo xizmatiga**
8. Kim Xojani Niso shahriga tegishli Durun viloyatiga hokim etib tayinlaydi? J: **Shaybonlyxon**
9. Xoja qachon Hirot shahrining shayxulislomi va Abdulla Ansoriy maqbarasi shayxligiga tayinlanadi?  
J: **1529-yilda Ubaydullaxon hukmronligida**
10. «*Shoh va gado*» asarining muallifini toping.  
J: **Hilolly**
11. «*Garchi avval sadr aylab, bizni badnom ettilar, Lutf etib, oxir Hirida shayxulislom ettilar*» misralarining muallifini toping. J: **Xoja**

12. Xoja qaysi shaharlarda shayxulislomlik qilgan?

J: **Hirot va Balxda**

13. Xoja qaysi silsilaning ko'zga ko'ringan vakili edi?

J: «**Xojagon» silsilasining**

14. Xoja haqida fikr yuritib, uni «*shahbozi balandparvoz*» (baland uchuvchi lochin) deb ta'riflagan kim?

J: **Xojagi Kosoniy**

15. «*Maxdumi a'zam*» nomi bilan shuhrat qozongan shaxs? J: **Xojagi Kosoniy**

16. Kim Xojaning turkcha va forscha devon tartib ber-gani haqida ma'lumot beradi?

J: **Xojaning o'g'li Hasanxoja Nisoriy «Muzakkiri ah-bob» tazkirasida**

17. Xojaning devonlari taqdiri qanday?

J: **Noma'lum, topilmagan**

18. «*Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur, Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur*» mis-ralarining muallifini toping. J: **Xoja**

19. Xojaning Nizomiyning 1-dostoni «*Maxzan ul-asror*» asariga ergashib yozgan dostoni nomini toping.

J: **«Maqsad ul-atvor»**

20. Xojaning Temur Sultonga bag'ishlangan asarini toping. J: **«Miftoh ul-adli»** («*Adolat kaliti*», 1508 – 1510)

21. Xojaning Kistan Qaro Odilga bag'ishlangan asarini toping. J: **«Gulzor»** (1538)

22. Xojaning «*Maqsad ul-atvor*» (1514 – 1520) asari kimga bag'ishlangan? J: **Jonibek Sultonga**

23. Yurtimizda qachon Xojaning asarlaridan namunalar chop etilgan? J: **1962-yilda**

24. Qaysi asar katta-kichik mansabdorlarga, shariat ahli uchun o'ziga xos yo'rinqnomadir? J: «**Miftoh ul-adl»**
25. «Miftoh ul-adl» asari necha bobdan iborat? J: **15 bobdan**
26. Qaysi asarning har bobida ma'lum bir ijtimoiy tabaqqa yoxud masala tilga olinib, atroficha tavsiflanadi, diniymon nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi va ularga mos hikoyalar beriladi? J: «**Miftoh ul-adl»**
27. «Miftoh ul-adl»ning nechanchi bobi olimlar haqida? J: **Birinchi**
28. «Miftoh ul-adl»ning nechanchi bobi ov qilish haqidagi? J: **O'n beshinchi**
29. «Miftoh ul-adl»ning nechanchi bobi o'g'irlik haqida? J: **To'qqizinchil**
30. «Miftoh ul-adl»ning nechanchi bobi zolim sultonlar haqida? J: **Uchinchi**
31. «Miftoh ul-adl»ning nechanchi bobi sultonlar haqidagi? J: **Ikkinchi**
32. Oltinchi bobi? J: **Hukm qilmaq haqida**
33. Yettinchi bobi? J: **Da'veo qilmaq haqida**
34. Sakkizinchil bobi? J: **Ont ichmoq haqida**
35. O'ninchil bobi? J: **Zino haqida**
36. Qaysi asarda it har tunda aytar emish: «*Allah taologa shukrlar bo'lsinki, meni qozi qilmasdan it qilib yaratgan*», degan ibrat bor? J: **«Miftoh ul-adl»da**
37. Qaysi asarda odil shohga o'zining yigirma marta haj ziyyaratiga borganligini uning bir saat adolat qilgani savobiga alishmoqchi bo'lgani haqida hikoya qilinadi? J: **«Miftoh ul-adl»da**

38. Qaysi asarda Laylakning ilonlarga har kuni faqat bittadan ilonni tutib yeyishga ont ichib, so'ng ontini buzgani va «*Mən minora ustida yashayman, masjidning təpasidaman, gunohdan qo'rqlımayman, shunday odamning ontib o'ladi*»?» degani haqida yozilgan?

J: «Miftoh ul-adl»da

39. «Miftoh ul-adl»da Mahmud G'aznaviy o'ziga bir tabanining qoziga ming tilla pulni hamyonga solib, omonat uchun topshirib, kelganida ichidan mls tanga chiqqani haqidagi arz bilan murojaat qilganida qanday yo'l tutadi? J: Ovga ketayotib atayin to'shagini pichoq bilan tilib ketadi, kelganida to'shakdagil pichoq o'rnnini topolmaydi va shunday qillib hamyonni yirtib, ichidagini almashtirilgandan so'ng uni ustalik bilan tikib bergan tikuvchini topadi

40. Qaysi asarlarda Iskandarning bir darveshga podshoh bo'lishni taklif qilganda uning oldiga to'rtta shart qo'ygani hikoya qilingan?

J: «Gulzor», «Saddi Iskandariya» asarlarida

41. «Bir kuni Xorun ar-Rashid ziyoratga ketganini bilmagan shayx Bahlul shoh saroyiga boradi. Taxt bo'sh bo'lgani uchun yugurib borib taxtga o'tiradi. Bundan xabar topgan yasovullar shayxni tanimasdan uni taxtdan tushirish uchun kaltaklashadi. Xalifa kirib qarasa, shayxning boshidan qon oqib tursa ham kulib turganmish. Buning sababini so'raganida shunday javob beradi: Man bir saat saning taxtingda olturdim ersa, urib boshimni yordilar. Sankim yillardirki bu taxtning ustida olturubsan, saning holing ne bo'lg'ay deb kularman». Ushbu parcha qaysi asardan olin-gan? J: «Gulzor»dan

42. «Gulzor» asarida Sulaymon payg'ambarga bir kishi o'zgina obihayot keltiradi. Sulaymon barchani maslahatga chaqiradi. Butimor nomli qush kelmaydi. Uni bir amallab keltirganlarida u Sulaymonga nima uchun bu suvni ichmaslikni maslahat beradi? J: Agar bu suv barcha qarindoshlarin va atrofdagllaringga yetsa, uni ichsang bo'ladi. Agar bir o'zing ichsang, yakka-yolg'iz qolasan

43. Qozilar haqida parchalar:

– Ozarbayjon shahrida bir qozi bor edi. Kasal bo'lganida uni tolib ustoz bilan birga ko'rgani borishadi. Qozi ularni ko'rib, ko'ziga yosh olib, endi men o'lsam kerak, mendan rozi bo'linglar, deya yig'lab, kalimayi shahodatni qaytardi. Shunda ustoz: Siz hali o'lmaysiz, ko'p yashaysiz, deydi. Sababini so'raganlarida: Qozi rishva qilib imon kellrsa, o'lmaydi, deydi. Rostdan ham qozi kasallikdan tuzalib ketadi. Bir kuni sharob ichib, mast holda otda ketayotganida oti nimadandir hurkib, qozini ko'tarib yerga uradi va qozi dunyodan imonsiz ketadi.

– Kufa shahrida amiraimo'minin Ali edilar. Bir kuni uning oldilariga uch yildan beri ekini hosil qilmayotgan kishi yordam so'rab kirib keladi. Hazrat Ali davot-qalam keltiringlar, deb buyuradilar. So'ng bir xat yozib berib, shu xatni eltib ekinning o'rta yeriga ko'mishni maslahat beradilar. Xatni ko'mganlaridan so'ng u yer juda ko'p hosil beradi. U kishi tahsin o'qliydi va xatni qazib olib, o'qib ko'radi. Xatda «Ey yer, bu yil ham hosil bermasang, bir zolim qozi o'lgan bo'lsa, o'ligini keltirib, saning o'rtangga ko'marman», deb yozilgan ekan.

## **ABULG'OZI BAHODIRXON (1603 – 1664)**

Abulg'ozи Bahodirxon ўзик davlat arbobi va iste'dodli adibdir. U Xorazmning mashhur xonlaridan Arab Muham-madning o'g'li edi. Abulg'ozи Bahodirxon 1623- va 1629-yil-larda Xiva hokimi bo'lган. 1644-yildan umrining oxirigacha Xiva taxtida o'tirgan. «Shajarayi turk» va «Shajarayi taroki-ma» asarlarining muallifi. Bu asarlarda faqat o'zbeklarning emas, o'sha davrlarda o'zbeklar bilan yonma-yon yasha-gan boshqa xalqiarning tarixi, madaniyatli, urf-odatlari, milliy-madaniy qadriyatлari haqida nodir ma'lumotlar aks etgan. Abulg'ozи Bahodirxon tabiiy, sodda va samimiy tilda yozishi bilan Bobur an'analarini davom ettirgan

**«Shajarayi turk» asaridan parchalar:**

1. «O'g'uzxonning dunyoga kelishи»: Qoraxonning ulug' xotinidan biri o'g'il tug'di. Uch kecha-kunduz onasini emmadi. Har kecha u o'g'il onasining tushiga kirib aytar edi: «Ey ona, musulmon bo'l. Agar musulmon bo'lmasang, seni emmasman». Shundan keyin ona musulmon bo'ldi, lekin bu sirni hech kimga aytmadи. Chunki turk xalqi Yofasdan to Alinchaxon zamonigacha musulmon edilar. Alinchaxon zamonida xalq boy bo'lib ketdi va tangrini unutib, bari ko-fir bo'ldi. Qoraxon davrida farzandlarga bir yilgacha ism qo'yishmas va bola bir yoshga to'lganda to'y qilib, unga ism qo'yar edilar. Bola esa bir yoshga to'lganida to'yida o'zining ismi O'g'uzxon ekanligini aytadi. Bolaning tili «Ollo-ollo», deya chiqadi. O'g'uzxon voyaga yetganida unga Qoraxon Ko'rxon ismlи ukasining qizini ollib beradi. O'g'uzxon qiz-ga musulmon bo'lishni taklif qiladi. Qiz uni rad etadi.

O'g'uzxon bu qizga qaramay qo'yadi. Shundan so'ng otasi unga boshqa bir inisi Qirxonning qizini olib beradi. Bu qiz ham musulmon bo'lishni istamagani uchun O'g'uzxonning e'tiborini qozona olmaydi. O'g'uzxon otasining inisi O'xonning qizini oldi. Bu qiz musulmonchilikni qabul qildi va shu sababli O'g'uzxonning muhabbatini qozondi. Otasi bir kuni O'g'uzxon ovga ketganda o'g'lining ikki xotinini yomon ko'rgan holda uchinchi xotinini sevishi sababini bilmochi bo'ldi. Katta kelinlari bularning sababi sifatida o'zlarining musulmonchilikni qabul qilmaganliklarini ko'rsatishdi. Qoraxonning g'azabi kelib, o'g'lini o'ldirishni buyurdi. Bu xabarni kichik xotini O'g'uzxonga yetkazadi. O'g'uzxon o'z tarafdarlarini bir joyga yig'adi va otasi bilan kurashib, jangda g'olib chiqadi. O'g'uzxon o'z tomoniga kelib qo'shilgallarga «uyg'ur» deya nom qo'ydi. Uyg'ur so'zi «yopishqur» degan ma'noni bildiradi.

2. Qarluq elining zikri: Qarluq eli Ma'g'uliston berk tog'larining ichida yashar edilar. Chingizzon mo'g'ul eliga podsho bo'lganidan so'ng, ko'p yerlarni o'ziga bo'ysundirdi. Bu paytda Qarluq elida Arslonxon podsho edi. Arslonxon o'zining qizini mo'g'ul xoniga ko'p sovg'alar bilan jo'natdi. Chingizzon ham bularga o'z Jamoatidan bir qiz berib, quda ba'ldilar. Shundan so'ng Chingizzon beklariga Arslonxoni Arslon sayraq denglar deb hukm qildi. «Sayraq» so'zi mo'g'ulchada tojik ma'nosini blladiradi.

3. Uyg'ur elining zikri: Uyg'urning ma'nosi «yopishqur»dir. Qadim uyg'ur eli ikki tog' orasidagi o'n soy yonida yashaganlar. 120 urug' el edilar. O'n urug'ga bosh bo'lgan el-elitar, to'qqiz uyg'urga bosh bo'lgan kulerkin deb atal-

gan. Uyg'ur xalqida daftardorlikni va devon hisoblarini biladigan kishilar ko'p edi. Chingizxonning nabiralari davrida Movarounnahr, Xuroson va Iroqda devon va daftardorlarning barchasi uyg'ur xalqidan qo'yilgan edi.

4. Asfandiyoming nechta o'g'li bor edi?

J: **Ikkita: Yushan sulton va Ashraf sultan**

5. Qaysi asarda «O'ksiz o'z kindigin o'zi kesari» maqoli ishlatalgan? J: «**Shajarayi turk**» asarida

### **TURDI FAROG'IY (1640 – 1699)**

1. Turdi Farog'iy haqidagi dastlabki ma'lumotlar qachon paydo bo'ldi? J: **XX asrning 20-yillarida**

2. Turdi Farog'iy haqidagi dastlabki ma'lumotni kim berdi? J: **Kattaqo'rg'onlik adib Abdulhamid Majidiy**

3. Turdi Farog'iy haqidagi dastlabki maqola muallifi? J: **Abdurauf Fitrat**

4. Turdi Farog'iy o'zbeklarning qaysi urug'idan?

J: **Yuz urug'idan**

5. Subhonqulixon nima uchun Turdi Farog'iyini o'ziga dushman deb bilgan?

J: **Abdulazizxonning yaqin kishisi bo'lganl uchun**

6. Turdi Farog'iyning hayoti qachondan darbadarlikda, xor-zorlikda kechadi? J: **80-yillardan keyin**

7. Turdi Farog'iy qaysi davrda yashagan?

J: **Taxminan 1640-yilda tug'ilib, XVII asrda Buxoro xonligida yashagan**

8. Turdi Farog'iyning bizgacha nechta she'ri yetib kelgan? J: **18 ta**

9. Turdi Farog'iy she'rlarining hajmi? J: 434 misra  
10. Turdi Farog'iy she'rlarining janri?

J: 12 ta g'azal, 5 ta muxammas, 1 ta fard

12. Turdi Farog'iy she'rlarining nechlesi fors tilida?

J: 2 tasi

13. Turdi Farog'iy she'rlarini mavzu yo'nalishiga ko'ra qanday turlarga bo'llish mumkin?

J: Ikkiga; Ishqiy-falsafiy va ijtimoly-siyosly

14. «Turkona xirom ayladi ul sho'xi diloro.

Dil mulkini bir go'shayi chashm ayladi yag'mo.

Tufrog'ida jon bitsa ravodur, na ajab gul,

Cho'x sarvi sihi eldi nihon ko'zları shahlo.

Har qanda g'ami do'sti dilporani istar,

To subh yaqo yirtmadi, mehr o'lmasdi paydo» g'azali-ning muallifi? J: Turdi Farog'iy

15. «Turkona» so'zi qanday ma'noni bildiradi?

J: «Shiddatli» ma'nosini

16. Turdi Farog'iyning qaysi muxammasi sof tasavvufiy she't? J: «Burun» radifli muxammasi

17. «Jismi qonundin nafas tori uzulmasdan burun,

Boshingga davri qazo bazmi qurulmasdan burun,

Jibayıjon tiyri rixlaldin so'kulmasdan burun,

Ey ko'ngul, qasri asosi tan buzulmasdan burun,

Toqi abro', kurslyi dandon to'kulmasdan burun» she'rening muallifi va janti?

J: Turdi Farog'iy, muxammas

18. «Kuyar til shammayi gar holatimdin aylasam taqrir,

Giribon chok o'tur, etsa qalam dardi dilim tahrin» she'rening muallifi va janti? J: Turdi Farog'iy, g'azal

19. «Boshima bir ko'hi g'am bir ol koh (somon)-u  
emidin,

Bir ko'ngil yuz pora yo'qluq za'fi, vahm-u biymi  
(qo'rquv) din.

Dil – kabobim, qon – sharobim, ashki hasrat – nuqli  
bazm,

Yetti qassomi azalning xizmati ta'nimidin» she'rinining  
muallifi va janri? J: Turdi Farog'iy, g'azal

20. «Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,

Kelturan amvojg'a bahri talotum Turdiman» she'rinining  
muallifi va janri? J: Turdi Farog'iy, g'azal

21. Turdining «Yod mandin kim berur, yaxshi zamonalr  
ko'rdiman» satri bilan boshlanadigan muxammasining haj-  
mi? J: 12 band – 60 misra

22. Qaysi muxammas Turdining o'ziga xos afsusnomasi  
hisoblanadi?

J: «Yod mandin kim berur, yaxshi zamonalr ko'rdi-  
man» satri bilan boshlanadigan muxammasi

23. «Bahri davlaldin yiroq gardan shikasta mo'ndiman»  
misrasidagi «mo'ndi» so'zining ma'nosi?

J: Bezaksiz oddiy sopol ko'za

24. Turdining Subhonqulixon haqidagi muxammasi haj-  
mi? J: 29 band – 145 misra

25. «Shohlig' uldurki, aning hukm-u so'zi bir kerak,

Adl bobini qurub, rost nishon tir kerak.

Rostrav, dini durust, peshasi tadbir kerak» misralari-  
ning muallifi va janri? J: Turdi, muxammas

26. «Yedingiz baringiz itdek fuqaroning etini,

G'asb ila molin olib, qo'yadingizlar bitni,

*Qamchilar dog' solib bo'yung'a, tilib betini» misralarining muallifi va janri? J: Turdi, muxammas*

27. «*Ey yuzi qaro, ko'zi ko'r, qulog'i kar beklar,  
Bilingiz bu so'zimi pand sarosar, beklar,  
Aylangiz payravi shar'i payambar, beklar,  
Sizga darkor bu yurt, ey gala zang'er beklar,  
Bu qadim naql erur: El rabot-u, to'ra – qo'nog» misralarining muallifi va janri? J: Turdi, muxammas*

28. Qaysi shoir ko'p asriik tarixga ega milliy she'riyatimizni ijtimoiy-siyosiy ohanglar bilan boyildi? J: Turdi

29. Qaysi shoir xonliklar davrining sertashvish, serg'alva lavhalarini badiiy adabiyotga olib kirdi? J: Turdi

30. «*Bir soni azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk,  
Filnayi avboshi zulm-u kufr-u tug'yondur bu mulk.  
Durahd-u tangchashm-u besar-u ya'juvash,*

*Muxtalif mazhab guruhi O'zbekistondur bu mulk» misralarining muallifi? J: Turdi*

31. Turdining Xo'jand viloyatida, shahid Oqbo'tabiy asrida bitilgan turkiy muxammasi qaysi satrlar bilan boshlanadi? J: «**Yod mandin kim berur, yaxshi zamonalr ko'rdiman»** satrl bilan

32. «**Yod mandin kim berur, yaxshi zamonalr ko'rdiman»** satrl bilan boshlanuvchi muxammasning nechanchi bandida shoir suhbatidan aqrabo (yaqinlar, qarindoshlar) lar or etib, qoshini chimirayotganligini aytib, o'zini jirkanch supurindiga o'xshatadi? J: **4-bandida**

33. «**Yod mandin kim berur, yaxshi zamonalr ko'rdiman»** muxammasining nechanchi bandida Turdi bir vaqtlar yuz urug'ining oqsoqoli bo'lganligi, hukmlari joriy, so'zlari

qabul bo'lganligini esga olib, bu zamonda yavg'on qozon ostida qolgan yuvundiman deya afsuslanadi? J: 7-bandda

34. «Yuz farozidin ozib, tushdim nishabi qirqqa, Xavf-u blym-u vahm erosinda qaribi qirqqa» misralarida shoir qaysi badiiy san'atdan foydalanadi? J: lyhom san'atidan

### SO'FI OLLOYOR (1634 – 1721)

1. So'fi Olloyor a'zbek xalqining qaysi urug'idan?

J: O'tarchi urug'idan

2. «Garchi ... o'tarchidir, erur ul ham yomon, Oning ham qadri o'tar bir nechaga o'lgan zamoni», deya hayatning ko'plab qiyinchiliklariiga, taqdирning son-sanoqsiz sinovlariга duch kelgan bo'lishiga qaramay a'z nomining bir kun e'zoz bilan tilga olinishiga umid qilgan shoir kim?

J: So'fi Olloyor

3. To'ng'ich a'g'lining bevaqt vafoti, akasi Farhodbiyning Buxoro hukmdori Abulfayzxon qo'lida katta amaldorlardan biri bo'lishiga qaramay qatl etilishi kabi og'ir sinovlarga duchor bo'lgan ijodkor kim? J: So'fi Olloyor

4. So'fi Olloyor qaysi tillarda ijod etgan?

J: O'zbek va fors-tojik tillarida

5. Adibning fors-tojik tilida yaratilgan asari qaysi?

J: «Maslik ul-muttaqlyn» («Taqvodorlar maslagi»)

6. So'fi Olloyor fors-tojik tilida yaratilgan asari q'oyalari ni turkiy tilda yaratishga zarurat sezganligi uchun uni qaysi nom ostida o'zbek tilida qayta yaratdi? J: «Sabot ul-ojzin» («Ojizlar saboti»)

7. So'fi Olloyorning yana qanday asarlari bor?

J: «Maxzan ul-mutayin», «Murod ul-orifin» asarlari

8. «Maslak ul-muttaqiyin» asarida qaysi mavzularda babs yuritiladi? J: Fiqh, shariat ahkomlari, ma'naviyat, axloq qoidalari haqida

9. «Maslak ul-muttaqiyin» asari qanday she'riy shaklda yozilgan? J: Masnaviyda

10. «Maslak ul-muttaqiyin» asarining hajmi?

J: 12 ming baytdan ko'proq

11. Qaysi ijodkor har bir ishda yetuk ustoz darkorligini ta'kidlab, «Agar bo'lmasa yo'l boshlog'uchi plr, Solur bo'yning Shaylon domi tazvir», deb yozadi? J: So'fi Olloyor

12. So'fi Olloyor ustozga qanday sifatlar lozimligini uqtiradi? J: Hech bir ishi shariatga xllof bo'lmasa, hech kishidan tama qilmasa, ilm chirog'ini qo'lida mahkam tutsa, ilml botini (ichi)da bo'lsa, fano maqomiga ko'tarilgan bo'lsa, lekin takabbur bo'imasligi kerak

13. «Sabot ul-ojizin»dan parchalar:

*Kel, ey soqiy, ikovlon aylali shurb.*

*O'shal shurbiki xalq andin topar qurb.*

*Sharobe berki dil andin bo'lur sahv,*

*Qilur bir muddaodin o'zgani mahv.*

*Muhabbat jomidin topsa kishi bahr,*

*Na qilsun mulki moli Movarounnahr.*

*Aningdek mulkni sulton ni bo'lsang,*

*Na hojat yer yuzini xoni bo'lsang.*

*Xudo amrig'a oqil g'am emastur,*

*Demas gardun qilur gar dun emastur.*

*Aning hukmig'a har kim bo'lsa mamnun,*

*Ko'tarmas un agar boshin qilur un.*

## BOBORAHIM MASHRAB (1653 – 1711)

1. Qaysi shoir xalq xotirasida qalamidan ilohiy she'rlar to'kilgan shoirgina emas, ikkiyuzlamachilikning, soxtakorlikning, nafsga qullikning shafqatsiz dushmani sifatida ham qolgan? J: **Mashrab**

2. Mashrabning ismi? J: **Boborahim**

3. Otasinining ismi? J: **MullaVali**

4. «Mashrab» so'zining ma'nosi?

J: Ichimlik Ichiladigan joy, fe'l, odat, xulq, tabiat

5. Mashrab Namanganda kimning qo'llida necha yil shogird bo'lgan?

J: 1665-yildan Mulla Bozor oxund qo'llida yetti yil

6. Mashrab Qashqarda kimning qo'llida tahsil oladi?

J: **Ofoqxo'janlning**

7. Mashrab pirning qaysi kanizini sevib qoladi?

J: **To'tibekach Ismili kanizini**

8. Mashrab necha yildan so'ng Namanganga qaytadi?

J: 18 yildan so'ng

9. Mashrab qachon kim bilan 20 yillik safarga ketadi?

J: 1961-yilda do'sti Pirmat Setorly bilan

10. Jaloliddin Rumiy «Masnaviy»sining sharhiga bag'ishlangan Mashrab qalamiga mansub asar? J: **«Mabdayl nur»**

11. Sharqda Mashrab taxallusli nechta shoir nomi ma'lum? J: **10 ga yaqlin**

12. Movarounnahrlik Mashrab taxallusli shoirlar nechta? J: **2 ta**

13. Movarounnahrlik Mashrab taxallusli shoirlarni toping.

**J: Boborahim Mashrab va qarshilik hofiz Ro'ziboy**

14. Mashrab she'riyalining janrlari? J: G'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba'

15. Mashrab she'rclarining bosh mavzusi?

**J: Ilohiy ishq**

16. Masharb asarlari xalq orasida qanday nomlar bilan keng yoyilgan? J: «Devoni Mashrab», «Devonayı Mashrab», «Eshoni Mashrab», «Hazrati shoh Mashrab».

17. Mashrab she'riyatining o'zak muammosini qaysi mavzu tashkil etadi? J: Ishq

18. Mashrab she'riyalining xalqonaligi nimalarda namoyon bo'ladi?

**J: Vaznida, ohanglarning qaynoqligida, tillning shiralliligida, xalqona ifodalar, iboralarning ko'pligida, tasvirning aniq va ta'sirchanligida namoyon bo'ladi**

19. Mashrabning boshqa mutasavvuf shoirlardan farqi?

**J: Mashrab Allahga bo'lgan muhabbatini yashirib o'tirmaydi, uni otashin satrlarda oshkora kuylaydi, tasvida ham pardali ifodalardan ko'ra tuyg'ular junbushini berishni xush ko'radi**

20. Mashrab uchun namuna bo'lishga arziydigan ikki timsol bor. Ular kimlar? J: Ibrohim Adham va Mansur Xalloj

21. Mashrabga Ibrohim Adhamning qaysi xislati yoqadi? J: Bir kechada shohona libosini darveshilik jandasiga almashtirib, Allohni izlab ketgani, ya'nli Allah ishqini ikki dunyoning ne'matiga almashtirmagani

22. Mashrab uchun Mansur Xalloj qanday timsol?

**J: Insonning ruhly hurligini cheklashga qaratilgan aqdalarga qarshi isyon, erkin fikrlilik ramzi**

### 23. G'azallaridan parchalar:

- *Har kishini dardi bo'lsa, yig'lasun yor oldida,  
Qolmasun armon yurakda, etsun izhor oldida.  
Mansuni Xalloydek ichirib sharobi antahur,  
Doimo yig'lab turarmen ushbu dam dor oldida.*
- *Kokulung anbardurur, jon ichida jonon qiz,  
Ko'zlaning extardurur, yuzi mohi tobon qiz.  
Lablaring erur la'ldek, yuzlaring qizil guldek,  
Barcha sengakim quldek, xizmatingga qurban qiz.*
- *Ishqing o'tig'a kuygoli keldim,  
Oydek yuzungni ko'rgoli keldim.*
- *Bu tani yokini-yu ruhi ravonni na qilay?!*  
*Bo'lmasa qoshimda jonona, bu jonni na qilay?!*  
*Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?*  
*Ibrohimdan qolq'on ul eski do'konni na qilay?!*
- *Ishq mazhabiga tavqi-yu toat chidayolmas,  
Tasbeh-u sano, zuhd-u ibodat chidoyolmas.*
- *Ko'rdum yuzungni – devona bo'ldum,  
Aql-u hushimdan begona bo'ldum.  
Bo'ldum fano men tufrag' ichinda,  
Bir dona edim, ming dona bo'ldum.*
- *Dunyoga kelib loyiga bilmay bota qoldim,  
Darmon yo'qidin necha og'iz so'z qota qoldim.  
Ko'rdumki ani dushmani ruh-u tan ekandur,  
Lo o'qi bila ikki ko'ziga ota qoldim.*
- Zohld, manga bir shishada may, sanga namozing,  
Ming lavqini bir kosayi mayga sota qoldim.*
- *Nogoh ko'rubon mahvi jamoling bo'la qoldim,  
Oydek yuzingga boqtim-u, hayron bo'la qoldim.*

- *Ey mening nozik nihol, oromijonim qaydasan?*  
*Bu ko'ngul bo'stonida g'uncha dahonim, qaydasan?*
  - *Tushdi savdoyi muhabbat boshima,*  
*Or etar mardum kelurg'a qoshima.*  
*Vah, muhabbat ko'yida qon yig'ladim,*  
*Yetti iqlim g'arq bo'ldi yoshima.*
  - *Sanamning shavqida tinmay yurub ovvora*  
*Mashrabman,*  
*Ko'zi yoshligi', qadi xamligi', dill sadpora*  
*Mashrabman.*
  - *Muhabbat o'tig'a bag'rim kuyub, biryona yig'larman,*  
*Visolingni tilab, ey nozanin jonona, yig'larman.*
  - *Agar oshiqligim aytsam, kuyub jon-u jahon o'rta,*  
*Bu ishq sirrin bayon qilsam taqi ul xonumon o'rta.*
  - *Setor ila savti navo aylaganing xo'b,*  
*Xo'blar ichida masnad-u joh aylaganing xo'b.*
  - *Malaksan yo bashar, yo hur-u g'ilmonsan,*  
*bilib bo'lmas,*  
*Bu lutf-u, bu nazokat birla sendin qayrilib bo'lmas.*  
*Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz*  
*hunar bo'lmas,*  
*Riyozat tortmag'uncha yor vaslig'a yetib bo'lmas.*
  - *Tinmayin yurdum bu g'am dashtilda hayronliq bilan,*  
*Oxir umrum o'tli, sad afsus, nodonliq bilan.*
  - *Ko'rsat jamoling mastonalarg'a,*  
*Ishqingda kuygan parvonalarg'a.*
24. «*Bulbuldayinkim faryod etarman,*  
*Ishq daftarini bunyod etarman,*  
*Ko'ngullarimni men shod etarman,*

\* Yorga yetar kun bormu, yoronlar?» misralarinining muallifi va janri? J: **Mashrab, murabba'**

25. «Xonumonidin judo bo'igan kishidan dard so'rang.

O'tanib qaddi duto bo'igan kishidan dard so'rang» misralarinining muallifi va janri?

J: **Mashrab, muxammas**

26. «Ey musulmonlar, nətay, men yordin ayrimisham,

Fitnachashm-u sho'xi xush raftordin ayrimisham» misralarinining muallifi va janri? J: **Mashrab, muxammas**

27. «Yoming ko'yida men bormoq edim,

Har necha javr-u jafo tortmoq edim» misralarinining muallifi va janri... J: **Mashrab, muxammas**

28. «Ne g'urbatlarni chektim, charx bebunyod dastidan» misralarinining muallifi va janri...

J: **Mashrab, musaddas**

29. «Aytay senga dard-u alanim, ofati jonim, fikr ayla o'zungga» misralarinining muallifi va janri...

J: **Mashrab, mustazod**

30. «Bul xasta vujudimni meni o'tadi butkul, Ul zulfi parishon» misralarinining muallifi va janri...

J: **Mashrab, mustazod**

31. «Boshimga agar kelsa balo, sabr etadurman, Sendin kecharim yo'q.

Qaydin kechayin, ko'nglumda to'lador senga mehrim, Men oshiqi shaydo» misralarinining muallifi va janri...

J: **Mashrab, mustazod**

32. «Va'da qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadı,

Termulub yo'lida turdim, sho'xi badxo' kelmadı,

Necha keldi shum raqiblar, ul pariro' kelmadı,

*Dardidin o'ldum, tabib, dardimg'a doru kelmadı,  
Men shahidi ishq bo'ldum qatrayi suv kelmadı.*

*Ich-u toshim g'amg'a lo'ldi, g'amgusorim, kelsango,  
Hama qilsang, sen o'zing qil, dilda borim, kelsango!  
Jumla shohlarning ulug'i, nomdorim, kelsango,  
Marhamatlik podshohim, tojdom, kelsango,  
Dilni zangin ko'rsaturga oyinaro' kelsango» misralari-  
ning muallifi va janri... J: Mashrab, muxammas*

## XO'JANAZAR HUVAYDO

(Tug'ilgan yili noma'lum  
1780 – 1781-yillarda vafot etgan)

1. Xo'janazar Huvaydo qayerda tug'ilgan?  
J: O'sh shahrida tug'ilgan, lekin **Huvaydoi** **Chimyoniy** nomi bilan mashhur bo'lgan
2. Otasi qaysi nom bilan xalqqa tanilgan?  
J: Otasi **G'oyibnazar So'fi** nomi bilan tanilgan
3. Huvaydo avlodlaridan kimlar shoir bo'lgan va ularning taxalluslari? J: O'g'li **Salohiddin Sirojiy** taxallusi bilan, nabirasi **Salohiddin Sohib** taxallusi bilan ijod etgan
4. Huvaydoning she'riarini 1908-yilda Toshkentda «Kulliyoti Huvaydo» nomi bilan nashr qildirgan nevarasining ismi? J: **Salohiddin-Sohib**
5. Huvaydo qalamiga mansub asarlarni toping.  
J: «Rohati dil» manzumasi, «Ibrohim Adham» dostoni

6. Huvaydo Chimyonda qaysi kasblar bilan shug'ullan-gan? J: **Maktabdorlik va kosiblik**

7. «Rohati dil» manzumasidan parchalar:

*Duodin sizlarga so'zum yo'q,*

*Bu dunyoda so'zum qolg'ay, o'zim yo'q.*

*Ko'ngul shahri yagona azm qildim,*

*Kitobim nasr edi, man nazm qildim.*

*Bu Chimyon shahrining pir-u javoni,*

*Tamomisi erurta turkixoni.*

*Alar garchi so'zga behunarroq.*

*Dedim: «Bo'lsa kitobim turkiy behroq».*

8. Uch aka-ukaning biyobonda ganj topib olgani haqidagi: «Uch birodar sahroda ketayotganlarida xazina topib oldilar. Ulardan biri taom keltirish uchun jo'nab ketdi. Og'alari bo'lsa, shaytonning gapiga kirib, nafsi shumlik qilib, taomga ketgan ukalarini o'ldirib, xazinani ikkiga bo'limoq-chi bo'llishdi. Taomga ketgan ukasi ham nafsining so'ziga kirib, akalarini o'ldirsa, xazina o'ziga qolishini xayol qilib, taomga zahar qo'shib olib keldi. Uka kelishi bilan og'alar uni o'ldirdilar va xotirjam taom yemakka o'tirdilar. Ular ham taomni tanovul qilishlari bilan vafosiz dunyo uchun halok bo'llishdi». Parcha:

*Bu dunyog'akim sen bo'lma soyil,*

*Sarosar ganji dunyo zahrl qotil.*

*Talab qil ganji ma'no, ey birodar,*

*Vagarna sandin avlo gav ham xar.*

9. G'azallaridan parchalar:

– Oh, mani dard-u balog'a mubtalo qilg'on firoq,

*Taxti baxtimni buzub, oxir gado qilg'on firoq.*

*Gavhari qiymatbaho erdim nasab bozonida,  
Sindurub qadrimni naylay kambaho qilg'an firoq.  
— O'tdilar bu dunyodin dixohlar, gumrohlar,  
Qolmadi dunyoda boqiy ham gado, ham shohlar.*

### JAHON OTIN UVAYSIY (1789 – 1850)

1. Uvaysiy qayerda tug'ildi?

J: Marg'llonning Childuxtaron mahallasida

2. Uvaysiyning otasi kim bo'lgan? J: Otasi Sidiq kosiblik bilan shug'ullansa-da, el orasida «Hofiz bobo» nomi bilan tanilgan bo'lib, o'zbekcha va tojikcha she'rlar bitardi

3. Uvaysiyning onasi?

J: Chinnibibi muktabdar otin bo'lgan

4. Uvaysiyning akasi?

J: Ohunjon hofiz ko'zga ko'ringan xonanda va sozanda bo'lgan

5. Jahon otin necha yoshida turmushga chiqdi?

J: 17 yoshida marg'llonlik Hojxon Ismlik kishiga

6. Jahon otinining taxallusi? J: Uvaysiy

7. Uvaysiyning farzandlari?

J: Muhammadxon va Quyoshxon

8. Uvaysiyning qaysi farzandi «Majnun» taxallusi bilan she'rlar yozgan? J: O'g'li Muhammadxon

9. Muhammadxonni kim sarboz sifatida Qashqarga harbiy yurishga jo'natadi va Uvaysiyga o'g'lini qayta ko'rish nasib etmaydi? J: Muhammad Alixon

10. Quyoshxon qanday taxallus bilan she'rlar yozgan?

J: Xokiy taxallusi bilan

11. Quyoshxonning qizi Bibi Hadicha qanday taxallus bilan she'rlar yozgan? J: **Azmiy taxallusi bilan**
12. Bibi Hadichanining qizi Xoljonbibi qanday taxallus bilan she'rlar yozgan? J: **Mag'ziy taxallusi bilan**
13. Uvaysiyning merosi bizga kim orqali yetib kelgan? J: **Xoljonbibi orqali**
14. Uvaysiy haqidagi ma'lumotlar qachon o'zbek olmlariga ma'lum bo'ldi? J: **XX asrning 60-yillarida**
15. Uvaysiyning she'riy devoni qachon nashr qilindi? J: **1983-yilda «Ko'ngil gulzorl» nomi bilan**
16. Uvaysiyning Devonida qaysi janrdagi she'rlar bor? J: **G'azal, mustazod, muxammas, tarji'band, tarkib-band, chiston**
17. Uvaysiy nechta doston yozgan? J: **3 ta**
18. Uvaysiyning «Voqeoti Muhammad Alixon» dostoni nima haqida? J: **Muhammad Alixonning Qashqar safariga bag'ishlangan bo'llib, tugallanmay qolgan. Asarda xonning tug'ilishi, taxtga chiqishi va safarga otlanishi voqealari berilib, Marg'ilonda onasi bilan xayrashib, yo'lga tushishi bilan uziladi**
19. Uvaysiyning «Shahzoda Hasan haqida doston» asari kimga bag'ishlangan?  
J: **Imom Hasanning Muoviya bilan bo'lgan janglari va xiyonatkorona o'Idirilishi tasvirlangan**
20. Uvaysiyning «Shahzoda Husayn haqida doston» asari kimga bag'ishlangan? J: **Imom Husayn va uning farzandlarining Yazid bilan bo'lgan tengsiz jangda Karbaloda shahid bo'llishlari tasvirlangan**
21. G'azallaridan namunalar:

- Oh, gulruxsora jonon, xordurman ishqida.  
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.
- Meni rasvo qilan kimdirki, sen siymbadan nozuk,  
Solan boshimg'a savdo kimdir, ul gul pirohan nozuk.  
Qadding nozuk, qoshing nozuk, ko'zung nozuk,  
labing nozuk,
- Tilling nozuk, so'zung nozuk, tishing durni Adan, nozuk.  
Iki nargis, iki ko'ngul, iki tan, ikki jon birlan,  
Birin biriga vasi aylab, qiloli anjuman nozuk.
- Dedi bir kun menga ul mahvashim:  
«Ey sho'xi beparvo!»  
Men aydim: «Sen dema, men deyki:  
solding boshima savdo!»
- Ato qildi xudo menga seningdek dilbari bambo,  
Visoling qatrayedur, mavj urar hajning bo'lub daryol
- Bugun, ey do'stilar, farzandi jononimni sog'indim,  
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.
- Mehnal-u alamlarga mutbtalo Uvaysiyman,  
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.
- Maqsudi ko'ngul – la'li mayi nobinga qulman,  
Andin sochilan ul duri noyobinga qulman.  
El sajda qilur masjid devorig'a har dam,  
O'lguncha bosh omon, qoshi mehrobingga qulman.
- Kelibman dargahingga, shohi xo'bonim, qabul etkil,  
Bag'ir qonim bila bul chashmi giryonim qabul etkil.
- Oh, gulruxsora jonon, xordurman ishqida.  
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.
- Ajab yo'q tun-kun o'lsam mahvashimning  
justujo'yinda,

*Xayoli Qaysdin voqif gar o'lsang Layli so'yinda.*

- 23. «*Qil amon, yo rab, aduvlər mojarosidin meni, Saqlagil osiy bu mardumning izosidin meni*», deb boshlanuvchi misralarning muallifi va janrini toping.

**J: Uvaysiy, tarji'band**

- 24. Uvaysiyning tarji'bandi qanday munosabat bilan yozilgan? **J: Muhammad Alixonga shikoyat shaklida**

25. Uvaysiy Qo'qonda Nodirabegim in'om elgan hovlidan bir Qashqardan kelgan baqqolga omonatga joy beradi. Biroq u tovlamachilik bilan bu hovlini o'zinikl qilib oladi. Bu baqqolning ismi? **J: Hasan baqqol**

- 26. «*Qil amon, yo rab...*» tarji'bandining naqarotini toping. **J: «Qutqar, ey xorim, Hasan boqqol balosidin meni, Qilg'on ul behuda ham Jabr-u Jafosidin meni»**

27. Uvaysiy Hasan baqqolga necha tillo pul bergani haqida yozadi? **J: Qozilar oldida 12 tillo, yana besh tillo**

28. Uvaysiy chistonlari:

– *Ul na gumbazdur, eshig-u tuynugidin yo'q nishon,  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur, makon?*

*Sindirib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,  
Yuzlariga parda tortilg'on, turalar bag'rl qon!* (Anor)

– *Ul nadurkim, sabzto'nlik, yoz yig'ochining boshida,  
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qashida.*

*Barcha qushlarning so'ngoki ichida,  
Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida. (Yong'oq)*

– *Ikki mahbubni ko'dum, bir-birisin ko'magan,  
Ikkisining o'tasiga, do'stlar, qil sig'magan. (Kun va lun)*

- 29. Qaysi shoir ijodida «zamona kulfati», «charxi bermurvvat»dan shikoyat, «raqiblar bedodidan» bag'rining jaro-

hatli bo'lganligi haqidagi shikoyatga to'la ohanglar ustunlik qiladi? J: **Uvaysiy**

30. Qaysi shoirlar ijodida oshiqning mehrobga emas, yorning egma qoshiga sajda qilish istagi aks etgan?

J: **Mashrab, Uvaysiy**

31. Uvaysiyning qaysi g'azalida Farhod-u Majnun, Mansur-u Zulayxolar nomi birga qo'llangan? J: **Ajab yo'q tun-kun o'ljam mahvashimning justujo'yinda**

32. Uvaysiyning qaysi g'azalida Farhod va uning laqabi Ko'hkan – tog' qazuvchi nomi birga tilga olingan?

J: **Meni rasvo qilgan kimdirki, sen siymlinbadan nozuk**

33. Uvaysiyning «Dog' o'ldi, dog' o'ldi» g'azali qanday boshlanadi? J: **Bu charxi bemuruvvatdin...**

34. Uvaysiy quyidagi kichik janrlardan qaysi birida shuhrat qozondi? J: **Chiston**

35. Uvaysiyning «Anor» chistonidagi qofiyadosh so'zlar tartibi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

J: **Nishon, makon, qon**

36. «Uvaysiyman», «Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi...» g'azallari qanday asar sanaladi? J: **Sholra shaxslyatl, zamon, ijtimoly muhit munosabatlarini aks ettiruvchi**

## AMIRIY (1787 – 1822)

1. Qo'qon adabiy muhitining asoschisi kim? J: **Amiri**

2. Amiri qaysi urug'dan? J: **Ming urug'idan**

3. Umarxon (taxallusi Amiri) kimning qo'lida tahsil ol-gan? J: **Muhammad Yoqub qo'lida**

4. Umarxon qachon Farg'ona hokimi qilib tayinlandi?

J: **1807-yilda**

5. Umarxon qachon Qo'qon xoni bo'lgan?

J: **1810-yilda**

6. Umarxon necha yil Qo'qon xonligini boshqardi?

J: **12 yil**

7. Umarxon qaysi shaharga asos solgan?

J: **Andijon viloyatiga qarashli Shahrixon shahriga**

8. Qaysi tazkira Umarxon horiyiligida dunyoga kelgan?

J: «**Majmuat ush-shuaros**»

9. Amiriy kimdan kuchli ta'sirlangan?

J: **Navoiydan**

10. Amiriy Navoiyning nachta g'azaliga taxmis bog'lagan? J: **25 g'azaliga**

11. Amiriyning qaysi o'g'li Xon taxallusi bilan she'rlar yozgan? J: **Ma'dalixon**

12. Nodira devoni debochasida Amiriy haqida nima deydi? J: «...goho ul hazrat ba'zi toza mazmunlardan bir misra bilan savol tarqasida so'rар erdillar, misra bilan javob aytur erdim va tabiatlarini xush qillur erdim. Bir buldurkim, bir kun savol qildilarkim, misra: «Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor?» Javob aytildimki, misra: «Kim bular uryon, alarning jubba-u dastori bor»

13. Amiriy qaysi tillarda ijod etgan?

J: **O'zbek va fors-tojik tillarida**

14. Amiriy devonida qaysi janrdagi she'rlar mavjud?

J: **G'azal, muxammas, musaddas, musamman, tuyuq, ruboly**

15. Amiriyning qaysi g'azali uzoq yillardan buyon

mashhur «Chorzarb» kuyiga solinib, qo'shiq sifatida aytib kelinadi? J: «Qoshingg'a teguzmagil qalamni, Bu xat bila buzmagil raqamni»

16. Amiri y g'azallaridan namunalar:

- Qoshingg'a teguzmagil qalamni,  
*Bu xat bila buzmagil raqamni.*
- Lab uyur takallumg'a, zulfungni parishon qil,  
*Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil.*  
*Husn shohisen, jono, bu hazin gadolarg'a*  
*Ko'z uchi ita boqib, xayr birta ehson qil.*
- Ul yor jałosi meni bezobita etti,  
*Ag'yora vałosi meni bezobita etti.*
- Ne ko'zlardurki, toroj etmaka xunxordurlar,  
*Asir etmak uchun ishq ahlig'a makkordurlar.*
- Sabo, lutf et, mengo ul yor payg'omin keltur,  
*Visoli mujdasidin notavon jismimg'a jon keltur.*
- Ko'ngul la'li tamannosi bila qon o'ldi o'xshaydur,  
*Ko'zum oyinadek husnungga hayron o'ldi o'xshaydur.*
- Tushti tori zulfi yuzdin ko'nglim ichra peshtob,  
*Aylamish ko'ksum aro siy mob yanglig' iztirob.*
- Oizartib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma,  
*Yuzingga bodadin o't solma, gul uzoringni kuydurma.*
- Tabibo, sharti o'ynab icharga bermog'in yandim,  
*Labidin talx-u shirin so'z erur doruyi gulqandim.*  
*Filotun ishq darsida menga shogird erur, lekin*  
*Xatingni ramzidin ogoh emas ta'bi xiradmandim.*
- Ishq asrorin pinhon aylaram ag'yor aro,  
*Bir musulmondirki, dinin yoshurur kuffor aro.*
- Ey pari, may birla yuzni arg'uvon qilmaq nadur?

*Oshiqi bechorani bag'rini qon qilmoq nadur?  
O'zgalarga gul yuzungni lahza-lahza ko'rsatub,  
Bizni ko'rgan chog'da noz aylab nihon qilmoq nadur?  
— Nega muncha siyohdur kokul,  
Magaram dudi ohdur kokul.  
— Junun daryosi tug'yon aylamakni mendin o'rgandi,  
Talotum birla to'fan aylamakni mendin o'rgandi.  
G'am-u dard-u muhabbat gulshanida gul bila g'uncha,  
Yaqo chok-u, ko'ngul qon aylamakni mendin o'rgandi*

### NODIRA (1792 – 1842)

1. Qaysi shoir Nodirani «*Jahon mamlakatlarining Bilqisi*», deb ta'riflaydi? J: **Nodir**
2. Uzlat, Mahjur taxalluslari bilan ijod etgan shoir? J: **Nodir**
3. Nodira haqida «*Haft gulshan*» nomli doston yozgan shoir? J: **Nodir**
4. «*Hure bu sifat kelur oz, Xurshid kabi jahonda mumtoz. Olam aro baski, hukmrondur, Bilqisi mamoliki jahondur*». Nodirning ushbu satrlari kim haqida? J: **Nodira haqida**
5. Nodiraga bag'ishlovlari yozib, uning murabbiy va homiyligini alohida ta'kidlagan kim? J: **Dilshod Barno**
6. Nodiraning xatti-harakatlarida kufr ko'rib, uning farzandlari va nabirasini ko'z oldida o'ldirgan zolim amir? J: **Buxoro amiri Nasrulloxon**
7. Nodira asarlarining umumiy miqdori? J: **10 ming misra atrofida**

8. Nodira qachon Amir Umarxoniga turmushga chiqqan? J: **1807-yilda**

9. Asl ismi Mohlaroyim bo'lgan shoira qaysi taxalluslar bilan ijod qilgan? J: **Nodira, Maknuna, Komilla**

10. «Maknuna» so'zining ma'nosi? J: **Yashirin**

11. Nodira turmush o'rlog'i Umarxon vafot etganida necha yoshda bo'lgan? J: **30 yoshda**

12. Nodira qaysi janrlarda ijod etgan?

J: **G'azal, muxammas, musaddas, musamman, tarjliband, tarkibband, muashshar**

13. Nodira haqida maxsus monografiya yaratgan abiyolshunos kim? J: **M.Qodirova**

14. Nodira she'riyatining bosh qahramoni kim?

J: **Amlr Umarxon**

15. Nodira g'azallaridan namunalar:

– *Marhabo, ey payki sulton, marhabo,*  
*Hudhud mulki Sulaymon, marhabo.*

– *Ey xusho, shisha aro obi hayoti hukamo,*  
*Kim ani har kishi no'shi esa, bo'lur Xizrnamo.*

– *Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,*  
*Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat.*

– *Hajrdin maxmurmen, soqiylab, labo-lab jom tut,*  
*Men kabi har kimki bo'lsa rindi durdoshom tut.*

– *Jonimg'a jaflolar bila jonona qilur bahs,*  
*Har lahma ko'zumni yoshi to'fona qilur bahs.*

– *Kuyma deb aylamadi hech kishi parvonaga bahs,*  
*Oqil ersang na qilursan meni devonaga bahs.*

– *Manga ishq ichra savdoysi junun bas,*  
*Jahon iqbolidin baxti nigun bas.*

- *Tahammul haddidin oshti, emdi afg'on etmasam bo'limas,*  
*Ulusni xotini jamin parishon etmasam bo'limas.*
  - *Yor manga g'ayri jafo aylamas,*  
*Va'da qilib, anga vafo aylamas.*
  - *Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,*  
*Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.*
  - *Qilmag'il, zinhor izhor ehtiyoj*  
*Kim, aziz elni qilur xar ehtiyoj.*
  - *Nigori gulbadanimni tushimda ko'rsam edi,*  
*Labi shakkarshikanimni tushimda ko'rsam edi.*
  - *Yoming vasi emas ozorsiz,*  
*Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.*
  - *Kel, dahmi imtihon etib kel,*  
*Sayri chamani jahon etib kel.*
16. Nodiraning qaysi g'azallari hijron va ayrilliq haqida?  
J: «**Oqibat», «Ayrus», «Talx», «Dud» radifli g'azallari**
17. «Xating ishtiyogin savod ayladim, Ko'zumning qorasin midod ayladim» misralarining muallifi va janrl?  
J: **Nodira, tarji'band**
18. «Xating ishtiyogin savod ayladim, Ko'zumning qorasin midod ayladim» misralaridagi «savod aylamoq» so'zining ma'nosi? J: **Yozmoq, qora qilmoq, suyanmoq**
19. «Xating ishtiyogin...» tarji'bandining naqarotini toping. J: «**Visollingdin, ey jan, topolmay so'rog'**, Neler tushti boshimga sendin ylrog'«
20. «Xating Ishtiyogin...» tarji'bandining hajmi?  
J: **Har birl 14 mlsradan iborat 5 bandli she'r**
21. «Xating Ishtiyogin...» tarji'bandining nechanchi

bandi «Xush ul kun, seni birla damsoz edim, Niyaz ichra sarmoyayi noz edim» misralari bilan boshlanadi?

J: **2-bandi**

22. «Xating ishtiyoqin...» tarji'bandining nechanchi bandi «Qayon bording, ey sarvi nozim mening, Senga yetmas arzi niyozim mening» misralari bilan boshlanadi?

J: **4-bandi**

23. «Senga qaysi g'amni bayon aylayin, Necha oh tortib, fig'on aylayin. Makoning sening qaysi manzildadir, Ko'zim yoshidin xat ravon aylayin» misralari kimning qaysi janrdagi she'ridan olingan? J: **Nodiraning tarji'bandidan**

24. Nodiraning qaysi g'azalida *Sulaymon garchi barcha devlarni o'ziga musaxxar – tobe qilgan bo'lsa ham, chumolining oldida undan ojizligini tan oldi* degan misralar mavjud? J: **«Oqibat» radifli g'azalida**

25. Nodiraning qaysi g'azalida *mashshota – taroq, shona – soch obrazlari mavjud?*

J: **«Kuyma deb aylamadi hech kishi parvonaga bahs» g'azall**

26. *Seni jud-u ehsona targ'ib etib,*

*Xilobingni xayruljavod ayladim.* Nodira qalamiga mansub ushbu she'rda qo'llangan «jud» so'zining ma'nosini toping. J: **Saxlylik**

27. *Marhabo, ey payki sulton, marhabo,*

*Hudhudni mulki Sulaymon, marhabo.* Nodira qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan «payk» so'zining ma'nodoshini toping. J: **Xabarchi**

28. *Seni jud-u ehsona targ'ib etib,*

*Xitobingni xayruljavod ayladim.* Nodira qalamiga man-

sub ushbu she'lda qo'llangan «xayruljavod» so'zining ma'nosini toping. J: **Saxiylarning yaxshisi**

### **GULXANIY (XVIII asr oxiri – XIX asrning 20-yillari)**

1. Muhammad Sharif Gulxaniy qachon va qayerda tug'ilgan? J: **XVIII asrning 3-choragida Qo'qon xonligida tug'ilgan**
2. Gulxaniyning asl ismi? J: **Muhammad Sharif**
3. Gulxaniyning taxalluslari? J: **Gulxanly va Jur'at**
4. Gulxaniyning 50 yoshlarida vafot etganligi haqida kimning qaysi asarida ma'lumot bor?
- J: **Dilshod Barnoning «Tarixi muhojiron» kitobida**
5. Gulxaniy haqida kim «*Bu Jur'atki, avval edi Gulxaniy, Erur barcha hazyon demaklik fani*», deb yozgan?  
J: **Fazliy**
6. Gulxaniy haqida kimlar ma'lumot bergan?  
J: **Fazliy Namangoniyning «Majmuayi shoiron», Po'lat Qayumiyning «Tazkirayl Qayumiy» asarlarida**
7. Gulxaniyning merosi?  
J: **«Zarbulmasal» asari va topilmagan «Devon»**
8. Gulxaniydan bizgacha yetib kelgan she'rlar soni?  
J: **12 ta g'azal va bir forscha qasida**
9. Gulxaniy ijodida Qo'qon adabiy muhitiga xos bo'lma-gan o'g'uz lahjasiga mansub so'zlar ko'p uchraydi. Buni qanday izohlash mumkin? J: **Gulxaniyning Fuzuliy Ijo-didan qattiq ta'sirlanganligi bilan**
10. «Zarbulmasal» asari kimning topshirig'i bilan yaratilgan? J: **Amir Umarxonning**

11. Gulxaniy «Zarbulmasal»da nechta masal keltirgani haqida yozadi? J: **400 ta**
12. «Zarbulmasal» so'zining ma'nosi? J: **Maqol, matal, ramzli hikoya**
13. «Zarbulmasal»da inson ruhiyati qanday tasvirlangan? J: **Alohida berilmay, qushlarning o'zaro suhbatlari zamiriga singdirilgan**
14. «Zarbulmasal»da uchraydigan badiiy obrazlarni nechaga bo'llish mumkin? J: **Uchga: qushlar obrazlari, hayvon-hasharot obrazlari, odam obrazlari**
15. Kuykanakning tabiat? J: **kichik jussali va kuyunchak**
16. Boyqushning tabiat? J: **Sovuqnafas va xasis**
17. Ko'rpushning tabiat? J: **Ko'rligi**
18. Kordonning tabiat? J: **Korchalonligi**
19. Gulxaniy Yapaloqqush timsolidan qanday klmsa obrazini yaratgan? J: **Qo'lidan kelmaydigan ishga urinadigan, boyllig-u shon-shuhratga mukkasildan ketgan klmsa**
20. Qaysi qush «O'g'limning asbobi kulangirligi minqori bilan changalidan malum va ravshan emasmi?» deydi? J: **Yapaloqbibi**
21. Qaysi qush bir qadar davlatmand kimsa timsoli? J: **Yapaloqqush**
22. Mehmonga sarqit ovqat taklif etib, uning ham ko'pin ni o'zi yeb qo'ygan befarosat, yebto'ymas, tarbiyasiz qush? J: **Kulonkir sulton**
23. Boyqush qizining isml? J: **Gunashbonu – Quyoshxon**

24. «Orazidin shams-u qamardir xijil, So'zlaridin shahd-u shakar munsafil» ta'rif qaysi obrazga tegishli?

J: **Gunashbonuga**

25. Boyqushga «Anda ko'diki, xasis-u haris, agar ming chordevordan bir chordevor kam bo'lsa, o'tuz tishini bir-bir sindirun», deb kim ta'rif beradi? J: **Ko'rqush**

26. Qaysi personaj «Ko'bg'a kengash, o'z bilganiningni qib», deb fikrlaydi? J: **Boyqush**

27. Qaysi qush «Yomon otga yol bitsa, yoniga to'siq bog'lamas, yomon erga mol bitsa, yoniga qushni qo'ndimas», deydi? J: **Turumtoy**

28. «Egasini siylagan itga so'ngak tashlar» maqoli kimning tilidan aytilgan? J: **Kordonning**

29. «Po'lat pichoq qinsiz qolmas», «Bosh eson bo'lsa, do'ppi topilur» maqollarini kimning tilidan, qanday munosabat bilan aytilgan? J: **Gunashbonuning tilidan onasiga yigitlarning uylanishga shoshmasligi kerakligi haqida**

30. «Kulonkir sulton» ismi Ko'rqushning aytishicha, qanday qushlarga qo'yilishi lozim?

J: **Humo, uqob, qarchig'ay, bahrin, lochin, itolg'u**

31. Bayt: «Sabr bilan basta eshikdur kushod,

Sabr bilan topdi eranlar murod.

Sabr qilsang, g'o'radin halvo bilar,

Besabrlar o'z oyog'ini yilar».

Asarning qisqacha mazmuni:

Farg'ona viloyatida Qayqubod ismli shohdan qolgan bir vayrona bor edi. Unda Boyo'g'li yashar edi. Boyo'g'lining Gunashbonu degan qizi bor edi. Gunashbonu ta'rif: «Orazidin shams-u qamardir xijil, So'zlaridin shahd-u sha-

*kar munfail. Oftobi olam tobdek har xomni pishirur, hech maxluqni kunduzi ko'rmoqqa chorasi yo'q erdi*. Qiz ba'y yelgandan so'ng, ko'zi suzilib, onasining ta'g'ri so'zlaganiga egri so'zlay boshladi. Ona qiziga aytdiki: «Oshiqqan qiz erga yolchimas va teshik munchoq yerda qolmas». Qiz esa onasiga qarab: «Ey ona, siz menga sabrdan saboq berarsiz, meni oladigan yigitning ham otasi aytar: «Po'lat pichoq qinsiz qolmas», «Bosh eson bo'lsa, do'ppi topilur»

Bular shu haqda bahslashib turganlarida u yoqda Yapaloqqush Ko'rqushni yoniga o'trg'izib: «Dunyoda bo'lgan yosh va qarining juftsiz bo'lishi mumkin emas. Boyo'g'lining bir chiroyli qizi bar ekan, unga sovchi bo'lib borsangiz. Har qancha qalin bo'lsa topilar», deydi. Shunda Ko'rqush aytdi: «Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur. Boyo'g'li ming chordevor qizimning qalini, deyar. Hozir podshomiz adolatli bo'lganlari uchun buncha vayronani topib berolmay uyalib qolamiz. Aytadilarki: «Yolg'on masal turmas», «Uyat o'limdan qattiq», «Ermon yog'ochining egilgani – singani, er yigitning uyalgani – o'lgani» «...shunday qilib, Ko'rqush sovchilikka yo'iga tushibdi. Yo'lda Hudhud bilan uchrashib qolib, undan «Maymun bilan najjor» hikoyati (Mazmuni: «Kashmir viloyatidagi tog'da maymun bir kuni duradgorning ish qilayotganini ko'rib qoladi. Duradgor shu yerda teshasini unutib qoldiradi. Maymun o'zini duradgor his qilib, yog'ochga o'tirib olib, uni tesha bilan chopa boshlaydi. Bir ozdan so'ng duradgor teshasini olib kelish uchun qaytib keladi. Maymun undan qochishga urinadi, lekin ehtiyoitsizligi sababli dumi yog'och teshigiga qisilib qoladi va dumsiz qoladi. Bu masaldan qo'ldan kelmaydigan ishga urinma,

degan xulosa chiqadi»)ni eshitadi. Ko'rquush Hudhudga «Tuya bilan bo'taloq» hikoyati (Mazmuni: «Farg'onada bir sarbon yashar edi. Tuyani bo'talog'i bilan yo'lga olib chiqadi. Bo'taloq onasini emishni juda xohlaydi. Lekin sarbonning ko'zi o'z yo'lida bo'llib, bunga e'tibor ham bermaydi». Bu masaldan eksiz kishining nochorligi anglashiladi)ni so'zlab beradi. Shundan so'ng Ko'rquush Kulonkir sultonning huzuriga jo'naydi. Kulonkir sultonning dargohida shon-u shavkatni ko'rib lol qoladi. Kulonkir sultonning Kuykunak ismli quli bor edi. U Ko'rquushning oldiga kelib, undan nega kelganini so'raydi va uni turli ibratli hikmatlar aytib mot qiladi. Ko'rquush Kuykunakning aqlli ekanligini ko'rib, unga «Ey bolam, sen onasiga o'rgatgan qizga yoki otasiga o'rgatgan o'g'ilga o'xsharsan». Ko'rquushning undan ranjiganini ko'rgan Kulonkir sulton mehmonni ilgarigi mehmondan qolgan oshga taklif etdi. Ko'rquush unga «Osh egasi bilan tolloq», degandan so'ng, Kulonkir sulton bir chang solganda tabaqda oshdan asar ham qolmadidi. Ko'rquush boyo'g'lining yoniga borib, undan qiziga sovchilikka kelganligini bildiradi. Boyo'g'li ko'pchilik bilan kengashib, javobini aytishini ma'lum qiladi. Kulonkir sulton qushiar shohi Malikshohinning pahlavoni edi. Kordon nomli xazinabonini Boyo'g'linikiga qalın qanchaligini bilib kelishga yuboradi. Kordon Turumtoy ismli xizmatkor bilan u yerga barishga tayyorgarlik ko'radi.

Asardan parchalar:

— Osmонki hamisha safarda, shams va qamar va savobit va sayyorasi safardadir. Erki hamisha sohib sabr va sukundir, poymoli har ahli dundir.

— Agar so'z jona paydo qilmasa so'z,  
Ani so'z demagil, ey majlis afro'z.

— Bobojon Ashur cho'loq-u Ali bini,  
Xo'qand mulkida ahmaqi nodiri.

32. «Silsilat uz-zahab» asarining muallifi kim?

J: Abdurahmon Jomiy

33. «Kalila va Dimna» asari kim tomonidan tuzilgan?

J: Hindistonda Bidpoy tomonidan tuzlib, ko'pgina  
Sharq va G'arb xalqlari tillariga tarjima qilingan

34. «Echkuning oti Abdukarim bo'lurg'a so'z kerak»  
maqoli «Zarbulmasal»da kim tomonidan aytilgan?

J: Ko'rpush

35. «Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur,  
og'a bo'lur yigitning peshonasi keng bo'luni», «Chuchvarani  
xom sanabsan» maqollari «Zarbulmasal»da kim tomoni-  
dan aytilgan? J: Ko'rpush

36. «Namangon shahri vayron, oti ulug', sufrasi  
qurug'», «Uyda chaksa uni yo'q, tom boshida qo'sh tanur»,  
«Sichqon sig'mas iniga, g'albir bog'lar dumiga» maqollari  
«Zarbulmasal»da kim tomonidan aytilgan? J: Ko'rpush

37. Sabr qilsang, g'o'rardin halvo bitar,

Besabrlar o'z oyog'idin yitar. «Zarbulmasal»dan olin-  
gan ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llaniilgan?

J: Irsoli masal

38. «Zarbulmasal»da keltirilgan «Maymun bilan Najjar»  
hikoyasi kim tomonidan so'zlab berilgan? J: Hudhud

39. «Zarbulmasal»da keltirilgan «Maymun bilan Najjar»  
hikoyasi kimga so'zlab berilgan? J: Ko'rpushga

40. «Yumruq bukulub sang bo'limas, echku yugurub

*lang bo'limas», «Kesg'on oshg'a o'xshamu yavg'on bulo-muq» maqollari «Zarbulmasal»da kim tomonidan aytilgan?*

**J: Hudhud**

41. «Zarbulmasal»da keltirilgan «Tuya bilan Bo'taloq» hikoyasi kim tomonidan so'zlab berilgan? J: **Ko'rqush**

42. «Zarbulmasal»da keltirilgan «Tuya bilan Bo'taloq» hikoyasi kimga so'zlab berilgan? J: **Hudhudga**

43. «Tirkchilik ilmida arra singari bo'l, ba'zan (qipiqli) o'z tomoningga tort, ba'zan soch» maqoli «Zarbulmasal»da kim tomonidan aytilgan? J: **Hudhud**

44. «Zarbulmasal»dagi Kulonkir sulton kim?

**J: Yapaloqqushning o'g'li**

45. «Zarbulmasal»dagi Kuykunak kim?

**J: Kulonkir sultonning quli**

46. «Yaxshilar topib so'zlar, yomonlar qopib so'zlar», «O'zingni er bilsang, birovni sher bil» maqollari «Zarbulmasal»da kim tomonidan aytilgan? J: **Kuykunak**

47. «Taom yemakda so'zlab yemak yaxshidur, hay-vandek xomush taom yemak ozoda mardum shevasidan emas». Ushbu fikr kim tomonidan aytilgan? J: **Boyo'g'li**

48. «Osh egasi bilan totlig'». Ushbu fikr kim tomonidan aytilgan? J: **Ko'rqush**

49. Gunashbonu so'zining ma'nosini toping.

**J: Quyoshxon**

50. «Erga bersang oshingni, erlar silar boshingni, itga bersang oshingni, itlar chaynar boshingni», «Esing borida etagingni yop», «Yaxshl bilan yurding – yetding murodga, yomon bilan yurding – qolding uyotga», «Yomonga yondashsangiz, balosi yuqar, qozonga yondashsangiz, qarosi

yuqar», «Biz qo'y ko'rmagan bo'lsak ham qiy ko'rgan edik» maqollari kim tomonidan aytigan? J: **Ko'rqush**

51. «*Ertagi savdaning dahsar og'irdig'i bor*», «*Kechki ekinning xatari bor*», «*Ertagi ishni kechga qo'yg'udek emasdur*» maqollari «Zarbulmasal»da kim tomonidan aytigan? J: **Gunashbonu**

52. «...qushilar ko'ziga go', o'z ishiga pishiq, haromzodayi terror o'g'ri mishiq, harif ayyor solor davlatmandlar asnofida mumsiki beor, har murda ustida tayyor, yigirmaning beshini mustahiqqa berib, o'n beshini qo'yniga urgan, tumshug'i Zokirboy jomafurushning tumshug'ig'a o'xshar ekan». Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Sha'rnol**

53. «*Ilm ahlining baxti qalam singari qora*». Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: «**Zarbulmasal**»

54. «**Zarbulmasal**»dagi Kordon kim?

J: **Mallkshohinning xazinaboni**

55. «**Zarbulmasal**»da Bozanda va Navozanda qissalarini kim so'zlab beradi? J: **Kordon**

56. Yodgor po'stindo'z haqidagi hikoyani kim so'zlab beradi? J: **Tutumtoy**

57. «*Safarga ko'p haris bo'lmaiki, anda bir nuqta ziyoda bo'lsa, saqar bo'lur. Safarda rafiq kerak... Yaxshi rafiq birla safar qilsang saodat toparsan va yomon rafiq birla shaqvot*». Ushbu parcha qaysi hikoyalidan olingan?

J: «**Bozanda bilan Navozanda**»

58. «**Toshbaqa bilan Chayon**» hikoyati kimning tilidan bayon ettilgan? J: **Navozanda**

59. «*Eshak o'yini qirq yilda*» degan ibora qaysi hikoyalidan olingan? J: «**Toshbaqa bilan Chayon**»

60. Toshbaqa tomonidan Chayonga qarata aytilgan maqollarni toping. J: Ishonmagin do'stingga, somon tigar po'stingga; Oshnangdan top

61. «Bo'ynida illati borning oyog'i qallirayduri». Ushbu parcha qaysi hikoyatdan olingan?

J: «Toshbaqa bilan Chayon»

62. «Zarbulmasal»da Boyo'g'li yashaydigan shahriston nomi... J: Qubod

63. Dum orzu qilib boriga shukr qilmasdan ikki qu-log'idan ham ajragan «Dumsiz eshak» hikoyati «Zarbulmasal»da kim tomonidan hikoya qilingan? J: Kordon

64. «Tikonsiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas,. Riyozat chekmaguncha yor vasliga yetib bo'lmas» misralari qaysi asardan olingan? J: «Zarbulmasal»dan

65. «Onasi bila kunda e'tiroz etgan qiz,

Bir o'zgani o'ziga ahli roz etgan qiz.

Qayin yurti bilan kuyovning uyini xush

Ko'rmaqdin onasi bila noz etgan qiz» misralari muallifi kim? J: Navoly

66. Gunashbonuning qalini uchun nechta shahar va qishloqdagi chordevordar berildi? J: 25 ta

67. «Zarbulmasal»da Gunashbonu mahriga berilgan 1000 ta chordevordan Xayroboddagi chordevor Kuykunakka yoqmadidi. Buning sababi nimada edi? J: Daryoga ya-qinligi va boyo'g'lining suvni yoqtirmasligi

68. «Zarbulmasal»da Gunashbonu mahriga berilgan 1000 ta chordevordan Xayroboddagi chordevor Kuykunakka yoqmadidi. U Xayrobod o'miga qaysi joyni talab qildi?

J: Mug'

69. «Zarbulmasal»da Boyo'g'lidan 1000 ta chordevorni 600 ta chordevorga kim tushirishni so'radi? J: **Kordon**

70. «Zarbulmasal»da Kulonkir sulton tomonidan kim vakil etib tayinlangandi? J: **Ko'rqush**

71. «Zarbulmasal»da Gunashbonu tomonidan vakil etib kim tayinlangandi? J: **Kuykunak**

72. Kulonkir sultonga to'yda guvoh sifatida qalnashgan qushlarni toping. J: **Olaqarg'a, ko'kqarg'a**

### **MAXMUR (XVIII asr oxiri – 1844-yillar)**

1. Maxmur so'zining ma'nosini toping.

J: **Xumori, mast, xumor bo'lgan**

2. Maxmuring olasi kim bo'lgan?

J: Mulla Shermuhammad Akmal taxallusi bilan ijod qilgan, Qo'qon atrofidagi Bo'yutuman qishlog'idan bo'lib, Qo'qondagi Madrasayi Mirda mudarrislik qilgan, o'zbek va tojik tillaridagi she'rlaridan 2 devon tartib bergen shoir edi

3. Maxmuring onasi kim bo'lgan?

J: **Hapalak qishlog'idan bo'lib, Turdali xattotning qizi bo'lgan**

4. Maxmur haqida kim salbiy fikrlar bildirgan?

J: **Fazliy Namangonly**

5. Ushbu hasbi hol kimniki? «*Kechalarini yotgani na qo'shim bor, Kunduzi ichgani na no'shim bor*»

J: **Maxmurnik!**

6. Maxmuring bizgacha yetib kelgan adabiy merosi hajmi? J: **3417 misradan Iborat 69 she'ri**

7. Maxmurning blzgacha yetib kelgan adabiy meroisida qanday janrlar bor? J: **Muxammas, g'azal, masnaviy, qit'a**

8. Maxmurning bizgacha yetib kelgan adabiy merosining asosiy qismi qanday yo'nalishda?

J: **Tanqidiy, hajviy yo'nallishda**

9. Maxmurning qaysi asariarida jamiyatdagi tengsizlik,adolatsizlik fosh etiladi, nobop odamlarning kirdikorlari shafqatsiz tanqid qilinadi? J: «Munojot», «Ta'rifi viloyati Qurama», «Qozi Muhammad Rajab Avja», «Hoji Niyoza», «Hakim Turobiy hazor xalta», «Qozi Xo'ja sakbon», «Karimqul mehtar», «Takabbur»

10. Maxmurning qaysi she'rida Qo'qon xonligida aholi turmush tarzining nihoyatda og'irlashib ketganligi, turli-tuman soliqlar mehnatkash xalqni xonavayron qilganligi, qishloqlar xarobazorga aylanganligi aks etgan?

J: **«Hapalak» she'rida**

11. Maxmurning Hapalak qishlog'iga qanday aloqasi bor? J: **Onasi shu qishloqdan bo'lgan va sholr umrining so'nggi yillari shu yerda o'tgan**

12. «Hapalak» she'ri qanday munosabat bilan yozilgan? J: **Xon amaldorlarining Hapalakka «tilia puli» solig'i undirish uchun kelishi munosabati bilan**

13. Maxmurning boshdan oyoq mubolag'a san'atiga qurilgan she'rl? J: **«Hapalak»**

14. Maxmur so'zining tasavvufiy ma'nosini toping.

J: **Ilohiy ishqidan mast bo'lgan darvesh**

15. Maxmurning «Vazir» radifli she'ridan parcha:

*Osafo, avqot ilgida ado bo'ldim, vazir,*

*Muffis-u qalioshliqdan g'amzado bo'ldim vazir.*

*Uch bolaga non topolmay benavo bo'ldim vazir,  
Dargohingga shoyatulloh deb gado bo'ldim, vazir,  
Misli soyillar kabi sohib nido bo'ldim vazir.*

16. Maxmurning qaysi g'azali xonga «*Ey jahondori zafar, kavkabayi davri falak*», deya nido qilish bilan boshlanadi? J: **«Hapalak»**

17. «**Hapalak**» she'rida qishloq ahli soliq pulini eshitgandan so'ng nimaga o'xshatiladi? J: **Kapalakka**

18. Hapalakliklar qaysi o'tning tomirini o'g'irda mayda tuyib, sumalak qilib ichishar edi? J: **Ajirig' tomirini**

19. Hapalakliklarning uylari nomlarini shoir qanday ataydi? J: **Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak**

20. Maximuring «*Qozi Muhammad Rajab Avjning o'zi to'g'risidagi g'azali*» hajviyasini qanday boshlanadi?

J: **«Kelgil, ey ahbob, avval tarzi raftorimni ko'r, Ba'd davri gumbazi dastor davrimni ko'r»**

21. Boshidagi sallasi bo'lmasa, qaroqchiga o'xshaydigan qozi haqidagi hajviya kimniki? J: **Maxmurniki**

22. «*Qozi Muhammad Rajab Avjning o'zi to'g'risidagi g'azali*» hajviyasidan parchalar:

*Qozilikda jami qilgan pulni savdo aylasam,  
Asfalasofil degan davrida bozorimni ko'r.  
To adamdin azmi dunyo ayladim yuz voy kim,  
Qo'ymadim olamda bir kun nafsi qahhorimni ko'r.*

### SHERMUHAMMAD MUNIS (1778 – 1829)

1. Munis tarixda kim sifatida nom qozongan?

J: **Shoir, tarixchi, tarjimon, xattot va ma'rifatli shaxs**

2. Munisning otasi? J: **Yuz urug'idan chiqqan Avazbiy xonlikning bosh mirobi bo'lgan**
3. Munisning Xorazmning sug'orish tarixiga old asari? J: «**Arnalar» («Anhorlar»)**
4. Munisning «Munis ul-ushshoq» («Oshiqlar da'sti») devoniga qaysi janrdagi she'rilar kiritilgan? J: **G'azal, muxammas, qasida, ruboil, qit'a**
5. Kim Munisni farmonnavislik vazifasiga tayinladi? J: **Xlva taxti egaşı Avazbiy Inoq**
6. Qaysi hukmdor davrida Munis bosh miroblik lavozi-mini egalladi? J: **Muhammad Rahimxon davrida**
7. Munis she'riy asarlarining hajmi?
- J: **10 ming baytdan ortiq**
8. Munisning savod chiqarish va husnixatga doir pedagogik asari qaysi? J: «**Savodi ta'llim»**
9. Munisning tarixiy asari? J: «**Firdavs ul-iqbol»**
10. Munisning tarjimasi? J: **Mirxondning «Ravzat us-safot» («Soflik bag'i») asari**
11. Munis qaysi hukmdorlarga bag'ishlab qasidalar yozgan? J: **Avazbiy Inoq, Eltuzar, Muhammad Rahimxon I, Olloqulixonga**
12. Munis ijodida g'azalchilikda boshqa shoirlarda uchramaydigan jihat qaysi? J: **Munis 23, 24, hattoki, 33 baytdan iborat g'azal yozgan**
13. «Agarchi aksar g'azal va ruboilarkim, majoz yo'sinida ishq-u husn zohiri sifatida voqe erdi, valekin maoniyi haqoyiq bayonidin orly va mavoizi daqoyiq nishonldin xoll emmas erdi», degan satrlarni Munis qaysi asarida yozgan? J: «**Munis ul-ushshoq» devoni debochasida**

#### 14. Munis g'azallaridan namunalar:

– Do'stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,  
Siz ichib sahbo, meni xunxori hasrat qilmangiz.  
Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,  
Jam'i nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.

– Davlating borida bordur ahli olam oshno,  
Qaytgach davlat, jahonda topilur kam oshno.

– Base g'am boiridin chekmish o'g'imi,

Yog'ir bo'il mish hazin ko'nlim yog'imi (G'amning og'ir  
yukini ko'targani uchun hazin ko'ngilning yag'ini yag'ir  
bo'ldi).

– Vahki, ul zolim meni mazlumga qotil hanuz,  
Ya'ni ag'yoning'a yuz ming mehr ila moyil hanuz.

– Ko'ngluma bir gul g'amidin sonchillbdur xorlar,  
Ohkim, har xoridin jonimdadur ozorlar.

– Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor?  
Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor?

– Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur mango,  
Manzili ma'niga Xizri roh Jomiydur mango.  
Xotirimg'a Xusravidin har zamon sho're etib,  
Banda davronning bori shininkalomidur mango.

Piri Ansoriy so'zidin choshni nutqum topib,  
So'zda hosil sharbatli yuh'iy izomidur mango.

Hofizi Sheroz lutfidin taraqqiyilar topib,  
Jilvagoh ahli tasavvufning maqomidur mango.

Yuzima Attor har lahza do'konl fayz ochib,

Dolm andin atrparvar jon mashomildur mango.  
Fayzi Firdavsiy gahi ko'nglum ochibduri iyddekk,  
Goh Xoqoniy fuluhining payomidur mango.

*Goh tabim Anvari y nuri birla ravshan bo'lib,  
Goh sa'diy jomining fayzi mudomidur mango.  
Topibon ishqisi Iroqiydin zamirim nash'ae,  
Hosil ahli ishqining sho'ri tamomidur mango.*

– *Yutubon bu zamonda qon shuaro,  
Nazm etar gavhari fig'on shuaro.  
Yuz xushomad bila gadolig yetib,  
Topa olmas yemakka non shuaro.  
Bo'lub illosdin zarurat ita  
Xissat (xasislar, pastkashlar) ahlig'a madhxon shuaro.*

– *Garchi avval bor edi mahbubi gulruxsora so'z,  
Lek erur holo base mankub-u baxti qora so'z.  
Istading, ey dil, ko'zin, joning kerakmasmu sanga?  
Kufri zulfin sevding, imoning kerakmasmu sanga?  
– Tabassumda ko'rub rangin labingni nogahon  
g'uncha,  
Qilib diltanglik zahir, ichidin bo'ldi qon g'uncha.  
– Qilurlar bir-birining suhbatin garchi havas ahbob,  
Emaslar lek davron gardishidin dastras ahbob.  
– Bo'lmasa jinsi jamolingga xaridor oftob,  
Ne uchun zarpo'shilg'lar aylar izhor oftob.  
Senki shohi husnsen, har kun qilib qulluq sanga,  
Sajda aylarga qo'yari tufqoqqa ruxsor oftob.  
– Kulbam sari jononim kelmasmu ekin oyo?  
Hajrida yomon holim, bilmasmu ekin oyo?  
– G'unchalar ochildi-yu, ko'nglim ochilmaydur hanuz,  
Bulbulosa xotirim gul mayli qilmaydur hanuz.  
– Vahki, mendin ishq aro ozurdajonroq yo'q kishi,  
Husn aro sendek dog'i nomehribonroq yo'q kishi.*

- Kimnikim do'st dedim, dushmani jon topdim oni,  
Neki andin tiladim sud, ziyon topdim oni.
- Bordim sari ko'yungg'a-vu, hirmon bila yondim,  
Vaslingni tilab, mehnati hijron bila yondim.
- Balo ko'hsorining Farhodi men-men,  
Junun tasvirining Behzodi men-men.
- Uzoringda nure ayondur, ayon  
Ki, andin kun-u oy nishondur, nishon.  
Nechuk el yer-u rohi sardim mening,  
Jahon bog'i andin xazondur, xazon.
- Ashk xun, ruxsor zard-u, dil hazin, tole qaro,  
Dard gunogun, falak dun, ahli davron bevafo.
- Yorni ko'rdum qizil lo'ni bila ag'yor aro,  
O'ylakim, ochg'ay yuzin gul zeb birla xor aro.
- Garchi avvallar niyozimni ko'rub noz etti do'st,  
Lek holo do'stlug' oyinini soz etti do'st.
- Mujdakim, mehr-u vafo rasmini og'oz etti do'st,  
O'zgacha dildorlig' ohangini soz etti do'st.
- Chamanlar sayrig'a kelgilki, fasli navbahor o'l mish,  
Ryozi xuld yanglig' tog'-u sahro lolazor o'l mish.

15. Mustazod: Ishqing o'tidin o'tlanadur joni nizormi,  
Ul navki, mash'al,  
Xokistar o'lub elga borur gardi g'uborim,  
Jismim bo'lubon hal.

16. Muxammaslar. «Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lgusi», deb boshlanuvchi muxammas Navoiyning «Ishq ahli go'ristonida qabrim chu zohir bo'lgusi» g'azaliga bog'langan; «Falak shabgun ko'ngul dudin namoyon et-digumdandur» deb boshlanuvchi muxammasi Fuzully-

ning «Parishon xalqi olam oh-u afg'on etdigumdandur» g'azaliga bog'langan.

17. *Ruboilar*:

- *Munis, talab et kamol – erursen chu yigit.*
- *Shoho, fuqaroki munisi g'amdurlar.*
- *Har kimki erur sifla-vu xassatparvar.*
- *So'z ichra Navoiyki jahongirdurur.*
- *Men zorg'a bazmingiz aro joy bering.*

18. *Tuyuqlar*:

— *Raxshi himmat men tutub mahkam yolin. «Yolin» so'zining ma'nolari: 1) otning yolin; 2) yalindim; 3) yolqin, olov*

— *Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh. «Yosh» so'zining ma'nolari: 1) ko'z yosh tomchillari; 2) yil, umr bosqichlari; 3) yosh bola*

19. «Raxshi himmat men tutub mahkam yolin» «Yolin» so'zining ma'nolarini toping.

J: 1) otning yolin; 2) yalindim; 3) yolqin, olov

20. «Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh». «Yosh» so'zining ma'nolarini toping.

J: 1) ko'z yosh tomchilarlari; 2) yil, umr bosqichlari; 3) yosh bola

21. «Falak shabgun ko'ngul dudin namoyon etdigum-dandur» deb boshlanuvchi muxammasi kimning g'azaliga bog'langan? J: Fuzullynning «Parishon xalqi olam oh-u afg'on etdigumdandur» g'azaliga

22. «Shuaro», «Fuzalo» radifli g'azal yozgan shoir kim? J: Munis

23. Davlatning borida barcha olam senga oshno, davlat

*qo'lingdan ketgach esa, olamda oshno kam topiladi, deya afsuslanib she'r yozgan shoir kim? J: Munis*

24. Munisning «Ustozlar e'tirofi» deb nom olgan g'azali qaysi? J: «**Mango**» radifli g'azali

25. Munis «Ustozlar e'tirofi» g'azalida kimni tariqat mulkining hukmdori, deb ataydi? J: **Nizomiyinl**

26. *Ma'ni – ma'no manzilida Xizri roh – ma'notar manziliga Xizr kabi yo'l boshlovchi deya kimni ta'riflaydi?*

J: **Jomilynl**

26. «Ustozlar e'tirofi» g'azalida qaysi ustoz shoirlar tilga olingen? J: **Nizomly, Jomly, Anvariyl, Navoiy, Bedil, Firdavsy, Sheroyi, Xusrav, Kiromiy**

27. «Bo'lmasa jinsi jamolingg'a xaridor oftob,

*Ne uchun zarpo'shlig'lar aylar izhor oftob?»* (Agar jamolingga oftob xaridor bo'lmasa, unda nima uchun ustingdan zar sochadi?) misralarida qaysi badiiy san'aldan foydalaniłgan? J: **Husni ta'llil, tajnls**

28. Radifga olingen «so'z» faqat til birligi emas, balki keng ma'noda – badiiy adabiyot mazmunida ham qo'llangan «So'z» radifli g'azal yozgan shoir kim? J: **Munis**

29. Labning g'uncha singari kichikligiga, g'unchaning yurak kabi ixcham shakliga egaligiga ishora qilib «G'uncha» radifli g'azal yozgan shoir kim? J: **Munis**

30. Do'stilar suhbat qurishni havas qilsalar-da, lekin zamon zayli bilan bunga qo'llari tegmasligidan afsuslanib «Ahbob» (Do'stilar) radifli g'azal yozgan shoir kim? J: **Munis**

31. «Chamanlar sayrig'a kelgilki, fasli navbahor o'mish, Rivozi xuld yanglig' tog'-u sahro lolazor o'mish» misralari muallifi kim? J: **Munis**

32. Navoiyni ruboiylaridan birida ma'no yo'lidagi pir deb, o'z ismida ham «sher» so'zi mavjudligiga ishora qilgan shoir kim? J: **Munis**

33. *She'r farzanddan ham afzal, chunki uning nasli bo-qiyidir, she'r abadiy qolgusidur* degan g'oya Munisning qaysi asarida ifodalangan? J: **«Ustozlar e'tirofi»**

34. Munisning qaysi g'azali har bir baytiда talmeh san'ati qo'llanilgan? J: **«Ustozlar e'tirofi»**

35. Munisning «Ustozlar e'tirofi» she'rida agar hasad-chilar mening ijodimga hasad bilan qarasa ham, menga g'am yo'qdir, chunki mening ...dek ustozim bor deyilganda kim nazarda tutilgan? J: **Navoly**

36. *Bo'lub iflosdin zarurat ila*

*Xissat ahlig'a madhxon shuaro – yo'qchilik, muhtojlik sababli pastkash, xasislarga madh aytuvchi, ularni maqtashga majbur bo'lgan shoirlar ahvoldidan kuyunub she'r yozgan ijodkor kim?* J: **Munis**

37. *Garchi avval bor edi mahbubi gulruxsora so'z,*

*Lek erur holo base mankub-u baxti qora so'z* (So'z garchi avval go'zal mahbub kabi sevikli bo'lsa ham hozirda baxtsiz, xarob bo'ldi) deya badiiy ijodning o'z davrida qadr-sizlanishidan afsuslanib she'r bitgan shoir kim? J: **Munis**

## MUHAMMAD RIZO OGAHİY (1809 – 1874)

1. Ogahiy she'rlarining hajmi?

J: 20 ming misradan ortiq

2. «Ulki, ogahlarning ogahidir, Fazl-u donish sipehnining mahidir. So'zi ortuq durur guhardin ham, Fazl-u

*donishda olam ichra olam».* Ogahiy haqida kim yuqoriðagi satrlarni bitgan? J: **Komil Xorazmiy**

3. Ogahiyning otasi? J: **Erniyozbek**

4. Ogahiy qachon Olloqulxon tomonidan amakisi Munisning o'rniga bosh miroblik lavozimini egalladi?

J: **1829-yill Munis vafotidan so'ng**

5. Ogahiyning lirik asarlari nechta to'plamda jamlangan? J: **2 ta to'plamda**

6. «Bayozi mutafarriqayi forsiy» to'plamidan Ogahiyning nechta she'ri o'rinni oлган?

J: **20 ga yaqin**

7. Ogahiyning «Ta'viz ul-oshiqin»(Oshiqlar tumor) devoni qachon kimning taklifi bilan tuzilgan?

J: **Muhammad Rahimxon Soniy-Feruz sultanati davrida uning talabi va taklifi bilan**

8. «...barchasi dardi ishq o'tlining harorati bila og'ushta edi... Agar ishq va dard ahlining qo'lig'a tushsa, ta'viz yanglig' bo'yunlarig'a osib, izzat bila asrar erdilar va mutolaa qilib, shavqangiz mazmuni Dorusidin ishq bemorliqi marazig'a nav'i shifo topar erdilar». Ushbu satrlar kimning Devoni «Debocha»sidan? J: **Ogahiyning**

9. Ogahiy devoni nechanchi yillarda Xiva bosmaxonasida ikki marta ko'p nusxada nashr etildi?

J: **1882, 1905-yillarda**

10. Ogahiy devonidan nechta g'azal o'rinni oлган?

J: **450 ga yaqin**

11. Devonda qaysi janrdagi she'rlar uchraydi?

J: **G'azal, qasida, musaddas, murabba', musamman, masnaviy, tarji'band, qit'a, ruboly, tuyuq**

12. Ogahiyning qaysi g'azali xalq orasida keng tarqalgan? J: «Ustina» radifli g'azali

13. Xiva tarjima maktabining asoschisi kim? J: Ogahiy

14. Ogahiy nechta asarni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan? J: 19 ta asarni

15. Ogahiy *tarjimalari*: 1) Kaykovus ibn Vushmagirning «Qobusnom» asari; 2) Sa'diy Sheraziyning «Guliston» asari; 3) Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar» asari; 4) Amir Xusrav Dehlaviyning «Hasht behisht» asari; 5) Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado» asari; 6) Husayn Voiz Koshibiyining «Axloqi Muhsiniy» (Yaxshi xulqlar) asari; 7) Jomiyning «Salomon va Ibsol», «Bahoriston», «Yusuf va Zulayxo» asarlari; 8) Zayniddin Vosifiyning «Bade' ul-vaqoe» asari; 9) «Zubdat ul-hikoyat» (Hikoyalar qaymog'i) asari; 10) «Zafarnoma» asari; 11) «Tabaqoti Akbarshohiy» asari

16. Ogahiyning tarixiy asarlari: 1) «Riyoz ud-devla» (Jannat bog'lari) – 1844-yilda yozilgan. Xiva xonligida 1825 – 1843-yillarda Olloqulixon zamonasida yuz bergan tarixiy voqealar yoritilgan; 2) «Zubdat ut-tavorix» (Tarixlar qaymog'i) – 1845 – 1846-yillarda yozilgan bo'lib, 1843 – 1846-yillarda hukmronlik qilgan Rahimqulixon davri voqealarini aks ettirgan; 3) «Jome ul-voqeoti sultoniy» (Sultonlarga doir voqealar to'plami) – 1856 – 1857-yillarda yozilgan. 1846 – 1855-yillarda hukmronlik qilgan xonlar: Muhammad Aminxon, Abdullaxon, Qutlug'murod davri voqealarini tasvirlaydi; 4) «Gulshani davlat» – 1856 – 1865-yillarda saltanat qurgan Sayyid Muhammad Bahodirxon davri voqealariga bag'ishlangan; 5) «Shohidi iqbol» Feruz taxallusi bilan she'rilar yozgan mashhur Mu-

hammad Rahimxonning taxtga chiqishidan 1872-yil-gacha bo'lgan davri yoriltigan

17. «*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina, Qatlom uchun nas keltirur «nun» eltibon «sod» ustina» baytida Ogahiy qaysi san'atdan foydalangan? J: Kitobat san'atining tashbihi izmor (yashlirin tashbeh) turidan*

18. G'azallaridan namunalar:

– *Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningga sallamno, To'kar har damda ming qon tiyg'i mujgoningga sallamno.*

– *Ey sho'x, ko'z-u qoshingga olam gado, man ham gado,*

*La'lli labi durposhinga olam gado, man ham gado.*

*Boshdin ayoqing jon erur, jonlar sanga qurban erur, Jono, ayoq-u boshingga olam gado, man ham gado.*

– *Bizki, bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz, Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidir kulohimiz.*

– *Bizni bu dahr bog'ining ishrati orzusidin, Shukrki forig' aylamish marhamati ilohimiz.*

– *Ishrat mayin ahhbob tarab birla iching siz, Biz bodayi g'am necha taab birla icharmiz.*

– *Mehri ruxsoringki to olam arodur nur fosh, Yuz qa'yor tufroqg'a gar tun infolidin quyosh.*

– *Soqiyo, mayxoralar jismidin oldi tob qish, Qil muhayyo bazmni qizdurg'ali asbob qish.*

– *Ilahi, har kuning navro'z bo'lsun, Hamisha toleying feruz bo'lsin.*

– *Kel, ey chobuksuvorimkim. base zor-u nazoringman, Boshimni ko'kka yetkurkim, yo'lling uzra g'uboringman.*

- № ajab, shikasta ko'ngil ishi tun-u kun fig'on  
ila noladur
- Ki, na g'am toshiki, falak otor anga lahza-lahza  
havoladur.
- Bo'l shod-u xurram, ey ka'ngulkim, mavsumiq  
navro'z erur,  
*Shohi kavokib adlining ayni jahonafro'z erur.*
- Dahr bir mayxonadurkim, kulfat oning jomidur,  
Ko'z yoshi birla ko'ngul qoni mayi gulformidur.
- Bashar xayli vujudi bog'iga devor xil'atdur,  
*Binoyi obro'si tarhig'a me'mor xil'atdur.*
- Mujdakim, keldi bo'lub haq lutfig'a mazhar bahor,  
Yer yuzin qildi bihisht oso safoparvar bahor.
- Dema ul chehrayi gulrang uzra chashmi jodudur,  
Xo'tan gulzori ichra jilvagar sarsast ohudur.
- O'yla yetkurdi jahong'a ziynat-u oro bahor  
*Kim, bori yer yuzin etti jannat ul ma'vo bahor.*
- Sovuqg'a bu qish ortib shiddat-u kin,  
Qochurdi xalqdin orom-u tamkin.
- Xarob o'lsun, iloho, gunbazi davvor chanxi dun  
*Ki, doim davri kajdur, tavri shum-u hay'ati vojun.*
- Dardi dilim ango dedim, dema oni mango, dedi,  
*Kim manga oshiq ba'lsa, ul lozim erur ango, dedi.*
- Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun nas keltirur «nun» eltibon «sod» ustina.  
*Ey shoh, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini*  
*Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.*
- Baland aylab quyoshg'a poya navro'z,  
*Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z.*

— *Qotig'roq kelmadi hergiz jahong'a ushbu qishdin qish  
Ki, aql-u hisg'a yaksar mone o'ldi borchcha qishdin qish.*

19. «Doshhovli» tasviri:

*Bo'lub andoq binokim sel-u ofat,*

*Asosig'a yetishmas to qiyomat.*

*Saroyi qasri jannahdek muzayyan,*

*Masarratg'a bo'lub dahlizi maskan.*

*Eshiklar barchasi oltundin mullama,*

*Sufalar barcha gavhardin murassa.*

20. Ogahiyning qaysi g'azali tasavvufiy yo'nalishda?

J: «**Bizki, bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz,**

**Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidir kulohimiz»**

21. Ogahiy qaysi g'azalida faqir, ya'ni o'zini Allah yo'liga bag'ishlab, mol-dunyodan kechgan inson timsoli tasvirlangan? J: «**Bizki, bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz,**

**Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidir kulohimiz...» g'azali**

22. Qaysi shoir ijodida «Qish», «Bahor» radifli g'azallar uchraydi? J: **Ogahiy**

23. «Navro'z bo'sun», «Navro'z enur» g'azallari muallifi qaysi javobda berilgan?

J: **Ogahiy**

24. Ogahiyning «Arzimas» radifli g'azalida qaysi g'oya yetakchilik qiladi?

J: **Bu dunyo rohat-farog'atlariga intilma, chunki  
ular dunyoning qayg'u-alamlari oldida arzimasdir**

25. *Bog' sari nazar aylamasam, ayb et manglar, chunki  
nigorimning sochi sunbul-u ko'zi nargis-u labi g'uncha-yu  
yuzi loladur deya go'zal tashbehlar yaratgan shoir kim?*

J: **Ogahiy**

26. Dahr – dunyo bir mayxonadirki, kulfat uning jomidir, ko'z yoshi va ko'ngil qoni qizil rangli maydir deya falsafiy fikrlarni ilgari surgan shoir kim? J: Ogahiy

27. «Emas mushkin qoshi ko'z uzrakim aylab havoyi sayd. Hamul ohu uza parvoz ko'rguzgan itolg'udum» – yorning qoshini ohu ustida ov havasi bilan uchayotgan itolg'u – ov qushiga o'xshatgan shoir kim? J: Ogahiy

28. Ogahiyning qaysi tarixiy asari nomi «tarixlar qaymog'i» ma'nosini toping. J: «Zubdat ut-tavorix»

29. Munis va Ogahiy tomonidan tarjima qilingan Mirxon'dan qalamiga mansub tarixiy asar qaysi?

J: «Firdavs ul-iqbol»

30. Ogahiy qaysi g'azalida yorining huzuriga ko'z yoshlariga toya-toya kelgan oshiq obrazi mavjud?

J: «Navro'z»

31. Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul sham-u sahar, Bulbuldek aylar yuz navo ming nav faryod ustina. Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytda qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan? J: Tazod, tanosub, tashbeh

32. Boshimg'a yoqqon g'am toshin mingdin biricha bo'limg'ay, Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina. Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llangan? J: Talmeh

33. «Kel, ey chobuksuvorimkim, base zar-u nazoring-man, Boshimni ko'kka yetkurkim, yo'ling uzra g'uboring-man». Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan «chobuksuvor» so'zining ma'nosini toping. J: Chavandoz

34. Erurman g'am uqobi changida garchi base log'ar Va lekin shohbozi lutflinga loyiq shikoringman. Ogahiy qa-

lamiga mansub ushbu baytda qo'llangan «uqob» so'zining ma'nosini toping. J: **Burgut**

35. Sovuqq'a bu qish ortib shiddat-u kin,

Qochurdi xalqdin orom-u tamkin. Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan «tamkin» so'zining ma'nosini toping. J: **Sabr, chldash**

36. «Ta'viz ul-oshiqin» so'zining ma'nosini toping.

J: **«Oshiqlar tumor»**

37. Xorazm tarixini yozgan tog'a-jiyan tarixchilar nomi qaysi qatorda berilgan? J: **Munis, Ogahiy**

## MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ (1844 – 1910)

Said Muhammad Rahimxon Bahodirxon soniy – Feruz davlat arbobi, shoir, musiqashunos, olim va bastakordir. U 1844-yili Xivada tug'ilgan, 1863-yil taxtga o'tiradi. Feruz taxallusi bilan ijod qildi. Adabiyot, san'at, madaniyat va ma'rifatning rivojiga ulkan hissa qo'shib, san'atkorlariga homiylik qildi. Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib toshbosmaxona tashkil etdi va fotografiya Ishlarini yo'lga qo'yishga bosh-qosh bo'ldi. Feruz Ogahiyni va shayxulis-lom Salimoxun Matpona o'g'lini ustoz va pir tutgan.

G'azallaridan namunalaridan:

– Furqating soldi dil-u jon ichra o't,

Kufri zulfin din-u iymon ichra o't.

Nargisi shahlo ko'zung solg'usidur

Bir nigahdin bog'-u nizvon ichra o't.

– Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur?

Nargis erkanmu va oyo ul chashmi purafsunmudur?

– Oftoboso jamoling ko'rgach o'ldum, ey nigor.  
Beqaror-u beqaror-u beqaror-u beqaror.  
Oy kibi farrux jamoling ko'rgali yo'lungda ko'z,  
Intizor-u intizor-u intizor-u intizor.

– Ayb aylamang bo'lsam ul oy ishqida nolon, ey rafiq.  
Qildi hazin jomimni hajr o'tig'a so'zon, ey rafiq.

– Ey falak, netdim sani, dushmanlig' izhor aylading.  
Notavon ko'nglum tunganmas g'amg'a duchor aylading.

– La'li shiriningni ta'rif aylab o'l mish shahdkom,  
Anvariyy-u Fazliy-u Hoqoniyyi Masnad mudom.  
Ko'rsa husnung Layli-yu Shirinni vasf etmas edi,  
Xisraviy-u ham Navoiy, Jomiy-u Shayx Nizom.  
Ogahiy-u Komil-u Feruz, Xolis, Chokaring,  
Rojiy-u Mirzo-yu Akmal, Munis-u Xokiy, G'ulom.

## MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY (1850 – 1903)

1. Muqimiyning onasi Bibioyshani mahallada qanday atashgan? **J: Xumoribibi**
2. Muqimiyl o'g'lining ismini toping. **J: Akbarxo'ja**
3. Muqimiyl kimdan xattotlikni o'rgangan?  
**J: Muhammad Yusufdan**
4. Muqimiyl qaysi kasaldan vafot etgan?  
**J: Sariq kasalidan**
5. Muqimiyl qachondan to'lig'icha badiiy ijodga beriladi?  
**J: XIX asrning 70-yillari oxiridan**
6. Muqimiyl 1887 – 1888-yillarda Toshkentga kelib, qaysi ijodkorlar bilan yaqindan tanishadi?  
**J: Almaiyl, Nodim Namangonly bilan**

7. Qaysi shoir ijodida Mamajon makay, Nizomxon, Farzincha, Ismoil naychi kabi o'z davrining taniqli san'atkorlari tilga olinadi? J: **Muqimiy ijodida**

8. Muqimly merosining katta qismini qaysi janrdagi asarlar tashkil etadi?

J: **G'azal, murabba' va muxammaslar**

9. G'azallaridan namunalar:

– Oshiq ermasman yuzungga yakka bu Farg'onada,  
Zohid istar ka'balarda, barhaman butxonada.

Kimga dod aylay bu bedodingni man, ey sangdil,  
Oshno bo'ldim desam, ko'nglung seni begonada.

– Arzimni aytay bodi sabog'a,  
Shoyad gapurgay ul gulqabog'a.

Albatta kelsun, holimni so'rsun,  
Andisha qilsun, ro'zi jazog'a.

– Mumkin o'lса ko'rmog'im, ey sarvi ra'no, surating.  
Aylasa chashmim aro mardum kabi jo surating.

– Hech kim mendek, ilohi, yordin ayrimasun,  
Mehribon munis o'shal dildoridan ayrimasun.

Do'silar, ko'rsatmasun hargiz judolik dardini,  
Dushmaning ham bo'lса o'z g'amxoridan ayrimasun.

– Navbahor. Ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,  
Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar.

10. Murabba'dan namunalar:

Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,  
Ko'rib gul yuzungni bog'da bandadur,  
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.  
Voqif ermas kishi sening aslingdin,

*Tokim desam pari sening naslingdin,*

*Vodarig'o, judo bo'lqim vaslingdin,*

*O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.*

11. «Ko'nglum sandadur» murabba'sining hajmi?

J: Har birl 4 misradan iborat 7 band: 28 misra

12. Muqimiyy ijdida qaysi jihatlar yetakchilik qiladi?

J: Jamiyat va shaxslar hayotidagi illatlarni inkor etish, ularni kulguga olish, hajvliy tanqid qilish, xullas, faol ijtimoly munosabat yetakchilik qiladi

13. Muqimiyyning qaysi she'rida o'zbek to'yiga xos to'kinchilik aks etmaydi? J: «To'yl Iqonbachcha»

14. Muqimiyyning qaysi hajviyasida o'zida bo'limgan sifatlar bilan maqtanadigan chirangoq odamlar ustidan kulinadi? J: «To'yi Iqonbachcha»da

15. «Man rizomas kishiga non bersang. Yo tovuq saqlasang-u, don bersang. Tuynuningdan agarda chiqsa lutun, munda ber daslmovalami butun». «To'yl Iqonbachcha» hajviyasidagi ushbu fikrlar kimniki?

J: Toshkentlik xo'jayinning gumashtasiga to'yni yeng ichida o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i

16. Muqimiyy hajviyalarining qahramonlari bo'lgan firibgar kimsalarni toping. J: Qo'qondagi aka-uka Kamenskiylarning ish boshqaruvchisi Viktor Axmatov, Laxtin

17. Muqimiyy hajviyalaridan qaysilari masnaviy yo'llida yozilgan? J: «Tanobchilar», «To'yl Iqonbachcha», «Maskovchi boy ta'rifda», «Voqeayl Viktor»

18. Muqimiyy hajviyalaridan qaysilari g'azal janrida yozilgan? J: «Saylov», «Dar shikoyati Laxtina», «Voqeayl ko'r Ashurboy hajvi»

19. Muqimiyyat hajviyalaridan qaysilari muxammas janrida yozilgan? J: «**Hajvi Viktor**, «**Hajvi Viktorboy**»

20. «Agar xayrdin so'zlasa har kishi, Urarkim, sinar o'ttiz ikki tishl. Gado qo'sida ko'rsa nogoh non, Degay: Bergan odam emas musulmon». Ushbu o'zbek boylari haqidagi ta'rif Muqimiyyning qaysi asaridan?

J: «**Voqeayi Viktor**»

21. Muqimiyyining «Dar shikoyati Laxtin» asarida o'zbek boylarining bir belyn kelgindini shayx kabi e'zozlab, mehmon qilishga talashishlari qaysi boylar obrazl orgali ochib beriladi? J: **Karim oxun, Qosim dalol**

22. «Maskovchi boy ta'rifida» hajviyasida qaysi boy hajv qilinadi? J: **Xodixo'ja eshon**

23. Xodixo'ja eshon Andijon ahlidan qancha qarz edi?  
J: **40 ming so'm**

24. Eshon Maskovga klmni mol uchun yuboradi?

J: **Poshshoxo'jani**

25. Muqimiyyining qaysi she'rida qarzini uzolmay 3-4 mingga sotiladigan hovlilarini ikki ming aqchaga sotishga majbur bolgan boylar obrazi tasvirlanadi?

J: «**Maskovchi boy ta'rifida**» hajviyasida

26. «Maskovchi boy ta'rifida» hajviyasl necha tilda yozilgan? J: **3 tilda: o'zbek, rus va tojik tillarida**

27. «Saroyeki, o' boshadash, zinhor, Dar onjo marav memuri, ey tabor» misralari qaysi she'r dan olingan?

J: «**Maskovchi boy ta'rifida**» hajviyasidan

28. «*Tapib mardikorini – Seychas yuring. Pojalista. – der edi, – emdi turing*» misralari qaysi asardan olingan?

J: «**Maskovchi boy ta'rifida**» hajviyasidan

29. «Axtaring» g'azalidan parcha:

*Podshoh yo'qlatsalar nogah, gado deb axtaring,  
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring.*

30. «Aroba» g'azalidan parcha:

*Bozor chiqmay endi, zinhor aroba qursin,  
To kelguningcha aylar bozor, aroba qursin.*

31. «Loy» g'azalidan parcha:

*Ko'chaga chiqmoqqa lekin saxt hayron qildi loy,  
Qor yog'ib, qaytar bahor erdi – zimiston qildi loy.*

32. Satira, yumorga usta bo'lgan shoirlar nomi qaysi javobda berilgan? J: **Muqimiy, Zavqiy**

33. Xo'ja va Hakimjon obrazlari Muqimiyning qaysi hajviyasida uchraydi? J: **«Tanobchilar»**

34. *Bibi Ubayda, Shohlig' ota, Nurota, Erhubbi obrazlari qaysi asarda uchraydi?* J: **«Tanobchilar»**

35. *Qilib mustasar, so'zni qildim tamom,  
Malolovar o'gay cho'zilgan kalom.* Muqimiyning qaysi she'ri yuqorida keltirilgan misralar bilan tugaydi?

J: **«Maskovchi boy ta'rifida»**

36. Muqimiyning qaysi she'ri *«Hikoyat qilay, turfa davron ekan, Xaloyiq hama mahv-u hayron ekan»* misralari bilan boshlanadi? J: **«Maskovchi boy ta'rifida»**

37. «Aroba qursin» radifi g'azal bitgan shoir kim?

J: **Muqimly**

38. Muqimiyning qaysi she'rida mol olish uchun o'ris boylariga pul berib qarzga bolgan, qarzini to'lash uchun yashab turgan hovililarini ikki barobar arzon narxda solgan boylarning ayanchli ahvoli tasvirlangan? J: **«Maskovchi boy ta'rifida»**

39. Zamona yangiliklari haqida «Surating», «Aroba»

radifi g'azallar yozgan shoir nomini toping. J: **Muqimiy**

40. *Sultonisan, barcha xo'blar nadiming, Doim erdim duogo'ying, qadiming misralarida qo'llangan «nadim» so'zining ma'nosini toping.* J: **Xizmatkor, mahram**

41. *Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg'onada, Zahid istar ka'balarda, barhaman butxonada.* Ushbu bayt muallifini toping. J: **Muqimiy**

42. «*So'zni, Muqimiy, kerak etmak tamom, Mazzasi qolmas uzun o'lsa kalom*». Muqimiyning qaysi she'ri yuqorida keltirilgan misralar bilan tugaydi?

J: **«Tanobchilar»**

43. «*Qo'shti Jalolxon degan o'g'lin manga, Dedi: «Ruqum o'rgataladursiz siz anga»* bayti Muqimiyning qaysi she'ridan olingan? J: **«Tanobchilar»**

44. Muqimiyning «*Tanobchilar*» satirasidagi qishloq odamlari nutqidan ularning qaysi xislatlari anglashiladi?

J: **Ijtimoiy huquqsizlik**

45. Muqimiy va uning izdoshlari ijodida «*Surating*» radifi g'azallarning paydo bo'lishi sababi nimada?

J: **Fotografiyaning hayotga kirib kelishi**

46. Muqimiy asarlarida o'z davri hayoti va adabiyoti uchun yangi mavzu bo'lgan she'rlar qaysilar?

J: **«Ta'rifi pech», «Saylov»**

## ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LΙ FURQAT

(1859 – 1909)

1. Qaysi shoir Navoiy boshliq ulug' shoirlami tushida ko'rib, ularga «Chor dəvon»dan imtihon topshirib, «she'r

mashqig'a ruxsal» olgan va shundan so'ng she'r yoza boshlagan? J: **Furqat**

2. Furqat kimdan Qur'on tilovatini o'rganadi?

J: **Ashur Muhammad qoridan**

3. Furqat kimdan arab tilini o'rganadi?

J: **Poshshoxo'ja eshondan**

4. Furqat Qashqarda qanday ish bilan shug'ullanadi?

J: **Rusiya musulmon idorasida kotib bo'llib**

5. Furqatning 1891-yilning yanvar-iyun oylarida davomli chop etilgan «Ho'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvolo-ti. O'zi yozg'oni» nomli memuar asari adabiyotshunoslikda qanday nomланади?

J: «**Furqatnama**, «**Sarguzashtnama**»

6. Furqat necha yoshida «Mantiq ut-tayr» asarini o'qigan? J: **8 yoshida**

7. Furqat necha yoshida Navoiyning g'azaliyoti bilan tanishgan? J: **9 yoshida**

8. «*Mening maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imloyi savodim*», deb qaysi shoir yozgan? J: **Furqat**

9. Furqat qachon, qaysi xastalikdan vafot etgan?

J: **1909-yilda, tomaq og'rig'i xastaligidan**

10. Furqat necha yoshida madrasa talabasi bo'lgan?

J: **14 yoshida**

11. Furqat necha yoshida devon tartib bergan?

J: **21 – 22 yoshida**

12. Furqat nechanchi yillar Toshkentda yashadi?

J: **1890 – 1891-yillar**

13. Furqat Samarqandda kimning huzurida bo'ladi?

J: **Savdogar va etnograf olim Mirzo Buxorly huzurida**

14. Furqat Qashqarda kimga uylanadi?

J: Ra'no ismli ayolga

15. Furqat nechanchi yilgacha Turkiston bilan, «Turkiston viloyatining gazeti» bilan aloqani uzmadidi?

J: 1906-yilgacha

16. Furqatning adabiy merosi nimalarni o'z ichiga oлади? J: Irikasi; publitsistikasi, nasriy asarlari; tarjimalari; ilmiy asarlari

17. Furqat tarjimasiga mansub bo'lgan asarlarni toping.

J: «Hammomi xayol», «Chor darvesh», «Nuh manzar»

18. Furqatning qaysi asarlari bizgacha yetib kelmagan?

J: «Hammomi xayol», «Chor darvesh», «Nuh manzar»

19. Furqatning ilmiy asarini toping. J: «To'y tavsifi»; «Gap ta'rifida»; «Aza tavsifi»; «Ilmi qoldayı avzoni»

20. Furqatning qaysi ilmiy asarlari etnografik xarakterda? J: «To'y tavsifi»; «Gap ta'rifida»; «Aza tavsifi»

21. Furqatning qaysi asari adabiyot havaskorlari uchun qo'llanma sifatida tuzilgan va unda aruz vazninining qoidalari bayon etilgan? J: «Ilmi qoldayı avzoni»

20. Furqat g'azallarining sonini toping. J: 200 ga yaqin

21. Furqat ijodida qaysi janrlar uchraydi?

J: G'azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod

22. 1883-yilda Qo'qonda tartib berilgan bayozga Furqatning necha she'ri kiritilgan? J: 9 ta g'azall

23. Muqimiy Furqatning qaysi g'azaliga taxmis bog'lagan? J: «O'lting'usi» nomli g'azaliga

**24. G'azallaridan namunalar:**

- *Bir qamar siymani ko'rdim baldayı Kashmirda,  
Ko'zları masxur-u yuz jodu erur tasxırda.*
- *Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang.  
G'ozadin yuzlarda lob-u, o'smadin qoshlar tarang.  
Za'faroniyo ko'yak uzra arg'uvoniy kamzihul,  
Ro'y mol og'ushidin peshonani ahvoli tang.*
- *Ne balolig' erdi, ay sho'xi diloro, surating.  
Aqlimi lol etti qilg'uncha tamosho surating.*
- *G'aribi, bu viloyat xonumonidin adashganman,  
Besoni murg'i vahshiy oshyonidin adashganman.*
- *Fasli navbahor o'lди ketibon zimistonlar,  
Do'stlar, g'animatduri, sayr eting gulistonlar.*

**25. Furqatning «Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang» g'azali kimning g'azaliga o'xshalma sifatida bitilgan? J: Fuzullynning**

**26. Muxammaslaridan namunalar:**

- *Kishi holimni bilmas, mehribonidin adashganman,  
Vatan ovoradurmen, do'stonidin adashganman,  
Vatansiz benavodurmen, xonumonidin adashganman,  
Vayo bir murg'i vahshiy oshyonidin adashganman.*

**27. Furqatning fikricha, «o'shal kun anjumanda o'tsa umri», uni kim deb atashgan? J: Suhbatly**

**28. Furqatning fikricha, «fano ko'yida kimki mu'takif-dun», uni kim deb atashgan?**

**J: Xilvatiy**

**29. Furqatning ayrılıq va judolik ma'nosida yaratilgan muxammasi qaysi?**

**J: «Manam sho'rlda bulbul» muxammasi**

30. Muxammas: *Mannam sho'rida bulbul bo'stonidin adashganman,*

*Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman,*

*Dilim hajri-la qondur, dilistonidin adashganman,*

*G'aribi ko'yi g'urbat xonumonidin adashganman,*

*Vayo bir murg'i vahshiy oshyonidin adashganman.*

31. «*Laqab har kimsaga mardum ba qadri odatiy dera-*lar» – deya o'zining laqabi, ya'ni taxallusi taqdiriga aylan-ganini she'laridan birida aylib o'tgan mumtoz shoir kim?

J: Furqat

32. *G'arib-u bekas-u sarsonlig'imni boisi shuldur, Ha-*zin-u xasta-yu giryonlig'imni boisi shuldur misralarida Furqat nimani nazarda tutgan? J: Vatandan uzoqda yurganligini

33. O'zbek kelinchagiga atab she'r bitgan shoir nomini toping. J: Furqat

34. *Bir ko'rib chohi zaqan Xorut ila Morut ikov,*

*Chohi Bobil ichra qolmishlar bo'lak tadbirda.* Furqat li-rikasiga doir ushbu baytda qaysi she'riy san'at qo'llangan?

J: Talmeh

35. Yomg'ir uchun tog' lolasini jola qilgan adib kim?

J: Furqat

36. Toshkent erlar gimnaziyasi direktori, «Turkiston viloyatining gazeti» muharriri N.Ostromov qaysi shoirning hayotida katta rol o'yagan? J: Furqat

## UBAYDULLA ZAVQIY (1853 – 1921)

1. Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiyning asosiy hunari qay-silar bo'lgan? J: Kosiblik, mahsido'zlik

2. Zavqiy bir necha yil qaysi boyning qo'lida mirzolik qiladi? J: **Qo'qon shahrl poyabzal rastasining xo'jayini Mo'minboy qo'lida**

3. Zavqiy «Hajvi ahli rasta» she'rida necha kishini fosh qiladi? J: **46 kishini**

4. Zavqiy «Hajvi ahli rasta» she'tini qayerga osib qo'yadi? J: **Mo'ymarak saylgochining eng gavjum joyidagi terakka**

5. Zavqiy «Hajvi ahli rasta» she'rini yozib, ko'p boylarni sharmanda qilganda ular shoirni sudga beradilar. Zavqiy qamoqdan qancha so'm jarima to'lab ozod bo'ladi?

J: **100 so'm**

6. «Hajvi ahli rasta» she'ridan parcha:

*Arzim buki Qori sumalakka,  
Yetkursa boshini ham falekka.  
Salloo'bachcha – ottari Jalilboy,  
To't tepkini yedilar xo'rakka.  
Shokir qora tarzi odam ermish,  
Ming la'nat o'shal qora eshakka.*

7. Zavqiying «Jahonda kamsuxan kim bo'ldi, asrori nihon bo'ldi...» g'azalidan parcha:

*Jahonda kamsuxan kim bo'ldi, asrori nihon bo'ldi,  
Kimki so'zladil ko'p, bilki rasvoyi jahon bo'ldi.  
Nazokat ortturay desang, misoli g'uncha xomush bo'l,  
Nadinkim og'zini to osdi gul, bargi xazon bo'ldi.  
Chamanda arg'uvondek suratoro bo'lmag'ing xub yo'q,  
Pisharda mevasiz sharmandadur, sirri ayon bo'ldi.  
Dema mashhur bo'imoq yaxshi, bug'doy donasi  
pinhon,  
Daraxti qildi javlon, sarg'ayib oxir samon bo'ldi.*

8. «Netay» g'azalidan parcha:

*Yor kelur zamona yo'q, kelmasa-kelmasun netay,  
Sarf etarg'a xazona yo'q, kelmasa-kelmasun netay.*

9. «Ajab ermas» muxammasi:

*Bu kunlar boshimizda bir sahab o'lsa ajab ermas,  
Munavvar zimnida bir oftob o'lsa ajab ermas,  
Bu davlat suv yuzinda bir hubob o'lsa ajab ermas,  
Ko'rinsa surat-u, asli niqob o'lsa ajab ermas,  
Ochilsa pardalar yuzdin hijob o'lsa ajab ermas.  
O'tib bir qarn, arqonim, jahon obod ko'rgaysiz,  
Jahon ahlini zolim haddidin ozod ko'rgaysiz,  
Giriftori alam ermas, hamani shod ko'rgaysiz.*

10. Zavqiyning sayohatnomasi qanday nomlanadi?

J: «**Shohimardon xotirasi**»

11. «Shohimardon xotirasi» murabba'sidagi joy tasviri:

*Bu ravzaga kimki kelib,  
Bir kechaga mehmon ekan,  
Umrida bir ko'rgan kishi  
Olganda bearmon ekan.  
Sahni ajoyib xush havo,  
Ham ruhparvar, jon fizo,  
Xushbo'y ko'ringan har giyoh  
Jambil bitan rayhon ekan.  
Kabiklari bo'ynin cho'zib,  
Yuz savt illa nag'ma tuzib,  
Bulbul navolar ko'rguzub,  
To'lisi xush llhom ekan.*

12. «Shohimardon xotirasi»dagi hajviy tasvir:

*Badshakl-u badxo' badnamo,*

*Botinda kiyna, fisq, nyo,  
Kim uchrasa shilqim gado,  
Sulloh ozori jon ekan.*

13. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Ulfatlari, shamgarmi ahmoq, Sham qaychini bog'lasin etakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Qori**

14. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Ko'p shug'lli baland hangramakka*» deb ta'riflangan personaj kim?

J: **Ahmadjon**

14. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*O'xshaydi ul oshqovoq xamakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Nazirbek**

15. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Pul kelmasa bankadin boyvachcha, Karmay choladur bo'lar-bo'makka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Nazirbek**

16. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Ul tokicha boyvachcha dastor, (Yelgani)da o'xshatur bo'zakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Nazirbek**

17. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*To'rt tepkini yedilar xo'rakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Jalliboy**

18. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Kofircha*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Ahmadjon**

19. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida Meli ismli personajga xos sifat qaysi qatorda to'g'ri berilgan? J: **Ko'r**

20. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida kimga ishtahasi karmay, ovqatni chelakka quyib ichadigan deya ta'rif beriladi?

J: **Xo'jabachcha**

21. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*shamol andaki yengil-roq, O'xshab uchar xuddi bodparakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Qosim**

22. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Qattiqlig'i o'xshamish danakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Abduqodir**
23. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*EI ani(ng) akasin o'xshaturlar Bumin sumak, og'zini tuvakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Ortiqbachcha**
24. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Hayfi to'n-u salsa gun-galakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Olimjon**
25. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Kir ko'ylik o'libdilar Sotmoq uchun emdi jun jiyakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Umarjon**
26. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Sil aft oriqqina, Ahvali ayon bo'lur kuzakka*» deb ta'riflangan personaj kim?  
J: **Muhiddin**
27. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*O'xshaydi baroq desam ko'pakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Fozil**
28. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Tentakkina, shatra-ma-shatakkha*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Nusrat**
29. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Nisfigaz emas, kelur seyakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Kichkinajon**
30. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*sinchalakka o'xshan*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Farzinbachcha**
31. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*o'xshar voyvayakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Farzinbachcha**
32. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*Boshin suqadurki har katakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Nusrat**
33. «*Hajvi ahli rasta*» she'rida «*ko'p suyulganidin Ming martaba chap berur kurakka*» deb ta'riflangan personaj kim? J: **Abdullahoji**

## MUHAMMADNIYOZ KOMIL XORAZMIY

1. Ogahiy qaysi asarida Muhammadniyoz Komilni yuskak iqtidor egasi bo'lgan shoir sifatida tilga oladi?

J: «**Gulshani davlat»** asarida

2. Muhammadniyoz Komil yashagan yillar?

J: 1825 – 1899-yillar

3. Komil Xorazmiyning otasi kim bo'lgan?

J: **Otası Abdulla oxund madrasa mudarrisi bo'lgan**

4. Yangi o'zbek adabiyotini ko'p asrlik an'analarga ega mumtoz adabiyot bilan bog'lab turadigan eng yorqin adabiy shaxs? J: **Komil**

5. Ogahiy «Gulshani davlat» asarida Komilni qanday nom bilan ataydi? J: **Polvonniyoz**

6. Komil Xorazmiyi nima uchun pahlavon deb atashadi? J: **Otalari avillyo sholr Pahlavon Mahmudga e'tiqodlari baland bo'lgani uchun**

7. Qaysi ijodkor mashshoqlik mahorati takomiliga yetgani uchun saroy sozandalariiga boshchilik qilgan, xalq kuylarini to'plab, notaga ko'chirgan? J: **Komil**

8. Komil musiqa sohasidagi yangiligi qaysi?

J: **Komil milliy musiqamizga zamonavly ma'nodagi notani jorly etgan dastlabki musiqashunosdir**

9. Komilning qaysi musiqalari notaga ko'chirilgan holda hozirga qadar yetib kelgan?

J: «**Rost**» maqomiga bog'lagan «**Murabba'yil Komil**», «**Peshravl Feruz**» musiqalari

10. Komil Said Muhammad Rahimxon davrida necha yil qaysi ish bilan shug'ullandi? J: **10 yll xattotlik bilan**

11. Komil Muhammad Rahimxon Soniy davrida qaysi lavozimda ishladi? J: **Mirzaboshilik**

12. 1873-yilda ruslar qarorgohiga aylantirilgan Gandomiyon degan joyda «Tinchlik shardnomasi» tuziladi. Bu sulhning matni kim tomonidan yoziladi?

J: **Komil Xorazmli tomonidan**

13. Qaysi ijodkor «Xorazm notasi» yoki «Tanbur chizig'i» nomli o'z notasini tuzgan? J: **Komil Xorazmiy**

14. Kim keyinchalik «tanbur notasi»ni yanada takomil-lashtirib, Xiva «Shoshmaqom»ini notaga to'liq ko'chiradi?

J: **Komilning a'g'li Muhammad Rasul**

15. Qaysi shoir o'zbek mumtoz adabiyolining so'nggi, yangi o'zbek adabiyotining esa birinchi shoir bo'lgan?

J: **Komil**

16. Komil Xorazmiyning ijodkor sifatidagi o'ziga xosligini ifodalaydigan belgilari qaysilar?

J: **Asarlarining yuksak insonparvarlik va ma'rifatchilik yo'nalishlariga ega ekanligidir**

17. Komil Xorazmiy ijodini sharqli ravishda nechaga bo'lib o'rganish mumkin? J: **Mumtoz yo'nalishda bitilgan asarlar va ma'rifatchilik yo'lida yozilgan asarlar**

18. Qaysi shoir o'zbek adiblari orasida birinchilardan bo'lib asardarida odamni faqat ilohiy yaratiq sifatida emas, balki tirkchilik tashvishlari va ijtimoiy muammolarga ko'mil-gan oddiy inson sifatida aks ettiradi? J: **Komil**

19. Komil o'zbek adiblari orasida birinchi bo'lib Rossiyaning qaysi yirik shaharlarida bo'lgan?

J: **Peterburg va Moskvada**

21. Komil qaysi asarlarni tarjima qilgan? J: **Farohlynning**

«Mahbub ul-quluba», Faxriddin Ali Safiyning «Latoyif at-tavoyif» («Turli toifalarning latifaları») asarlarini

22. G'azallaridan namunalar:

- Ne sud ochilsa gul, o'lsa bahor g'urbat aro,  
Mengaki bo'lmasa yor-u diyor g'urbat aro.
- Emas kishig'a bu dunyoda mulk-u mol kamoi,  
Husuli ilm-u hunar keldi bezavol kamoi.
- Har necha aylabon izhor fasohat shuaro,  
Sochar elga duri ravoyi balog'ati shuaro.
- Yutubon bu zamonda qon fuzalo,  
Kulfat o'qig'adur nishon fuzalo.
- Yuz-u xoling g'amidin gar emastur notavon lola,  
Nedin bo'lmish hamisha siyna dog'-u bag'ri qon lola.
- Ko'rnamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul  
Kim, sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor gul.  
Gul uzoring lam'asidin ochti gardun bog'ida,  
Farqadon gul, kahkashon gul, sab'ayi sayyor gul.
- Manzilim chun bo'ldi ushbu yil diyori Toshkand,  
Jon-u ko'nglum doim istar xor-xori Toshkand.

23. Komilning el orasida qaysi muxammasi mashhur bo'lgan?

J: «Qaysi falak burjining mehri pur anvorisen?»

24. Komilning el orasida mashhur bo'lgan «Qaysi falak burjining mehri pur anvorisen?» deb boshlanuvchi muxammasining naqoratini toping. J: «So'yla manga, ey sanam,  
kimning sevar yorisen?»

25. Komilning «Qaysi falak burjining mehri pur anvorisen?» deb boshlanuvchi muxammasining hajmi?

J: 7 band, 35 mlsra

26. «Shuaro», «Fuzalo» radifli g'azallar bitgan shoir kim? J: **Komil Xorazmly**
27. «Toshkand» radifli g'azal bitgan shoir kim? J: **Komil Xorazmiy**
28. Muhammadniyoz, Niyozmuhammad, Polvonniyoz, Matniyoz ismlari bilan atalgan, Feruzshoh saroyida mirzaboshi, devonbegi vazifalarida ishlagan shoir nomi qaysi javobda berilgan? J: **Komil Xorazmiy**
29. O'zbek musiqasiga Yevro'pa notasini olib kirib «Xorazm nota»sini yaratgan adib nomini toping.
- J: **Komil Xorazmly**
30. «Masnaviy gul, qil'a gul, abyot gul, ash'or gul» misralari muallifi kim? J: **Komil Xorazmly**
31. Xorazmdagi birinchi bosmaxona kimning nomi bilan bog'liq? J: **Komil Xorazmly**

### DILSHOD BARNO (1800 – taxminan 1905/1906)

Dilshod Rahimqul so'fi qizi O'ratega shahrida tug'ilgan. Dastlabki savodni otasidan olgan bo'lsa-da, keyinchalik bu ishni takomiliga yetkazib, maktabdorlik darajasiga erishgan. Anbar Otin ham uning qo'lida tahsil ko'rgan. Dilshod Barno «Tarixi muhajiron» asarida XIX asrdagi Qo'qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisa va voqealarning ishonchli tasvirlarini yozib qoldirgan. U o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan, har ikki tildagi asarlari bizgacha yetib kelgan.

G'azallaridan namunalar:

— *Bahor ayyomi kelmasdan bo'lurmi hech chaman oro,  
Falak sahnida yulduz chiqmog'och zulm ichradur Laylo.*

- *Isming Anbar, jisming Anbar, lolaruxsan la'llab,  
So'zlasang ko'rgan har odam aytur ahsan, la'llab.*
- *Yillardan ham yiroq bo'ldi zulmatli soat,  
Tokay davom etar bundog' alam – razolat.  
Qal'alami, bo'stonlarni, ko'p makonlarni  
Vayron etdi hukmronliq degan kasofat.*
- *Ey raqiblar, siz deyursiz: «Ishq so'zidin kech-kech»,  
Men deyurman: «Ishq so'zidin kechmagayman  
hech-hech».*
- *Boshingda bo'lsa falokat, bu keng jahondin kech,  
Zulmda o'tsa bu umring zamin-u zamondin kech.*
- *Vasi hangomini kutdim, keldi bu hangom taix,  
Navro'zim subhini kutdim, lek keldi shom taix.*
- *Xo'qand bog'da etilg'on jiyda xurmodin laziz,  
Mag'zi Kashmirdin kelturg'on lafz halvodin laziz.  
Mulki Farg'ona jahonni jannatidur bilsalar,  
Bog'i Eram deb maqtanilmog'in luxmi anqodin laziz.*
- *Ey valandosh, hamfikr, hamzikrimiz, hamxonalar,  
Birga o'ynaylik, kulaylik, jo'ralar-dugonalar.  
Pardani oching, chlroyingiz ko'rumsin el aro,  
Shami ruxsoringiza kuysun ko'rib parvonalar.  
Kuylangiz ozodlik mazmunida, siz beibo.  
Tinglasun Toshkand, Xo'jand, Xo'qand  
ham Farg'onalar.*
- *Keling, qizlar, cholaylik dap ila soz,  
Biz asoyish zamonnari chorlaylik boz.  
Qo'shiqni Nodira she'rig'a bog'tab,  
Bo'laylik so'ziga bizlar hamovoz.  
– Jahonni bo'stoni Istaravshan.*

*Ajoyib dostoni Istaravshan.*

– *Ajoyib dilkushodir O'ratepa.*

*Topilmas xushhavodir O'ratepa.*

*Masnaviy:*

*Mani aslim erur olamg'a ravshan,*

*Tavallud manzilimdur Istaravshan.* Bu masnaviyda

Dilshod Barno o'z tarjimayi holini bayon etadi. Asli tug'ilgan manzili Istaravshan ekanligini aytib, o'n besh yoshida vatanidan ayrilib, Umarxon saroyiga keltirilgani haqida afsuslanib yozadi. Umarxon unga «Oting shoira deydiilar, menga zotingni bildirgin», deydi. Dilshod «Yurtimda otim Dilshod edi, lekin amir tig'ida zotim yakson bo'ldi», deya javob qaytaradi. Umarxon: «Bu anorga ne deysan?» deb so'raydi. Dilshod: «Uni qizlar xunidan to'ldiribsang», deydi. Xonning jahli chiqib, uni zindonga tashlashni buyuradi. Dilshod Barno zindondan ozod bo'llib, o'z uyiga jo'naydi. Yigirma yil maktab ochib, mingdan ortiq g'azal bitadi.

## **ANBAR OTIN (1870 – 1915)**

Anbar Otin Farmonqul qizi Qo'qonda tug'ilgan. Uvaysiyning jiyani bo'lgan. Anbar maktabdorlik bilan shug'ullanligi uchun Otin degan nom olgan. O'zbek va tojik tillarida she'rlar bitgan. Devonida g'azal, muxammas, masnaviy, qit'a, mustazod kabi janrlar uchraydi. U yaratgan «Qatorlar falsafasi» o'zbek adabiyoti tarixida ayollar qismatiga bag'ishlangan alohida asar sifatida e'tirof etiladi.

*G'azallaridan namunalar:*

– *Jahon – og'uga kelgan Anbar Olinman,*

*G'am-u qayg'uga kelgan Anbar Olinman.*

– *Kelib xushnud avlodim, mani mulkim qilur obod,*  
*Bu vayrona diyorimda shaharlar aylagay bonyod.*

– *Ey dilbarim, bog'imga kel, huriqodin o'rgilay,*  
*Sani mango keltiruvchi bodi sabadin o'rgilay.*

– *Shoir ersang, vaqtli-vaqtli birla mushoira qil,*  
*Ul Haziniy to'dasiga kiribon munozara qil.*

– *Bir juhud bazzoz kirib keldi bugun,*  
*O'liturub qoshimda chechdi bir lugun.*

– *Xudoning ne'matini bo'lub olg'onlarga o't lushsun,*  
*Sharial hukmini yo'ldin chiqorg'onlarga o't lushsun.*

Masnaviy:

Otam – Farmonqul Marg'iloni.

Onam – Ashurbibl Qo'qoni. Anbar Olin bu masnavly-sida o'zining tarjimayi holini hikoya qiladi. Otasi bo'zchi bo'lsa-da, bitta choponi hech qachon ikkita bo'lmaganligidan afsuslanadi. Bir kun hayit kechasi ular g'avg'o qilishib, o'ttada nizo chiqadi, otasi xotinini qizi va ikkita o'g'li bilan tashlab ketadi. Shoiraning onasi Beshqovoq degan joyga turmushga chiqadi. U kishining do'kon va ikki tanobcha dehqonchilik qiladigan yeri bor edi. Onasi u kishidan yana yettila farzand ko'radi. Anbar Olinni qo'qonlik Zohidxo'ja ismli novvoyga turmushga berishadi. Anbar Olin to'rt farzandi bo'llib, ulardan Ominaxon ismli qizi bolaligida vafot etadi. Ma'minox'ja, Usmonxo'ja nomli o'g'illari, Bibixon ismli qizi bor edi.

«Risolayi falsafayi siyohon» («Qarolar falsafasi») kitobidan 2-fasl: Bu faslda ayollar madh etiladi. Ular Afrotun va Arastuni, Xizr ila Ilyosni, Iskandar-u Doroni... va shu

kabilarni dunyoga keltirib, ularni tarbiyat qilganliklari bayon qilinadi: *Muhabbat birla sevgil, sen hama farqi qarolami, Ayol deb yerga urma, xo'nama farqi qarolami.* 3-faslda shoirlar haqida fikr yuritiladi. Falsafiy mushohada qiluvchi arzi ma'nisini adab haririg'a burkab, nafis bayon qiluvchi shoirlar ulug'lanadi. Dunyoni rohatlik qilish yo'lini bilmaydigan, o'zlarini xalqdan ko'ra baxtiqaro deb biladiganlar haqiqiy baxtiqarolardir, deyiladi. 4-faslda qaro zulmat to'g'risida so'z yuritiladi. Shoiraning fikricha, zulmat ikki xil bo'ladi: biri zulmati muvaqqat, masalan, bo'ronning zulmati yomon bo'lsa ham tezda o'tadi; ikkinchisi zulmati nogahoniy. Bunday zulmat xalqlarning zolim shoh tomonidan ezilishidir. Misol tariqasida Anbar Otin o'riss podshosining zulmini keltiradi.

«ADABIYOT». LITSEYLAR UCHUN DARSLIK.  
3-KITO

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY (1875 – 1919)

XX asr o'zbek adabiyoti, matbuoti, madaniyatining atoqli namoyandasi. Milliy dramaturgiya va sahna san'atining shakllanishi, yangicha ilg'or hamda serko'lam publistikaning vujudga kelishi uning nomi bilan bog'liq. Behbudiy davrning eng ilg'or harakati – jadidchilikning Turkistonagi asoschisi va rahnamosidir.

«Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi» fojiasi Turkiston maishatidan olingen Ibratnamo 3 parda 4 manzaradan iborat milliy birinchi fojiadir.

**Ashxos (kerakli odamlar):** *Boy* – 50 yashar; *Toshmurod* – boyning o'g'il, 15 yoki 17 yashar; *Domla* – yangi fikrlik bir mullo, 30-40 yashar; *Ziyoli* – (Ovrupo libosida) o'rischa o'qigan, millatchi musulmon; *XayrullaQ* – boyning mirzo va mahrami, 18-20 yashar; *Tangriqul* – boyning qotilli; *Davlat* – bo'z bola; *Nor* – bo'z bola; *Liza* – rus xotini, qabiha shaklida; *Artun* – armani mayxonachi; *Pristuf* – ikki politsayskiy, 2 qorovul, 3 nafar erkak, boyning hamsoyasi; *Boybucha* – boyning xotini, 35-40 yashar.

**Birinchi parda:** Birinchi parda domla boyga uchrab, unga o'g'lini o'qitish lazimligini uqtirishi bilan boshlanadi. Boy domlaning o'g'lingizni o'qitsangiz, daftaringizni ham, namoz-u musulmonchilikni ham yaxshi bilib oladi, degan gapiga «*Mirzolik oson, mana Xayrullag'a oyinda yetti so'm beraman, kunduzlari mirzolik va oqshomlari mehmonxo-*

*na istini qilar va halto kelguncha xodimi qilar, kitob ham o'qib beram*, deb javob heradi. Boy domlani uyqum keldi, endi keting, deb jo'natib yuboradi. Domla ketgandan keyin uning uyiga ziyoli keladi. U ham boyga o'qishning foydasi va bunga boylar himmat qilishi lozimligi to'g'risida uzoq so'zlaydi. Boy uning so'zlarini tinglash o'rniغا uxbab qoladi. Ziyoli bundan ranjib, uning uyidan keladi.

**Ikkinci parda:** Ikkinci pardada boyning o'g'li Tangriqul pivotonada uch nafar o'trog'i bilan ichib o'tiradi. Ular ichgan sari kayflari oshib, Lizani olib kelishni xohlab qolishadi. Artun mayxonachi esa Lizani chaqirish uchun 15 manat pul kerakligini aytadi. Yigitlarda buncha pul chiqmaydi. Davlat boyvachcha rozi bo'lsa bir taklifim bor, deb uni o'z otasining sandig'idan pul o'g'irlab kelishga ko'ndiradi. O'g'irlikka Toshmurod bilan Tangriqul jo'naydi.

**Uchinchi parda:** Bunda Toshmurod va Tangriqulning o'g'irlikka tushishi hikoya qilinadi. Tangriqul sandiqni ocha olmagach, Toshmuroddan qanday ochish haqida ishora qilib so'raydi, u esa sandiqni buzing, deya ishora qiladi. Boy sandiqning ovozidan cho'chib uyg'onib keladi va kaltakni olib, Tangriqulga yuguradi. Tangriqul pichoqni boyning ko'ksiga sanchadi. Boy tipirchilab, jon taslim qiladi. Ko'chadan shovqini eshilib, qo'shnilar va boyning xotini kirib keladi. Boyning xotini o'g'liga qarab, «Hey, juvonmarg Toshmurod! Qon qus, koshki chechakka ketayding. Hay, padarkush Toshmurod!» deya baqirib, dod soladi. Domla kirib: «Onajon! Sizg'a sabr dan boshqa chora yo'q. Bu badbaxtlik va musibatg'a sabab jaholat va nodonlikdir. Beilmilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmilik xonavayron qildi», deydi.

**«Ikki emas, to'rt til lozim» maqolasi:** Bunda turkistonliklar uchun to'rt til: turkiy, arabi, fors va rusiy tillarni bilish lozimligi uqtiriladi. Arabiy til din uchun va daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tirkilik va dunyo uchun lozimdir. Hadisi sharifda payg'ambarimizning Zayd bin Sobitga yahudiy xatini o'rganishni buyurganliklari ham tilga olinadi.

**«Teyotr nadur?» maqolasi:** bunda teatrning afzal va foydali tomonlari sanaladi.

«Shunidan kay bud monandi diydan – eshitmoq qachon ko'rmoq kabitidir». Bu maqolada «Padarkush» asarining Samarcandda ikki marta va Xo'jand, Buxoro, Toshkent, Kattaqo'rg'on shaharlarida sahnada qo'yilgani va undan yig'ilgan pullar jadid maktablarini rivojlantirish uchun sarflangani haqida ham ma'lumot beriladi.

### ABDULLA AVLONIY (1878 – 1934)

O'zbek dramaturgiyasi va teatrining, yangicha maorifi va matbuotining asoschilaridan. Hijron taxallusi bilan she'riar bitgan, bir qator yangicha darsliklar yozgan.

**«Adabiyot yoxud milliy she'rlar» birlinchl juzidan**

**«Biz, millat»** she'ridan parcha:

*Na xo'rliq, na qasolat? – Doimo afgor biz, millat,*

*Nama gul dasta qilsa, ne teramiz? – Xor, biz millat.*

*May-u minosini tark aylasa ag'yor, bizlar, oh,*

*Ichib jomi jaholatdan, hamisha zor – biz, millat.*

**«Maktab haqlinda»** she'ridan parcha:

*Biling, o'g'lonlarim, sizlami g'amden qulqarur maktab,*

*Siroti mustaqim, rohi adamdin qulqarur maktab, satrlari*

bilan boshlanadi. Bu she'r musaddas, ya'ni 6 misralik bandan iborat bo'lib, hajmi 5 band, 30 misra. 5 – 6-misralarda «Qo'llingga bir kuni muhni Sulaymonni berur maktab, Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab» misralari naqorat tarzida takrorlanadi.

**«Maktab gulistonı» milliy she'rlari beshinchı juzidən**

**«Hijron sa'zi»** she'ridan parcha:

*Tug'ub o'sdim bu Vałanda,*

*Vatanim misli yo'q jahonda!*

*Toshkand emas, Ioshqand erur,*

*Kesaklari gulqand erur.*

**«Birinchi muallim»** kitobidan. **«To'g'rilik»** haqida:

Bir kampirning uyida bir tup tuti bor edi. Kampirning tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishganda uni qurilib olar, boylarga sotib pul qilar, tirkchiligi shu tut orqasidan edi. Bir kuni shahar podshosi bir ayvon solmoqchi ba'ldi va lik o'sgan daraxt axtarib, kampirning uyiga kelib qoldi, tutni ming oltin bahosida sotib oldi. Kampir boy bo'lib qoldi va ayvon bilgandan so'ng, o'z tutini ko'rgani bordi. Qarasaki, tut jannat kabi ayvon o'rtasida turibdi. Kampir tutiga dedi: «Ey lutim, to'g'riliqning qildi bizni davlatg'a yor, Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor. To'g'nilar jannatning ayvonindadur, O'g'nilar ranj-u alam konindadur».

**«IkkiInchi muallim»** kitobidan

Bu kitob maktablarning alifbodan so'ng o'qitish uchun ochiq til bilan oson tarkibda yozilgan o'quv kitobidir.

*She'r: Shavkati inson erur ilm-u adab.*

*E'tibor etmas anga mol-u nasab.*

**«Yalg'on do'sta»:** Ikki do'st safarga chiqib yo'lda ketayotganlarida ro'parasidan yo'lbars chiqib qoladi. Ulardan biri tezda daraxtning ustiga chiqib alib, a'z jonini saqlaydi. Ikkinchisi shoshilib qolib, nima qilarini bilmay, o'zini o'likka solib, yotib oladi. Yo'lbars uni hidlab, o'lik deb o'ylab, nari ketadi. Daraxt tepasiga chiqib olgan o'rtoq'i undan yo'lbars sening qulog'ingga nima dedi, deb so'raydi. O'rtoq'i unga «Oh do'stim! Shodligingda o'rtoq bo'lib, g'am vaqtingda tashlab ketgan nomard kishilar bilan do'st bo'lima», — dedi.

**«Chin do'sta»:** Ikki kishi bir-biri bilan chin do'st edilar. Ikkalasi bir kun sahra tomoshasi uchun yo'lga chiqdilar. Yo'llari daryo ustidan o'tgani uchun ular kemaga chiqdilar. Kemalari halokatga uchradi. Qutqaruvchilar ularni suvdan olib chiqish uchun bordilar. Ular esa avval meni emas, do'stimni qutqaring, deya fig'on qilishardi. Bularning do'stligini ko'rib hamma hayron qoldi.

**«Xurus ila bo'rla»:** Bir bo'ri daraxt ustida o'tirgan Xurus – xo'rozning oldiga kelib, uni aldab daraxtdan tushrimoqchi bo'ldi. «Ey Xurus o'rtoq! Man sanga yaxshi bir xabar keltirdim. Hayvonlar bilan qushlar orasida sulh tuzildi. Kel, pastga tush, birga o'ynaylik», dedi. Xo'roz bo'rining aldovlariga uchadigan ahmoq emas edi. U bo'riga «Do'stim, saning gaping to'g'riga o'xshaydir. Sandan oldin ikkita it menga bu xabarni keltirdi. Hozir ular kelsa, hammamiz birga o'ynaymiz», dedi. Bu gapni eshitib, bo'ri qochib keta boshladgi. Xo'roz uning nega qochib ketayotganini so'raganida u bu zolim itlarning sulhni buzishga urinishini aytdi va ularga ishona olmasligini bildirdi.

**«Janjalchilik zarari»:** ikki echki bir kuni suv ustiga qo'yilgan taxta ko'priq ustidan bir paytda o'tmoq uchun kelishdi. Ular bir-biriga «Men birinchi o'taman, sen yo'l ber», deb g'avg'o qilishdi. Har ikkisi shoxlarini ishga solishi va natijada suvga tushib, g'arq bo'ldilar.

**«Advokatlik osonmi?» (bir pardalik kulglı) – Turkiston turmushidan ollnib yozilmish asar. O'ynovchilar: Davronbek – musulmon advokat, 24 yoshda; Xudoyberdi – yer sotg'on chol, qulog'i kar, 55 yoshda; Xushvaqt – ot yo'qotgan tojik, 30 yoshda; Haydarali – mol yo'qotgan du-dug', 24 yoshda; Rapoil – nasiyag'a mol sotg'on, 60 yoshda; Egamberdi – ta'y qilib qarzdor bo'lgan arobakash, 35 yoshda; Mehriniso – eri bilan urishib, chiqmoqchi bo'lg'on xotin, 35 yoshda; Abdujabbor – xizmatchi, qiziq, 22 yoshda.**

Davronbek ismli chet elda o'qib kelgan advokat necha oydan beri ishlasa ham bir tiyin pul topa olmaydi. Uning oldiga har kuni turli iltimoslar bilan odamlar kelib turadi. Xudoyberdi ismli kishi otasidan qolgan ikki tanob yerning bir tanobini bir boyga to'rt yuz so'mga sotib, agar olti oyda oldi-sotdi qilib bermasam, shu pulga yana ikki yuz so'm qo'shib beraman, deb vasiqa qog'oziga qo'l qo'ygan edi. U advokatdan shu muhlatni yana olti oyga cho'zib berish haqida iltimos qiluvchi ariza yozib berishni so'raydi. Davronbek uni hozir vaqtim yo'q, saat uchda keling, deb jo'natib yuboradi. Shundan so'ng advokat huzuriga undan najot so'rab, otini kasalxonaga olib ketishganini, o'zi ruscha bilmagani uchun advokat bilan birga borib, otini olib berishni so'rab keladi. Davronbek unga ham saat uchda kellishni tayinlaydi. U ketishi bilan Rapoil ismli juhud birovga qarzga

veksel bërganini, u odam pulning hammasini to'lay olma-ganini, undan yana yuz so'm pul undirish to'g'risida ariza yozish kerakligini so'rab keladi. Davronbek bu odamning noinsofigidan jahli chiqib, men bunday ishlarga aralash-mayman, deb javob berib yuboradi. Agar mening shartim-ga ko'nib, yuz so'mlik vekselning qolgan qismiga, ya'ni 60 so'miga ariza yozdilsangiz, soat 4 da keling deydi. Keyin uning oldiga Mehrinsa ismli ayol arz-dod qilib keladi. U eri-ning qimorboz ekanligini, uni har kuni tinmay kaltaklashi-ni aytib, yordam so'raydi. Davronbek bu ayolga yordam berish uchun unga kasalxonaga xat qilib beradi. Davronbekning oldiga yana Haydarali ismli duduq kishi kelib, mol yo'qotganligini, uni olgan odamlar haqida kimilardandir eshit-ganligini aytib, ariza so'rab keladi. Advokat uni guvohlar-ning ismini bilib kelishga jo'natadi. Davronbek shahardagi o'rtoq'ining bog'iga borib yuragini chigilini yozib kelishga jo'naydi. Uning o'rniqa xizmatchisi Abdujabbor advokatning kiyimlarini kiyib olib, o'zini advokat qilib ko'rsatadi va kel-ganlardan pul olib, ariza yozib beradi. Lekin odamlar uning advokat emasligini bilib qolib, yaxshilab savalashadi.

1. «*Man Ovrupoda o'qub yurg'onimda Turkistondan chiqq'on g'azitalami ko'rub yaxshigina xursand bo'lur edim. Bizning xalqlarning ham ko'zlan ochilub, dunyodan xabar-dor bo'lg'onlardur deb o'ylar edim. Lekin kelub ko'ramanki, yana eski hammom, eski tos, turgan yeridan zig'ircha ham qimirlamag'on, ilgari bosmag'on, ilm va maorifdan asar yo'q. El butun loshdek qotg'on, taraqqiyot, madaniyatdan nishon ham yo'q. Xalq taassub chuquriga qarab yuzluban ketg'on».* Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: **Advokat Davronbekka**

2. Davronbek necha yil chet elda o'qigan edi?

J: **Yetti yil**

3. Advokatni uzundan uzun duo qilib, otasidan qolgan ikki tanob yerning bir tanobini bir boyga lo'l yuz so'mga sotib, agar olti oyda oldi-sotdi qilib bermasam shu pulga yana ikki yuz so'm qo'shib beraman deb vasiqa qog'oziga qo'l qo'ygan, advokatdan shu muhlatni yana olti oyga cho'zib berish haqida iltimos qiluvchi ariza yozib berishni so'ragan kishi kim edi? J: **Xudoyberdi**

4. «Ma'lum shud, ma'lum shud», – deya advokatning boshini qotirgan personaj kim? J: **Xudoyberdi**

5. Har bir gapida «Akunki xo'jayin» deb gapirgan tojik kim edi? J: **Xushvaqt**

6. Bir so'lkavoy evaziga advokat huzuriga undan najot so'rab, otini kasalxonaga olib ketishganini, o'zi ruscha bilmagani uchun advokat bilan birga borib otini olib berishini kim o'tingan? J: **Xushvaqt**

7. «Man o'ylag'on edim, huquqdan mahrum, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning oz-moz bo'lsa-da, qo'llimdan kelg'oncha huquqlarin himoya qilsam. Xalqg'a manfaat yetkursam degan edim. Meni ul umidlarim bo'shg'a chiqdi. Mana ko'rasiz, xalq mandan, man xalqdan bezor bo'ldim. Endi ochuq manga ma'lum bo'ldiki, umuman, xalq orasinda ilm va ma'nifat tomir yoyub, madaniyat laraqqiy qilmag'uncha, manga o'xshash bir-ikki odam xalq orasida ishlab, xalqni ko'zin ochamiz, huquqin mudofaa qilamiz, demak, yerdan turub yulduzlarg'a qo'l uzatmoqg'a o'xshash xayolliy bir nimarsa ekanlig'i emdi ochiq va aniq ma'lum bo'ldi». Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: **Advokat Davronbekka**

8. Advokatga «*Garamjon*» deya kim murojaat qiladi?

J: **Rapoll ismli juhud**

9. Birovga qarzga veksel berganini, u odam pulning hammasini to'lay olmaganini, undan yana yuz so'm pul un-dirish to'g'risida ariza yozish kerakligini kim so'rab keladi?

J: **Rapoll ismli Juhud**

10. Advokat Davronbek otasining ismini toping.

J: **Rustambek**

11. «Mana bu xotun bechorani erga berg'an vaqtlarida o'z xohishi bilan, o'zinig' rizolig'i bilan, o'zi ko'tub xohlag'on eriga bermasdan hayvon kabi kuchlab, qo'lidan tutub, bir zolimning qo'lig'a bergenlar. Bu mushtipar ma'sumaning butun umri azob-mehnatda, qayg'u va kulfatda o'tub dun-yog'a kelg'oniga-da ming marotabadan pushmon yeb q'am zindonida yashag'on». Advokatning bu fikrlari kim haqida edi? J: **Yoniga qilmo'rboz eridan shikoyat qilib kelgan Mehrinsa ismli ayol haqida**

12. «*Ena – o'llirishingg'a qarab chena*» maqoli kimga aytildi? J: **Egamberdi ismli aravakashga**

13. «*Jin charchaganni urar, dev tegirmonchini*» degan maqol kim tomonidan aytildi? J: **Egamberdi tomonidan**

14. «*Barakkallachi*» larning so'ziga kirib, ikki kun dab-dabali to'y berib, uy-joyi, xotinining sepigacha qarz evaziga xalga tushgan Egamberdi qaysi asar qahramoni?

J: **«Advokatlik osomni?»**

15. «*Qaromug' donasi bo'lg'uncha bug'dayning somoni bo'l, yamonning yaxshisi bo'lg'uncha yaxshining yamoni bo'l*» maqollari kimning tilidan aytildi? J: **Advokatning**

16. «Advokatlik osonmi?» asarida «eski hammom, eski tos» maqolini kim qo'llaydi? J: **Davronbek**

17. «Advokatlik osonmi?» asarida kim o'risga yer solib keyin qiyngalgan? J: **Xudoyberdi**

**Abdulla Avloniy maqolalaridan**

«Kim nimani yaxshi ko'rар?» maqolasi: Bunda muallif kimlar nimalarni yoqtiradi, o'z vazifasi va burchini unutgan shaxslar haqida kuyunib fikr yuritadi. Eshonlarimiz toat-ibodat o'miga to'ylarda to'n kiyib, ko'p oshab, ko'p uslashni; ulamolar dars-u ta'lim o'rniiga bir-birlari bilan o'rinalashib, mukamir va mudarris bo'lishni; imomlar xaloyiqqa va'z va nasihat qilish o'rniiga to'y va janozalarda yurib, joma kiyishni; boylar orqa-oldilariga qaramasdan «bonka» va «kredit»ni ko'paytirishni; mo'ysafidlar namoz va niyoz o'rniiga masjid eshigi yonida yig'llib, har kimni shikoyal va g'iybat qilishni; savdogarlar qayerda to'y bo'lsa, o'sha yerda dasturxonchilik qilishni; onalar erlari bilan urishib-talashib qizlariga mol qilishni; otalar bolalariga pul toptirish uchun ularni hammollikka berishni; yoshlari ilm-ma'rifatli bo'lish o'rniiga tor shim bilan kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qo'yishni yaxshi ko'radi.

«Sanoya nafsa» maqolasi: Odamlar dastlab hayvonlarning turli holatlardan ta'sirlanib, ularni haykal yoki suratlarini tayyorlab, kelajak avlodlarga qoldirishni niyat qildilar. Bu birinchi badiyilikka intilish edi. Keyinroq ular qushlarini ham kuzata boshladilar. Bulbulning ovozidan ta'sirlanib, «Sayra, bulbulim, sayra chinorni shoxi sinsin» kabi she'rlar yaratana boshladilar. Keyinchalik ular hayvonlarning ichaklari va terilaridan sozlar yasab, musiqani yaratdilar.

## AVAZ O'TAR (1884 – 1919)

G'azallaridan namunalar:

- *Fidoyi xalqim o'lsun landa jonim,*  
*Bo'lib qurban anga ruhi ravonim.*
- *Topar erkan qachon, yo rab, hayoti jovidon millat?*  
*Topib ilm-u hunar birla maorifdan nishon millat?*
- *Ochinglar, millati vayronani obod etgusi maktab,*  
*O'qusin yoshtiшимиз, ko'ngilni shod etgusi maktab.*
- *Ey ko'ngil, ishq ichra kirding jon kerakmasmu sanga?*  
*Kofni chashmin ko'rib, imon kerakmasmu sanga?*
- *Ko'nglum agar g'ayni sori mayl-u taqozo aylasa,*  
*Kuysun g'am o'tig'a, o'zin g'ayrig'a shaydo aylasa.*
- *Jonimg'a o't tushsin, agar g'ayrig'a parvo aylasa,*  
*Ka'z dog'i chiqsun o'zganining husnin tamoshlo aylasa.*
- *Bo'lma, ey kimsa, hamishe bu sifat mag'ruri ganj*  
*Kim, ne yonglig' ayladi Qorunni kofar zo'nii ganj?!*
- *Ey do'stlar, dahr ahlig'a hamroh-u hamdam*  
*bo'lmanziz,*  
*Hamroh-u hamdam demayin, bal oshno*  
*ham bo'lmanziz.*
- *Husn ichra ul nigor parilar yagonasi,*  
*Man ishqichra bo'lmisham olam fasonasi.*
- *Birodarlar, jahoning yo'q vafosi,*  
*Vafosi demayin, balkim baqosi.*  
Navoiyning «Bo'lubdur» g'azaliga yozilgan  
muxammas:  
*Dil ishqingga mubtalo bo'lubdur,*  
*Ham rasmi vafo ongo bo'lubdur,*

*Olin jafo sango bo'lubdur,  
Ko'zing ne balo qaro bo'lubdur  
Kim, jong'a qaro balo bo'lubdur.*  
Musammanidan parcha. Hajmi 5 bandli 40 misralik  
she'r:

*Har odamning talab yo'lida gar ixlosi komildur,  
Gumonsiz jumlayi maqsud birla komi hosildur.  
Aning sha'nida go'yo oyati tasdiq nozildur.  
Ramuzi ishqkim rohi haqiqat zori shomildur.  
Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vasildur,  
Sadoqat layzini bilgan kishi donov-u oqildur.*

### MUHAMMAD SHARIF SO'FIZODA (1869 – 1938)

O'z davrinig shijoatkor, xalqparvar va ma'rifatparvari. Arabiston, Hindiston, Turkiya mamlakatlari va Tiflis, Bokuda ilm-u dunyoqarashini boyitgan. Istanbulda tahsil olgan. Ma'lum vaqt Hindistonda o'qituvchilik qilgan. O'zbekcha, forscha, ozarcha tillarda ijod etgan.

**She'rlaridan namunalar:**

«O'qing, onalar» she'ri:

*Muncha yomon sho'rladi peshonalar,*

*Qiztanimiz joriyayi xonalar.*

*Siz edingiz jonlara jononalar,*

*Qadringizni bilmadi devonalar.*

*Qumri bilan bulbul-u bedonalar*

*Yaxshi o'qur, siz ham o'qing, onalar.*

«Gazeta ta'g'risinda» she'ri:

*Yashnatib dili g'unchasin, fasli bahor aylar gazet,*

*Suv berib ko'ngul bag'ini sabzavor aylar gazet.  
Sharqdan Mag'ribgacha bo'lg'on havodisni yozib,  
Ne go'zal marg'ub xabarlar oshkor aylar gazet.  
«Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga  
maqtanishganlari» she'ri:*

*Muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar, bizlar,  
Berib pora, pristavlarni topgan chustilar, bizlar.  
Shaharga qo'ymadik poyezdni, kelsun, xalq kun ko'rsin,  
Ajab ma'minsifat, eski musulman chustilar, bizlar.*

### ABDURAUF FITRAT (1886 – 1938)

Asosiy taxallusi «Fitrat» – «lug'ma tabiat», yana bir taxallusi «Mijmar» – «xushbo'y o't yoqiladigan cho'g'don» degan lug'avly ma'nolarni anglatadi. Vatanni «sajdagoh-u jon-u tan» singari sevgan. Fitrat – shoir, nosir, dramaturg, tarixchi, olim, muallim.

**«Abulfayzxon» – yo'qsul o'lkasining tarixidan besh pardall fojia**

Klmsalar: *Abulfayzxon* – Buxorodagi o'zbek xonlarining so'nggisi, 40-50 yoshlarinda; *Ulfat* – xonning xojasaroyi (xaram boshlig'i), 40-50 yoshlarinda; *Davlat* – to'qsabo, xonning yaqin xizmatchilarindan; *Qozi Nizom* – Buxoronning qozikaloni, 50-60 yoshlarinda; *Hakimbiy* – xonning inog'i, so'ngra otalig'i, 50-60 yoshlarinda; *Rahim qurchi* – so'ngra to'qsabo, so'ngra otaliq, Hakimbiyning o'g'li, 30-40 yoshlarinda; *Mir Vafo* – «Tuhfayi xoniyy» degan Rahimxon tarixini yozg'on kishi, Hakimbiyning odami, 30-40 yoshlarinda; *Doniyorbiy* – Hakimbiyning ukasi, 40-50 yosh-

larinda; *Ibrahim inoq* – so'ngra otalq, 60-70 yoshlarinda; *Tog'ayqulbek* – mang'it beklarindan; *Xo'ja Kalon* – mashhur xo'jalardan; *Oxun* – Buxoroning katta mullasi; *Nodirshoh* – mashhur Eron shohi; *Rizoqulixon* – Nodirshohning o'g'li; *Aliqulixon, Husaynxon, Ahmadxon* – Eronning qo'shin boshliqlari; *Abdumominxon* – Abulfayzxonning o'g'li, 15 yashar; *Yo'idosh, Ergash* – qalandar klyimlik tilchilar, Hakimbiyining odamlari.

**Eslatma:** Bundagi voqealarda birinchi pardalar bilan ikkinchi pardalar orasida 7 yil, ikkinchi, uchinchi pardalar bilan to'rtinchchi, beshinchi pardalar orasida bir yil vaqt o'tgan.

1. «Abulfayzxon» tragediyasidagi yetakchi g'oyaviy maqsad nima edi? J: *Zo'ravonlik, o'zgalarni qullarcha itoatda tutish, taxt va mansab dunyosi barcha raziliklarning manbaidir*

2. «Abulfayzxon» tragediyasida qaysi voqealar aks etadi? J: *Buxorodagi ashtarxoniyalar sulolasining oxirgi namoyandasini Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi*

3. «Abulfayzxon» tragediyasida kim Rahimbiyga qaratva «*Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko'masini chuqurdan-chuqurga yumalatmog'ingning zamoni hanuzgacha bitmadimi?*» deydi? J: *Xayol timsoli*

4. Qaysi qahramon astida nomard, qo'rqaq va vahimachi odam? J: *Abulfayzxon*

5. «Abulfayzxon» tragediyasida kim «*Podsholik qon bilan sug'oriladigan og'ochdin*», deydi? J: *Ulfat*

6. «Abulfayzxon» tragediyasidagi qaysi qahramon uzoqni ko'zlab ish tutadigan, dushmanni tashqaridan

emas, avval ichdan, qatoridagilarni qo'lga olib, munofiq va xiyonatchillardan foydalanib, mahv etish yo'lini tutadiganlardan? J: **Nodirshoh**

7. Qaysi qahramon ayyor, pixini yorganlardan?

J: **Otaliq Hakimboy**

8. Qaysi qahramon mard, to'g'ri so'z, e'tiqodidan qaytmaydigan kishi? J: **Farhod otaliq**

9. «Abulfayzxon» tragediyasida *xonni bir ota kabi asrag'on kim?* J: **Farhod otaliq**

10. «Abulfayzxon» tragediyasidagi badiiy to'qima obrazlar qaysilar? J: **Ulfat, Davlat, Qozi Nizom**

11. «Abulfayzxon» tragediyasidagi tarixiy obrazlar qaysilar? J: **Abulfayzxon, Nodirshoh, xonning inog'i Hakimbiy, Ibrohim otaliq, tarixchi Mirvafo**

12. «Abulfayzxon» tragediyasiga zo'ravonlik va shafqatsizlikdan iborat q'ayriinsoniylikning alal-oqibati fojadir, degan falsafiy ma'noga urg'u berish uchun qaysi obrazdan ustalik bilan foydalanadi?

J: **Slyovush timsoldagi Xayol obrazidan**

13. Vilyam Shekspiring tajribalari kimlarning asarlarida davom etdirilgan? J: **Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasida, Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek», A.Oripovning «Sohibqiron» asarlarida**

14. Fitrat «Abulfayzxon» tragediyasida shaxs va jamiyat ortasidagi munosabat masalasidagi o'z idealini qaysi obraz orqali aks ettirgan? J: **Ibrohimbay timsolida**

15. Dramada birlinchl parda kimlarning shaxmot surayotgan holati bilan ochiladi va bu nimaiga ishora qiladi? J: **Qozi Nizom, Ulfat, Mirvafolarning shaxmot surayot-**

gan holati bilan bu manzara shaxmot ustidaqilarning faqat taxta emas, Abulfayzxon saroyi hamda qismatning asosiy o'yinchilari ekaniga ishoradir

16. Tragediya g'oyasining cho'qqisi qaysi obrazning zimmasiga qo'yiladi? J: Xayol obrazining falsafly mushohadalari zimmasiga

17. Abulfayzxonning o'limidan keyin xon qilib kimni ko'taradilar? J: **15 yoshli Abdumo'min to'rani**

18. Abdumo'min to'ranning otalig'i kim? J: **Rahimbiy**

19. Qaysi qahramon yurt egasini qurultoy yo'li bilan saylash lozim degan ilg'or dunyoqarash egasidir?

J: **Ibrohimbiy**

20. Qaysi adib o'z dramasi orqali o'zbek adabiyotida ilk bor inson va tarix, shaxs va jamiyat munosabatlarni badiiy yo'sinda gavdalantirish va bu masalalardagi badiiy idealni hal etish yo'llarini izladi? J: **Filtrat**

21. Siyovush timsolidagi xayol obrazi kimning o'limidan keyin, nechanchi pardada paydo bo'ladi? J: **5-pardada Abdumo'minxon zaharlab o'idirligandan keyin**

22. Abdumo'minxon kim tomonidan zaharlab o'idirlidi? J: **Rahimbiy tomonidan**

Filtrat she'riyatidan:

«Bir oz kul» she'ri:

Ko'z yoshlарim bukun tag'in oqarmi,

Qizil gulim boshqalarga kular-da?

Qizil gulim, bordig'imning sultonи,

Jonim sening xayolingdan kuchaydi.

Yuragimning eng qimmatli armoni,

Nechun menqa marhamating ozaydi?

«O'qitg'uvchilar yurtiga» she'ri:  
*Orqadoshlar, to'planaylik jahining uyin yiqqali,  
El ko'zin olgan qorong'u pardalarni yirtqali.  
Biz erurmiz ma'rifat arslonlari, ilm ertari,  
To'planaylik turk eliga to'g'ri yo'llar ochqali.  
Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,  
Bizlari ham bu kundan o'zi quiqarur.*

23. Drama qaysi voqeal bilan boshlanadi? J: **Shaxmat** o'yini va **Mir Vafo**ning tushini so'zlab berishi bilan

24. Kimlar shaxmat o'ynayotgandi?

J: **Ulfat** xojasaroy, **Mir Vafo** ham **Qozi Nizom**

25. Mir Vafo tushida nimani ko'radi?

J: **Xoqonnling** bo'z bir otg'a mingani, qo'llarida qillch, yiroqlarga qarab turganini

26. Eron qo'shini Nodirshohni yurtimizdan biz chiqarmadik, uning o'zi chiqdi deb kim aytgandi?

J: **Farhod** otaliq

27. «Xong'a yaxshi ko'runkun uchun qiz qurban qilg'uvchilar ko'p, shunlarning qizlarini oldira beringiz», – deb aytgan qahramon kim? J: **Farhod** otaliq

28. «Biz xon hazratlariga o'zimizni qurban qildik. Endi nomusimizni ham istamasunlar», – degan qahramon kim?

J: **Farhod** otaliq

29. Xon Farhod otaliqning boshini alib kelishni kimga buyuradi? J: **Ulfat**ga

30. «Xoqoni olam! Otaliq eski bir qullingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilg'oni uchun uni o'dirmoq nechun bo'lalar ekan?» – deya Farhod otaliqning o'ldirilishiga qarshi bo'lgan personaj kim? J: **Qozi Nizom**

31. O'ldirilgan Farhod otaliq o'rniغا kim otaliq etib tayinlanadi? J: **Ibrohimbiy**

32. «*Devona emas, to'g'riman, to'g'rliqning devonaliqdan yomonroq natijalar bergenini bilaman. Yana to'g'rliqdan ayrila olmayman, xoqonim!*» – deya otaliq bo'lishdan bosh tortgan personaj kim? J: **Ibrohimbiy**

33. «*Xoqonimizni rozi qilmoq juda qiyin bir ish bo'lib qolg'on*», – deganda Ibrohimbiy nimani nazarda tutgan?

J: Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasa xonni ham rozi qilolmasligini

34. To'qsabolik lavozimi kimga berilgan?

J: **Rahim qurchiga**

35. «*Rahmatlik Rajabxon bilan birlashib Abulfayzxon'a qarshi urushg'onimizda shunday kengashgan edik-kim: Buxorog'a bonib kirsak, butun mullolami bir madrasaga solib o't qo'yamiz-da, hammasini yondiramiz. Elimizni buzub, rasvo qilg'on shunlar. Bunlar diningizni tuzatamiz deb dunyomizni murdor qildilar*» fikrlari kimga tegishli?

J: **Ibrohimbiyga**

36. Eron sardorlari kimlar? J: **Husaynxon, Ahmadxon**

37. Taxtga qarata: «*Ey qop-qora saodal sensant Ostingda qolgonlarni ezbuchi bir falokat yuki bo'lg'oning kabi ustingga chiqqonlarning barliqlarini yondirg'uvchi bir olov tepasidirsan!*» – deb kim murojaat qiladi? J: **Xayol tilmsoli**

38. Rahimbiyga: «*Abdumo'min to'ra o'n bash yashar bir bola. Uni xon ko'tardingiz nima, ko'tarmadingiz nima!*» – deb kim aytgan? J: **Ibrohimbiy**

39. «*Biroz kul*» she'ri:

Ko'z yoshlarim bukun tag'in ogarmi,

*Qizil gulim boshqalarga kular-da?  
Qizil gulim, borlig'imning sultoni,  
Jonim sening xayolingdan kuchaydi.*

*Yuragimning eng qimmatli armoni,  
Nechun menga marhamating ozaydi?*

40. «O'qitg'uvchilar yurtiga» she'ri:  
*Orqadoshlar, to'planaylik jahlning uyin yiqqali,  
El ko'zin olgan qorong'u pardalarni yirtqali.  
Biz erurmiz ma'rifat arslonlari, ilm ertari,  
To'planaylik turk eliga to'g'ri yo'llar ochqali.  
Ellari mahvdan qutqaran ilm enur,  
Biszlari ham bu kundan o'zi qutqarur.*

41. *Buxoroning katta mullasi* deb kimga ta'rif berilgan?  
J: Oxund

42. Kim Chingiz avlodidan bo'limgan kishi xon bo'lmaydi degan aqidani yo'q qilaman deydi? J: Qozl Nizom

43. Hakimbekning ukasi kim? J: Doniyalbly

## HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY (1889 – 1929)

She'rlaridan namunalar:

– Ko'zimizga ko'runki turgan hamma asboblar  
Hech bin bo'lmas edi gar bo'lmasa zinhor o'quv.  
Gar dilingda o'ylagan orzuga yetmoq istasang,  
Naqli umring qilmag'il behuda bekor, o'qi!

– Qoradir garchi izi, nuri haqiqatdir o'zi,  
Chunki bosgan yerga zulmatni ziyo qildi qalam.  
– Kim bilurdi odam-u olam nadur, hayvon nechuk,  
Bo'lmasa erdi agar insonda bu osor ilm.

*Olaming xurshidi kundir, odaming xurshidi ilm,  
Olaming zulmati tundir, odaming nodor ilm.  
— Erur ilm-u adab, fazl-u hunar osor maktabdin,  
Yetar har nulbayi olyi esa takror maktabdin.  
Hama ilm-u maorif ganjini devonidir maktab,  
Hama hikmat chiqar bu mahzani asror maktabdin.*

### **ABDULLA QODIRIY (1894 – 1938)**

1. «Mehrobdan chayon» romanı qachon va qayerda bosilib chiqdi?

J: Asar ustida ishlash 1926-yilning kuzida boshlanib, 1928-yilning fevral oyida nlhoyasiga yetdi, 1929-yil mart oyida Samarqandda bosilib chiqdi

2. «Mehrobdan chayon» romanidagi «hamma personajlar orasidan eng jonli, eng yorqin, eng tipik figura», deb Oybek ta'riflagan qahramon kim? J: Solih mahdum

3. «Mehrobdan chayon» romanida «Xayrul-umiri avsatuhoh» bobida Solih mahdumning bir odati aytildi. Bu qaysi odat edi? J: Har narsaning o'tasi bo'lish yaxshi

4. Abdulla Qodiriyning qaysi qahramoni qismatida, uning tevaragidagi fisq-fasodlar, qalloblar qutqusi bilan qahramonning qaib iztiroblari, qalloblarga cheksiz nafrati ifodasida o'zining boshidan kechirgan iztiroblari ham aks elgan? J: «Mehrobdan chayon»da Anvar

5. «Ishq da'vosi avom o'ylaganicha vasi emas – hajrdir. Zero, vasi ishq o'tini so'ndiruvchi, hajr esa kamolotga yetishtiruvchidir». Ushbu fikriarni kim kimga aytgan?

J: «Mehrobdan chayon»da Anvar Ra'noga aytgan

6. Abdulla Qodiriyning qaysi qahramoni «nima bo'lgan-da ham u o'z zamonasining eng oldingi domlalaridan, Qo'qon aksariyatining savodxon bo'lishlariiga sababchi ustozlaridan, hatto ulug' xizmatlarga kishi yetishtinib beruv-chi nodir muallimlaridan» edi?

J: «**Mehrobdan chayon»da Solih mahdum**

7. Solih mahdum xotinining ismi? J: **Nigor oyim**

8. Abdulla Qodiriyning qaysi romanida ham hujjatli, ham hajviy-yumoristik, ham liro-romantik uslubiy shaxob-chalar tutashib ketgan? J: «**Mehrobdan chayon»da**

«Jinlar bazmi» hikoyasi: Bu hikoyada g'ayritabiyl holat-ga duch kelgan kishining sarguzashti bayon etiladi. Hikoya qahramoni O'sar ismli kishi. U bir kuni bog'i uzumlarining o'sib ketgan poyalarini olib tashlash uchun kechgacha ter to'kib ishlaydi. Bog'dagi ishlarini tugatganda qosh qorayib, xuftonga yaqinlashib qolgan edi. O'sar katta yo'lga chiqib olishi uchun Hamdam xumdonchining chakalagini kesib o'tmoqchi bo'ladi. Bir ozdan keyin bazmning ustidan chiqib qoladi. Uni keling-kelang, deya to'rga o'tirg'izishadi. Hamma O'sar aka ishingiz bitdimi, bugun juda charchadingiz shekilli, deb undan hol-ahvol so'rashadi. O'sar akadan das-turxoni bazmdan keyin yozsak bo'ladimi deb so'raydilar. Sozandalar sozlarini to'g'rilab, bir xil bosiq, og'ir mashqni chala boshlaydilar. O'sar aka kuy ta'siriga berilib, ezilgan-cha yig'lay boshlaydi. Sozandalar ikkinchi kuyni chaladilar. Bu mashq juda quvnoq va sho'x bo'llib, O'sar aka davra-ga tushib, davrada o'ynayotgan qiz bilan raqsga tushib ketadi. Bir vaqt allanarsaga turtinib, yerga ylqilib tushadi. Turib qarasa, hech qanday bazm yo'q, o'zi esa ariq ichida

ag'nab yetibdi. O'sar akaning bu hikoyasini o'g'li mактабда muallimiga aytib beradi. Muallim bo'lsa buni xayolot, vahim deb baholaydi. Juma kuni bolalarni vahimning qanday payda bo'lishi haqida xabardor qilishga va'da beradi.

### CHO'L PON (1897 – 1937)

#### «Kecha va kunduz» romanidan

1. Qaysi qahramon eng klchik bolalik davridayoq butun qishloqning podasini boqib, oilasi ehtiyojini qondirgan, uning podachilik davrini qishloq aholisi havas bilan eslaydi?

J: Xolmat

2. Zebi o'rtoqlari bilan qishloqqa kimning uyiga mehmon bo'lib kelishadi? J: Enaxonlarning uyiga

3. «...hammadan burun ish boshlab, hammadan kech tugatadi va hammadan ko'p urinadi. Shu bilangina olti jordan birikkan katta oilani naridan-beri tebratib keladi». Ushbu ta'rif qaysi qahramonga xos? J: Xolmat

4. Akbarali mingboshining ta'ifi: «Belida kumush kamari, yonida kumush soqli qılıchi, ustida zarboschoponi bo'lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Oddiy kiyimda ko'rganlar yo oddiy qishloq boyi, yo Yetisuv bilan aloqasi bor qo'ychi, yo bo'lmasa yaylov tomon bilan ish ko'radigan tuyachi deb o'yaydilar». U ellikkoshilikka taylnanish uchun avvalgi mingboshiga yaxshi bir ularchi otni pora uchun bergen. Olti yil ellikkoshilik qilgan. Miryoqub bilan Ostanaqul boyning katta bir qovun saylida tanishgan. Akbarali mingboshi mingboshilikda 13 yil faoliyat ko'rsatgan.

5. Miryoqub ta'ifi: uni xalq «asl mingboshi» deb ataydi. Keksalar unga «Miryoqub epaqa», deb laqab berishgan.

Bir kuni Miryoqub noib to'ranikiga hadya olib borganda noib to'ra uni mehmonga taklif qiladi. Ularnikiga shu paytda injener kelib qoladi. Noib to'ra bilan injener suhbatga tushib ketishadi. Miryoqub ularning suhbatidan yaqin orada temir yo'l tushadigan joylarning sxemasini bilib oladi. Oradan bir hafta o'tar-o'tmas Miryoqub poyezd yo'l o'tishi kerak bo'lgan joylarni arzon-garovga sotib oladi. Buni ko'rganlar Miryoqub jinni bo'libdi, deb uning ustidan kuladi. Shirkat poyezd yo'lli qurilishiga ijozat olgandan so'ng, uning ishbilarmonligiga hamma hayron qoladi. Hatto noib to'ra unga «Sen xuddi bir amerikalikka o'xshaysan, Miryoqub!» deydi.

6. Mingboshining xizmatchilari: rus mirzasi – Sokolov, inoq mirshabi – Mirzabobo, musulmon mirzasi – Hakimjon

7. Akbarali mingboshini gazetada maqtab maqola yozgan kim? J: **Mulla Rivojiddin a'lamlı Mulkobodlı**

8. Qumariqda mingboshining ustidan bizga suv bermaydi, deya ariza yozgan boylar kimlar? J: **Umarallboy (laqabi Puchuq) va Yodgorxo'ja (laqabi Echkı)**

9. Cho'lpionning qaysi she'ri 20-yillarda Toshkentdag'i Ol'ka o'zbek bilim yurti o'qituvchilarining iltimosi bilan shoirming lirik tarjimayi holi sifatida yozilgan? J: «**Men shoirmi?**» (1928)

10. «*Shoirlik menda bir soyami deyman, Har bir tu-shunchamni yoza olmagach, rassomdek xayolga chiza olmagach, Haqiq borlig'imga ko'p afsus yeyman*» misralarining muallifi? J: **Cho'lpion**

11. Cho'lpionning qaysi she'ri sarbast yo'llida yozilgan? J: «**Bahorni sog'indim...**» (1926)

12. Cho'lpionning qaysi she'ri quyidagi misralar bilan yakunlanadi? «*Yo'q... O'lim ya'qdır! Yolg'iz bir o'chib, bir*

*so'nish bordir... Bir o'chib, so'nib... Yana yonish bor. Yana bahordan, Yana lolalar, Yana siz, ey erkin tilaklari!»*

J: «**Bahorni sog'indim»**

13. Cho'lpionning qaysi she'ri quyidagi misralar bilan boshlanadi? «*Bahorni sog'indim, bahorni Ko'rganda yerlar, olamlar to'la qomi, Qor... Qor Zaharli ninalar kabi Ko'zlarga qarab oqar*» J: «**Bahorni sog'indim»**

14. Cho'lpionning qaysi she'ri tabiatning rangin tasviri emas, balki qora qalam bilan chizilgan eskizidir?

J: «**Kuz yomg'iri**»

15. Cho'lpionning qaysi she'ri oktabr oyida Moskvada yozilgan? J: «**Kuz yomg'iri**»

16. Cho'lpion «Men shoirmi?» she'rida o'zining kim bo'lib tug'ilmagandan afsuslanadi? J: **Rassom**

17. Necha hijolik barmoq vazni Cho'lpionning sevimli she'riy vazni? J: 11 hijolik

18. Cho'lpionning qaysi she'rida «*Sochilgan soching-day sochilsa siring*» satrlari bor?

J: «**Bir tutam sochlaring...**»

19. «*Zulm oldida har bir narsa, Ehtimolki, bo'yin egar. Agar zulm avjga kelsa, Ko'k boshni-da yerga tegar*». Ushbu satrlar kimni? J: Cho'lpionning «*Vijdon erki*» (1922)

20. «*Kishanlarin zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzi-lur, Tomirimda qo'zg'alishning vahshiy qoni gupurdin*» misralari Cho'lpionning qaysi she'ridan?

J: «**Qo'zg'allsh**» (1922)

21. Cho'lpionning qaysi she'ri «*Kirmayman ko'chaning boshi berkiga, Chunki taslim bo'ldim muhit erkiga*», degan satrlar bilan tugaydi? J: «**Somon parcha**» (1923)

22. «Ey sovuq yellardan muz kiyib kelg'onlar, U qo'pol tushingiz qorlarda yo'q bo'lsin! Ey mening bog'imdani mevamni terg'onlar, U qora boshingiz yertarga ko'milsin!» misralari Cho'lponning qaysi she'ridan? J: «Xazon» (1923)
23. «Uning olasi ham nihoyati bir ayron-chi, yer-suvi yo'q, dastgohi yo'q. Ro'zg'or katta... Shunday bo'lsa ham bizga deb nimalami qilishmadi-a?». – deyilganda kim haqidagi so'z bormoqda? J: Saltanat
24. «Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!.. Ashula aytsa, qulog'ing mast bo'lib, o'ladi odam... Nafasi buncha issiq, muncha mazalik! Muncha la'sirlik!» Zebiga berilgan ushbu ta'rif kim tomonidan aytildi? J: Xolmatning xotini
25. «Kambag'al – xudoyimning suygan bandasi» deydilar, shumi suygan bandanining holi?!». – deya kambag'alligidan kuyungan personaj kim? J: Enaxon
26. Mingboshining ma'ylovini ikki osilganlar deb ataydigan rus amaldorlari qaysi rus yozuvchisining asanga ishora qili-shardi? J: Leonid Andreyevning «Yetti osilganlar qissasi»
27. «Kecha va kunduz» romanidagi sartaroshning ismi... J: To'xtash
28. Akbarali mingboshi necha yil ellikboshilik qilgandi? J: Olti yil
29. Akbarali mingboshi ellikboshilikka tayinlanish uchun avvalgi mingboshiga pora uchun nima bergen? J: Yaxshi blr uloqchi otni
30. Akbarali mingboshi Miryoqub bilan qachon tanishgan? J: Ostanaqul boyning katta blr qovun saylida
31. Akbarali mingboshi mingboshilikda necha yil faoliyat ko'rsatgan? J: 13 yil

32. Qovun saylidan ikki kun o'tgandan keyin Akbarali mingboshi Miryoqubning uyiga nimalar jo'natadi?

J: **Ikki arava qovun-tarvuz bilan ikki zambar uzum, ikki chorakkina qayroqi bug'doy**

33. «*Bir og'iz gapini sittiq va yoqimli qilib gapirolmay-digan sodda va to'ng odam*», – dey kimga ta'rif berilgan?

J: **Akbarali mingboshiga**

34. U, aksari, piyoda yuradi, yurganda ham negadir shoshilib yuradi. «Assalomu alaykum!» deb dona-dona qilib salom bersangiz, shoshilganidan bo'lsa kerak, «vass...» debgina qo'yadi. Shu bilan birga, siz tomonga bo'ynini qiy-shaytirib, juda kichiklik bilan alik oladi, doim kulimsirab turgan ko'zlarini siz tomonga qiyagina bir tashlab olib, yo'rg'alaganicha ketadi... Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Miryoqub**

35. «Xudo bu sevgili quliga davlatni ikki qo'llab uzat-sa-da, farzand to'g'risida biroz o'ksitib qo'yan», – deya kimga ta'rif berilgan? J: **Mingboshiga**

36. «*Ikki toman yoqasiga tilladan bolg'a suratl o'rnatal-gan, novcha bo'yli, mosh-birinch soqall, xushmo'ylov va bir ko'zi jindak g'ilaydan kelgan kular yuzli odam*» ta'rifi kim haqida? J: **Ma'ruf injener**

37. Yadgar echki, Umarali puchuq qaysi asar qahramonlari? J: **«Kecha va kunduz»**

38. Zebi haqida: «*Shaharda bir xudo bandasining ikka-la dunyoga arziydigan bir qizi bor ekan!*». – deya kim ta'rif bergen? J: **Miryoqub**

39. Zebi haqida: «*Juda yaxshi, bulbul singari ashula qilar ekan. Ovozi Dovud payg'ambaramiki singari deydilar...*». – deya kim ta'rif bergen? J: **Miryoqub**

40. Kimga «hovlisida muallim saqlab, o'g'llarini o'qitaldi. Jadid maktabiga pul bilan qarashadi. Odamlarning botalarini yubortiradi. O'zi jadid gazeti o'qiydi...» – deb ta'rif berilgan?

J: Abdusamat mingboshiga

41. «Yiqilgan polvon ham achchig'ini kulib yangadi». Ushbu fikr kimga tegishli? J: Miryoqubga

42. «Shu ojiz holimda shairmanmi men?..» misralari muallifi kim? J: Cho'lpon

43. «Tabiatning butun yamon tarmoni

Shu o'lkaga faqat jilva qildimi?

Mo'minlaming oq vijdoni, imoni

Sham so'nganday tinsizgina so'ndimi?» misralari Cho'lponning qaysi she'ridan olingan?

J: «Yong'in» she'ridan

44. Cho'lponning qaysi she'ri «Kundalik daftارимдан» deb ham nomlanadi? J: «Somon parcha»

45. «Muhit kuchlik ekan, egdim bo'ynimni,

Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.

Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi,

Oqishning yo'liga soldim kuyimni» misralari Cho'lponning qaysi she'ridan olingan? J: «Somon parcha»

46. Cho'lponning qaysi she'ridagi lirik qahramon o'zini muhit erkiga berib qo'ygan? J: «Somon parcha»

47. Cho'lponning qaysi she'ri «Sevdim» deganlarining yolg'ondir sening!...» misralari bilan yakunlanadi?

J: «Bir tutam sochlaring...» she'ri

48. «Tomchilar – Ko'klaming so'zları Yerlarnı qamchilar...» misralari bilan lugaydigan she'r qaysi?

J: «Kuz yomg'iri» she'ri

49. Akbarali mingboshining katta xolini kim?

J: Xadichaxon

50. Zebi sevgilisining ismi kim? J: O'lmasjon

51. Kimga «Epaqa» deb laqab qo'yilgandi?

J: Miryoqubga

52. Akabarali mingboshining qizi... J: Fazilat

### GAFUR G'ULOM (1903 – 1966)

1. G'afur G'ulom daslab kim sifatida tanildi?

J: Felyetonchi, publitsist, hajviy hikoyanavis sifatida

2. G'afur G'ulomning necha jildlik mukammal asarlar to'plami nashr qilingan? J: 12 jildlik

3. «Shodlik qo'shini bosdi saodal ko'chasini, Go'daklar jaranglatar hayitlik tangasini, Kelinchaklar axtarar pardoz qutichasini, Qirq kokil bo'lsin deydi, qistaydi yangasini». Ushbu she'r muallifini toping. J: G'afur G'ulom

4. G'afur G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri qachon yozilgan? J: 1942-yilda

5. G'afur G'ulomning «Alisher» she'ri qachon yozilgan?

J: Navoiy tavalludi munosabati bilan 1948-yilda

6. G'afur G'ulom qaysi she'rini o'ziga soat taqdim etgan jiyani mayor Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlaydi?

J: «Vaqt» she'rini

7. G'afur G'ulom «Vaqt» she'rida bir lahza mazmunini nilmaga tenglashtiradi? J: Bahorga

8. «Vaqt» she'rida nemis generali urush boshlash

haqidagi qarorga qo'l qo'ygan necha sekund damni odamlar million yil fashistlarni la'natlab o'tadi? J: Uch sekund

9. «Vaqt» she'rida qaysi vaqtning mohiyatiga bir nazar solinadi? J: Lahza – sekundning

10. «Ne-ne tarixlarni boshdan o'tkazib, Talay jaflolarni torgan eski sharq Ne-ne daholarni tarbiyat qilib, Oftobday jahonni nurga qildi g'arq» misralari qaysi she'r dan?

J: «Alisher» she'ridan

11. «Sen yetim emassan» she'rida shoir o'zining nechanchi yillardagi sargardonliklarini eslab afsuslanadi?

J: XX asrning 10-yillari

12. «Tong yaqin, tong yaqin, oppoq long yaqin» misralari qaysi she'r dan olingan?

J: «Sen yetim emassan» she'ridan

13. «Bir qo'ng'iz mo'ylovli, Baroq soch mal'un, Jigarrang bir mundir Istag'i uchun Nahotki yerimiz Chappa aylanib, Nahotki daryolar Oqar teskari?» misralari qaysi she'r dan olingan? J: «Sen yetim emassan» she'ridan

14. «Sog'inish» she'rida jangga ketgan yigit sevgilisining ismi? J: Nafisa

15. «Balki bir g'alat o'q, yo xavf-u xatar Xazinayi umrimdan yo'qatdi olmos» misralarida «olmos» kim yoki nimaning ramzi? J: Farzandning

## MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LIOYBEK (1905 – 1968)

1. Oybekning adib sifatida shakllanishida kimning ta'siri kuchli bo'lgan? J: Qodiriyning

2. Oybekning shoir sifatida shakillanishida kimning ta'siri kuchli bo'lgan? J: **Cho'lponning**
3. O'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib kim avto-biografik roman janrini boshlab berdi? J: **Oybek**
4. Oybekning romanlari?
- J: «Navoly», «Oltin vodiyidan shabadalar», «Qu-yosh qoraymas», «Ulug' yo'l», «Qutlug' qon»
5. Oybekning qissalari?
- J: «Nur qidirib», «Bolalik xotirlarlar», «Bola Allisher»
6. Oybekning dostonlari? J: «Qizlar», «Hamza», «Davrilm jarohati», «Dilbar – davr qizi», «O'ch», «Mashrab», «Guli va Navoly», «Baxtigul va Sog'indiq»
7. Oybekning ilk she'riy to'plami?
- J: 1926-yilda bosilgan «Tuyg'ular» to'plami
8. «Orqangdan yig'lab qoldim, Ko'ksimni tig'lab qoldim» satrlarining muallifini toping. J: **Oybek**
9. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» romanini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan? J: **Oybek**
10. «Lirikaning emotsiya vositalari kuchli, ba'zan uzun romandan, faktlar bilan to'lgan har xil yozuvdan ko're davomliroq, kuchliroq, chuquarroq ta'sir qoldira biladi» satrlarining mualifsi kim? J: **Oybek**
11. Oybekning «Mashrab» dostoni qanday doston?
- J: **Lirik doston**
12. «Xastamen... Fikrga, tuyg'uga to'lib, Oy menga hamqadam – asta yuramen. Sog'aysam, bir kuni yozamen to'yib, Hislarga qalbimni qo'shib yozamen» satrlarining muallifini toping. J: **Oybek**
13. «Sachlan patila, ko'zlar maxmur, Ko'zlarda sach-

*raydi qora kuchli nur. Saraton quyoshi, kuz izg'irini Ishlamish yuzlarning ma'no sirini... Boyligi qalb she'ni va eski tanbur» satrlarida qaysi shoir aks etgan? J: Mashrab*

14. Oybek «Mashrab» dostonida shoir xarakteri qirralarining qaysi jihatlariga e'tiborni qaratadi?

J: 1) Mashrabening olov va quyoshga bo'lgan munosabati; 2) Mashrabening shoirligi; 3) Mashrab she'rlarining xalqqa yaqinligi; 4) Mashrab xatti-harakatlarining mantiqqa asoslanganligi

15. «Olovni ham dudni sevadi shoir, Kaftida cho'g'larni o'ynatar mohir. Quyosh jilvasini ko'rар olovda» ta'rifи qaysi shoir haqida? J: Mashrab haqida

16. «So'zi xalqni qattiq kuldiradi goh, Goho u qalblardan uzdiradi oh» ta'rifи qaysi shoir haqida?

J: Mashrab haqida

17. «Bulutday kezsa xalq ichidan shoir, Xotirasи quyosh kabi qoladin» ta'rifи qaysi shoir haqida? J: Mashrab haqida

18. «Qochadi har yerda koshonalardan, Shah do'stlar chirkinroq begonalardan» ta'rifи qaysi shoir haqida?

J: Mashrab haqida

19. «Oybek prozada shair-u, poeziyada prozaikdin». Oybek haqidagi ushbu fikrlar muallifi? J: H.Olimjon

20. Oybek Navoiy hayoti va ijodi bilan qachondan qiziqa boshladi? J: 30-yillar arafasida

21. Oybekning «Navoiy» romanı haqidagi to'g'ri hukmlarni toping. J: 1940-yil 6-yanvardan roman ustida ish olib borish boshlandi, 1942-yilning qish oylarida yakunladi, 1944-yilda nashr etildi

22. Oybek qaysi romanı qahramonlari haqida shunday

yozgan: «Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq-tayin ko'rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'sib chiqqandek edilar».

J: «**Navoly**» romanı

23. «Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, ...o'zga xalqlar ibrat ola bilsinlar... Tokaygacha insonlar vahshat sahrosida qolurtar! Inson barcha maxluqottamining tojidir. U sharaflı, sof, go'zal yashamog'i kerak. Davlat arbobiları aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini ollinga aylantirmoq mumkin». Navoiy ushbu fikrlarini kimga aytgan? J: **Do'sti Xo'ja Afzalga**

24. Qaysi temuriy hukmdor «qilichdan ko'ra mayga, jang maydonlaridan ko'ra chaman bog'larda tuzilgan sho'x bazmlarga moyil»? J: **Husayn Boyqaro**

25. «Inson uchun toj kiymoq shart emas, balki nomus ham vijdon sohibi bo'lmoq, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini sezmoq shart!» Navoiy ushbu fikrlarini kimga aytgan?

J: **Badluzzamonga**

26. Qaysi qahramon kambag'al oiladan chiqqaniga qaramay, qanchadan-qancha beva-bechoralarga zulm o'tkazgan? J: **To'g'onbek**

27. «Qariya, o'giling ma'noli. Biroq umr qisqa ekan, yashaganingga yarasha dunyoning changini chiqarib keli». Bu fikrlar kimga tegishli? J: **To'g'onbekka**

28. «Men aminmanki, siz jaholat tig'ini sindirmasangiz, birodarlaringiz nomussizlik botqog'iga kun sayin chuqurroq botaversalar, bu muborak yurtda hayot o'chog'i sovrilur». Navoiy ushbu fikrlarini kimga aytgan?

J: **Badiuzzamonga**

29. Oybek «Navoiy» romaniga sevgi mavzusini olib kirish uchun qaysi to'qima obrazlardan foydalangan?

J: Arslonqul bilan Dildor

30. «Chaqmoq qanchalik balandda chaqmasin, eghi bo'lGANI UCHUN, albatTA yerning qa'niga borur. Shamki, ta'g'i, adldir – kuysa ham boshdan oyoq nur bo'lib kuyun». Ushbu hikmatli so'zlar qaysi romanidan olingan?

J: «Navoly» romanidan

31. «Shoh bolasiga yurt va sipoh, darvesh bolasiga masjid-u xonaqoh kerak». Ushbu hikmatli so'zlar qaysi romanidan olingan? J: «Navoiy» romanidan

32. «Lo'lining chirmandasi yorilsa, maymunga a'yinchaq bo'ladi». Ushbu hikmatli so'zlar qaysi romanidan olingan? J: «Navoly» romanidan

33. «Fikrlaming sayr-u sayohati uchun qog'ozlar tolmas qanotlar kabidir. Ular tog'dan ham, dengizdan ham oshib o'tgushi». Ushbu hikmatli so'zlar qaysi romanidan olingan? J: «Navoiy» romanidan

34. «Kaminaning shogirdlaridan, nodir iste'dod. Zamonamizning Abu Ali Sinosi bo'lishiga kaminada aslo shubha yo'q», deya Fazliddin tomonidan Navoiyga tanishтирсан гаҳрамон ким?

J: Sultanmurod

35. «Navoiy» romanining ikkinchi bobida Navoiy Darveshali bir bino farhini chizib beradi. Bu qaysi bino edi?

J: Kutubxona

36. Beklar begi deya ta'riflangan, Husayn Boyqaroga yaqin joyda o'tiradigan shaxs? J: Muzaffar barlos

37. Qadim beklar naslidan bo'lib, g'oyal bilimli, sardor,

ulug'vor odam, ovga, qushga o'chligidan biror qushi ölib qolsa, u uchun molam tutadigan shaxs?

J: **Muhammad burunduq barlos**

38. Telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, bahodir, yovqur bek, har vaqt ikki qo'li bilan shatranj o'ynaydi, deya ta'riflangan shaxs? J: **Zulnun Arg'un**

39. Ajoyib qonun chaladigan, she'r aytadigan, xatni chiroyli bitadigan, she'rni favqulodda zavq va ingichkalik bilan tanlasa-da, ashaddiy fisq va fujurchi, deya ta'riflangan shaxs? J: **Xo'ja Abdulla Marvoriy**

40. Butun harakati nafis va nozik, ajoyib raqs etadi, o'zi ixtiro qilgan raqlari bor, deya ta'riflangan shaxs?

J: **Saydbadriddin**

41. Badiuzzamonning hamsuhbati va shoiri kim edi?

J: **Mavlono Zamoniy.**

42. «O'tka yoqqil sarvni ul qaddi ra'no bo'lmasa, Elga bergil gulni ul ruxsori zeba bo'lmasa» misralari kimning qalamiga mansub? J: **Husayn Boyqaroning**

43. «Himmat va g'ayratni aslo qo'ldan bermang. El, ulus sizdek zotlarga g'oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog'iqa chuqur tomir yoydirmog'imiz va undan mo'l hasil olmog'imiz kerak». Navoiyning ushbu gaplari kimga qaratilgandi? J: **Sultonmurodga**

44. «Havoiy hayotga berilgan, beparvo, uquvsizroq edi», – deya kimga ta'rif berilgan? J: **Darveshaliga**

45. «Yirik, qiyiq, o'tkir qarovchi ko'zlarini iroda va ingicha hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho'tabiatni ham ifodalar edi». Ushbu ta'rif kim haqida?

J: **Husayn Boyqaro haqlida**

46. Sultan Mahmud kim edi?

J: **Abusaid mirzoning o'g'li**

47. «Podsho qoshida bo'lib, farmonlarni yozib turar, ishlar haqida podshoga hisob beradigan» mansab qaysi?

J: **Parvonachi**

48. «Sodda, dilovar, ov va qush ilmining piri. O'zining maxsus yoyini kuch bilan otib o'qni taxtadan o'tkazar edi», – deya kimga ta'rif berilgan? J: **Islim barlos**

49. «Shunday chaqqon edikim, yetti otning ustidan qatorasi sakragan», – deya ta'riflangan shaxs ...

J: **Badriddin**

50. Olimlar orasida johilligi bilan tanilgan, do'sti Majdiddin tomonidan «zamonaning Afotuni» deya ta'riflangan shaxs kim? J: **Mavlono Shahobiddin**

51. «Bir vaqtlar Abu Said mirzo davrida o'n ming dinorlik vaqf mulkini yeb qo'yib sharmanda bo'lgan eski qallob», – deb kimga ta'rif berilgan? J: **Mavlono Shahobiddin**

52. Navoiy Mirak Naqqosh bilan qaysi imoratning naqshi haqida so'zlashadi? J: «Binafsha bog's»

53. O'zini Badiuzzamon tarafdoi ko'rsatib, bu yerga qochib ketgan va shahzoda tomonidan katta iltifot ko'rgan sobiq qozi Shahobiddin, aslida, Muzaffar mirzoning josusi ekani, kuni kecha yashirin hujjatlar bilan qo'lga tushgani, bukun erta bilan dorga osilgani haqida Navoiyga kim gapirib beradi? J: **Mavlono Zamonly**

54. Qari, sodda, so'zi va harakati telbaroq bahodir deya kim ta'riflanadi? J: **Zulnun Arg'unbek**

55. Past bo'yli, tiyrak ko'zli, xushmuomala, hisob-kitobga mohir kim edi? J: **Xo'ja Afzal**

56. Mirak Naqqosh kimni: «*Zehni baland, qo'li oltin ekan*», – deb maqtaydi? J: **Kamoliddin Behzodni**
57. Xo'ja Afzal Navoiyga kim edi? J: **Do'sti**
58. «*Davlat arboblari aqil va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini ollinga aylan-tirmaq mumkin*», – degan fikrlar qaysi asardan olingan? J: «**Navoiy» romanidan**
59. «*Belidan yuqarisi kengayib borgan, qabariq ko'krakli, mig'i gavdali*», – deya kim ta'riflangan? J: **Husayn Boyqaro**
60. Navoiy to'rl yoshida mehmonlarga kimning she'rini o'qib bergen? J: **Qosim Anvorning**

### **ABDULLA QAHHOR (1907 – 1968)**

1. Abdulla Qahhor qanday taxalluslar bilan malbuolda qatnashgan? J: **Norin shilpiq, Mavlon kufur, Gulyor, Er-kaboy, E-boy**
2. Abdulla Qahhorning jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorda tutuvchi hikoyalar, deb baho olgan asarlari? J: «**Anor**», «**O'g'ri**», «**Bemor**», «**Adabiyot muallimi**», «**San'atkor**»
3. Abdulla Qahhorni qaysi romani uni chinakamiga xalqqa tanitdi? J: **1934-yilda yozilgan «Sarob» romanı**
4. Abdulla Qahhorning ilk muvaffaqiyatli chiqqan hikoyasi qaysi? J: «**Boshsiz odam**»
5. Abdulla Qahhor hikoyalariga xos asosiy xususiyat? J: **Mustaqill fikrashdan mahrum, mute, jabrdiyda, nochor, xo'slangan odamlar qismatini tasvirlash**

6. Shaxs erki, huquqi, mutelik, qullik psixologiyasi ifodasi, talqini XX asr adabiyotida Cho'lpion an'analarini eng izchil davom ettiligan adib? J: **Abdulla Qahhor**

7. Kim «Yozuvchi janrni emas, janr yozuvchini tanlaysi», – degan? J: **Abdulla Qahhor**

8. Milliy adabiyotimizda realistik hikoyachilikning asoschisi? J: **Abdulla Qahhor**

9. «Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, dunyoda bundan osonroq ish bo'lmas edi. Hayoldan aynan ko'chirish kitobdan ko'chirishday gap. Nusxa nusxa bo'lib qolaveradi. Bunday narsalarda originallik bo'lmaydi. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, unga o'ylab yurgan dardini singdirish, tilaklarining qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi». Ushbu fikrlar muallifini loping. J: **Abdulla Qahhor**

10. Abdulla Qahhor qaysi asari haqida «Uni to'rt yilda yozib tugatdim. Uni kitobxon xush qabul qildi, lekin arzon shuhratparasllik, ba'zan esa to'g'ridan to'g'ri jaholat natijasi bo'lgan tanqid nayza ko'tarib qarshi oldi. Tanqid undan nuqul siyosat izladi. Romandagi odamlarning dard-u dunyosini, oh-u zorini eshitadigan bir azamat topilmadi», – deb yozadi? J: «**Sarob» romanı haqida**

11. Abdulla Qahhorning qaysi asari xazon bo'lgan mubabbat, uvol bo'lgan umr dostoni, ikki ko'rkan yoshning, bir-biriga munosib, aslida baxt uchun tug'ilgan, ammo shaxsiyatidagi, tabiatidagi ojizliklar, qolaversa, Jamiyatdagi ziddiyatlar tufayli hayotda o'z o'mnini, baxtini topolmagan nevgiron avlodning achchiq fojeli qismati, ruhiy iztiroblari, oh-zorlari to'g'risidagi asar? J: «**Sarob» romanı**

12. «Sarob» romanida kimlarning muhabbatini tasvirlasadi? J: **Saidiy va Munisxonlarning**
13. «Sarob» romanidagi Saidiyning o'z ismi?  
J: **Rahimjon**
14. Saidiyning kasbi? J: **Jurnalist va yozuvchi**
15. Saidiyning oxirgi 11 so'm pulini ham avrab tortib algan, yolg'onchi, ikkiyuzlamachi shoir kim? J: **Ulfat**
16. So'nggi vaqtarda bosmachiga chiqib kelgan Saidiy va Salimxonlarga tanish bo'lgan shaxs? J: **Is'hoq afandi**
17. Saidiy Salimxonga Tolstoyning vafotl munosabati bilan yozilgan qaysi shoirning she'rini o'qib beradi?  
J: **Abdulla To'qayning**
18. Salimxonni Qozonga olib borib, o'zining jurnalist kuyovi bilan tanishtirib qo'ygan, otasining do'sti bo'lgan taraqqiyparvar mashhur boy kim? J: **Husaynov**
19. Saidiyning qaysi she'ri va hikoyasi xizmatchilaming ehtiyyotsizligi tufayli qoladigan materiallar ichidan topilib, birinchi marta jurnalga chiqarish uchun navbatga qo'yiladi?  
J: **«Vodiy» she'ri, «Qalandar» hikoyasi**
20. Saidiyning asarlarini o'qib, ularda ista'dod namunalarini ko'rib, uning uyiga xat yo'llagan jurnalist?  
J: **Kenja**
21. Yosh qalamkashlarning she'rlarini ko'rib chiqmasdan ham, ularga jurnalda «bosilmaydi» degan javob yuboruvchi jurnalist kim? J: **Yoqubjon**
22. Saidiyning yoshligidagi hammaktabl, bilimga chanqaq yigit kim? J: **Tesha**
23. «Basharti tanqid qilinsa ham yaxshi, tanilasiz, tanqid darajasida asar yaratish oson emas. So'kilsangiz ham

mayli, o'quvchingiz ko'payadi», – deya Saidiyga hikoya mavzusini ma'qullagan atoqli tanqidchi? J: **Abbosxon**

24. Qaysi hikoyasi sababli Saidiy bilan Kenja o'tasida adovat paydo bo'ldi? J: Ilhom tomonidan **Saidiyga yozish uchun plani berilgan hikoya**

25. Saidiy kimning qiziga uylanadi?

J: **Murodxo'ja domlaning**

26. Saidiy kim bilan o'z taqdirini bog'laydi?

J: **Soraxandek tasqara bilan**

27. «*Qullashim mumkinmi?*» Bu so'zni u juda tez aytdi, ammo aytib bo'lguncha ko'zidan yosh chiqib ketayozdi». Ushbu holatga Saidiy qachon tushadi? J: **To'ydan keyln Munisxon bilan ilk bor uchrashganda**

28. Saidiy asar oxirida qanday holga tushadi?

J: **Telba holga tushib, qaynotasining dargohidan bosh olib ketadi**

29. «*Rahimjon hazir shalag'i chiqqan aravaday Murodxo'ja domlaning tomorqasida ag'anab yotibdi*». Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan?

J: **Abdulla Qahhorning «Sarob» romanidan**

30. Abdulla Qahhor qaysi asari qahramonining ruhiyati, ma'nnaviy inqirozi tasvirida ekzistensializm metodidan foydalangan? J: **«Sarob» romanida**

31. Kalamush bilan ko'mir konida bo'ladigan halokat, mushuk bilan beda, Britaniyaning mustamlaka siyosati bilan Hindistonning oq sigiri, yer magniti bilan shimoldagi «kamalak», hatto tish og'rig'i bilan ko'z og'rig'i orasida ham bir munosabat – bog'lanish bor ekaniga kim ishonadi?

J: **Salimxon**

32. Adabiyot maydonining «bahodirlari» deya kimlarga ta'rif berilgan?

J: **Ulfat, Abbasxon, Ilhom**

33. Saidiyga do'stona munosabatda bo'lgan, unga oziq-ovqat va puldan o'zi so'ramasa ham yordam bergen personaj kim? J: **Shafrin**

34. Saidiyda zakovat belgllari ko'rganini, bu yigit oddiy studentlardan yuqori turishini tez-tez so'zlab turgan personaj kim? J: **Salimxon**

35. O'zining obro'yi, ulug' sifatligiga qaramay, takabbur emas, dilkash, ko'nglida kiri yo'q, kim qanday yomon ahvolda qolsa, yordam qo'llini cho'zadi; madaniyatni sevadi, o'zbek xalqidan dohiylar chiqishini tilaydi; odam taniydi; kishidagi qobiliyat, zakovatni go'yo o'ta ko'radi deb kimga ta'rif berilgan? J: **Salimxonga**

36. Panama kanalining qazilishi, Rus-Yapon urushining sabab va natijalari, «Imperatitsa» paroxodining halokati, ingлиз olimi Ramzeyning yer ostidagi ko'mirni gazga aylantirib foydalanish mumkin ekanligini ochgani, Bayronning jahongashta bo'lgani, Angliyaning mustamlaka siyosati, To'qay davridagi tatar adabiyoti, insondagi qobiliyat va zakovat, islam va isloh, turklar bilan armanilar orasidagi adovat, kompartiyaning milliy siyosati, Turkistonning fath qilinushi va shu kabilar haqidagi gaplar kimlarning suhbatida aks etgandi? J: **Salimxon va Saldlyning**

37. Saidiy qachon: «Olam yaxshi. Hayot go'zal. Natijasiz mehnat boilmaydi», – deb o'ylaydi? J: **Saidiyning bir she'rl va hikoyasining jurnalda chiqlishi uchun navbatga qo'yilgani to'g'risida jurnaldan xat kelganda**

38. Ro'zada saharlik ustida uxlab qoladigan yigit kim edi? J: **Tesha**

39. Saidiy tomonidan: «*Bilimga chanqagan yigit*», – deb ta'riflangan personaj kim? J: **Tesha**

40. Saidiyning bolalikdagi do'sti... J: **Tesha**

### **MAQSUD SHAYXZODA (1908 – 1967)**

1. Qaysi ijodkor: «*She'r chin go'zallik singlisi ekan*», – deb yozgan? J: **Maqsud Shayxzoda**

2. «*She'rsiz qalblarga achinaman men, Ularda na long-lar kunduzni boshlar*», deb yozgan muallifni toping.

J: **Maqsud Shayxzoda**

3. Maqsud Shayxzodaning «Toshkentnoma» nomli literatursafiy dostoni qachon yozilgan?

J: **1956 – 1957-yillarda**

4. Kimning fikricha, *she'r ma'rifa*dan, *hayotga muhabbatdan kam bo'limgan darajadagi ehtiyoj sanalmog'i* dardkor? J: **Maqsud Shayxzodaning**

5. «*She'rsiz ko'chani tote qarg'agan, Bu joyda sevgining manzili bekik*», – deb yozgan muallifni toping.

J: **Maqsud Shayxzoda**

6. «*Elga dastyor bo'lsa she'r larimiz – Demakki, umrimiz o'tmabdi bekor...*» misralari qaysi she'r dan olingan?

J: «*She'r chin go'zallik singlisi ekan*» **she'r idan**

7. «*Ayrılıq*» she'r ida shoir o'zi bilan kim yoki nima o'tasidagi ayrılıqni nazarda tutadi?

J: **O'zI bllan asarl o'rtasidagi ayrılıqni**

8. «*Ayrılıq*» she'rining mazmuni: «*Shoir ko'p yillar qunt bi-*

ian dili dagi so'zlarini, hayotining oltin yillarini ilhomga bag'ish-lagan holda poema tarzida bayon qildi. Boshidagi sochlarining oqi ko'paydi, bir asr o'tli qo'shiq kuylagan qalamga qulluq qildi. Biroq so'nggi sahifaga nuqta qo'yganida o'zini g'arib, yolg'iz va xafa holga tushganini, ga'yo sevgisi bilan vidolashgandek, hamrohini yo'qotib qo'ygandek, vatanidan boshqa notanish yurtga ko'chib ketgandek his qildi».

9. «Ayrilik» she'ri qachon yaratilgan? J: 1962-yilda

10. «Qo'llar» she'ri «Ko'zlarni debdilar. «Ruhning ko'zgusi». Ularda namoyon qalblar sezgisi» misralari bilan boshlanib, «Qo'llar ham qo'llaydi o'z egasini. Buyruqni bajarmoq qo'l hunaridir, Ha, qo'llar – yurakning navkarlari-dir», – misralari bilan tugaydi.

11. «Qo'llar» she'rida shoirlar insonning ko'zları, ko'zlarini qalblarning tilmochi deya ulug'laganları holda, negadir odamning qo'llari haqida yozishni unutganliklariga e'tiroz bildiriladi. Qo'llarning har siquvida ne-ne ma'no bor ekanligi ta'kidlanadi. Qo'llar bor, muloyim, g'oyat shafqatli; ayovsiz, yovuz shiddatli; hayotbaxsh qon bilan iliq; go'r kabi sovuqqa to'liq; ishyoqmas, lapashang, tanbal; tezligi bilinlar dangal va hokazo sifatlari bayon etiladi.

12. «Shahalar boqiyidir, umr – o'tkinchi, Daryolar sobitdir, suvlar – ko'chkinchi» misralari qaysi dostonдан olingan? J: «Toshkentnoma»dan

13. «Nasr – og'ir qadam, nazm – chopog'on» misralari qaysi dostonдан olingan? J: «Toshkentnoma»dan

14. Qadimda Shosh – Toshkentning qaysi buyumi Eron, Turkiston va boshqa yerlarda mashhur bo'lgan?

J: Kamon!

15. Toshkentning nechta darvozasi bo'lgan? J: 12 ta

16. «Toshkentnoma» dostonida shoir kimning asarini o'qiyotganda urush haqidagi xabarni eshitadi?

J: Xondamirning

17. Urush haqidagi xabarni eshitib, Maqsud Shayxzoda-ga «Yov g'alamiš, quv, shiddatl. Bosib kirgan yerimizga, Qasos deya qo'zg'algan el, Kel, birodar, she'rimizga – Kiy-gizaylik biz ham shineʃ!» degan shoir?

J: Hamid Olimjon

18. Dostonda Toshkentning bolajonligi kimlar orqali tasvirlab beriladi? J: 14 yetim bolani asrab olgan Shoah-mad aka va Bahri oralar orqali

19. Shoir agar Toshkentga laxallus qo'yilsa, ... nom unga mos kelar edi deydi. Bu nom qaysi? J: Salomobod

20. Maqsud Shayxzoda dostonini nechta vaznda yozgan? J: «Men o'zbek she'rinig to'qqilz vaznida Sening dostoningni ohangga soldim».

21. Doston necha bobdan tuzilgan? J: 18 bobda

22. «She'ri – kurash, baxt va umid!», – deya kimning she'rlariga ta'rif berilgan? J: Hamid Olimjonning

23. Asl shoir edi deb kimni ta'riflaydi?

J: Hamid Olimjonni

24. «Biri – she'rimizning olli yuragi», – deb kim ta'riflangan? J: G'afur G'ulom

25. «Biri – nasr uyining baland tiragi», – deb kim ta'riflangan? J: Oybek

26. «Yomonliklar o'tkinchidir, yaxshilik – g'olib» misralari qaysi asardan olingan?

J: «Toshkentnoma» dostonidan

27. «Toshkentni sevmoqlik yurakning ishi, bu uchun shartmikan bunda tug'ilmoq» misralari muallifi kim?

J: M.Shayxzoda

28. Qo'llarni yurakning navkarlariga o'xshatgan shoir kim? J: M.Shayxzoda

29. «Toshkentnoma» dostonida shoir kimning zamonasini ko'zni yumib sayr etardim deydi?

J: Navoiy zamonasida

30. Shayxzoda kimni har galgiday xiyobon chekkasida xotirjam ko'rdim deydi? J: Hamid Olimjonni

31. Kitobni beg'araz xayrixohga, mangu ishchiga o'xshatgan shoir kim? J: M.Shayxzoda

### HAMID OLIMJON (1909 – 1944)

1. Hamid Olimjon qachon va qayerda tug'ilgan?

J: 1909-yilda Jizzax shahrida

2. Ilk she'ri qanday nomlangan? J: «Kimsiz» she'ri 1926-yilda «Zarafshon» gazetasida bosilgan

3. Ilk she'riy to'plami? J: «Ko'klam»

4. Ilk hikoyalar to'plami qanday nomlangan?

J: «Tong shabadasi»

5. Pyesalarini toping. J: «Muqanna», «JInoyat»

6. Hamid Olimjonning necha jildlik «Mukammal asarlar to'plami» e'lon qilingan? J: 10 jildlik

7. Hamid Olimjonning «O'rlik gullaganda» she'ri qanday munosabat bilan yaratilgan? J: Hamid Olimjon 1937-yilning martida Qozog'istonga borib qaytadi. U yerda oppoq qor bo'lgan paytda o'z yurtida o'rlikning oppoq bo'llib gullaganini ko'radi va sha'r yozadi

8. «O'rik gullaganda» she'rida shoir bahordan nimani so'raydi va bahor ham, qushlar ham, har bir kurtak ham unga qanday javob beradi? J: **Baxtim bormi, deb so'raydi va baxting bor, degan javobni oladi**

9. «Mana senga olam-olam gul, Etagingga siqqanicha ol. Bunda tole har narsadan mo'l, To o'lguncha shu o'lkada qol» misralari qaysi she'r dan olingan?

J: «O'rik gullaganda» she'ridan

10. Hamid Olimjonning «Ofeliyaning o'llimi» she'ri qanday munosabat bilan yaratilgan?

J: 1936-yilda O'zbek Milliy teatrida «Hamlet» tragediyasi qo'yiladi. Ofeliya rollini Shohida Mahzumova maromiga yetkazib o'ynaydi. Bundan ta'sirlangan Hamid Olimjon shu she'rni yaratadi

11. «Javob berib ko'r-chi, nomard tabiat, Bunchalar go'zalni nechun yaratding?! O'zing gunohkorsan, osiysan behad, nechun yaratding-u, o'llarga otding?». Ushbu satrlar qaysi asardan olingan?

J: «Ofeliyaning o'llimi» she'ridan

12. «Nega kerak edi, shu chiroy, shu o't, Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?» satrlari qaysi she'r dan olingan?

J: «Ofeliyaning o'llimi» she'ridan

13. Hamid Olimjonning «Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam», deb boshlanuvchi g'azali qaysi vaznda yozilgan?

J: Aruzning hazajl musammani solim vaznida

14. Butog'ingga qo'nib tunlar bulbul kabi xonish qilsam, tong chog'i gulg'unchangni o'pib ochguvchi shamol bo'lsam, deya orzulanuvchi shoir kim? J: **Hamid Olimjon**

15. «Muqanna» dramasi 4 parda, 8 ko'rinishli tarixiy drama. Qatnashuvchilar: *Hoshim Hakim o'g'li* – Muqanna; *Fero'z* – qul xo'jası; *Otash, Gulabod* – uning xotini, *Guloyin* – uning qizi Fero'zning qu'llari; *G'irdak, Xishriy, Bog'iy, Hakim* – zarafshonlik dehqonlar; *Kulartakin* – harbly; *Sayid-battol* – arab qo'shini qo'mondoni; *Jaloyir* – arab ruhoniysi; *Ibn Muoz* – arab qo'shini o'qmondoni; *Zayd* – elchi. Voqeа VIII asrning ikkinchi yarmida Mavarounnahrda o'tadi.

16. «Muqanna» dramasi qanday boshlanadi?

J: Bahor, olam gulga burkangan. Otashning qizlар Guloyin gul-lolalar terib, gulga botsa ham ma'yus va baxtsiz ekanligi, vatanning bosqinchilar qo'lida ado bo'layotganligidan afsuslanishi bilan boshlanadi

17. «Kuygay» qo'shig'i qaysi drama uchun aruz vaznida yozilgan? J: «Muqanna» dramasi uchun

18. «Kuygay» qo'shig'ining muallifini toping.

J: Hamid Olimjon

19. «Kuygay» qo'shig'ini kimlar ijro etgan?

J: Yunus Rajabiy va uning farzandi Hasan Rajabliy

20. «So'zingning sharpasi tekkanda olam bob, bob kuygay, Dengizlar, daryolar, hattoki ko'llarda hubob kuygay». Ushbu satrlar muallifini toping. J: Hamid Olimjon

21. «So'zingning sharpasi tekkanda olam bob, bob kuygay, Dengizlar, daryolar, hattoki ko'llarda hubob kuygay». Ushbu she'ning vaznnini aniqlang.

J: Hazajl musammanl solim

22. Hamid Olimjonning «Muqanna» dramasining yaratilishiga nima turki bo'lgan? J: S. Aynlyning «Muqanna qo'zg'oloni» tarixly ocherkl

23. Hamid Olimjon «Muqanna» dramasini yaralishda qaysi manbalardan foydalangan? J: **Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» va G.Ibrohimovning «Islamning kellb chiqishi va sinfiy mohiyati»** asaridan

24. «Muqanna» dramasidagi tarixiy obrazlarni toping.

J: **G'irdak, Bog'ly, Xishriy, Hakim, Kulartagin**

25. «Muqanna» dramasidagi to'qima obrazlarni toping.

J: **Otash, Gulobod, Guloyin**

26. Muqannaning asl ismi kim edi?

J: **Hoshim ibn Hakim**

27. Muqanna so'zning ma'nosi nima? J: **Niqobli kishl**

28. Otash kim?

J: **Otashparastlar diniga mansub quillardan biri**

29. Otashning xotini va qizining ismi?

J: **Gulobod va Guloyin**

30. Kim Feruzning bosqinchilarga qulluq qilib, masjid qurbanidan norozi? J: **Gulobod**

31. Otashparsatlikka ham, bosqinchilar olib kelgan denga ham loqayd bo'lgan qahramon? J: **Guloyin**

32. Muqanna qayerlik bo'lgan? J: **Marvlik**

33. Muqanna kimning huzurida sarxang (ofitser) bo'lib xizmat qilgan? J: **Abu Muslim**

34. Muqanna haqida: «*U keng bilimli, turti fanlar va sirli san'atlardan xabardor kishi bo'lgan*», – deb yozgan tarixchi?

J: **Narshaxiy**

35. «*Boshqalar faqat vujuddan iborat edilar. Men esa boshdan-oyoq ruhdan iboratman va istagan qiyofada, hatto Odam Alo, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad, Abu Muslim sifatida paydo bo'lishim mumkin*», – degan qahramon?

**J: Muqanna**

36. «*Sizni bosgan jarohatlarga malham, Agar xudo kerak bo'lsa, xudo ham, Odam ham man, ozodlikdir shiorim, Huniyatdir topinajak ollohim!*», – degan qahramon?

**J: Muqanna**

37. «*Yo'q, men sizman, xuddi sizning o'zingiz, Bu ko'zlamim xuddi sizning ko'zingiz*». Ushbu fikrlar qaysi qahramonga tegishli? **J: Muqannaga**

38. «*Shuncha yillar otashgohga topindim Va bilmadim, ilohim kim, tangrim kim? Qayg'usi yo'q biror kunni ko'rma-dim, Biror saat men baxtiyor bo'lmadim. Ixtiyomi bersang agar menga sen, Ozodlikka topinardim yolg'iz men*» fikriari kimga tegishli? **J: Guloyinga**

39. Battol va Feruz singari xoinlarni lorzaga soluvchi qilich schibi, mard va jasur ayol siymosi? **J: Guloyin**

40. Qaysi asarda siyosiy va mafkuraviy aqidalar to'riga ilinmagan, cho'ri bo'lsa ham o'zini erkin qushdek his etuvchi, pokiza, yorug' orzular va intilishlar bilan yashayotgan qiz Guloyin obrazi berilgan?

**J: «Muqanna» dramasida**

41. «*Sen bir bog'san, men-chi unda bitta gul*» deb Muqannaga murojaat qilgan qiz? **J: Guloyin**

42. «*Muqanna*» dramasida Guloyin qanday halok bo'ladi? **J: Xoin qilichidan halok bo'ladi**

43. Kim Guloyin obrazini jahon adabiyotining Laurensiya, Neston-Darijon obrazlariga qiyos qiladi?

**J: Komil Yashin**

44. Muqannani ko'rmoqchi bo'lganlar qanday klyim kiyishlari lozim bo'lgan? **J: Oq kiyim**

45. «Yaxshiki yer yutdi o'sha tulkini», – deb kimga nisbatan aytigan? J: **Qutaybaga**

46. Butxonasida kabutarning tuxumicha keladigan inju bo'lgan sanam qaysi shaharda bor edi? J: **Poykandda**

47. «Biz qul edik, endi butun o'lka qul». Ushbu fikrlarni kim aytgan? J: **Otash**

48. Qaysi qahramon *Xudo ham, Payg'ambar ham men* deydi? J: **Muqanna**

49. Kim oq kiyangan farishtaga o'xshatiladi? J: **G'irdak**

### MIRTEMIR (1910 – 1978)

1. Patti, Norbuvi, Toshbu singari ajoyib ayollar obrazini yaratgan ijodkorni toping. J: **Mirtemir**

2. Mirtemirning she'riy lo'plamlarini toping.

J: «**Zafar**», «**Kommuna**», «**Qaynashlar**», «**Bong**»

3. Qaysi ijodkor 22 yoshida qamoqqa olinib, Moskva – Volga kanali qurilishida ishlagan? J: **Mirtemir**

4. Qaysi ijodkor Yo'dosh Oxunboboyevga to'tlinchi kotib etib tayinlangan edi? J: **Mirtemir**

5. Mirtemir «Onaginam» she'rin qanday munosabat bilan yozgan? J: **Qamoqda bo'lgan shoir onaizorining so'nggi kunlarini ko'rмаган va uning oldida farzandlik burchini o'tay olmaganidan ta'sirlanib yozgan**

6. «Onaginam» she'ri qanday boshlanadi?

J: «**Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g'ashlik. Bedavo sizlovuqday sizlatguvchi – g'ashlik**»

7. «Onaginam» she'rida shoirning yuragida tog'day zil, abadiyatday cheksiz armon bo'lgan narsa nima?

J: Onasini so'nggi yo'lga o'zi kuzata olmagani

8. «Odam bo'ldimmi menam?» satrlari qaysi she'rda takror va takror uchraydi? J: «**Onaginam**» she'rida

9. Mirtemirning tarjimalarini toping.

J: Pushkinning «Ruslan va Lyudmila», M.Lermon-tovning «Ismoilbek», «Savdogar Kalashnikov haqidagi qissa» va T.Shevchenko she'rlari, Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi?» va Sh.Rustavelining «Yo'bars terisini yopingan pahlavon» asari, «Manas» eposi

10. Dostonlarini toping. J: «Ajdar», «Suv qizsi», «Dilkusho», «Oysanamning to'yidas», «Qo'zli»

11. Mirtemirning qaysi dostoni qamoq yillarida qurilish taassurotlariga bag'ishlangan? J: «**Nomus**»

12. «Birinchi prezident» pyesasining muallifi?

J: **Mirtemir**

13. Mirtemirning «Men seni injitmayman Va lekin finchitmayman» satrlari kimga bag'ishlangan?

J: **Xotini Yorqinoy, yani To'rash kelinga**

14. Mirtemirning «Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashtim bar boshingda, Ey sochlari to'qini tun singari sim-siyah. Xol kabi paydo bo'lgum yanog'ing yo qoshingda, Ey ızlari g'uboni ko'zlarimga to'tiyo» satrlari kimga bag'ishlangan?

J: **Xotini Yorqinoy, yani To'rash kelinga**

15. Qaysi shoir Mirtemirning erkalanib she'r yozishni yoqtirganini ta'kildaydi? J: **G'afur G'ulom**

16. Qaysi shoir «She'rda biror so'zni o'ynata olmagan shoir shoir emas», deb yozgan?

J: **Mirtemir**

17. Mirtemir «Kipriklarim» she'rida qanday g'oyani il-gari suradi? J: Yosh qalamkashlarni adabiyotimiz baxti-ga ko'z qorachig'idek asrash

18. Mirtemir «Kipriklarim» she'rida kimlarni kipriklarim, deb ataydi?

J: O'zl parvarishlab o'stirayotgan ijodkor yoshlarni

19. «Quyunlarda qolganimda, changga o'ralganimda, Ohangaron ta'zonidan zanji qoralganimda, Yoki yaxshi limsol izlab, changday taralganimda, O'zbekiston tonglarini bedor kutgan ko'zlarim, tengsiz tonglar falsafasin tashna yutgan ko'zlarim» satrlari Mirtemirning qaysi she'ridan?

J: «Kipriklarim» she'ridan

20. Mirtemir «armonimday buyuksiz!» deganda kimlarni nazarda tutgan? J: Yosh qalamkashlarni

21. Mirtemir qaysi she'rida yuz bir shohdan ortiq piyri badavlat o'zbek otaxonni obrazini tasvirlaydi?

J: «Oqsoqol» she'rida

22. «Hali ne yuklarni ko'tarolgudek, Hali ne log'larga panja solgudek, Hali ham yurtida misoli kam dov», deya kim ta'riflanadi? J: Oqsoqol

23. «Oqsoqol» she'ridagi oqsoqol qaysi qishloqdan va uning nechta farzandi, nabiralari bor edi? J: Olmos qish-log'idan, 16 ta o'g'il-qizi, 41 ta nabirasi bor edi

24. «Surat» dostonida Mirtemir kimning nomi bilan harakat qiladi? J: Toshlonning

25. Mirtemirning «Surat» dostonidagi obrazlarni sanang.

J: Toshlon va Oysuluv

26. «Surat» dostonida Toshlon necha yll jangda bo'ladil? J: To'rt yil

27. «Surat» dostonidagi Oysuluvning kasbi?

J: Raqqosa

28. «Gunohim ne? Jangda bo'iganim,

Qon kechganim, yuz bor o'iganim?

Diydoringni unulolmayin

O'lilmardan hallab kelganim?» Ushbu satrlar qaysi asardan olingan? J: Mirtemirning «Surat» dostonidan

29. «Bazmlarning guli bo'iganing –

Yolg'on bo'lsa, boq-chi ko'zimga.

Maqtovlarning quli bo'iganing –

Yolg'on bo'lsa, ayt-chi o'zimga». Ushbu satrlar qaysi asardan olingan? J: Mirtemirning «Surat» dostonidan

30. «Hammasidan kulishing yaxshi,

Dikash munis turishing yaxshi». Ushbu satrlar qaysi asardan olingan? J: Mirtemirning «Surat» dostonidan

31. Oysuluv nima uchun boshqa kishiga turmushga chiqadi? J: Yorlning jangda halok bo'iganini eshitganidan so'ng

32. «Qo'shiqlar to'qisam – no'noq bo'imsa,

Sendan o'zga dilga qo'noq bo'imasal

Kuylasam tun-u kun suluvlaringni,

Kuylash mumkinmi dil qaynoq bo'imsa?» satrlari qaysi asardan olingan? J: «Surat» dostonidan

33. «Ey... Ko'zlarining muncha ham qiyiq,

Muncha qiyiq, muncha betiyiq,

Kipriklarining muncha ham quyuq,

O'g'limga o'xshaysan, bolajon!» satrlari qaysi asardan olingan? J: «Surat» dostonidan

34. «Armonli bir yosh shoir edim.

Zuhra bo'imasang ham chiroyda,

*Men ishqingda naq Tohir edim» misralari bilan qaysi she'r boshlanadi? J: «Surat» dostoni*

35. «Dilim ranjitsa ham do'q-u dag'dag'a,

*Bog'imda bu oqshom jonon o'yinasin.*

*Gulday chiroyidan bo'tay sadag'a,*

*Ochilib-sochilib, chunon o'yinasin» misralari qaysi asar-dan olingan? J: «Surat» dostonidan*

36. «Oqsaoqla» she'rining muallifi kim? J: Mirtemir

37. «Bizning qishloq tog' bag'rida,

*Tog' bag'rida – bog' bag'rida» misralari bilan qaysi she'r boshlanadi? J: «Ballq ovl»*

38. «Qush bo'lib qochar bo'lsang, tarlon bo'lib quv-gayman, Tog'larda sharsharadek g'uboringni yuvgayman» misralari qaysi she'r dan olingan? J: «Men sen!...»

### ZULFIYA (1915 – 1996)

1. Zulfiya farzandlarining ismi? J: Hulkar va Omon

2. «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rida shoira qaysi obrazdan unumli foydalanadi? J: Shabboda obrazidan

3. «Bahor keldi seni so'roqlab» she'ri qanday bosh-lanadi? J: Salqin saharlarda, badom gulida, Binafsha labida, yerlarda bahor

4. «Hijroning qalbimda, sozing qo'llimda, Hayotni kuylayman, chekinar alam. Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda, Men hayot ekanman, hayotsan sen haml» misralari qaysi she'r dan olingan?

J: «Bahor keldi seni so'roqlab» she'ridan

5. «Urush! Noming o'chsin jahonda, Hamon bitmas sen

*solgan alam. Šen tufayli ko'p xonadonda Ota nomli buyuk shodlik kam» misralari qaysi she'r dan olingen?*

J: «O'g'ilim, sira bo'lmaydi urush» she'r idan

6. «*Ota bo'lib soldim men yo'iga, Ona bo'lib mehrimga oldim. Mana, yurtga o'gil o'stirgan Bir davlatmand boy bo'lib qoldim» misralari qaysi she'r dan olingen?*

J: «O'g'ilim, sira bo'lmaydi urush» she'r idan

7. «*Mushoira» she'rida Zulfiya qaysi yurt tuproq'ida bo'lib o'tgan mushoirani qalamga olgan? J: Hindistonda*

8. Sharqda shoirlar musobaqasi qanday atalgan?

J: **Mushoira**

9. Hindlar udumini shoira qanday tasvirlaydi?

J: *Oyoq kiyimlarni yechib, gilamda chordana qurib o'tirib she'r o'qish*

10. Zulfiya «*Mushoira» she'rida har bir yurt farzandlari ning nimasiga e'tibor beradi va tasanno o'qiydi?*

J: **Poyafzallariga va kosiblar san'atiga tahsin aytadil**

11. Zulfiya o'zi kiygan tuflini tikkan kosib ismini kim deydi? J: **Ahmad**

12. «*Sen ermak emassan, sen non, sen orom, Orzu pokiza. Sen hayot!» deganda Zulfiya nimani nazarda tutgan? J: **Mushoirani***

13. «*Xotiram sinqlari» she'rida qaysi tuhfa qadrlanib, olqishlanadi? J: **Hurriyat, Istiqloq***

14. Zulfiya onasining kimning bayozlarini o'qib berganlarini esga olib g'ururlanadi?

J: **So'fi Olloyor va Mashrab bayozlarini**

15. «*Va hademay sezdik bu qahramonni, lig'day tililarida yalay boshladi. Qadami yetganda har xonadonning*

*Quvorichi bujmayib, so'liy boshladi» misralarida qaysi davr tilga olinmoqda? J: Qatag'on davri*

16. «Aka, ko'zingizda otash bar edi, Aka, joningizda quyosh bar edi... Sizni-da qora tun oldilarmikin, Qo'llingizga kishan soldilarmikin, Yukinish, yalinchmas, g'urumi ko'nib, Vahshiy g'azablarda yondilarmikin?!» misralari qaysi she'r dan olingen? J: «Xotiram sinqlarlari» she'ridan

17. «Alam. Yomon alam ko'zing ko'r bo'lsa, Lekin so'qir dillik undan-da dahshal. Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'nga Biz alvon guidasta tutibmiz faqat» misralari nimaga ishora qiladi?

J: Xalqning eng sara farzandlarini yo'q qilishni maqsad qilgan sho'ro hukumatiga gul tutganlarga

18. «Aytilmagan alam, yozilmagan she'r, Olinmagan qasos – yurak titrog'im», deya yurak armonlarini to'kib solgan shoira kim? J: Zulfiya

19. «Humiyat, kelding-ey, al-omon kelding, Seni qalbim, ko'zim, so'zlarim quchar. Vaqt yetsa shu xalqqa qolar daftaram, Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...» deya is-tiqlolni Zulfiya qaysi she'rida olqishlagan?

J: «Xotiram sinqlari» she'rida

### SHUHRAT (1918 – 1995)

1. Shuhrat adabiyot tarixida qanday ijodkor sifatida e'tirof etiladi? J: Shoir, nosir, dramaturg

2. O'z ijodini nimalar yozishdan boshlagan?

J: 1935-yilda she'rlar yozishdan boshlagan

3. Shuhratning qaysi romanlari mustaqillik davri o'zbek

adabiyotida munosib o'ringa ega bo'lgan? J: «Oltin zanglamas», «Jannat qildirganlar» romanlari

4. Qaysi komediyalari bilan teatr san'ati rivojiga munosib ulush qo'shgan?

J: «Besh kunlik kuyov», «Qo'sha qaringlar»

5. «Oltin zanglamas» romanida «ishonchga kirgan tuhmatchilar» kim edi? J: Mirsalim, Shukurov

6. Bir-biridan farq qiluvchi tergovchilar kimlar edi?

J: Kishining ko'ngli suv ichadigan tergovchi – Pushkaryov, kishining ensasini tosh qotiradigan tergovchi – Chuxanov

7. «Badavlat xonadondan chiqmaganmanki, otamning sho'ro hukumati tufayli qo'ldan ketgan mol-mulkini eslab, xumori tutsa; chet elda bo'lganim yo'qki, uning usti yaltiroqligiga uchsam, o'shanday hayotni orzu qilsam; birorta mafkurasi buzuq odamda o'qiganim yo'qki, u meni yo'lidan urgan bo'lsa!», – deya o'ziga qo'yilgan ayblarni inkor qilgan shaxs? J: Sodiq Qo'chgorov

8. «Talaffuzidan Samarcand shevasi yaqqol sezilib turadigan, Sodiqqa yoqmaydigan Chuxanovga ko'maklashadigan yigil»? J: Saydullayev

9. Bir vaqtlar darsga ichib kelgani uchun Sodiqdan dakkii eshitgan o'qituvchi? J: Shukurov

10. Sodiqqa «Hukumat xotin-qizlarni erkaklar bilan teng qilaman deb bekor urinadi, yigimata xotinning aqli bir tovuqnikicha yo'q», – degan fikrlarni Shukurov qachon aytgansan deydi?

J: Mavjud ABDURAHMONOVA nomzodi deputatlikka ko'rsatilganda

11. «Mening vijdonim pok. Itning tili tekkan bilan daryoning suvi harom bo'lmaydi. Yolg'onning oyog'i qisqa, bir kuni misi chiqadi», – deya o'ziga qo'yilgan tuhmatlarni inkor qilgan shaxs? J: **Sodiq**

12. «Itning tili tekkan bilan daryoning suvi harom bo'lmaydi», – degan ibratli fikr qaysi asariarda uchraydi? J: **Shuhratning «Oltin zanglamas» romanida va Abu Mansur Saolibiyning «Yatimat ud-dahr» asarida**

13. «...oq-sariqdan kelgan, ko'zlari ko'm-ko'k, qoshlarini sezilar-sezilmas kulrang, burnining uchi birov cherrib qo'ygandek to'mtoq, engagi uchli, labi cho'g'dek qizil ekan», – deb kimga ta'rif beriladi? J: **Pushkaryovga**

14. Sodiqqa yolg'iz qolganda: «Bo'yningizga oling qo'ying-da, o'zingizni qiy nab nima qilasiz, siz kuch bergen to'nka endi ko'karmaydi», – deb kim aytgan?

J: **Saydullayev**

15. Sodiqni maktabdagisi halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olish, talabalar orasida diniy targ'ibot olib borish (qaldirg'ochni Makkayı mukarramadan kelgan degan, taloq haqida odobsiz latifa aytib bergenmis), maishiy jihatdan buzilib, yosh xotinga uylanish, ochilgan xotin-qizlarni tahqirlashda ayblagan personaj kim? J: **Shukurov**

16. «Xalq dushmani Boltaqul sizning maslakdoshingiz ekanini unutmang!» – deb Sodiqqa kim aytgan?

J: **Chuxanov**

17. Sodiqqa tuhmat qilgan personajlar kimlar?

J: **Shukurov, Saydullayev**

## ASQAD MUXTOR (1920 – 2004)

1. «To'qqizinchi palata» hikoyasiga qaysi ibralli fikr epigraf qilib olingan?

J: Nafling qancha bo'lsa – umring shuncha

2. «To'qqizinchi palata» hikoyasining qahramonlari: Bahromov, Hoji buva, hamshira qiz Ma'mura, Hoji buva-ning ishchi nabirasi Ergash, kasalxonaning qo'shni hovlida yashaydigan kichkina bola Alisher

3. Hikoyaning qisqacha mazmuni: «Bahromov uch haftadan beri palatada faqat chalqanchasiga yotadi. Unga qimirlash mumkin emas. Yoshi 67 da. Hoji buva ikki kam saksonga kirgan ko'p gapiradigan kishi. Ular ko'pincha bahslashib qolishadi. Bahromov yashashdan umidi kela-jak dunyoda ham odamlar qoladi-ku, ularni baxtli ko'rishda deb biladi. Hoji buva yana ko'proq yashashni umid qiladi. Bahromovning ikkita o'g'li urushda halok bo'lgan, yolg'iz o'zi yashaydi. Bir kuni Hoji buva og'irlashib qoladi, ancha kundan keyin o'ziga keladi, lekin juda ko'p ovqat yeydigan bo'lib qoladi. Bahromov tashqariga qarab zangori osmonni tomosha qilishni xush ko'radi. Ularga qo'shni bo'lgan hovli-da Alisher ismli bolakay yashaydi. U doim ishtonsiz, lekin oyog'iga qip-qizil etik kiyib olganicha koptokka o'xshab u yoqdan bu yoqqa chopgani-chopgan. Bir kuni Bahromov Alisherning yerda ochiq yotgan simga qarab chopib kelayot-ganini ko'radi. Bola yana ozgina yursa, simni ushlaydi va yonib kulga aylanishi mumkin. Bahromov «Alisher, Alisher, u yoqqa borma», – deb baqirsa ham uni bola eshitmaydi. Hoji buva esa ovqat yeyish bilan band bo'lib, bolaning oldiga

borishni xohlamaydi. Bahromovga o'midan turish mumkin bo'lmasa ham, yugurib borib, Alisherni to'xtatadi va simni tayqq bilan yuqoriga olib tashlaydi. Xavf barlaraf etiladi. Lekin kechga borib, Bahromovning ahvoii og'irlashadi va olamdan ko'z yumadi. Hamshira Ma'mura Bahromovning o'limidan oldin uning yuzi yorishib ketib, lablariга rang kirganini, qoshlari qop-qora, uzun-uzun kipriklari nurlangandek bo'lganini payqaydi».

4. «Yashadim – men sizni o'zim yasadim, Sizning mazmuningiz – mening qismatim» misralari Asqad Muxtorning qaysi she'ridan olingan?

J: «Yillarim» she'ridan

5. Asqad Muxtor «Yillarim» she'rida o'tgan yillarini nimalarga o'xshatadi?

J: Tirmashib chiqqan zinaga, imoratga, xazinaga

6. «Yashash – bir dard, orzular qaynar, dilga tushar ezgu alanga» misralari qaysi she'r dan olingan?

J: «El-yurt» she'ridan

7. Insonga dunyoga kelganida tug'ildi deya xursand bo'lish uchun ham, vafot etganida so'nggi yo'lga kuzatib qo'yish uchun ham el-yurt kerak bo'ladi, degan satrani yozgan shoir kim? J: Asqad Muxtor

8. «O'zi saksonga borgan bo'lsa ham, kasalxonaning yovg'on oshini bismillosiz tushiradi», – deya kimga ta'rif berilgan? J: Hajl buva

9. «Hindistonda keksalar muqaddas Gang bo'yida jon berishni orzu qilisharkan. U yerda o'lgan odam shahid ketib, to'g'ni jannahga noil bo'larmish. Shuning uchun odamlar Gang sohilida uzlat chekib, haftalab och yotishar.

*kecha-yu kunduz xudodan o'llim tilashar ekan. Umid shunga». Ushbu parcha qaysi asardan olingen?*

J: «To'qqizinchi palata» hikoyasidan

10. Bahromovning nechta o'g'li urushda halok bo'lqandi? J: Ikkita

### SAID AHMAD (1920 – 2008)

1. Said Ahmad ijodining muhim qirralaridan biri qaysi?

J: Hajviy Ifoda yo'sini

2. Said Ahmadning qaysi asari dunyo teatrлари sahnasi-da e'libor qozongan?

J: «Kelinlar qo'zg'oloni» komediyasi

3. «Ufq» trilogiyasiga kiruvchi romanlar qaysilar?

J: «Qirq besh kun», «Hijron kunlarida», «Ufq bo'sag'asida»

4. «Ufq» trilogiyasidagi obrazlarni sanang.

J: Ikromjon, To'lanboy, Nizomjon

5. Nizomjonni nima uchun urushga olishmagan edilar?

J: Chap qo'lli cho'ltoq bo'lGANI uchun

6. Tursunboy qaysi to'qayga yashiringan edi?

J: Nayman to'qaylariga

7. To'qayga o't ketganida Nizomjon, Ikromjon, To'lanboylar qaysi hayvonlarni ov qilishadi? J: Ikkita bo'rini

8. Ikromjon o'g'lining qo'rqaq bo'lib o'sishida nima uchun o'zini aybdor hisoblaydi? J: «Yemay yedirgani, o'zi klymay kiydirganl uchun. Qa'lini sovuq suvga urdirmadi, og'ir ish qildirmadi. Yig'laganda qo'shilib yig'ladi. Kalishini ham yuvib qo'yardi. Kasal paytida ham unl

**toyloqdek apichib yurardi. Betinl yuvganda o'zi suv quyib turardi»**

9. Kasalmandligi uchun urushga olinmagan, odamlar uchun har qanday yumushni bajarishga layyor bo'lgan, hat-to mehnat haqi olishdan ham bosh tortgan qahramon kim?

**J: Nizomjon**

10. Tursunboy necha yoshida otasi, onasi va yaqinlari ning mahridan uzoqda quvg'inda vafot etadi?

**J: 21 yoshida**

11. Nizomjon Ikromjon amakini yupatish uchun qanday yo'll tutdi? J: «Meni o'g'lim deysizmi?» deya unga haqliqiy o'g'il bo'lishga ahd qildi

12. «Qorako'z majnun» hikoyasi uchun epigraf tarzida qaysi hadislar keltirilgan? J: Baqara surasi, 217-oyat: «Sizlardan qaysi bringiz o'z dinidan qaytsa va shu ko-firligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobi) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar»; Al-jome' al-Kabir, hadisi sharif: «Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu «As'hobi kashf»ning vafodor itidir»

13. «Qorako'z majnun» hikoyasi qahramonlari: Saodat aya, uning bundan uch yil oldin olamdan o'lgan eri usta Turab, o'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixon, baxti ochilmay, guldek umri xazon bo'layotgan qizi Qumri, o'g'li Abdumalik, qizi Dilbar, nevarasi Abdunabi, Anvarjon, iti Qorako'z majnun

14. Hikoyaning qisqacha mazmuni: «Saodat aya baxti chopmagan qizi Qumri bilan birga yashaydi. Uning Qorako'z majnun ismli iti bo'ladi. Saodat ayaning Bo'rixon ismli

o'g'li harbiy xizmatga ketib, o'sha yerda uylanib, qolib ketgan edi. O'tgan yili nevarasi Anvarjon tog'asidan xabar topib keldi. Bo'rixonni Rossiyada dyadya Borya deb chaqirisharkan. Uchta bolasi bor ekan, o'zi o'zbekchani esidan chiqarib yuborgan ekan. Bitta sog'in echkisi, to'rtta cho'chqasi, o'ntacha cho'chqachalari bor ekan. Bochka-bochka samagon aroq yasab, qishi bilan ichisharkan». Kampir bu gaplarni eshitib, qo'shni xotinlarning yonida juda uyalib ketdi. Bir kuni Saodat aya qizi Dilbarnikiga mehmonga borib, qaytib kelayotganida uni uyida quvonchli xabar kutib turar edi: o'g'li Bo'rixon mehmonga kelgan edi. Ona o'g'lini 32 yildan beri ko'rмагани учун жуда xursand bo'ladi. Kechqurun kampir o'g'lining yonida unga tikilib o'tirib, bo'ynidagi butni ko'rib qoladi. Telbadek sapchib turib, uning yonidan ketganicha boshqa u bilan gaplashmaydi. Bo'rixon armiyada qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq bo'lib qoladi. Qizning otasi qizimni boshqa dindagi odamga bermayman deb turib oladi. Bo'rixon hech ikkilanmay ularning diniga o'tishga rozi bo'ladi. Cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o'qiydi. Ana shundan keyin Borya cherkovga borib cho'qinadigan bo'ladi. Qaynotasining vafotidan keyin uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchisi bo'lib oladi. Kampir o'ylaydi: agar otasi tirk bo'lganda hozir shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi. Kampir ayvonga yeta olmay hushidan ketadi. Qorako'z iti uning oldida aylanib, eshikni tirma lab Qumrini uyg'otmoqchi bo'ladi. Qumri onasini behush ko'rib qo'rqib ketadi va hammani chaqiradi. Kampir o'g'lini kuzatishga chiqmaydi. Hamma ketganda Bo'rixonning kiyimlarini yoqib yuboradi.

Ona uchun endi u o'lgan edi. Ertasi kuni kampirga mahalla masjidining imom-xalibi haj safariga borganlardan uning ham haji qabul bo'lganligi to'g'risidagi xushxabarni yetkazadi. Kampir Yaratganga shukrona o'qiydi. Ikki kundan so'ng Saodat aya farzandlarini chaqirib, ularga vasiyat qiladi va olamdan o'tadi. Qorako'z ili uni hamma yerdan axtaradigan bo'ldi. Bir kuni u Chirchiqqa borganda nevaralari kampirning magnitofonga yozib qo'yilgan ovozini qo'yayotganda borib qoladi. It yaqin kishisining yo'qotib qo'ygan ovozini eshitib, akillay boshlaydi. Domda yashovchilar bu itni qu-turgan deb o'yaydilar va to'rtinchi qavatdan kimdir unga o'quzib o'ldiradi.

14. «Qorako'z majnun» hikoyasi qachon yaratilgan?

J: 1999-yil yanvarda

15. «Nayman to'qaylari yonardi». Ushbu parcha qaysi asardan olingan? J: «Ufq» trilogiyasidan

16. «*Chap qo'ling cha'ltoq ekan deb urushga olishmadi. Uyimga sig'madim. Erta-indin og'aynitarim urushdan qaytib kelishadi. Shulaming ko'ziga qandoq qarayman? Nima qilding, qaysi kovakda mog'or bosib yotgan eding deyishsa nima deyman? Eshakda suv tashib tirikchilik qilib yurdim deymanmi? Yo'q, to'qay buzdim, bola-chaqalaringga ovqat topib berdim, ulami boqdim deydigan ish qilmoqchiman. Jon akalar, meni ayamasdan ishga tashlayveringlan*». Ushbu parcha qaysi personaj nutqidan olingan? J: Nizomjon

17. «*U yoshligida juda chiroyli qiz ba'lgandi. Sochlari taqimini o'pardi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi*», – deb kimga ta'rif berilgan? J: Saodat ayaga

18. Saodat aya qiz nevaralariga, kelin-u qizlariga, al-batta, nima olib borardi? J: O'sma

19. «*Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo'lib qo'yaga gopti*», – deb kimga nisbatan aytilgan? J: Bo'rixonga

### ODIL YOQUBOV (1927)

1. Odil Yoqubovni ijodkor sifatida elga tanitgan asari qaysi? J: 1960-yilda yaratilgan «Muqaddas» qissasi

2. «Muqaddas» qissasining qaysi qahramoni muayyan bir vaziyatda o'z irodasiga, e'tiqodiga xilof ravishda xudbinlik ko'chasiga kirib qoladi? J: Sharfjon

3. Odil Yoqubov qaysi asarida 70-yillarda hayotda keng ildiz otgan turg'unlik mafkurasining zararli oqibatlarini zo'r jasorat va rostgo'ylik bilan tasvirlaydi?

J: «Dlyonat» romanida

4. Odil Yoqubov qaysi asarida «katta ishlar qildim», degan bahonada odamlarning boshiga chiqib olgan, qonunchilikni oyoqosti qilishdan ham toymaydigan ulkan xo'jalik rahbari obrazini yaratish, uning parvozi va inqirozini ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi?

J: «Dlyonat» romanida

5. Odil Yoqubov qaysi asari haqida: «Men hayotda ko'p adolatsizliklarga sabab bo'ladigan bunday rahbarlar haqida o'ylarim va ko'rgan-kechirganlarimni romandagi Otaqo'zi obrazida mujassamlashtirishga harakat qildim», – deb yozadi? J: «Dlyonat»

6. Odil Yoqubovning o'lgan asrning 50-yillarda yaratilgan dramalarini toping.

J: «Olma gullaganda», «Yurak yonmog'i kerak»

7. Odil Yoqubovning qaysi asari 2000-yilda «Ofarin» mukofoti bilan taqdirlandi? J: **«Bir koshona sirlari»**

8. Qaysi asarda oddiy do'kondor, ko'rkar va shaddod ayol Dilora, oddiy tachkachi Sarvarlarning millioner bo'lib ketishi tasvirlangan? J: **«Bir koshona sirlari»da**

9. «Ulug'bek xazinası» romanida Mirzo Ulug'bek nima maqsadda shogirdi Ali Qushchiga bobosi Amir Temur qoldirgan xazinadan bir miqdorda beradi? J: **Ulug'bekning haqliqiy xazinası hisoblanmish kitoblarini kelajak avlodga butun saqlashni ta'minlash maqsadida**

10. Mirzo Ulug'bek oltin quymalarni tilla tangalarga almashtirishda Ali Qushchiga kim yordam bera olishini aytadi? J: **Xo'ja Salohiddin zargar**

11. Ulug'bek qaysi o'g'li haqida: **«Bilasen: shahzoda nogiron, qalbi majruh»**, – deydi? J: **Abdulaziz haqida**

12. Mirzo Ulug'bekning qaysi o'g'li Samarqandda ekanida amir Ibrohimbekning o'g'lini qatl qildirib, barcha lashkarboshilarini otasiga qarshi qo'yadi? J: **Abdulaziz**

13. Kesh qal'asining kalitini shahzoda Abdulatifga qarshiliksiz ochib berilganligi haqidagi xabarni Mirzo Ulug'bekka kim yetkazadi? J: **Bobo Husayn Bahodir**

14. Kesh qal'asi dorug'asi kim edi?

J: **Amir Kamoliddin**

15. Amir Temur vafotidan keyin egniga ko'k ipak kiyib, boshini ko'k ro'mol bilan tang'ib olib, unga to o'lguncha aza tutishga ahd qilgan, toj-u taxtni o'z qo'lliga olib, Shohruh mirzoni chalg'itib, sayidlarni qatl qildirgan, shahzodalar orasiga nifoq solgan, suyukli nabirasl Alouddavla bilan Abdulatifni bir-biriga qayrab solib, qatl-u qirg'in chiqargan kim edi?

J: Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim

16. Mirzo Ulug'bekni «*shohi shari*» – buzuq shoh deb e'lom qilgan kim? J: Gavharshodbegim

17. Shahzoda Abdulatif qaysi din peshvosining domiga ilinib qolgan edi? J: Nizomiddin Xomushning

18. Odil Yoqubovning olasi qamoqqa olingen yili kimning 100 yillik ta'yи nishonlanayotgan edi? J: Pushkinnинг

19. Odil Yoqubovlar oilada necha farzand edilar?

J: 5 farzand

20. Odil Yoqubovning oilasi otasi ishi bo'yicha qayta surishtirish ishlarini o'tkazish to'g'risidagi maktubni qaysi yili, qaysi voqeadan keyin markazga jo'natishdi?

J: 1955-yili Xrushchyovning butun dunyonlарlarga solgan mashhur nutqidan keyin

21. Odil Yoqubovning otasi qachon vafot etgan edi?

J: 1943-yil qish oyalarida daraxt kesayotgan paytda vafot etgan edi

22. «*Yo'q! Bu nopoqlar 1918-yildan firqa a'zosi bo'lmish otamni nohaq qamaydilar, qariganida ham ozod qilishni islamay, qahralon qishda ham o'rmon kesdirib, o'limga mahkum etadilar-u, endi o'z gunohlarini yuvish umidida judolik azobidan ikki bukilib qolgan bevasiga nafaqa to'larmishlar, boshpana berarmishlar! Yo'q, men bitta onamni ular bergen sadaqasiz ham boqib olaman, ularsiz ham boshpana topib beraman!*» Ushbu parcha kimning tarjimayı holdan olingen? J: Odil Yoqubovning

23. Mirzo Ulug'bek saroydagи son-sanoqsiz xonalar orasida bittasini xush ko'rardi. Bu qaysi xona edi?

J: Ovchilik o'ljalari bilan bezatilgan xona

24. Mirzo Ulug'bekning suyukli navkari kim edi?

J: **Bobo Husayn Bahodir**

25. Ulug'bekka: «*Fuqaro sizga sodiqdur, valine'mat! Ijozat etsangiz besh-o'n ming cherik yig'ar edik*», – deya kim maslahat beradi? J: **Bobo Husayn Bahodir**

26. «*Bu amirdarga inonma, o'g'lim! Ularni sodiq bo'lsin desang qilichingni ilgingda mahkam ushlal*», – degan maslahatni kim bergan? J: **Amir Temur**

27. «*Lekin ko'z oldiga uzun bo'yli, ko'k ipakdan keng ko'yak kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'ragan, qo'llidan tasbehi tushmaydigan kalondimog' bir xotin keldi. U qosh-ko'zlan qop-qora, qiyg'ir burun, xushsurat xotin bo'lsa ham, farishtasi yo'q, chehrasi sovuq ayol edi*», – deya kimga ta'rif berilgan? J: **Gavharshodbegim**

28. Naqshbandiylar jamoasining rahnamosi kim edi?

J: **Nizomiddin Xomush**

29. «*Otang so'fi bo'lgan, sen buni yashirgansan*», – degan ayb bilan oldingi lavozimidan mahrum qilingan shaxs kim edi?

J: **Odil Yoqubovning otasi**

30. Odamlarning aytishicha, u kishining ovozlari shu darajada zo'r bo'lgan emishki, har subhidam masjid mezzanasiga chiqib azon aytganlarida, nafaqal o'n ming kishilik Qamoq ahli, balki o'ttiz chaqirim naridagi Turkiston namozxonlari ham eshitgan emishlar. Ushbu ta'rif kim haqida? J: **Yoqubshayx so'fi haqlida**

31. Odil Yoqubovning otasi qamoqqa olingan yillik kimning 100 yillik ta'yil nishonlanayotgandi?

J: **Pushkinnning**

32. Odil Yoqubovlar oilada necha farzand edilar?

J: 5 farzand

33. Odil Yoqubovning oilasi otasi ishi bo'yicha qayta su-  
rishtirish ishlarini o'tkazish lo'g'risidagi maktubni qaysi yili,  
qaysi voqeadan keyin markazga jo'natishdi?

J: 1955-yili Xrushchyovning butun dunyonl larzaga  
solgan mashhur nutqidan keyin

34. Odil Yoqubovning olasi qachon vafot etgandi?

J: 1943-yil qish oylarida daraxt kesayotgan paytda

35. «Yo'q! Bu noplolar 1918-yildan firqa a'zosi bo'lmish  
otamni nohaq qamaydilar, qariganida ham ozod qilishni is-  
tamay, qahraton qishda ham o'rmon kestirib, o'limga mah-  
kum etadilar-u, endi o'z gunohlarini yuvish umidida judolik  
azobidan ikki bukilib qolgan bevasiga nafaqa to'larmishlar,  
boshpvana berarmishlar! Yo'q, men bitta onamni ular ber-  
gan sadaqasiz ham boqib olaman, ularsiz ham boshpvana  
topib beraman!» Ushbu parcha kimning tarjimayı holidan  
olingan? J: Odil Yoqubovning

### PIRIMQUL QODIROV (1928)

1. Pirimqul Qodirovning qaysi romani 1981-yilda  
O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi?

J: «Yulduzli tunlar» romani

2. Pirimqul Qodirovning qaysi romani matbuotda  
feodalizmni targ'ib qiluvchi asar sifatida qoralandi?

J: «Yulduzli tunlar» romani

3. Bobur siyoshi haqidagi asarlarni toping. J: «Yulduz-  
li tunlar» romani, Oybekning «Bobur», «E.Vohidovning

«Kelajakka maktub», B.Boyqobilovning «Kun va tun»,  
X.Sultonning «Boburiynoma» asarları

4. Qaysi asarda Boburning deyarli butun ongli hayoti yaxlit yaratilgan? J: «Yulduzli tunlar» romanida

5. Boburning maxsus taklifi bilan Hirotdan Agraga kelgan shaxslar kimlar? J: Mavlono Xondamir, shoir Shihob Muammiy, mudarris Ibrohim Qonunly

6. Xondamir Boburga kimning sovg'alarini olib kelgan edi? J: Qizilboshlarning elchisi Shoh Taxmaspning

7. Boburni tan olgan qaysi hukmdoming elchisi Samarqandning soyaki mayizlaridan, Konibodomning subhoni o'rıklaridan, Buxoroning o'tkir maylaridan, Movarounnahrning boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga sovg'a-salom yuboradi? J: Ko'chkunjxonning

8. Bobur mirzo tamg'a solig'ini bekor qilgan edi. Bu qanday soliq edi? J: Qo'shimcha daromad solig'i

9. Bobur mamlakatda qanday farmon e'lon qilladiki, bu Ko'chkunjxonning elchilariga yoqmaydi? J: Butun mamlakatda may ichishni man etish haqidagi farmoni

10. Boburning hirotlik xos tabibi kim edi? J: Yusufiy

11. Xondamir «Habib us-siyar»ni necha yilda yozgan edi? J: 11 yilda

12. Boburning ellik kishi ishlaydigan ulkan kutubxonasingin kitobdori kim edi? J: Abdulla Kitobdar

13. «Nasnavis muarrix o'z shaxsliy uslubini davr uslubiga bo'ysundirmog'i, o'z «meni»ni davr ummoniga qo'shib bilintirmay yubormog'i kerak edi. Agar asarda muallif o'zini namoyon qilaversa, bu nokamtarlik belgisi hisoblanardi». Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: Mirxon

14. Boburga qaysi muarrix «*Siz meni chil-chil sindirdin-giz. Uslubingizdagи nafis bir soddalik qarshisida mening yuksak shoirona uslubim ortiqcha bir takallufdek tuyuldi*» deydi? J: **Xondamir**

15. «*Yuz hayfki, zoe' o'tadir umri aziz,*

*Afsuski, bolib boradur umri sharifi*» misralarining mu-allifi kim? J: **Bobur**

16. Taxmasp I kim edi?

J: **Shoh Ismoilning o'g'li. 1524-yilda Shoh Ismoll vafot etgach, Taxmasp o'rniga shoh bo'ladi**

17. Bobur Sekrida kim bilan urush qilib ulkan g'alabaga erishgandan so'ng uni astoydil tan olib, elchi yuborgan pod-sholar ko'payib qoladi? J: **Rano Sango**

18. Bobur Samarcand taxtida o'ltingan Ko'chkinchixonning elchisini qayerda kutib oladi?

J: **Jamna bo'yilda qurdirgan yangi Hisht Bihisht bog'ida**

19. Bobur Hirotga ikkinchi marta borganda, uning ham mayxo'rlikka ruju qila boshlaganini ko'rib: «*Nahotki, bu nadir siymo ham boshqa ko'p temuriylar singari iste'dodlini ichkilikka boy bersal*» – deb tashvishlangan olim kim edi?

J: **Xondamir**

20. Navoiyning uyi «Unsiyaxda Boburga: «*Hirotning tole quyoshi botib ketmasmikin?*», – deb tashvishli savol bergen kishi kim edi? J: **Xondamir**

21. «*Habib us-siyar*» so'zining ma'nosi nima?

J: **«Sevlmlil do'stning tarjimayi holl»**

22. «*Habib us-siyar*» asari nima haqida?

J: **Arabiston, Eron, O'rta Osiyo, Xuroson tarixinlig**

## **olam paydo bo'lganidan to XVI asrgacha o'tgan eng muhim davrlari haqida**

23. Bobur qayerda uch ming kishining boshi qilichdan o'tka-zilgani haqida afsuslanib hikoya qiladi? J: **Bajur qo'rg'onida**

24. Bobur qayerda bir necha yuz asirning to'fangdan otib o'ldirilganini eslaydi? J: **Panipatda**

25. «*Lekin chinakam zo'r iste'dodiar o'immas buloqlarga o'xshar ekanlar. Ularning ko'zini o'n joyda bekitsalar, o'n birinchi joydan yana yorib chiqar ekanlar!*» Ushbu fikrlar kimga tegishli? J: **Xondamirga**

## **ERKIN VOHIDOV (1936)**

1. «Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharaflı vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing kerakligini sezish – bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon o'zimni olib qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab o'rganganman». Ushbu fikrlar qaysi ijodkorga tegishli? J: **E.Vohidovga**

2. E.Vohidov qaysi kitobining «Debocha»sida ishqiy kechinmalarni kuylash, ko'hna she'riy shakl – aruzga murojaat qilishni zamondan uzoqlashish deb hisoblovchilarga qarata: «Istadir sayr aylamoqni Men g'azal ba'stonida, Kulmangiz, ne bor senga deb Mir Alisher yanida», deb yozadi? J: **«Yoshlik devoni»**

3. «*Zarrani ijod etib, Dahshat balo bunyod etib, Oqibatni ya'q etib, Hayron o'zing, hayron o'zing*» misralarining muallifi? J: **E.Vohidov «Inson» she'rli**

4. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlarida yuz bergan jamiyatimiz hayoti, ma'naviyatidagi o'zgarishlar, odamlar ongidagi evrilishlar E.Vohidovning qaysi kitobida o'z aksini topgan? J: «*Yaxshidir achchiq haqlqat*»

5. «*Kechir, yanglismagan kim bor, mening ham ko'p gunohim bor. Odamzod asli nokomil, Kechir, yo rab, kechir, yo rab*» misralarining muallifi? J: **E.Vohidov**

6. «*Tanxing bitmakka, xalqim, Mingta ... kerak. Chunki bir bor chekkan ohing Mingta doston, o'zbegim*». Nuqtalar o'rniغا qo'yilishi lozim bo'lgan ismni toping. J: **Firdavsiy**

7. «*Menga Pushkin bir jahon-u, Menga ... bir jahon, Lek Navoiydek bobom bor, Ka'ksim osmon, o'zbegim*». Nuqtalar o'rniغا qo'yilishi lozim bo'lgan ismni toping.

J: **Bayron**

8. «*Xormisan yo gulmisan, Tojdormisan yo qulmisan, Chug'zmisan, bulbulmisan Nodon o'zing, xushxon o'zing*» misralari qaysi she'rdan olingan? J: «**Inson**» qasidasidan

9. «*Onaizoring – zamin, Tanho yo'g'-u boimg – zamin, Xasta bemoring – zamin, O'g'lon o'zing, darmon o'zing*» misralari qaysi she'rdan olingan?

J: **«Inson» qasidasidan**

10. «*Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg'on yomon. Ul shirin yolg'onga mendek Aldanib qolg'on yomon*» misralari qaysi she'rdan olingan?

J: «*Yaxshidir achchiq haqiqat*» she'ridan

11. «*O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin boshing kalla bo'lgani shudir. Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa, Qora soching malla bo'lgani shudir*» misralarining muallifi kim? J: **Erkin Vohidov**

12. «Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa, Paytavaning salsa bo'gani shudin» misralarining muallifi kim?

J: Erkin Vohidov

13. «O'lmas edi balki odamzod, Bo'lar edi dunyoga ustun. Aqli bo'lsa jahlidan ziyod, Sabri bo'lsa nalsidan ustun» misralarining muallifi kim? J: Erkin Vohidov

14. «Ish o'ldirmas, ishkoi o'ldirar, Jon zavoli yuz yoshmas, ko'z yosh. Inson nega dunyodan ketar Quvlab unga olmasalar tosh?!» misralarining muallifi kim? J: Erkin Vohidov

15. «Nega yapon yuz yil yashar-u, O'zbek buncha yoshga bormaydi? Chunki yapon bizdek qorong'u Sahar tunib oshga bormaydi» misralarining muallifi kim?

J: Erkin Vohidov

16. «Garchi bizdan yuz bor farovon, Garchi bizdan yuz karra lo'qdir. To'y xarjida yuzta boy yapon Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir» misralarining muallifi kim?

J: Erkin Vohidov

17. Qaysi ijodkor dargasaligi sababli shoir bo'lganligi haqida yozgan? J: Erkin Vohidov

18. «Ishchan azal tinmay yer choggan, O'g'ir tuygan, sovurgan somon. Yalqov o'ylab charxpalak topgan. Ijod qilgan shamol tegirmon» misralarining muallifi kim?

J: Erkin Vohidov

19. Qaysi ijodkor zamonaliv havo laynerida yuksak samoda parvoz qilayotgani uchun dargasalarga rahmat aytadi? J: Erkin Vohidov

20. Sergey Yeseninning «Ona ibodati», «It haqida doston», «Shahinam, o' mening Shaliinam» she'rlarini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan? J: Erkin Vohidov

## ABDULLA ORIPOV (1941)

1. Abdulla Oripovning 1-she'riy to'plami?

J: «Mittl yulduz»

2. Abdulla Oripovning dostonlari?

J: «Jannatga yo'l», «Hakim va ajal», «Ranjkom»

3. Abdulla Oripovning she'riy dramasi?

J: «Sohibqiron» (1996 – 1998)

4. Abdulla Oripov tarjimasi?

J: Dante Aligerlning «Illohiy komediya» asari

5. Abdulla Oripov qaysi she'rida uyida bir kecha mehmon bo'lgan insonga hatto ismini so'ramasdan ham mezbonlik qilgan o'zbek kishisi obrazi berilgan?

J: «Odamlar» she'rida

6. Abdulla Oripov qaysi she'rida bulutlarga yondosh, osman ostida qilichning damiday arqon ustida ko'zini yumib yurgan dorbozni olqishlab, ba'zi odamlarning katta yo'lda ham eplab yurolmasligidan afsuslanadi?

J: «Dorboz» she'rida

7. «Temir odam» she'ridan qanday xulosa chiqadi?

J: Temir kabi hissiz bo'lgan odamlarning inson deb atalishga noloylqligl, unday «jonli temir»larni uyg'otmoq kerakligi tasvirlanadi

8. «Tilla baliqcha» she'rida shoir nima uchun «Menga alam qilar tilla baliqcha Bir ko'lmak hovuz deb bilar dun-yoni», – deydi?

J: Umri tilla baliqcha kabi loyqa hovuzda, ya'nli chirkin muhitda o'lib, dunyoni shunday tasavvur qilgan kishining dunyoqarashi sayozligidan afsuslanadi

9. Abdulla Oripovning «Onajon» she'ri kimning xotirasi-  
ga bag'ishianadi? J: **Onasi Turdi Karvon qizl xotirasiga**

10. Qaysi shoir dunyoni va ma'nini bozorga o'xshatib,  
ikkisi ichra molim yomon, degan odamni uchratmaganidan  
hayratlanadi? J: **Abdulla Oripov**

11. «Genetika» she'rida shoir Iomirida qaysi ajdodlari  
qoni oqayotgan ekan, deb o'laydi?

J: **Bobo Kayfiy, Ulug'bek, Muqanna, Bobur**

12. «Ohu bolasi bu – ohuday boqqa, Shervachchada  
esa sheming shiddati» misralari qaysi she'r dan olingan?

J: **«Genetika» she'rida**

13. Abdulla Oripov «Genetika» she'rida yiroq avlodlar-  
ga bizlardan nima meros bo'lib qoladi deydi?

J: **Buyuk bardoshimiz**

14. «Uyg'onguvchi bog'larni kezdim, Topay dedim qir-  
dan izingni. Yonog'ingdan rang olgan dedim – Lolazorga  
burdim yuzimni, Uchratmadim amma o'zingni» misralari  
qaysi she'r dan olingan?

J: **«Sen bahorni sog'lnmadningmi?» she'r idan**

15. «Vasling menga bo'lindi nasib, Sensiz men ham,  
bahor ham g'arib» misralarlari qaysi she'r dan olingan?

J: **«Sen bahorni sog'lnmadningmi?» she'r idan**

16. «Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilka-  
laysan bag'rimni, ohang?» misralari qaysi she'r dan olin-  
gan? J: **«Munojot»ni tinglab» she'r idan**

17. «Munojot»ni tinglab» she'rida shoirga kuy emas,  
balki kimlar yig'layotgandek tuyuladi?

J: **Navoly, Hayyom**

18. «Gar shul eshitganim bo'tmasa ro'yo, Sen beshik

*emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, Dunyo!..» misralari qaysi she'rdan olingen?*

J: «**Munojot»ni tinglab» she'ridan**

19. «*Holbuki, orzulardan judo ham bo'lganim yo'q, Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q, Erta xazon gul kabi sarg'ayib so'lganim yo'q» misralari qaysi she'rdan olingen? J: «**Birinchi muhabbatim» she'ridan***

20. «*Birinchi muhabbatim» she'rining hajmi?*

J: **Har biri 5 misralik 6 band, 30 misra**

21. «*Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim. Sirli tushlar ko'rib men bor dunyoni unutdim» misralari qaysi she'rdan olingen? J: «**Birinchi muhabbatim» she'ridan***

22. Abdulla Oripovning qaysi she'rida nazmiy saroyni besh asrdan beri titratib kelayotgan. Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan olgan shoir Alisher Navoiy faxr bilan tilga olinadi? J: «**O'zbekiston» she'rida**

23. Qaysi she'nda Cho'ilpon ba'lib gulxan yoqqan, Ozbekdek doston yozgan, Habib Abdulla kabi sahrolarda kon ochgan xalq madh etiladi?

J: «**O'zbekiston» she'rida**

24. «*Sohibqiron» she'riy dramasida qatnashuvchilar: Amir Temur, Yildirim Boyazid, Bibixonim, Uljoy Turkon, Amir Husayn, Shayxulislom, Mir Said Baraka, Xonzodabegim, Barlos Bahodir, Kayxisrav, Ibn Arabshoh, Muhammad Qavchin, Devonbegi, Aloviddin, Hofiz Sheroyi, Yassaviy (Dervish, Xizr), Shitberger, Ioan Sultoniy, Xitoy elchisi, Ispanlya elchisi, Buqalamun, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Pirmuhammad, Qosimbek; amirlar, eshikbon, yasovul, choparlar, sartarosh, qariya va boshqalar.*

25. «Sohibqiron» dramasi qaysi voqeal bilan boshlana-di? J: **Amir Temurning soch oldirayotgani manzarasi bilan**

26. Amir Temurning xotini Uljay Turkonning akasi bo'lsa-da, singlisining eriga nisbatan hasadda bo'lgan shaxs? J: **Amir Husayn**

27. Amir Temur Loy jangida kimning xatosi tufayli qiyin ahvolda qoladi? J: **Amir Husaynning**

28. Amir Temur kimga qarata: «*Sening bobong Chingiz emas, hasaddin*», – deydi? J: **Amir Husaynaga**

29. Amir Husaynni kim otasining xuni uchun tutib, Amir Temurga keltirib beradi? J: **Kayxisrav**

30. Jadiy burji har sakkiz yuz yilda echki shaklida emas, kiyik shaklida ko'rindi. Shu paytda tug'ilganlar kimlar?

J: **Shoh Iskandar, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, Amlr Temur**

31. Amir Temur sarbadorlardan kimni o'sha paytdagi hukmdor Amir Husayn qatlidan omon saqlab qoladi?

J: **Mavlonozodani**

32. «*Alloh nimaniki xohlagan bo'lsa, uning irodasi bilan shu hukm o'qilgay*», – deb kim aytgan? J: **Shayxulislom**

33. «Munojotni tilinglab» she'rida qaysi shoirlar nomi til-ga olinadi? J: **Navoly va Umar Xayyom**

34. «O'zbekiston» she'rida: «*Ko'klamingdan olib sururni, Dovrug' soldi...*», – deya qaysi shoir ta'riflangan?

J: **Ustoz Olimjon**

35. «O'zbekiston» she'rida qaysi shoir «*tuygan g'urumi qilmoq mumkin dunyoga doston*» deyiladi?

J: **G'afur G'ulom**

36. «Jahonni mo'g'ullar istilosidan Qutqarib qololgan berlosiy batim, – deya kim ta'riflanadi? J: **Amir Temur**
37. Amir Temur: «Biroq yerga to'kilar payt qurt tushgan meva Uni asrab qololmagay sog'lom ildiz ham», – deganda kimni nazarda tutadi? J: **Amir Husaynni**
38. Amir Husaynni: «Balx shahrida saroy qurding kayfsafo uchun, Masjidlarning mablag'tarin sarf etding unga», – deya kim ayblaydi? J: **Mir Said Baraka**
39. Amir Husaynning kamoni sadog'ldan «Bu – Temur uchun» deb yozilgan o'qni kim topib oladi? J: **Kayxlsrav**
40. «Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun» fikrlari kimga tegishli? J: **Amir Temurga**
41. Amir Temurga qarata: «Siz amr eting – kemirgaymiz Ko'hi Qofni ham. Siz amr eting – simirgaymiz Bahr-u ummonni. Kuch olgaymiz shijoat-u himmatingizdan», – deya kim murojaat etadi? J: **Barlos Bahodir**

## MUSTAQIL MUTOLAA UCHUN O'ZBEK NASRIDAN NAMUNALAR

### O'LMAS UMARBEKOV. «SOVG'A» HIKOYASI

1. Shahodat xola, A'lobush, Qumri xola kabi qahramonlar qaysi hikoyada uchraydi? J: «Sovg'a» hikoyasida

2. «Sovg'a» hikoyasining mazmuni: «Shahodat xolaning o'g'li o'qishda o'qiydi. U har doim onasiga xat yozib turadi. O'g'li o'qishni bitirgandan keyin ham uyiga kelmaydi. Onasiga birinchi maoshidan 15 so'm pul jo'nataadi. Shahodat xola bu pulni qishloqdagilar eshitsin uchun pochtaga borib oladi. Bu yangilikni xolaning dugonalari A'lobush va Qumri xolalar ham eshitishadi. Shundan keyin o'g'lidan xat ham, hech qanday xabar ham kelmay qoladi. Shahodat xolaning Valijon ismli mактабда o'qiydиган qo'shnisi bor edi. Valijon ustozlarining topshirig'i bilan onasi va Shahodat xolani 8-mart bilan fabriklashi kerak edi. U xolaga sizga nima sovg'a qilsam bo'ladi, ayting, deya astoydil iltimos qiladi. Xola Valijondan o'g'liga xat yozib berishni so'raydi. Xat yozilib, pochtaga tashlanadi. Bir necha kundan so'ng o'g'lidan xat keladi. Bundan Shahodat xolaning boshi ko'kka yetadi. Pochtachi ham, Shahodat xola ham haqiqatni bilishmaydi. Chunki bu xatni o'g'lining nomidan Valijon yozgan edi».

3. Pochtachining ismi? J: **Qoravoy**

4. Shahodat xolaning kasbi? J: **Bog'chada tarbiyachi**

5. Xolaning o'g'lining ismi? J: **Adhamjon**

6. A'lobush xolaning o'g'lining ismi? J: **Sobirjon**

## SHUKUR XOLMIRZAYEV. «QARIYA» HIKOYASI

1. Qo'ziboy chol qaysi hikoya qahramoni?

J: «Qariya» hikoyasi

2. «Qariya» hikoyasining mazmuni: «Qo'ziboy cholning kasbi betayin. Bozor kunlarida jarchilik qilib, moli, qo'yil yo'qolgan kishilarga asqotardi. Biroq mol boqish kamaygandan so'ng Qo'ziboy chol ham o'ziga boshqa hunar topdi. Bozorda bozorni tozalab, supurib turgani uchun ham maosh oladi. Qo'ziboy chol oriq, oyoqlari chilcho'pdek. Yurganda boshini har tomonga burib, xuddi jarchilik qilayotgandek keskin-qaltis harakatlar qilib qadam tashlaydi. Kishilarga benihoya jiddiy nazar tashlaydi. Qo'ziboy chol ravoch sotadi, qishda olov solingan chelakni ko'tarib, sotuv-chilarni cho'g' bilan ta'minlaydi. Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kim yo'q. Farzandlari ham yo'q. To't yildan beri cholni o'llim vahimasi chulg'ay boshlagan. Shuning uchun bolalikdagi do'sti Qobil qassobga o'limtigimga deya ming so'm berib qo'ygan. Gohida chol qassobdan xabar olib turadi. Yaqinda misgar olamdan o'tadi. Qo'ziboy cholning ham yuragiga o'llim haqidagi g'ulg'ula tushadi. Bir necha kun kasal bo'lib yotib qoladi. Sekin-asta yurib qassob do'stining yoniga boradi va unga o'z vasiyatini ayta boshlaydi. Shunda Qobil qassob unga sendan hech qanday pul olganim yo'q, menga tuhmat qilma deydi. Qo'ziboy cholning bundan jahli chiqadi va ko'chaga chiqib, baland ovoz bilan «Eshitmadim demanglar! Qobil qassob past odam ekan. Men o'llimligim deb ming so'm berib qo'ygan edim, tandil! Xaloyiq! U pul sizlarning pulla-

ringiz edi. Mening halol mehnatim uchun so'mlab, tiyinlab bergan edingiz. Ana shu odamga berib, o'limimga yarat, deb edim... Tondi. Yeb ketdi endi... Odamlar, Qobil qassob haromxo'ri Odamning haqini yeydi bu... Xudodan tilagim shuki, o'ligi ko'chada qolsin, bekafan bo'lisin, xaloyiq... Meni bekafan qildi, odamlar!» deya qichqirdi. Oraga bozorkom qo'shildi. Lekin natija bo'lindi. Qobil qassob qutulib ketdi. Qo'ziboy qassob uyiga kelib, shu fikrga keldi: «Bu ahvolda men qandoq qilib o'laman? Asti mumkin emas, sirayam... Men yana mehnat qilishim kerak. Halol pul topishim kerak. O'limlik qilishim kerak... Undan keyin o'lsam, boshqa gap...» Shunday qilib, Qo'ziboy chol yashashga qaror qildi. Yana avvalgiday sog'ayib ketdi.

3. Hikoyadagi qahramonlar kimlar? J: **Qo'ziboy chol, Qobil qassob, Mirg'azi qassob, choyxonachi G'oziboy**

#### **TOHIR MALIK. «SHAYTANAT» QISSASINING 4-KITOBIDAN PARCHA.**

1. O'limi yaqinlashganini sezgan qariyaning o'z Nor tuyasidan rozi-rizolik so'rashi qaysi asarda bor?

J: «Shaytanat» asarida

2. Nor tuya qariyaning hamma nohaq harakatlarini kechirgani holda, qaysi harakatini kechira olmaydi?

J: Nor tuya arqonining bir uchinl eshakning dumla-  
ga bog'lab qo'yganini

3. Asadbek nima uchun o'zini o'sha Nor tuya holida ko'rdi? J: Xongirey uning burnidan ip o'tkazib, bir uchi-  
ni Kesakpalvonning qo'lliga tutqazgani uchun

4. «*Illohi, yomon af'olimdan parishonligim cho'qtur Va shum nafsimda pushaymonlik yo'qtur Mundoq balolardan qutularg'a umidim sendin o'qtur*». Navoiyning «Munojot» asaridan olingen bu parcha qaysi asarda uchraydi?

J: «**Shaytanat**» asarida

5. «*Bir kazzob o'zini payg'ambar deb e'lon qiladi. Uning yoniga bir ko'zi ko'r, ikkinchi ko'zi xira bo'lgan odam kelib, agar payg'ambar bo'lsang, ko'zimni ochib qo'y deydi. Kaz-zob «kuf-su» qiladi, natijada haligi odamning xira ko'zi ham ko'r bo'lib qoladi*». Ushbu rivoyat qaysi asardan olin-gan? J: «**Shaytanat**» asaridan

6. «*Xongirey o'llim raqsiga tusha boshladi. Endi uning qancha yashashini men hal qilaman*». Ushbu parcha kim-nинг nutqidan? J: **IIIkonin**

7. Asadbekni kimning qarg'ishi 20 yildan beri ta'qib qilib kelar edi? J: **Restoran xo'jayinining**

8. «*Odam o'lib ketaverar ekan-u, biroq uning qarg'ishi o'imay, yer yuzi bo'ylab o'ljasini ta'qib etib yuraverarkan*». Ush-bu parcha qaysi asarda uchraydi? J: «**Shaytanat**» asarida

### O'TKIR HOSHIMOV. «DUNYONING ISHLARI»

1. «*Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam si-ymosi bor*». Ushbu fikrlar kimga tegishli va qaysi asar haqid-a? J: **O'tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari» asari haqida**

2. Bir oyda ham eri, ham o'g'lidan qoraxat oigan baxtiqaro ayol obrazi qaysi hikoyada berilgan?

J: «**O'ris bolaning oyisi**» hikoyasida

3. «Xudoga shukur, bolaginam o'zidan ko'paydi. Olti nevaraning duosini olib o'tiribman.» Ushbu parcha qaysi qahramon nutqidan olingen? J: **Zebi xolaning**

4. «O'ris bolaning oyisi» hikoyasidagi o'qituvchi opaning ismi? J: **Risolat**

5. «Nima kamissiyang non yemaydimil Bolam bir kun kech olim bo'lsa bo'lar. Kamissiya keldi, deb tishining kirini so'rib o'tirsinmi?» Ushbu parcha qaysi qahramon nutqidan olingen? J: **Zebi xolaning**

6. «Yor yurgan ko'chalami supuray sochim bilan, Changi chiqsa, suv sepay ko'zdagi yoshim bilan». Ayol sadoqali to'g'risidagi bu qo'shiq qaysi hikoyada kim tomonidan aytilgan? J: «O'ris bolaning oyisi» hikoyasida **Zebi xola tomonidan**

7. «Jon bolam, jonim bolam, qaylardasan, bergil xabar, G'amda boshim, ko'zda yoshim, ichganim bo'ldi zehar». Farzandi dog'ida kuygan ona haqidagi qo'shiq qaysi hikoyada kim tomonidan aytilgan? J: «O'ris bolaning oysi» hikoyasida **Zebi xola tomonidan**

8. Zebi xolaning urushda halok bo'lgan o'g'lining ismi?

J: **Kimsan**

9. «Illiyo» hikoyasida o'g'il onasiga aytolmagan armonlarini qayerda aytib, yuragini bo'shatib oladi?

J: **Onasining qabrl ustida**

10. «Illiyo» hikoyasi qahramoni onasining nima to'g'risida aytgan cho'pchagini esga oladi? J: **Oftob haqida**

11. «Odamzod shunaqa ekan. Bola-chaqam derken, yelarkan-yugurarkan, endi og'zi oshga yetganda yiqlarkan». Ushbu fikr kimga tegishli? J: **Zebi xolaga**

12. «*Darhon arig'i bo'yidagi hovlisida yoz bo'yi rayhonlar barq urib yotardi*», – deya kimga ta'rif berilgan?

J: **Zebi xolaga**

13. «*Erkaklardek barvasta gavdali, qop-qora bu xotining yo'g'on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasi-ga tashlagancha etik kiyib g'oz yurishi ham boshqa ayol-larga o'xshamas, hatto qoramtlar siyrak mo'ylovi gacha bor edi*», – deya kimga ta'rif berilgan? J: **Zebi xolaga**

### MUROD MUHAMMAD DO'ST. «DASHT-U DALALARDA» HIKOYASI

1. O'zgalarning ichiqoraliq bilan aytgan so'ziga ishonib, xotini va qizini uyidan haydagan, lekin xotiniga bo'lgan muhabbatidan voz kecholmagan Polvon obrazl qaysi asarda uchraydi? J: «Dasht-u dalalarda» hikoyasida

2. Polvon xotini ketganidan so'ng iti bilan qayerda yashaydi? J: **Yerto'lada**

3. Polvonning itining nomi? J: **Qoratoy**

4. Qizining ismi? J: **Chaman**

5. Akasidan har kuni xabar olib turadigan singil kim?

J: **Adolat**

6. Polvon kim bilan birga podachilik qilar edi?

J: **Bir marta uylanib, yil o'tmay ajrashgan kamgap yigit Hasanboy bilan**

7. Polvonga xotiningga kuchingni ko'rsatib tur, ya'ni uni urib tur deya aql o'rgatgan, hatto erkak odam nomus qiladigan narsalargacha olib kelib sofadiqan «saqlch» laqabli kishi kim? J: **Salim**

8. Salim saqichning xotini? J: **Mahpirat**
9. Polvonni aldar undan xotini to'g'risida taloq olmoq-chi bo'lgan, Polvonning xotinini O'rol ismli odamga mo'ljalagan qahramon kim? J: **Nazar Maxsum**
10. Hadichaning ukasi, Polvonni uch o'tog'i bilan rosa urib, tephkilagan personaj? J: **Sattorqul**
11. Hadicha qaysi qishloqdan edi? J: **Sho'rquduqdan**
12. Polvon qaysi qishloqdan edi? J: **Galatepadan**

### TOG'AY MUROD. «OT KISHNAGAN OQSHOM» QISSASI

1. Oldiniga kal deganlardan ranjigan, keyin esa kal demaganlardan ranjigan Ziyodulla kal qaysi asar qahramoni? J: «**Ot kishnagan oqshom» qissasi**
2. Ziyodulla kalni kim doim o'rtoq Qurbonov deb chaqirar edi? J: **Pochtachl**
3. Beshinchisinfni zo'rg'a tugatgan, diplom so'ramaydigan turli ishlarda ishlagan, qorovul, go'lah, oxiri podachilik qilgan, adirlarda nay chalgan, nafasi yetmay qolgandan so'ng do'mbira chalishga o'tgan qahramon?
- J: **Ziyodulla kal**
4. Bozorda choyxona oldidagi ur-sur to'polonni zo'rtomosha bo'ldi deya zavqlanib tomosha qilgan, bir odamning uch kishi tomonidan o'lsasi qilib savalanishiga bee'libor bo'lgan odamlardan nafratlangan Ziyodulla kal qaysi asar qahramoni?
- J: «**Ot kishnagan oqshom» qissasi**
5. Ziyodulla kal otining ismi? J: **Tarlon**

6. Bozorda mayizzning narxi osmonda ekanligini aytib, Ziyodulla kalni mayiz sotishga undagan hamsoyasi?

J: **Qulmat polvon**

7. Bozordagi to'polonni ko'rib, bu bizning uchastka emas, deya unl tomosha qilgan melisalar, hammayog'i qonga belangan odamni olib ketmay, biz vizovga chiqqanmiz, boshqa tez yordam mashinasini chaqirinqlar, deya o'z yo'liga jo'nagan shifokorlarning beparvoligidan hayratga tushgan Ziyodulla kal qaysi asar qahramoni?

J: «**Ot kishnagan oqshom» qissasi**

8. Ziyodulla kal kimning janozasida qatnashgani uchun guvohlik berishga shaharga bora olmaydi?

J: **Dono momonling**

9. «*Xususan, ikki vaqt elning yonida bo'ling. Biri – to'yida. Elning to'yini belingizni besh joyidan boylab xizmat qilib, o'ynab-kulib, xush-xushvaqt o'tkazib bering. To'y ka'pniki, ha. Yana biri – azasida. Yig'lab-siqtab elning qayg'usiga shenik bo'ling. Odam shu ikki vaqtida odamligini bildiradi.*» Ushbu parcha kimning nutqidan olingan? J: **Ziyodulla kalning**

10. «*Rixsiyev aka, odam it emas, oyog'idan sudrab borib, chuqurga tashlab kela bergani. Odam o'z nomi bilan odam. Odamdan ulug' janzot bormi.*» Ushbu parcha kimning nutqidan olingan? J: **Ziyodulla kalning**

11. Kamplrlarning o'limini mahalliy gap, e'tiborga molik emas, deb bilgan, tobutning yonida to'rt kishi borsa yetarli, undan ortig'i ortiqqlik qiliadi, deb o'ylaydigan personaj kim?

J: **Rixslyev**

12. Qulog'ining og'irligini bahona qilib haqiqatni aytishdan qutulib qolgan choyxonachi kim? J: **Sattorov**

13. Har bir gapida «shu-shu» deb turadigan, familiyasi ham «Shu»dan boshlangan baliqchi? J: **Shukurov**

14. «O'zimizday odam. Faqir bir momo. Umri kolxoza ishlab o'tdi. Qarigan chog'ida magazinda qorovul bo'ldi. Na qizi bor, na ulti, bechorahol momo edi. Yig'laydiganlariyam bo'lindi. O'zimiz momomlab, xolamlab yig'lab jo'natdik. El ko'mdi». Ushbu parcha kim haqida?

J: **Dono momo haqida**

15. «Eron shohi Pahlaviy yashirin buyruq berib bir kinoteatrni yoqib yuboribdi. Ichida besh yuz inson bor ekan. Aha, tragediya deb buni aytadi». Ushbu fikr kimga tegishli?

J: **Rixsiyevga**

16. «Odamning katta-kichigi bo'lmaydi. Bariyam odam. Bir odam yaxshimi-yomonmi bir umr yashadi. Endi qaytmas bo'lib ketyapti. Odam qaytmas bo'lib ketayotganda, bormagan odam odammi?» Ushbu fikr kimga tegishli?

J: **Ziyodulla kalga**

17. Kapitanga: «Xalq bir kishidan boshlanadi. Shu! Men xalqning bittasiman, baqirmang», – degan personaj kim? J: **Shukurov – ballqchi**

### XURSHID DO'STMUHAMMAD. «BEOZOR QUSHNING QARG'ISHI» HIKOYASI

1. Qaldirg'ochlarning uyasini buzishni gunohi azim deb bilsa-da, erining uyalarni buzishiga monelik qilolmagan mushtipar ayol obrazi qaysi hikoyada berilgan?

J: **«Beozor qushlarning qarg'ishi» hikoyasida**

2. Qaldirg'ochlar uyasining eri tomonidan buzilgani

uchun yaqinda to'yi bo'lgan qizi Zulfiyaning ro'zg'ori buzilib, uyga qaytishini oldindan bashorat qilgan ayol qaysi hikoya qahramoni?

J: «Beozor qushlarning qarg'ishi» hikoyasi

3. «Beozor qushlarning qarg'ishi» hikoyasi qahramonlarini toping. J: Qadriya, Fozilbek, Qadriyaning akasi Umid, opasi Zulfiya

4. Sotayotgan sut-qatig'iga o'xshab butun badani, qalbi ham oq bo'lgan Qadriya ismli juvon qaysi hikoya qahramoni? J: «Beozor qushlarning qarg'ishi» hikoyasi

5. «Qalding'ochlar bexosiyat joylarga uy qurmaydi». Bu fikr kimga tegishli? J: Qadriyaga

6. «Biznikiga qalding'ochlar sira uya qurmagan», deb armon bilan o'kingan qaymoq sotuvchi yigit kim?

J: Fozilbek .

### ERKIN A'ZAMOV. «KO'K ESHIK» HIKOYASI

1. Erkin A'zamovning «Ko'k eshik» hikoyasida kimlarning hayoti tasvirlanadi? J: Ijarada turuvchi talabalarning

2. Gazeta-jurnallami o'qishga mukkasidan ketgan, akasi haydar chiqargani uchun qo'shni xolaning uyida ijara turuvchi «musofir» laqabini olgan qahramon kim?

J: Bo'rliboy aka

3. Yagona o'g'li daydi chiqqan, onasiga qarashmay, xabar ham olmay qo'ygan; harbiydan qaytgach, bir beva ayolga uylanib, allaqayerlarda yashayotgan o'g'ilning mushtipar onasi bo'l mish kampir qaysi hikoya qahramoni?

J: «Ko'k eshik» hikoyasining

4. Talabalar nima uchun yangi topilgan hamma sharoitga ega bo'lgan uyda yashay olmadilar? J: Chunki uning xo'jayini injiq adam bo'lib, hatto Hamid Ismli talabaning mo'ylovi yoqmaganligi uchun uni oldirib tashlashga majbur qiladi

5. Bolalar uchun «saroy»dek bo'lib qolgan uyning eshi-gi qanday rangda edi? J: Ko'k rangda

## XAYRIDDIN SULTONOV. «YO, JAMSHID» HIKOYASI

1. «Yo, Jamshid» hikoyasi nima haqida?

J: Qimorda katta miqdorda pul yutqizib qo'ygan bo'lsa-da, yana oshiqni qo'lliga olib, «Yo, Jamshid» deya o'yinni boshlagan O'rinboy haqida

2. Hikoyaning qahramonlari kimlar? J: O'rinboy – qimorga mukkasidan ketgan yigit, Islomboy – uning akasi, Anzirat – O'rinboyning xotini, Salomat – uning xolası, bozorda sotuvchilik qiladi; Zarif nayza, Orif baqliroq – amakilari

3. O'rinboy qimorda necha so'm yutqizib qo'yadi?

J: 20 ming so'm

4. O'rinboy qimor pulini to'lash uchun qanday yo'l tutmoqchi bo'ladi?

J: Otasidan qolgan hovlini satmoqchi bo'ladi

5. Amaki va ammasi O'rinboyga qaysi shart bilan pul berishadi? J: Qimor o'ynashni to'xtatish sharti bilan

6. Islomboy nima uchun ukasiga yordam bera olmaydi?

J: Bir so'm pulni ham xotinidan so'rab olgani uchun

7. Umr bo'yи boshi sajdaga yetmagan yigitning devor

ortida yomon ish bilan shug'ullanayotgan ikki kishining aybini yopish maqsadida devor tirqishini suvab qo'ygani uchun jannatga tushganligi haqidagi rivoyat qaysi hikoyada uchraydi? J: «Yo, Jamshid» hikoyasida

8. «O'ynagan bo'lsa, ajab qipti! Xo'p qipti! Buniyam erkak o'ynaydi, qani, xotin o'ynab ko'rsin-chil», – deya xotiniidan qorrqan jiyani Islomboyga kim zug'um qiladi?

J: Salomat amma

### SHOYIM BO'TAYEV. «NIZOMIDDIN AL-YOG'LY» TARIXIY HIKOYASI

1. Qaysi asarda o'n yillardan buyon mamlakatma-mamlakat kezib, odamni hasharot deb o'ylovchi, faqat uni yuksaltiruvchi nimadir bor, deya shu narsani izlab yuruvchi sayyoh obrazi bor?

J: «Nizomiddin al-Yog'ly» hikoyasida

2. O'n ikki mamlakat ustalari tomonidan o'n ikki ustun qilib yasalgan masjidda kim imom vazifasini o'taydi?

J: Darveshlar darveshl, shayxlar shayxl Nizomiddin al-Yog'ly

3. Sultan Tarmashirindan chopar kelganda shayx qanday yo'l tutadi?

J: Chopar sultondan faqat shayxga xabar keltirganini aytganida u bu yerda yig'ilgan hamma mening o'zim, deb javob beradi. Sultanning namozga kechishi sababli unl kutib turlsh mumkin emasligini aytadi: «Sohibqironi a'zam, ulug' podshohimiz sulton Aloudin Tarmashirin hazrati oliylariga chopar janoblari yet-

**kazsinlarki, vaqt shunday hakamdirki, uning qarshisida shoh-u gado barobardir. Biz uchun eng ulug'i Allohlimiz buyurganidirl», – deya namozni boshlaydi**

4. «*Ularning badanlarida hamma a'zolar mujassam edi – yurak bor edi, miya bor edi, qorin-da juda-juda bor edi; faqat, ruh yo'q edi, ruh yo'q edi – egasi tashlab ketgan lashlandiq hovliday huvillab yotishardi*». Ushbu ta'rif kimlar haqida? J: **Sultonning a'yoni – amaldorlari haqida**

5. «*Tildan bol-u, qo'lidan qon oqqan zolimlar bu dun-yoning eng jirkanch maxluqlaridir*». Ushbu fikrlar kimning nutqidan? J: **Nizomiddin al-Yog'iy**

6. Ellik yil muqaddam hech kimdan sovg'a olmaslikka qasam ichgan, hatto ustidagi yamoq lo'ni ham o'ziniki bo'limgan shayx kim? J: **Nizomiddin al-Yog'iy**

7. Shayxning buyukligidan hayratga tushgan, Tarmashirin sulton yurtida ellik kun mehmon bo'lgan sayyoh kim edi? J: **Ibn Batuta**

8. Sultan Tarmashirin sayyohga nima sovg'a qiladi?

J: **Ikki ot va ikki tuya hamda suvsar mo'ynali oq po'stin**

9. Sayyohga sulton Tarmashirin qanday so'zlamli aytadi?

J: «*Bizning yurtimiz haqida so'raganlarga aytинг, у yerda sultonining taklifini ham rad qila oladigan qudratli odamlar bor ekan. Ular у odamlarning qudrati nelmada ekan, deb so'rashsa, halolliklari va tantiliklarida ekan, deb aytинг. Shularni aystsangiz, bizning buyukligimiz va kuchimiz haqida xalqlarning o'zları xulosa chiqarib olaverishadi*»

## NAZAR ESHONQUL. «MAYMUN YETAKLAGAN ODAM» HIKOYASI

1. »Maymun yetaklagan odam» hikoyasining bosh qahramoni kim? J: **Rassom chol**

2. Rassomning 1921-yilda chizgan surati nima uchun yigitni hayratga solgandi?

J: Unda ko'zlarida o'ziga Ishonch balqib turgan yigiting quyuq o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgani aks etgandi. Maymun yetaklagan yigitning ko'zlaridagi ishonch har qanday odamni o'ziga tortar edi

3. Rassomning suratida nechanchi yillardan boshlab mavhumlik va qora bo'yog orta boradi? J: 30-yillardan

4. Rassom cholning nechta farzandi bor edi?

J: Bitta o'g'li bo'lib, u ham kissavurlik, keylnchalik odam o'ldirganlikda ayblanib qamalib chiqqan, otasini ahyon-ahyonda yo'qlar, shunda ham undan pul berishni so'rab, janjallashar edi

5. «Ha, to'g'ri, biz tushunarsiz yashadik, har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong'u bo'lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o'zimiz aybdormiz», — degan fikrlari kimga tegishli? J: **Rassom cholga**

6. Huvillab qolgan qishloqlar, egalari tashlab ketgan ular, o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'llim isi kelib turgan har xil qurollar, yig'layolgan ayollar va bolalar, biyday dala-ni bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar kabi suratlar qaysi hikoyada bor? J: **«Maymun yetaklagan odam» hikoyasida**

7. «Bu hayolda nima yaxshilik-u, nima yomonlik ekanligini hech qachon farqlab bo'lmaydi. Yaxshilik ayni paytda

*kimilargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimilargadir yaxshilik ba'lib tuyutadi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?*

**J: Rassom cholga**

8. «E'liqod! Agar bir umr e'liqod qo'yib, shunga ishanib, kurashib, yonib-kuyib yashasangiz-u, bir kun e'liqod qa'ygan narsangiz puch, yolg'on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig'ingan narsalar asli razolat ekanligini anglab qolsangiz, shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan, xuddi yo'ldan chiqib ketgan shaldir-shuldur, bo'm-bo'sh aravaga aylanardi». Ushbu fikrlar kimga tegishli? **J: Rassom cholga**

9. Rassom chol yigit ovqat olib kirganda nimanidir chizish bilan band edi. Uning o'llimidan keyin bu suratni ko'rib u yanada hayratlanadi. Chunki unda nima tasvirlangan edi? **J: Yuz-ko'zidan umidsizlik balqib turgan cholni maymun quyuq o'rmonga yetaklab kirib ketayotgan edi?**

10. Hayoti va ijodida kirish va chiqish vazifasini o'tovchi surat mavjud bo'lgan rassom obrazi qaysi hikoyada bor?

**J: «Maymun yetaklagan odam» hikoyasida**

## **NORMUROD NORQOBILOV. «OLIM O'G'IL» HIKOYASI**

1. «Olim o'g'il» hikoyasining qahramonlari? **J: Shayman chol, O'roq chol, Qudrat chol, Qodir chol, Haydar ko'sa, Uzoq guppli, Qobil shapka, Sardor magazlnchi**

2. Shayman chalning qaysi o'g'li olim bo'ladi?

**J: O'rtanchasi**

3. Qaysi soha bo'yylcha olim edi?

**J: Osmon jismlarini o'rganadigan olim**

4. Shayman cholning o'g'li olim bo'lganini eshitgandan so'ng kim qizining qalinini ham oshiradi? J: Haydar ko'sa

5. Shayman cholni qishloqdag'i chollar qanday e'zozlashadi? J: Uni olimning otasiga xos og'ir va bosiq bo'lishga, bundan mag'rurlanishga chaqiradi

6. Shayman chol olim bo'lganlarda pul ko'p, deb o'yaldi. O'g'lining bir oyda olgan pulli bitta qo'y olishga ham yetmasligini eshitib, o'zini qanday tutadi?

J: Jahli chiqqanidan piyolalarni urlb sindiradi, sendan anavi Qobil shapka yaxshi, tayog'ini bir silkitsa, uyiga somon-u xashak oqib keladi deydi

7. «Agar hamma o'zini tirikchilikka qurban qilaversa, buyuk kashfiyotlarni kim qiladi. Tiriklikni har kim har xil tu-shunadi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

**J: Shayman cholning olim o'g'liga**

8. Shayman cholning olim o'g'li olgan bilimi bu dargohda satiq chaqalik qimmatga ega emasligini qachon anglaydi? J: Otasinling uni so'kib ketib qolganida va Qobil shapkaning somon yuklangan mashina yonida gerda-yib ketayotganini ko'rganida

## MUSTAQIL MUTOLAA UCHUN O'ZBEK SHE'RIYATIDAN NAMUNALAR

### OYDIN HOJIYEVA

«Ona tilimga aliyor» she'si: «Og'zimdagi novvotim, Boshimdag'i minnatim, Bobokalonlarimdan Meros ulug' davlatim!»

«Istiqlo'l tarixing imtihanidir» she'ri: «Torgina guzarlar, pastqam rastalar G'ala-g'ovur bozor, ketmas xayoldan: Qorin tashvishida qo'lli bastalar O'sib chiqaverar har bir savoldan».

### HALIMA XUDOYBERDIYEVA

«Dorilaman kunlar keldi» she'ri: «Onaginam! Dorilaman kunlar keldi, shafaqlari ol, Qayon boqsang, shaylanishlar va so'zlashlar tor. Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol, Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor».

«Uyg'on» so'zin aylgach» she'ri: «Tarix dashtlarini goho quyuq qor yopgan, Bo'lsa hamki ayon bo'lgan kimlar ne chekdi? Besh qilichday teragini bir bolta chopgan, mening mahzun onaginam, holing nechukdir?»

### OMON MATJON

«Navoiy g'azaliga muxammas»: «Charx avzoyi bu dam, avvalg'ilarg'a o'xshamas, Kotib-u davr-u raqam, avvalg'ilarg'a o'xshamas, Endi inson qadri ham, avvalg'ilarg'a o'xshamas, Ko'nglum ichra dard-u g'am, avvalg'ilarg'a o'xshamas Kim, ul oyning hajri ham, avvalg'ilarg'a o'xshamas».

«Ikki qal'a» she'ri: «Xivada qal'a bor qal'a ichinda, Biri – Ichon qal'a, biri – Dishon. Mashhurdir birining nomi ochunda, Biri nurab benazar, beshon».

«Shoir bo'lmoqchiman debsan» she'ri: «Shoir bo'lmoqchiman debsan xatingda, She'riyat sirlarin o'rgating debsan. Sen go'yo chaqmoqqand tutib otingga, Borsa qaytmas yo'lni ko'zlab turibsan».

## **USMON AZIM**

«Baxshiyona» turkumidan» she'ri: «Elbek baxshi, bu dunyoning o'tarin ayt. Bu dunyoga umr kelib-ketarin ayt. Manov bizning pahlavonlar ko'krak kerib. Maydon kirsa, falakni ham yiqrin ayt».

«Qush» she'ri: «Qachondir, Bir paytlar, qushlik kezimda, Tuzoqqa tushganim ayon esimda. Tiriklik ko'yida holim edi tang. Arang qo'nar edim, Uchardim arang. Tuzoqqa tushdim!»

## **SHAVKAT RAHMON**

«Baxt so'zi» she'ri: «Baxtiyorman degan birgina so'zni aytish uchun kerak qancha kuch, chidam, garchi baxt so'zlarning eng yoqimligi, garchi tursa hamki tilning uchida. Og'ir botmasmikan bu so'z kimgadir. G'am so'zin elidan avvalroq aytidim, Baxt so'zin aytaman eldan keyinroq».

«Vatan tuyg'usi» she'ri: «Hali biror ishni uddalamadim, hali hech kimsani qilmadim rozi, behuda o'tibdi go'zal umming qanchalab chiroyli bahori, yozi».

«Qarsak nima o'zi?» she'ri: «Qarsak nima o'zi? Ikkita kaftning orasidan portlab chiqadigan sas».

«O'git» she'ri: «Qo'rqeqlaring ko'ziga tik qara doim, biror so'z demasdan uzoqroq qara, titroq yetib borsin nigohlaridandan yuzlab ajdodlarning jon-joni qadar».

«Hirgoyi» she'ri: «Hammamiz quyoshda kuygan jizzamiz, qachon tiz cho'kuvdik, hamon izzamliz, sirqirab og'riydi pishgan tizzamiz, o'rindan ozgina tursak maylimi?»

## AZIM SUYUN

«Ustod va shogird» hikoyali: Bu she'nda bir ustozning shogirdiga qirqta hunarni o'rgatgani, shogirdining hammadan zo'rman deya havolanib, hatto uzozi bilan kurash tushishga jazm etgani bayon etiladi. Ustoz esa shogirdini unga o'rgatmagan 41-usul bilan yiqitadi. Chunki u bu usulni nomard shogirdlar uchun saqlab qo'ygan edi.

«Unutilgan tillar» she'ri: «Shumer tilimisiz, yo so'g'd, yo yunon, Akkad, bobil, kushan, misr tili yo Va yoki sanskrit, kxmer tili yo?.. Qaysi til bo'l mangiz siz... Sizni beomon Unutgan, unutgan, unutgan dunyol»

## XURSHID DAVRON

«Ota qabri» she'ri: Bu she'nda bir ota o'llimidan oldin o'g'illariga kim merosxo'r ekanligini bilmogchi bo'l salar, qozining oldiga borishlarini ta'kidlaydi. O'g'illar qozining oldiga borishadi. Qozi esa bir g'orda yashayotgan donishmand cholning yoniga jo'nataladi. Donishmand ularga kim otasining qabrini buzib kelsa, keyin merosxo'rni aytaman, deydi. Ikki katta o'g'illar ota qabrini buzib, tezroq merosxo'r kim ekanligini aniqlashga shoshiladilar. Kenja o'g'il bo'lsa qo'lda qilich bilan ularni bu yo'ldan qaytaradi. Shunda donishmand merosxo'r otasining qabri buzilishidan saqlagan o'g'ildir deydi. Demakki, kim ota qabrini buzilishidan saqlasa, yurtining ham toptalishdan saqlay oladi.

## YO'L DOSH ESHBEK

«Ona duosi» she'ri: «Safar qilsang oq yo'l, bolam, omon yur, Razildan qoch va oqillar tomon yur, ukalaring

sag'intirmay kelib tur, Hech bo'lmasa ikki enlik xat bit,  
bolam».

«Qo'shchi qo'shig'i» she'ri: «Qo'sh hayda-yu, qo'sh  
hayda, Haydamasang, non qayda, Irodangni qattiq qil,  
Lekin yerni bo'sh hayda».

**ONA TILI VA ADABIYOT**  
**Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik**  
**(Abdurozlq Rafiyev, Nazira G'ulomova)**

**«RUSTAMXON» DOSTONI**

1. «Rustamxon» dostoni qaysi baxshidan yozib olingan? J: 1937-yilda Fozil Yo'ldosh o'g'lidan Xodi Zarif yozib olgan

2. Yoshi qaytib, soqoli oqarganda farzand ko'rgan Sultanxon ismli podsho qaysi doston qahramoni?

J: «Rustamxon»

3. «Dunyoda «bir qo'rqqan yomon, bir quvongan yomon» – degan gap bor. Men shu yerda yursam, sen bir kun tug'ib, men quvongandan yuragim yorilib o'lib qolarman. Quridim mamlakatiga safar qilayin. O'n to'tl yilda borib kelarman, oldima suyunchi deb chiqqan kishiga ayasdan tilla-tanga berarman, balki qo'rg'onbiy qilarman», – deb kim farzandi tug'ilishidan oldin mamlakatni tashlab chiqib ketgan? J: Sultanxon

4. Huroyimning kanizi kim? J: Ximcha

5. «...tillari bulbulcha, kimki yaxshi desa, shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o'zi suluv oyimcha», – deya ta'riflangan qahramon kim? J: Ximcha

6. Huroyimning nechta kundoshi bor edi? J: Ikkita

7. Huroyimning kanizlari Maston kampirga uni va o'g'lini yo'q qilish uchun qancha tilla berishadi? J: Bir qop tilla

8. «Rustamxon» dostonida: «Botmon nosvoyni to't bo'llib otar edi, yurish-lurishi odamlarga xatar edi, ne er yi-

gitlarni uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo'lsa, izlab yetar edi», – deya ta'riflangan qahramon? J: **Momogul maston**

9. Rustamxon qaysi mamlakatning shahzodasi?

J: **Oqtoshning**

10. Rustamning onasi? J: **Huroyim**

11. Maston kampir Huroyimni yo'q qilish uchun qanday hiyla o'ylab topadi? J: **Huroyim ustidan fitna-g'iypat to'la arznama yozdiradi, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlata-di va Sultonxonga olib boradi**

12. Sultanxon g'azabga minib Huroyimga qarshi qanday jazo qo'llashni buyuradi?

J: **Huroyimni shahardan haydab, dorga osishni**

13. Huroyimga kim yordam beradi? J: **O'g'il Rustamxon**

14. «Adashganning aldi yo'l» maqoli kim tomonidan aytilgan? J: **Rustamxon tomonidan**

15. Onasini qoldirib, o'zi zarur anjomlar topish uchun yo'lga tushgan Rustamxon tog' bag'rida qanday o'tovga duch keldi?

J: **Yolg'iz o'tov ichida bir qiz turar, qo'lli bog'log'liq, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib, otdan y!qilib qolguday**

16. Bu ga'zal qiz nima uchun o'tovga tashlab ketilgandi? J: **Chunki ularning shahrida birlajdar paydo bo'lgan, har kuni birlajdan soliq solgan, shu kun uning navbatini kelgan edi**

17. Ajdar yashaydigan ko'Ining nomi? J: **Charxinko'l**

18. Ajdarni o'ldirgan Rustamxonga kimning qizini olib berishadi va qaysi yuriga podsho qilib ko'tarishadi?

J: **Oftoboyimni, Bujul shahriga**

19. Rustamxon qancha vaqt Bujul shahriga podsho bo'lib turadi? J: Uch kun podsholik qilib yana onasi yoniga qaytadi

20. Oqlosh mamlakatidagi kundoshilar Huroyim va uning o'g'li tirikligini bilgandan so'ng yana Maston kampirni ishga solishadi. Maston kampir bu safar qanday yo'l tutadi?

J: Bahra tog'iga kelib Oqrabotga kiradi. Huroyimi ni zindonband qilib, uning qiyofasiga kiradi va dev yordami bilan Rustamxonni o'ldirmoqchi bo'ladi

21. Qizil dev nirma uchun Rustamxonni emas, kampirning o'zini o'ldiradi? J: Shunday yigit kampirning o'g'li emasligiga aqli yetadi va Rustamxonni qutqaradi

22. Rustamxon onasi va xotini bilan qaysi tog'da baxtli yashay boshlaydi? J: Bahra tog'ida

23. Rustamxon va Huroyim haqidagi haqiqatni bilgan Sultonxon qanday yo'l tutadi? J: O'z gunohini yuvish uchun qalandar qiyofasiga kirib, qirq qalandarga qo'shillib o'g'li va xotinini qldiradi

24. Sultonxon o'g'li va xotinini topib yurti Oqloshga borgandan so'ng ikki kundoshga qanday jazo qo'llaydi?

J: O'limga buyuradi

## AVESTO

1. «Avesto» necha qismdan iborat? J: 4 qismdan:  
1. Gohlari (Zardushtning qo'shiqlari) – Zardusht she'rlari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar; 2. Yashtilar – maxsus ohanglar asosida ijro etiladigan qo'shiqlar;  
3. Vendidod – devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonun-

lar majmuasi, turli mavzulardagi asarlardan parchalar;

**4. Visparad – ibodat matnlari va yo'sinlari.**

2. «Avesto» asarini o'zbek tiliga kim o'girgan?

J: **Asqar Mahkam**

3. Qaysi asar Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining miloddan bir necha asr oldingi tarixi, geografiyasi, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, maktab, madrasa, xususiy ta'llim tarixini o'rganishda qimmatli manba? J: **«Avesta»**

4. Kim dunyo tarixida dinni mazhab, sehr-u jodudan, zohiriyl u dum va marosimlarni ko'r-ko'rona bajarishdan, mavhumlik va xurofotdan xalos qilgan buyuk shaxs sifatida e'tirof etiladi? J: **Zardusht**

5. Qaysi manbada boshdan oyoq yolg'on va rost orasida bahs davom etib, yaxshi so'z, yaxshi ish, yaxshi xulqning tantanasi tasvirlanadi? J: **«Avestoda»**

6. Qaysi manbada bug'doy yerga ekilgach Aximan bezovta bo'ladi, bug'doy o'sib boshoq bog'lagach dev nola qiladi, bug'doy xirmonga to'plangach dev o'kirib yig'laydi va bug'doy un qilib non yopilgach dev toqat qilolmay jon beradi deb yozilgan? J: **«Avestoda»**

7. Qaysi podshoh Tangri buyrug'i bilan qattiq sovuqlarda odamlarni asrash uchun yer ostida ham shahar qurdirgan?

J: **Jamshid**

8. Zardushtiylik dinining ramzi nima? J: **Olov**

9. «Avesto» yozma holatga qachon keltirilgan?

J: **Pahlaviy xatl zamonida**

10. Qaysi dinda so'z yaxshi fikr va ezgu amal ifodasi hisoblangan? J: **Zardushtiylikda**

11. Kimlar uchun haqiqat, qudrat va tinchlik lantana qilgan hayot go'zal hisoblangan? J: **Zardushtiyalar uchun**

12. «Avesto»da ashavan, ya'ni rostgo'y kishining o'limidan so'ng qilgan yaxshiliklari nima ko'rinishida namoyon bo'ladi? J: **Go'zal qiz shaklida**

13. «Avesto»da ashavanning o'lgandan keyingi hayoti qaysi fargard (qismida)da tasvirlanadi? J: **Ikkinchi**

14. «Avesto»da durvand (qabih niyatli) kimsaning amallari o'lgandan so'ng qanday shaklda namoyon bo'ladi?

J: **Tuban, xunuk, chirkin bir ayol qiyofasida**

15. Aroxtar so'zining ma'nosi? J: **Do'zax**

16. «Men suyumli edim, sen meni suyumlairoq qilding. Go'zal edim, sen meni go'zalroq qilding. Dilbar edim, sen meni dilbarroq qilding», — deya go'zal qiz kimga murojaat qiladi? J: **Hayotligida g'oyat ezgu fikrli, g'oyat ezgu so'zli, g'oyat ezgu amallি, oqila va eriga itoatkor ashavan ayol va ashavan yigitga**

### O'RUXUN-ENASOY OBIDALARI

1. Turk xoqonligiga kimlar asos solgan?

J: **Ashinning o'g'li Bumin va Istimin**

2. Turkiy xalqlarning qatl'iyatsizligi tufayli Turk xoqoni qaysi davlatga bo'ysundirilgan?

J: **Tabg'ach (Xitoy) davlatiga**

3. Ikkinchi Turk xoqonligiga kim asos solgan?

J: **Eltarish xoqon**

4. Qaysi asarda To'nyuquq haqida: «To'nyuquq turk zodagonlarning Tabg'ach imperatori saroyida garov

sifatida ushlab turilgan o'g'illaridan biri edi. Bundaylarga ular xitoycha nom berar, xitoycha o'qitar va xitoyparastlik ruhida tarbiya qilar edilar», – degan ma'lumot keltiriladi?

J: «Turk xoqonligi» asarida

5. «To'nyuquq» so'zining xitoycha nomi nima va u qanday ma'noni bildiradi?

J: «Yuanchjen» – To'ng'ich javhar

6. «Turk xoqonligi» asari muallifi kim? J: N.Rahmonov

7. «Yupqa yig'in tor-mor qilishga oson emish, ingicha ylg'in uzishga oson emish», «G'am o'z uyingda» kabi maqollar qaysi bitiktoshda uchraydi?

J: To'nyuquq bitiktoshida

8. Bitiktoshlarda keltirilgan «Inju o'g'uz» qaysi daryoning qadimiy nomi? J: Sirdaryoning

9. Qaysi qahramon Xitoya tutqunlikda, zindonlarda yotadi, keyinchalik imperator saroyida ishonch qozonadi va Xitoy imperiyasiga qarshi bosh ko'targan Qutlug' tomoniga o'tib uning maslahatchisiga aylanadi? J: To'nyuquq

10. Qaysi bitiktoshda: «Turk xalqi o'zining xoni bilan bo'lmay, Tabg'ach xoqonligiga qo'shildi, xonlik bo'ldi. O'z xonini qo'yib, yana Tabg'ach xoqonligiga qo'shildi. Tangri shunday degan ekan: Xon berdim. Xoningni qo'yib taslim bo'lding. Tabg'achga taslim bo'lgani uchun tangri «o'l» degan shekilli, turk xalq o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi», – degan satrlar bor? J: To'nyuquq bitigida

11. Qaysi sarkarda bo'yla bag'a tarxon unvoniga ega bo'lgan? J: To'nyuquq

12. Turk xalqi jangda Shantung shahrigacha nechta shaharni yengib o'ziga bo'ysundiradi? J: 23 ta

13. Eltarish xoqon bilan birga Tabg'achga qarshi 17 marta, Qitanilarga qarshi 7 marta, O'g'uzga qarshi 5 marta urishgan sarkarda kim?

J: **To'nyuquq**

14. «Eltarish xoqonga, Turk Bo'gu xoqonga, Turk Bilga xoqonga xizmat qildim, tun uxlamay, kunduz o'tirmay, qizil qonimni tugatib, qaro terim yogurtib mehnatni, kuchimni berdim». Ushbu parcha qaysi bitikdan olingan?

J: **To'nyuquq bitigidan**

### **IMOM ISMOIL AL-BUXORIY (810 – 870)**

1. «Hadis ilmida amir al-mominin» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan muhaddis kim?

J: **Imom Ismoil al-Buxorly**

2. Hadisi sharifda aytishicha, Rasululloh: «Xor bo'lsin, xor bo'lsin, xor bo'lsin!», – deb o'n marta takrorlaydilar. U kishidan «xor bo'lsin deb kimlarni aytayapsiz» deb so'raganlarida nima deb javob beradilar?

J: **«Ota-onasining ikkalasi yoxud bittalari keksayib qolgan vaqtida (ularni) o'zinl do'zaxga tushishga mutbalo qilgan kishi»**

3. Mavarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plagan muhaddis kim edi?

J: **Imom Abdulloh Ibn Muborak al-Marvaziy**

4. Al-Buxoriygacha Mavarounnahrda nechta olim hadis ilmi bilan shug'ullangan? J: 10 ta

5. Imom Buxorlynning «Al-Jami' as-sahlh» kitobi necha jiddan iborat? J: 4 jiddan

6. Imam Buxoriy qaysi muhaddis bilan qizg'in bahs-munozaralar olib borgan? J: **At-Termiziy bilan**

7. Abu Hurayra aytadilar: «Rasululloh: «Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musafirning duosi, ota-onaning duosi», – deganlar».

### AHMAD YASSAVIY

1. «Haqiqat qalbda, qalb esa Olochning mulkidir» satrlari kimning asaridan olingan? J: **Ahmad Yassaviy**

2. «Butun olam bilan ruhan uyg'unlashish – oly saodat. Saodat ma'rifat nurlari bilan ong va ruhni tiniqlashtirishdir» satrlari kimning asaridan olingan? J: **Ahmad Yassaviy**

3. O'z asarlarini bir o'rinda orif nomidan, ikkinchi bir shaklda oshiq tilidan, uchinchi bir holatda shayx da'vati tarzida, yana bir o'rinda donishmand g'oyalari sifatida talqin qilgan shoir kim?

J: **Ahmad Yassavly**

4. Payg'ambarimiz o'z sahabalari bilan suhbatlashib, xurmo yeb o'tirganlarida ularga qarata: «Qay biringiz mana bu omonatimni kelgusri izdoshlarimga yetkazgaysiz?», – deb so'raydilar. Bu omonatni u kishidan kim qabul qilib olib, uzoq umr ko'rib, uni Ahmad Yassaviyga yetkazadi?

J: **Arslonbob**

5. Ahmad Yassaviy necha yoshida birinchi ma'naviy ustozи Arslonbob bilan uchrashadi? J: **Yetti yoshida**

6. Yassaviy kimdan ilm olib komillik martabasiga ko'tariladi? J: **Yusuf Hamadonlydan**

7. Yassaviy asos solgan yassaviya tariqatining boshqa tariqatlardan farqi nimada? J: Ilk marta turkiy tilda talqlin qilinganligi, islam dini va uning muqaddas klobi Qur'onni baland rutbada tutgan, fors tilidagi tasavvuf tajribalaridan foydalangan, turkiy axloq, e'tiqod va ishonchni aks ettirganl bilan farq qiladi

8. Qaysi asarda shariat (islom dini qonun-qoidalari va urf odatlari), tariqat (tasavvuf maslagi), ma'rifat (ishqi ilohiy), haqiqat (Olloch va unga erishmoq) targ'ib qilinadi?

J: «Devoni hikmat»da

9. «Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay, din uyi ni g'orat qilib ado qilg'ay, O'lar vaqtida imoningdan judo qilg'ay, Oqil ersang, nafsi baddin bo'lgin bezor» misralarining muallifini toping. J: Ahmad Yassavy

10. «Ketganlarni ka'rib, sen ham ibrat olg'il, Ibrat olsang, yotmisht yering bo'mish gulzor» misralari muallifi kim? J: Ahmad Yassavy

### NAJMIDDIN KUBRO (1145 – 1221)

1. «Muazzam Sharqning ilm-u donishi, ma'naviya-tini qancha ko'p va xo'b o'zlashtirsak, fikrimiz shuncha ravshan, ruhimiz shuncha bardam bo'ladi», – degan so'zlari kim tomonidan aytilgan? J: Najmuddin Kubro tomonidan

2. Qaysi shoirni «valiytarosh»(valiylar yetishtiruvchi), «tum matul kubro»(«balo-qazolarning oldini oluvchi, buyuk bashoratchi»), «abuljannob» («parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi») kabi laqablariga ega?

J: Najmuddin Kubro

3. «Ushq dardi g'arib tanimdag'i jon bo'lgay, dard cheksa kishi, axiyri inson bo'lgay» misralari muallifi kim?

J: **Najmiddin Kubro**

4. «Bir dev bor ichimda, asti pinhon bo'lmas, Boshini egmak oning oson bo'lmas» misralari muallifi kim?

J: **Najmiddin Kubro**

5. «Alarg'a kubra ondin laqab bo'ldiki, har kim bila munozara va mubohasa qilsalar ermish, ul kishi g'olib ba'lurlar ermish». Najmiddin Kubro haqidagi ushbu fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?

J: **Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asaridan**

6. Najmiddin Kubro mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishini oldindan bilgan. Sharqdan fitna olov kelayapti, enda yurtingizga boring deya shogirdlarini o'z yurtiga ketishga da'vat qiladi. Shogirdlari, ustoz, duo qiling, bu xavf o'tib ketsin deganlarida buni duo bilan o'tkazib yuborish mumkin emas deb javob beradilar. Unda siz ham biz bilan yuring deyishganida yo'q, men jangda shahid bo'laman, menga ruxsat yo'q deb aytadilar. Ushbu ma'lumot kimning qaysi asaridan olingan?

J: **Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» asaridan**

7. Qaysi olim kishi ruhiyati, ruhiy xislatlarini chuqur tahlil qilgan holda insonning nozik holatlarini, ruhiy kechimalarini puxta o'rgangach inson ruhi ko'zga ko'tinmas, latif markazlardan iborat ekanini kashf etgan, ya'ni «latoyif nazariyasi»ni ishlab chiqqan? J: **Najmiddin Kubro**

8. Najmiddin Kubroning asarlarini toping.

J: **«Al-usul al-sharshara», «Risolayi Najmiddin»**

## JALOLIDDIN RUMIY (1207 – 1273)

1. Qaysi asarning yagona nizomi erkinlik, fikr, ruh erkinligi, holat-kayfiyat erkinligidir? J: «**Masnavly**»
2. «Ayo g'uncha, qizil qonlar aro sen o'zni tark etding, Ayon etgil nadir sevgi, nadir ul o'zni tark etmoq!» misralari muallifi kim? J: **Jaloliddin Rumly**
3. Jaloliddin Rumiy she'rilarini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan? J: **Jamol Kamol**
4. Jaloliddin Rumiyning Devoni kabir (Ulug' devon) kitobida qancha she'r mavjud?  
J: **Uch mingdan ziyor**
5. «Masnaviy» asari necha misradan iborat?  
J: **O'ttiz bir mingdan ziyor**
6. Qaysi shoirning qo'liga qalam olib yozganli atigi o'n sakkiz misra bo'lib, qolganlari «kotibi asror»lar tomonidan ko'chada, uyda, majlisi samoda yozib olinaverган?  
J: **Jaloliddin Rumly**
7. Rumiyning qaysi asari asosida o'nlab to'plamlar, arab, fors, turk tillarida yuzlab jild tahlil va talqinlar bitilgan?  
J: «**Masnavly**»
8. Rumiy «Ichingdagi ichingdadur» asarida qaysi asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalarni ravshan va sodda shaklda tushuntirib bergen?  
J: «**Masnavlyda**
9. «Jonim berayin, ol uni, jondin kechma, Dildan kechayin, ol, u jahondin kechma. Sen o'qsen-u, men esam kamonmen hanuz, Ey o'q, sabr ayla, kamondin kechma» misralari muallifi kim? J: **Jaloliddin Rumly**

10. «Oy ketdi balandlab, biz esa past bo'ldik, Yor hushiga keldi, biz esa mast bo'ldik. Ey jon-u jahon, so'ngra nelar bo'lganini Sen so'ylama, chun har neki bo'llmas, bo'ldik» misralari muallifi kim? J: Jaloliddin Rumly

11. «Sendanmu chu bezor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q! Bir boshqasiga yor bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q! Ta bog'i visoldinga faqat gul ko'rдim, Guldin kechibon xer bo'layin? Yo'q, yo'q, yo'q!» misralari muallifi kim? J: Jaloliddin Rumly

12. «Ey oy, agar samoda porloq nursen, Yorim yuzicha ravshan emas, benursen. Ey nargis, agarchi toza-yu maxmursen, Yorim ko'zicha xumor emas, ma'zursten» misralari muallifi kim? J: Jaloliddin Rumly

### ALISHER NAVOIY (1441 – 1501)

1. Navoly necha yoshida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi? J: 18 – 19 yoshlarida

2. Navoiy qachon Samarqandga o'qishga keladi?  
J: 1466-yilda

3. Navoiy necha yoshida otasidan yetim qoladi va Abul-qosim Bobur xizmatiga kiradi? J: 12 yoshida (1455-yil)

4. Samarqandda Navoiy kimdan saboq oladi?  
J: Xoja Fazlulloh Abulaysdan

5. Navoiyga Samarqandda kim o'z homiyligiga olib, moddiy va ma'naviy yordam beradi? J: Samarqand hokimi Vafoiy taxallus bilan she'rlar yozuvchi Ahmad Hojibek

6. Navoiyning «Hiloliya» qasidasi qanday munosabat bilan yozilgan? J: Husayn Boyqaronning taxtga chiqishi munosabati bilan

7. Navoiy qanday bino va inshootlar qurilishida homiylik qilgan? J: «Ixlosiya» madrasasi, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoliya» tabobatxonasi, Jome' masjidi, «Dorul-huffoz» (qiroatxona) va rabotlar qurdirgan, kanallar qazdirgan

8. Navoiy har yili qancha beva-bechoraga kiyim-kechak, oziq-ovqat ulashib turgan? J: **Ikki mingga yaqin**

9. Navoiyning she'riy devonlari qachon tuzilgan?

J: – Birinchil she'riy devoni: «**Badoye ul-bidoya**» – 1472 – 1476-yillar;

– Ikkinchil she'riy devoni: «**Navodir un-nihoya**» – 1486-yil;

– O'zbek tilida yozgan hamma she'rlarini yaxlit bir devon qilishga 1491 – 1492-yillarda kirishib, uning ustidagi ish 1498 – 1499-yillarda davom etgan. U to'rt qismdan Iborat, har qaysisi tugal bir devon edi. Nomi: «**Xazoyin ul-maonly**» (Ma'nolar xazinasi)

10. Navoiyning tarixga doir asarlari qaysilar?

J: «**Tarixi muluki Ajam**», «**Tarixi anbilo va hukamo**»

11. «**Majolis un-nafois**» tazkirasi qachon yaratilgan?

J: **1491-yilda**

12. Adabiyot nazariyasiga oid «**Mezon ul-avzon**» risolasi qachon yaratilgan? J: **1492-yilda**

13. «**Nasoyim ul-muhabbat**» asari qachon yaratilgan?

J: **1495 – 1496-yillarda**

14. «**Muhokamat ul-lug'atayn**» asari qachon yaratilgan? J: **1499-yilda**

15. «**Lison ut-tayr**» dostoni qachon yaratilgan?

J: **1498 – 1499-yillarda**

16. «Mahbub ul-qulub» asari qachon yaratilgan?

J: 1500-yilda

17. «Xamsa» asari qachon yaratilgan?

J: 1472 – 1476-yillarda

18. «Qabila boshlig'i tangriga ko'p yolvorib istagan umidiga yetdi, ya'nini uning maqsadi farzand edi, xudo unga voris edi... U vorisgina emas, ishq ahlining murod qabila-sidir. Ishqning tug'ilishi bir bashariy qatradan ekan, o'sha modda ma'no sadafining ishq gavharidir». Ushbu parchada kim ta'riflanmoqda? J: Qays

19. Qays mактабга боргандаги Layli нима учун мактабга бормаганди? J: Kasal bo'lgани учун

20. «Kiprik saflari qora balodek, qora ko'zlari ustidagi soyaning qorasi kabi. Soya ham emas, balki to'rt qator saf tortgan surmarang kiyangan zangi qo'shinlaridir». Ushbu parchada qaysi go'zal ta'riflanmoqda? J: Layli

### JAHON OTIN UVAYSIY (1789 – 1850)

1. «Ruhing uzra ikki gisuyi shabranging tutoshibdur Ki, bir ganj ustida go'yo iki ajdar taloshibdur» misralari muallifi kim? J: Uvaysiy

2. Uvaysiuning otasi qanday taxallus bilan she'rlar yozgan? J: Hofiz laqabi bilan

3. Onasi kim bo'lgan? J: Onasi Chinnibibl mактабдоринин bo'lib, qizlarni o'qitgan

4. «Qolganda menga o'zni chunon ayladi jallod, Lutfini raqiblarga ayon ayladi jallod» misralari muallifi kim?

J: Uvaysiy

5. «Ul na gumbazdir eshigi, tuynugidin yo'q nishon, Necha gulgunpo'sh qizlar anda aylabdur makon. Sindurib gumbazni qizlar holdin olsam xabar, Yuzlariga parda tor-tig'liq turariar, bag'ri qon» chistonining javobini toping.

J: Anor

### HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY (1889 – 1929)

1. Hamza o'zining pedagogik faoliyatini nimadan boshladi? J: 1910-yilda Toshkentda Qashqar mahallasida maktab ochib bolalarni o'qitishdan boshladi

2. Yana qayerlarda maktablar ochdi? J: 1911-yilda Qo'qonda, 1914-yilda Marg'ilonda ochdi

3. Hamzaning 1914 – 1915-yillarda yaratilgan darsliklari qaysilar? J: «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi», «Yengil adabiyot»

4. Hamzaning komediyalarini toping. J: «Feruzaxonim», «Ilm hidoyati», «Loshman fojiasi»

5. «...Buning kabi bid'at va majusiyat odatlарини yo'q qilmak uchun yolg'iz ikki kalima so'zni yaxshi tushunmoq lazim: o'qimoq va o'qitmoq» kabi fikrlar kimga tegishli?

J: Hamzaga

6. Hamza o'zining qaysi dramalari bilan tragediya va komediya janriga asos soldi?

J: «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari», «Istibdod qurbanlari», «Maysaraning ishlari»

7. Hamzaning qaysi asari o'zbek adabiyotida yaratilgan ilk realistik asar hisoblanadi?

J: «Boy ila xizmatchi» dramasi

8. «Boy ila xizmatchi» dramasi qachon yozilgan?

J: 1918-yilda yozilgan va o'sha yill o'zl tomonidan sahnaga qo'yilgan

9. G'ofirni kim yoshligidan o'g'li qatori bo'lib qolgani uchun uylantirib, keyin uning xotini Jamilaga ko'zi tushib, qo'sha-qo'sha xotinlari borligiga qaramay uylanadi?

J: Solihboy

10. Begunoh G'ofir qayerga surgun qilinadi? J: Sibirga

11. Jamila onasining ismi? J: Rahima xola

12. «Boy ila xizmatchi» dramasi qahramonlarini sanang. J: G'ofir, Jamilla, Solihboy, Xolmat, Hojl ona, Poshshaoyim, Xonzoda, Gulbahor, Qodirqul, Rahima xola, Oyxon, Sifat buvi

13. Dramadagi mingboshining ismi? J: Qodirqul

14. Solihboyning xotinlari kimlar?

J: Poshshaoyim, Xonzoda, Gulbahor

15. Jamilaga boy ni o'ldirish uchun kim zahar beradi?

J: Xonzoda

16. «Qanday yaxshi bo'ldi-yal Zaharli ilon chuchuk tillarini qaltiratib menga marhamat qildi, marhamat!» Jamilaning ushbu fikri kim haqida? J: Xonzoda haqida

17. Xonzoda nima uchun Jamilaga yordam beradi?

J: Chunki u boy ni o'ldirlib, unday qutulmoqchi bo'ladi va Jamilaga merosga egalik qilmaslikni buyuradi

18. Boy Jamillari olish uchun amaldorlarga juda ko'p pul sarflaydi. Uning aytishicha, bitta hokim to'raning o'ziga qancha pul ketgandi? J: Ikki ming so'lkavoy

## ERKIN VOHIDOV (1936)

